

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI
BUXGALTERIYA HISOBI VA STATISTIKA KAFEDRASI**

**“MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL
RIVOJLANTIRISH VA YUQORI O'SISH
SUR'ATLARINI TA'MINLASH:
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi
5-may 2023-yil**

**Республиканская научно-практическая
конференция на тему**

**«ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСКОРЕННОГО
РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ
ЭКОНОМИКИ И ВЫСОКИХ ТЕМПОВ
РОСТА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ»
5 май 2023 год**

Бухоро

“Миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш: муаммолар ва ечимлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференциясининг

Дастурий қўмита таркиби:

Ф.И.О.	Илмий даражаси ва унвони	Лавозими
О.Х.Хамидов	и.ф.д., проф.	Ректор
Т.Ҳ.Расулов	ф-м.ф.доктори (DSc), проф.	Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор
Б.Н.Наврўз-Зода	и.ф.д., проф.	Маркетинг ва менежмент кафедраси профессори
А.Т.Жўраев	и.ф.н.доц.	Халқаро ҳамкорлик бўйича проректор
Д.Ш.Явмутов	и.ф.н.доц.	Иқтисодиёт ва туризм факультети декани
Н.С.Ибрагимов	и.ф.д., доц.	Туризм ва меҳмонхона хўжалиги кафедраси
А.Ж.Абдуллаев	и.ф.ф.д. (PhD), проф.	Иқтисодиёт кафедраси мудири
З.С.Нуров	и.ф.ф.д. (PhD), доц.	Таълим сифатини назорат қилиш бўлими бошлиғи

Ташкилий қўмита таркиби:

Ф.И.О.	Илмий даражаси ва унвони	Лавозими
Т.Ҳ.Расулов	ф-м.ф.доктори (DSc), проф.	Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор
Д.Ш.Явмутов	и.ф.н.доц.	Иқтисодиёт ва туризм факультети декани
Ю.У.Суннатов	и.ф.ф.д. (PhD)	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси мудири
Н.Ҳ.Кулиев	и.ф.н.доц.	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси доценти
Б.С.Исомов	и.ф.ф.д. (PhD), доц.	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси доценти
С.О.Хомидов	и.ф.ф.д. (PhD), доц.	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси доценти
А.А.Қодиров	и.ф.ф.д. (PhD)	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси в.б. доценти
М.Ҳ.Ўроқова	-доцент	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси доценти
А.У.Курбонов	-	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси ўқитувчиси
М.С.Арипова	-	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси ўқитувчиси
Ш.Б.Маликова	-	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси ўқитувчиси

Масъул муҳаррир: Б.С. Исомов Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси доценти

Kirish so'zi

Buxoro davlat universiteti rektori i.f.d., professor Obidjon Xafizovich
Xamidovning tabrik so'zi.

Assalomu aleykum hurmatli mehmonlar va anjuman qatnashchilari!

“Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyaga xush kelibsizlar. Ushbu anjuman 2019 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019 yil 13 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Prezident Farmonlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga oid ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni ko‘zda tutadi. Ushbu anjumanning maqsadi 2022-2026 yillar davomida O‘zbekistonda respublikasi milliy iqtisodiyoti, shu jumladan, turizmni sohasini barqaror rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash, amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, mamlakatimizda iqtisodiyot sohasida yuzaga kelgan holatni o‘rganish, bu sohani barqaror rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash, moliyaviy tizimni reanimasiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish, O‘zbekistonning investitsion muhit jozibadorligini oshirish yo‘llarini aniqlash, ishlab chiqarish va moliya-bank tizimida xususiylashtirish amalga oshirish hamda turizmning innovasion va smart shakllarini joriy qilish evaziga mamlakat iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish yo‘llarini aniqlash kabi dolzarb muammolarning yechimiga bag‘ishlangan. Yangi O‘zbekiston rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida turizmni iqtisodiyotning yetakchi sohalaridan biriga aylantirish belgilangan bo‘lib, ushbu anjumanda ko‘riladigan masalalar ushbu vazifalarni amalga oshirishga muyyan darajada xizmat qiladi. Halqaro anjumanni tashkil qilishdan quyidagi natijalar kutilmoqda: 2022-2026 yillarda mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini kengaytirish, barqaror rivojlanishini ta‘minlash va uning raqobatbardoshligini oshirish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish hamda sohaga innovasion boshqaruv usullarini joriy qilish va o‘zaro manfaatli raqobat muhitini yaratishga qaratilgan 80 ga yaqin ilmiy ma‘ruzalar respublikamizning turli oliy ta‘lim muassasalaridan kelib tushgan bo‘lib, bu hol anjumanning yuqori nufuzidan dalolat beradi. Anjuman tashkilotchilariga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman va uni yuqori darajada o‘tkazishlariga omad tilab qolaman!

**I SHO‘BA.
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI
TA‘MINLASH VA INVESTITSIYA MUHITINI
YANADA YAXSHILASHNING USTUVOR
YO‘NALISHLARI.**

MILLIY VA GLOBAL IQTISODIYOTNI O'SISHINI TA'MINLOVCHI OMILLAR VA MUAMMOLARI

O.X.Xamidov - Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d.

Milliy iqtisodiyotning iqtisodiy o'sishini ta'minlash muammosi doimo har qanday davlatning iqtisodiy siyosati markazida bo'lib kelgan. Rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar uchun iqtisodiy rivojlanish omillarini o'rganish muammosi bugungi kunda dolzarb bo'lib, ularning milliy iqtisodiyot rivojiga ta'sir qilish xarakterini tashqi va ichki omillarni asosiy xususiyatlarini e'tiborga olishni taqozo etadi. Milliy iqtisodiyotimizning rivojlanish omillarini o'rganish, iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatish istiqbollari, uning jahon iqtisodiyotidagi roli va o'rnini, raqobatbardoshligini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni, iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Aholi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. O'zbekistonning doimiy aholisi soni 2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, 35 million 271,3 ming kishini tashkil etib, o'tgan 2021 yilga nisbatan 712,4 ming kishiga yoki 2,1 foizga ko'paygan. Jumladan, shahar aholisi soni 17 million 918,3 ming kishini, qishloq aholisi soni esa 17 million 353 ming kishini tashkil etgan.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga mamlakatimizda o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan aholining umr ko'rish davomiyligi ham ta'sir qiladi. Demografik vaziyatni yaxshilash uchun iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy va boshqa shart-sharoitlarni yaratish zarur. Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni — 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda «daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar» qatoriga kirish uchun zamin yaratish ko'zda tutilgan.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning moddiy-texnik bazasini asosiy fondlar tashkil etadi, ularning qiymati 2022 yilda qariyb 705,0 trillion so'ni tashkil etdi, bu 2021 yilga nisbatan 29,9% ga ko'pdir. Albatta, asosiy vositalar miqdorining o'sishiga investitsiyalar jalb qilinishi bevosita ta'sir qiladi. Bundan tashqari, iqtisodiyot moddiy-texnik bazasini yaratish ma'lum shart-sharoitlarni yaratish orqali erishiladi. Ularning eng muhim omili davlatning asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalari, shuningdek, iqtisodiyotga jalb qilingan moliyaviy institutlar va tadbirkorlik subyektlarining faol investitsion faoliyatidir.



Manba: O'zbekiston respublikasi raqamlarda (2018-2022 yillar)

Davlat budjetidan, 2022 yilda ajratilgan investitsiyalar miqdori 20,9 trilion so'mni, tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 2,5 trilion so'mni, davlat tomonidan kafolatlangan xorijiy investitsiyalar 15,2 trilion so'mni, korxonalarining o'z mablag'lari 84,5 trilion so'mni, aholi mablag'lari 25,8 trilion so'mni, to'gridan-tog'ri xorijiy investitsiyalar 37,0 trilion so'mni, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarzarlar 21,1 trilion so'mni, davlat tomonidan kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar 60 trilion so'mni tashkil etdi,

Iqtisodiyotning har qanday turiga investitsiyalarni amalga oshirish bir qator shartlarni talab qiladi, ularning asosiylari:

- investitsiya resurslari vazifasini bajaruvchi investitsiyalar uchun yetarli darajada jamg'armalar darajasining mavjudligi;

- investitsiya qilingan mablag‘larning saqlanishi va/yoki ko‘payishini ta‘minlaydigan real va yoki moliyaviy aktivlar ko‘rinishidagi investitsiya ob‘ektlarining mavjudligi;
- investitsiyalarni amalga oshirishga qodir xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlarning faoliyati;
- iqtisodiy tizimda jamg‘armalarni (potensial investitsiyalar sifatida) investitsiyalarga aylantirishni ta‘minlaydigan institutlarning mavjudligi.

Bundan tashqari, ta‘lim tizimi ham milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini ta‘minlashga ta‘sir etuvchi muhim omillardan biridir. Davlat mutanosib siyosat olib borishi, xalq xo‘jaligi ehtiyojlariga mos kadrlar tayyorlashi muhimligi hammamizga ma‘lum. Shuningdek, O‘zbekiston respublikasida mavjud ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish va uni jahon standartlariga uyg‘unlashtirish, ta‘lim muassasalarini zamonaviy kompyuter texnikasi va global tarmoqqa ulangan internet bilan jihozlash, ilmiy xodimlarni moliyalashtirish va mehnatga haq to‘lash darajasini oshirishga e‘tibor qaratish lozim. Shu bilan birgalikda, pedagogik kadrlar, mutaxassislar tayyorlashga davlat buyurtmasini shakllantirish metodikasini takomillashtirish kerak. Yangi O‘zbekiston strategiyasida 2026 yilgacha nodavlat oliy ta‘lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga yetkazish ko‘zda tutilganligi ijobiy natijalarga erishishning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligining asosini tashkil etuvchi tabiiy resurslarning sezilarli turlariga boy. Tabiiy resurslar, yani, yer, o‘rmon, suv resurslari, foydali qazilmalar va boshqalarning mavjudligi, ulardan unumli foydalanishni talab qiladi. Hozirgi kunda, respublikamizda 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma‘dan namoyon bo‘lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral - hom ashyo turlarini o‘z ichiga oladi. Shundan 60 dan ortig‘i ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo‘lib, ularning tasdiqlangan zaxiralari 970 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiy mineral - xom ashyo potentsial 3,3 trillion AQSh dollaridan ortiq baholanayotganini ham qayd etish maqsadga muvofiqdir. {1}

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalarining xo‘jalik faoliyatida atrof-muhit sharoitlarining ishlab chiqarish jarayonlariga, foydali qazilmalar va boshqa tabiiy resurslardan, er va suv resurslaridan, havo havosidan, tabiiy o‘simlik va hayvonot dunyosidan foydalanishga ta‘sirini aks ettiruvchi ekologik omil alohida ahamiyatga ega. «O‘zbekiston o‘z yer osti boyliklari bilan xaqli suratda faxrlanadi bu yerda mashhur Mendeleev davriy sistemasining barcha elementlari topilgan. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma‘dan namoyon bo‘lgan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral - hom ashyo turlarini o‘z ichiga oladi. Shundan 60 dan ortig‘i ishlab chiqarishga jalb etilgan. 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo‘lib, ularning tasdiqlangan zaxiralari 970 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Shu bilan birga, umumiy mineral - xom ashyo potentsial 3,3 trillion AQSh dollaridan ortiq baholanayotganini ham aytib o‘tish kerak. {2}

G‘oyat muhim strategik manbalar - neft va gaz kondensanti, tabiiy gaz bo‘yicha 155 ta istiqbolli kon, qimmatbaho metallar bo‘yicha - 40 dan ortiq, rangli, nodir radioaktiv metallar bo‘yicha 40, konchilik - kimyo xom ashyosi bo‘yicha 15 ta kon qidirib topilgan».

O‘zbekiston quvvati katta, tabiiy manbalari xilma-xil turlarga va ulkan zahiralarga ega bo‘lgan yoqilg‘i energetika sanoatiga ega. Respublika yoqilg‘i balansida neftning salmog‘i sal kam 10 foizni, tabiiy gaz salmog‘i - 85 foizdan ortiqni, ko‘mirning salmog‘i salkam 5 foizni tashkil etadi. {3}

So‘nggi o‘n yilliklarda iqtisodiy o‘sishga tabiiy resurslarning global darajada kamayib ketishi salbiy ta‘sir ko‘rsatayapti. Ekologik keskinlikning kuchayishi, iqtisodiyotning yanada rivojlanishi xavfini anglash ko‘plab mamlakatlarni tabiiy omillarni hisobga olishni majbur qilmoqda. Shu munosabat bilan atrof-muhitni muhofaza qilish tushunchasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu kontseptsiya doirasida ba‘zi mamlakatlar atrof-muhitni barqarorlashtirishga erishdilar, ammo sifat jihatidan yaxshilanish kuzatilmadi, chunki mintaqaviy iqtisodiyot kontseptsiyasiga nisbatan ekologik va iqtisodiy rivojlanishning umumiy mafkurasi o‘zgarmadi.

Tabiiy resurslardan unumli foydalanishni qo‘llab-quvvatlash va ekotizim xizmatlarining barqaror oqimini ta‘minlash tabiiy resurslardan samarali foydalanishni yanada takomillashtirishni, shuningdek, ushbu foydalanishga turtki bo‘lgan ishlab chiqarish va iste‘mol shakllarini o‘zgartirishni talab qiladi. Tabiiy resurslarni boshqarishga kompleks yondashuvlar faoliyatning hududiy taqsimlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini va ularning ta‘sirini hisobga olishi kerak. Shu nuqtai nazardan, uzoq muddatli rejalashtirish va landshaftni boshqarish iqtisodiy faoliyatning, ayniqsa transport, energetika, qishloq xo‘jaligi va sanoat ishlab chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lgan atrof-muhitga ta‘sirini turli jamoalar, mintaqalar va mamlakatlar o‘rtasida muvozanatli taqsimlashga yordam berishi mumkin.

Madaniy an‘analar, din, mulk institutlari, ekologik va iqtisodiy siyosatni tanlashga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Bularning barchasi har bir mamlakatda uning umumiy tamoyillarini saqlab qolgan holda barqaror rivojlanish turini shaxsga aylantiradi.

Hozirgi bozor modeli muhim kamchilikka ega va bu kamchilik jahon iqtisodiyotida resurslarining noto'g'ri taqsimlanishida namoyon bo'lmoqda. Buning asosiy sababi, investitsiyalarning asosiy qismi qazib olish sanoati, ko'chmas mulkni yaratishga sarflanishidir.

Ko'p mamlakatlarda, qayta tiklanadigan energiya manbalari, resurslardan tejamkor texnologiyalar, qishloq xo'jaligi, hayotiy resurslarni (tuproq, suv) muhofaza qilish sarmoya uchun ustuvor yo'nalish emas. Natijada jismoniy, moliyaviy va inson kapitalining uzoq muddatli to'planishi va faol harakati sodir bo'ladi, shu bilan birga tabiiy resurslar va tabiiy ekotizimlar imkoniyatlarining kamayishi kuzatilmoqda. Ushbu nomutanosiblik "an'anaviy" bozor modeli tabiiy kapitalning almashtirib bo'lmaydigan zaxiralarining haqiqiy qiymatini va ular bajaradigan va ular uchun asos bo'lib xizmat qiladigan ekotizim tovarlari va xizmatlari oqimini hisobga olmasligi bilan izohlanmoqda. Natijada salbiy ekologik va ijtimoiy omillar paydo bo'ladi, ya'ni, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy faoliyatidan jamiyat zimmasiga yuklanadigan yirik miqdordagi xarajatlar paydo bo'lmoqda. Shu sababli, tabiiy kapital va ekotizim xizmatlari barqaror rivojlanishning muhim tarkibiy qismidir.

Barqaror rivojlanishga o'tish, rivojlanishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tizimiga ekologik omilni kiritish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Qarorlarni qabul qilishda ekologik omilni etarlicha baholamaslik, asosan, tabiiy kapital va atrof-muhitning degradatsiyasini aks ettiruvchi an'anaviy rivojlanish ko'rsatkichlarining yo'qligi bilan bog'liq. Ushbu sohada mavjud bo'lgan an'anaviy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (yalpi ichki mahsulot, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va boshqalar) atrof-muhitning buzilishini hisobga olmaydi. Mamlakatda ushbu ko'rsatkichlarning o'sishi texnogen xarakterli intensiv rivojlanishga asoslangan bo'lib, bu kelajakda tabiiy resurslarning tugashi va atrof-muhitning ifloslanishi sharoitida iqtisodiy ko'rsatkichlarning keskin yomonlashishi ehtimolini yaratadi.

Ekologik omil iqtisodiyotni yangilash, modernizatsiya qilish va texnologik yangilashning tobora muhim ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda. Yangi iqtisodiy model mutaanosib rivojlanish ko'rsatkichlarini talab qiladi. Dunyodagi zamonaviy ijtimoiy stereotiplarning asosiy kamchiligi iqtisodiy o'sish va uning an'anaviy ko'rsatkichlarini mutlaqlashtirishdir, garchi bir qator mamlakatlar allaqachon o'z rivojlanishida iqtisodiy va ekologik ustuvorliklarni muvaffaqiyatli muvozanatlashga muvaffaq bo'lishgan. Hozirgacha ko'pchilik mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekiston respublikasi ham, o'zlarining muvaffaqiyatlarini hisobga oladilar. Biroq, ba'zi yirik tabiiy resurslarga ega mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning xom ashyo sektori hisobidan o'sishi kuzatilmoqda, chunki ijobiy o'sish dinamikasi energiya resurslari, o'rmonlar, yerlar va boshqalardan juda ko'p miqdorda foydalanish bilan ta'minlanmoqda.

Shunday qilib, yangi turdagi iqtisodiyotni shakllantirish, modernizatsiya va texnologik yangilash uchun ekologik omil tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Global ekologik muammolarning keskinlashuvi, ekotizimlarning degradatsiyasi inson faoliyatining barcha sohalarini, bilim va ma'naviy madaniyat sohalarini tanqidiy ko'rib chiqish zarurligini belgilaydi. Dunyodagi hozirgi ekologik vaziyat iqtisodiy rivojlanishning texnogen turidan tabiiy muhit muammolarini hal qilishga yo'naltirilgan yangi yo'lga o'tish zarurligini ko'rsatmoqda.

Ayni paytda ilmiy va siyosiy doiralarda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi faol targ'ib qilinmoqda. Yashil iqtisodiyot kontsepsiyasiga bo'lgan qiziqishning ortishi hozirgi iqtisodiy modeldan umidsizlikning kuchayishi va yangi asrning boshida kuzatilgan ko'plab inqirozlar va bozor muvaffaqiyatsizliklari bilan bog'liq. Barqaror rivojlanish va "yashil" iqtisodiyotning asosiy tamoyillari quyidagilar deb hisoblaymiz:

1. Tabiiy kapital qiymatini bilish. Tabiiy aktivlar (o'rmonlar, ko'llar, botqoq yerlar va daryolar havzalari) ekotizim darajasida tabiiy kapitalning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ular tabiatdagi suv aylanishining barqarorligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi va uy xo'jaligi, uglerod aylanishi va iqlimni yumshatish, tuproq unumdorligini oshirish, baliqchilik va boshqalar uchun juda muhimdir.
2. Tabiiy kapitalga investitsiya qilish zarurati. Tabiiy boyliklarga investitsiyalarni ko'paytirish xalq turmush darajasini oshiradi. Jahon iqtisodiyotini ko'kalamzorlashtirishning global ta'sirini o'rganish uchun kelgusi o'n yilliklarda har yili global yalpi ichki mahsulotning 2-3 foizini iqtisodiyotni yashillashtirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Moliyaviy mablag'larni tejash va iqlim o'zgarishi muammolarining ustuvorligini hisobga olgan holda, global siyosatda yashil texnologiyalarga investitsiyalarning qariyb yarmi energiya samaradorligiga, xususan, kommunal xizmatlar, sanoat va transportga, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga yo'naltirilishi kerak. Investitsiyalarning bir qismini chiqindilarni boshqarish, jamoat transporti infratuzilmasi va tabiiy kapitaldan foydalanishga asoslangan qator tarmoqlarni (qishloq, baliqchilik, o'rmon xo'jaligi, suv ta'minoti) yaxshilashga yo'naltirish lozim.
3. Qashshoqlikni kamaytirish. Surunkali qashshoqlik ijtimoiy adolatsizlikning eng ko'zga ko'ringan ko'rinishi bo'lib, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishning teng emasligi, kredit va daromad olish imkoniyatlarining teng emasligi, mulkiy huquqlarning umumiy himoyalanganligi bilan

tavsiflanadi. Yashil iqtisodiyotning asosiy xususiyati mamlakatning tabiiy boyliklarini yo‘q qilmasdan iqtisodiy rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirish uchun turli imkoniyatlar yaratishdir. Bu, ayniqsa, ekotizim tovarlari va xizmatlari inson hayotining muhim manbai bo‘lgan kam daromadli mamlakatlar uchun o‘ta muhimdir.

4. Ish o‘rinlari yaratish va ijtimoiy tenglikni yaxshilash. Oxirgi yillarda jahon iqtisodiyoti bank-kredit inqirozi va narxlarning keskin ko‘tarilishi natijasida, ishsizlik muammosi kuchaydi. Yashil iqtisodga o‘tish jigarrang iqtisod kabi ko‘plab ish o‘rinlarini yaratadi.

5. Qayta tiklanadigan energiya va kam uglerodli texnologiyalardan foydalanish. Energetika sektori issiqxona gazlari chiqindilarining uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Hozirgi energiya tizimi fotoalbom yoqilg‘ilarga asoslangan va iqlim o‘zgarishiga olib keladi. Qayta tiklanadigan manbalardan energiya ta‘minotini ko‘paytirish qazib olinadigan yoqilg‘i narxining oshishi xavfini kamaytiradi va atrof-muhitga ta‘sirini kamaytiradi. Energetika sektorini ko‘kalamzorlashtirish uglerodli energiya manbalariga investitsiyalardan toza energiyaga sarmoya kiritishni, shuningdek energiya samaradorligini oshirishni talab qiladi.

6. Resurs va energiyadan samarali foydalanish. Jahon iqtisodiyotining o‘sishi xom ashyo tanqisligi va ular narxining oshishi sharoitida iqtisodiy qiymat yaratishning tabiiy resurslardan foydalanish va uning atrof-muhitga ta‘siriga bog‘liqligini bartaraf etish vazifasi ustuvor vazifaga aylandi. Jamiyat resurslari cheklangan va uglerod emissiyasi muhitida yashay boshlaganligi sababli, asosiy muammo iqtisodiy o‘sishni materiallar va energiya resurslari iste‘moliga to‘liq bog‘liqlikdan chiqarishdir.

7. “Yashil” texnologiyalardan foydalangan holda barqaror shaharlar (eko-shaharlar) yaratish. Ekologik yoki "yashil" shaharlar aholining yuqori zichligi, uy-joy qurilishi va bandlik bilan tavsiflanadi. Bunday shaharlarda ko‘plab savdo korxonalari va ko‘ngilochar infratuzilma mavjud. Transport tizimi nuqtai nazaridan to‘g‘ri loyihalashtirilgan va foydalanish mumkin bo‘lgan hududlar jamoat transportini samarali tashkil etish imkonini beradi va ularni “yashil” shaharlar yaratishning boshlang‘ich nuqtasi sifatida ko‘rish mumkin. Aholi zichligi yuqori bo‘lgan holda, infratuzilmani, jumladan ko‘cha tarmog‘ini, temir yo‘llarni, suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini va boshqa kommunal xizmatlarni qurish xarajatlari har bir aholi uchun xizmatlar narxi tarqoq binolarga qaraganda ancha past. Shu sababli, shaharsozlik jarayonida barqaror rivojlanish zarurligini hisobga olgan holda sinergik effekt olish va samaradorlikni oshirish mumkin.

"Yashil" iqtisodiyot davlatning barqaror rivojlanishini ta‘minlashning asosiy vositasi bo‘lib, ekologik va iqtisodiy jihatlarni eng yaqin bog‘lashga qodir. Texnogen iqtisodiy rivojlanishdan yangi “yashil” yo‘nalishga o‘tishning faol ishtirokchilarining roli mintaqaviy ekologik va iqtisodiy siyosatni ta‘minlashda mustaqillikka va tashabbusga ega bo‘lgan hududlar bo‘lishi kerak.

Xulosa sifatida shu ta‘kidlash mumkinki, yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida 2026 yilgacha milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish borasida bir qator strategik vazifalar belgilangan. Xususan, tadbirkorlik faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash, biznes muhiti va zarur infratuzilmalarni yaratish bo‘yicha islohotlarni davom ettirish, kambag‘allikni ikki barobar qisqartirish, hududlarni rivojlantirish va agrar sohani rivojlantirishga oid vazifalarga alohida ahamiyat berilgan. Mazkur vazifalar, mamlakatning iqtisodiy o‘sishi ta‘minlash uchun xizmat qiladi.

Fydanilgan adabiyotlar:

1.Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T. “O‘zbekiston” .2022 yil..448 s.

2.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.

3.B.S.Isomov. Investitsiyalarni moliyalash. Buxoro.Kamolot.2022 yil,

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ

Суннатов Ю.У. БухДУ – заведующий кафедрой

Бухгалтерского учета и статистики, (PhD)

Хомидов С.О. БухДУ – доцент кафедры

Бухгалтерского учета и статистики, (PhD)

Новая мировая экономика, формирующаяся в результате финансово-экономического кризиса, выдвигает на первый план проблему модернизации всех сфер деятельности, техническое перевооружение и переход к высокотехнологичному производству. С позиции сущности реформирования экономики проблема повышения инвестиционной активности и улучшения инвестиционного климата является одной из узловых. Это делает необходимым формирование взвешенной прогрессивной инвестиционной политики, приводящей к всемерному повышению конкурентоспособности национальной экономики на основе разработки адекватных современным

условиям мер и механизмов активизации и повышения эффективности инвестиций.

Сегодня, в инвестиционной сфере отмечается ряд ключевых проблем, препятствующих эффективному обеспечению социально-экономического развития, основной из которых является недостаточность объемов привлекаемых инвестиций, в том числе прямых иностранных, и их нерациональное распределение.

Так, уровень накопления основного капитала в расчете на душу населения в республике составляет 20% среднемирового уровня и 25% среднего значения по странам СНГ. Республика остается на предпоследнем месте, опережая из стран СНГ только Кыргызстан.

Объем прямых иностранных инвестиций (ПИИ) по итогам января-декабря 2018 г. составил 3,6% от ВВП, при оптимальном уровне ПИИ в 7–10% от ВВП, в результате чего на душу населения приходится лишь 77 долл. ПИИ, в то время как в среднем по странам СНГ – 100–120 долл. Более половины ПИИ направляются в крупные проекты в горнодобывающей отрасли, в результате чего возникает дисбаланс вложений по регионам. По итогам января-декабря 2018 года на 4 региона (г. Ташкент, Навоийская, Бухарская и Кашкадарьинская области) приходится около 51% общего объема инвестиций и 64% притока иностранных инвестиций. При этом, динамика привлечения инвестиций по регионам в значительной степени зависит от реализации единичных крупных инвестиционных проектов.

Следует также отметить, что на протяжении последнего десятилетия в воспроизводственной структуре инвестиций 62-63% от общего объема вложений составляет строительство новых предприятий, в то время как расширение, реконструкция, модернизация, техническое и технологическое обновление производств лишь 21-22%. Соответственно, в технологической структуре инвестиций, основной объем затрат (50-56%) приходится на строительно-монтажные работы (СМР), как основной компонент расходов на новое строительство, а на приобретение машин, оборудования и инвентаря затрачено 34-38% от общего объема инвестиций.

Сложившиеся тенденции в политике инвестирования привели к низкому уровню активности процессов обновления и модернизации основных фондов, особенно в производственных отраслях. Кроме того, недостаточный уровень привлечения инвестиций на модернизацию, техническое и технологическое перевооружение привел к низкому уровню локализации и сильной зависимости от импорта комплектующих, высокой себестоимости продукции, что в свою очередь снижает возможности по развитию отраслей среднего технологического уровня.

Риски встраивания в мировые инвестиционные процессы связаны, в основном, с нестабильностью рынков капитала, что делает приток инвестиций объектом конкурентной борьбы развивающихся стран и стран с переходной экономикой.

Недостаточная активность Узбекистана в создании благоприятного инвестиционного климата может привести к снижению притока прямых иностранных инвестиций и, как результат – к снижению инвестиционной активности в стране в целом. Риск слабого роста мировой экономики, снижение мировых цен на традиционные виды экспортной продукции Узбекистана (хлопок, газ, золото), т.е. снижение рентабельности вложений также способно замедлить приток капитала на отечественный рынок.

Решение указанных проблем предполагает принятие целого комплекса мер и механизмов, основными из которых являются привлечение инвестиционных ресурсов в экономику через улучшение инвестиционного и делового климата, развитие системы государственно-частного партнерства, и др.; эффективное и качественное освоение инвестиций, в том числе через развитие небанковских кредитных организаций, финансового фондового рынка, инфраструктуры рынка ценных бумаг за счет диверсификации инструментов инвестирования и внедрения современных информационно-коммуникационных технологий.

Одним из направлений комплекса мер инвестиционной политики является дальнейшая корректировка роли государства в направлении ограничения его участия в сфере распределения инвестиционных ресурсов и повышения роли в стимулировании инвестиций в приоритетные направления развития экономики, укрепление гарантий неприкосновенности частной собственности.

Не менее важным является совершенствование нормативной базы региональной политики в направлении предоставления регионам большей свободы в реализации политики привлечения и освоения инвестиций, в т.ч. предоставления налоговых преференций и льгот, повышению доли налогов, оставляемых на территории региона, одновременно повышая ответственность местных органов власти за принимаемые ими решения. Это позволит более полно задействовать имеющиеся на местном уровне огромные резервы улучшения условий для привлечения инвестиций и ведения

бизнеса.

Ключевым элементом является также и реализация промышленной политики, основанной на привлечении прямых иностранных инвестиций, в особенности в приоритетные отрасли и в “концессионных” формах, стимулировании развития высококонкурентных секторов экономики и консолидации “отраслей роста”.

Государство сосредоточит свои усилия на обновление всего спектра жизнеобеспечивающих объектов производственной инфраструктуры, тем самым создавая условия для стабильного развития частного сектора производства товаров, работ и услуг.

Отдельным направлением станет развитие национальных институтов фондового рынка, работа по эффективному мониторингу функционирования рынка товаров, услуг, капитала.

Механизмами активного привлечения ПИИ станут специальные побудительные механизмы для западных компаний, заинтересованных в строительстве новых заводов и модернизации старых в приоритетных отраслях; развитие информационной системы сбора мнений и предложений для инвесторов, их анализ и принятие на этой основе мер по улучшению инвестиционного климата, создание и развитие промоуторских компаний и проведение мероприятий по формированию имиджа ведущих крупных предприятий; развитие финансового инжиниринга.

Основу для повышения эффективности использования имеющихся ресурсов создаст совершенствование институтов инвестирования, формирование рынка венчурных инвестиций, совершенствование системы страхования инвестиционных и инновационных рисков, формирование эффективной системы финансирования НИОКР и внедрения инноваций в производство.

В 2019–2030 годах для поддержания прогнозных темпов экономического роста предусматривается увеличить реальный прирост инвестиций в основной капитал не ниже 10,3% за год, а объем прямых иностранных инвестиций – на 19,5%. При этом, доля инвестиций в ВВП возрастет в 2030 году до 32,8%.

Внедрение современных технологий производства качественной и конкурентоспособной на мировых рынках продукции, на основе глубокой переработки и производства продукции с высокой добавленной стоимостью, приведет к изменению качественного состава иностранных инвесторов с приоритетом инвестирования в обрабатывающий сектор производства, росту интереса иностранных инвесторов к высокотехнологичным отраслям и сектору НИОКР. Как результат - улучшение ситуации с привлечением иностранных инвестиций, прогнозируется рост объема притока прямых иностранных инвестиций на душу населения в 6,9 раза, что позволит Узбекистану стать одним из лидеров по объемам ПИИ на душу населения в регионе.

Целью инвестиционной политики до 2030 г. является формирование условий для успешной реализации приоритетов социально-экономического развития страны, определение источников и механизмов привлечения финансирования для осуществления мер и мероприятий по обеспечению устойчивого экономического роста, повышению конкурентоспособности национальной экономики, укреплению промышленного потенциала и комплексному развитию территорий.

В реализации инвестиционной политики в средне- и долгосрочной перспективе необходимо сосредоточиться на двух направлениях:

- расширение инвестиционного потенциала за счет совершенствования амортизационной политики, снижения налоговой нагрузки, кардинального повышения роли фондового рынка, мобилизации сбережений населения и предпринимателей, создания благоприятного инвестиционного климата для широкого привлечения частных иностранных и отечественных инвестиций (возможный рост инвестиций в год не менее 1,2–1,3 раза);

- повышение эффективности использования инвестиционных ресурсов путем ускорения модернизации, технического и технологического перевооружения отраслей экономики, создания и развития новых средневысокотехнологических производств, расширения инновационной деятельности (капиталоемкость прироста ВВП может снизиться до 1,5–2%).

Ключевой задачей реформирования инвестиционной политики в прогнозном периоде является постепенный переход от концепции роста объемов привлекаемых инвестиций к концепции эффективного использования инвестиций, в частности определяемого вкладом в повышение конкурентоспособности не сырьевых отраслей, а производств с высокой добавленной стоимостью.

Приоритеты инвестиционной политики должны быть переориентированы с финансирования традиционных, в основном добывающих отраслей, на инвестирование наукоемких отраслей экономики, внедрение современных технологий для производства качественной и конкурентоспособной на мировых рынках продукции, работ и услуг.

Исходя из социально-экономической целесообразности обеспечения экономического роста экономики основное внимание в инвестиционной политике будет уделяться привлечению инвестиций в реализацию проектов и обеспечение развития промышленного производства.

При этом, приоритетным направлением будет создание новых и развитие имеющихся производств, служащих основой технологического развития страны: развитие альтернативных источников энергии и внедрение передовых энерго- и ресурсосберегающих технологий, переработка сырьевых ресурсов, производство комплектующих и т.д.

Так, в направлении глубокой переработки углеводородного сырья, предусматривается реализация таких проектов как строительство нового нефтеперерабатывающего комплекса в Джизакской области, современного газоперерабатывающего завода на базе месторождений Кандымской группы.

В рамках уже утвержденных программ развития в части активизации использования альтернативных источников энергии предусмотрено завершение реализации в 2019-2020 годах крупных проектов по внедрению фотоэлектрических панелей для снабжения электроэнергией и солнечных водонагревателей для горячего водоснабжения в государственных и бюджетных организациях, реализация проектов по переводу технологий производства на энергосберегающие, использование альтернативного вида топлива, реализация проектов по переводу технологий производства на энергосберегающие, в том числе цемента в АО «Ахангаранцемент» на «сухой» способ, а также использование альтернативного вида топлива (угля) на АО «Кувасайцемент» и АО «Бекабадцемент», работающих на «мокром» способе производства, а также 726 проектов по строительству биогазовых установок в крупных животноводческих и птицеводческих хозяйствах республики.

Кроме того, запланирована реализация инвестиционных проектов и по развитию источников возобновляемой энергетики – строительство солнечных фотоэлектрических станций мощностью 100 МВт в Самаркандской, Навоийской и Сурхандарьинской областях, ветровой станции мощностью 102 МВт в Навоийской области, строительство первой в Узбекистане атомной электростанции мощностью 2400 МВт.

Согласно программе развития гидроэнергетики в ближайшие годы запланирована реализация 18 проектов по строительству новых гидроэлектростанций и 14 проектов по модернизации действующих гидроэлектростанций в Ташкентской, Сурхандарьинской, Кашкадарьинской, Наманганской, Самаркандской и Сырдарьинской областях. Среди них такие крупные проекты как строительство Пскемской ГЭС и Муллалакской ГЭС на реке Пскем, Нижнечаткальской ГЭС на реке Чаткал в Бостанлыкском районе Ташкентской области, а также Каскада Зарчобских МГЭС (МГЭС 1,2,3) на реке Тупаланг в Сариясийском районе Сурхандарьинской области. Строительство новых парогазовых установок мощностью до 1 ГВт на территории АО «Сырдарьинской ГЭС».

На среднесрочную перспективу прорабатывается вопрос реализации еще 24 перспективных проектов по строительству новых гидроэлектростанций, а также 18 проектов модернизации действующих гидроэлектростанций.

При этом, продолжится наращивание генерирующих мощностей за счет реализации в первой половине прогнозного периода таких проектов как ввод второй парогазовой установки на Навоийской ТЭС мощностью 450 МВт, строительство Туракурганской тепловой электростанции на 450 МВт и двух парогазовых установок мощностью 230–280 МВт на Тахиаташской ТЭС.

В целом, согласно утвержденных среднесрочных и долгосрочных программ развития отраслей промышленности предусмотрена реализация таких проектов, как:

Организация производств LED-осветительных приборов, современных телевизоров, микропроцессорных и бесконтактных карт, а также устройств их обслуживания, электробытовых товаров, кассовых аппаратов, бытовой техники, интегральных микросхем, фотоэлектрических станций, электроизмерительных приборов в электротехнической промышленности.

Производство аммиака и карбамида, азотной кислоты, сложных минеральных удобрений, серной кислоты, гидроокиси калия, пленкообразующих оснований нитроцеллюлозных лаков, красок, эмалей, красителей для текстильной промышленности в химической промышленности.

Организация производства олефинов из природного газа с получением полиэтилена и полипропилена, олефинов из метанола, полимеров из природного газа, бутандиола с производством полиуретана и спандекса, синтетического жидкого топлива, синтетических каучуков, полиэстера из этиленгликолей и диметилтерефталевой кислоты, полиэтилентерефталата (ПЭТ) и др. в нефтегазовой промышленности.

Организация производства различных видов субстанций, инъекционных лекарственных средств

в ампулах, таблеточных и капсульных препаратов и т.д. в фармацевтической промышленности, в том числе на территории 8 имеющихся свободных экономических зон фармацевтического производства.

Создание к 2025 году комплекса по местному использованию продуктов переработки угля и создание пилотных заводов по производству из угля синтетического жидкого топлива, включая комплекс демонстрационных установок по процессам глубокой переработки угля с последующим промышленным освоением технологии получения синтетического жидкого топлива в 2025 - 2030 годах в угольной промышленности.

Следует отметить, что ключевое значение имеет не только производство отдельной продукции, а расширение взаимосвязей и комплексного развития отраслей. Так, например, для повышения уровня развития фармацевтической промышленности предусмотрена реализация не только проектов по производству различных видов субстанций, инъекционных и таблеточных лекарственных средств, но и таких проектов как организация производства стеклянной тары для фармацевтических и медицинских нужд в ООО "Сирдарё гласс" в СЭЗ "Сирдаре", создание производства медицинского оборудования (УЗИ и рентген аппаратов) с компанией "General Electric" и организация производства медицинских изделий СП "Гулистон мед техника", тем самым усиливая связи между развитием медицины и фармацевтики и горнорудной и электротехнической промышленностью.

Одним из ключевых направлений инвестиционной политики является развитие кооперации путем стимулирования создания кластеров производства и глубокой переработки плодоовощной и хлопко-текстильной продукции.

Основой развития указанного направления станет повышение объемов инвестиций, направляемых на решение проблем сельского хозяйства. Особое внимание, уделяемое обеспечению продовольственной безопасности республики, служит фактором определения направлений инвестиционной политики в сфере сельского хозяйства. Стратегия инвестиционной политики в данной сфере направлена на формирование условий для создания устойчивых систем в производстве сельскохозяйственной продукции и повышение эффективности использования земельно-водных ресурсов, стимулирование развития регионов с относительно неблагоприятными природно-экономическими условиями.

Решение проблем развития сельского хозяйства предполагает реализацию проектов по созданию и расширению инфраструктуры по хранению, транспортировке и сбыту сельскохозяйственной продукции, оказанию агрохимических, финансовых и других современных рыночных услуг, созданию свободных рынков ресурсов для сельскохозяйственного производства (ГСМ, семян, техники и т.д.), а также внедрению систем логистики и укреплению национального бренда «UzAgro».

Вместе с тем, эффективность использования инвестиций в производстве неразрывно связано с формированием соответствующей инфраструктуры реализации произведенной продукции, в том числе на экспорт. В этой связи намечено как строительство многофункциональных транспортно-логистических хабов, так и реализация проектов по обновлению парка локомотивов за счет приобретения современных эффективных электровозов.

Реализация указанных проектов в свою очередь требует электрификации железнодорожных линий. В части имеющихся железнодорожных линий запланированы такие проекты как электрификация железнодорожных участков Салар-Ходжикент, железнодорожных путей Мискен-Нукус с организацией скоростного движения пассажирских поездов и Кашкадарья-Бухара – высокоскоростного движения, Кумкурган-Кудукли, Нукус-Кунград-Каракалпакия, Бухара-Ургенч-Хива, Бухара-Ходжадавлет, продолжение электрификации участка Пап-Наманган-Андижан.

Для расширения качества покрытия республики железнодорожными путями намечена реализация проектов по строительству второго пути электрифицированной высокоскоростной железнодорожной линии на участке Навои-Бухара, продолжению строительства новой электрифицированной линии Ангрен-Пап с электрификацией участка Пап-Коканд-Андижан, строительству двухпутевой электрифицированной железнодорожной линии Джизак-Янгиер и др.

В общей сложности, в ближайшие годы протяженность железнодорожных линий увеличиться на более чем 1700 км, будет реабилитировано 2800 км железнодорожных путей.

Отдельным вопросом стоит формирование эффективных и надежных альтернативных транспортных и транзитных коридоров для кратчайшего выхода внешнеторговых грузов Республики Узбекистан на основные мировые и региональные рынки, в частности проработка вопросов строительства железной дороги «Узбекистан-Кыргызстан-Китай», а также дальнейшего

развития и модернизации аэропортов, с учетом повышения их привлекательности для иностранных авиакомпаний и других логистических компаний.

Социальная сфера экономики также будет оставаться в центре внимания. В сфере образования и науки инвестиционная политика будет направлена на создание благоприятных условий для развития системы образования и подготовки кадров на всех уровнях (дошкольное, начальное, среднее и среднеспециальное, высшее и профессиональное) повышения ее эффективности за счет реализации проектов по активному внедрению новых форм и механизмов государственно-частного партнерства, современных технологий и методов обучения и воспитания, усилению интеграции науки, образования и предприятий реального сектора экономики, поддержке научно-исследовательских и опытно-конструкторских работ и укреплению материально-технической базы организаций науки и образования.

С 2022 года планируется ликвидация служб заказчиков по строительству, реконструкции, капитальному и текущему ремонту объектов, финансируемых за счет централизованных инвестиций, при Совете Министров Республики Каракалпакстан, хокимиятах областей, г. Ташкент, министерствах и ведомствах, (кроме министерств и ведомств, строящих категоризованные специальные объекты) путем передачи их функций и задач, вновь создаваемым частным консалтинго-инжиниринговым компаниям.

1. Обеспечение дальнейшего углубления внедрения прогрессивных методов организации работ по предоставлению консалтинго-инжиниринговых услуг (службы заказчика) по строительству, реконструкции, капитальному и текущему ремонту объектов, финансируемых за счет централизованных инвестиций, основанных на передовом международном опыте, а также повышения прозрачности и эффективности использования средств при реализации инвестиционных проектов.

2. Повышение ответственности участников инвестиционного процесса за соблюдение договорных обязательств и конечные результаты строительства, с учетом подготовки исходно-разрешительной документации и территории строительства, организация предпроектных работ, разработка, согласование, экспертиза и утверждение утверждаемой части проекта, рабочей (кроме случая строительства объекта «под ключ») и конкурсной документации.

Список литературы:

1. Э. И. Насиров, Б.С. Маматов и другие. Организация и финансирование инвестиции. Т. «Иктисод-молия». - 2009. – С. 5
2. Постановление Президента Республики Узбекистан о мерах по ускоренному развитию туристского потенциала города Бухары и Бухарской области на 2017 — 2019 годы.
3. С.О. Саидов, С.Ф. Ражабова ва бошқалар. Иктисодиёт ва тадбиркорлик асослари. Т. «ФАН» 2002. С.-141
4. Кэмпбелл Р. Макконелл Стенли Л. Брю. ЭКОНОМИКС: Принципы, проблемы и политика. Пер.с англ. Таллин. 1993 г. С. 199

ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALARNING IQTISODIY MOHIYATI

Isomov Bekmurot Sayfiddinovich

Buxoro davlat universiteti

Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi dotsenti, i.f.f.d.

relinter@mail.ru

ANNOTATSIYA. Maqolada O'zbekiston respublikasida investitsiyalarning asosiy kapitalga yo'ltirishning asosiy mohiyati va iqtisodiy o'sishning dolzarbligi o'rganiladi. Chunki, investitsiyalar ko'p jihatdan nafaqat alohida mintaqalarning rivojlanishini va tashkilotlarning asosiy fondalarini o'sishini, balki butun davlatning iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi, bandlik darajasini oshirishga yordam beradi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash va mo'tadil investitsion muhitni shakllantirish uchun investitsiyalarni jalb etishning samarali strategiyasi va mexanizmlarini ishlab chiqish uchun mamlakatimizdagi investitsiya faolligining hozirgi holatini ilmiy jihatdan tahlil qilish zarur.

Tayanch so'zlar: investitsiyalar, asosiy kapital, asosiy vositalar, kpital qo'yilmalar, investitsiyalarning mintaqaviy tarkibi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, statistik tahlil, iqtisodiy o'sish.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ИНВЕСТИЦИЙ В ОСНОВНОЙ КАПИТАЛ

АННОТАЦИЯ. В статье рассматривается основная сущность инвестирования в основной капитал и актуальность экономического роста в Республике Узбекистан. Потому что инвестиции обеспечивают не только развитие отдельных регионов и прирост основных фондов организаций, но

и экономический рост всей страны, способствуют повышению уровня занятости. Необходим научный анализ современного состояния инвестиционной деятельности в нашей стране с целью разработки эффективной стратегии и механизмов привлечения инвестиций для обеспечения экономического роста и создания благоприятной инвестиционной среды.

Ключевые слова: инвестиции, основной капитал, основные фонды, капитальные вложения, региональная структура инвестиций, прямые иностранные инвестиции, статистический анализ, экономический рост.

ECONOMIC NATURE OF INVESTMENTS INTO FIXED CAPITAL

ANNOTATION. The article discusses the main essence of investing in fixed assets and the relevance of economic growth in the Republic of Uzbekistan. Because investments provide not only the development of individual regions and the growth of fixed assets of organizations, but also the economic growth of the whole country, contribute to an increase in employment. A scientific analysis of the current state of investment activity in our country is needed in order to develop an effective strategy and mechanisms for attracting investment to ensure economic growth and create a favorable investment environment.

Key words: investments, fixed capital, fixed assets, capital investments, regional structure of investments, foreign direct investments, statistical analysis, economic growth.

Kirish

Investitsiyalar muammosi dolzarb bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi, shu bilan birgalikda o‘zining iqtisodiy ahamiyatini yo‘qotmaydi. Iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning barqaror rivojlanishi uni hal etish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu investitsiyalarni iqtisodiy kategoriya sifatida ilmiy tadqiq etish va muvofiqlashtirish ob‘ekti sifatida aniqlash, investitsiyalarni differensiallashtirishni talab qiladi.

Ma‘lumki, iqtisodiy bozor munosabatlari mehnat, moddiy, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish sohalarini moslanuvchan, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini tez o‘zlashtiruvchi bo‘lishini taqozo etadi. Bunday vaziyatda investitsion resurslarni shakllantirish, investitsion faoliyat, davlat investitsiya siyosati kabi zarur iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda investitsion faoliyat va investitsion siyosatni zamon talablariga mos muvofiqlashtirish maqsadida davlat qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 9-dekabrda qabul qilingan va Senat tomonidan shu yilning 14-dekabrda ma‘qullangan O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Demak, investitsiyalar va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni chuqur o‘rganish dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Maqolaning maqsadi. Maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekiston respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalarning miqdoriy jihatlarini, o‘sish sur‘atlarini va ularning samaradorlik darajasini har tomonlama statistik tahlil qilishdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘zbekiston respublikasida investitsiyalarni rivojlantirish muammolariga ilmiy va amaliy qiziqish ko‘p yillardan beri yuqori bo‘lib kelmoqda. Bu nafaqat investitsiyalar o‘ynaydigan rol, balki investitsiyalarni boshqarishning mazmunli, fundamental nazariyasini yaratish zarurati bilan ham izohlanadi. Uning ilmiy munozaralar predmetiga aylanib borayotgan alohida jihatlar orasida tadqiqotni yagona metodologik asosda olib borish imkonini beruvchi terminologik tizimni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan investitsiya masalalari bo‘yicha ko‘plab ishlarga qaramasdan, ko‘plab muhim iqtisodiy toifalar haqida hali ham etarli darajada kelishilgan tushuncha mavjud emas. Bu, albatta, toifalar o‘rtasida tizimli aloqa o‘rnatishni qiyinlashtiradi. Ularni mintaqaviy iqtisodiyotda qo‘llash xususiyatlari aniqlanmagan. Investitsiya jarayonini tavsiflash uchun foydalaniladigan terminologiyani umumiy tushunmaslik ko‘pincha ma‘lum tushunchalarni aniqlashga va uslubiy yondashuvlarning nomuvofiqligiga olib keladi, bu esa ularni o‘rganish uchun uslubiy vositalarni tanlashni qiyinlashtiradi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri boshlanishi bilan ilmiy adabiyotlarda “kapital qo‘yilmalar” atamasi bilan bir qatorda “investitsiya” atamasi ham keng qo‘llanila boshlandi. Ushbu atamaning paydo bo‘lishi va undan keyin nisbatan yangi tushunchalarning butun majmuasi ushbu yo‘nalishdagi ilmiy ishlarning ajralmas atributiga aylangan investitsiya masalalari sohasidagi tadqiqotlarning kontseptual apparatini aniqlashtirish va takomillashtirishni taqozo etdi. Investitsiya jarayoni faoliyatining nazariy asoslarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni ma‘lum bir qonuniyatlar bilan tavsiflanadi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi sifat o‘zgarishlari bilan belgilanadi. Iqtisodiyot va ilmiy tadqiqotlar rivojlanishining o‘zaro bog‘liqligi o‘rganilayotgan muammolar apparatini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish va umumlashtirishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Har qanday investitsiyalashning maqsadi moliyaviy foyda olishdir. Agar sarmoyadorlar loyihaga tahlilsiz sarmoya kiritsalar, bu ko‘pincha

yo'qotishlarga olib keladi. Investitsion tahlil uzoq muddatli va qisqa muddatli investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini taxmin qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda moliyaviy hamda iqtisodiy adabiyotlarda "investitsiya" nisbatan aniq va keng qo'llanilayotgan atama hisoblandi. Aslida "investitsiya" tushunchasi bir qator ma'nolarga ega. Masalan, investitsiyalar - bu davlat yoki xususiy kapitalning iqtisodiyotning turli sohalariga yo'naltirilgan uzoq muddatli qo'yilmalaridir. Boshqa tomondan, foyda olish maqsadida moddiy va nomoddiy aktivlar uchun sarflanadigan investitsiyalar tushuniladi.

Investitsiyalar iqtisodiyotning eng muhim kategoriyalaridan biridir. Shuning uchun ilmiy va tahliliy adabiyotlarda ushbu tushunchaning talqinlari juda ko'p. Masalan, M.M. Blauganing so'zlariga ko'ra investitsiya omili, bir tomondan, takror ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishini tavsiflovchi parametrlar sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan, esa mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishining sur'at va dinamikasiga ijobiy ta'sir qilish imkonini beradi. Investitsiyalarning zarurligi haqidagi ilk g'oya merkantilistlar maktabi namoyondalarining asarlarida ifodalangan. Ularning fikricha pul oqimlari yoki investitsiyalar iqtisodiy muammolarni bartaraf etishning kalitidir.

Klassik iqtisodiy nazariyaning asoschisi Adam Smit ta'kidlashicha iqtisodiy taraqqiyot erishish uchun sof investitsiyalar normasini (meyorini) yuqori darajada oshirish zarur. Uning kontseptsiyasiga ko'ra, investitsiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri shundan iboratki, kapital miqdorining ko'payishi yoki kamayishi mamlakatning barcha rezidentlarining mavjud boyligi va daromadlarining xuddi shunday o'zgarishiga olib keladi. A.Smit kapitalni ikki xil talqin qildi: birinchidan, jismoniy shaxsning mulki va puli, unga daromad (foйда) keltiruvchi; ikkinchidan, ijtimoiy miqyosda boyluk yaratuvchi ishlab chiqarish omillari sifatida. Shunday qilib, A.Smit investitsiyaning ikki shakli bor deb hisoblagan:

- Investitsiya iqtisodiy subektlarning binolari va inshootlari, foydali mashina va jihozlar, yerni yaxshilash xarajatlari, aylanma mablag'lar ko'rinishidagi kapitalni tiklash va ko'paytirish xarajatlari. Natijada kapital egasi daromad oladi va milliy boyluk miqdorini oshiradi.
- Mulk egasiga daromad keltiradigan xarajatlar shaklidagi investitsiyalar.

Investitsiyalarning kelib chiqishi tabiati va amalga oshirish zarurati to'g'risidagi qoidalar J.B. Sey, D. Rikardo, A. Pigu, D.S. Mill, A. Marshall asarlarida ishlab chiqilgan. Ma'lumki, J.B. Sey "bozor qonuni"ni ishlab chiqdi, unga ko'ra mahsulot taklifi doimo unga talabni keltirib chiqaradi, shuning uchun talab taklifga teng. U o'z qonunini A.Smitning daromadning uch turi bo'yicha pozitsiyasi asosida shakllantirdi. Qonun muallifi iqtisodiyotdagi inqiroz ehtimolini printsiplari jihatlarini ochib berdi. Uning asarlarida tejamkorlik o'z aksini topmadi. Klassik maktabning barcha vakillarining ta'limotlari uchun bozor tizimining optimalligi g'oyasini himoya qilish xarakterlidir. Ularning fikricha bozorda talab va taklif o'rtasidagi muvozanat iqtisodiyotda resurslardan to'liq foydalanishni ta'minlash orqali erishiladi. Investitsiyalar nuqtai nazaridan, Adam Smitning tadbirkorlik faoliyatining muayyan sharoitlarining o'zgarishiga qarab foydaning o'zgarishi haqidagi fikrlari etiborni tortadi. U o'zining Xalqlar boyligining tabiati va sabablari haqida tadqiqot kitobida foydaning investitsiya qilingan kapital miqdorining o'zgarishiga, biznes yuritayotgan mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga va kapital qo'yilgan korxonaning tabiatiga bog'liqligi ko'rib chiqadi.[1, 1072 b.]

Daromad va iste'mol o'rtasidagi tafovut natijasida talab va taklif o'rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi, chunki jamiyatning xarajatlari iste'mol ehtiyojlari va investitsiyalar uchun talab sifatida ifodalanishi mumkin. Ammo, foiz stavkalari mexanizmi tufayli rejalashtirilgan investitsiyalar darajasi ishlab chiqarish tabiiy darajada bo'lgan paytdagi jamg'armalar darajasiga moslashtiriladi.

Yuqorida bayon qilingan muvozanat nazariyasiga ko'ra, pul massasining navbatdagi o'sishiga qadar, bu miqdorlar muvozanat holatida bo'ladi va uning o'sishidan keyin vaziyat beqaror hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarda "qo'shimcha" pul mablag'larni xarajat qilish istagi mavjud va bu pullarni xarajat qilsalar narxlar hamda daromadlar oshadi. Aholining barcha qatlamlari uchun qo'shimcha pul hamma vaqt kerakli manba hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, klassik maktab vakillari tomonidan ishlab chiqilgan investitsion nazariya, tarixan investitsiya sohasini, shu jumladan mexanizmlarni rivojlantirishning makro va mikro darajadagi birinchi yaxlit modeli edi. Iqtisodiyot nazariyasining klassik yo'nalishi vakillari kapital jamg'arish va kredit pullarning investitsion jarayondagi rolini asoslab berdilar. Investitsiyalar nazariyasi rivojiga K.Marks o'zining bebaho "Kapital" asari bilan katta hissa qo'shdi. Muallif kapitalni, uning muomalasi jarayonida ortiqcha qiymat keltiradigan qiymat sifatida izohlaydi.

K.Marks shunday yozadi: «Kapital - bu harakat, turli bosqichlardan o'tuvchi muomala jarayoni, bu jarayon esa o'z navbatida uch xil muomala shaklini o'z ichiga oladi» [2, 509-b.]. Birinchi bosqichda, K. Marks ta'limotiga ko'ra, kapitalist ishlab chiqarish omillarini tovar bozori va mehnat bozorida qo'lga kiritadi. Ikkinchi bosqichda sotib olingan tovarlarning unumli iste'moli va yollanma ishchilar mehnati bilan

ishlab chiqarish omillari qiymatidan kattaroq qiymatga ega bo‘lgan yangi tovarning yaratiladi. Uchinchi bosqichda yaratilgan yangi tovarning realizatsiyasi sodir bo‘ladi, buning natijasida kapitalist qo‘shimcha qiymat miqdori bo‘yicha dastlab avanslanganidan ko‘proq pul kapitalini shakllantiradi.

K. Marks birinchi marta (kengaytirilgan shaklda) va hozirgi vaqtda ham deyarli bir xil shaklda qo‘llaniladigan investitsiya jarayoni bosqichlarining mazmunini ochib berdi. Unga ko‘ra investitsiya jarayoni bu investitsiyalar, investitsiya qiymatlarni o‘shirishni shakllantirish, kapital qiymati, daromad va foyda olish kabilarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi paytda, mamlakatimizda investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risidagi qonun va konsepsiyasi qabul qilingan. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonun investitsiya faoliyatini huquqiy tartibga solishda asosiy meyoriy - huquqiy hujjat vazifasini o‘taydi. Investitsiya qonunining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- investitsiya munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solinib turilishini takomillashtirish;
- investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini optimallashtirish va huquqiy jihatdan tartibga solish;
- investitsiya faoliyatini tartibga solish ustuvorliklarini belgilash;
- investitsiya qonunchiligida qarama-qarshiliklarni bartaraf etish va muammolarni hal qilish;
- investitsiya loyihalarini amalga oshirishda davlat-xususiy hamkorlikni rivojlantirishga amaliy yordam ko‘rsatish;
- investitsiya faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirish monitoringi tizimini rivojlantirishga amaliy yordam ko‘rsatish;
- investitsiya faoliyatini rivojlantirishda byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish;
- investitsiya faoliyati sub'yektlarini huquqiy jihatdan himoya qilinishini mustahkamlash.

Mazkur yondashuv investitsiya faoliyatning bozor munosabatlariga o‘tishi uchun zamin yaratadi, bu esa, moliyaviy moddiy va aqliy boyliklarni qayta taqsimlashning vertikal va gorizontall usullaridan bir xilda foydalanishni ta‘minlaydi.

Moliya bozorining takomillashuvi "investitsiya" atamasini qimmatli qog‘ozlarga kiritilgan uzoq muddatli qo‘yilmalarga nisbatan ham qo‘llanilishiga sabab bo‘ldi. Lekin faqat korporatsiyani boshqarish imkoniyatini o‘zida aks ettirgan holatdagina bunday kapital qo‘yish investitsiya bo‘lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha "investitsiya" va "kapital qo‘yilmalar" atamalari mazmunida ko‘chmas mulkka qilingan qo‘yilmalar mavjuddir. Iqtisodiy sub‘ektlar faoliyatida investitsiyalar — asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko‘paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qaratilgan pul shakli xarajatlaridir. Bu jarayonda pul mablag‘lari, bank kreditlari, aktsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar ishlatiladi. Demak investitsiyalar — foyda olish maqsadida mamlakat ichkarisida yoki xorijda turli iqtisodiy tarmoqlarda va moliyaviy hamda xizmat ko‘rsatish sohaslariga davlat hamda xususiy kapitalning uzoq muddatli moliyaviy qo‘yilmalari hisoblanadi. Investitsiyalarni shakllantirish, ularni miqdor jihatdan ko‘paytirish, ulardan samarali foydalanish bozor iqtisodiyotining asosiy talabidir.

Tahlil va natijalar.


O‘rganishlar shundan dalolat beradiki, O‘zbekiston Respublikasida investitsion sohani boshqarish va mamlakatga investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha faol davlat siyosati olib borilmoqda. Investitsion siyosatning asosiy yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasini 2022-2023 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish Davlat dasturida va 2022 - 2030 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining strategik maqsadi asosiy kapitalga investitsiyalarni jalb qilish va ularning samaradorligini oshirishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish mezonlari:

- YaIMdagi investitsiyalar ulushini chegaradan yuqori darajada (kamida 25 foiz) ushlab turish;
- ulardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- investitsiyalarni moliyalashtirishning tashkilotlar va aholining o‘z mablag‘lari, xorijiy investitsiyalar kabi manbalari ulushini oshirish, shu bilan birga asosiy kapitalga qo‘yilgan investitsiyalar umumiy hajmida byudjet mablag‘larining ulushini kamaytirish;
- davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida amalga oshirilayotgan investitsiya infratuzilmasi loyihalarini moliyalashtirish uchun 14 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiyalar jalb qilish;
- xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasini qabul qilib, 2022-2026 yillarda 120 milliard AQSH dollari, jumladan, kamida 70 milliard AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilish choralari ko‘rish;
- loyihalari rentabelligini oshirish [3, p. 127].

Yuqorida sanab o‘tilgan strategik mezonlarni amalda amalga oshirish muhim investitsiya faolligini talab qiladi. Shu bois mahalliy xususiy va xorijiy investorlarni faol jalb etish zarur. Jalb qilinishi lozim bo‘lgan investitsiyalar va kapital qo‘yilmalar mavjud korxonalarini tubdan modernizatsiya qilish va tubdan yangi innovatsion ishlab chiqarishlarni yaratish, yuqori texnologiyali eksportga yo‘naltirilgan va import o‘rini

bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun ustuvor manba hisoblanadi. Bularning hammasi asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar miqdoriga va ularning samadorlik darajasiga bog'liq.

Bundan tashqari, tahlillar shuni ko'rsatayaptiki, 2017-2021-yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilgan, ularning har biri doirasida uni amalga oshirish bo'yicha alohida Davlat dasturi har yili e'lon qilingan nomiga muvofiq Prezident qarori bilan tasdiqlangan. Harakatlar strategiyasini amalga oshirishning birinchi bosqichi "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili", ikkinchisi – "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlangan bo'lsa, uchinchi – 2019-yilda amalga oshirilgan va "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish" deb e'lon qilingan. O'tgan, 2017-yilda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 60 719,2 milliard so'm yoki, 11,9 milliard AQSH dollar o'zlashtirilib, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar, 2016 yilga nisbatan 107,1 foizga o'sgan. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbati 24,4 foizni tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 0,2 foizga ko'p hosil bo'lgan. 2018-yilda esa moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan 107333 milliard so'm yoki xalqaro pul birligi AQSH dollari hisobida - 13,3 mlrd. dollar o'zlashtirilgan bo'lib, asosiy kapitalga investitsiyalarning nisbiy darajasi, 2017 yilga nisbatan 118,1 foizga o'sgan. (1-diagramma)



Manba: O'zbekiston respublikasi raqamlarda (2018-2022 yillar)

O'zbekiston respublikasida, 2018 yilda xorijiy investitsiyalar va kreditlarning eng yuqori ulushi Qashqadaryoda – 26,6 foiz, Buxoro – 13,4 foiz va Navoiy viloyatida – 11,7 foiz miqdorida vujudga kelganligi aniqlandi. Bundan tashqari, 2018-yilda xorijiy investitsiyalar va davlat kafolati ostidagi kreditlarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi loyihalarni amalga oshirish hisobiga ta'minlandi: tozalangan metan asosida sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish bo'yicha Sho'rtan gaz-kimyoy majmuasini qurish; Navoiy IESda quvvati 450 MVt bo'lgan ikkinchi kombinat stansiyasini qurish va kengaytirish; Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumanida har biri 450 MVt quvvatga ega bo'lgan kombinat gidrostansiyalarining ikkita bloki tarkibida umumiy quvvati 900 MVt bo'lgan yangi issiqlik elektr stansiyasini qurish; "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatida polivinilxlorid, kaustik soda va metanol ishlab chiqarish majmuasini qurish; konveyer lentalarini, qishloq xo'jaligi va avtomobil shinalari, "Angren" YHX ishlab chiqarishni tashkil etish (II bosqich); Pop-Namangan-Andijon va Qarshi-Termiz temir yo'l uchastkalarini elektrlashtirish.

Shu bilan birgalikda, mazkur 2018 yilda yilda, Pop-Qo'qon-Andijon uchastkasini elektrlashtirish bilan Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'l liniyasini qurish va "Sharg'un ko'mir" Hissadorlik jamiyatining loyiha quvvatini yiliga 900 ming tonna toshko'mirga yetkazgan holda modernizatsiya qilish, Buxoro va Samarqand shaharlarida tozalash inshootlari va kanalizatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish ishlari muvaffaqiyatli amalga oshirilgan.

Sirdaryo viloyatining Bayaut, Xovost, Mirzaobod, Sardoba va Oqoltin tumanlari qishloq aholi punktlarini suv bilan ta'minlashni yaxshilash hamda Buxoro viloyatining Olot va Qorako'l tumanlarida ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash hamda Xorazm viloyatidagi Toshakin tizimining magistral sug'orish kanallarini qayta tiklash ishlari ham shu yilda yakuniga yetkazilgan. Shu bilan birga, 2018 yilda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan iqtisodiyotning strategik tarmoqlariga 7894,8 mlrd.so'm yoki 978,4 mln dollar miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 3,7

foizga o‘sgan. Tahlillar shundan dalolat berayaptiki, asosiy kapitalni yangilash va kengaytirish, iqtisodiyotning tiklanishi va tiklanishini ta‘minlovchi investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yaxshi qo‘shimcha mablag‘ manbai xorijiy investitsiyalardir. Mamlakatda va uning barcha mintaqalarida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda ulardan foydalanishning asosiy shartlari O‘zbekiston respublikasining "Xorijiy investitsiyalar to‘g‘risida" gi qonuni bilan tartibga solinmoqda.

Shuni ta‘kidlash lozimki, strategik rivojlanish agentligini tomonidan 2021-yil uchun investitsiyalar statistikasini keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston respublikasiga 11,1 milliard dollar xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi, bu yillik prognozning 113 foizini tashkil etadi. Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar 9,8 milliard dollarni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 110 foizga o‘sganini ko‘rsatdi.

Xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlat moliya tashkilotlari tomonidan mamlakatimizga 2,1 milliard dollar ajratildi, bu esa yillik prognoz 100 foizga bajarilganini anglatadi.



Manba: O‘zbekiston respublikasi raqamlarda (2018-2022 yillar)

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan sanoat korxonalarini tomonidan 3,8 milliard dollar (prognozga nisbatan 103 foiz) o‘zlashtirildi. Mintaqaviy loyihalar bo‘yicha bu ko‘rsatkich 5,2 milliard dollarga yetdi yoki prognozning 130 foizini tashkil etdi. Investitsiyalar hajmi bo‘yicha yetakchi tarmoqlar energetika, metallurgiya, kimyo sanoati, elektrotexnika, axborot texnologiyalari, qurilish, farmatsevtika, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqalardir. O‘zbekiston iqtisodiyotiga jami 50 dan ortiq davlat sarmoya kiritadi. Eng sarmoyador davlatlar beshligiga quyidagilar kiradi:

- Xitoy - 2,2 milliard dollar;
- Rossiya — 2,1 milliard dollar;
- Turkiya — 1,18 milliard dollar;
- Germaniya – 800,7 million dollar;
- Janubiy Koreya - 137,4 million dollar

Umuman olganda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni va yuqori texnologiyalarni, korxonalar faoliyatiga jalb qilish ishlab chiqarish usullariga muayyan o‘zgartirishni olib kiradi [4, b. 9].

O‘zbekiston respublikasida davlat budjetidan, 2022 yilda ajratilgan investitsiyalar miqdori 20,9 trilion so‘mni, tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi 2,5 trilion so‘mni, davlat tomonidan kafolatlangan xorijiy investitsiyalar 15,2 trilion so‘mni, korxonalarining o‘z mablag‘lari 84,5 trilion so‘mni, aholi mablag‘lari 25,8 trilion so‘mni, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 37,0 trilion so‘mni, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarzlari 21,1 trilion so‘mni, davlat tomonidan kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar 60 trilion so‘mni tashkil etdi,

Shuni ta‘kidlash lozimki, O‘zbekiston respublikasi prezidenti huzurida mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish bo‘yicha maslahat va ekspert yordamini ko‘rsatadigan Ekspert kengashi tuzilgan va investitsiya loyihalari tanlash hamda tahlil qilishga doir bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmog‘da.

Xulosa va takliflar.

Mamlakatimizda investitsiyalarni faollashtirish uchun uni iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmi takomillashtirish lozim. Bunday chora-tadbirlardan biri sarmoyadorlarga soliq imtiyozlarini berish bo‘lishi mumkin. Yangi texnologiyalarga investitsiya yo‘naltirilgan moliyaviy, logistika va boshqa resurslar uchun sarmoyadorlar soliq imtiyozlariga ega bo‘lishlari kerak.

Investitsiya jarayonida lizing mexanizmidan faol foydalanish turli shakldagi korxonalarining innovatsion va investitsiya faoliyatini faollashtirish, ularning moddiy-texnik bazasini yangilash, mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar oqimining jonlanishini quyidagicha baholash mumkin. Birinchidan, xorijiy investitsiyalar eksport va valyuta ayirboshlashni ta'minlaydi, ikkinchidan, iqtisodiyotga yangi texnologiyalar va boshqaruvning yangi usullarini olib keladi. Bu esa mahalliy sanoatning yangi bozorlarini rivojlantirish va rag'batlantirishga yordam beradi. Uchinchidan, xorijiy sarmoyalarning kirib kelishi mintaqada ham, mintaqalararo va xalqaro munosabatlarda ham ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, moliyalashtirishning turli yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston respublikasi va uning barcha voloyatlarining asosiy kapitaliga investitsiyalar tarkibini tahlil qilish, uning yaxshilanish tendentsiyasi bor degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Ushbu o'zgarishlarning ijobiy xususiyati shundaki, davlat byudjet mablag'lari ulushi kamayib, tijorat tashkilotlari mablag'lari ulushi ortib bormoqda, bu bozor iqtisodiyotiga xosdir. Xususiy sarmoyalardan davlat investitsiyalariga qaraganda yaxshiroq foydalanilishi barcha rivojlangan davlatlar hayotida isbotlangan. Biroq, zamonaviy sharoitda mintaqaviy investitsiya jarayonining shakllanishi iqtisodiy rivojlanishning o'zagi bo'lgan moliyaviy-investitsiya siyosati tamoyillarining aniq ishlab chiqilgan tizimining yo'qligi bilan bog'liq. Mintaqaviy investitsiya jarayonining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar quyidagilar edi va shunday bo'lib qolmoqda:

- iqtisodiyotning real sektori korxonalarining zaif moliyaviy ahvoli (zararli korxonalarining salmoqli qismi);
- daromadlilikning pastligi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya maqsadlarida o'z mablag'larining etishmasligi;
- investitsiya xatarlarining yuqori darajasi, ko'p hollarda aylanma mablag'larni to'ldirish uchun foydalaniladigan amortizatsiya ajratmalaridan noto'g'ri foydalanish va boshqalar.

Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, shunday xulosaga kelish mumkin, moliyalashtirishning turli sohalarida investitsiyalar tarkibini tahlil qilish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu turdagi tahlilning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u investitsiyalar tarkibidagi tendentsiyalarni aniqlash va shu asosda yanada samarali va istiqqobolli investitsiya siyosatini ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.Smit. Xalqlar boyligining tabiati va sabablari haqida tadqiqot / Eksklyuziv klassika. M. AST nashriyoti. 2020. 1072 b. (A. Смит. Исследование о природе и причинах богатства народов / Эксклюзивная классика. М. Издательство АСТ. 2020. 1072 с.)
2. К. Marks. Kapital. M. Davlat siyosiy adabiyot nashriyati. 1952 yil, 509 b.
3. A.V.Вахабов, Ш.Х.Хажикабиев, Н.Г.Муминов. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма.– Т.: «Молия», 2010, 330 бет.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent.O'zbekiston nashriyoti.2022 yil. 127 b.
5. O'zbekiston respublikasi raqamlarda. 2018-2022 yillar uchun chiqarilgan statistic to'plam.Toshkent. 2022 yil.

ИНВЕСТИЦИЯЛАР ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МУҲИМ КЎРСАТКИЧЛАРИ

Раджапбай Дусмуратов

Тошкент давлат иқтисодийёт университети, и.ф.д., профессор.

Аннотация: Ушбу мақолада инвестицияларнинг рентабеллик коэффициентини, инвестиция лойиҳаларининг рентабеллик коэффициенти (*ARR*), ички рентабеллик нормаси (*IRR*) ва рентабеллик индекси (*PI*) ҳисоблаш ҳамда муқобил муддатларидан мақбулини танлаш мезонлари тавсия этилган. Мақола инвесторлар, лойиҳа менежерлари ва молиявий консултантлар учун мўлжалланган.

Калит сўзлар: инвестиция, бизнес-режа, инвестицион лойиҳа, рентабеллик коэффициенти, дисконтлаш, инвестицион харажатлар, ички рентабеллик коэффициенти

Маълуми, инвестиция лойиҳаларини комплекс экспертиза қилиш ва иқтисодий самарадорлигини баҳолаш заруратини кучайтириб, бу борада вужудга келаётган муаммоларни ҳал этиш зарурлиги

аён бўлмоқда. Хусусан, аграр соҳада фаолият юритаётган хўжалик субъектларининг жалб қилинаётган инвестициялардан фойдаланиш даражаси қониқарсизлигича қолмоқда. Ушбу муаммолар бир томондан, аграр соҳа корхоналари, хусусан фермер хўжаликларининг тўлов қобилиятига бориб тақалса, иккинчи томондан, тузилаётган инвестиция лойиҳаларининг техник-иқтисодий асосномалари (ТИА) пухта ишлаб чиқилмаётганлиги ва иқтисодий самарадорлиги илмий-услубий асосланмаётганлиги билан боғлиқ.

Ушбу муаммолар инвестиция лойиҳаларини амалга оширишдан олдин уларнинг иқтисодий самарадорлигини аниқ баҳолашни талаб этади. Шу боис, мазкур мақолада инвестиция лойиҳалари самарадорлигини баҳолашнинг муҳим методларини кўриб чиқамиз. Жумладан, инвестицияларнинг ёки инвестиция лойиҳаларининг рентабеллик коэффициенти (*ARR*)ни аниқлаш методи инвестиция объектининг самарадорлигини ифодалайди. Ушбу коэффициент қуйидаги хусусиятларга эга: *биринчидан*, у «соф фойда» кўрсаткичи бўйича аниқланади; *иккинчидан*, уни ҳисоблаганда даромад дисконтланмайди.

Инвестицияларнинг рентабеллик коэффициенти (*ARR*) қуйидаги формула бўйича ҳисобланади:

$$ARR = \frac{CF_{\text{ўрт.}}}{IC}, \quad (1)$$

Бунда: $CF_{\text{ўрт.}}$ – режалаштирилаётган давр(ойлар, йиллар) давомида инвестициялардан олинган режалаштирилаётган ўртача пул тушумлари(ёки соф фойда);

IC (*Investment Capital*) – инвестицияланадиган капитал, яъни инвесторнинг инвестиция фаолияти объектига қилинадиган дастлабки харажатлари.

Инвестициялар рентабеллик коэффициентини ҳисоблаш формуласининг бошқача шакли ҳам мавжуд. Бунда режалаштирилаётган давр давомида инвестиция объекти(лойиҳаси)га қўшимча қўйилмалар амалга оширилади. Шу боис, инвестиция даври учун капиталнинг ўртача қиймати олинади. Юқоридаги формула қуйидаги кўринишга келади:

$$ARR = \frac{PN}{0,5(IC - RV)}, \quad (2)$$

Бунда: PN – инвестициялардан олинган ўртача йиллик соф фойда;

RV – лойиҳанинг қолдиқ (тугатилиш) қиймати.

Ушбу кўрсаткич бутун корхона бўйича олинган умумий соф фойдани унинг фаолиятига авансланган маблағларнинг умумий суммасига бўлиш йўли билан аниқланган, авансланган капиталнинг рентабеллик коэффициенти билан таққосланади.

Инвестиция лойиҳасининг асосий ўлчам(тавсиф)лари қуйидагича: бирламчи инвестиция (IC) 370 000,0 млн. сўм; 5 йил давомида олинган режалаштирилаётган пул тушумлари мос равишда (млн. сўм): 85 000, 0; 110 000, 0; 167 000, 0; 180 000,0 ва 140 000,0.

Инвестиция лойиҳасининг мақбуллигини рентабеллик коэффициенти (*ARR*) методи бўйича баҳолаш мезонини ҳисоблаймиз (1-жадвал).

Инвестицияларнинг рентабеллик коэффициенти (ARR) кўрсаткичининг афзалликлари ва камчиликлари.

Рентабеллик коэффициенти (*ARR*) кўрсаткичининг афзаллиги фақат уни ҳисоб-китоб қилишнинг соддалигидан иборат.

1-жадвал. Инвестиция лойиҳасини *ARR* мезони бўйича баҳолаш (млн. сўм)

Давр (йиллар)	Бирламчи инвестиция (IC)	Пул тушуми, t -йилда (Vt)
0	370 000	-
1	-	85 000
2	-	110 000
3	-	167 000
4	-	180 000
5	-	140 000
V =		682 000

$$V=85\,000 + 110\,000 + 167\,000 + 180\,000 + 140\,000 = 682\,000:5 = 136\,400 \text{ млн. сўм.}$$

$$ARR = \frac{CF_{\text{ўпм.}}}{IC} = \frac{136400}{370000} = 36,9\%$$

Ушбу коэффициентнинг камчилиги сифатида инвестиция лойиҳасидан келгусида олинадиган пул тушумларини прогнозлашнинг мураккаблигини кўрсатиш мумкин. Инвестиция лойиҳалари иқтисодий самарадорлигини баҳолашнинг яна бир муҳим кўрсаткичи - инвестицияларнинг ички рентабеллик нормаси (*IRR*) дейилганда лойиҳанинг NPV кўрсаткичи нолга тенг бўлгандаги дисконтлаш коэффициенти тушунилади:

$$IRR = r, NPV = f(r) = 0. \text{ Бўлганда, } (3)$$

Инвестицияларни режалаштиришда рентабеллик нормасини таққослаш учун «капитал харажатлар» (*CC*)¹ асос бўлиб, у корхонада сафарбар қилинган капиталнинг вужудга келган энг кичик қайтими (рентабеллиги)ни ифодалайди. У ташқи молиялаштиришнинг барча манбалари бўйича ўртача арифметик тортилган усул формуласи бўйича ҳисобланади.

Шундай қилиб, инвестицияларни режалаштиришда рентабеллик даражаси жорий *CC* кўрсаткичидан паст бўлмаган лойиҳалар самарали ҳисобланади. Бунда агар:

$IRR > CC$ бўлса, лойиҳа маъкулланади;

$IRR < CC$ бўлса, лойиҳа рад этилади;

$IRR = CC$ бўлса, лойиҳа фойда келтирмайди, аммо зарар ҳам кўрилмайди.

Инвестицияларнинг рентабеллик нормасини ҳисоб-китоб қилиш учун дисконтланадиган кўпайтимлар қийматини табуляциялашдан фойдаланилган ҳолда кетма-кет итерациялаш услуби қўлланилади. Бунинг учун дисконтлаш коэффициентининг $r_1 < r_2$ бўлган иккита қиймати жадвал ёрдамида (r_1, r_2) интервалда $NPV = f(r)$ функцияси ўз қийматини «+» дан «-»га ёки «-» дан «+» га ўзгартирадиган чегара танланади. Сўнгра қуйидаги формула қўлланилади:

(4)

$$IRR = r_1 + \frac{f(r_1)}{f(r_1) - f(r_2)} \cdot (r_2 - r_1)$$

r_1 - бунда дисконтлаш коэффициентининг ($f(r_1) > 0$) ($f(r_1) < 0$) бўлгандаги табуляцияланган қиймати;

r_2 - бунда дисконтлаш коэффициентининг ($f(r_2) < 0$) ($f(r_2) > 0$) бўлгандаги табуляцияланган қиймати.

Ҳисоблашнинг аниқлиги (r_1, r_2) интервал узунлигига тескари пропорционал бўлиб, табуляцияланган қийматлардан фойдаланган ҳолда интервал узунлиги энг кичик бўлган вақтда (1%га тенг), энг яхши аппроксимацияга эришилади, яъни r_1 ва r_2 - дисконтлаш коэффициентларининг қиймати бир-бирига яқин бўлиб, шартлари бажарилади (функция белигиси «+» дан «-»га ўзгарган ҳолда).

r_1 - NPV кўрсаткичи ижобий қийматини энг паст даражага тушурадиган, яъни $r_1 - f(r_1) = \min \{f(r) > 0\}$ бўлгандаги дисконтлаш коэффициентини табуляцияланган қиймати;

r_2 - NPV кўрсаткичи салбий қийматини энг юқори даражага кўтарадиган, яъни $r_2 - f(r_2) = \max \{f(r) < 0\}$ бўлгандаги дисконтлаш коэффициентини табуляцияланган қиймати.

r_1 ва r_2 коэффициентларни ўзаро алмаштириш йўли билан функция «-» дан «+» га ўзгарган вазият учун шунга ўхшаш шартлар бажарилади.

2-жадвал Инвестиция лойиҳасини *IRR* мезони бўйича баҳолаш

<i>IRR</i> ни баҳолаш мезонлари	Лойиҳа бўйича хулоса
$IRR > CC$	Инвестиция лойиҳасига сарфланган капитал ўз қийматидан юқори даромад келтиради. Бундай лойиҳа фойдали ҳисобланади.
$IRR = CC$	Бундай лойиҳадан олинган даромад харажатларни тўлик қоплайди, лекин фойда олинмайди ва шунинг учун маъкулланмайди.

¹ Айрим хориж манбалари ва амалиётида *IC* (*Investment Capital*) «инвестицияланадиган капитал» тушунчаси ўрнига «капитал харажатлар» *CC* (*Cost of Capital*) тушунчаси қўлланилади. Улар мазмунан бир хил тушунчалардир.

$IRR < CC$	Бундай лойиҳадан олинган даромад сарфланган капитални қопламайди, яъни зарар кўрилади. Шунинг учун рад этилади.
------------	---

Инвестициялар самарадорлигини баолашнинг муҳим кўрсаткичларидан яна бири – рентабеллик индекси (PI) қуйидаги формула бўйича ҳисобланади:

$$PI = \frac{PV}{IC}, \quad (5)$$

Агар $PI > 1$ бўлса лойиҳа самарали; $PI < 1$ бўлса лойиҳа самарасиз; $PI = 1$ бўлса лойиҳадан фойда ҳам олинмайди, зарар ҳам кўрилмайди.

Корхонада 3та муқобил (А, В ва С) инвестиция лойиҳаларидан қайсиниси мақбуллиги масаласи кўриб чиқилмоқда (3-жадвал). Уларнинг амалга оширилиш муддатлари 5 йилдан бўлиб, шу даврда ҳар йили мос равишда: А лойиҳа — 19 050,0 млн. сўм, В лойиҳа — 10 795,0 млн. сўм ва С лойиҳа — 29 464,0 млн. сўм доимий даромад келтириши режалаштирилган. Лойиҳанинг дисконтлаш ставкаси -10%. Қайси лойиҳа корхона учун мақбул?

$$PV_A = 17\,318 + 15\,744 + 14\,313 + 13\,011 + 11\,829 = 72\,214,0 \text{ млн. сўм.}$$

$$PV_B = 9\,814 + 8\,921 + 8\,110 + 7\,373 + 6\,703 = 40\,922,0 \text{ млн. сўм.}$$

$$PV_C = 26\,785 + 24\,350 + 22\,137 + 20\,124 + 18\,295 = 111\,692,0 \text{ млн. сўм.}$$

3-жадвал . Лойиҳалар мақбуллигини PI мезони бўйича баҳолаш (млн. сўм)

Лойиҳа номи	Бирламчи инвестициялар суммаси, (IC)	t -нчи йилда пул тушуми, (P_t)	PV	NPV	Рентабеллик индекси, (PI)
А	63 500,0	19 050,0	72 214,0	8 714,0	1,14
В	38 100,0	10 795,0	40 922,0	2 822,0	1,07
С	101 600,0	29 464,0	111 692,0	10 092,0	1,10

Жадвал маълумотларини таҳлил қилиш асосида хулоса қилиш мумкинки, кўриб чиқилаётган инвестиция лойиҳаларидан NPV кўрсаткичи бўйича энг мақбули С лойиҳа бўлса, рентабеллик индекси (PI) бўйича А лойиҳа ҳисобланади. Баён қилинганлар асосида инвестиция лойиҳасининг рентабеллигини баҳолаш мезонларини тақдим этамиз (4-жадвал).

Рентабеллик индекси (PI) соф жорий қиймат (NPV) кўрсаткичидан фарқ қилиб, нисбий кўрсаткич ҳисобланади. Бу бир қанча муқобил (альтернатив) лойиҳалардан мақбулини танлашга қулайлик яратади.

4-жадвал. Инвестиция лойиҳасини PI мезони бўйича баҳолаш

PI ни баҳолаш мезонлари	Лойиҳа бўйича хулоса
$PI > 1$	Инвестиция лойиҳаси ўзини-ўзи қоплаб, қўшимча даромад келтира олади ва уни қабул қилиш мақсадга мувофиқ
$PI < 1$	Инвестиция лойиҳаси унга қилинадиган капитал харажатларни тўлиқ қоплай олмаслиги боис, уни рад этиш тавсия қилинади.
$PI = 1$	Инвестиция лойиҳаси танланган дисконт ставкасига тенг бўлган даромаднигина таъминлай олади.
$PI_1 > PI_2^*$	Бир нечта муқобил лойиҳалардан қайси мақбуллигини аниқлаш мақсадида улар ўзаро таққосланади. Биринчи лойиҳа афзал бўлганлиги учун иккинчиси рад этилади.

Шундай қилиб, замонавий илмий қарашлар, норматив ҳужжатлар ва услубий қўлланмаларда инвестиция лойиҳаларининг иқтисодий самарадорлигини комплекс баҳолаш бўйича ягона универсал ёндашув мавжуд эмас. Шу боис, инвестиция лойиҳасини таҳлил қилишда объектнинг ўзига хос (ташкилий-ҳуқуқий, тармоқ, технологик ва б.) хусусиятларидан келиб чиққан ҳолда мавжуд методларнинг турли комбинацияларидан фойдаланиш тавсия этилади. Бу инвестиция рискларининг олдини олиш, баргарф этиш ва ниҳоят самарадорликни оширишни таъминлайди.

Инвестиция лойиҳаларининг иқтисодий самарадорлигини комплекс, тезкор ва сифатли баҳолаш учун компьютер дастурларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Юқорида келтирилган кўрсаткичларни (ARR , IRR , PI) Excel дастурлари асосида аниқлаш, таҳлил қилиш ва хулосалар шакллантириш амалиётда юқори самара беради. Шунингдек, инвестиция даври давомида лойиҳа менежерларига кўрсаткичлар ўртасидаги боғлиқликларни кузатиш (мониторинг) ва у ёки бу вазиятларнинг сабабларини аниқлашга ёрдам беради.

Инвестиция лойиҳаларининг иқтисодий самарадорлик кўрсаткичларини ҳисоблаш ҳамда муқобил

инвестиция лойиҳаларидан мақбулини танлаш мезонлари самарали инвестиция қарорларини қабул қилишга имкон яратади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 17 январ 2019 йилдаги ПФ- 5635 сонли «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «*Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили*»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида» Фармони. [www. Lex.uz](http://www.lex.uz).
2. R.D.Dusmuratov. MOLIYA. Darslik,. Т.: «Молия» нашриёти, 2008 й. -472 б.
3. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi Me`yoriy hujjatlar bazasi portali

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-IQTISODIIY TARAQQIIYOT JARAYONLARI VA MUAMMOLARI

Jiyanov Laziz Nizomovich
Buxoro davlat universiteti

Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasi o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasidagi barcha iqtisodiy sohalarni rivojlanishi uchun etarli ilmiy va amaliy poydevormavjud. O‘zbekistonda iqtisodiyotni zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlash va uning tarkibi, xususan, tarmoq va hududiy tuzilishi takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor tizimini tashkil qilish jarayonlarida iqtisodiyotdagi subektlarning amal qilishi va rivojlanishi iqtisodiy qonuniyatlar asosida vujudga kelmoqda. Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti dunyoning ko‘pchilik mamlakatlari uchun xos bo‘lib, u turli mamlakatlarda har xil darajada va o‘ziga xos xususiyatlar bilan amal qilmoqda va rivojlanmoqda. Bu iqtisodiyotning amal qilish mexanizmi ko‘lab asrlar davomida tarkib to‘ib, shakllanib, hozirgi davrda madaniylashgan shaklni kasb etdi va ko‘gina mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi.

Yurtimizda iqtisodiy qonuniyatlar doirasida barcha sub’ektlar ichki va tashqi resurslar va sarmoyalar evaziga tashkil etilmoqda. Mamlakatda kichik va o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo‘lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo‘yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli imkoniyatlar vujudga keltirildi. Bugungi kunda, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdagi bosh vazifa, eng avvalo, davlatning nazorat va boshqaruv funksiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo‘jalik faoliyatiga, birincha galda, xususiy biznes faoliyatiga behuda aralashuvini cheklashdan iborat va sub’eklar ishini qo‘llab – quvvatlash hamda tizimlarni shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha tizim tarkibiga esa ishlab chiqarishning shaxsiyinsoniy va moddiyashyoviy omillari kiradi, ularning birbirini taqozo etishga asoslangan yaxlitligi jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlari deb yuritiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimga iqtisodiy faoliyat natijasi bo‘lgan ijtimoiy, ya’ni jamiyat miqyosida yaratilgan mahsulot ham kiradi.

Odatda, tizimlarda mehnat taqsimoti yuz berib, mehnat, birinchidan, ixtisoslashadi; ikkinchidan, mehnat turlari bir-biri bilan bog‘lanib, birbirini to‘ldiradi. Natijada mashg‘ulot jamiyatdagi o‘zaro bog‘langan Mehnat turlarining natijasi bo‘ladi. Hamma tizimlarda mehnat turlari o‘rin almashadi, kishilar bir mehnatdan boshqa mehnatga o‘tadilar, o‘z kasbini o‘zgartiradilar. Qayerda bo‘lmasin mehnat malaka va mahoratni talab qiladi. Turli tizimlarda, ularni tashkil etuvchi unsurlar bir xil bo‘lsada, ularning o‘zaro bog‘lanishi har xil bo‘ladi. Shunday bog‘lanishlar orasida ishlab chiqarish omillarining birikishi mulkiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Tizimda omillarning birikish usuli asosiy o‘rin tutadi, shu jihatdan tizimlar farqlanadi. Turli tizimlarga baho berilganda ularning xalq farovonligi uchun nima bera olganligi bosh mezon bo‘ladi. Hozirgi taraqqiyot bosqishida turli tizimlarning samarali ekanligini xalq farovonligining o‘sishi ko‘rsatib turadi. Farovonlikni oshirish, bilish qobiliyati tizimning yashovshanligi yoki uning boshqasi bilan almashuvi zarurligini bildiradi.

Turli tizimlar tahlil etilganda, ularni farqlantiruvshi mezonlar asos qilib olinadi, bular ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi, mulkiy munosabatlarning xarakteri, xo‘jalikiqtisodiy aloqalar mazmuni, xalq iste‘moli darajasi, sinfiy belgilar. Tizimlar turli nazariyalarda har xil mezon asosida tabaqalashtiriladi. Marksizm nazariyasida mulkiysinf mezonlar asos qilinib, tizimlar formatsiya deb qaraladi. Marksizm ta’limotiga ko‘ra besh formatsiya mavjud: ibtidoiyjamoatuzumi, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va nihoyat kommunistizm. O‘tgan XX asrning 60-chi yillarida marksizمنى almashtira oladigan ta’limot sifatida «rivojlanish bosqishlari» nazariyasi paydo bo‘ldi. Mazkur nazariya tizimlarni tahlil etishda ishlab chiqaruvchi kuchlarning yetuklik darajasini mezon qilib oladi. Bu nazariya mualliflari jamiyatni ikki

tipga bo‘lishadi: an‘anaviy jamiyat, industrial jamiyat. Shunga monand ravishda iqtisodiy rivojlanishning olti bosqishi ajratiladi:

- traditsion jamiyat;
- o‘tkinshi jamiyat;
- industrial jamiyatga o‘tish;
- industrial jamiyat;
- ommaviy iste‘mol jamiyati;
- yangi turmush tarsi.

Iqtisodiy tizimlar mulkchilikka asoslangan holda vujudga keladi. Inson ma‘lum bir faoliyat yoki mehnat orqali avloddanavlodga o‘tgan oyliklar va tabiat in‘om etgan boyliklar mulk bo‘lib kelgan. Mulkgasi bo‘lish yoki bo‘lmaslikka qarab, kishilarning jamiyatdagi mavqei, ularning ijtimoiy maqomi yuzaga keladi. Iqtisodiyot doimo mulkiy munosabatlarga asoslanadi. Mulkgchilikning qay darajada rivojlanganligi mamlakat iqtisodiy ravnaqini ko‘rsatib beradi.

O‘zbekiston Respublikasida mavjud tabiiy zaxiralar, iqtisodiy, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, cheklangan zahiralardan yuqori samara olish, aholini ish bilan ta‘minlash, iqtisodiy o‘shirishni ta‘minlash bo‘yicha islohotlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni, ayniqsa, tadbirkorlarni rivojlantirishga oid iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, milliy valutamizni muntazam ravishda mustahkamlab borish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun soliq yukini kamaytirish, chetdan olib kiriladigan sarmoyalarga keng yo‘l ochib berish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun rag‘batlantiruvchi omillar yaratish demakdir. Iqtisodiyotning ijtimoiy yo‘nalishini kuchaytirish, ishlab chiqarishni iste‘molchilar talablari asosida tashkil etish hamda fuqarolar erkinligiga keng yo‘l ochib berish, ularning mavjud imkoniyatlardan to‘la foydalanishi, yuqori unum, yoshlarimizning tashabbuskorlik va tashkilotchilik asosida tadbirkorlik faoliyati olib borishlarini ta‘minlashdir. Ta‘kidlaganimizdek kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatni ham iqtisodiy ham ijtimoiy tomonlama qo‘llashidan kelib chiqib bu sohani mamlakatda rivojlantirish va uni tashkiliy huquqiy asoslarini ta‘minlash orqali yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy - ijtimoiy siyosatlar yetarli darajadadir.

Jamiyatda mulkgchilik munosabatlari davlat hududida mavjud bo‘lgan moddiy va moliyaviy boyliklarni o‘zlashtirish xususidagi iqtisodiy munosabatlar. Mulkgchilik, birinchidan, inson bilan boylik o‘rtasidagi munosabat, ikkinchidan, boylik yuzasidan kishilar o‘rtasidagi munosabat. Mulkgchilik o‘zlashtirish borasidagi munosabat bo‘lar ekan, u egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishning yaxlitligini taqozo etadi. Mana shu uch jihat mulkgchilikning ajralmas unsurlaridir. Egalik qilish - mulkgdorlik huquqining mulkg egasi qo‘lida saqlanib turishidir. Egalik sharoitida mulkg bo‘lgan boylik qisman o‘zlashtiriladi. Mulkgga egalik saqlangan xolda, uni amalda ishlatish o‘zga qo‘lida bo‘ladi. Buning oqibatida mulkgdan kelgan naf ikki qismga ajraladi: bir qismini mulkgdor, ikkinchisini mulkgni amalda ishlatuvchi o‘zlashtiradi. Foydalanish, ishlatish-mulkg bo‘lgan boylikni iqtisodiy faoliyatda qo‘llab, xo‘jalik jarayoniga kiritib, undan natija olish.

Foydalanish yuz berganda boylik daromad topish yoki shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun ishlatiladi. Mulkgdor o‘z mulkgini o‘zi ishlatganda egalik qilish va foydalanish bir qo‘lda bo‘ladi. Ya‘ni mulkgdor mehnatidan topgan foydani o‘zi o‘zlashtiradi. Tasarruf etish - mulkg bo‘lgan boylik taqdirini mustaqil ravishda etish, ya‘ni mulkgni sotib yuborish, ijaraga berish, merosga qoldirish, asrabavaylab ko‘paytirish yoki uni yo‘qotib yuborishdan iborat xattixarakatlarni amalga oshira bilishdir. Mulkgdor o‘z molmulkgiga nisbatan qonunga zid bo‘lmagan har qanday xattixarakatlarni qilishga raqlidir. U mulkgdan qonun bilan taqiqlanmagan har qanday xo‘jalik yoki boshqa faoliyatni amalga oshira oladi.

O‘zbekiston Respublikasida rivojlangan mamlakatlar tajribasiga asoslangan holda tadbirkorlik va xususiy sektorni shakllantirish hamda rag‘batlantirishda katta e‘tibor berilmoqda. Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining “ Tadbirkorlik to‘g‘risidagi” va “ Tadbirkorlikni rag‘batlantirish”, “ Tadbirkorlik sohasini erkinlashtirish kafolatlari” to‘g‘risidagi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlarning qabul qilinishi mamlakatda tadbirkorlikni shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim baza sifatida xizmat qilmoqda. Iqtisodiy qonunlar vositasida tarmoqlar tizimini tashkil qilishdan asosiy maqsad mamlakat iqtisodiyotida mavjud bo‘lgan ijtimoiy- iqtisodiy muammolarni hal qilish bilan birga bu sohani birinchi navbatda qonuniy bazasini yaratishni tadbiiq etadi. Bu esa o‘z navbatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga ko‘proq erkinlik berilishi ularda o‘z faoliyatining yakuniy natijalari uchun javobgarlik hissini yanada oshiradi. Shu jihatdan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

ЧЕТВЕРТАЯ ПРОМЫШЛЕННАЯ РЕВОЛЮЦИЯ И ЕЕ ОТВЕТ*Канг Хи Чон, КОИСА, Южная Корея***1. Что такое Четвертая промышленная революция?**

В истории человечества промышленная революция началась с изобретения парового двигателя (первичного) в 1780-х годах. Внутренняя ручная система стала заводской системой. В 1870-х годах изобретение электричества (вторичное) позволило массовое производство. Третья промышленная революция была цифровой революцией, которая началась в конце 1960-х годов. Началась эпоха информационных технологий с помощью бизнес-мейнфреймов, персональных компьютеров и Интернета. 4-я промышленная революция относится к интеграции людей, объектов и пространства посредством слияния искусственного интеллекта (AI), больших данных и роботов в расширение этой эпохи информационных технологий.

Четвертая индустрия была концепцией, появившейся в начале 2000 года в Германии и Великобритании с желанием построить автоматизацию производства. Однако четвертая промышленная революция была впервые упомянута на Всемирном экономическом форуме в Давосе, Швейцария, 20 января 2016 года. WEF сообщил в своем докладе «Будущее рабочих мест», что четвертая промышленная революция появится в ближайшем будущем и что это приведет к социальным структурным изменениям, называемым сменой работы. Кроме того, четвертый промышленной революции, на основе цифровых времен революции конвергенции технологий на границе физического пространства, цифрового пространственного и биологического пространства разбавлением, как кибер-физической системы, как это определено, а на основе (КПС Cyber-физической системы) Ожидается, что четвертая промышленная революция окажет серьезное влияние на промышленные структуры и модели рыночной экономики во всем мире¹).

Ожидается, что четвертая промышленная революция и будущие социальные изменения будут вызваны технологическими изменениями и социально-экономическими изменениями. В частности, «Будущее рабочих мест (WEF, 2016)» является «рабочей среды и изменения в пути», «появление среднего класса на развивающихся рынках и, изменения климата», такие как социальные • Ключевые драйверы изменения книг по экономике, науке С точки зрения технологии, технологии, такие как «Мобильный Интернет», «Облачные технологии», «Большие данные», «Интернет вещей» (IoT) и «AI», как ожидается, станут основными факторами изменений.

Четвертая промышленная революция нацелена на «суперсвязь» и «суперразведку» и быстро входит в мир, которого никто никогда не испытывал раньше. Однако изменения, вызванные Четвертой промышленной революцией, в некоторых отношениях отличаются от предыдущих. Во-первых, если промышленная революция прошлого была процессом замены человеческого физического труда, это заменило бы интеллектуальные способности человека в будущем. Во-вторых, если связь между людьми была усилена до сих пор, связь между людьми и объектами будет усилена в целом. В-третьих, если изменения произошли вокруг фактического пространства, фактическое пространство будет ускорено путем объединения с виртуальным пространством. Ожидается, что эти изменения приведут к коренным изменениям в экономике и обществе вне технологии.²

2. Как готовятся страны мира?

В дополнение к США, Японии и Германии, которые являются промышленно развитыми странами, Китай и Россия также готовятся к четвертой эпохе промышленной революции на национальном уровне, мечтая об отмене промышленной гегемонии во всем мире. Соединенные Штаты проводят политику, направленную на развитие новых отраслей, таких как «Инновационная стратегия США» и «Национальная инновационная сетевая сеть (NNMI)». Кроме того, у Японии есть видение новой промышленной структуры, Германия - новая высокотехнологичная стратегия, Китай производит 2025 и Internet Plus, Нидерланды - Smart Industry, Швейцария - Digital Switzerland, Национальная технологическая инициатива "и другие стратегии для подготовки к четвертой эпохе промышленной революции.³

¹ Ким Цзиньха, «Четвертая промышленная революция, поиск стратегического ответа на будущие изменения в обществе»

² Корейское будущее науки о создании, «Производство и потребление в эпоху четвертой промышленной революции», 2017.4.

³ КОТРА, «4-я эра индустриальной революции, тенденции развития и развития высоких технологий», Новости торговли, апрель 2016 г.

Экосистема также спешит построить платформу сотрудничества между предприятиями, научными кругами и правительством. Ключевым моментом является сокращение разрыва между высокотехнологичными идеями компаний и коммерциализацией. Правительство помогает частному сектору свободно исследовать новые технологии и поддерживать коммерциализацию, чтобы они могли поддерживать полную бюджетную поддержку, нормативное обслуживание и строительство платформы, а не прямое вмешательство. В качестве примеров можно привести «Инновационный центр производства (МЦ) США», «Инициатива по научным исследованиям в области высоких технологий», «Инновационный кластер» в Германии, «Полевая лаборатория» в Нидерландах, «Четвертая И отраслевая целевая группа (генеральный директор является генеральным директором частной компании).

Кроме того, правительства концентрируются на дерегулировании и модернизации системы. Япония внедрила систему мини-дерегулирования с 2014 года, что может предложить обзор правил со стороны самих компаний, таких как «Система устранения серых зон» и «система эмпирических исключений предприятий». Существует также программа под названием «песочница», которая временно применяет действующие правила. Германия делится информацией о болезнях пациентов и реализует «метод электронного здоровья», который позволяет телемедицину. Соединенные Штаты, Германия, Соединенное Королевство и Израиль приняли законодательство, касающееся автономных транспортных средств, и управляют ими из правовых рамок. Деревулирование, включая систему песочницы финансового регулирования¹.

Недавно Корея объявила о «Плане реагирования на индустриально-промышленную революцию» (30 ноября 2017 года). Основное содержание - это 4 вида интеллектуальных инноваций, обеспечение технологической конкурентоспособности, создание промышленной экосистемы и реагирование на будущие социальные изменения. Среди них задачи, связанные с интеллектуальными инновациями, заключаются в следующем: заданная дата - 2022.

- Медицина: расширение медицинской информации и электронных обменов по всей стране, индивидуальная диагностика и диагностика, расширение лечения, разработка новой разработки лекарств на основе ИИ

- Смарт-Сити: Устойчивая реализация модели умного города, основанная на интеллектуальном умном рассеивании дома на основе самоконтроля.

- Производство: Фаза оптимизации. Смарт-заводский спред, интеллектуальная совместная разработка роботов, производственное обслуживание

- Транспортировка: Интеллектуальное распространение сигнала, прогнозирование риска дорожно-транспортных происшествий, прогнозирование продвижения по службе

- Мобильный: Коммерческое использование автономной автострады, развитие промышленного гула, введение автономного судна

- Благополучие: Медсестринское дело • Внедрение робота поддержки сестринского дела, Инновационная помощь пожилым людям с деменцией

- Энергия: эффективность использования энергии, распространение интеллектуальной сети по всей стране, сокращение выбросов парниковых газов, разработка высокоэффективной технологии

- Окружающая среда: Точный контроль мелкой пыли, оптимальное управление качеством воды, диффузия умной воды и сточных вод, мониторинг окружающей среды с использованием IoT

- Финансы Логистика: Активация Pin Tech, Автоматизированная обработка грузов, Расширение интеллектуального логистического центра, Смарт-портовая конструкция

- Безопасность: Умение старых объектов, анализ преступности на основе искусственного интеллекта, поддержка оптимального маршрута безопасности

- Сельское хозяйство и сельское хозяйство: Прецизионное культивирование умных ферм 2-го поколения • Разработка роботов для разбрасывания, посева и сбора урожая

- Защита: внедрена интеллектуальная командная система, основанная на интеллектуальном мониторинге границ обороны и искусственном интеллекте.

Чтобы создать индустриальный мир, необходимо впервые в мире коммерциализировать 5G (март 2019 года), создать крупные специализированные центры для крупных отраслей промышленности, ввести регулируемые песочницы (2018 год),

¹ KOTRA, «4-я эпоха индустриальной революции, тенденции и последствия развития высокотехнологичных продуктов», Новости торговли, апрель 2016 г.

И 10-й триллион вон Инновационного фонда приключений и 4-й перспективной промышленной революции

Во-первых, он планирует увеличить коэффициент включения (с 12% в 2016 году до 15% в 2022 году).¹

3. Волна великих перемен, Четвертая промышленная революция уже началась.

Пойдите в Amazon, супермаркет на первом этаже штаб-квартиры в Сиэтле в Амазонке. Это первый в мире магазин без присмотра и кассир. Клиенты включают свои приложения Amazon (приложения) на своих смартфонах, входят в магазины и включают в свои корзины хлеб, молоко и бутерброды. Люди, которые видели главы, перемещают предметы в бумажный пакет, а затем идут в магазин, не вычисляя их. Появление длинной линии перед горой исчезло. После того, как камера и датчик, установленные в магазине, узнают, какие предметы находятся в сумке для покупок, люди оплачивают ее автоматически с помощью кредитной карты, зарегистрированной в приложении, когда они покидают магазин. Искусственный интеллект предсказывает объем продаж каждого предмета, ставит заказ и решает разместить продукт в основном на продуктах, которые многие люди находят. Amazon планирует открыть 2 000 магазинов Amazon только в США. Появление Amazon Zodiac - важное событие, которое поколебает концепцию розничной торговли, меняет стереотип размера магазина и отображения товаров, а также исчезает работа кассира.

У входа в салон красоты на четвертом этаже большого торгового города в Синдзюку, Токио, белый робот высотой около 120 см говорит людям, проходящим мимо: «Вы режете волосы?» Розничный робот Softbank «Perper». Perper отображает скидки и информацию о красоте на дисплее. «Я хорошо танцую, - говорит он. Когда вы «танцуете», ваши руки и бедра плавают. Когда клиент заинтересован, он начинает просить его снова порезать волосы. В Японии насчитывается более 10 000 единиц Perper, а клиенты Mizuho, Yamada, Nissan, вокзалы и другие места в Токио приветствуются клиентами.

В непринужденном ресторане под названием «eatsa» в центре Сан-Франциско выстроилась длинная очередь деловых людей во время обеда, но нет никакого способа найти клерка или сотрудника, делающего еду. Гости заказывают у входа в ресторан перед планшетным ПК и оплачивают кредитную карту. Подождите около 3 минут после того, как вы произведете платеж, и вы увидите имя на экране на стене ресторана и номер выхода, который вы можете съесть. Когда вы дважды попадаете в розетку, открывается дверь и заказывается еда.

В «комнате для медикаментов» на втором этаже здания штаб-квартиры Illumina находится компания, специализирующаяся на генетическом анализе в Сан-Диего, США. Оборудование «HiSeq», которое было запущено Illumina в 2014 году. Любой может анализировать свои собственные гены, если они тратят только 1000 долларов. Можно устранить риск возникновения, предварительно проанализировав возможность возникновения определенного заболевания с момента зачатия у пожилых людей. Illumina пообещала открыть в течение нескольких лет анализ гена в возрасте 100 долларов (около 110 000 вон).²

В Monsanto, крупнейшей в мире компании по выращиванию семян, ведется «Большая биография данных», которая меняет концепцию сельского хозяйства. Например, проанализируйте семена кукурузы, чтобы определить, сколько растёт кукуруза,

Может быть. Сравните анализ ДНК кукурузы с 12 миллионами больших данных ДНК кукурузы, проведенных Monsanto

Вы можете указать размер кукурузных листьев или кукурузных яиц, а также количество осадков, необходимое для роста. Теперь можно скринировать лучшие сорта, не испытывая и не выращивая урожай.

На фабрике «Слава» в Гайо, префектура Сайтама, Япония, 150-сантиметровый робот-манипулятор «NextAge», удерживает правление одной рукой и ставит эту деталь другой рукой. Собранные детали передаются сотруднику, который сидит по всей линии, а сотрудник вставляет дополнительную часть и доставляет ее следующему работнику. От 5 до 10 человек и от 3 до 5 роботов, работающих вместе на одной производственной линии. Масару Като, менеджер завода компании, сказал: «Роботы не исчерпаны и делают именно то, что они делают, и люди могут быстро справиться с внезапной ситуацией». «Давайте сделаем роботов и людей командой. И производительность увеличилась».³

¹ ITWorld, 1 декабря 2017 года.

² Chosun.com, 7 июля 2017 г.

³ Chosun.com, 7 июля 2017 г.

Небольшой город на юге Германии, Амберг имеет завод по производству деталей в Siemens, мировой электротехнической и электронной компании. В 2015 году количество единиц увеличилось более чем в восемь раз, до 2 миллионов единиц, а количество частей также увеличилось до более пяти тысяч. Количество дефектов на миллион продукции также значительно уменьшилось с 5,5 до 12. Но около 1000 сотрудников. Никаких производственных объектов не было добавлено. Завод Амберг связан с различными объектами: от производителей деталей, сборочных заводов, логистики до сбытовых компаний. Кроме того, все на заводе, включая производственное оборудование и компоненты, подключается к датчикам и интернет-облачным системам. Машины постоянно обмениваются информацией друг с другом. Машины автоматически регулируют производство в соответствии с количеством запаса. Сама производственная линия реорганизуется без людей. Другими словами, это означает, что различные продукты могут производиться в соответствии с различными требованиями потребителей. Таким образом, Четвертая промышленная революция заканчивает эпоху массового производства одного продукта с разнообразием и скоростью.¹

В дополнение к этим конкретным примерам Агентство по содействию торговле в Корею (KOTRA) разработало ряд промышленных роботов (страны происхождения), музыкальные столы (Япония), сельскохозяйственные дроны (Япония) (ИОТ), автономные транспортные средства (Китай), система прогнозирования погоды (Великобритания) с использованием открытых данных, 3D-принтер (Австралия) для человеческих органов, беспилотный майнинг, 3D-печать, продукты Big Data и т. Д., Были представлены в качестве продуктов четвертой эпохи индустриальной революции.²

Четвертая промышленная революция уже началась и будет развиваться в будущем. Но большинство современных технологий обсуждались сегодня, такие как искусственный интеллект, Интернет вещей и виртуальная (дополненная реальность).³ Можно сказать, что «Четвертое Общество Промышленной революции» было завершено только после того, как сочетание и связь с роботами, большие данные, слияние датчиков, квантовые компьютеры, облачные вычисления, биотехнология и нанотехнология являются зрелыми.

4. Каковы последствия четвертой промышленной революции и как мы должны реагировать?

Технология, спровоцированная Четвертой промышленной революцией, будет намного быстрее и шире, чем предыдущая революция. Это связано с тем, что сущность Четвертой промышленной революции не является специфической для какой-либо области, а именно «слияние и связь» и постоянно создает новые ценности. Проблема в том, что промышленная революция явно отличает победителей и проигравших. Первая промышленная революция сделала Великобританию «страной без солнечного света», а вторая промышленная революция превратила Соединенные Штаты в мировое господство. McKenzie сообщает «со всех частей четвертого раунда революции, таких как мобильный Интернет, автоматизацией и четыре воды Интернет, необслуживаемых автомобильных аккумуляторов, новые материалы будут продолжать доминирование развитых стран с развивающейся экономикой являются производство и информационно-коммуникационные технологии инфраструктуры, отсутствие воли к довольно классический» он сказал.⁴

В социальном плане есть положительные изменения, такие как повышение производительности за счет технологического развития, но есть и негативные изменения, такие как потеря работы. В частности, усовершенствования технологий автоматизации и компьютерных технологий будут напрямую влиять на работу, связанную с простой, повторяющейся администрацией офиса или низкоквалифицированными рабочими местами, что позволит снизить уровень занятости. Школа Оксфордского университета Мартина оценивает, что компьютеризация и автоматизация, вероятно, приведут к исчезновению 47 процентов их текущих рабочих мест в течение 20 лет.

Однако нет никаких негативных прогнозов относительно изменения рабочей среды. Существуют также прогнозы, что новые рабочие места появятся в техническом и военном секторах, связанных с четвертой промышленной революцией, и спрос на высококвалифицированных рабочих возрастет. В промышленном мире в области технологий создаются 2 миллиона новых рабочих мест, связанных с основными изменениями четвертой промышленной революции, такими как

¹ <http://www.newsquare.kr/issues/1206/stories/4919>

² KOTRA, «Эпоха промышленной революции, тенденции и последствия развития высокотехнологичных продуктов», Новости торговли, апрель 2016 г.

³ Jae-Hong Choi, НОВОСТИ SAMSUNG, 17 мая 2017 г.

⁴ <http://www.newsquare.kr/issues/1206/stories/4919>

искусственный интеллект, трехмерная печать, большие данные и промышленные роботы, а 65% из них будут новыми рабочими местами. Есть также перспективы (GE, 2016). Кроме того, спрос на рабочую силу в производственном секторе Германии, скорее всего, будет для работников с конкурентоспособными позициями в секторах ИТ и разработки программного обеспечения, причем 110 000 рабочих мест (96%) увеличиваются в области ИТ и интеграции данных. Ожидается, что обобщение искусственного интеллекта и роботизированного размещения увеличит количество рабочих мест в смежных областях, таких как координаторы роботов, на 40 000 (Boston Consulting Group, 2015).

Кроме того, в отчете WEF было установлено, что четвертая промышленная революция повлияла на Устойчивость Стабильности рабочей силы и изменила основные компетенции и компетенции, требуемые промышленным сектором, в результате чего «Сложные решения по решению проблем» (WEF, 2016).¹ Поэтому люди и компании, обладающие творческими способностями и навыками, и страны, которые активно поддерживают и способствуют им, быстро растут. Лица, предприятия и страны, которые этого не делают, потерпят неудачу.

Если да, то как мы должны реагировать? Согласно «производству и потреблению в эпоху четвертой промышленной революции», опубликованному корейским правительством, необходимо изменить процесс производства и потребления предприятия как контрмеры и трансформировать в платформу, распределяющуюся по всему миру. Создание системы и инфраструктур, соответствующих изменениям, изменениям, данным для поддержки производства и потребления будущего информационного информационного общества.

Укрепление инфраструктуры системы и инфраструктуры, создание культуры и этики для предотвращения побочных эффектов социальных изменений и максимизации выгод и усвоения этики устойчивости в отношении окружающей среды.

И создание экономической системы.

Таким образом, Четвертая промышленная революция - это не просто вопрос промышленности. В эпоху Четвертой промышленной революции трудно выжить в стратегии быстрого последователя, которая учится и следует навыкам передовых стран из-за характеристик передовой индустрии ИКТ, в которой доминируют победители. На национальном уровне необходимо разработать всеобъемлющую стратегию, которая включает соответствующие дни образования, труда и культуры. В частности, усиление конкурентоспособности науки и техники путем открытия новых двигателей роста на основе ИКТ и создания системы для создания творческих и инновационных кадров в области науки и техники должны активно проводиться на национальном уровне.

Кроме того, должна сопровождаться реформа образования для подготовки кадров для планирования и руководства всей системой в эпоху 4-й промышленной революции. Это не «функциональный талант», предназначенный исключительно для выполнения данной задачи, или «талант приложения», способный исследовать, как решить данную проблему, И нужны «творческие таланты»². Вот почему нам необходимо коренным образом реформировать нынешние забавные и инъекционные методы обучения. Теперь, запоминание, проникновение знания не может больше следовать ИИ. Это оценка того, что в настоящее время делается инъекционное, предметно-ориентированное образование, которое способствует талантливому человеку, подходящему для стандартного производства массового производства 20-го века. Все образование должно быть изменено в сторону максимального творчества.

Цифровая грамотность должна стать осью образования в обществе, основанном на технологиях, где технологии полностью изменяют человеческую жизнь. Цифровая грамотность означает способность понимать и использовать цифровую среду на основе информации. Основываясь на этих цифровых литературах, студенты могут понять способность применять технологию для решения реальных проблем, критического мышления и творческой способности видеть через заднюю часть данных, а также понимания принципов социальной и культурной работы новых технологий. Необходимо улучшить образование и улучшить образование.

Справочные материалы

¹ Ким Цзиньша, «Четвертая промышленная революция, ища стратегический ответ на будущие изменения общества»

² Министерство образования будущего Кореи, «Производство и потребление в эпоху четвертой промышленной революции», 2017.4.

1. Джин-Ха Ким, «Четвертая промышленная революция, стремящаяся к стратегическому реагированию на будущие изменения общества»
2. Корейское будущее науки о создании, «Производство и потребление в эпоху четвертой промышленной революции», 2017.4.
3. КОТРА, «Эпоха четвертой промышленной революции, тенденции развития и развития высоких технологий», Новости торговли, 4 апреля 2016 года.
4. Интернет-газеты и материалы

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA MAKROIQTISODIY
BARQARORLIKKA ERISHISH YO‘LIDA INVESTITSION MUHITNI IQTISODIY VA
HUQUQIY JIHATDAN YANADA YAXSHILASH YO‘NALISHLARI**

Mamatqulov Murod Mustafaqulovich

Osiyo xalqaro universiteti “Ijtimoiy fanlar va texnika fakulteti”

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish yo‘lida investitsion muhitni yanada yaxshilash uchun olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar hamda ushbu olib borilayotgan islohotlarning samaralari, kelgusida mamlakat investitsion muhitini yanada yaxshilash uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan iqtisodiy va huquqiy mexanizmlarni joriy etish taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, makroiqtisodiyot, islohotlar, kodeks, qonun, qaror, farmon, arbitraj, tijorat, sud, investor.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalarining katta qismi asta-sekinlik bilan xususiy sektor boshqaruviga o‘tkazila boshlandi. Bu esa, davlat tasarrufida bo‘lgan, biroq iqtisodiy zarar ko‘rib faoliyat yuritib kelayotgan korxonalarni xususiylashtirish hisobiga faoliyatini qayta yo‘lga qo‘yish, boshqaruvning ilg‘or tajribalarini qo‘llash, salohiyatli kadrlar bilan ta‘minlash hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali korxonalar faoliyatini modernizatsiya qilish imkonini yaratdi.

Xususiylashtirilgan korxonalar faoliyatini rivojlantirish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, investorlar faoliyatini huquqiy jihatdan kafolatlash maqsadida, mamlakatda qulay investitsion muhitni shakllantirishning dastlabki bosqichlari aynan mustaqillik davrlariga to‘g‘ri keladi.

Mamlakat iqtisodiyotida makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash uchun investitsion muhitni yanada yaxshilashning keyingi bosqichlari, 2016 yillardan boshlanib, hozirga vaqtgacha bu boradagi ishlar davom ettirib kelinmoqda. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustdagi PF-5495-sonli Farmoniga asosan, mamlakatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik sub‘ektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta‘minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilab berildi. Mazkur farmonga asosan Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bo‘yicha 24 banddan iborat chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, amalga oshirish shakllari, bajarish muddatlari va mas‘ul ijrochilari biriktirildi [1].

Farmon ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasi mamlakat iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiyalar salmog‘ining oshishiga, investitsion muhitning yaxshilanishiga xizmat qildi.

Jumladan, Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ekspertlarining 2017-2022 yillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish bo‘yicha O‘zbekistonda amalga oshirilgan ishlar va ularning natijasini tahliliga ko‘ra, mamlakatda faoliyat yuritayotgan erkin iqtisodiy zonalar soni 2017-yil boshida 3 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib, 22 taga yetdi. Ulardan 12 tasi sanoat, 6 tasi farmatsevtika, 2 tasi turizm, 2 tasi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan. Qonunchilikdagi o‘zgarishlar va yaratilgan imkoniyatlar mamlakatdagi investitsiya muhitiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Masalan, O‘zbekiston 2019-yilda ilk bora Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ning "To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish cheklovlari indeksi"ga kiritildi va ushbu indeksga ko‘ra, 2020-yilda jahonda 43-o‘rinni, Osiyo mintaqasida 7-o‘rinni qayd etdi. 2017-2022 yillarda O‘zbekiston xalqaro Iqtisodiy erkinlik indeksi umumiy reytingida o‘z o‘rnini 31 pog‘onaga yaxshilab, 148-o‘rindan 117-o‘ringa ko‘tarildi. Mamlakatimizga kiritilayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2017-yilda 2,2 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil yakunida ushbu ko‘rsatkich 1,5 barobar ortib, 3,3 milliard AQSh dollariga yetdi [2].

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, investitsiya jalb qilmay turib, iqtisodiyotni yetarli darajada rivojlantirib bo'lmaydi. Ana shuni e'tiborga olib, mamlakatda investitsion muhitni shakllantirishga sharoit yaratish va uni tezlashtirish, rag'batlantirish maqsadida davlatimizda bir qator qonunlar ishlab chiqilib, ular hayotga tadbiiq qilinmoqda. Bu borada "Investitsion faoliyat to'g'risida", "Chet el investitsiyalari to'g'risida", "Chel ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonunlari qabul qilindi va bu qonunlar hayot taqozosi bilan takomillashtirib borilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratilgan, bular eng avvalo, tadbirkorlikni huquqiy belgilab beradigan, xususiy mulkchilik va raqobatchilikni himoya qiladigan qonunlar bazasi yaratilganligi, investitsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmaning mavjudligi, siyosiy barqarorlik, qulay jug'rofiy joylashuv, boy mineral xom-ashyo resurslari, shuningdek, agrosanoat sektorini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar borligi, eng muhimi, malakali mehnat resurslari hamda katta hajmdagi sotish bozori kabi omillarga ega ekanlikda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xorijiy investitsiyalarni mamlakatimizga jalb etishning yana bir muhim omillaridan biri investorni o'zi investitsiya kiritgan mamlakatida buzilgan huquqlarini tiklash, manfaatlarini himoya qilish bo'yicha huquqiy mexanizmlarning yuqori darajada yo'lga qo'yilganligidir.

Ma'lumki O'zbekiston Respublikasi ham ko'p sonli mamlakatlar qatori 1992 yilda "Chet el mamlakatlari arbitraj qarorlarini e'tirof etish va ijro etish to'g'risida"gi 1958 yil 10 iyundagi N'yu-York Konventsiyasiga qo'shilgan hamda ushbu konventsiyani ratifikatsiya qilgan [3].

Ushbu konventsiya shartlariga muvofiq, konventsiyani ratifikatsiya qilgan mamlakatlarning arbitraj qarorlari mamlakatimizda belgilangan protsessual qonunchilikka muvofiq ijro etilishi ta'minlanadi, shuningdek bizning respublikamizda joylashgan arbitrajlarining ham qarorlari mazkur davlatlar hududida ijro etiladi.

Xalqaro tijorat arbitraji nizolarni hal etishda mustaqilligi, nizoni ko'rib chiquvchi arbitr (sud'yalar) lar taraflar tomonidan tanlanishi, nizoni ko'rib chiqish muddatining qisqaligi, nizoni ko'rib chiqish bilan bog'liq xarajatlarning kamchiqimligi hamda nizo faqat bitta instantsiyada ko'rib chiqilishi investorlar faoliyatida tijorat nizolari yuzaga kelganda nizoni hal etish uchun aynan xalqaro tijorat arbitraj sudini tanlashiga sabab bo'ladi.

2021 yil 16 fevralda qabul qilingan "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni [4] mamlakatimizda xalqaro tijorat arbitrajlarining faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, arbitraj muhokamasini o'tkazish, arbitraj nizolarini ko'rib chiqish va qaror qabul qilish, arbitraj qarorlarini ijro etish bo'yicha normalarni o'z ichiga olib, Respublikamizda ham xalqaro tijorat arbitraji institutini huquqiy asosini yaratishning dastlabki bosqichini belgilab berdi.

Endilikda mamlakatimizda xalqaro tijorat arbitraj sudlarini tashkil etish orqali, xorijiy investorlarni buziladigan huquq va manfaatlarini hamda tijorat nizolarini boshqa davlatlarda joylashgan arbitraj sudlariga hal etish uchun topshirmasdan, aynan yurtimizdagi arbitraj sudlarida ko'rib hal etilishini ta'minlash bo'yicha ishlarni amalga oshirishimiz zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil uchun Oliy Majlisga murojaatnomasida ham mamlakatimizda xalqaro tijorat sudlarini tashkil etish bo'yicha ham amaliy ishlar boshlanganligini takidlab o'tgan edi [5].

Respublikamizda xalqaro tijorat arbitraj sudlarining tashkil etilishi iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorligiga erishishida hamda investitsion muhitini yanada yaxshilanishida, chet el investorlarini mamlakatimizda investitsion huquq va erkinliklar to'liq ta'minlanganligi bois provardida iqtisodiyotga kiritiladigan investitsiyalar miqdorining oshishiga xizmat qiladi.

Chunki, yaqinda qabul qilinishi kutilayotgan yangi konstitusiyamiz loyihasining 67-moddasida ham, davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlashi ko'zda tutilmoqda. Bu ham mamlakatda investitsion muhitni davlat tomonidan konstitutsiya darajasidagi oliy normativ xujjat asosida himoya qilinishiga hamda huquqiy jihatdan kafolatlanishiga zamin yaratadi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1] "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 avgustdagi PF-5495-sonli Farmoni. www.lex.uz

[2] 2017-2022 yillarda O'zbekistonga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1,5 barobar ortdi. Muallif: www.aniq.uz <https://aniq.uz/yangiliklar/2017-2022-yillarda-uzbekistonga-kiritilgan-tugridan-tugri-xorijiy-investitsiyalar-hajmi-1-5-barobar-ortdi>

[3] Xalqaro arbitraj sudlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratishni tartibga soluvchi milliy qonunchilik deganda nima tushuniladi? Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi yetakchi

maslahatchisi M.Ismatov https://andijon.adliya.uz/main/uz/interaktivnye-uslugi/sizning-savolingiz/title.php?ELEMENT_ID=19648

[4] O‘zbekiston Respublikasining 16.02.2021 y. O‘RQ-674-son “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/5294106>

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil uchun Murojaatnomasi. muallif: www.review.uz

<https://review.uz/uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>

[6] Mening Konstitutsiyam sayti. <https://meningkonstitutsiyam.uz/uzc>

XUSUSIY SEKTORGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Qosimova Lola Sultanovna,

“Fermerlar maktabi” MChJ O‘quv bo‘limi boshlig‘i

Bugungi kunda xususiy sektorni davlat tomonidan moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uning boshlang‘ich bosqichini bosib o‘tayotganligi, xususiy sektor tuzilmalari o‘z faoliyatini rivojlantirish uchun yetarli resurslarga ega emasligi, yetarli mol-mulk yo‘qligi, ssudani qaytarishni kafolatlay olmaslik, kreditlash amaliyotida huquqiy jihatlarining to‘la shakllanmaganlik, moliyalashning rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan yetarlicha foydalanila olinmayotganlik kabi sabablari bilan bog‘liqdir.

Bir vaqtning o‘zida, bu sohada hali ko‘plab muammolar mavjud. Bulardan asosiylari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

— sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari va yirik korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasining keng yo‘lga qo‘yilmaganligi;

– xususiy sektorda jahon andozalariga mos keladigan texnika-texnologiyadan foydalanishning past darajadali;

– xususiy sektorda investitsiyalarning tezda samara bermasligi natijasida berilgan kreditlarning qisqa muddatliligi;

– xususiy sektorda investitsiyalarni sug‘urtalash amaliyotining sust rivojlanganligi;

– xususiy sektor vakillarida yetarlicha moliyaviy menejment, marketing sohasidagi bilim va malakaning yetishmasligi;

– mahsulot sotishdagi qiyinchiliklar va bankdagi hisobvarag‘ida turgan mablag‘lardan foydalanishning cheklanganligi va boshqalar.

Xususiy sektorga investitsiyalarni jalb qilish va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni takomillashtirish yo‘lida quyidagilarga e‘tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz.

Birinchiidan, xususiy sektor loyihalariga mablag‘ ajratish jarayonini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish va ularni samarali moliyalashtirish uchun yetarli bo‘lgan huquqiy hujjatlar ro‘yxatini aniqlashtirish lozim.

Ikkinchiidan, tijorat banklarida kredit hujjatlarini shakllantirish jarayoni soddalashtirilishi lozim.

Uchinchiidan, kredit olish uchun taqdim etilgan hujjatlar birinchi bosqichdayoq kredit bo‘limlari xodimlari tomonidan ma‘suliyatli, adolatli va o‘z vaqtida baholanishi lozim.

To‘rtinchiidan, tijorat banklarida Markaziy bank tomonidan tavsiya etilgan kichik biznes subyektlarining kredit hujjatlarini ko‘rib chiqish tartibi muddatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lish lozim.

Beshinchiidan, tijorat banklari bo‘limlarining vakolatlari kengaytirilishi lozim, xususan, xorijiy kreditlardan foydalanishda yoki o‘z mablag‘lari yetarli bo‘lmaganda kredit taqdim etish imkoniyatlari to‘g‘risida qaror qabul qilish va baholash imkoni berilishi zarur.

Oltinchiidan, kichik biznes subyektlarining kreditga layoqatliligi va holatini baholash ishlari oddiy moliyaviy ko‘rsatkichlarni aniqlash bilangina emas, balki, uning faoliyati samaradorligini, tovar va xizmat ko‘rsatish bozoridagi, tarmoqdagi holatini (pozitsiyasini) hisobga oluvchi uslubiyot bo‘yicha o‘tkazilishi lozim.


Yettinchiidan, xususiy sektor investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslashini ekspertizadan o‘tkazish uslubiyoti buxgalteriya hisobi standartlariga, soliqqa tortish va loyihaviy tahlil qoidalariga muvofiq bo‘lishi lozim va bunda ularning xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Sakkizinchiidan, banklar manfaati va xususiy sektor korxonalarini moliyaviy bazasining darajasi pastligini hisobga olib, manfaatdor bo‘lgan davlat organlarining kafolat berishi asosida kreditlash sxemasini qo‘llash foyda keltirishdan holi emas.

O'zbekistonda xususiy sektorni moliyalashtirishda qo'llanilayotgan mexanizmning samaradorligini aniqlashning murakkab muammolaridan biri, yetarli darajada muqobil mexanizmlarni bo'lmaganligi sababli, qiyosiy tahlil o'tkazish imkonining yo'qligidir.

Bizning fikrimizcha, mavjud moliyalashtirish mexanizmlariga muqobil bo'lgan, xususiy sektor rivojlangan davlatlarda o'zini oqlagan mexanizmlarga asoslangan, respublikamizning hozirgi rivojlanish bosqichidagi imkoniyatlarga to'g'ri keladigan, xususiy sektor manfaatlariga xizmat qiladigan, davlat tomonidan kafolatlarni nazarda tutuvchi mukammal xususiy sektorni moliyalashtirish mexanizmini joriy etish lozim bo'ladi.

Bunday muqobil mexanizmni joriy etilishi xususiy sektor rivojiga kengroq imkoniyat beradi va ularda risk darajasini kamaytirgan holda moliyalashtirishga ko'maklashadi. Fikrimizcha, xususiy sektor vakillarining investitsiyalardan foydalana olishini ta'minlash maqsadida rivojlangan mamlakatlar tajribalariga tayanib, "Xususiy sektor kafolat fondi"ni tashkil etish maqsadga muvofiqdir (1-rasm).



1-rasm. Xususiy sektorda investitsiyalarni kafolatlash mexanizmi¹

Mazkur fond boshlang'ich mablag'larini davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan tushumlar, davlatning boshqa likvidli aktivlari (aksiyadorlik jamiyatlaridagi davlat aksiyalari) va homiylik ajratmalariga hisobiga shakllantirish zarur. Kafolat fondining bosh maqsadi bo'lib, kredit-kafolat operatsiyalarini amalga oshirish orqali xususiy sektor subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalana olishini ta'minlashdir.

Xususiy sektorni samarali moliyalashtirishning yuqoridagi chizmada keltirilgan mexanizmining o'ziga xos jihati uning ikki bosqichli kreditni to'ldirish tizimiga asoslanganligidir. Ikki bosqichli tizim moliyaviy yordam ko'rsatishda markazlashgan hukumatdan nomarkazlashgan holda faoliyat ko'rsatishiga asoslangan bo'lib, kredit kafolatlaridan faol foydalanishga imkon beradi.

Xususiy sektor loyihalarini moliyalashtirishda quyidagilarga e'tibor berish lozim, deb hisoblaymiz: xususiy sektor faoliyatini moliyalashtiruvchi muassasalar faolligini oshirishda ularga aniq imtiyozlar berish;

xususiy sektor loyihalarini hudud va tarmoq ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqish hamda kredit olish bosqichlarini imkon qadar qisqartirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish;

kichik biznes loyihalarini xorijiy valyuta bilan ta'minlashda mamlakat bilan bog'liq, tadbirkor bilan bog'liq va chet el investorlari bilan bog'liq omillarning ta'sirini inobatga olish va h.k.

Fikrimizcha, istiqbolda xususiy sektorni yanada rivojlantirish uchun davlatning sohani faol qo'llab-quvvatlashi asosida moliyalashtirishning lizing usullaridan keng foydalanish, investitsiya tavakkalchiligini sug'urtalash tizimini keng yo'lga qo'yish, kichik biznesni moliyaviy mablag'lar bilan qo'llab-quvvatlashda banklar faoliyatini yanada jadallashtirish va sohaga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalarning himoyasini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

¹Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

**MINTAQALARDA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA
INVESTITSIYA SIYOSATINING AHAMIYATI**

*Buxoro Davlat Universiteti,
Iqtisodiyot va Turizm fakulteti,
II bosqich magistranti
Toxirov Dilyor Davlatovich
dilyortohirov1995@gmail.com
tel: +998914474066*

Annotatsiya: *Bu maqola madaniy turizm sohasini rivojlantirish jarayonida investitsiyalarning ahamiyati va uning samaradorlik xususiyatlarini ifodalab beradi, hamda O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi yangiliklarini ko‘rsatib beradi.*

Abstract: This article describes the importance of investments in the development of cultural tourism and its efficiency characteristics, as well as shows the innovations of the Republic of Uzbekistan in the field of tourism.

Tayanch iboralar: *iqtisodiyot, madaniy turizm, investitsiya, samaradorlik, strategiya, xizmat ko‘rsatish, infratuzilma*

Key words: *economy, cultural tourism, investment, productiveness, strategy, service, infrastructure.*

Mamlakatimizda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni tez sur‘atda rivojlantirish, yangidan bo‘sh ish vakantlarini yaratish, aholining daromadlari hamda turmush tarzini yaxshilash, mamlakatning investitsiyaviy salohiyatini oshirishni ta‘minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish xususida o‘ziga xos chora va tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Viza rejimining liberallashtirilishi, xorijiy davlat fuqarolarini ro‘yxatga olish tartibining osonlashtirish, turizm sanoati turlarini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar (moliyaviy yengillik) bilan ta‘minlanishi milliy turizm salohiyatini mahalliy va xalqaro bozorlarda samarali darajada targ‘ib qilish imkonini berdi. Turizmni, avvalo, xususiy sektorda holatni o‘stirish uchun qulay imkoniyatlar yaratish, taqdim etilayotgan xizmatlarning raqobatbardoshligini va sifatini oshirish, milliy turizm mahsulotini xorijiy bozorlarda faol va kompleks ravishda targ‘ib qilish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga 2018-yil 28-dekabrda qilgan murojaatnomasida bildirilgan takliflarni amalda joriy etish maqsadida hamda 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5 ta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash muhim omillardan biri hisoblanadi. Yurtimizda investitsiya siyosatini tubdan rivojlantirish va isloh qilish, uni amalda tadbir etish yuzasidan zamon talabiga javob bera oladigan, qulay imkoniyatlar yaratib bera oladigan yondashuv va mexanizmlarni tadbir etish, shuningdek, investitsiya jarayonlarini jadal sur‘atda rivojlantirish va umuman biznes muhitini yaxshilash bo‘yicha uzluksiz chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, avvalambor, iqtisodiyot tarmoqlarini, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini jadallashtirish va modernizatsiya qilishni, sanoat ishlab chiqarishni mukammal diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirishni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Izchil investitsiya siyosatini davom ettirish, amaldagi ishlab chiqarishlarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash va hi tech (yangi yuqori texnologiyali) ishlab chiqarishlarni tashkil etish bo‘yicha strategik va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun investitsiyalarni, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy kapitalarni faol yo‘naltirish hamda samarali ravishda o‘zlashtirish borasida amalga oshirilayotgan sa‘y-harakatlarni inobatga olgan holda qilinadigan vazifalarni jamlash va mavjud bo‘lgan resurslardan unumli foydalanish, shu bilan birga, buning asosida aholi bandligini, ularning turmush darajasi va sifati oshirilishini ta‘minlash bugungi kundagi o‘z oldimizda turgan dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu yo‘nalishda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan edilar: —Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shirishga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, xuddi boshqa soha va tarmoqlar singari turizmni rivojlantirish uchun ham bugungi kunda investitsiyalar juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.¹ Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi farmonida—Turizm industriyasini jadal rivojlantirish,


¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni, 2017- yil 7- fevral, PF-4947.

iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish kabi ustuvor yo`nalishlar belgilab olingan va bu sohalarida jadal ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz turizm industriyasi jadal rivojlanishi uchun qisqa muddatda eng qulay shart-sharoit, iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhit yaratish, jumladan, sohada xususiy sektorning ustuvor ishtirokini ta'minlash, uning raqobatbardoshligi va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o`rinlarini tashkil etish, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surish hozirda sohadagi eng muhim bo`lgan bo`g`in hisoblanadi.

O`zbekiston turizm sohasi rivojlanishida salmoqli salohiyatiga ega davlat. Bu ko`plab noyob tabiat obyektlarining mavjudligi(ko`llar, tog` cho`qqilari),boy madaniy va tarixiy meros bilan ham bog`liqdir.Yildan yilga O`zbekiston Respublikasiga xorijliklarning tashrifi ortib bormoqda. Mamlakatimizga yildan yilga tashrif buyuruvchi sayyohlarning ko`payayotganini hisobga oladigan bo`lsak, sohada yangi islohatlar o`tkazish zarurligini va bu soha rivojiga katta e`tibor qaralish kerakligini ko`rsatmoqda. Quyida mamlakatimizga kirib kelayotgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo`yicha taqsimlanishining tahlilini ko`rib chiqamiz.

2017-yilda O`zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy fuqarolarining tashrifi maqsadlari bo`yicha tahlil qilinganda: 2272,3 ming kishi (84,7 %) qarindoshlarni holidan xabar olish maqsadida, 203,7 ming kishi (7,6 %) sayohat qilish maqsadida, 159,9 ming kishi (5,9 %)xizmat safari yuzasidan, 28,7 ming kishi (1,1 %) sog`likni tiklash maqsadida, 18,5 ming kishi (0,7 %) savdo-sotiq maqsadida, 6,9 ming kishi (0,3 %) ta`lim olish maqsadida tashrifbuyurganini guvohi bo`lishimiz mumkin

(1-rasm). Turizmni rivojlantirishning chora-tadbirlar dasturiga kiritilgan vazifalarni amalda tadbiiq etishni moliyalashtirishning manbalari etib tadbirkorlik subyektlari –loyiha tashabbuskorlari, vazirlik va idoralar – ijrochilarning o`z mablag`lari, jalbetilayotgan tijorat banklarining kreditlari, xorijiy investitsiyalari, xalqaro moliyaviy institutlar va donor mamlakatlarning zayom va grantlari, xayriya mablag`lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar bo`lib hisoblanadi.Turizm sohasini rivojlantirishda uni moliyalashtirish manbalari eng muhim tayanch bo`lib hisoblanadi. Turizmni rivojlantirishda moliyalashtirish manbalaridan eng muhimi va eng samaralisi sifatida investitsiyalar hisoblanadi. Turizmga investitsiyalar jalb qilish, turizmni rivojlantirishning eng muhim dastaklaridan biri hisoblanadi.Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida respublikamizda turizm tez sur`atda yaxshilanib bormoqda. Quyida O`zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining mamlakatlar bo`yicha ulushini ko`rib chiqamiz.



1-rasm. 2017-yilda O`zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari safar madsadlari bo`yicha taqsimlanishi¹,(ming kishi)


Chet ellik tashrif buyuruvchilarning asosiy qismi MDH davlatlari orasida Qozog`iston Respublikasiga to`g`ri keladi - 1783,8 ming kishi (yoki MDH davlatlaridan kelganlarning 67,7 %), Tojikiston 261,9 ming kishi (9,9 %), Rossiya 143,9 ming kishi (5,5 %), qolgan davlatlar 16,9 % (bular Turkmaniston (62,5 ming kishi), Ozarbayjon (4,3 ming kishi), Belarus (3,0 ming kishi), Ukraina (0,7 ming kishi)(2-rasm).

Turizmga investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakatda sohaga oid jabhalarni rivojlantirish bilan respublika turizmida sezilarli darajada o`shishini ta'minlash mumkin. Ya'ni turizmga investitsiyalar yo`naltirilgan xizmatlar ko`lamini kengaytirish, modernizatsiyalashtirilgan mehmonxonalar tashkil etish, yangi turistik maskanlarni ochish va mavjud zonalarni jozibadorligini oshirish, hududlarda infratuzilmani rivojlantirish va transport salohiyatini oshirish mumkin hisoblanadi.Turizmni rivojlantirishda xorij

¹ stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.

“Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash: muammolar va yechimlar”


mamlakatlari tajribasidan faqatgina o‘zimizga moslarini mamlakatimiz turizmida sinab, o‘zimizda qo‘llashimiz mumkin. Mamlakatimiz tarixiy obidalar bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rinlardan birida turadi va bizning tariximiz va ko‘hna yodgorliklarimiz butun dunyoga mashhurdir. Bizning yelkamizdagi mas‘uliyat esa ularni dunyoga ko‘rsata olish hamda mamlakatimiz iqtisodiy holatini o‘stirish maqsadida dunyo bo‘ylab tashrif buyuruvchilarni jalb etish demakdir.



2-rasm. 2017- yilda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining mamlakatlar bo‘yicha taqsimoti¹, (ming kishi)

Turizm mamlakat iqtisodiyotiga salmoqli va sezilarli foyda keltiradigan sohalardan biridir. Shunday ekan biz hozirda mamlakatimizda bor imkoniyatlardan maksimal holatda foydalanib turizm sohasini rivojlantirishimiz va sohaga investitsiyalar jalb qilishimiz kerak. Turizm uchun mamlakatimiz juda yaxshi infratuzilmaga ega. Shunday ekan, investorlarga O‘zbekiston turizmiga investitsiya tikish orqali foyda ola bilishiga ishontira olishimiz va bunga yetarlicha shart-sharoitlarni yaratib berish tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Quyida O‘zbekiston Respublikasiga uzoq xorijiy davlatlardan kelgan chet eldan tashrif buyuruvchilar sonining mamlakatlar bo‘yicha yoyilishi ko‘rib chiqishimiz orqali buni tahlil qilamiz.

2017-yilda xorijlik tashrif buyuruvchilarning asosiy qismi uzoq xorijiy mamlakatlar orasida Turkiyaga to‘g‘ri keladi (55,2 ming kishi), keyingi o‘rinlarda Koreya (37,4 ming kishi), Xitoy (19,7 ming kishi), Germaniya (7,8 ming kishi), BAA(5,8 ming kishi), Fransiya (5,7 ming kishi), Isroil (4,2 ming kishi), Yaponiya (4,1 ming kishi), Pokiston (3,8 ming kishi), Buyuk Britaniya (3,3 ming kishi), Malayziya (3,2 ming kishi), AQSh (1,5 ming kishi) va boshqa davlatlar (61,0 ming kishi) (3-rasm).




3-rasm. 2017- yilda O‘zbekiston Respublikasiga uzoq xorijiy davlatlardan kelgan chet el fuqarolari sonining mamlakatlar bo‘yicha taqsimlanishi², (ming kishi)

¹ stat.uz ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.

² stat.uz ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.

Turizm rivojlanishining iqtisodiy ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, turizm ko'rsatkichlari mamlakatimizda turizmning rivojlanib borayotganini ko'rsatmoqda. Bunda turizmga jalb qilingan investitsiyalar muhim o'rinni egallaydi. Investitsiya investorga foyda keltirishiga, investor investitsiya faoliyatini amalga oshiradi. Mamlakatimizda turizm sohasiga jalb qilingan barcha investitsiyalardan iqtisodiy foyda ko'rish mumkin. Chunki turizm hozirda mamlakatimizda eng rivojlanib borayotgan sohalardan biridir. Bundan tashqari hozirda hukumatimiz tomonidan har bir sohaga kiritilgan investitsiyalarga qulay imtiyozlar berilib kelinmoqda. Bu esa mamlakatimiz iqtisodiyotiga kirib keladigan investitsiyalar hajmini kundan kunga va yildan yilga oshib borishiga debocha bo'lib xizmat qilmoqda. E'tiborimizni oxirgi o'tgan yillarga qaratadigan bo'lsak, faoliyat ko'rsatayotgan turistik firma va tashkilotlarning soni oshganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2012- yilda ularning soni 345 tani tashkil etgan bo'lsa, 2017- yilga kelib 104 taga oshib va 449 taga yetganini ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar ham 2012- yilda 203,7 ming kishi bo'lgan bo'lsa, 2017- yilda 782,7 ming kishini tashkil etgan. Ulardan qabul qilinganlari 2012- yilda 102,4 ming kishidan 2017- yilda 167,4 ming kishiga yetdi (4-rasm).



4-rasm. Turistik firma va tashkilotlarning soni va xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar.¹

Yuqoridagi jadvalga e'tibor qaratadigan bo'lsak, turistik faoliyatni amalga oshiradigan firma va tashkilotlarning soni, qabul qilingan xorijiy tashrif buyuruvchilar soni hamda xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni ham bir biriga qarama-qarshi tarzda oshib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Bu mamlakatda turistik sohaning rivojlanib borayotganidan darak beradi.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, hozirda mamlakatimizda turizm sohasining rivojlanayotgani bilan bir qatorda bu sohaga kiritilayotgan investitsiyalarning hajmi oshayapti. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, bu sohada hozirgacha ba'zi muammolar ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa bu sohaga investitsiyalar yo'naltirish mexanizmini takomillashtirish va sohaga investitsiya kiritish hajmini oshirish hamda yo'naltirilgan investitsiyalardan samarali foydalanish hozirda eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda tabiat qo'yniga sayohat, ko'llar va dengizlarga sayohat hamda zamonaviy turizm shakllarini rivojlantirish yo'nalishlari muhim hisoblanadi. Shuningdek, joylashtirish vositalari va infratuzilma obyektlarining, ayniqsa turizm mavsumida yetishmasligi, turli transportlarda yo'lovchilarni tashish tizimining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi, shuningdek, turistlarni mavjud turizm salohiyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashni tashkillashtirish darajasining pastligi, ichki turizmni, mamlakat hududlaridagi madaniy meros obyektlarining va ziyoratning o'ziga xosliklarini targ'ib qilish bo'yicha marketing ishlarining sayoz olib borilayotgani mamlakatimiz turizmidagi eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammolar yechimi sifatida quyidagi takliflarni aytib o'tishni joiz deb bildim:

- turizm faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizmni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me'yor va standartlarni amalda tadbqiq qilish;
- turizm infratuzilmasini rivojlantirish hamda muqobil va qulay turizm muhitini yaratish;

¹ stat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan qayta ishlangan.

- ichki va tashqi turizmni rivojlantirishga ko‘proq investitsiyalar jalb qilish;
- investitsiyalardan samarali foydalanish asosida turizm soha va tarmoqlarini kengaytirish;
- investitsiyalarni mamlakatda turistik zonalar tashkil etishga yo‘naltirish;
- investitsiyalardan foydalangan holda infratuzilmani takomillashtirish;
- investitsiyalarni turizmga yo‘naltirish hajmini oshirish hamda bu orqali mamlakat iqtisodiyotiga samarali foyda keltirish.

Eng muhimi deb shuni aytish joizki, turizmning jadallik bilan taraqqiy etishida investitsiyalarni roli juda muhimdir. Bugungi kunda iqtisodiyotning har bir jabhasida investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etgani qatori, turizmning ham eng muhim moliyalashtirish manbalaridan biri sifatida investitsiyalar maydonga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni, 2017- yil 7- fevral, PF-4947.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga murojaatnomasi. //Xalq so‘zi, 2018-yil 29-dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017-yil 16-avgustdagi PQ-3217 son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611 son farmoni.

БОЗОР ИҚТИСОДИЁТИ ШАРОИТИДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИХАЛАР ВА УЛАРНИ БАҲОЛАШ

Юсупова Нигина Джураевна

Бухоро давлат университети

Иқтисодиёт(тармоқ ва йўналиш бўйича)

1-курс магистранти

Аннотация: Мақолада Инвестициялар ва уларнинг бозор иқтисодиёти шароитида мамлакатнинг қолаверса иқтисодий фаолият билан шуғулланувчи корхона ва ташкилотлар фаолиятини ривожлантиришдаги аҳамияти тўғрисида, шунингдек инвестицион лойиҳаларнинг мазмун моҳияти ёритилган. Асосий эътибор, инвестицион лойиҳаларни баҳолашга қаратилган.

Калит сўзлар: Инвестиция, инвестицион лойиҳа, капитал, молиявий инвестициялар, ижтимоий инвестициялар, инфляция, риск, жорий қиймат

Инвестиция лотинча “investio” сўздан олинган бўлиб “айланмоқ” деган маънони англатади. Инвестициялар бўш капитал маблағлари бўлиб иқтисодиётни ривожлантириш мақсадида ўз мамлакатада ёки чет элда турли соҳаларга, ижтимоий-иқтисодий дастурларга, инновацияларга, бизнес лойиҳаларга узоқ муддатли капитал қўйилмасидар. Бундан асосий мақсад капитал қийматини сақлаб қолиш ёки агар бўлмаса вақт ўтиши билан капитал қийматини оширишдир.^[1]

Инвестициялар бирор бир давлатга икки хил йўл билан кириб келади:

1. Давлат орқали – бунда давлат киритилган инвестиция учун кафолатни ўз зиммасига олади.
2. Хусусий ҳолда кириб келиши

Иқтисодий мазмунига кўра инвестициялар 3 турга бўлинади:

- Капитал инвестициялар бўлиб аниқ бир объектга йўналтирилган бўлади. Мисол учун, бинони реконструкция қилиш ёки ишлаб чиқаришни модернизациялаш қиради.
- Молиявий инвестициялар бўлиб қимматли қоғозлар билан бўладиган операциялар мисол бўлади.
- Ижтимоий инвестициялар бу инновацион, интеллектуал ҳоҳлар учун инвестициялардир.

Инвестициялар фойда олишга қаратилган фаолият бўлиб инвестицион лойиҳалар асосида амалга оширилади. “Инвестицион лойиҳа” тушунчаси 2 хил маънода талқин этилади:

- муайян мақсадларга эришиш (муайян натижаларни олиш)ни таъминловчи қандайдир ҳаракатлар комплексини амалга оширишни назарда тутувчи иш, фаолият, чора-тадбир сифатида;
- қандайдир ҳаракат, фаолиятларни амалга ошириш учун зарур бўлган ташкилий-ҳуқуқий, техник, ҳисоб-молиявий ҳужжатлар тизими сифатида.^[2,3]

натижа аниқ ва самарали бўлиши учун инвестиция натижалари мутахассислар томонидан прогнозланади. Инвестицияларни баҳолашда қуйидаги уч кўрсаткич ҳисобга олинади:

1. Пулнинг вақт қиймати
2. Инфляция
3. Риск

Пулнинг вақтлик қиймати кўрсаткичининг моҳияти шундаки бунда инфляция даражаси ҳамда кўзда тутилган фойда инobatга олинаиб, жорий дарвдаги капитал қиймати маълум бир муддатдан кейин қандай қийматга тенг бўлишини кўрсатади ва бу қуйидаги формула орқали аниқланади:

$$PV \cdot (1+k)^n = FV_n$$

Бу ерда:

PV – капиталнинг жорий қиймати

k – капитал нархи

n – давр

FV – келажакда кутиладиган қиймат

Мисол учун инвестиция қилинадиган сумма 100 доллар, капитал нархи 20 % , 2 йил муддатга киритилган бўлса қуйидагича ҳисобланади:

$$100 \cdot (1+0.2)^2 = 100 \cdot 1.44 = 144 \$$$

Келажакда режалаштирилган қийматга эга бўлиш учун жорий даврда қанча маблағни инвестиция қилиш зарурлигини аниқлаш учун қуйидаги формуладан фойдаланамиз:

$$PV = FV_n / (1+k)^n$$

Мисол учун, капитал нархи 12 % бўлганда 2 йилдан сўнг 125 \$ даромад олиш учун бизга қанча маблағ керак?

$$PV = 125 / (1+0.12)^2 = 125 / 1.25 = 100 \$$$

Демак инвестиция суммаси 100 \$ бўлиши керак.

Инвестициядан олинadиган соф фойда қуйидагича аниқланади:

$$NPV = \sum_{n=1}^t FV_n / (1+k)^n - I_0$$

I_0 – дастлабки инвестиция суммаси

Мисол учун, 60 млн долларлик инвестиция лойиҳаси 5 йил муддатга 10 % лик капитал нархи билан киритилган бўлиб, капитал қайтими 1-йил 35 млн \$, 2-йил 11 млн \$, 3-йил 16 млн \$, 4-йил 18 млн \$, 5-йил 17 млн \$ ^[5] бўлганда соф фойда қиймати-?

$$NPV = 35 / (1+0.1) + 11 / (1+0.1)^2 + 16 / (1+0.1)^3 + 18 / (1+0.1)^4 + 17 / (1+0.1)^5 - 60 = 15.778 \text{ млн } \$$$

Инвесторлар учун яна бир муҳим кўрсаткич бу инвестициянинг қопланиш муддати бўлиб улар киритган инвестиция қанча муддатга қопланишни кўрсатади ва у қуйидагича ҳисобланади:

$$PP = t - NPV_t / NPV_{t+1} - NPV_t$$

Агар $NPV_t < 0$ бўлса инвестиция қопланмаган, агар $NPV_{t+1} > 0$ бўлса у ҳолда инвестиция қопланган ҳисобланади.

Мисол учун, 60 млн долларлик инвестиция лойиҳаси 5 йил муддатга 10 % лик капитал нархи билан киритилган бўлиб, капитал қайтими 1-йил 35 млн \$, 2-йил 11 млн \$, 3-йил 16 млн \$, 4-йил 18 млн \$, 5-йил 17 млн \$ бўлганда Қопланиш муддати-?

$$NPV_1 = 35 / (1+0.1) - 60 = -28.182 \text{ млн}$$

$$NPV_2 = 11 / (1+0.1)^2 - 60 = -19.902 \text{ млн}$$

$$NPV_3 = 16 / (1+0.1)^3 - 60 = -7.701 \text{ млн}$$

$$NPV_4 = 18 / (1+0.1)^4 - 60 = + 5.223 \text{ млн}$$

$$PP = 3 - (-7.701) / 5.223 - (-7.701) = 3.575 \text{ ёки } 3 \text{ йил } 6 \text{ ой } 21 \text{ кунда } 60 \text{ млн доллар қопланган.}$$

Адабиётлар рўйхати

1. Пржедецкая Н.В., Шевелева В.В., Кулькова Е.П. Инвестиционная политика российского региона на современном этапе // Фундаментальные исследования. 2016. № 6 (часть 2). С. 449- 453.
2. Д.Ю.Хужамкулов, Д.А. Исмаилов “Инвестиция лойиҳаларини бошқариш” ўқув қўлланма Тошкент 2019, 13-16 бетлар
3. Маҳмудов Н.М., Мажидов Ш.А Инвестицияни ташкил этиш ва молиялаштриш. Ўқув қўлланма Т.: ТДИУ, 2010. – 86 б.
4. www.blackrock.com <<http://www.blackrock.com>> - BlackRock investitsiya kompaniyasi rasmiy sayti.
5. Bain & Company, Global private equity report 2018 йил маълумотлари

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA YAIM NING
HISSASI**


Abdullayeva Hilola Nutfilloyevna
Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi
Xojiyev Boburbek Mehriddinovich
Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulot statistik ko‘rsatkichlari qanday omillarga bog‘liqligi, hozirgi kunda ular qanday holatdali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: YaIM, [bozor](#) qiymati, global konyunktura, o‘shish sur‘ati, tendensiya, budjet, xorijiy investitsiyalar.

Yalpi ichki mahsulot — umumiy qabul qilinish qisqartirilishi hamda makroiqtisodiy ko‘rsatkich, bu bevosita har bir yilning oxirgi mollar va xizmatlar aks ettiruvchi [bozor](#) qiymati (ya‘ni bevosita iste‘mol uchun mo‘ljallangan). Shuningdek, YAİM [davlatlar iqtisodiyot](#) hududining hamma sohalarida iste‘mol qilish uchun yil davomida ishlab chiqarilgan hisoboti, milliy jihozlar ishlab chiqarish omillari ishlatilgan qat‘iy eksportning jamg‘armalari hisoblanadi. Birinchi marta [1934-yilda](#) Saymon Kuznets tomonidan bu tushuncha ilk bor taklif etilgan edi. YAİM mavjud va belgilangan davlatlar ishlab chiqarishning izchilligini yillik hisobot sifatida dunyo [iqtisodchilari](#) qismlarga bo‘lishadi. YAİM ushbu yildagi narxlarning o‘shishini joriy narxlarga (nisbat berilmasdan) asoslanib dunyo bozorlarida belgilaydi. YAİM (inqirozni to‘g‘ri baholashligi bilan) narxlardagi o‘shish hususiyatini oldingisi yoki har qanday boshqasini yillik zahira taqsimotiga muhrlaydi. Har doim YAİMga amaldagi mavjud mahsulotlar hisobga olinadi va qanday darajada mamlakatlarda ishlab chiqarishning o‘shishi mavjudligi bilan narxlarni YAİM darajasi yordamida aniqlanadi. YAİM yonida iqtisodiyot o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli sotilgan ishchi kuchini band etish barobarida qaytaradi. 2022-yil O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun jiddiy sinovlar davri bo‘ldi. Iqtisodiy islohotlar va tadqiqotlar markazi shu davrda mamlakatning rivojlanish jarayonini tahlil qildi. Pandemiya keyingi tiklanishga global konyunkturaning beqarorligi, asosiy savdo sheriklari bo‘lgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi qiyinchiliklar, jahon bozorlaridagi narxlar tebranishlari, transport va logistika zanjirlarining uzilishi, vaziyatning umumiy noaniqligi kabi omillar ta‘sir o‘tkazdi. Biroq iqtisodiyot tashqi qiyinchiliklarga chidamliligini ko‘rsatdi. Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YAİM) 2022-yilda 5,7 foizga o‘sgan, ammo o‘shish sur‘ati 2021-yilga (7,4 foiz) nisbatan pasaygan. Noqulay tashqi sharoitlar fonida asosiy savdo sheriklari bo‘lgan mamlakatlardagi vaziyat turlicha rivojlandi. Qirg‘izistonda 2022-yilda YAİM 7 foizga o‘sgan bo‘lsa, 2021-yil oxirida o‘shish 3,6 foizni tashkil qilgan. Qozog‘istonda o‘shish sur‘atlari 2021-yildagi 4,3 foizdan 2022-yilda 3,1 foizga pasaydi.

Mutaxassislarining fikricha, Xitoy YAİMning o‘shish sur‘ati o‘tgan yil oxirigacha sekinlashdi va taxminan 3 foizni tashkil qildi. Rossiya iqtisodiyoti yil oxirida mojaro va sanksiyalar fonida tanazzulga yuz tutdi. Natijada yanvar—noyabr oylarida Rossiya iqtisodiyoti 2021-yilning shu davriga nisbatan 2,1 foizga kamaydi. 2022-yilda O‘zbekistonda inflyatsiya 2021-yildagi 10 foizdan 12,3 foizgacha tezlashdi. Bu, asosan, jahon miqyosida narxlarning oshishi, O‘zbekiston bozoriga asosiy yetkazib beruvchi bo‘lgan mamlakatlarda mahsulotlar tannarxining oshishi bilan bog‘liq. Masalan, mamlakat importning qariyb 20 foizi to‘g‘ri keluvchi Rossiyada inflyatsiya 2021-yilda 8,4 foizdan 2022-yilda 11,9 foizgacha o‘tdi. Xuddi shu davrda Qozog‘istonda (O‘zbekiston importining taxminan 11 foizi) inflyatsiya 8,4 foizdan 20,3 foizgacha o‘tdi. O‘zbekistonda 2022 yilda oziq-ovqat mahsulotlari narxi asosan 15,6 foiz (2021-yilda 13 foiz) va nooziq-ovqat mahsulotlari narxi 10,7 foizga (7,8 foiz) oshdi. Pullik xizmatlar narxlarining o‘shishi 8,4 foiz (7,7 foiz) o‘rtacha darajasida saqlanib qoldi. Yil oxirida asosiy kapitalga investitsiyalar 0,5 foizga qisqardi. Shu bilan birga, markazlashtirilgan investitsiyalarni kamayish tendensiyasi davom etmoqda, ularning hajmi 23 foizga pasaydi. Hukumat tomonidan kafolatlangan xorijiy investitsiyalar, kreditlar va kreditlarni jalb qilish bo‘yicha me‘yoriy cheklovlar ularning 33 foizga qisqarishiga olib keldi. Shuningdek, budjet mablag‘lari hisobidan investitsiyalar 15 foizdan ko‘proqqa kamaydi. Shu bilan birga, markazlashtirilmagan investitsiyalar hajmining 4,9 foizga o‘shishi kuzatilmoqda. Xususan, markazlashtirilmagan investitsiyalarning aksariyat qismini tashkil etuvchi to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar 1,3 foizga oshib, 8,5 milliard dollarni tashkil etdi. Korxonalar hisobidan yo‘naltirilgan investitsiyalar 8,9 foizga, aholi mablag‘lari 3,2 foizga, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari 7,8 foizga oshdi. Umuman olganda, yil davomida investitsiyalarning umumiy hajmida markazlashmagan investitsiyalarning ulushi 80,8 foizdan 85,1 foizgacha o‘tdi, markazlashtirilgan investitsiyalarning ulushi esa mos ravishda 19,2 foizdan 14,9 foizgacha pasaydi. Yil yakunlariga ko‘ra, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘shishi kuzatilmoqda.



1- rasm. MDH davlatlari YaIMning o'sish (kamayish) sur'atlari¹

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, transport va IT sohalari eng faol - birdaniga 14,7 foizga o'sgan. Eng past o'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (3,6 foiz) kuzatildi.

AQSH dollarida o'rtacha kurs bo'yicha hisoblanganda nominal YaIM 80 384 million dollarni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 11,18 milliard dollarga oshib, 2020 yilga nisbatan 9,3 milliard dollarga ko'p bo'lib, 69 235 million dollarni tashkil etdi.

2021 yil yozida prezident Shavkat Mirziyoyev 2026 yilga borib O'zbekiston iqtisodiy o'sish sur'atlarini 1,5 barobarga oshirish va YaIM hajmini kamida 100 mlrd dollarga yetkazishni rejalashtirayotganini [ta'kidlagan](#) edi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi joriy narxlarda 4 million 604,6 ming so'm (420 AQSH dollari)ni tashkil etib, 2021 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 3,7 foizga o'sdi.

Barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarni davom ettirish maqsadida «Yangi O'zbekiston»ning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi» loyihasi jamoatchilik [muhokamasiga](#) taqdim etildi. Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida «Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (keyingi o'rinlarda — Taraqqiyot strategiyasi) va uni «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi.

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish uchun nimalar qilish kerak – Jahon banki ekspertlari tavsiyalari:

¹ Milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma'lumotlar asosida

Ta‘kidlanishicha, O‘zbekiston 2030 yilga borib daromad darajasi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga qo‘shilishi uchun YaIMning o‘sish sur‘atlari hozirgi darajadan ancha yuqori bo‘lishi kerak.

Jahon banki O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo‘lidagi asosiy muammolar va imkoniyatlar tahlil qilingan yangi tadqiqotini e‘lon qildi. Unda xususiy sektor o‘sishi yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini cheklash, inson kapitalini rivojlantirish va mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tishi bo‘yicha tavsiyalar mavjud.

«Rasmiylar ulkan maqsadlarni ko‘zlab, islohotlarning keyingi bosqichiga hozirlik ko‘rmoqda. Xususan, 2026 yilgacha aholi o‘rtasida kambag‘allikni ikki baravar kamaytirish, shuningdek, 2030 yilga borib daromad darajasi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga qo‘shilish ko‘zda tutilgan. Bunga erishish uchun YaIMning o‘sish sur‘atlari hozirgi darajadan ancha yuqori bo‘lishi talab qilinadi. Ushbu maqsadlarga ish o‘rinlarini yanada ko‘proq yaratish hamda fuqarolarning, jumladan, yoshlar, ayollar va nogironligi bor shaxslarning iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish orqali erishish mumkin», deyiladi hisobotda.

O‘zbekistonga yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi to‘rtta yo‘nalishda rivojlanish yordam berishi mumkin:

- 1) xususiy sektor o‘sishini rag‘batlantirish va barqaror ish o‘rinlarini yaratish;
- 2) davlatning iqtisodiyotdagi rolini isloh qilish;
- 3) fuqarolar manfaatlariga va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladigan dasturlarga investitsiya qilish;
- 4) ekologik barqaror kelajakni barpo etish.

Shuningdek, hisobotda rasmiylar uchun tavsiyalar berilgan va yuqorida keltirilgan yo‘nalishlarda quyidagi ustuvor islohotlarga e‘tibor qaratish zarurligi qayd etilgan:

Mamlakatda xususiy sektor o‘sishini rag‘batlantirish uchun:

- yer, mehnat va moliyaviy resurslarni taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- xususiy sektorda raqobatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy bazani isloh qilish;
- xususiy sektorning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishiga ko‘maklashuvchi tashqi savdo va investitsiya siyosatini olib borish;
- xususiy sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha samarali xizmatlarni rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligi bozorlaridagi islohotlarni jadallashtirish, bu esa davlatning ularning faoliyatiga aralashishiga chek qo‘yadi.

Davlat ko‘magi bilan mamlakatda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun:

- davlatning tovar va xizmatlarning asosiy ishlab chiqaruvchisi funksiyalaridan bozorni rivojlantirishni rag‘batlantiradigan funksiyalariga o‘tkazib, uning rolini transformatsiya qilishni jadallashtirish;
- davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish va ularning samaradorligini oshirish;
- zarur ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish va turli hokimiyat organlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- davlat funksiyalarini markazsizlashtirishni davom ettirish;
- davlat organlarining fuqarolar oldidagi hisobdorligini oshirish zarur.

Mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish uchun:

- ta‘lim tizimi faoliyatidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish orqali uning sifatini oshirish;
- maktabgacha ta‘lim va oliy ta‘lim muassasalariga kirish imkoniyatini yaxshilash;
- sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini va fuqarolar uchun undan foydalanish imkoniyatini oshirish;
- butun mamlakat bo‘ylab suv ta‘minoti va sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- kambag‘allikni o‘lchash tizimini, unga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlarini va ularning maqsadlilikini takomillashtirish;
- aholi zaif qatlamlarining mehnat bozorida keng ishtirokini rag‘batlantiruvchi davlat siyosatini ishlab chiqish;
- ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirish va u bilan aholining muhtoj qatlamlarini qamrab olish kerak.

Mamlakatning ekologik barqaror kelajagini barpo etish uchun:

- tabiiy resurslarni, jumladan, suv va yer resurslarini samaraliroq boshqarish;
- atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilarini yanada kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini, shu jumladan energetika sohasini modernizatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

- tabiiy ofatlar xavfini boshqarish tizimini takomillashtirish lozim.

«Hukumatdagi hamkorlarimizga yaqin hamkorlik va MTDni tayyorlashda zarur bo'lgan ma'lumotlar uchun o'z minnatdorchiligimni bildirmoqchiman. Hisobot JBning O'zbekiston bilan yangi hamkorlik dasturi doirasidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Unda kelgusi besh yil ichida muhim islohotlarni amalga oshirish uchun rasmiylarga biz tomonimizdan ko'rsatiladigan moliyaviy va tahliliy yordam hajmi belgilanadi. Dastur may oyi oxirida Jahon banki Ijrochi direktorlari kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi», — deya qayd etdi Jahon bankining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Marko Mantovanelli.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Yangi O'zbekiston»ning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi
2. Долгова В.Н., Т.Ю. Медведева, Т.В. Хомутичкина. Макроэкономическая статистика. Практикум. М.: Финансовый университет, 2015 г.- 149-стр.
3. Золотачук В.В. Макроэкономика. Учебник. – М.: Инфра –М, 2014. 107 с. 7.
4. Mambetjanov Q.Q. Yalpi ichki mahsulotni xarajatlar bo'yicha hisoblash usulini takomillashtirish yo'llari // Iqtisod va moliya T.:2017, 9-12 b.
5. Matkarimova I. A. Yalpi ichki mahsulot xajmini baxolash usullari (milliy hisoblar tizimiasosida) // Molodoy ucheny. — 2017. — №16.2. — S. 16-19. — URL <https://moluch.ru/archive/150/42520/>.
6. Rustamov N.I. Yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi to'g'risidagi ilmiy nazariyalar va uning hisoblanishiga doir mulohazalar. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2016 yil.
7. G'oyibnazarov B.K. “O'zbekiston Respublikasida milliy hisoblar tizimini ishlab chiqishning ilmiy-metodologik asoslari” (statistik aspekt) i.f.d. darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.- T.:TDIU.2006.32
8. <https://stat.uz/uz/>

MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MODELLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI

Olimova Nodira Xamrakulovna, i.f.n., dotsent,
Djuraboyeva Diyora Muzaffar qizi, talaba
Farg'ona davlat universiteti

Respublikamizda investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni yanada jadallashtirish maqsadida investitsiya takliflarini baholash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda boshqa qator funktsional vazifalarni bajaruvchi maxsus fakultativ jamg'armani tashkil qilish va uni xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalariga xos bo'lgan trast boshqaruv tizimi orqali faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida davlat investitsiya dasturining manzilli ro'yxatiga kiritilayotgan investitsiya loyihalarini texnik iqtisodiy asoslanganligi, ularning yuqori qo'shilgan qiymatni innovatsion mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi va loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlariga to'liq javob berishini baholovchi va moliyalashtiruvchi maxsus institut shakllantirilishi lozim.

Korxonalarda sanoat siyosati va investitsion jarayonlarni takomillashtirish, ularning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg'unligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida” 2022 yil 18 maydagi PQ–246-son [Qarori](#)da ta'kidlanishicha, 2022-2030 yillarda raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksida O'zbekiston o'rnini yaxshilash strategiyasi, 2022-2026 yillarda raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksida O'zbekiston o'rnini yaxshilash strategiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi va iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi bo'yicha yuqori va o'rta-yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarmoq va sohalarida faoliyat yurituvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari ro'yxati tasdiqlanadi.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning **amerika modeli** davlat mulki ulushining pastligi va davlat tomonidan tartibga solish darajasining ahamiyatsizligi, tadbirkorlikning barcha usul va vositalar bilan qo'llab-quvvatlanishi, boy va kambag'al aholi qatlamlari o'rtasida keskin farqlanishning mavjudligi, kam ta'minlangan aholi qatlamlari hayot darajasining boshqa mamlakatlarga nisbatan bir muncha yuqori ekanligi va shu kabi jihatlarda ajralib turadi. Rivojlanishning **yapon modeli** ijtimoiy yo'naltirilgan bo'lib, milliy iqtisodiyotning asosiy sohalariga yuqori darajada davlat aralashuvini, iqtisodiy rivojlanish rejalarini tuzishni va ish haqi darajasida uncha katta bo'lmagan farqlanishni ta'minlaydi. **Germaniyaning**

iqtisodiy rivojlanish modeli ham o‘zining ijtimoiy yo‘nalishi bilan ajralib turadi va iqtisodiyotga davlatning yuqori ta‘sirini, asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni prognoz qilishni, ish haqi darajasidagi kichik farqlarni va boshqalar bilan tavsiflanadi. **SHved modeli** iqtisodiy rivojlanishning bir muncha muvaffaqiyatli ijtimoiy yo‘naltirilgan modeli hisoblanadi, u milliy daromadni taqsimlash orqali mulkiy tengsizlikni kamaytirish, kam ta‘minlangan aholi qatlamlari to‘g‘risida qayg‘urish, narxni shakllantirish jarayonida davlatning faol aralashuvini ta‘minlash va davlat sektorining milliy iqtisodiyotdagi yuqori ulushi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, **Frantsiyaning iqtisodiy rivojlanish modeli** ham alohida qiziqish uyg‘otadi, u davlatning yuqori tartibga soluvchi roli, keng ko‘lamli davlat tadbirkorligi va kapitalni jamg‘arish jarayoniga davlatning faol aralashuvi bilan ajralib turadi. **Janubiy Koreyaning iqtisodiy rivojlanish modeli** ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirishdan keng foydalanadi, kredit-moliya sohasida universal nazoratni amalga oshiradi, davlat eksportni rag‘batlantirish va importni cheklash orqali tashqi iqtisodiy sohani tartibga soladi.

Mamlakatimizda hozirgi sharoitda mamlakatimizda import o‘rnini bosuvchi rivojlanish modeli zarur. **Taklif etilayotgan modelni** mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish nuqtai nazaridan asoslab berishga harakat qilamiz.

Birinchidan, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga asoslangan sanoat siyosatini rag‘batlantirish maqsadida pul-kredit siyosati mexanizmlarini yumshatishni taklif qilamiz. **Ikkinchidan**, maqbul chegaralar doirasida selektiv proteksionizm chora-tadbirlari mamlakatimizda ishlab chiqarish imkoniyati mavjud bo‘lgan muayyan tovarlarni mahalliy darajada ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish imkoniyatini beradi. **Uchinchidan**, selektiv proteksionizm choralardan amaliyotda qo‘llanish va uning natijasida ko‘zlangan natijalarga erishish ushbu chora-tadbirlar qo‘llanilayotgan mahsulotlarga nisbatan import kvotalari qo‘llanilganda yanada samaraliroq hisoblanadi. **To‘rtinchidan**, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish bilan bog‘liq bozor o‘zgarishlari natijasida o‘z faoliyatini to‘xtatgan yoki belgilangan tartibda ishlamayotgan mavjud korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash borasida ularni tiklash bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish kerak. **Beshinchidan**, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) dan ozod qilish shaklida import o‘rnini bosuvchi korxonalar (tarmoqlar)ni fiskal rag‘batlantirish import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi korxonalarining xorijiy korxonalariga nisbatan raqobat mavqelarini mustahkamlashga xizmat qiladi. **Oltinchidan**, xom ashyoni qayta ishlash bosqichi darajasidan kelib chiqqan holda adekvat bojxona tarif setkasidan foydalanish xom ashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar yaratishni rag‘batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg‘unligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 18 may, PQ-246-son
2. <https://kun.uz/news/2022/08/29/hukumat-ozbekistonning-raqobatbardosh-sanoat-unumdorligi-indeksidagi-korsatkichini-yaxshilamoqchi>
3. www.cbu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma‘lumotlari
4. <https://centrasia.org/newsA.php?st=1067896440>

IQTISODIY BARQARORLASHTIRISH SIYOSATINI YURGIZISHDA MAKROIQTISODIY DASTURLARDAN FOYDALANISH ASOSLARI

Olimova Nodira Xamrakovna

Farg‘ona davlat universiteti, i.f.n., dotsent

Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish har qanday iqtisodiy siyosatning eng asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi. Barqarorlikka erishish esa makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin darajada pasayishi va ommaviy ishsizlikni oldini olish, pul qadrsizlanishini, pul emissiyasining boshqarilishini ta‘minlash, to‘lov balansini bir me‘yorda saqlash sohasida aniq maqsadni ko‘zlab chora-tadbirlar olib borishni taqozo etadi. Shuning uchun ham respublikamizda bunday chora-tadbirlar mustaqillikning ilk davrlaridan boshlab amalga oshirila boshlandi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan chora-tadbirlar, jumladan, iqtisodiyot tarkibini o‘zgartirish, ustuvor tarmoqlarda ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun qulay sharoitlarni yaratish, davlat byudjeti va korxonalar moliyaviy ahvolini yaxshilash, pulning qadrsizlanish jarayonini to‘xtatish, to‘lov balansini va davlat valyuta rezervlarholatini yaxshilash va buning natijasida O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy munosabatlarda tutgan o‘rnini mustahkamlash, ijtimoiy ahvolni barqarorlashtirish uchun kuchli ijtimoiy siyosat olib borish makroiqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Iqtisodiyotning mafkuradan xoli bo‘lishi, iqtisodiyotning siyosatdan ustunligida o‘z ifodasini topgan iqtisodiy siyosat, davlatning bosh islohotchi vazifasini o‘z zimmasiga olishi,

qonun ustuvorligini ta'minlash, kuchli ijtimoiy siyosat olib borish, islohotlarni bosqichma-bosqich va vazminlik bilan amalga oshirish kabi tamoyillarga asoslanib olib borilgan iqtisodiy siyosat mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikka erishish hamda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlash imkonini berdi.

Mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilish hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifalarini amalga oshirish yo'lida 2017 yil 7 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining bugungi bosqichida makroiqtisodiy kompleksda o'z yechimini kutayotgan muammolarga milliy valyuta va ichki baholarning barqarorligi, valyuta kursining mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir etishi, tadbirkorlik sub'ektlarining o'z ixtiyoridagi xorij valyutadan erkin foydalana olmayotgani, naqd va naqd pulsiz to'lovlarda farqning mavjudligi, tijorat banklarining barqarorligi va moliyaviy holatini mustahkamlash, aholining banklarga bo'lgan ishonchini oshirish kabilar iqtisodiy rivojlanishga jiddiy to'sqinlik qilmoqda.

Harakatlar strategiyasining "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish" deb nomlangan uchinchi yo'nalishda bu borada qator chora- tadbirlarni amalga oshirish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta'minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo'ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma'murchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilmoqda. 2017-2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlari amalga oshirildi. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshdi. Iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish tuzilishini tubdan o'zgartirish asosida umumiy iqtisodiy barqarorlikka erishishda iste'mol bilan jamg'arish fondi o'rtasida eng maqbul mutanosiblikni ta'minlash asosiy o'rin tutadi.

Respublikada iqtisodiy islohotlar davomida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini qayta qurish vazifalariga aholining real turmush darajasini yaxshilash uchun zaruriy shart-sharoitlar sifatida qaraladi.

Davlat byudjet-soliq siyosatining strategik vazifasi davlat xarajatlarini tuzilmaviy qayta qurishni, daromadlarning yangi manbalarini izlab topishni, iqtisodiy mustaqillikni va oxir-oqibatda aholi farovonligining oshishini ta'minlash uchun rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga maqsadli ta'sir ko'rsatishni yo'naltirishdan iborat. Ayni paytda, byudjet-soliq siyosati ishlab chiqarishni o'stirishga hamda uning samaradorligini oshirishga, soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan bo'lishi lozim. O'zbekistondagi soliq siyosatining xarakterli xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

-hukumat ijtimoiy-iqtisodiy va byudjet-soliq siyosatining o'zaro bog'langanligi va bir-birini to'ldirishi;

-soliq siyosatining makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy yuksalishini rag'batlantirishga erishish hamda uni mustahkamlashga yo'naltirilganligi;

-soliq yig'imini oqilona usulda tashkil etish va soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini ta'minlash va byudjet xarajatlarining ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilganligi.

Makroiqtisodiy jihatdan davlatning samarali byudjet-soliq siyosati investitsiya iqlimini yaxshilash, moliyaviy barqarorlik, pul va moliya bozorlari rivoji, korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va aholining real daromadlari o'sishiga imkon beradi. Davlat o'z iqtisodiy funksiyalarini bajarishda moliyaviy manba sifatida davlat budjetiga tayanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". 2017 yil 13 sentyabr, PQ-3272-son
2. Ishmuhamedov A.E., Djumayev Z.A., Jumayev Q.X. Makroiqtisodiyot. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent – 2005
3. <https://fayllar.org/>

**REAL SEKTOR KORXONALARINI QO‘LLAB- QUVVATLASHNING ASOSIY
YO‘NALISHLARI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI**

Yuldashev Doniyor Tairovich

Farg‘ona davlat universiteti, PhD, dots.

Mamlakatimizning uzoq va davomli manfaatlari taqozo etgan holatlarda va keskin vaziyatlardan chiqish, ular tug‘diradigan muammolarni hal etish zarur bo‘lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo‘llandi va bunday yondashuv oxir-oqibatda o‘zini to‘la oqladi. SHu o‘rinda O‘zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta‘minlash uchun etarli darajada mustahkam zahiralari yaratilganini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta‘kidlash joiz. Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo‘lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o‘sish sur‘atlariga erishish vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta‘minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. SHunga ko‘ra, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etib, respublikamizda ushbu jarayon qator yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirildi. Ayniqsa, real sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlashda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag‘batlantirish masalalari alohida o‘rin tutdi. Iqtisodiyotning *real sektori* - iqtisodiyotning bevosita moddiy ne‘matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq soha bo‘lib, u o‘z ichiga sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini oladi. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yo‘nalish va vositalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi: korxonalaridan eskirgan asbob-uskunalarini chiqarish; ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko‘lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq, bu boradagi jiddiy muammo - mahsulotlarimiz tannarxining yuqori darajada qolayotganligi ularning raqobatdoshligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

SHunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida»gi (2008 yil 28 noyabr) 4058-sonli Farmonida muhim chora-tadbirlar qatorida mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarining barcha resurslardan samarali foydalanishi hisobiga mahsulot tannarxini 20 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda pasaytirish orqali ularning raqobatdoshligini ta‘minlash vazifasi ham belgilab berilgan edi.

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlashdagi muhim tadbirlardan yana biri - turli sabablarga ko‘ra vujudga kelgan hamda korxonaning sog‘lom moliya-xo‘jalik faoliyati yuritishiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatib kelayotgan qarzlarni qayta ko‘rib chiqish hisoblanadi. Mazkur tadbir orqali korxonalarining mavjud qarzlarning vujudga kelish sabablari va ularni to‘lash imkoniyatlari o‘rganiladi. Har bir korxonaning ahamiyati, yaxlit xo‘jalik tizimida tutgan o‘rni, boshqa korxonalar bilan ishlab chiqarish va xo‘jalik aloqalarini hisobga olgan holda mazkur qarzlarni to‘lash muddatlarini kechiktirish, ular bo‘yicha qo‘llanishi mumkin bo‘lgan turli sanksiyalarni bekor qilish, zarur hollarda, ushbu qarzlarni umuman ro‘yhatdan chiqarish kabi choralar belgilanishi mumkin.

Real sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda ularni sog‘lamlashtirish tadbirlari ham muhim o‘rin tutadi. Zero, uzoq davr mobaynida sifatsiz mahsulotni ishlab chiqarish, eskirgan texnika va texnologiya asosida zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarini saqlab qolish iqtisodiyotning sog‘lomligiga jiddiy zarar etkazishi mumkin. Bunday korxonalarini bankrot deb e‘lon qilish hamda moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tarkibiy o‘zgartirish orqali qayta tuzish bu boradagi eng to‘g‘ri va samarali echim hisoblanadi.

SHunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi 4053-sonli «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonida ko‘zda tutilgan iqtisodiy nochor korxonalarini moliyaviy sog‘lamlashtirish, modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayoniga tijorat banklarining mablag‘larini kengroq jalb qilishni yo‘lga qo‘yish tadbirlari muhim hisoblanadi. Iqtisodiyotning real sektorini qo‘llab-quvvatlash borasidagi muhim yo‘nalishlardan yana biri sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonidir.

Ma‘lumki, mahalliyashtirish jarayoni iqtisodiyotning jadal va barqaror rivojlanishini ta‘minlash,

uning tashqi omillarga bog'liqligini kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlariga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq qilishni jadallashtirish, mahalliy homashyo va ishlab chiqarish resurslaridan keng foydalanish, shuning asosida zamonaviy raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, valyuta mablag'laridan tejamli va oqilona foydalanish, shuningdek, yangi ish joylarini yaratish imkonini beradi.

Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralarining izchil amalga oshirilishi barqaror va mutanosib o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun yetarli shart-sharoit yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida». 28.11.2008, 4058-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida». 18.11.2008, 4053-son

ЕНГИЛ САНОАТ КОРХОНАЛАРИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ СТРАТЕГИК ПАРАМЕТРЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АСОСИ

Рахмонов Хуршид Хайридинович

БМТИ таянч докторанти

Аннотация. Мақолада энгил саноат Ўзбекистон иқтисодиёти учун тутган ўрни ҳақида ва таҳлили келтирилган. Шунингдек мақолада рақобат, рақобатдошлик тушунчаси ва рақобат афзалликларини аниқловчи омиллар ўрганилган. Рақобатбардошлик тушунчасини баҳолаш ва таҳлил қилишнинг турли усуллари айтиб ўтилган. Хорижий ва маҳаллий олимлар асарларида рақобатдошлик тушунчасига берилган таърифлар ўрганилган. Рақобатбардошлик тушунчасини калит сўзлар асосида гуруҳларга умумлаштирилган. Бундан ташқари тадқиқотимизда рақобат афзалликларини аниқловчи айрим тушунчаларга тўхталиб ўтганмиз.

Таянч сўзлар: Рақобат, стратегия, инновация, инновацион-технология, саноат корхоналари, рақобатбардошлик.

Аннотация. В статье описывается и анализируется роль легкой промышленности в экономике Узбекистана. Также в статье рассматривается конкуренция, понятие конкуренции и факторы, определяющие конкурентное преимущество. Упоминаются различные методы оценки и анализа понятия конкурентоспособности. Изучены определения, данные понятию конкурентоспособность в работах зарубежных и отечественных ученых. Понятие конкурентоспособности сведено в группы на основе ключевых слов. Кроме того, в нашем исследовании мы коснулись некоторых понятий, определяющих конкурентные преимущества..

Ключевые слова: Конкуренция, стратегия, инновации, инновационно-технология, промышленные предприятия, конкурентоспособность.

Annotation. The article describes and analyzes the role of light industry in the economy of Uzbekistan. The article also discusses competition, the concept of competition and factors that determine competitive advantage. Various methods for evaluating and analyzing the concept of competitiveness are mentioned. The definitions given to the concept of competitiveness in the works of foreign and domestic scientists are studied. The concept of competitiveness is summarized in groups based on keywords. In addition, in our study, we touched on some of the concepts that define competitive advantages.

Keywords: Competition, strategy, innovation, innovation-technology, industrial enterprises, competitiveness.

Кириш

Энгил саноат Ўзбекистон иқтисодиёти учун стратегик тармоқ ҳисобланиб, аҳоли бандлигининг юқори даражасини таъминлашга, иқтисодий ва саноат салоҳияти ҳамда давлатимизнинг халқаро нуфузини ривожлантиришга катта ҳисса қўшиб келмоқда. Ўзбекистоннинг ноёб геосиёсий жойлашуви кўплаб мамлакатлар билан бевосита иқтисодий мулоқотда бўлиш, Европа ва Осиё мамлакатлари билан ўзаро фойдали ҳамкорлик алоқаларини амалга ошириш имконини беради.

Ўзбекистон энгил саноати йил сайин ривожланиб бормоқда. Замонавий ишлаб чиқариш технологияларининг жорий қилиниши, юқори технологик илғор жиҳозлардан фойдаланиш, айти пайтда самарали бошқарув механизмини қўллаш тармоқ корхоналарида меҳнатнинг юқори самарадорлигини, саноат ишлаб чиқариши ҳажми ва сифатининг ўсишини таъминламоқда.

Жумладан, 2021 йил якуни бўйича[3] тўқимачилик корхоналари томонидан жами 1,0 млн. тоннадан ортик, 2020 йилга нисбатан 18 фоизга кўп пахта толаси қайта ишланди. Саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми 64 трлн.сўмни, 2020 йилга нисбатан ўсиш суръати 145 фоизни ташкил этган, шундан 33,0 трлн. сўмлик тўқимачилик ва тикув-трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқарилган бўлиб, жисмоний кўринишида 750 минг тонна калави ипи (2020 йилга нисбатан 119%), 550 млн. кв. м. газлама (135%), 176,0 минг тонна трикотаж мато (146%), 302 млн жуфт пайпоқ маҳсулотлари (117%), 553 млн. дона трикотаж маҳсулотлари (129%) ва тикув маҳсулотлари ишлаб чиқариш суръати 130 фоизни ташкил қилган.

Тўқимачилик ва тикув-трикотаж маҳсулотлари экспорт ҳажми 3,0 млрд. долларни ташкил этиб, ўтган йилга нисбатан 1,6 баробар ўсиш суръатлари таъминланган. Инвестиция дастури доирасида 21 та лойиҳа бўйича 243,3 млн. доллар миқдоридан инвестициялар ўзлаштирилиб, шундан тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар ҳажми 174,0 млн.долларни ташкил этган. Сўнгги йилларда ҳудудларни ривожлантириш дастурлари доирасида умумий қиймати 733,2 млн.долларга тенг жами 85 та лойиҳалар ўз фаолиятини бошлаб, 22 мингдан ортик янги иш ўринлари яратилди. Келтирилган маълумотлардан кўришиб турибдики, мустақилликдан олдинги йиллар давомида фақат пахта толасини экспорт қилган республика, бугунги кунда нафақат пахта толаси таъминотчиси сифатида, балки тўқимачилик, тикувчилик, трикотаж, галантерия, чарм-мўйна тайёр маҳсулотларини экспорт қилувчиси сифатида шаклланиб бормоқда ва жаҳон енгил саноат бозорида етакчи мавқега эга бўлиш учун чекланмаган имкониятларга эга. Президентимизнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаларида миллий маҳсулотларнинг рақобатбардошлиги масалаларига катта эътибор қаратилиб, “Европа бозорларига текстиль, электр техникаси, чарм-пойабзал ва бошқа тайёр маҳсулотлар экспортини камида 2 баробар оширамиз”, деган вазифани белгилаб бердилар[2].

Бугунги кунда миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини ошириш, захираларнинг ички ва ташқи имкониятларидан самарали фойдаланиш, билимларга асосланган инновацион иқтисодиётни шакллантириш, иқтисодиётни таркибий жиҳатдан ўзгартириш, диверсификациялаш, юқори технологияларга асосланган янги корхона яратиш ва ишлаб чиқариш тармоқларини модернизациялаш миллий иқтисодиёт рақобатбардошлигини таъминлашнинг шарт-шароитлари ва асосий йўналишлари ҳисобланади. Бу эса, тармоқ корхоналарини инновацион-технологик ривожлантиришнинг стратегик параметрларини шакллантириш мақсадида янги илмий тадқиқотлар олиб боришни тақозо этади.

Рақобатбардошлик, рақобат, рақобат афзалликлари муаммоларига бағишланган кўплаб тадқиқотлар ўтказилган бўлсада, уларнинг илмий натижаларини амалиётга жорий этувчи тадбиркорлар томонидан ушбу категория тушунчасидаги айрим чалкашликлар сабабли тўғри ва тўлиқ англаб олишда муаммолар келтириб чиқармоқда. Ушбу мақоланинг мақсади рақобатбардошлик ва рақобат афзалликлари тушунчаларига янада аниқлик киритиш, моҳиятини чуқурроқ ёритиш ва енгил саноат тармоғи рақобатбардошлик стратегиялари йўналишларини ишлаб чиқиш ҳисобланади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили

Жаҳон иқтисодиёти ривожланишининг янги тенденцияларига мувофиқ турли даражаларда рақобатбардошлик тушунчаси, уни баҳолаш ва таҳлил қилишнинг турли усуллари, кўплаб хорижий ва маҳаллий олимлар томонидан ўз асарларида ўрганилган. Хорижий иқтисодчилар орасида Б. Берман[6], А.Маршалл, М.Портер, С.Розенфельд, Е.Дахмен[7], А.Вебер[8], М.Жон, Л.Петер, Ж.Стевен[9], ва бошқалар рақобатбардошликни таҳлил қилиш усуллари ривожлантиришга катта ҳисса қўшдилар. Бу соҳадаги россиялик иқтисодчилар Азоев: Г.Л.[10], Баумгартен Л.В, Белоусов В.Л, Быкова Е.С., Гельвановский М[11], Фатхудинов Р.А., ва бошқаларнинг илмий ишлари ҳам аҳамиятлидир.

Ўзбекистонда саноатнинг, жумладан енгил саноат тармоқлари рақобатбардошлигини ошириш масалалари Бурханов А.У., Бекмуродов А.Ш., Болтабоев М.Р., Гуломов С.С., Икрамов М.А., Искандаров И.И., Йўлдошев Н.К., Махмудов Н.М., Назаров Ш.Х., Низамов А.Б., Нурибегов Р.И., Пардаев М.Қ., Салимов Б.Т., Тилляходжаев А.А., Тошпулатов И.А., Турсунходжаев М.Л., Умарова Г.Ф., Хакимов З.А., Ходиев Б.Ю., Холиқова Р.С., Юсупов С.Ш., Қодиров А.М. томонидан тадқиқ этилган.

Илмий асарларни таҳлил қилиш, ҳозирги вақтда “рақобатбардошлик” тушунчасига турли нуқтаи назарлар мавжудлиги ва ягона ёндашув йўқлигини аниқлаш имконини берди. Ушбу категориянинг кўп қиррали эканлигини инобатга олган ҳолда иқтисодчилар ёндашувлари алоҳида товар (хизмат), товар ишлаб чиқарувчи (корхона), тармоқ (минтақа) ёки бутун мамлакат иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини кўриб чиқишга асосланади. Шу билан бирга, илмий

ишларнинг аксарияти рақобатбардошликнинг мазмун ва моҳиятини очишга бағишланган бўлиб, алоҳида тармоқ корхоналари рақобат афзалликларини таъминлаш бўйича илмий тадқиқотлар нисбатан кам амалга оширилган.

Тадқиқот методлари

Тадқиқот методологияси сифатида илмий билишнинг иқтисодий таҳлил, мантиқийлик, илмий абстракциялаш, гуруҳлаш, қиёсий ва тизимли таҳлил усуллари орқали тадқиқот муаммоси очиб берилган. Хорижлик ва юртимиз олимларининг илмий ишлари тадқиқотнинг назарий ва методологик асосларини ташкил этади.

Таҳлил ва натижалар

Интеграция ва глобализация жараёнларини фаоллаштиришнинг замонавий шароитида мамлакат, вилоятлар, корхоналар ва ташкилотларнинг иқтисодий позицияларини баҳолашнинг асосий кўрсаткичи уларнинг рақобатбардошлиги ҳисобланади. Биз тадқиқотимизда рақобат тушунчасига батафсил тўхталмасдан, рақобатнинг иқтисодиётни ҳаракатга келтирувчи, иқтисодий субъектларни ривожланишга рағбатлантирувчи куч эканлигидан келиб чиқиб, рақобатбардошлик категориясини чуқурроқ таҳлил қилишни мақсад қилиб олдик. мураккаб иқтисодий категория бўлиб, турли ҳодиса ва жараёнларга нисбатан қўлланилади: миллий ва жаҳон иқтисодиётида, минтақалар ва корхоналар даражасида, маҳсулот яратиш, сифат менежменти, маркетинг, кадрлар ва бошқалар. “Рақобатбардошлик” атамаси “рақобат” тушунчаси билан чамбарчас боғлиқ (лотин тилидан таржима қилинган «concurrentia» - “рақиблик”, “тўқнашув”). “Рақобат” тушунчасининг эволюциясини ўрганиш натижасида унинг халқаро меҳнат тақсимоли шароитида пайдо бўлганлиги ва ривожланишининг барча босқичларида иқтисодиётга хос бўлганлиги аниқланган.

Ўзбекистон Республикасининг “Рақобат тўғрисида”ги Қонунининг 4-моддасида “рақобат” тушунчасига қуйидагича таъриф берилган: “Рақобат — хўжалик юритувчи субъектларнинг (рақобатчиларнинг) мусобақалашуви бўлиб, бунда уларнинг мустақил ҳаракатлари улардан ҳар бирининг товар ёки молия бозоридаги товар муомаласининг умумий шарт-шароитларига бир томонлама тартибда таъсир кўрсатиш имкониятини истисно этади ёки чеклайди” [1].

Бозор иқтисодиёти қонуниятлари амал қиладиган ҳар қандай жамиятда иқтисодий рақобат намоён бўлади. Рақобат тушунчаси, таърифи, уни ўрганиш ёндашувлари, рақобатнинг ривожланиш босқичлари, турлари, кўринишлари ва усуллари доимий равишда миллий ва хорижий иқтисодчи олимлар диққат эътиборида бўлиб, классик иқтисодиёт намоёндалари асарларидан бошлаб, бугунги кунгача кўплаб илмий адабиётлар ушбу мавзунини тадқиқ этишга бағишланган. Биз тадқиқотимизда рақобат тушунчасига батафсил тўхталмасдан, рақобатнинг иқтисодиётни ҳаракатга келтирувчи, иқтисодий субъектларни ривожланишга рағбатлантирувчи куч эканлигидан келиб чиқиб, рақобатбардошлик категориясини чуқурроқ таҳлил қилишни мақсад қилиб олдик.

Рақобатбардошлик – бу, авваламбор, рақиблик қилиш қобилятидир. Ушбу атамани аниқлаштириш рақобатбардошлик объектлари хусусиятларини, мақсадини, баҳолаш кўламларини, мезонларини, кўрсаткичларини, рақобат даражасини очиб беради. Шунинг учун, бизнинг фикримизча, рақобатбардошлик терминини объект билан боғламасдан ўрганиш мумкин эмас. Иқтисодий адабиётларда [5] рақобатбардошлик объектлари (даражалари) қуйидаги гуруҳларга бўлиниши эътироф этилган:

- 1) мамлакатнинг рақобатбардошлиги;
- 2) тармоқ (минтақа)нинг рақобатбардошлиги;
- 3) корxonанинг рақобатбардошлиги;
- 4) маҳсулот рақобатбардошлиги.

Бунда, ишонч билан айтиш мумкинки, рақобатбардошликни таъминлашнинг асосий даражаси макроиқтисодий бўлиб, у давлатнинг бутун иқтисодий тизими фаолиятининг асосий шартларини белгилайди. Ундан кейин аҳамиятлиги жиҳатидан корхоналар гуруҳини қамраб оладиган ва уларнинг ривожлантириш истиқболлари шаклландиган мезо даража, яъни минтақа, тармоқ ёки уюшмалар туради. Микро даражада рақобатбардошлик, корхона салоҳияти ҳамда товарларнинг нархи ва сифати нисбати кўринишида, ўзининг якуний шаклига эга бўлади. Товарларнинг нархи ва сифати нисбати биринчи ва иккинчи даражада шаклланган шартларга шунингдек, корхона ходимлари салоҳиятидан, ўз ресурсларидан ҳамда, миллий умумиқтисодий ва тармоқ афзалликларидан фойдаланиш қобилятига боғлиқ. Бундан келиб чиқадики, рақобатбардошлик даражалари ўртасида ўзаро боғлиқлик мавжуд, масалан, алоҳида тармоқ ва минтақа рақобатбардошлиги бир томондан мамлакатдаги иқтисодий шарт-шароитларга боғлиқ бўлса, иккинчи томондан, алоҳида корхона ва маҳсулот рақобатбардошлиги асосида мамлакат, тармоқ ва минтақа рақобатбардошлиги шаклланади. Рақобатбардошликнинг барча даражалари икки

томонлама боғлиқликка эга, яъни, ҳар бир қуйи даражадаги объектларнинг рақобатбардошлиги барча юқори даражадаги объектларнинг рақобатбардошлиги омили ҳисобланади. Ўз навбатида, юқори даражадаги объектлар қуйи даражадаги объектларнинг рақобатбардошлигини таъминлайдиган шароитларни яратади. Товар, товар ишлаб чиқарувчи, саноат рақобатбардошлигини бирлаштирган ва мамлакатнинг жаҳон бозоридаги мавқеини тавсифловчи синтетик кўрсаткич мамлакатлар рақобатбардошлиги кўрсаткичидир. Демак, таъкидлаш мумкинки, “рақобатбардошлик” атамаси яратилаётган маҳсулотларга ҳам, иқтисодий тизимнинг унсурларига нисбатан ҳам қўлланилади, яъни корхона (ишлаб чиқарувчи), технология, бутун тармоқ ёки минтақа, мамлакат даражасида ҳам кўриб чиқилиши мумкин.

Илмий адабиётларни таҳлил қилиш натижасида рақобатбардошлик тушунчасига берилган таърифларни рақобат субъектига хос турли хусусиятлар билан боғлиқ калит сўзларга асосланган ёндашув бўйича умумлаштиришга эришдик. Бу бизга рақобатбардошлик тармоқ корхоналарини инновацион-технологик ривожлантиришнинг стратегик параметрларини шакллантиришнинг асоси эканлигига илмий далиллар келтириш имконини беради.

Энг кўп тарқалган калит сўзларга асосланган рақобатбардошлик таърифи субъектнинг бозорда аналогларга тенг равишда ёки улардан яхши ҳаракат қилиш хусусиятлари, бозорда рақобатчиларга нисбатан тенг ёки улардан устун бўлиш ҳисобланади. Ўз вақтида М.Портер рақобатбардошликни “мавжуд ўхшаш товарлар, хизматлар ёки бозор муносабатлари рақобатдош субъектлари билан тенг равишда бозорда ҳаракат қиладиган маҳсулот, хизмат, бозор муносабатлари субъектининг хусусияти”[12], деб таърифлаган бўлиб, ушбу ёндашувда у алоҳида корхоналар ишлаб чиқарадиган товар ва хизматларнинг тавсифлари билан боғлайди. М.Портер глобаллашувнинг аҳамияти ортиб бораётганига қарамай, миллий рақобатбардошлик муайян, маҳаллий шароитларга боғлиқ бўлган омиллар мажмуи билан белгиланишини таъкидлайди. Унинг фикрича, рақобатбардошликни таъминлашда корхона қандай қилиб рақобатдош устунликни яратиши ва сақлаб туришини тушуниб олиш учун мамлакат (тармоқ ва минтақа)нинг ролини аниқ белгилаш ва муваффақият келтирадиган рақобатбардошлик стратегиясини танлашга боғлиқ[13].

Р. А. Фатхутдинов, М. И. Гелвановский, Х.А. Фасхиевлар ҳам ўз асарларида юқоридаги фикрни тасдиқлаб, рақобатбардошликни фирманинг ушбу соҳадаги бошқа фирмаларга нисбатан мамлакат ичида ва чет элда иқтисодий рақобат субъекти учун афзалликларни яратадиган хусусиятларга эга бўлиш орқали ифодалайдилар. Маҳаллий олимларимиздан М.Болтабаев тадқиқотларида рақобатбардошликни қуйидагича таърифлаган: “...рақобатбардошлик бир нарсанинг яхши – ёмонлигидан қатъий назар у билан рақобатлаша олиш қобилияти бўлиб, бу ерда асосийси нимадандир афзалроқ бўлиш, яъни у бошқалар билан солиштирилади ва шу қиёслаш асосида рақобатбардошликнинг қиймати аниқланади.”[14] Аммо амалиётнинг кўрсатишича, рақобатчиларга нисбатан фақат субъектнинг афзалликлари ҳамма вақт ҳам рақобат курашида ғолиб чиқишини таъминламайди. Бунинг учун мамлакат, тармоқ ва минтақа даражаларида шароитлар яратилиши ва улардан оқилона фойдаланиш қобилияти ҳам зарур.

Менежмент муаммолари Европа (ЕМР) форуми қуйидаги таърифни таклиф қилади: “рақобатбардошлик – бу фирмаларнинг уларда мавжуд шароитларда, рақобатчиларининг товарларига нисбатан нарх ва нархдан ташқари хусусиятлари билан истеъмолчилар учун кўпроқ жозибадор бўлган товарларни лойиҳалаш, ишлаб чиқариш ва сотиш бўйича реал ва потенциал қобилияти”. Ушбу таъриф, фирмаларнинг рақобатбардошлик даражасини белгиловчи асосий омил сифатида, истеъмолчиларнинг ҳал қилувчи роль ўйнашини таъкидлайди.

Бир қатор олимлар ҳам, шу жумладан Г. Л. Азоев, А.М. Алексеева, Е.И. Мазилкиналар, рақобатбардошликни аналоглар билан солиштирганда мижозлар эҳтиёжларини ўз товарлари билан қондириш даражаси, ташқи муҳит таъсири шароитида рақобатбардош афзалликларини бошқариш натижасида эришилган истеъмол талабининг параметрларини қондириш қобилияти, деган фикрларни билдирадилар.

Маркетинг бўйича луғатда ташкилотнинг рақобатбардошлигига, шунингдек, бозорда товарнинг рақобатбардошлигига истеъмолчи нуқтаи назаридан қаралади: “компаниянинг рақобатбардошлиги бозорларда аналогли товарларни ишлаб чиқарувчилар ва сотувчилар билан юқори сифатли, арзон нархли товар таклиф этиш, харидорлар, истеъмолчиларга қулайлик яратиш орқали рақобатлашиш қобилияти” [15]. Ўзбек олимларидан С.Ш. Юсупов ҳам ушбу фикрга қўшилади: “Истеъмол бозорида товарнинг рақобатбардошлигига истеъмолчи нуқтаи назаридан қаралади. Кучли рақобат шароитида бундай ёндашиш рақобатли бозор натижаларига эришишга йўл кўрсатади” [16]. Бундай ёндашувнинг ҳам ўзига хос афзалликлари ва камчиликлари мавжуд. Афзаллиги шундаки, ким учун ва нима ишлаб чиқариш аёнлигига асосланиб, рақобатбардошлик

стратегияларини танлаш имконияти бўлади. Лекин ҳаддан ташқари истеъмолчи талаблари параметрларига асосланган маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларнинг ошиб кетишига ва зарар кўрилишига олиб келади. Бундай шароитда қандай ишлаб чиқариш муаммосига қаратилган техникавий модернизация стратегиясини ҳам инобатга олиш зарурати туғилади.

Рақобатбардошлик тушунчаларини калит сўзлар асосида умумлаштиришнинг учинчи гуруҳи субъектнинг рақобатбардош бозорда фойда олиш қобилиятига, яъни ташкилотнинг рентабиллиги бўйича рақобатчиларга тенг ёки улардан устун бўлишига асосланади. Муваффақиятли рақобат курашининг зарурий шarti бўлиб ишлаб чиқариш ва иқтисодий фаолият самарадорлигининг юқори даражаси ҳисобланади. И. А. Заярная [17], П.С. Завьялов[18], И.В. Пунгин ва В.С.Пунгина асарларида ташкилотнинг рақобатбардошлиги унинг иқтисодий фаолияти самарадорлиги билан аниқланади.

Молиявий-иқтисодий таянч сўзларга қиёсий изоҳли луғатда “Рақобатбардошлик-товар ишлаб чиқарувчиларнинг минимал рентабелликни таъминловчи нарҳда ташқи бозорда сотиш учун ишлаб чиқаришга бўлган қобилиятидир. Рақобатбардошлик — ўз фаолиятини бозор муносабатлари шароитида амалга ошириш ва бунда ишлаб чиқаришни илмий-техник жиҳатдан такомиллаштириш, ходимларни рағбатлантириш ва маҳсулот сифатининг юқори бўлишини таъминлашга етарли бўлган фойда олиш”, деб изоҳ берилган. Бизнинг фикримизча, ушбу тушунча рақобатбардошликнинг мазмунини тўлароқ очиб беради. Лекин фойда олиш қисқа муддатли бўлиши ва истикболли келажакда рақобатбардошликни таъминламаслиги мумкин. Бундан келиб чиқадики, рақобатбардошликни сақлаб қолиш учун фойда олишнинг ўзи етарли эмас, бунинг учун ташкилотнинг рақобатбардошлигини таъминловчи барча компонентларини стратегик бошқариш ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Рақобатбардошликни аниқлаш асосланадиган калит сўзларнинг тўртинчи гуруҳи – субъектнинг таркибий қисмлари фаолиятини самарали ташкил қилишда рақобатчиларга мувофиқ ёки улардан устунликда бўлишни таъминлайдиган бошқарув стратегиясини танлаш ҳисобланади. Субъектнинг рақобатбардошлик даражаси, бошқача айтганда, бошқа аларга нисбатан рақобат устунлигининг характери, аввало у ўз фаолиятининг барча турларини қандай ташкил этиши ва бажаришига боғлиқ. Ҳали ўтган асрда Б.С. Скотт [19] рақобатбардошликни корхона салоҳиятидан фойдаланиш, унинг самарали фаолияти орқали кўриб чиқади.

1-жадвал

Рақобатбардошлик тушунчасини калит сўзлар асосида гуруҳларга умумлаштириш

Гуруҳ	Рақобатбардошлик тушунчаси тавсифларининг калит сўзлари	Тарафдорла
1	Субъектнинг бозорда аналогларга тенг равишда ёки улардан яхши ҳаракат қилиш хусусиятлари, рақиблардан афзалроқ бўлиш.	М.Портер, Р.А.Фатхутдинов, М.И.Гелвановский, Х.А. Фасхиев, М.Р. Болтабаев[20]
2	Субъектнинг истеъмолчилар эҳтиёжларини кондиришнинг нисбий қобилияти: мақсадли аудитория эҳтиёжларини талаб жаражасида ёки рақобатчиларга нисбатан яхшироқ кондириш.	Менежмент муаммолари Европа форуми, Г. Л. Азоев, А.М. Алексеева, Е.И. Мазилкина, Л.Ш Лозовский, С.Ш. Юсупов[21]
3	Субъектнинг рақобатбардош бозорда фойда олиш қобилияти, яъни ташкилотнинг рентабеллиги бўйича рақобатчилар билан тенг ёки улардан устун бўлиши.	И. А. Заярная, П.С. Завьялов, И.В. Пунгин, В.С.Пунгина, Н.Т. Урмонов, Ш.И. Мустафакулов
4	Субъектнинг таркибий қисмлари фаолиятини самарали ташуил қилишда рақобатчиларга мувофиқ ёки улардан устунликда бўлишни таъминлайдиган бошқарув стратегиясини танлаш	Б.С. Скотт, Р.И. Нуриббетов, В. Баринов, И.А. Тошпулатов, Н.О.Савельева

Манба: Муаллиф ишланмаси

Барча бўлинмалари ва хизматлари фаолияти энг яхши ташкил қилинган ташкилот кўпроқ рақобатбардошли, деб ҳисоблайдиган муаллифлар фикрига қўшилиш мумкин. Масалан, Р.И.

Нуримбетов “...бозорларда позицияларни мустахкамлаш, рақобатбардош афзалликлардан фойдаланиш орқали сотишдан тушган даромад, фойдани максимал даражада ошириш мақсадида менежерларнинг фаолиятини лойиҳалаш, ишлаб чиқариш, бозор айланмаси, товар ва хизматларни истеъмол қилиш жараёнларига йўналтириш” зарурлигини таъкидлайди” [22]. Бу фикр В. Бариновнинг таърифида янада аниқ акс эттирилган: “объектларнинг рақобатбардошлиги унинг элементлари рақобатбардошлигидан ва мақсадга эришиш учун уларни ташкиллаштиришдан иборат”. Лекин бу ёндашувда ҳам технологик рақобатбардошлик тушунчаси ўз ўрнини топмаган.

Шундай қилиб, рақобатбардошлик тушунчасини калит сўзлар асосида гуруҳларга умумлаштириш (1-жадвал) бизга “рақобатбардошлик” категориясининг нисбий эканлиги ва барча гуруҳлар калит сўзлари негизида “рақобат афзалликлари” тушунчаси ётганини асослашга имкон берди. “Рақобатбардошлик - бу субъектнинг рақобатчилар даражасига мувофиқ бўлиш хусусияти, рақобатчилардан яхшироқ бўлиш имконияти эса афзалликларнинг мавжудлиги билан таъминланади” [23].

Тез ўзгаришларнинг замонавий шароитида рақобатбардошлик ва рақобат афзалликлари тушунчаларини фарқлаш ва ўзаро боғлаш муаммолари, шунингдек уларга эришишда инновацияларнинг роли билан боғлиқ баъзи назарий масалаларни кўриб чиқиш зарурати ортиб бормоқда. Биринчи марта бу концепция М. Портер томонидан ишлатилган. М. Портернинг сўзларига кўра, “рақобат афзаллиги рақобатчиларга қараганда паст харажатларда, шунингдек маҳсулотни дифференциялашда ифодаланади”. Рақобат афзалликларини аниқлашда турли таснифий ёндашувлар мавжуд бўлиб, унинг кўп қирраллиги тизимлаштиришни мураккаблаштиради. Шу муносабат билан биз тадқиқотимиз учун зарур бўлган рақобат афзалликларини аниқловчи айрим тушунчаларга тўхталиб ўтаемиз.

Шундай қилиб, Р. А. Фатхутдинов корхонанинг технологик, ахборот, бошқарув, табиий ва иқлимий рақобат афзалликларини аниқлайди[20]. В. Орлова эса корхонанинг рақобат афзалликларининг қуйидаги турларини кўриб чиқади: ресурс, технологик, инновацион, глобал ва маданият[24]. Иқтисодчи олимларимиз К.Холиқов ва Р.Дўсановлар томонидан монополия, нарх (баҳо) сиёсати, технологик рақобат афзалликлари кўриб чиқилган[25]. Е. И. Мазилкина рақобат афзалликлари “бу фаолиятнинг иқтисодий, техник ва ташкилий соҳаларида рақобатчиларга нисбатан устунлик берадиган маълум бир махсус (эксклюзив) қийматга эга бўлган тизимдир” деб эътиров этади. Шунингдек, бошқа иқтисодчи олимлар технологик рақобат афзалликларига устувор аҳамият берган ҳолда рақобат афзалликларида инновацияларнинг ролига катта эътибор қаратишган. Жумладан, М. Ионов, А. Кулагин, В. Логиновларнинг[26] илмий ишларида инновациялар – корхоналар рақобат афзалликларини таъминлаш зарурати ва воситаси эканлиги илмий жиҳатдан асослашган. Шу билан бирга, Л. Н. Сафиуллин рақобат[27] афзаллигини тадбиркорлик субъектларининг атроф-муҳит муаммолари бўйича рақобатчилардан устунликда намоён бўладиган иқтисодий муносабатлар сифатида таърифлайди. Бугунги кунда атроф-муҳит муҳофазаси, яшил иқтисод, энергия тежамкорлик талабларига жавоб берадиган тизимли янгиликларсиз муваффақиятли ривожланишига эришиш мумкин эмас.

Келтирилган таҳлиллар бизга рақобат афзалликларининг қуйидаги хусусиятларини ажратиш имкониятини беради:

1. Рақобат афзалликлари субъектнинг технологик, ахборот, бошқарув, табиий ва иқлимий, ресурс, географик жойлашув ва маданият соҳасидаги устунликлари билан тавсифланади.
2. Рақобат афзаллиги рақобатчиларга нисбатан паст харажатларда ва паст нархларда эришилади.
3. Технологик рақобат афзалликларида инновацияларнинг роли муҳим аҳамиятга эга.
4. Атроф-муҳит муҳофазаси, яшил иқтисод, энергия тежамкорлик талабларига жавоб берадиган тизимли янгиликларсиз рақобат афзалликларига эришиш мумкин эмас [28].

Хулоса ва таклифлар

Юқорида санаб ўтилган хусусиятлар, айниқса, енгил саноат тармоғи рақобатбардошлик афзалликларини ўрганишда долзарб ҳисобланади ва тармоқни инновацион-технологик ривожлантиришнинг стратегик параметрларини шакллантиришнинг асоси бўлиб хизмат қилади. Шуни ҳам таъкидлаш керакки, мамлакатимизда кўплаб саноат корхоналари инновацион техника ва технологияларни жорий этиш орқали рақобатбардош афзалликларга эришмоқда. Аммо тармоқ ва минтақа миқёсида иқтисодий, техник, ташкилий ва бошқа соҳаларда рақобатбардошликни ва рақобат афзалликларини ривожлантириш, бизнингча, тармоқ корхоналарининг технологик рақобатбардошлигини стратегик бошқариш воситалари ёрдамида амалга ошириш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг “Рақобат тўғрисида”ги Қонуни (2012 йил 6 январь, ЎРҚ-319-сон)
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси.
3. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари
4. [https://nrm.uz/contentf?doc=258088_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_iqtisodiy_faoliyat_turlari_umumdavlat_tasniflagichi_\(2-tahrir\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=258088_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_iqtisodiy_faoliyat_turlari_umumdavlat_tasniflagichi_(2-tahrir)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)
5. Савельева Н.О. Конкурентоспособность, конкурентные преимущества и роль инноваций в их достижении. <https://cyberleninka.ru/article/n/konkurentosposobnost-konkurentnye-preimuschestva-i-rol-innovatsiy-v-ih-dostizhenii> URL: <https://expeducation.ru/ru/article/view?id=8137> (дата обращения: 27.12.2022).
6. Barry. Berman. How to compete effectively against low-cost competitors. 2014Business Horizons 58(1)
DOI: 10.1016/j.bushor.2014.09.002. <https://www.researchgate.net/publication/267455534>
How_to_compete_effectively_against_low-cost_competitors
7. Маршалл А. Принципы экономической науки. В 3-х томах. – М.: Издательская группа «Прогресс», 1993г. 594 стр., М.Е. Porter. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990г. 495стр. S.A. Rosenfeld, Bringing business clusters into the mainstream of economic development//European planning studies. -1997-№5-Р.3-23. Дахмен Е. Предпринимательская деятельность и развитие шведской индустрии. – Стокгольм, 1950.,
8. Альфред Вебер. О теории размещения промышленности. Т. 1. Чистая теория размещения (1909) — („Über den Standort der Industrie. Bd. 1: Reine Theorie des Standorts“). Рус. пер. (1926), англ. пер. (1929). Чиновник (1910) — („Der Beamte“).<https://www.livelib.ru/author/446825-alfred-veber>.
9. John M., Peter L., Steven J. Management: quality and competitiveness. Irwin, Burr Ridge, Illinois Boston, Massachusetts Sydney, Australia, HD 30.23.19. 1994. – pp 658.
10. Азоев Г.Л. Конкурентные преимущества фирмы. М.:ОАО «Типография «НОВОСТИ», 2000. 156с.
11. Гельвановский М. Конкурентоспособность в микро-, мезо- и макроуровневом измерениях // Рос-сийский экономический журнал. 1998. №3. С. 67-71.
12. Портер М.. Портер М. Конкуренция. /Пер. с англ. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2005. – 608с.
13. Портер М. Международная конкуренция. — М.: Международные отношения, 1993,- 51 бет.
14. Болтабаев М.Р. Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноати экспорт имкониятларини ривожлантиришда маркетинг стратегияси. Докторлик диссертацияси. -Т.: 2005. - 102 б.
Маркетинг. Словарь. /Азоев Г.Л., Завьялов П.С., Лозовский Л.Ш. и др. – М.: ОАО «НПО «Экономика», 2000 – 422 с
15. Юсупов С. Ш. кучли рақобат шароитида ўзбекистон тўқимачилик саноати корхоналарини ривожлантириш стратегиялари. 08.00.13 - Менежмент ихтисослиги бўйича иқтисодий фанлари фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2018, -143 б
16. Заярная, И. А. Управление повышением конкурентоспособности предприятия / И. А. Заярная. — Текст : непосредственный // Проблемы и перспективы экономики и управления : материалы I Междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, апрель 2012 г.). — Санкт-Петербург : Реноме, 2012. — С. 172-174. — URL: <https://moluch.ru/conf/econ/archive/15/1715/> (дата обращения: 02.01.2023).
17. Завьялов П.С. Конкурентоспособность и маркетинг // Российский экономический журнал. – 2005. - № 12. с. 50-58
18. Пунгина В.С. Урмонов Н.Т., Мустафакулов Ш.И.. Молиявий-иқтисодий таянч сўзларга киёсий изоҳли луғат. т (Ўқув-амалий қўлланма). – Т.: ”Молия” нашриёти, 2016. - 365 б.

19. Scott B.S. Competitiveness: Self - help for a Worsening Problem / B. Scott // Harvard Business Review.-1989.-№6.- Pp. <https://hbr.org/1989/07/competitiveness-self-help-for-a-worsening-problem>
20. Фатхутдинов Р.А. Конкурентоспособность: экономика, стратегия, управление. М.: Инфра-М, 2000.
21. Алексеева А.М. Конкурентные преимущества и их роль в рыночной экономике.- М.:МАКС Пресс, 2003. 49 с.
22. Нурымбетов Р.И. Факторы конкурентоспособности в условиях рынка // Международный журнал экспериментального образования. – 2015. – № 8-3. – С. 343-347; URL: <https://exeducation.ru/ru/article/view?id=8137> (дата обращения: 27.12.2022).
23. Лукьяненко В. Н. Соотнесение понятий «конкурентоспособность» и «конкурентные преимущества» Вестник ЗабГУ № 06 (109) 2014. yberleninka.ru/article/n/sootnesenie-ponyatiy-konkurentosposobnost-i-konkurentnye-preimuschestva
24. Орлова В. Факторы и методы оценки конкурентоспособности предприятий алюминиевой промышленности В. Орлова. Государственный Университет Управления, 2004. – с. 240
25. Холиков К.О., Дўсанов Р.Х. Рақобат:назарияси, шакллари ва усуллари. Илмий рисола. ТермДУ. 2009.
26. Дусав Х.Б. Инновация: теоретический аспект. Вестник ОГУ. 6.2003 124с.
27. Safiullin N.Z., Safiullin L.N. Upravlenie konkurentosposobnostiyu predpriyatiy. [Enterprise competitiveness management]. Kazan, Izd-vo Kazansk. un-ta, 2008. 189 p.
28. Муаллиф хулосалари

II SHO'BA.
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH VA
ULARNING TURISTIK SALOHIYATIDAN SAMARALI
FOYDALANISHNING DOLZARB MASALALARI

AGROPOLIS O‘ZBEKISTON UCHUN ERKIN IQTISODIY ZONALARNING SAMARALI SHAKLI

Khamroev Khalim, Buxoro, BDU. Professor, i.f.n.

Annotatsiya: Maqolada erkin iqtisodiy zonalarning samarali shakllaridan biri – texnopolislar, jumladan, qishloq xo‘jaligida agropolis shaklida qo‘llanilishi tahlil qilinadi. Ulardan O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlari tahlil qilinib, mamlakatda qo‘llash samarali bo‘lgan joy va mahsulot turlari bo‘yicha ayrim takliflar qilingan.

Kalit so‘zlar: erkin iqtisodiy zona, texnik-tadqiqot hududi, texnopolis, agropolis, raqobat muhiti, polis g‘oyasi.

Hozirgi paytda, butun dunyo industrial iqtisodiyotdan innovatsion iqtisodiyotga qarab bormoqda. Erkin iqtisodiy zonalar esa XX asrning ikkinchi yarim yilligining eng ko‘zga tashlanadigan institutsional innovatsiyasi ekanligini isbot qildi. Amaliyotda erkin iqtisodiy zonalarning qirqdan ortiq turi bo‘lib, ular dunyoning 140dan ortiq mamlakatida barpo etilgan. Yigirmanchi asrning yetmishinchi yillarida jahonda 700 erkin iqtisodiy zona bor degan ma‘lumot beriladi, asr oxiriga kelib esa jahonda 4 mingta erkin iqtisodiy zona bor degan ma‘lumot berildi [6.3.]. Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, planetada ularning soni kichik hududlarni hisobga olganda 7000 dan oshib ketgan. Hozir ular dunyo iqtisodiyotida salmoqli o‘rinni egallab bormoqda.

Erkin iqtisodiy zona murakkab tashkilot bo‘lib, u quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- ❖ o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan maqsadlar to‘plamiga egaligi;
- ❖ Natijaga erishish uchun resurslarning mavjudligi (kadrlar, kapital, materiallar, texnologiyalar va informatsiya);
- ❖ Tashqi muhitga bog‘liqligi (iqtisodiy sharoitlar, iste‘molchilar, kasaba uyushmalari, qonunchilik, raqib tashkilotlar, jamiyatdagi qadriyatlar tizimi, texnika va texnologiyalar);
- ❖ Gorizont va vertikal mehnat taqsimoti mavjudligi;
- ❖ Aniq, maxsus vazifani bajaruvchi hamda aniq, maxsus maqsadlarga erishuvchi bo‘limlarning mavjudligi;
- ❖ Boshqarish va tartibga solishning zarurligi.

Jahon tajribasida erkin iqtisodiy zonalarning xilma-xil tiplari bo‘lib, ularning har biri umumiy xususiyatlardan tashqari o‘ziga xos xususiyatlarga ham egadir [2, 3,13.]. Bu o‘ziga xoslik har bir aniq holatda ko‘plab omillar va ularning mavqei, ahamiyati, o‘zaro bog‘liqlik bilan aniqlanadi. O‘zining rivoji davomida erkin iqtisodiy zona “tashqi” ta‘sirga uchraydi, ichki ziddiyatlar paydo bo‘ladi, u yashayotgan muhit (siyosiy, iqtisodiy, ekologik tabiiy va b.) o‘zgaradi.

Erkin iqtisodiy zonalarni turli - tuman shaklda bo‘lishiga quyidagi omillar ta‘sir etadi: joylashish o‘rni, hudud konfiguratsiyasi, maydonning kattaligi, ishlab chiqarish va boshqa resurslarning mavjudligi va sifati, tabiiy iqlim sharoiti, tabiiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarning xususiyati, bajariladigan vazifalari, yuklatilgan funksiyalari, xo‘jalik faoliyatining turlari, maydonning qaysi davlat yoki millatga tegishliligi va b [5.22-43., 12.22.]. Erkin iqtisodiy zonalarning turlariga keladigan bo‘lsak, yuqorida ta‘kidlaganimizdek ularning 40dan ortig‘ini ajratish mumkin. Ularni ichida eng mashhurlaridan biri texnopolis hisoblanadi. Texnopolislar yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida Yaponiya iqtisodiyotini jadal sur‘atlar bilan rivojlanishga olib kelgan “yapon mo‘jiza”laridan biri sanaladi.

Hozirgi ashaddiy raqobat muhiti sharoitida fan sohasida tug‘ilgan g‘oya ishlab chiqarish sohasiga juda tez va silliqqina yetib borishi va tovarga aylanishi kerak. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu jarayonlarni jadallashtirish uchun iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini liberallashtirish zarur. Shu nuqtai nazardan fan va ishlab chiqarish integratsiyasining samarali va qulay shakli sifatida erkin iqtisodiy zonalarning eng samarali shakllaridan biri texnopolislar tajribasi juda qiziqarlidir.

Texnik-tadqiqot hududlaridan eng progressiv va jahonda anchagina tarqalgan turi bo‘lmish hududlarning yapon varianti bo‘lmish *texnopolis (Tehnopolis)*ga kelsak, bu ilg‘or yuqori texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlar va loyiha-konstruktorlik ishlanmalar shahridir. Texnopolis – texnopark, ilmiy, inkubator va boshqa shakldagi ko‘plab ilmiy-tadqiqot hududlarining konglomeratidir. Texnopolislar tarkibiga bir necha texnopark, ilmiy park va boshqa strukturalar ham kirishi mumkin. Texnopolisning bosh vazifasi resurslarni konsentratsiya qilish yo‘li bilan innovatsiya jarayonini jadallashtirishdan iborat. Uning strategiyasi - butun xo‘jalikni intellektuallashtirish va yuqori texnologik darajadagi regional markazlarni rivojlantirish bazasida yangi faoliyatlar sohasida sifat jihatdan sakrashdan iborat. Texnopolisning ko‘p tarmoqli faoliyati davlat va manfaatdor tadbirkorlarning fundamental va amaliy tadqiqot loyihalarini amalga oshirishni, olingan ilmiy natijalarni ishlab chiqarishga joriy qilishni o‘z ichiga oladi [7].

Texnopolis innovatsiyalarni yig'ish, jamlash va amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan infrastruktura va yuqori hayot darajasi yaratilgan kichik bir yoki bir necha shaharchadan iboratdir. Xullas, texnopolis – bu ilg'or yuqori texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlar va loyiha-konstruktorlik ishlanmalar shahri, texnopolis – texnopark, ilmiy, inkubator va boshqa shakldagi ko'plab ilmiy-tadqiqot hududlarining konglomeratidir.

«Texnopolis» termini Yaponiyaning sanoat strategiyasining asosida yotuvchi ikkita muhim g'oyaning sintezini bildiradi. Birinchi g'oya («texnologiya») - yangi, butun bir sohani o'zgartiruvchi texnologiyalar asosida Yaponiyaning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilishdan iborat. Ikkinchi g'oya («polis») xususiy sanoat bilan jamiyat tomonidan tan olinadigan g'oya va javobgarlik o'rtasidagi muvozanatga asoslanuvchi qadimgi greklarning shahar-davlat g'oyasidir. Bu ikki g'oyani birlashtiruvchi g'oyani «XXI asrga supersakrash» deb, u Yaponiyani fanning ilmiy - texnik arxipelagiga aylantiradi, deb umid qilishgan. Bunday yangi shaharlar hozirgi zamon ilmiy texnik komplekslar, universitetlar va ilmiy tadqiqot institutlarining muvozanatlashgan yig'indisidan iborat bo'lishi kerak, bundan tashqari, yashash uchun qulay bo'lgan madaniy va sog'liqni qayta tiklash imkoniyatlariga ega bo'lishi kerak. Texnopolislar ajoyib manzarali rayonlarda joylashishi kerak, mahalliy urf - odatlar va tabiiy sharoitlar bilan uyg'unlashuvi zarur [2, 10.].

«Texnopolis» konsepsiyasining asosiga yaponlar AQSHning «Selikon vodiylari» tajribasini olganlar. «Texnopolis» dasturi ilmiy texnika taraqqiyotini jadallashtirish va sanoatni ilm ko'p talab qiladigan strukturaga o'tkazish sharoitida regional strategiyaning eng muhim unsuri bo'ldi. Yaponiyada texnopolislarni «XXI asr shaharlarini qurishning dasturi» deyishadi. Dastur yuqori texnologik sanoat, fanni atrof - muhitdagi yashash hududi bilan uzviy va muvozanatli birligini ko'zda tutadi. Yaponiyaning 14 rayonida yetakchi ilmiy bo'linmalar asosida 19 ta texnopolislar yaratilgan. Eng yirik texnopolis «Sukuba» 145 ming kishini ish bilan ta'minlaydi. «Sukuba»da Yaponiyaning 98 davlat tadqiqot laboratoriyalaridan 30 tasi joylashgan va u dunyoning eng yirik ilmiy markazlaridan biri hisoblanadi [8., 11.].

Texnopolislar birinchi navbatda raqobatni mo'ljallab olish va iqtisodiy samaradorlik tamoyillariga rioya qilgan holda shakllantiriladi. Ularni tashkil etishda boshqarishning an'anaviy byurokratik shakllari bartaraf etiladi. Texnopolislarni qurish odatda regional darajada, mahalliy soliqlar va kreditlarga tayangan holda olib boriladi. U turli soha vakillari o'zaro muamala qiladigan va fikr almashadigan yuqori intellektlashgan muhitni talab qiladi. Odatda xuddi shunday muhitda, boshqa sohalaridagi ilmiy tortushuv va yangiliklarni o'zidagi muammolarga qarata olish orqali kutilmagan kashfiyotlar sodir bo'lishi mumkin. Texnopolisning muhim xususiyati shundan iboratki, u yirik shaharlarda emas, balki kichikroq shaharlarda, industrial shovqin nisbatan kam bo'lgan, sokin, ijod qilish uchun qulay bo'lgan joylarda yaratiladi. Ammo bu joylarda yashovchilar tashqi dunyo bilan hozirgi informatsion - kommunikatsion tizimlar orqali juda yaxshi bog'langan bo'lishi shartdir, kerak paytda jahonning xohlagan mashhur kompaniyasiga borish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Yaponiyadagi ko'plab texnopolislar ma'muriyatlaridagi o'ta qobiliyatli menejerlarning say-harakati va mahalliy hukumatning qo'llab-quvvatlashlari natijasida ijodda, ayniqsa texnologik ijod qilishda mamlakatning eng yaxshi va samarali joylariga aylandi [5].

“Yapon mo'jizasi”dan ilhomlanib Gonkong, Singapur, Tayvan kabi yangi industrial mamlakatlardagi iqtisodiy ko'tarilish texnopolislar rivojlanishi bilan anchagina bog'liq bo'ldi. Texnopolislar iqtisodiyotda mehnat unumdorligini oshirishga, yuqori malakali ish o'rnlari yaratilishiga, valyuta oqimini ko'payishiga, mamlakatni jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashib ketishiga imkon berdi. Bu mamlakatlarda hududlar asosan eksportga mo'ljallangan yuqori ilmiy texnik xarakterdagi ishlab chiqarishlarning anklavlariga aylanib ketishdi.

O'zbekistonning hozirgi holatini hisobga olib, texnik-tadqiqot zonalarining shu shakliga e'tiborni qaratib, qator shaharlarimizda texnoparklar yaratishda yapon modelini andoza qilib olish maqsadga muvofiqdir. Nega yapon modeli? degan savol tug'iladi, albatta. Birinchidan, yapon madaniyati ko'p jihatdan o'zbek madaniyatiga o'xshab ketadi: kollektivchilik ustuvorligi, jamiyatda davlat institutining mavqeining kattaligi va boshqalar, ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan Amerika va Yevropa modellarida zonalar yaratishning asosiy qatnashchilari va moliyalashtiruvchilari baquvvat xususiy universitetlar, banklar va firmalar hisoblanadi, yapon modelida esa asosiy qatnashuvchi va moliyalashtiruvchi bo'lib davlat muassasalari, mahalliy hokimiyat organlari chiqadi, xususiy biznes, jumladan, banklar, universitetlar va firmalar esa yordamchi rolni o'ynaydi. Hozirgi O'zbekiston sharoitida xususiy sektorni imkoniyatlarini tahlil qilib shuni aytish mumkinki, ular bu kabi yirik loyihaga mablag' ajratish darajasidagi moliyaviy imkoniyatlarga ega emas. Faqatgina davlat ko'magidagina bu kabi loyihalarni hayotga tadbiiq qila olamiz.

Keyingi paytlarda texnopolislar rivojlanib anchagina ixtisoslashib ketishdi va ularning turli ko‘rinishlari paydo bo‘ldi. Shulardan biri agrar sohaga ixtisoslashgan turi agropolislar ham paydo bo‘ldi. Agropolis qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan o‘ziga xos texnopolisdir. Xorij mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, agropolislar yigirmanchi asrning keyingi o‘n yilliklarida yaponlar kashf etgan texnopolisning bir ko‘rinishi bo‘lib, uchinchi dunyo mamlakatlari uchun jahon bozorida o‘z o‘rnini topishda eng qulay novatsiyalardan biridir. Texnopolislarining bir shakli sifatida agropolislar ham fan - texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga tez va arzon tadbiriq qilish uchun zarur bo‘ladigan barcha resurslarni bir joyda konsentratsiya qilish uchun xizmat qiladigan quroldir. Agrar sohaning u yoki bu yo‘nalishida katta burilish qilish uchun moddiy resurslarni, pul resurslarini, intellektual kapitalni yig‘ish, olim ijodkorligi uchun zarur bo‘ladigan infrastrukturani (ishlab chiqarish, ilmiy, ijtimoiy, bozor) yaratishdan iborat. Janubiy – Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari (jumladan, Singapur, Malayziya, Tailand, Tayvan va boshqalar) dengiz mahsulotlarni va ekzotik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ushbu novatsiyani qo‘llab, katta yutuqlarni qo‘lga kiritmoqdalar [4.49., 1.135.].

O‘zbekiston qulay tabiiy-iqlim sharoitiga ega bo‘lganligi uchun ham agrar sohani rivojlantirish masalasida juda katta potensialga ega ekanligini bilamiz. Shuning uchun ham mamlakatda bu sohaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalarining shu turini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir, shu bilan birga agrar sohamiz bu masalada juda katta imkoniyatlarga ham egadir. Xullas, O‘zbekiston agrar mamlakat bo‘lganligi uchun erkin iqtisodiy zonalarining bir turi «Agropolis»larni rivojlantirish ham zarur va ham katta imkoniyatlarga ega.

Mamlakatimizda agropolislarni hayotga tadbiriq etish uchun bir qancha sabablar mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- ✚ O‘zbekiston iqtisodiyotida agrar sohaning mavqei nisbatan yuqori bo‘lib, iqtisodiyotning agrar sohani rivojlantirish va qishloq joylarida yuqori darajadagi yashash sharoitlarini yaratish O‘zbekiston hukumatining asosiy vazifalardan biridir;
- ✚ Agropolislar erkin iqtisodiy zonalarining progressiv shakli sifatida qator Osiyo mamlakatlarida yuqori samara berib kelmoqda;
- ✚ O‘zbekiston keyingi o‘n yilliklarda agrar sohada ilmni rivojlantirishga katta e‘tibor berganligi tufayli respublikada agropolislar yaratish uchun ilmiy baza ham mavjud;
- ✚ Bu mamlakat azaldan dehqonchilik hududi bo‘lganligi uchun bu yerda agropolis yaratish uchun agrotexnikaviy bazaga ham ega. Bu yerda dunyoning boshqa hech qayerida deyarli uchramaydigan mevalar yetishtirishda katta tajribaga ega;
- ✚ Respublikada ihsizlik muammosi og‘ir masalalardan biridir, uni hal qilishni eng maqbul variantlaridan biri - mavjud dehqonchilik madaniyatiga tayanib, unga zamonaviy ilmiy bazani qo‘llab turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali bandlik darajasini ko‘tarish maqsadga muvofiqdir [9].

Bugungi kunda qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ayniqsa, meva-chevalarning 60-70 foizi dasturxonigacha yetib bormasdan nobud bo‘lmoqda. Buning sabablariga quyidagilarni aytish mumkin:

1. Mevalar pishgan vaqtda uni konservatsiya qilish tizimlari yaxshi rivojlanmaganligi uchun anchagina qismi nobud bo‘ladi;
2. Mevalarni eksport qilishda bojxona to‘siqlarining mavjudligi ham unga salbiy ta‘sir qiladi;
3. Mevalarni eksport qilish dehqon va fermer xo‘jaliklarida mutaxassislarining yetishmasligi ham salbiy ta‘sir qilmoqda.

Xullas, O‘zbekistonda agropolislarni yaratish uchun barcha zaruriy omillar mavjud: unumdor yer, saxovatli tabiat, ming asrli tajribaga ega bo‘lgan mirishkor dehqonlar, agrar sohada ilm qilayotgan va qila oladigan olimlar, minimal bo‘lsa ham infrastruktura unsurlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun katta bozor bo‘lgan shimoldagi qo‘shni mamlakatlar va b. Faqatgina geopolitik nuqtai nazardan qulay bo‘lgan ma‘lum bir territoriyani ajratib olib, davlat tomonidan imtiyozlar tizimini ishlab chiqib, oqilona tartiblash va samarali boshqarish tizimlarini yaratish zarur. O‘zbekiston yuqorida sanalgan mamlakatlar tajribasiga tayanib, o‘zida qator agropolislarni yaratishi mumkin:

-Buxoro vohasi va Farg‘ona vodiysida mevachilikka ixtisoslashgan agropolislarni yaratish mumkin. O‘zining shirin mevalari, birinchi navbatda o‘rik, nok, anjir, olcha va uzumlari bilan mashhur, shu mevalarni ishlab chiqarish, konservatsiya qilish, sok, murabbo va shu kabi mahsulotlar olishga hamda uzoq yurtlarga eksport qilishga ixtisoslashgan hududni yaratish mumkin;

– Xorazm va Buxoro vohalari qovunlarining dovruq‘i yetti iqlimga yetgan, jahonga mashhur qovunlarni yetishtirishga qulay iqlim sharoitiga hamda tajribaga ega bo‘lgan bobo-dehqon, mirishkorlarimiz va seleksioner olimlar bor. Shu qovunlarni yetishtirish, ularni quritish va turli xil mahsulotlar olishga qaratilgan agropolis yaratish mumkin;

- Surxondaryo vohasida o'ziga xos subtropik va ekzotik mahsulotlar yetishtirishga, jumladan, anor, anjir, tut kabi mahsulotlarni yetishtirish, qayta ishlash va eksport qilishga mo'ljallangan agropolis yaratish mumkin;

- Juda katta sotish bozori bo'lganligi uchun Toshkent va Samarqand shaharlari yaqinida sabzavotchilikka ixtisoslashgan agropolislarni yaratish mumkin.

O'zbekistonda agropolislarni yaratishda hududlarda faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarining hamkorligi zarur, busiz esa samarali innovatsion loyihani yaratib bo'lmaydi. Loyiha yaxshi samara berishi uchun uni nazoratiga mahalliy hokimiyat bilan bir qatorda bu oliy yuqur yurtlaridagi mutaxassislarni ham jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi paytda ko'plab olimlar o'zicha ilmiy ishlarni olib borishadi, ularni bir maqsadga birlashtirish natijasida esa samaradorlikni ko'tarish imkoniga ega bo'linadi.

Xulosa qilib aytganda, agropolislarni barpo etilishi avvalom-bor, mamlakat iqtisodiyotida salmoqli o'ringa ega bo'lgan qishloq xo'jaligini ravnaqiga ulkan hissa qo'shadi, bundan tashqari, regionning ilmiy potensialini harakatga keltiradi, agrar sohada ilm qilayotgan olimlarni faoliyatini aniq bir yo'nalishga qaratadi va samaradorligini oshiradi, region uchun qo'shimcha ish joylari va davlatga valyuta oqimini oshirishga imkon beradi. Bundan tashqari, qo'shni regionlarga ham nafi tegib, ularni iqtisodiy jihatdan jonlanishiga qo'shimcha stimullar bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Андрионов В.Д. Специальные экономические зоны в мировой экономике.- М.: ЭКО, 1997г.
2. Бойко С. Необходим закон о свободных экономических зонах. //Ж: Экономист, № 2, 1994г. 51-54с.
3. Васильев Л.Н. Вопросы формирования свободных экономических зон //Ж: экономист. - 1993г. № 9. 50-54 с.
4. Васильев Л. СЭЗ: мифы и действительность. – //Ж: Биржевые ведомости. - 1995г, № 1-2, 8с.
5. Данько Т., Окрут З. Свободные экономические зоны в мировом хозяйстве: Учеб. Пособие /Российская экономическая академия им. Г.В.Плеханова. М.: Инфра-М., 1998г. 168с.
6. Ким И. Л. Государственное управление специальных экономических зон. Кызыл-орда. - 1998г. 161с.
7. Перевалов Ю., Ятнов В. Технополисы как территориальные центры структурной перестройки.//Ж: Вопросы экономики. - 1995г. № 10 145-148с.
8. Рудакова М. Японский вызов американскому капитализму уроки конкуренции. //Ж: Экономические науки. - 1981г. № 2. ст. 71-80.
9. Хамраев Х.Р. Агрополисы важный инструмент ускорения инновационных процессов в сельских местностях. Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования. Электронный сборник статей. Россия. Солёное Займище.2016г.стр.3566-3572.
10. Тацуно Шеридан. Стратегия – технополисы : пер. с англ. / Общая ред. В.И. Данилова - Данильяна. М.: Прогресс.- 1989г. 344с.
11. Тимонина И.Л. Япония: опыт регионального развития. М.: Наука, 1992г.
12. Цуй Шань. Становление и развитие СЭЗ КНР. М. 1999г.
13. Юн Чжен Ен. Применение мирового опыта и особенности развития свободных экономических зон в России. М.1997. 174с.
14. <https://www.finam.ru/dictionary/wordf02DBE00031/?page=1>.
15. <https://cyberleninka.ru/article/n/tipologiya-osobyh-ekonomicheskikh-zon-v-sovremennyh-usloviyah/viewer>.
16. https://en.wikipedia.org/wiki/Free_economic_zone.
17. https://en.wikipedia.org/wiki/List_of_free_economic_zones.

O'ZBEKISTONDA MUSTAQIL TURIZMNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA HOZIRGI HOLATI

Ibragimov Nutfillo Salimovich

“Turizm va mehmonxona xo'jaligi” kafedrasini mudiri, i.f.d., prof.,

Yuldashev Kamol Sharifovich

“Ipak Yo'li” xalqaro turizm va madaniy meros universiteti doktoranti,

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasini o'qituvchisi

Hozirgi vaqtda pandemiyadan keyin mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida yangi turistik yo'nalishlarni tashkil etishga zarurat tug'ilmoqda. Global miqyosda mustaqil ravishda sayohatni

“Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash: muammolar va yechimlar”

tashkil etadigan sayyohlar sonining barqaror o‘shirish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Sayohatchilar uyushtirilgan tur mahsulotini tanlashdan ko‘ra, o‘zlarining sayohatlarini mustaqil tashkil qilishni afzal ko‘rishmoqda. O‘zbekistonda turizm industriyasining rang-barangligi va jozibadorligini oshirish, turistik yo‘nalishlarda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, turizm sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlarining o‘z xizmatlarini to‘g‘ridan – to‘g‘ri sotish imkoniyatlarini kengaytirish vaqti keldi.

Bugungi kunda mustaqil turizmni tashkil etish texnologiyasi sezilarli o‘zgarishlarga duch kelmoqda ammo, mamlakatdagi aksariyat turlar, sayyohlik agentliklari orqali dam olishni tashkil etish tizimi ma‘lum ustuvor pozitsiyalarga ega bo‘lmoqda. Biroq, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi hozirgi vaqtda mustaqil turizm kategoriyasiga mansub sayyohlar uchun imkoniyatlar chegarasini kengaytirmoqda. Xorijiy sayohatchilar o‘z tur yo‘nalishlarini tuzishda barcha xizmatlarni internet orqali birma-bir mustaqil tanlash imkoniyatiga ega. Jahon miqyosida sayohatni mustaqil uyushgan turistlar sonining barqaror o‘shirish tendentsiyasi kuzatilmoqda. 2022-yil boshida Boooking.com elektron band qilish platformasi sayti bergan ma‘lumotlariga ko‘ra, pandemiyadan oldingi davrda 14% sayohatchilar yakka tartibda sayohat qilishgan. Ammo pandemiyadan keyingi davrda 2021-yilning o‘rtalariga kelib, ularning soni 23% ni tashkil etgan [1]. 2021-yil dekabr oyida booking.com sahifasidan 346.6 million kishi foydalanishgan bo‘lsa, 2022-yil avgust oyiga kelib, ularning soni 677.9 million kishini tashkil etgan [2]. Bu borada mamlakatimizda mavjud bo‘lgan turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish, mustaqil sayyohlar oqimini oshirish maqsadida rahbariyat tomonidan ko‘plab o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Birgina viza siyosatining 86 ta mamlakat uchun yengillashtirilishi bunga misol bo‘la oladi. Bu bilan mustaqil sayohatchilar O‘zbekistonga istalgan vaqtda vizasiz tashrif buyurishiga imkon yaratadi.

Ushbu yangi segment haqida 18.07.2019-yildagi O‘RQ-549-son Turizm to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasining qonuni, Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 16-aprelda qabul qilingan va Senat tomonidan 2019-yil 21-iyunda ma‘qullangan qonunida mustaqil turizm atamasi haqida 3-modda asosiy tushunchalarda ta‘kidlab o‘tilgan. Unda, mustaqil turizm – turistlar tomonidan turoperatorlar va turagentlar ishtirokisiz mustaqil ravishda tashkil etiladigan sayohatdir deb ta‘kidlab o‘tilgan [3].

Oxirgi yillarda mamlakat katta hajmdagi xorijiy sayyohlarni qabul qilishda ko‘pgina muammolarga duch kelgan. Joylashtirish vositalarining tanqisligini eng avvalo misol qilib ko‘rsatsa bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Turizm va Madaniy meros vazirligi sahifasida bergan statistik ma‘lumotiga ko‘ra 01.01.2019-yilga qadar joylashtirish vositalarining soni 914 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib, ularning soni deyarli 5 baravarga oshirildi [4].

1- Jadval

O‘zbekistonda joylashtirish vositalari haqida ma‘lumot(2022-yil)

Joylashtirish vositalari	Umumiy soni	Umumiy xonalar soni	Umumiy yotoqlar soni
Mehmonxonalar	1758	42164	84328
Xostellar	331	2606	10424
Oilaviy mehmon uyi	2105	3658	10974
Yotoqxonalar	55	1028	4112
Dam olish maskani	58	2005	6018
Sanatoriya	44	2310	7102
Kvartiralar	19	49	171
Butik mehmonxona	9	206	4165
Kemping	6	86	185
Boshpana	36	993	1024
Motel	11	204	358
Sayyohlik bazasi	2	64	256
O‘tov	11	149	208
Sayyohlik oromgohi	1	13	32
Bolalar oromgohi	1	118	483
Spa mehmonxona	2	62	217
Tog‘dagi uylar	2	21	95
Jami	4451	55736	130152

Yuqorida ko‘rsatilgan statistik ma‘lumotlarga ko‘ra mustaqil turizm kategoriyasiga mansub sayyohlar uchun zarur omil bo‘lib hisoblanadi. Mustaqil sayohatchilarning aksariyat qismi byudjetli sayohatchilardan tashkil topganini inobatga olib, ular hashamatli va qimmat mehmonxonalarda tunashdan ko‘ra oddiy xostellar yoki mehmon uylarda qolishni afzal ko‘rishadi.

Rivojlanishning keyingi bosqichida ushbu yondashuv mustaqil sayohatchilar uchun zarur infratuzilmani rivojlantiradi, to'g'ridan-to'g'ri onlayn savdoni ko'paytiradi, turizm sohasidagi kichik tashkilotlarni rivojlantiradi, shuningdek, turistlarning barqaror oqimini ta'minlaydi. Mamlakatda turizm sohasini barqaror rivojlantirish va milliy iqtisodiyotdagi ulushini oshirish maqsadida, mustaqil sayohat qiluvchilar kategoriyasi oqimini oshirish uchun tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarni tashkil etish, mamlakatning katta salohiyatga ega bo'lgan turistik hudulardan yanada samarali foydalanish, unga bevosita ta'sir ko'rsatadigan ichki va tashqi omillar, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish (bank tizimlari, pul ayriboshlash shaxobchalari va boshqalar), mustaqil sayohatlarni rejalashtirishni ma'qul ko'radigan sayyohlar uchun infratuzilmani tashkil etish va uni jahon turizm bozorida targ'ibot qilish hisobiga mamlakatning yangi qiyofasini namoyon etish zarurati tug'ilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Solo Travel Statistics and Data: 2021 -2022. <https://solotravelerworld.com/about/solo-travel-statistics-data/>.
2. Total visits to travel and tourism website booking.com worldwide 2021-2022 published by Statista Research Department, Oct 5, 2022. <https://www.statista.com/statistics/1294912/total-visits-to-booking-website>.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.07.2019 yildagi O'R.Q-549-son.
4. <https://uzbektourism.uz/research/statistics>.

ВОПРОСЫ ИНВЕСТИРОВАНИЯ ЭКОНОМИКИ ТУРИЗМА

Исомов Бекмурот Сайфиддинович
Доктор философии по направлениям
экономических наук, доцент кафедры
«Бухгалтерского учета и статистики»
Бухарского государственного университета,
E-mail: relinter@mail.ru

Аннотация. В данной статье обосновывается роль инвестиции и туризма как приоритетов регионального развития. Рассматриваются факторы, способствующие и препятствующие превращению туризма в Бухарской области. Проводится анализ существующих программ развития, нацеленных на развитие туризма. Предложена характеристика туристических услуг в Бухарской области по секторам на примере деятельности турфирм и средств размещения.

Annotation. The role of investment and of tourism as one of the priorities of regional development is grounded. The positive and negative factors of transforming tourism into the leading branch of the Economy of the Bukhara are formulated. The existing programmes targeting the tourism development are examined. There is characteristic of tourism services in Bukhara region by branches focusing on the economic activities of tourist companies and accommodations as an example.

Ключевые слова: туризм, туристические услуги, инвестиции, рекреация, регион.

Key words: Tourism, services of tourism, investment, recreation, region,

ВВЕДЕНИЕ

На современном этапе развития экономики инвестиционная политика Узбекистана включает в себя такие структуроопределяющие направления, как максимальное использование имеющегося научно-технического, инновационного потенциала, развитие экспортоориентированных и импортозамещающих производств, расширение производства продукции с высокой добавленной стоимостью, а также развития туризма как стратегическая сфера. Сегодня, инвестиционная политика в туризме – это совокупность решений и комплекс мероприятий по организации, развитию и защите инвестиций в разнообразные сферы вышеназванной отрасли. Цель этой инвестиционной политики – это реализация стратегии развития туризма и экономического развития страны в целом. Правильная инвестиционная политика может привести к оживлению инвестиционной деятельности на предприятиях туризма и повышению их эффективности. А «инвестиции выражают все виды имущественных и интеллектуальных ценностей, которые вкладывается в объекты предпринимательской деятельности, в результате которой формируется прибыль (доход) или достигается социальный эффект» {1,с.5}. Кроме этого, инвестиций это вложение финансовых средств, материальных ресурсов, интеллектуальных ценностей, других материальных и нематериальных ресурсов на определенные производственные и непроизводственные цели. При помощи инвестиции в туризме создаются

новые туристские объекты, а также модернизируются основные фонды. Помимо этого, инвестиции оказывают влияние на экономическую среду, способствуют ее устойчивому развитию.

Существуют нижеследующие формы инвестиций:

- прямые, или реальные;
- портфельные;
- инвестиции в нематериальные активы;
- инвестиции в человеческий капитал;
- инновационные инвестиции;
- венчурные технологические инвестиции.

В нашей стране инвестиции в туристский сектор поступают от государства, частного сектора экономики и от международных финансовых институтов. Ныне, туризм способствует диверсификации экономики, развивая отрасли, обслуживающие сферу туризма: строительство, связь, торговлю, сельское хозяйство, производство товаров широкого потребления, национальные ремесла и т. д. О возможностях нашей страны свидетельствует наличие свыше 7 тысяч объектов материального культурного наследия разных эпох и цивилизаций, в том числе включенные в Список объектов всемирного наследия ЮНЕСКО исторические центры Бухары, Хивы, Самарканда и Шахрисабза. Всемирно известные исторические памятники, современные города, неповторимая природа Узбекистана, уникальная национальная кухня, а также непревзойденное гостеприимство нашего народа притягивают любителей путешествий.

Более того, в Узбекистане предпринимаются активные действия по созданию благоприятного инвестиционного климата. В основе этого лежат два фундаментальных фактора: политическая стабильность и продуманная, взвешенная макроэкономическая политика. Проводимая в Узбекистане, инвестиционная политика, направлена на решение стратегических задач. В республике принята Инвестиционная программа. Общий объем иностранных инвестиций на сегодняшний день превысил 14 млрд. долл. Сегодня государство формирует представление о благоприятном туристическом имидже страны, определяет основные направления туристической деятельности, создает условия для развития туризма. На современном этапе развития экономики Узбекистан сумел достичь статуса одной из самых перспективных стран мира, обладающих возможностями долгосрочного роста туристического рынка.

Цель статьи. Основной целью статьи является комплексный анализ количественных аспектов инвестиций в сферу туризма в Республике Узбекистан, закономерностей роста и уровня их эффективности.

Теоретической и методологической основой данной статьи являются научные труды известных узбекских и мировых экономистов по вопросам инвестиции, а также развития сферы туризма, теоретические и практические материалы, характеризующие процесс инвестирования этой отрасли. Более того, в настоящее время внимание привлекает такой аспект оценки инвестиционной деятельности гостиничных хозяйств, которые являются достаточно капиталоемкими по своему характеру ведения хозяйства. Вместе с тем практически не изучены особенности всесторонней оценки инвестиций на предприятиях туризма, которые являются важным фактором развития экономики многих стран мира. При определении методов оценки инвестиционных проектов нужно учитывать особенность инвестиционных туристских проектов, так как они значительно различаются по масштабам затрат, срокам их полезного использования, а также по финансовым результатам. Что касается мелких инвестиционных проектов, не требующих больших финансовых средств, не оказывающие существенного влияния на изменение общих объемов туристской продукции, а также имеющие относительно небольшой срок эффективного использования, можно применять несложные, технико-экономические расчеты.

Более того реализация в сфере туризма крупных инвестиционных проектов, таких как строительство новых туристских объектов, реконструкция туристских комплексов, освоение совершенно новых видов туристских услуг и требующих больших инвестиционных вложений, вызывает необходимость системного учета всех факторов, а именно, проведения более сложных финансово-экономических расчетов. Кроме этого, крупные инвестиционные проекты, которые реализуются в процессе оказания туристических услуг приводят к значительным изменениям в результатах хозяйственной деятельности туристского предприятия. Поэтому более точными должны быть экономические расчеты денежных потоков и методы оценки эффективности таких инвестиционных проектов. В туризме оценивание инвестиций связано с определением приемлемости инвестиционных предложений, основанных на таких видах экономической

деятельности как гостиницы и другие туристские субъекты. В туризме желание реализации инвестиционных проектов будет зависеть в основном от прибыли, которую они могут принести. По этому туристические хозяйства отдадут предпочтение тем инвестиционным проектам, которые обещают громоздкую сумму прибыли. В то же время крупные, малые и средние субъекты сферы туризма могут оценить денежный поток, связанный с проектом, чтобы определить примерный объем денежных поступлений. В целях определения устойчивости денежных потоков существуют такие методы, как метод дисконтирования денежного потока и срок окупаемости. Последние, часто используются частными инвесторами и позволяет установить сроки инвестиционного проекта. На наш взгляд, при оценивании инвестиционных проектов в туризме, особое внимание следует уделить анализу «затраты - выгоды». Потому что, названный вид анализа представляет собой способ расчета и оценки общественных затрат и общих социальных выгод, которые тесно связаны с инвестиционными проектами.

Учитывая развитие многих видов ремесел в городе Бухаре, также планируется строительство ремесленников в историческом туристическом квартале. Туристы смогут приобрести различные поделки из ремесленных мастерских, а также принять участие в мастер-классах плотников, гончаров, плотников, ковров, маляров и лыж. И это, конечно, оставит неизгладимое впечатление у туристов, посещающих нашу страну.



Источник. Бюллетень Бухарского областного комитета по статистике по состоянию на 1.10. 2019 г.

В 2018 году Бухарскую область посетили 2,5 миллиона иностранных туристов, в том числе более 300 тысяч иностранных туристов. В Бухаре было построено около 50 отелей, более 20 ресторанов, ряд парков и парков. В результате сотрудничества с потенциальными инвесторами из Германии, России, Индии, Китая, Южной Кореи и Турции в скором времени будут созданы объекты инфраструктуры, способные принять более 10000 туристов.[2]

А за 9 месяцев 2019 года прибыло в Бухарскую область 478,6 тыс. туристов, в том числе из Европейских стран 213,7 тыс.человек, из Американского континента 22,5 тыс.человек, из Азиатских стран 120,7 тыс.человек, из стран СНГ 104,9 тыс.человек, из других стран 16,6 тыс.туристов [3].

В перспективе после преодоления чрезвычайных ситуаций как «пандемия» необходимо совершенствовать институциональный механизм государственных органов, уполномоченных регулировать отношения в сфере туризма, главной функцией которых должен стать определение государственной стратегии в области туризма.

Таким образом, необходимо акцентировать внимание на международную составляющую туризма, разработать комплекс мер по соответствию туристической инфраструктуры всем международным требованиям в области туризма. Активизировать сотрудничество со Всемирной туристической организацией. Для этого следует совместно с Агентством по стандартизации, метрологии и сертификации разработать новые национальные стандарты для туристического сервиса с учетом международного опыта по туризму.

Список использованной литературы и источников:

1. Хамроев Х. Р. Зональная политика: методология, зарубежный опыт и направления применения Монография. -Ташкент. Издательский дом Фан. 2008г. 96 стр.
2. Бюллетень Бухарского областного комитета по статистике по состоянию на 1.10. 2016 и 1.10. 2018 гг.
3. Бюллетень Бухарского областного комитета по статистике по состоянию на 1.10. 2019 г.

AGROTURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING QISHLOQ HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Sayfulloyev Oybek Olimovich

Buxoro davlat universiteti,

Iqtisodiyot kafedrası tayanch doktoranti

E-mail: o.o.sayfulloyev@buxdu.uz

Аннотация. Ushbu maqolada agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishning boshqarish mexanizmlari tahlil qilingan. O'zbekiston iqtisodiyotining etakchi tarmog'i sifatida turizm sohasiga xususan, agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishning ahamiyati yoritib berilgan. O'zbekiston sharoitida agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishda ta'sir ko'rsatish tizimlari ko'rsatib o'tilgan.

Agroturizmning qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish ta‘minlashdagi ahamiyati yoritib berilgan. Investitsiyalarning agroturizm sohasi rivojidadagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Turizm, agroturizm, investitsiyalar, qishloq turizmi, menejment, marketing, aholi bandligi, boshqaruv mexanizmi, sayyoh, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiy taraqqiyot, infrastruktura.

Kirish.

Iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlariga kiritilayotgan investitsiyalar ijtimoiy ishlab chiqarish va bandlik hajmiga, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarga, tarmoqlar va iqtisodiyot sohaslarining rivojlanishiga turtki beradi. Bu o‘z navbatida yalpi milliy mahsulotning o‘shirishiga olib keladi hamda mamlakatning tashqi bozorda faolligini oshiradi. Shu sababli, har bir mamlakat uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishi sifatida milliy iqtisodiyotga investitsiya mablag‘larini jalb etishning jozibador muhitini shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Yaqin kelajakda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini rivojlantirayotgan davlatlarning iqtisodiy jihatdan yuqori rivojlanish darajasiga etkazib olishni maqsad qilgan O‘zbekiston uchun respublikaning investitsion jozibadorligini tadqiq etish, investitsiya mablag‘larini ichki kapital resurslar va xorijiy investitsiya hamda kreditlar asnosida ko‘payishiga erishish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism.

O‘zbekiston Respublikasida neft-kimyo, qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat, to‘qimachilik, charm-poyabzal, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi ustuvor tarmoqlarni belgilash mumkin. Ular yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan, rivojlangan va rivojlanayotgan tarmoqlar qatoriga kiradi. Shuningdek, mamlakatimizda turizm sohasi ham iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-sonli Farmonida turizmni rivojlantirishning yaxlit konseptsiyasini shakllantirish va izchil amalga oshirish, turizmga iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, ushbu sohani barcha hududlarni va o‘zaro bog‘liq tarmoqlarni kompleks ravishda jadal rivojlantirishning etakchi kuchiga aylanishi lozim bo‘lgan iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, tarkibiy o‘zgartirish va barqaror rivojlanishning qudratli vositasiga aylantirish, yaratiladigan yalpi ichki mahsulotda, mahalliy byudjet daromadlarida turizmning ulushini ko‘paytirish, ish bilan bandlikni ta‘minlash, aholining turmush darajasi va sifatini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish - turizm sohasidagi davlat siyosatining maqsadli vazifalari va ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan [1]. O‘zbekistonda sayyohlik sanoati eng yosh tarmoqlardan biri bo‘lsada, o‘z potensialiga ko‘ra ko‘plab tarmoqlardan oldinda hisoblanadi. Turizm sohasiga jalb qilingan investitsiyalar soha rivoji bilan birgalikda, yoshdosh bo‘lgan sohaslar rivojiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, koronavirus pandemiyasi O‘zbekistonda hozirgi davrga qadar mavjud bo‘lgan sayyohlik biznes modellarini innovatsiya va raqamlashtirish yordamida tubdan qayta ko‘rib chiqishi zaruriyatini ham yuzaga keltirdi. Bizning fikrimizcha, pandemiya fonida salohiyati endi ochila boshlagan agro va ekoturizm kabi bozor segmentlarini rivojlantirish, turizm sanoatining ushbu sohaslariga investitsiyalarni jalb etishning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish zarur.

Bugungi kunda butun dunyoda texnologiya omillarning jamiyat va madaniyat hayot rivojiga hamda tabiiy muhitga salbiy ta‘siri oshib bormoqda. Insoniyat taraqqiyoti esa global sanoatlashish, industrial markazlar hamda shaharlarning jadal rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda kechmoqda. Iqtisodiyotning o‘shirish, rivojlanib borishi bilan birgalikda shaharlarning sanoat markazlari sifatidagi roli ham oshib, ularda tabiiy urbanizatsiya jarayonlari ro‘y bermoqda. 2019-yilda boshlangan koronavirus pandemiyasi ham insoniyat faoliyati, turmush darajasi, ehtiyojlari hamda ularni qondirish vositalari tarkibiga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Shu jumladan, inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan dam olishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish borasida o‘zgartirishlar kiritish, turizm hamda dam olish joylarini rivojlantirishning yangi usullarini izlash zaruriyati yuzaga keldi. Urbanizatsiya darajasining oshib borishi, ekologik vaziyatning yomonlashuvi hamda zamonaviy hayotning boshqa salbiy omillari shahar aholisida shaharning shovqin-suronidan uzoqda dam olishga bo‘lgan istakni shakllantiradi. Hozirgi vaqtda shahar aholisi orasida ochiq havoda, tabiat qo‘ynida dam olishga bo‘lgan yuqori talab shakllangan. Bu talabni turizmning agroturizm yo‘nalishini o‘zining barcha shakllari orqali ta‘minlashi mumkin. Qishloq joylarida ochiq sayyohlik jahon amaliyotida uzoq vaqtdan beri keng tarqalgan va samarali davlat boshqaruvi orqali ham qishloq joylari, ham davlat uchun aniq iqtisodiy samara beradi [2].

O‘zbekistonda agroturizm sohasi hali shakllanish bosqichida. Qishloq joylarida infratuzilmaning yaxshi rivojlanmaganligi, agrosanoat kompleksining aksariyat korxonalarini tomonidan aholini ish bilan ta‘minlash darajasi yuqori emasligi kabi muammolar mavjud. Ushbu muammolar bizni qishloq aholisining bandligini ta‘minlash, daromad manbalarini hamda xajmini ko‘paytirishning yangi usul va mexanizmlarni izlashga

majbur qiladi. Bu muammolarning echimlaridan biri mintaqalarda agroturizmni rivojlantirish hamda sohaga investitsiyalarni faol jalb qilish hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimi aniq shakllantirilmagan. Turizm sanoatining o‘ziga xos sohasi sifatida agroturizm qo‘llaniladigan standart va qoidalar ishlab chiqilmagan. Shuningdek, ushbu sohada investorlarning qiziqishi juda past yoki sohaning investitsion jozibadorligi etarli darajada tadqiq qilinmagan. Ammo, bu holatlarni sohaga bo‘lgan talabning mavjud emasligi bilan izohlash noo‘rin. Tadqiqotlar natijasida ta’kidlash mumkinki, O‘zbekiston shahar aholisida qishloq joylarida dam olishga bo‘lgan juda katta qondirilmagan yashirin talab mavjud. Aynan ushbu omillar agroturizm biznes sifatida ham, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vositasi sifatida ham katta salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatmoqda.

Agroturizmga investitsiyalar – bu sohaga foyda olish maqsadida investorlar tomonidan o‘z sarmoyalarining joylashtirilishidir. Agroturizm sohasiga sarmoya kiritish, boshqa sohalar kabi daromad olish maqsadida amalga oshiriladi. Agroturizm sohasida investitsion faollik investorlarning o‘z investitsiyalaridan oladigan daromadlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq hisoblanadi. O‘zbekistonda agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishni davlat tomonidan tartibga solish tizimini yaratish sohani jadal rivojlantirish jarayoni sifatida xizmat qilishi mumkin. Bir qator sabablarga ko‘ra, bugungi kunda agroturizm investorlar uchun katta qiziqish uyg‘otmaydi. Xususan, investorlar o‘zlari uchun yangi, “ekzotik” biznes yo‘nalishi hisoblanuvchi sohaga investitsiyalarini yo‘naltirishga shoshilmayapti. Bundan tashqari, agroturizmning rivojlanmaganligi sababli O‘zbekistonda agroturizm marketingi deyarli yo‘qligi ta’kidlash lozim. Ya’ni agroturizm xizmatlarini ko‘rsatuvchi obyektlar soni etarli darajada emas hamda ular orasida raqobat muhiti shakllanmagan.

O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirish bilan bog‘liq ko‘plab muammolarga qaramay, ushbu sohada keng ko‘lamli investitsion loyihalarni amalga oshirish jiddiy ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega va turli xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun sezilarli iqtisodiy foyda keltiradi (1-jadval).

1-jadval

Investitsiyalarning agroturizm sohasi rivojidadagi ahamiyati¹

Davlat uchun	Qishloq aholisi uchun	Sayyohlar uchun
Qishloq xo‘jaligi sohasida turizm bilan bog‘liq bo‘lgan, shahar va qishloq integrasiyasini ta‘minlovchi yangi faoliyat turini rivojlantirish	Qishloq aholisi uchun qo‘shimcha daromad manbalarini paydo bo‘lishi	Jismoniy salomatlikni yaxshilash, ish faoliyati samadorligini oshirish va psixologik stressni bartaraf etish imkoniyati
Davlat byudjetiga soliq tushumlarining ortishi	Qishloq aholisi hayot darajasi va sifatining oshishi	Qishloq hayotining o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishish
Qishloq joylarda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish	Ishsizlik darajasining kamayishi	Mahalliy aholining tarixi, urf-odatlarini, marosimlari, taomlari bilan tanishish
Qishloq xo‘jaligi sohasida qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish	Agroturizm sohasida o‘z tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish	Qishloq hayotiga oid yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash
Aholining qishloqdan shaharga chiqib ketishini kamaytirish, yoshlarni qishloqqa jalb qilish	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish sohasini kengaytirish	Yangi ekzotik dam olish joylarining paydo bo‘lishi
Qadimiy qishloq aholi manzilgohlarini asrash-avaylash	Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining qo‘llab-quvvatlanishi	Ish faoliyatini samadorligi oshishi

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

“Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash: muammolar va yechimlar”

Sohaga yondosh bo‘lgan sohalar rivojiga erishish	Agroturizm komplekslariga tashrif buyuruvchilar uchun qo‘shimcha tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish imkoniyati	Nisbatan arzon bo‘lgan turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyati
Qishloq joylarida infratuzilmani shakllantirish, xizmat ko‘rsatish hamda tabiatni muhofaza qilishga investitsiyalar oqimini yo‘naltirish imkoniyati	Qishloq joylarda zamonaviy ijtimoiy-maishiy infratuzilmaning yaratilishi	Qulay hamda sifatli bo‘lgan turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyati

Xulosa.

Agroturizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish nafaqat sohaning balki boshqa tarmoqlarning ham rivojiga ta‘sirini ko‘rsatadi. Agroturizmning rivojlanishi erdan foydalanishni takomillashtirish hamda undan oqilona foydalanishga olib keladi. Yerdan sayyohlik maqsadlarida foydalanish ko‘p hududlar uchun qishloq xo‘jaligi va sanoatga nisbatan ancha yuqori daromad keltirishini halqaro tajriba ko‘rsatmoqda. Shuningdek, agroturizm qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining muvozanatli rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Noyob tabiat va boy an‘analar O‘zbekistonda agroturizmni rivojlantirish uchun muvaffaqiyatning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Zamonaviy sayyohlar CBT (Community based tourism-jamiyatga asoslangan turizm) kabi muqobil sayohat variantlarini tobora ko‘proq tanlamoqdalar. Mahalliy aholining urf-odatlarini va hayoti bilan yaqindan tanishishni istagan G‘arb sayyohlari orasida CBT turizmi tobora ommalashib bormoqda. Bu ekoagroturizmning mashhur yo‘nalishi bo‘lib, uning eng muhim tarkibiy qism ma‘lum bir mamlakatning oddiy aholisining yashash sharoitlariga imkon qadar yaqin muhitda yashashdir. Turizmning bu turi mahalliy aholining oilaviy uylarida turar joylari bilan qishloq joylarining turistik salohiyatidan foydalanishga asoslangan. O‘zbekiston sharoitida qishloq joylarida mahalliy aholi o‘z uylarida oilaviy mehmon uylarini tashkil qilgan holda sayyohlarga otlarda sayr qilish, milliy taomlar pishirish, pichan o‘rish, meva-sabzavotlar va paxta terimida ishtirok etish, gilam to‘qish, kashta tikish kabi xizmatlarni ko‘rsatishlari va saboq berishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-sonli Farmoni.

2. Косенчук, О. В., Блинов, О. А., Новиков, Ю. И., & Рабканова, М. А. (2015). Понятие агротуризма в теории и практике управления сельскими территориями. Современные проблемы науки и образования, (2-2), 387-387.

РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В МИРЕ

Арипова Махлиё Салахиддиновна
преподаватель кафедры
Бухгалтерский учёт и статистика

Узбекистан интенсивно открывается миру и его знаменитые религиозные объекты могут стать основой туристического бума в стране. На территории современного Узбекистана жили и творили такие известные учёные мусульманского мира как Имам аль-Бухари, Имам ат-Термизи, Имам аль-Матуриди, Бахауддин Накшбанди, аз-Замахшари и др. Их мавзолей сыграют важную роль в развитии туризма в стране. Кроме того, Узбекистан находится в центре Центральной Азии. Страна обладает богатым культурным и историческим наследием. Сегодня власти предпринимают определённые усилия, чтобы открыть страну миру, уделяя особое внимание туристической сфере. Согласно прогнозам «Crescent Rating», к 2026 г. число туристов-паломников достигнет 230 млн. Учитывая многовековое исламское наследие Узбекистана, развитие паломнического туризма имеет большие перспективы для страны.

С 1 по 3 ноября 2022 года в Самарканде, Хиве, Бухаре и Ташкенте проходит Международная неделя паломнического туризма. Неделя туризма проводится по инициативе Министерства туризма и культурного наследия в сотрудничестве с рядом организаций. Цель международной недели -

раскрыть потенциал паломнического туризма в стране, сделать Узбекистан одним из важнейших центров мировой цивилизации, получить высокое признание со стороны мирового сообщества и международных организаций, а также диверсифицировать услуги паломнического туризма и увеличить экспорт туризма. Паломнический туризм в Узбекистане имеет существенный потенциал развития благодаря своим древнейшим городам — Бухаре и Самарканду, где сосредоточены важные святыни исламского мира. Туризм становится одной из стратегически важных и динамично развивающихся отраслей экономики нашей страны. Благодаря развитию туризма, в частности, паломнического, мы можем привлечь колоссальный поток туристов, интересующихся религиозным туризмом.

Паломничество как разновидность религиозного туризма представляет собой странствие людей для поклонения святым местам. Святые места играют важную роль в религиозной жизни мусульман в Центральной Азии, где они обычно носят название *мазаров*. Основным мотивом паломничества мусульманами является стремление исполнить пятый столп ислама, который носит название - хадж. Как известно, в Центральной Азии совершение паломничества (*хадж*) в Мекку, ввиду его значительной отдалённости и крупных финансовых расходов на поездку, вызывало определенные трудности и было не доступно для широких слоев населения. Взамен этого важного предписания ислама (*фарз*) многие местные жители совершали паломничество к святым местам (*зийарат*), расположенным в своих и соседних районах Ферганской долины, а также других областях Центральной Азии, Афганистана, Восточного Ирана и китайского Синьцзяна. Наиболее популярными центрами такого паломничества в Фергане были, в частности, гробница Хазрата Али к югу от г. Маргилана, гора Тахт-и Сулайман в г. Ош и мавзолей Сафид Булан к северу от г. Намангана. Такие святыни в глазах простых людей считались равными по положению к Ка'бе в Мекке.

Согласно экспертным оценкам **ВТО**, емкость туристических ресурсов Узбекистана составляет один миллион человек. В прошлом году нашу страну посетило около 262 тысяч путешественников. Почти в четыре раза меньше имеющегося потенциала. Между тем, Узбекистан по туристскому потенциалу занимает высокий рейтинг в мировой шкале, однако отдача от этой отрасли весьма незначительна – всего 0,6% от валового национального продукта.

Паломнический туризм в Узбекистане имеет существенный потенциал развития благодаря своим древнемусульманским святым городам Бухаре и Самарканду. Здесь имеются много святынь мест для последователей ислама.

История Самарканда насчитывает 2750 лет. Он ровесник Рима, Афин, Вавилона. Справедливо поэты и историки прошлого его называли «Лик земли», «Краса подлунных стран», «Рим Востока». Важным паломническим местом Самарканда является расположенный в 12 км от города **Мемориальный комплекс Имам-ал-Бухари**.



Когда-то, здесь у могилы основоположника науки о Хадисах (предания о высказываниях и поступках Пророка Мухаммеда) Исмаила Бухари была построена мечеть. Сам Имал аль-Бухари родился 810 году в городе Бухаре, но умер и похоронен был под Самаркандом в 870 году. Он с 10-летнего возраста начал собирать, записывать и изучать Хадисов, многие из которых в последствии были внесены в «Шариат». В течение многих лет он путешествовал по разным провинциям халифата, вел беседы о Хадисах тысячами шейхами. Имам-аль-Бухари задался целью собрать все достоверные Хадисы. Проявив свойственным ученым, рассуждающим о Хадисах (мухаддисам) того

временеи критицизм, аль-Бухари проверил 600 тыс. Хадисов, бытующих в устах людей, а также еще 200 тыс. сам записавших у своих учителей и информаторов. Из этого громадного количества преданий Имам на основе тщательного отбора и упорядочения 7275 безупречных (сахих) Хадисов написал свой Достоверный сборник – «Аль-Джами ас-сахих». В исламском мире этот сборник известен как «Ас-Сахих аль-Бухари», состоящая из 97 книг и 3450 глав и считается второй священной книгой после Корана.

В XVI в. над его могилой был возведен небольшой мавзолей, рядом была построена мечеть и посажены чинары. В 1998 г. в связи с празднованием 1225 годовщины со дня рождения Имама на месте Древнего мавзолея был возведен мемориальный комплекс. Архитектурное решение современного комплекса площадью в 10 гектаров основано на использовании национальных

традиций. Комплекс состоит из мавзолея, мечети, административного здания и других сооружений, построенных по периметру внутреннего двора. На центральной оси комплекса расположен мавзолей Имама-аль-Бухари. Это сооружение в форме куба увенчано семнадцатиметровым куполом. Дверь с правой стороны мавзолея ведет вниз к дахме-месту поклонения. Справа по отделенной светло-голубым ониксом саганой (надгорибем) верхнего этажа находится могила аль-Бухари, покрытая мрамором. С левой стороны внутреннего двора расположена мечеть, площадь которой позволяет одновременно молиться 1500 верующим. Стены оформлены светло-зелеными, голубыми, белыми и глазурованными плитками, мрамором, ониксом и гранитом; полы украшены гирихом; в отделке также широко использован ганч, у михрабной ниши висит кисва-материя Каабы, подаренная Узбекистану королем Саудовской Аравии. За мавзолеем расположен образовательный центр (дорус-Хадис), где изучаются науки о Хадисах.



Мемориальный комплекс Имам-аль Бухари является место мусульманских богослужений и сохранения священной гробницы. Посещение этого святого места у мусульман приравнивается к малому Хаджу. Ведь не зря в народе говорят: «Если Мекка и Медина сердце мусульманского мира, то Бухара и Самарканд –его голова!»

Родина Имам-аль Бухари, 2500 летнюю Бухару в исламском мире, наряду с Меккой, Мединой, Багдадом, Мазари Шарифом, Шом и Куддус называют городом Шарифом, что означает

благородно святым. Ибо, Пророк Мухаммед 27 числа лунного месяца Ражаб во время ал-Мираж (Вознесение к Богу) заметил, что из трех точек земли свет достигает до небес. Тогда, он уточнил у архангеля Джibraила, что свет оказывается исходить из городов Мекки, Медины и Бухары. По этому поводу известный таджикско-персидский поэт Абдурахман Джами в своей книге «Тухфатил ахрор» писал:

Таблица 1. Характеристика паломнической дестинации «Семь пиров Святой Бухары»

№	Святые лики	Характеристика Святых пиров (шейхов)	Паломническое место
1.	Абдухолик Гиждувани (1103-1120 гг), известен как «Мировой Хаджи».	Основатель хаджаганского тариката (путь духовного совершенствования). Автор книги «Васиятнома» (Книга Завещаний). Требования сформулированное им перед суфиев: благочестия, проповедь, уважение наставника сопротивление злу. 2003 г. отмечалось 900-я годовщины его рождения.	«Комплекс Хазрата Абдухолик Гиждувани», расположенный в г. Гиждуване Бухарской области Узбекистана.
2.	Ходжа Мухам-мад Ориф Ар Ревгари (1165-1259 гг). Его также называют «Ходжа Ориф Мохитобон»	Он написал книгу «Орифнома», где описаны теоретические сведения о сущности суфиев и о своем учителе А. Гиждувани. Начало пути суфиев-это покаяние. Суфий должен полностью погружаться в настоящее. Ибо «Настоящий момент дан Богом».	«Гробница Ходжа Ориф Ревгари» на-ходится в селении Ревгар Шафирканского района Бухарской области Узбекистана.
3.	Ходжа Махмуд Анжир Фагнави (умер 1307 г.)	Был ремесленником и занимался гончарным делом. Обучался у Х.О. Ревгари. Его учение на пути истины основало не на тихом молчаливом зикре (упоминание Бога), а на открытом, громком зикре. М.А.Фагнави всех призывал к благим поступкам.	«Комплекс Ходжа Махмуд Анжир Фагнави», расположенный в Вабкентском районе Бухарской области Узбекистана.
4.	Ходжа Али Ромитани, известный как «Ходжа Азизон» (1191-1321 гг.)	Написал книгу «Рисолаи Азизон» является учеником Фагнави. Обосновал 10 условий познания истины: соблюдение ритуал очищения, соблюдение молчания, уединение и аскетизм, соблюдение поста, исполнение зикра, содержание памяти в чистоте, удовлетворение судьбой, беседа с	«Гробница Ходжа Али Ромитани» находится в селе Курган Ромитанского района Бухарской области Узбекистана.

		добродетельными, бодрствование и о дозволенной пище.	
5.	Ходжа Мухаммад Бобои Самоси (1259-1354 гг.)	Он передал свой «кулох» (головной убор суфия) Б. Накшбанду, благодаря чему последний приобрел свойства предотвращения несчастья. Он был духовным учителем Амир Кулола и Б. Накшбанда.	«Комплекс Ход-жа Мухаммад Бобои Самоси», расположенный в селе Самос Рами-танского района Бухарской области Узбекистана.
6.	Саид Мир Кулол (1281-1370 гг.)	Амир Темур считал себя учеником Амир Кулола. В его учение важное место занимает приобретение знаний человека, говорил он, украшает знание и разум. Наука, приобретенные знания должны приносить пользу, а без практического применения знания являются бесполезным грузом.	«Гробница Саид Амир Кулол» находится в селении Янги Хаёт Каганского района Бухарской области Узбекистана.
7.	Хазрат Бахоуд-дин Накшбанди (1318-1389 гг.) Он также известен именами «Великий Ходжа», «Царь узорников», «Султан святых»	Главный его труд «Аврод». Он обосновал учение Накшбандия. Девизом Накшбандия были изречение: «Имей в руках работу, душой с Аллахом». Учение основывало ряд морально-этических принципа: призывы к душевной доброте, бережное отношение к природе, любви к животным, духовное общение между учителем и учеником, осознание времени, осознание численности, осознание сердца, осознание дыхание, наблюдение за шагами, путешествие по своей Родине, одиночество при людях, поминовение, возвращение, бдительность, воспоминание.	Мемориальный комплекс Хазрата Бахоуддин Накшбанди», расположенной в селе Касри Орифон Канского района Бухарской области Узбекистана.

Также паломническими местами благородно-святой Бухары являются:

- Мазар Чор Бакр (XVI-XX в.) популярен среди местных жителей. Там захоронен Ходжа Абу Бакр Саада. В свое время правнук суфия взялся за благоустройства мазара, разбив его на «четыре сада». Здесь имеется весь комплекс-ханака, мечеть, медресе, минает.
- Мечеть Намазгох (XII в.) праздничная, загородная. В XII веке у ворот Ибрагим на месте бывшего сада было место для проведения ежегодных намазов, проводимых в мусульманские праздники с выездом за город.
- Мавзолей Сейфеддина Бохарзи (XIV-XVI вв.) Мавзолей отстроен над погребением известного среднеазиатского мистика;
- Мечеть Калян (XV в.) Прямоугольный двор, состоящими из 288 купалов, занимает 1 га площади и вмещает в себе около 1000 молящихся;
- Мечеть Магоки-Аттори (X-XII-XVI вв.);
- Мечеть Пири Дастгир;
- Мечеть Ходжа Исмаи и множества других святых мест.

Литература:

1. Навруз-Зода Б.Н., Навруз-Зода З.Б. Материалы Междунар. науч.-практ. конф. "Мировой туризм: основные тенденции в условиях экономической нестабильности" (2 декабря 2009 г.). Караганда, 2009. 347 с. С.49-52.

TYPES OF SERVICES IN THE HOTEL INDUSTRY AND ITS IMPACT IN COMPETITIVENESS

Istamkhuja Olimovich Davronov

*Phd researcher, Department of Management and Marketing
Lecturer, Department of Tourism and hotel management
Bukhara state university*

Currently, hotel service operations is viewed as an established organization that provides the majority of its products to its clients via service. This is not a business targeted at a specific group of individuals,

but rather an industry that provides recreational opportunities that can meet the most demanding tastes of modern society's different requirements. However, the level of legislative control of hotel services in our country is plainly lacking for the effective growth of the hotel business. Because the hotel industry is still fairly fresh to the contemporary economy, hotel management issues are rarely examined from a legal standpoint.

To provide a clear and comprehensive definition of hotel services, it is important to first define the literal meaning of the main term in this sector, "hotel." There is no single term that captures the core of this concept in contemporary Uzbek literature on business. All definitions in the pertinent regulatory regulations are generic, ambiguous, or insufficient.

Below we can make an example from the opinion of some scientists. In the first instance, Lesnika A.L., Chernisheva A.V mentioned that where the term "hotel" indicates “ the property complex which includes a part of a building that includes a building, equipment and other assets supposed for the supply of lodging services”[1], Kabushkin N.I., Bondarenko G,A claims that this definition is "offering a variety of services for consumers outdoors the home, showing, the most significant of them is a business with (complex) accommodation and catering services"[2], Kakosyan E.K explained such as "furnished mansion"[3].

The well-known two-sidedness of the concept of hotel enterprises, inn for regular hotels and hotel for high-class hotels, is losing its ancient spiritual distinction in English nowadays. The Holiday Inn multinational hotel chain is a prime illustration of this. A hotel is defined in foreign literature as a facility that houses the general public in buildings outfitted with the requisite furnishings and provides one or more of the standard hotel amenities, such as restaurant service, wake-up service, telephone, laundry, and so on [4].

The definition of S. Medlik, H. Ingram seems quite appropriate, according to which a hotel is an institution that provides accommodation on a commercial basis and offers its facilities and services individually or in various combinations, and this the concept consists of several elements such as location, hotel amenities, its image, service and price [5]. Taking into account the above information, the following definition was proposed: ***A hotel is a property complex under a single management system for the purpose of obtaining income, which provides accommodation and additional services to people outside their home, in addition to room infrastructures and a place that systematically offers.***

To date, most of the existing hotels in our republic have been renovated and modern management systems have been introduced. Currently, 3-4-5 star hotels are providing quality service to local and foreign tourists at the level of modern requirements. This increases the foreign currency income of the state budget and at the same time creates an opportunity to provide employment to the population. We know that the hotel industry, which is the basis of the tourism industry in our country, has been developing rapidly for the past few years. Also, the greater the number of hotels with high level of service, the greater the employment of the population and, in turn, the further development of tourism.

Based on the diagram below, we can see the development of the hotel industry in Bukhara.




Chart- 1. Number of hotels in Bukhara




Chart-2. Number of guest-houses in Bukhara city

Based on charts 1.1 and 1.2, we can see that the growth dynamics of the number of hotels and guest houses in Bukhara city between 2018-2021 is increasing year by year. In recent years, it has been an important issue to improve the quality of hotels in our country and develop the services provided in them based on global requirements.

Hotel services are both basic and optional. They can be either free or compensated. According to the "Hotel Services Rules," the major services are accommodation and catering. Guests can be offered with a variety of services for no additional charge.

So, in conclusion, it should be said that first of all, understanding what are additional and basic services in the hotel, and its gradual development plays an important role.

References

1. А.Л. Лесника, А.В. Чернышева Организация и управление гостиничным бизнесом. Т. 2 / Под ред.. — М., 2001. С. 133
2. Кабушкин Н.И., Бондаренко Г.А. Менеджмент гостиниц и ресторанов. — Мн., 2001. С. 20
3. Какосьян Э.К. Стратегии развития предприятий гостиничного хозяйства. — СПб. 2003. С. 26.
4. Kasavana M.L., Brooks R.M. Managing Front Office operations. — Lansing, Mich., 2001. С. 5
5. Медлик С., Инграм Х. Гостиничный бизнес. — М., 2005. С. 14—16.
6. Summary of the work done on the development of tourism in the Bukhara region in 2017-2021 and future plans. Presentation of the General Directorate of Tourism and Cultural Heritage of Bukhara Region.

RAQOBATBARDOSH MUHITDA MEHMONXONALARDA SIFATLI XIZMAT KO'RSATISHNING MUHIM JIHATLARI

Davronov Istamxo'ja Olimovich
 “Marketing va menejment” kafedrası tayanch doktoranti,
 “Turizm va mehmonxona xo'jaligi” kafedrası o'qituvchisi
 Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: tezisda asosan joylashtirish vositalarida sifatli xizmat ko'rsatishning muhim ahamiyati va uni rivojlantirish yo'llari muhokama qilingan. Tezis dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda turizm sanoatida asosiy xizmatlardan biri bo'lgan joylashtirish vositalarida xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash eng muhim hisoblanadi. Kelajakda turistik oqimning o'sishi albatta, yashaydigan mehmonxonada xizmat turlarining xilma-xilligi va ularning sifatli ekanligi katta ahamiyat kasb etadi. Undan tashqari tezisda xizmat ko'rsatish sifatini aniqlash va uni yaxshilash bo'yicha xorij tajribasi haqida ham fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat, sifat, sifat ko‘rsatkichlari, xizmat turlari, ehtiyoj, kadrlar, yanxi texnologiyalar, raqobatbardoshlik.

Asosiy qism


So‘ngi yillarda mehmondo‘stlik sanoatida xizmat ko‘rsatish sohasi sezilarli darajada kengayib bormoqda. Mehmonxona biznesida asosiy xizmatlardan biri bu mijozlarga vaqtincha tunashi uchun xonalarni taqdim etish hisoblanadi. Shuning uchun har qanday mehmonxona, hatto eng past toifadagi joylashtirish vositalari ham o‘z mijozlariga birinchi navbatda toza, qulay va standartlar talablariga javob beradigan asosiy va qo‘shimcha xizmatlarni (shoshilinch tibbiy yordam, oziq-ovqat, kir yuvish, pochta xizmatlari va boshq) ko‘rsata olishi kerak.

Zamonaviy bozor sharoitida ishlab chiqaruvchilar bozori iste‘mol bozoriga aylandi. Turli xildagi joylashtirish vositalarining raqobatbardoshligi ma‘lum narxda iste‘molchiga mos keladigan va uni taqdim etadigan xizmatlar sifatiga bog‘liq bo‘lib qoldi. Mehmonxonalarining xizmatlari sifati mijozlarning ehtiyojlari va xohishlariga bog‘liq bo‘lib, faqatgina u yerda yashaganlaridan keyin xizmat sifati baholanadi.

Oxirgi paytlarda mijozlarning xizmat ko‘rsatish sifatiga bo‘lgan talablari va xohishlari tobora ortib bormoqda. Potensial mijozning mehmonxona tanlashidagi asosiy mezon bu - xizmatning tez, ko‘zga tashlanmaydigan va yuqori sifatli bo‘lishida hisoblanadi.

Mehmonxona xizmatlar sifatida haqida mijozga bevosita ular bilan birinchi aloqada bo‘lgan payt va o‘sha mehmonxonada bo‘lgan payt his etadi. Mehmonxonada xizmatlar qachonki mehmon o‘sha joyning obyekt bo‘lgan payt faoliyat doirasiga kiradi. Mehmonxona mijozni mehmonxonada taklif etilayotgan xizmatlar xilma-xilligi va ularning sifati haqida u yerda bo‘lib tajriba ortirganda va kuzatish orqali amalga oshadi.

Mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatishning yuqori sifati va xilma-xilligi quyidagi hollarda namoyon bo‘ladi:



1-chizma. Mehmonxonalarda yuqori darajadagi xizmatlarning namoyon bo‘lishi va turlari

Manba: (muallif ilmiy ishidagi izlanishlardan kelib chiqqan holda tuzilgan)

Yuqoridagilarni tahlil qiladigan bo‘lsak, haqiqatdan ham asosan mehmonxonalarda xizmatlar sifatini yuqori darajada ekanligini birinchi o‘rinda xodimlarning birgalikda ya‘ni kollektiv sa‘y-harakatlari natijasida namoyon bo‘ladi. Chunki mijoz joylashgandan keyin mehmonxonadagi asosiy xizmatlardan foydalanadi va bunda bir necha xodimlarning xizmat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Ya‘ni mehmonxona ma‘muri qabul qilishidan ularning chiqib ketguniga (housekeeping xizmati, food and beverage xizmati va boshq.) qadar. Bu xodimlar individual ishlagan taqdirda sifat yaxshi bo‘lishi mumkin, ammo shunday vaziyatlar bo‘ladiki bu xodimlarning kollektiv bo‘lib ishlagan paytda mijozlarga yuqori sifatli xizmat taqdim qila olishi mumkin. Albatta, yuqori sifat ko‘rsatgan mehmonxona kelajakda mijozlarning o‘shirishiga olib keladi. Misol qilib shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, mehmon qandaydir mehmonxonaning o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan muammolardan (mehmonxona tashqarisidagi shovqin, shaharda suv, elektr ta‘minoti yoki gazdan uzilishi va boshq.) aziyat chekishi mumkin, biroq ko‘rsatiladigan

yuqori sifat natijasida buni oldini olish mumkin bo'ladi. O'tkazilgan so'rovnomadan shuni aytish joizki, sayohatchilarning 80% dan ortig'i mehmonxonadan sifatli xizmat kutishadi.

Keyingi holatlardan biri mehmonxona ma'muriyatining doimiy va samarali nazorati muhim rol o'ynaydi. Chunki mehmonxonada ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatidan boshqarma xabardor bo'lmasa, mehmonxonada xizmat sifatining yomonlashishiga undan keyin esa obro'yi tushushiga sabab bo'ladi. Xorij tajribasiga asoslangan holda mehmonxonada ma'muriyat xizmat sifatidan xabardor bo'lish uchun doimo mehmonlar sharhiga asoslangan holda tekshiruvlar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tajribada shu ma'lumki, ko'pgina mehmonxona biznesi rivojlangan davlatlar bu kabi monitoringni HotelCheckList platformasidan foydalanishadi. Bunda har bir mehmon mehmonxonaga joylashgandan keyin, foydalangan turli xil xizmatlardan qoniqish darjasini platforma orqali ko'rsatishlari mumkin. Albatta, bu orqali mehmonxona menejmenti kamchiliklarni monitoring qilib, kelajakda bu kabi noqulayliklarni yangi texnologiyalar orqali ham bartaraf etishi mumkin. Qo'shimcha qilib, shuni ta'kidlash kerakki, bu kabi platformalar nafaqat mehmonxona mijozlari uchun balkim mehmonxona xodimlari uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu orqali xodimlar o'rtasida aloqani birlashtiradi. Masalan, housekeeping xizmati xodimlari xonada mavjud bo'lgan kamchilikni bu platformada qayd etib, muhandislik xizmatiga yuborishlari mumkin bo'ladi. Front oficedagi boshqa xodimlarni bezovta qilmasdan muhandislik xizmatining o'zi muammolarni hal qilishi mumkin. Bu orqali xodimlar orasida kelishmovchiliklarni ham oldini olishga katta yordam beradi.

Shuningdek mehmonxona personallari doimiy ravishda xizmat ko'rsatish shakllarini hamda turlarini o'zgartirib turishlari kerak bo'ladi. Chunki mehmonxonaga mijozlari ikkinchi marta kelganda albatta, qandaydir o'zgarishni, yangilikni yoki tur xilma-xil xizmatlarni kutadi. Shuning uchun bularni inobatga olgan holda, mehmonxona menejmenti moddiy tomondan qo'llab-quvvatlashi kerak bo'ladi. Chunki ba'zi holarda mehmonxona tomonidan bepul xizmatlarni amalga oshirish orqali mehmonlarning qoniqish darjasini oshirish mumkin. Olingan so'rovnomalar shuni ko'rsatadiki ko'rsatiladigan bepul xizmatlardan 90 % mehmonlar mamnunlik darajasini belgilashgan. Bunda bepul xizmatlardan (ya'ni qo'shimcha mablag'lar hisobidan) quyidagilarni mehmonxona ko'rsatishi mumkin: mehmonlarni kutib olish paytida har xil ichimliklarni yoki milliy turdagi yengil gazzaklarni qo'yish, mehmonlar xonasiga ular yanada mamnun bo'lishlari uchun chiroyli gular yoki mevalar qo'yilishi va hok.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida sanab o'tilgan ya'ni mehmonxona xo'jaligida xizmat sifatini oshirishda bog'liq bo'lgan omillarni doim boshqarib turib uni doimiy ravishda rivojlantirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qanchalik mehmonxona ma'muriyati so'ngi texnologiya va xorij tajribasidan kelib chiqqan holda xizmat sifatini yaxshilashsa, kelajakda potensial mijozlarning oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Todua N., Jashi C. Main Aspects of service quality in the Hotel Industry of Georgia //4 th International Conference on Contemporary Marketing Issues ICCMI June 22-24, 2016 Heraklion, Greece. – 2016. – C. 431.
2. Sharma S., Srivastava S. Relationship between service quality and customer satisfaction in hotel industry //TRJ Tourism Research Journal. – 2018. – T. 2. – №. 1. – C. 42-49.
3. Davronov I. IMPROVEMENT OF QUALITY INNOVATIVE SERVICES IN BUKHARA HOTELS // " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал. – 2022. – T. 1. – №. 3.
4. Пономаренко Е. И. Совершенствование качества гостиничных услуг : дис. – 2018.
5. Davronov I. O. Economic Importance of Innovative Technologies for Improving Hotel Services //International Journal of Business, Technology and Organizational Behavior (IJBTOB). – 2021. – T. 1. – №. 3. – C. 169-175.

RAQAMLI TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANIB OSHIRISH

(UzTransport va UzTmyBus mobil ilovalari misolida)

Farmanov Erkin Alimovich

Buxoro davlat universiteti, tayanch doktoranti

Jahonda iqtisodiy tarmoqlarining o'zgarishi, bu jarayonning raqamlashuvi, mobillashuvi va sohaga sun'iy intellektning joriy etilishi bilan bo'g'liq muhim davrni boshdan kechirmoqda [1]. Hozirgi global rivojlanish davrda barcha sohalar singari transport sohasida raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi jadallashmoqda. So'nggi yillarda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda innovatsion harakatlanish

“Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash: muammolar va yechimlar”

imkoniyatlarining kengayishi xorijiy va mahalliy aholi uchun qulay transport xizmatlari sezilarli darajada kengaytirdi. Hamda, yetakchi davlatlarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotida transport xizmatlar sifatini oshirishda raqamli iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish zarurligiga undamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020 yil 5 oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyani tasdiqlash va uni samarali oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-6079 sonli farmonida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ikkinchi bobida: Raqamli rivojlanishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlarida 2022-yilda respublikaning viloyat markazlarida jamoat transportlarida yo‘l haqi to‘lashning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish va naqd pulsiz to‘lovlar ulushini 90 foizga yetkazish, har qanday yo‘lovchi transportida chipta sotib olish uchun yagona platformani yaratish, transport tizimini kompleks rivojlantirish uchun dasturiy modellashtirish tizimlaridan foydalanish mexanizmlarini amalga oshirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasida doirasida 2020 – 2022-yillarda Buxoro viloyatini raqamli transformatsiya qilish dasturi doirasida umumiy foydalanishdagi shahar yo‘lovchi tashish transportida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimi imkoniyatlarini joriy etish, avtobuslarni statsionar validatorlar bilan jihozlash, avtomatlashtirilgan transport kartalarini sotish qurilmalarini o‘rnatish, hamda, “Tizimni “Raqamli Buxoro” geoaxborot tizimiga integratsiyani ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan [2]. Ushbu qarorda ta‘kidlaganidek, Buxoro viloyatining jamoat transportini raqamlashtirish viloyat transport xizmatlari sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.


Jamoat transportini raqamlashtirish transport kompaniyalariga o‘z mijozlariga xizmat ko‘rsatish zanjiri (qidiruv-buyutma-to‘lov-boshqarish) bo‘ylab integratsiyalashgan raqamli xizmatlarni taklif qilish va o‘zlarining transport operatsiyalarini optimallashtirish uchun yangi imkoniyatlar beradi [3]. Jamoat transportlarning raqamlashtirishda asosan elektron chipta sotuvi va xaridi (yo‘l kiraning elektron ko‘rinishi), mahalliy va xorijiy sayyohlarning sayohat davomida jamoat transporti foydalanish maqsadida sayohat yo‘nalishlarini navigatsiya orqali (google map, maps.me, maps va boshqa navigatsiya dasturlari) boshqarish, shuningdek, transport vositalarida ya‘ni jamoat transportlari va avtobus bekatlarida avtobuslarning harakatlarning mobil dasturlar yordamida onlayn kuzatishlarni olib borishlar kiradi. Xullas, Raqamli transport deganda transport vositalari, infratuzilma va logistika kabi transport tizimlarini yaxshilash uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish tushuniladi. U narsalar internet yoki buyumlar interneti deb ham nomlanadi (IoT-internet of things), sun‘iy intellekt (AI- artificial intelligence), bulutli hisoblash (cloud computing) va katta ma‘lumotlar tahlili kabi keng ko‘lamli texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. Quyidagi chizmada transport xizmatlar sifatini yana oshirishga qaratilgan bo‘lib, bunda asosan raqamli transport xizmatlar afzallik tomonlari keltirilgan.

1-chizma

RAQAMLI TRANSPORT XIZMATLARINING AFZALLIK TOMONLARI [4]				
Daromad va iqtisodiy samaradorlikni maksimal darajada oshirish	Transport tarmoqlarida xavfsizlik darajasini oshirish	Samaradorlik va ishonchlilikni oshirish	Yuqori tajribali yo‘lovchilarning ta‘minlash	Barqarorlikni oshirish

Bilamizki, raqamli avlodning kirishi texnologiyalar tomonidan aqlli telefonlar, aniq vaqtni rejalashtirish, ochiq ma‘lumotlar bazasi va mijozlarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishlar kabi qulayliklarni paydo bo‘ldi. Jamoat transportlarida masofaviy boshqarish va ular to‘g‘risida ma‘lumotlarga ega bo‘lish, asosan mobil dasturlar orqali amalga oshiriladi. Statistika agentligi ma‘lumotiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida 2023 yil 1-aprel holatiga doimiy aholi soni 36 197 781 kishi tashkil etadi, hamda, mobil aloqa bilan ta‘minlangan abonentlar soni qarib 32 mln nafarni tashkil etgan bo‘lsa, shundan, 27 mln nafari aholida qayd etilgan. Jumladan, mobil aloqa bilan ta‘minlanganligi har 100 kishida hisobiga 75 birlikni tashkil etadi.

2-chizma



Yuqoridagi jadvalda, aholining mobil aloqa bilan ta'minlanganlik darajasi ko'rsatilgan bo'lib, bunda oxirgi 4 yil davomida mos ravishda 2 ga o'sishini qayd etganlikni kuzatish mumkin. DataReportalning ma'lumoti bo'yicha, 2023 yil dastlabki oyida, 26.75 mln aholi internet foydalanuvchilari bo'lsa, bu jami aholi hisobidan 76.6 foizni qamrab oladi va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilar soni 5.35 mln tashkil etadi. Uyali mobil aloqa xizmatidan 31.84 mln aholi foydalanib kelmoqda [6].



Texnologiya va raqamlashgan dasturlar hayotimizni nafaqat sezilarli darajada o'zgartirdi va qolaversa aholi turmush darajasini to'liq o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Hozirgi kunda, raqamlashgan mamlakatlarning daromadlari mobil ilovalar fonida yalpi ichki mahsulotidan oshib ketadigan darajada ko'tarildi. Xususan, Xitoy, Yaponiya va AQSH eng ko'p daromad keltiruvchi ilovalar yaratib, foyda oladi va jahon ilovalar bozorining 80 foiz ulushini tashkil etadi [7].

Xullas, raqamli transportda mobil ilovalarning ahamiyati transport xizmatlaridan foydalanishda smartfon ilovalaridan foydalanish tushuniladi, masalan: velosipedlarni ijaraga olish (bike-sharing), avtomobillarni ijaraga olish (car-sharing) yoki jamoat transportlar. Hamda, mobil ilovalar foydalanuvchilarga transport xizmatlaridan foydalanishning qulay va samarali usulini ta'minlab, yuklab olingan mobil ilovalari orqali transport xizmatlarini bron qilish va to'lov qilish imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Bugunki kunda, Buxoro viloyatida transport sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ular doirasida qabul qilinayotgan dasturlar asosida sohada raqobat muhitini rivojlantirishga, jamoat transporti faoliyatini yanada takomillashtirish va ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etishga, yo'lovchilarga sifatli transport xizmati ko'rsatishga, respublikamizning transport-logistika sohasini rivojlantirish hamda mamlakatning transit salohiyatini oshirish birinchi galdagi vazifa darajasiga olib chiqildi. Shuningdek, jamoat transportida xizmat ko'rsatish tizimini yanada oshirish va aholi turmush farovonligini yaxshilash maqsadida, jamoat transportlari harakatini onlayn kuzatish imkonini beruvchi "UzTransport" va shahar jamoat transportlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan "UzTmyBus" mobil ilovalarini yaratish loyihasi amalga oshirildi.

3-chizma

UzTmyBus va UzTransport mobil ilovalarining logolari [8]

	
UzTmyBus	UzTransport

“UzTransport” ilovasi orqali turistlar uchun qulay bo‘lgan aralash tashish tizimi xizmatlaridan foydalanish imkoniyati taqdim etiladi. Ya‘ni ushbu ilova viloyatdagi barcha tarixiy va madaniy meros ob‘ektlari, muzeylar, sayyohlik maskanlari, restoranlar, mehmonxonalar, aeroport, temir yo‘l va avtovokzallar orqali harakatlanuvchi yo‘nalishlar harakati to‘g‘risidagi (bunda yo‘nalish xaritasi, harakatlanish grafigi va hokazo) barcha ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu ilova orqali sayyoh Buxoroga keluvchi avia, temir yo‘l yoki avtotransportlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni real vaqt rejimida olib, o‘zi uchun qulay bo‘lgan transportni tanlashi, viloyatga yetib kelgandan so‘ng avtobusda o‘ziga kerakli bo‘lgan ob‘ektga yetib olib, sayohatni davom ettirish imkoniga ega bo‘ladi. Shahar jamoat transportlari haqidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan “UzTmyBus” mobil ilovasida esa Buxoro shahridagi jamoat transportlari haqidagi to‘liq (yo‘nalishda harakatlanayotgan avtobuslar soni, harakatlanish intervali, yo‘nalish xaritasi kabi) ma‘lumotlar, shahardagi barcha avtobus to‘xtash bekatlari joylashgan manzillar kiritildi. Bunda shahar jamoat transportlarini GPS-trekerlar bilan jihozlash ishlari to‘liq yakunlangandan so‘ng ushbu tizim “UzTmyBus” mobil ilovasi bilan integratsiyalanadi.

Umuman olganda, mobil ilovalar transport xizmatlaridan foydalanish va foydalanish uslubimizni o‘zgartirib, qulayroq, samaraliroq va moslashtirilgan transport tajribasini taqdim etmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Yangi O‘zbekiston gazetasi, 2020 yil, 17 sentabr (<https://yuz.uz/uz/news/raqamli-iqtisodiyot-taraqqiyot-sari-qisqa-yol>)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079 sonli farmoni. (<https://lex.uz/ru/docs/-5030957>)
3. Fraunhofer-Allianz Verkehr nomli Germaniya tadqiqot tashkiloti (<https://www.verkehr.fraunhofer.de/en/working-groups/mobility/Digitalization.html>)
4. Thales Group nomli Fransiyaning ko‘p millatli kompaniyasi (<https://www.thalesgroup.com/en/markets/transport/railways-digitalisation/digital-transportation-services>)
5. Davlat statistika qo‘mitasi www.stat.uz.
6. <https://datareportal.com/reports/digital-2023-uzbekistan>
7. <https://www.businessofapps.com/data/top-grossing-apps/>
8. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

O‘ZBEKISTONNING EKOTURIZM RESURLARI: KAMCHILIK VA ISTIQBOLLARI

Ruziyeva Maxbuba Tulkinova

Ilmiy rahbar

Buxoro davlat universiteti

Maxmadiyev Abdugarim To‘xtamish o‘g‘li

Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston ekoturizmining holati, mavjud resurslaridan oqilona foydalanish, aholining ekoturizmga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ekoturizm sohasidagi muammo va kamchiliklar, ularning istiqboldagi yechimlari to‘g‘risida taklif va mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ekoturizm, turizm va servis, ichki turizm, aholi bandligi, biznes, tabiat va atrof muhit.

Annotation: This article covers the state of Uzbekistan's ecotourism, the rational use of its existing resources, increasing the population's interest in ecotourism, problems and shortcomings in the field of ecotourism, suggestions and comments on their future solutions.

Keywords: ecotourism, tourism and servise, domestic tourism, population employment, business, nature and environment.

“Turizm hamjihatlik va rivojlanishning haqiqiy haydovchisi. Keling , turizmning Global axloq kodeksiga rioya qilgan holda odamlar va jamoalarni birlashtirish uchun uning kuchidan to‘liq foydalanaylik. Shunday qilib, turizm millionlab odamlar uchun yanada yaxshi imkoniyatlar va barqaror rivojlanishni taqdim etishda davom etishi mumkin” Zurab Pololikashvili BTT Bosh kotibi, 2020-yil avgust

Jahonda turizm sohasining ekologik turizm yo‘nalishi insoniyat oldidagi ekologik halokatning oldini olish, insoniyatning barqaror rivojlanishi va yashashi uchun, sayyoramiz tabiati va uning resurslarini saqlab qolish yo‘llarini axtarish zahirida shakllandi va rivojlanib bormoqda. Insoniyat oldidagi ekologik muammolarni insoniyatning uzi bartaraf etishga majbur. Shu boisdan, yurtimizda ham ekologik turizmni rivojlantirish masalalarini o‘z vaqtida hal qilishimiz, tabiatimizdagi boyliklarni saqlab qolish, tabiiy resurslarimizni muhofaza qilish hamda xalqaro ekologik inqirozlarning oldini olishga qo‘shgan hissamiz bo‘ladi.

O'zbekistonlik turizm mutaxassislarning ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatadiki, yurtimizda turizmni rivojlantirishda mintaqalarimizning barcha turistik resurslari bor va bular hal qiluvchi asosiy o'rinlarni belgilaydi. Bu resurslarga misol qilib, so'lim surxon vohasida joylashgan, tog' bag'ridan, qoyatoshlar orasidan otilib chiqadigan Sangardak sharsharasi, Qashqadaryo viloyatidagi Miraki tog'lari, Navoiy viloyatidagi Tudako'li, Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanidagi Jayron qo'riqxonasidagi ko'llar va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Yurtimizda turizmning boshqa turlari bilan birgalikda ekologik turizmni rivojlantirish:

- aholini ish bilan band qiladi;
- mahalliy aholining qo'shimcha biznes bilan shug'ullanishini ta'minlaydi;
- ekologik turizm bilan bevosita agro va qishloq turizmlari ham rivojlanadi;
- ichki turizm rivojlanadi;
- ichki turizm bilan birgalik aholiga ko'rsatiladigan turistik xizmatlar (joylashtirish, ovqatlantirish va transport) ham yaxshilanib boraverdi.

Ekologik turizmni rivojlantirish bilan birgalikda, bu sohada qilinishi kerak bo'lgan bir necha muammo va kamchiliklar ham talaygina. Jumladan:

- ✚ avvalombor mahalliy aholining tabiatga va atrof muhitga bo'lgan madaniyatini oshirish, tabiiy turistik resurslardan unumli va oqilona foydalanishni targ'ib qilish;
- ✚ turizmning boshqa turlari bilan birgalikda ekologik turizm sohasida ham reklama va marketingni kuchaytirish (bu borada, ayniqsa ekoturizm sohasiga reklama xizmati yurtimizda yaxshi rivojlanmagan)
- ✚ ekologik obyektlar ustidan davlat nazoratini kuchaytirish;
- ✚ mamlakatimiz aholisi o'rtasida ichki turizmni, shu bilan birgalikda ekoturizmni rivojlantirish, ekotur sayohatlarni ko'proq tashkillashtirish;
- ✚ xorijiy sayyohlarga taklif qilinayotgan turpakatlarning dasturiga ekologik obyektlarni ham qo'shish, qo'shimcha dastur sifatida taklif qilish shular jumlasidandir.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi so'zlarini keltirishimiz o'rinli bo'ladi: „Men turistik biznes deganda, turizmni shunchaki rivojlantirish emas, balki kengroq tushunchani nazarda tutaman. Bunda gap turizm faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish va servis tarmoqlarini rivojlantirish haqida bormoqda. Bu soha taraqqiyoti mamlakatimizga xorijiy turistlarni ko'proq jalb qilish bilan birga, eng muhimi, katta valyuta tushumlarini ta'minlash bilan yurtimizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojiga ulkan hissa qo'shishi muqarrar”.[1]

Umuman olganda, ekoturizm tabiat qo'ynida bo'lishlikdir. Rus olimi M.B.Birjakov ta'kidlaganidek: “Ekoturizmda tabiatga minimum ta'sir qilib, tabiat bilan birgan bo'lish natijasida uning boyliklarini muhofaza qilish, asrab qolish tuyg'ulari hosil bo'ladi”.[2]

Yuqorida keltirilganlarni hisobga olib, yurtimizda ham turizmni rivojlantirish, shu bilan birgalikda ekoturizmni ham rivojlantirish, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ekologik turizmni barcha turizm qatnashchilari o'rtasida targ'ib qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zeroki, ekoturizm – tabiatga mas'uliyat bilan sayohat qilish natijasida atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlaydi va mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Obod va ozod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2000. 232-b
2. Дроздов А.В. Основы экологического туризма. – М.; Гардаки,2005. С.271
3. https://www.researchgate.net/publication/308135715_Ecotourism
4. https://wedocs.unep.org/bitstream/handle/20.500.11822/9045/-Ecotourism_Principles,PracticesandPoliciesforSustainability-2002518.pdf?sequence=2

ЖАҲОНДА ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИНИНГ РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ

**Бухоро давлат унверситети
мустақил тадқиқотчиси
Тухтаев Умиджон Шухратович**

Жаҳон мамлакатлари иқтисодиётида миллий туризм индустриясининг ривожланиши глобал даражада турistik хизматлар соҳасининг ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан динамик ривожланиш хусусиятига эга бўлганлиги билан боғлиқ ҳисобланади. Шу билан биргаликда, мамлакатлар миллий

иктисодиётида туризм соҳасининг мустақил тармоқ сифатида шаклланиши натижасида ушбу соҳани ривожлантириш бўйича турли мамлакатлар иқтисодиётида амалга оширилган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар замонавий туризм индустриясининг тобора ривожланиб бориши, жумладан, унинг рақобатбардошлиги даражасини ошириш учун тегишли шарт-шароитлар яратмоқда.

Жаҳонда туризм индустриясининг ривожланиш босқичлари туристик хизматлар кўрсатиш турлари кўпайиб, уларнинг камров даражаси кенгайиши билан биргаликда, глобал даражада туристик оқим ҳажмининг ортиши натижасида туризм соҳасининг ижтимоий-иқтисодий аҳамиятининг кенгайиб борганлиги билан ўзаро фарқланади. Шу ўринда, Халқаро илмий экспертлар ассоциацияси вакиллари томонидан туризм иқтисодий категориясига нисбатан ишлаб чиқилган тарифга эътиборни қаратиш мақсадга мувофиқ. Унга кўра, «туризм бу инсонларнинг доимий яшаш ва иш жойларидан бошқа жойларда маълум бир вақт давомида туристик мақсадларда истиқомат қилиши, ёки меҳнат сафарини амалга ошириши шароитида унинг кўчиб ўтиш жараёнида вужудга келадиган барча турдаги ижтимоий-иқтисодий муносабатлар тизимини англатади»¹. «Туризм» иқтисодий категориясига нисбатан берилган ушбу тарифга асосланган ҳолда, туризм индустриясининг таркибий тузилиши жуда мураккаб ва унинг бир неча ривожланиш босқичларига эга бўлганлиги ҳақида хулоса қилиш имкониятини беради.

Жаҳон туризм ташкилоти (UNWTO) билан Бирлашган миллатлар ташкилоти (БМТ)нинг Статистика комиссияси экспертлари томонидан халқаро даражада туризм соҳасининг ривожланиш тенденцияларини баҳолаш мақсадида ўтказиладиган тадқиқотларда ушбу соҳага тегишли бўлган статистик маълумотларни жамлаш жараёнида «туризм» иқтисодий категориясига нисбатан куйидаги тарифга асосланилади: «туризм бир кундан бир йилгача бўлган муддатда инсонларнинг ўзининг доимий яшаш жойидан бошқа жойда дам олиш, бизнес туризми, саёҳат қилиш каби бошқа туристик мақсадларга мувофиқ ташриф буюриши жараёнида вужудга келадиган барча ижтимоий-иқтисодий муносабатлар тизимини ўзида мужассамлаштиради»².

Туризм индустриясининг бугунги кунда мамлакатлар миллий иқтисодиётининг мустақил тармоғи сифатида ривожланишига ушбу соҳага нисбатан турли позицияларда берилган тарифлар, туристик фаолиятнинг объекти ва субъекти жиҳатидан унинг таркибини тўлиқ шаклланишига асос бўла олади. Амалга оширилган тадқиқотларимиз натижаларига асосланган ҳолда, туризм индустриясини туристик мақсадларда саёҳат қилувчи инсонлар учун хизмат кўрсатишга ихтисослашган мустақил тармоқ сифатида баҳолаш имкониятини бермоқда.

Иқтисодий адабиётда туризм соҳасининг ривожланишига оид кўп сонли илмий тадқиқотлар амалга оширилган бўлиб, у узоқ муддатли ривожланиш даврига эга эканлиги исботланган. Жумладан, хорижий иқтисодчи олимлардан Е.В. Вавилова³, М.Б. Биржаков⁴, Н.И. Кабушкин⁵, А. Жефферсон⁶, К.К. Камран⁷, Т. Линдсей⁸, Д. Маклеод⁹, С. Медлик¹⁰, Р. Уокер¹¹, Дж. Уолл ва Дж. Таунер¹² кабиларнинг илмий тадқиқотларида туризм соҳаси қадимги давлатчилик даврларидан бошлаб ривожлана бошлаганлиги ҳақида турли илмий қарашлар келтириб ўтилганлигини кузатишимиз мумкин. Таҳлилларга кўра, жаҳонда мамлакатлар миллий иқтисодиётининг мустақил тармоғи сифатида туризм соҳасининг ривожланишида унинг таркибига кирувчи объектлар ўртасидаги ўзаро алоқаларнинг тизимли равишда туризм инфратузилмасини шаклланиши билан биргаликда, транспорт, савдо, хизматлар, жумладан, таълим, соғлиқни сақлаш, яшаш ва овқатланиш

¹Капустина Л.М. Конкурентоспособность стран на мировом рынке туристических услуг: [Монография] / Л.М. Капустина, В.В. Вязовская; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. гос. экон. ун-т. – Екатеринбург: [Изд-во Урал. гос. экон. ун-та], 2017. – 166 с.

²Капустина Л.М. Конкурентоспособность стран на мировом рынке туристических услуг: [Монография] / Л.М. Капустина, В.В. Вязовская; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. гос. экон. ун-т. – Екатеринбург: [Изд-во Урал. гос. экон. ун-та], 2017. – 166 с.

³ Вавилова Е.В. Основы международного туризма. М.: Гардарики, 2005. 160 с.

⁴ Биржаков М.Б. Введение в туризм. СПб.: Герда, 2006. 192 с.

⁵ Кабушкин Н.И. Организация туризма. Минск: Новое знание, 2003. 632 с.

⁶ Jefferson A., Kickorish L. Marketing tourism. Harlow: Longman, 1988. 316 p.

⁷ Kamran K.K. Tourism: theory, planning, and practice. New Delhi: Indus Publishing Company, 1997. 206 p.

⁸ Lindsay T. Cross-cultural behavior in tourism: Concepts and analysis. Elsevier, 2003. 368 p.

⁹ Macleod D. Tourism, globalization, and cultural change: An island community perspective. Channel View Publication, 2004. 256 p.

¹⁰ Medlik S., Middleton V.T.C. Product formulation in tourism // Tourism and Marketing. 1973. Vol. 13.

¹¹ Walker J.R. Tourism: Concept and Practice. Prentice Hall, 2010. 576 p.

¹² Towner J., Wall G. History and tourism // Annals of Tourism research. 1991. Vol. 18. Issue 1. pp. 71-84

хизматлари, маиший хизматлар каби бошқа туристик хизматларга бўлган эҳтиёжнинг тобора ортиб бориши сезиларли даражада таъсир кўрсатган.

Юқорида келтириб ўтилган иқтисодчи олимлар томонидан туризм соҳасининг ривожланишига бағишланган тадқиқотлар натижаларига асосланган ҳолда уни куйидаги эволюцион босқичларга ажратиб ўтилди:

- антик давр (эрамиздан аввалги XI асрдан эрамизнинг IV асргача бўлган давр). Ушбу даврда қадимги давлатлар ўртасида савдо алоқаларининг кучайиши, янги ерларни ўзлаштирилиши натижасида туризм соҳасининг илк ўзига хос хусусиятлари шаклланди;

- ўрта асрлар даври (IV-XV асрлар) – ушбу босқичда турли шаҳарлар ва қишлоқларда диний объектлар таркибида туристларнинг дам олишлари учун мўлжалланган илк меҳмонхоналар ташкил этилган;

- янги давр (XV-XIX асрлар) – ушбу босқичдан таълим ва соғлиқни сақлаш мақсадида амалга оширилган туристик оқим ҳажми ортиб, бу турдаги хизматлар кўрсатиш амалиёти такомиллашган. Жумладан, янги тиббий-курорт зоналар ташкил этилган. Почта хизматларининг ривожланиши натижасида транспорт инфратузилмаси такомиллаштирилган. Айрим манбаларда ушбу босқич «уйғониш ва маърифат даври» деб ҳам аталади;

- биринчи жаҳон урушигача бўлган давр (1841-1914 йиллар)–мазкур босқичда илк бор туристлар гуруҳларидан ташкил топган экскурсион-саёҳат туризми шаклланиб, туризм фаол ривожланиш тенденциясига эга бўлган;

- биринчи ва иккинчи жаҳон урушлари оралиғи даври (1914-1930 йиллар) – мазкур босқичда дам олиш ва гуруҳлар билан экскурсион саёҳат қилиш туризми ривожланиб, денгиз транспорти орқали саёҳат қилиш ҳажми ортган;

- туристик хизматлар ва маҳсулотларнинг диверсификациялашуви даври (1950-1990 йиллар) – ушбу босқичда туристик хизматлар ва маҳсулотлар турали кенгайиб, социалистик давлатларда ижтимоий туризм ривожланди. Иқтисодий адабиётда ижтимоий туризм бу ички туризмни шаклланишининг илк кўринишлари сифатида тавсифланади;

- туризм соҳасида ахборот-коммуникацион технологиялар (АКТ)дан фаол фойдаланиш даври (1990-2020 йиллар) – мазкур босқичда туристик хизматлар кўрсатиш соҳасига АКТни жорий этиш фаоллашиб, интернет тармоғи орқали туристик хизматларга буюртма бериш ҳажми ортган;

- хавфсиз ва инновацион туризм даври (2021 йилдан то бугунги кунга қадар) – ушбу босқичда «Covid-19» пандемиясидан кейинги даврда туристлар саломатлигига эътиборнинг ортганлиги, улардан тегишли тиббий текширувлардан ўтганлиги ҳақидаги маълумотномаларни талаб этилиши билан биргаликда, туристик хизматлар кўрсатиш ва маҳсулотлар ишлаб чиқариш жараёнларида инновацион технологиялардан фойдаланиш ҳажмининг ортганлигини кузатиш мумкин бўлади.

ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ-ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРИ

Бухоро давлат университети

мустақил тадқиқотчиси

Тухтаев Умиджон Шухратович

Ўзбекистонда 2016-2021 йилларда мамлакатимизда туристик хизматлар кўрсатиш соҳасини такомиллаштириш борасида кенг қўламли ишлар амалга оширилди. Жумладан, туристик хизматларнинг сон ва сифат жиҳатдан ривожлантириш, ушбу соҳани давлат томонидан қўллаб-қувватлаш механизмини такомиллаштиришга қаратилган 60 дан ортиқ норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиниб, амалга оширилган илоҳотлар натижасида 90 та давлат фуқаролари учун визасиз режим жорий этилди.¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг “туризмни ривожлантириш, соҳага инвестициялар жалб этиш, кадрлар салоҳиятини ошириш бўйича комплекс чоралар кўришимиз лозим. Бизда туризм кўпинча қадимий шаҳарларимиз, тарихий-маданий ёдгорликлар доирасида чекланиб қолмоқда. Ваҳоланки, мамлакатимизнинг бетакрор табиати, миллий қўриқхоналар, тоғли ҳудудларда туризмни ривожлантириш учун катта салоҳият мавжуд. Айниқса, тиббиёт туризми, зиёрат туризми ва экотуризмни ривожлантириш нафақат иқтисодий, балки ижтимоий соҳалар ривожига ҳам катта туртки беради. 2019-2025 йилларда Туризмни ривожлантириш миллий концепциясини ишлаб чиқиш ва шу асосда 2025 йилда

¹Мажидов Ҳ. Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш: 2016-2020 йилларга умумий шарҳ. <https://review.uz/oz/post/razvitie-turizma-v-uzbekistane-obzor-turotrasli-za-2016-2020-gg>

юртимизга ташриф буюрадиган хорижий сайёҳлар сонини 7 млн. нафарга, туризм экспортдан келадиган йиллик даромадни эса 2 млрд. АҚШ долл.га етказиш лозим”¹ деб айтган фикрлари, кейинги йилларда туризм соҳасини ривожлантириш давлат ижтимоий-иқтисодий сиёсатининг устувор йўналишлари қаторидан чуқур ўрин эгаллаганлигидан далолат беради.

Мустақилликнинг илк йилларида мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришнинг институционал асосларини ташкил этиш билан бир қаторда, туризм инфратизилмасини шакллантириш, мазкур соҳани юқори малакали кадрлар билан таъминлашга қаратилган чора-тадбирларни амалга оширишга устуворлик қаратилди. таҳлиллар кўрсатишича, 1992-1995 йилларда мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришнинг биринчи босқичи сифатида ўз аксини топади.

Мамлакатимизда туризм соҳасининг ҳуқуқий-институционал жиҳатдан ривожланишининг кейинги босқичи 1996-1999 йилларни ўз ичига олиб, мазкур босқичда мамлакатда туристлар оқимини тартибга солиш, уларни мамлакат ҳудудига келиб кетишлари, транзит ўтишларни ташкил этиш, турстик хизматлардан фойдаланиш бўйича истеъмолчиларнинг ҳақ-ҳуқуқларига аниқлик киритилиб, туризм соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрлашнинг замонавий амалиётига ўтилди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1996 йил 21 ноябрдаги “Хорижий фуқароларнинг ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг Ўзбекистон Республикасига келишлари, кетишлари, бу ерда бўлишлари ва транзит ўтишлари тартиби тўғрисида”ги 408-сон Қароридан мамлакатимизда туристларнинг келиб кетишига оид қуйидаги ҳолатларнинг ҳуқуқий-норматив асослари ишлаб чиқилди:

- Ўзбекистон Республикасига келиш ва республика ҳудудидан кетиш визаларини расмийлаштириш тартиби белгиланди;
- мамлакат ҳудудига келиш ва ундан кетиш ҳуқуқидаги чекловлар ўрнатилди;
- хорижий мамлакатларга кетиш ҳуқуқи рад этилганлиги устидан шикоят қилиш тартиб-қоидалари ишлаб чиқилди;
- хорижий фуқаролар автотранспорт воситаларини ҳисобга олиш ва рўйхатдан ўтказиш, чет эллик фуқароларнинг мамлакат ҳудудига ҳаракатланиши ва уларни мамлакат ҳудудидан муддатдан илгари чиқариб юбориш тартиб-қоидалари белгиланди;
- хорижий мамлакатлар фуқаролари, шунингдек фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг мамлакат ҳудуди орқали транзит ўтиши бўйича ҳуқуқий-норматив меъёрлар ишлаб чиқилди.²

Мамлакатимизда туризм соҳасининг ҳуқуқий-институционал асосларини ривожланишининг учинчи босқичи 2000-2005 йилларни ўз ичига олиб, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2005 йилгача бўлган даврда Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-2286-сонли Фармони доирасида амалга оширилди³. Мазкур босқич мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришда миллатлараро алоқаларни кенгайтириш, мамлакатимизнинг халқаро туризм бозорига интеграциялашуви, Ўзбекистоннинг маданий-тарихий ва маънавий меросини жаҳон ҳамжамиятида тарғиб қилиш билан бир қаторда, мамлакатимизга келадиган туристлар учун кўрсатиладиган туристик хизматларнинг сифатини тубдан такомиллаштириш босқичи бўлди.

Ўзбекистонда туризм соҳасини ривожланишининг тўртинчи босқичи 2006-2015 йилларни ўз ичига олиб, ушбу босқичда мамлакатимизда туристик хизматлар соҳасини ривожлантиришнинг миқдор ва сифат кўрсаткичларини такомиллаштириш, кўрсатиладиган туристик хизматларни жаҳон стандартлари асосида ишлаб чиқиш ва истеъмолчиларга етказиш усуллари амалиётга татбиқ этиш, республика, жумладан унинг ҳудудлари кесимида туризм соҳасини ривожлантириш салоҳиятидан фойдаланишга қаратилган чора-тадбирларга устуворлик қаратилди. Мазкур босқичда республика ва унинг ҳудудлари кесимида туризмни ривожлантириш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастурлари ишлаб чиқилиб, улар қаторига қуйидагиларни киритиш мумкин:

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28.12.2018 й. <http://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi>

²Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Хорижий фуқароларнинг ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг Ўзбекистон Республикасига келишлари, кетишлари, бу ерда бўлишлари ва транзит ўтишлари тартиби тўғрисида”ги 408-сон Қарори. 21.11.1996 й. <https://lex.uz/docs/512233>

³Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2005 йилгача бўлган даврда Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-2286-сонли Фармони, 15.04.1999 й. <https://lex.uz/docs/213701>

- Тошкент¹, Хоразм², Қашқадарё³, Сирдарё⁴ каби вилоятларда туризм солоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш бўйича ҳудудий дастурлар ишлаб чиқилди;

- республика ҳудудларида туристик жиҳатдан тарихий-маданий аҳамиятга молик бўлган моддий маданий мерос объектларини ва уларга туташ ҳудудларни сақлаш соҳасига ва уларнинг зарур ҳолатда бўлишини қўллаб-қувватлашга инвестициялар ва бюджетдан ташқари молиялаштириш ҳажми ортиб бориши учун шарт-шароитлар яратиш, ушбу объектлардан маданий-ўрганиш ва туризм мақсадларида кенгроқ ва самарали фойдаланишни таъминлаш, шу асосда ўзаро боғлиқ инфратузилма ва хизматлар соҳаси объектлари сонини кўпайтириш, қўшимча иш ўринлари яратиш, аҳоли даромадларини ошириш ва барча даражалардаги бюджетларни кўпайтириш каби чора-тадбирлар амалга оширилди;⁵

- туризм соҳаси инфратузилмаси, жумладан йўл ва йўлбўйи ҳудудларини ривожлантириш орқали туристик хизматлар сифати яхшиланди;⁶

- мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришнинг ҳуқуқий-институционал асослари такомиллаштирилди.⁷

2016 йилдан 2020 йилга, аниқроғи пандемия бошлангунга қадар бўлган муддатда мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришнинг бешинчи босқичи сифатида баҳоланиб, ушбу босқичда туризм соҳасини ривожлантиришни жаҳон стандартларига ўтказиш орқали мамлакатимизнинг халқаро туристик хизматлар бозорига интеграциялашуви жараёнларини чуқурлаштириш босқичи ҳисобланади. Шунингдек, ушбу босқичда қабул қилинган тегишли меъёрий ҳужжатлар асосида мамлакат иқтисодиётининг стратегик тармоғи сифатида туризмни жадал ривожлантириш учун қулай иқтисодий ва ташкилий-ҳуқуқий шарт-шароитлар яратиш, ҳудудларнинг улкан туризм соҳиятидан янада тўлиқ ва самарали фойдаланиш, туризм тармоғини бошқаришни тубдан такомиллаштириш, миллий туризм маҳсулотларини яратиш ва уларни жаҳон бозорларида тарғибот қилиш, туризм соҳасида Ўзбекистоннинг ижобий қиёфасини шакллантиришга қаратилган чора-тадбирлар тизими изчил амалга оширилиб келинмоқда. Ўрта муддатли истиқболда мамлакатимизда туризмни ривожлантириш бўйича устувор йўналишлар сифатида қуйидагилар белгилаб олинган:

- туризмни ривожлантиришнинг яхлит концепциясини шакллантириш ва изчил амалга ошириш, туризмга иқтисодиётнинг стратегик сектори мақомини бериш, ушбу соҳани барча ҳудудларни ва ўзаро боғлиқ тармоқларни комплекс равишда жадал ривожлантиришнинг етакчи кучига айланиши лозим бўлган иқтисодиётни диверсификациялаш, таркибий ўзгартириш ва барқарор ривожланишнинг қудратли воситасига айлантириш, яратиладиган ялпи ички маҳсулотда, маҳаллий бюджет даромадларида туризмнинг улушини кўпайтириш;

- туризм индустрияси субъектлари фаолияти учун қулай шарт-шароитларни шакллантиришга йўналтирилган туризм фаолияти соҳасидаги қонун ҳужжатларини ва норматив-ҳуқуқий базани янада такомиллаштириш, туризмнинг ривожланишидаги барча тўсиқ ва ғовларга барҳам бериш, виза ва рўйхатдан ўтказиш тартиб-таомилларини, паспорт ва божхона назоратини соддалаштириш, туризм соҳасини давлат томонидан бошқариш ва бозорга хос тарзда тартибга

¹Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2013-2015 йилларда Тошкент вилоятида туризм соҳасини ривожлантириш дастури тўғрисида”ги 259-сон Қарори, 20.09.2013 й. <https://lex.uz/docs/2239481>

²Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Хоразм вилоятида туристик инфратузилманинг қўшимча объектларини барпо этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 261-сон Қарори, 20.09.2013 й. <https://lex.uz/docs/2241069>

³Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2013-2015 йилларда Қашқадарё вилоятида туризм соҳасини ривожлантириш дастури тўғрисида”ги 294-сон Қарори, 01.11.2013 й. <https://lex.uz/docs/2261926>

⁴Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2015-2017 йилларда Сирдарё вилоятининг саноат соҳиятини янада ривожлантириш, замонавий хизмат кўрсатиш ва экотуризм объектларини барпо этиш дастури тўғрисида”ги 233-сон Қарори, 07.08.2015 й. <https://lex.uz/docs/2718287>

⁵Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Моддий маданий мерос объектларини ва уларга туташ ҳудудларни, уларни ободонлаштириш ва зарур ҳолатда сақлаш бўйича инвестиция мажбуриятлари олган ҳолда ижарага бериш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 53-сон Қарори, 06.03.2014 й. <https://lex.uz/docs/2352891>

⁶Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Йўл бўйи ва туризм инфратузилмасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 51-сон Қарори, 09.03.2015 й. <https://lex.uz/docs/2591263>

⁷Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида туризмни ривожлантиришнинг айрим масалалари тўғрисида”ги 53-сон Қарори, 10.03.2015 й. <https://lex.uz/docs/2591903>

солиш механизмини мақбуллаштириш, туризм соҳасида тадбиркорлик фаоллигини рағбатлантириш;

- туризм фаолияти соҳасида халқаро ҳамкорликни, биринчи навбатда, БМТнинг Бутунжаҳон туризм ташкилоти (UNWTO), хорижий мамлакатларнинг туризм бўйича нуфузли халқаро ва миллий ташкилотлари – туризм хизматлари минтақавий ва жаҳон бозорларининг фаол иштирокчилари билан ҳамкорликни кенгайтириш, Ўзбекистоннинг туризм соҳасида тартибга солувчи универсал халқаро конвенциялар ва битимлардаги иштироқи, туризм фаолияти амалиётига халқаро ва давлатларaro стандартлар ва нормаларни жорий этиш;

- республиканинг барча минтақаларида замонавий жаҳон стандартларига, туристларнинг эҳтиёжлари ва талабларига жавоб берадиган туризм индустрияси объектларини – меҳмонхоналарни ва жойлаштиришнинг шу каби воситаларини, умумий овқатланиш объектларини, транспорт-логистика тузилмаларини, ахборот марказларини, маданият ва спорт муассасаларини жадал ривожлантириш, асосий туризм йўналишлари бўйича йўл-транспорт ва муҳандислик-коммуникация инфратузилмасини, йўлбўйи инфратузилмасини жадал қуриш ва реконструкция қилиш, ушбу мақсадлар учун хорижий инвесторларни кенг жалб этиш;

- халқаро туризм ривожланиши тенденцияларини ва замонавий маркетинг воситалари қўлланилишини ҳисобга олган ҳолда, рақобатбардош туризм маҳсулотлари ва хизматларини ишлаб чиқиш, уларни ички ва халқаро туризм бозорларида тарғибот қилиш бўйича стратегияни ишлаб чиқиш, қулай туризм ахборот муҳитини ташкил этиш ва ривожлантириш, кенг реклама-ахборот фаолиятини амалга ошириш, мамлакат ҳудудларида туризм ахборот марказлари ва чет элда туризм ваколатхоналари очиш, интернет тармоғидан фаол фойдаланиш, ҳар йили Тошкент халқаро туризм ярмаркасини ўтказиш йўли билан туризм соҳасида мамлакатимизнинг ижобий қиёфасини шакллантириш ва ҳ.к.¹

Ушбу босқичнинг яна бир муҳим жиҳати Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси фаолияти йўлга қўйилганлиги ва унинг низоми тасдиқланганлигидадир². Шунингдек, мазкур босқичда мамлакатимизда туризм соҳасини ривожланишини тартибга солиб турувчи ягона меъёрий-ҳуқуқий асос, яъни, Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги Қонуни³ ишлаб чиқилди. Қонунда мамлакатимиз туризм соҳасига тегишли бўлган барча ижтимоий-иқтисодий муносабатларни тартибга солишнинг замонавий механизми ўз аксини тошган.

2020 йилнинг иккинчи ярим йиллигидан бошлаб жаҳонда, жумладан, мамлакатимизда жорий этилган “Лок-доун”нинг босқичма-босқич бекор қилиниши қатъий карантин чора-тадбирларини аста секинлик билан юмшатишга олиб келди (1-жадвалга қаранг). Бу эса 2021 йилдан мамлакатимизда туристик хизматлар кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг кейинги олтинчи босқичини бошлаш имконини берди Ушбу босқичда «Uzbekistan. Safe travel GUARANTEED (Ўзбекистон. Хавфсиз саёҳат кафолатланган)» тизими жорий этилди⁴. Шунингдек, ушбу босқичда мамлакатимизда туризм фаолиятини лицензиялаш тартиби тўғрисидаги низом тасдиқланди⁵.

Шунингдек, 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида ҳам ички ва ташқи туризмни ривожлантириш вазифаси белгиланган. Жумладан, “Ўзбекистон бўйлаб саёҳат қилинг” дастури доирасида маҳаллий сайёҳлар сонини 12 млн.дан, хорижий туристлар сонини эса 9 млн. нафарга етказиш, жумладан, туризм, транспорт, ахборот-

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4861-сон Фармони, 02.12.2016 й. <https://lex.uz/docs/3077025>

²Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги ПҚ-2666-сонли Қарори. 02.12.2016 й. <https://lex.uz/docs/3077301>

³Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги ЎРҚ-549 сонли Қонуни, 18.07.2019 й. <https://lex.uz/docs/-4428097>

⁴Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Туризм соҳасини санитария-эпидемиологик хавфсизликнинг кучайтирилган режими талабларига қатъий риоя қилган ҳолда ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4755-сонли Қарори. 19.06.2020 й. <https://lex.uz/docs/4862987>

⁵Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини тиклаш ва ривожлантириш учун қулай шарт-шароитларни яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 433-сон қарори. 10.07.2020 й. <https://lex.uz/docs/4930291>

коммуникация, дастурий таъминот ва шу каби бошқа хизматлар экспорти ҳажмини 1,7 баробарга ошириш устувор вазифаси белгиланган.¹

Амалга оширилган тадқиқотларимиз натижаларига асосланган ҳолда, Ўзбекистонда туризм индустрияси ривожланишининг олти босқичи ажратиб ўтилиб, уларнинг ҳуқуқий-институционал асослари 1-жадвалда келтириб ўтилди. Кейинги йилларда мамлакатимизда туристик хизматлар бозорини ривожланишининг ҳозирги босқичида қуйидаги чора-тадбирларни амалга оширишга устуворлик қаратиш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз:

- туристик хизматлар кўрсатиш соҳасини инновацион усулда ривожлантиришга қаратилган илмий тадқиқотларни амалга оширишни кенгайтириш ва уларни амалиётга тадбиқ этилишини таъминлаш;

- туристик хизматлар соҳасини ривожлантиришда илғор хорижий технологиялардан фойдаланишни рағбатлантириш;

- туризм соҳасини ривожлантиришда бозор иқтисодиёти тамойиллари асосида ишлаб чиқилган давлат хусусий шериклик механизмидан фойдаланиш;

- туризм инфратузилмасини модернизациялаш орқали туристик маҳсулот ва хизматлар сифатини такомиллаштириш;

- инновацион туристик маҳсулот ва хизматлар ишлаб чиқаришни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш;

- мамлакат иқтисодиётида туризм соҳасининг ўрнини мустаҳкамлаш ва ушбу соҳанинг ЯИМ ҳажмидаги улушини ошириш;

Фикримизча, юқорида билдирилган таклифлар асосида кейинги йилларда туризм соҳасини ривожлантириш узоқ муддатли истиқболда мамлакат туризм индустриясининг барқарор ривожланишига эришиш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ““Ўзбектуризм” Миллий Компаниясини ташкил қилиш тўғрисида”ги ПФ-447-сон Фармони, 27.07.1992 й. <https://lex.uz/docs/223878>

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Буюк ипак йўлини қайта тиклашда Ўзбекистон Республикаси иштирокини авж олдириш ва республикада халқаро туризмни ривожлантириш борасидаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-1162-сон Фармони. 02.06.1995 й. <https://lex.uz/docs/182051>

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Вазирлар Маҳкамасининг ““Ўзбектуризм” Миллий компанияси фаолиятини ташкил этиш масалалари тўғрисида”ги 484-сон қарори, 20.10.1992 й. <https://lex.uz/docs/514856>

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида халқаро туризмнинг замонавий инфраструктурасини барпо этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 210-сон қарори. 03.06.1995 й. <https://lex.uz/docs/428924>

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Сайёҳлик ташкилотлари фаолиятини ташкил этишни такомиллаштириш тўғрисида”ги 346-сон Қарори, 08.08.1998 й. <https://lex.uz/docs/838278>

6. Ўзбекистон республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида маданий бойликларнинг олиб чиқилиши ва кирилиши масалаларини тартибга солиш тўғрисида”ги 131-сон Қарори, 23.03.1999 й. <https://lex.uz/docs/279299>

7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистонда туризм соҳаси учун кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 324-сон Қарори, 02.07.1999 й. <https://lex.uz/docs/594014>

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2005 йилгача бўлган даврда Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-2286-сонли Фармони, 15.04.1999 й. <https://lex.uz/docs/213701>

9. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида мехмонхона бизнеси ва халқаро туризмни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 310-сон Қарори, 02.09.2002 й. <https://lex.uz/docs/563971>

10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Кичик тадбиркорлик (бизнес) субъектларига тегишли бўлган корхоналар ва ташкилотлар классификациясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 439-сон Қарори, 11.10.2003 й. <https://lex.uz/docs/246538>

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони. 28.01.2022 й. <https://lex.uz/docs/5841063>

11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ““Ўзбектуризм” миллий компанияси фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 360-сон Қарори, 28.07.2004 й. <https://lex.uz/docs/344658>
12. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Халқаро шартномани тасдиқлаш тўғрисида”ги 491-сон Қарори, 21.10.2004 й <https://lex.uz/docs/866186>
13. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2013-2015 йилларда Тошкент вилоятида туризм соҳасини ривожлантириш дастури тўғрисида”ги 259-сон Қарори, 20.09.2013 й. <https://lex.uz/docs/2239481>
14. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Хоразм вилоятида туристик инфратузилманинг қўшимча объектларини барпо этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 261-сон Қарори, 20.09.2013 й. <https://lex.uz/docs/2241069>
15. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2013-2015 йилларда Қашқадарё вилоятида туризм соҳасини ривожлантириш дастури тўғрисида”ги 294-сон Қарори, 01.11.2013 й. <https://lex.uz/docs/2261926>
16. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Моддий маданий мерос объектларини ва уларга туташ ҳудудларни, уларни ободонлаштириш ва зарур ҳолатда сақлаш бўйича инвестиция мажбуриятлари олган ҳолда ижарага бериш тартиби тўғрисидаги Низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 53-сон Қарори. 06.03.2014 й. <https://lex.uz/docs/2352891>
17. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Йўл бўйи ва туризм инфратузилмасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 51-сон Қарори. 09.03.2015 й. <https://lex.uz/docs/2591263>
18. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида туризмни ривожлантиришнинг айрим масалалари тўғрисида”ги 53-сон Қарори. 10.03.2015 й. <https://lex.uz/docs/2591903>

WELLNESS TURIZMI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Alimova Shaxnoza Oktyamovna

O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi “Madaniy meros obyektlari muammolarini o‘rganish va turizmni rivojlantirish” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti, Toshkent sh, O‘zbekiston.

Tel: +99890 745 27 67

Email: shakinoza.27@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada COVID-19 bilan bog'liq muammolardan so'ng wellness turizmga talab ko'payib, mehmonxonalarda wellness xizmatlari joriy etilishi yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Wellness turizm, qattiq wellness, yumshoq wellness, spa xizmatlari, mehmonxona zanjirlari.

COVID-19 bilan bog'liq muammolardan so'ng, sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan yangi turizm turlari xususan wellness turizm eng yaxshi tanlovga ega bo'ladi. COVID-19, shak-shubhasiz, bir qancha global buzilishlarni keltirib chiqardi, ayniqsa mehmondo'stlik sanoatida buni salbiy ta'siri beqiyosdir. Shunga qaramay, o'zgarishlar bilan birga imkoniyat va inqirozdan qanday qilib kuchliroq va chidamliroq chiqishni qayta ko'rib chiqish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu borada wellness turizm eng maqbul yechim bo'lib, hozirgi kunda wellness turizm sayohatchilari soni kun sayin ortib borayotganini sezish mumkin.

Wellness turizm bu - sayohat davomiyligi bo'yicha eng qisqa, kam xarajat, salomatlikni qo'llab-quvvatlash va ruhiy tiklanish, stressdan xalos bo'lish, aql va tananing uyg'un yangi holatiga erishish, insonning salomatligi va farovonligini yaxshilash kabi ehtiyojlarini qondiradigan turizm turidir.

Jahon turizm assotsiatsiyasi tomonidan o'tkazilgan 48 mamlakat va uning sog'lomlashtirish hududlarini qamrab olgan iste'molchilar so'rovi natijalariga ko'ra, 24% dan ortig'i "keyingi ikki yil ichida wellness ta'tilini oldindan band qilish ehtimoli juda katta" va 78% allaqachon sayohat paytida o'z marshrutlariga sog'lom turmush tarzini tanlab harakatni boshlaganlar. [2]

Butun dunyo bo'ylab odamlar sog'lik va farovonlikka ko'proq e'tibor qaratganligi sababli, dam olish va sog'lomlikka yo'naltirilgan turizm turlari mehmonxona tajribasida ham dolzarb masalaga aylandi.

Jahon mehmondo'stlik sanoatida turizmni rivojlantirish borasida asosiy urg'uni mintaqadagi wellness imkoniyatlar mavjudligini kuchaytirish uchun hamkorlik, qo'shilish va sotib olish kabi strategiyalarni qabul qilmoqdalar. Masalan, 2022 yil may oyida Hilton CKR Resort bilan Hilton Hyderabad Resort & Spa brendini ishga tushirish bo'yicha shartnoma imzolaganini e'lon qilindi. Xuddi shunday, OneSpaWorld, kruiz kemalari va dam olish maskanlari uchun salomatlik va wellness xizmatlari dasturlari,

2019-yil mart oyida OneSpaWorld Holdings MCHJ nomi bilan tanilgan yangi holding kompaniyasini tashkil etish uchun Haymaker Acquisition Corp. kompaniyasi bilan hamkorlikni e'lon qildi. [5] Jahon wellness turizmi bozorining taniqli mehmonxonalarga ro'yxatida quyidagilar kiradi:

- Hilton mehmonxonalari;
- Accor mehmonxonalari;
- Hyatt Korporatsiyasi;
- Rancho La Puerta mehmonxonasi;
- Xalqaro Marriot mehmonxona zanjirlari;
- Rosewood mehmonxonalar guruhi;
- Niraamaya Wellness dam olish maskani;
- InterContinental mehmonxonalar guruhi;
- Omni mehmonxona va kurortlari;
- Radisson mehmonxonalar zanjiri;
- Four Seasons mehmonxonalari.

Ko'pgina mehmonxonalar hozirgi kunda wellness turizmga xos bo'lgan spa salonlari orqali wellness xizmatlarini taklif etmoqda [4]. Wellness xizmatlarini taklif etish uchun aksariyat mehmonxonalarda sport zallari, yoga mashg'ulot xonalari, sog'lom ovqatlanish uchun maxsus restoranlar, hammom va saunalar, massaj xonalari, tuz va har xil mineral suvlar bilan gidroterapiya o'tkazish uchun maxsus qo'shimcha xonalarni zamon talab etmoqda. Xususan, CNN (Cable News Network) yaqinda xabar berishicha, Uyquga yo'naltirilgan dam olish xizmati dunyo mehmonxonalari bo'ylab va dam olish maskanlarida paydo bo'lmoqda va pandemiyadan keyin bu xizmatga qiziqish keskin oshdi, bir qator yuqori darajada xizmat ko'rsatuvchi muassasalar e'tiborini uyqudan mahrum bo'lganlarga qaratdi, jumladan zanjir mehmonxonalar tarkibida bo'lgan Park Hyatt va Rosewood mehmonxonalari buning tasdig'idir.

Mehmonxonalarda wellness xizmatlarini ikki guruhga bo'lish mumkin. Ular: qattiq va yumshoq guruhlar[1].

1-jadval. Mehmonxonalarda wellness xizmatlari guruhi

Qattiq wellness (Hard wellness)	Yumshoq wellness (Soft wellness)
Davolovchi maxsus xonalar	Wellness mashg'ulotlari(yoga xonalari, yengil yugurish zallari)
	Mahsulotlar tanlovi (spa xonalari, nomerlar)
Go'zallik klinikalari va salonlari	Atrof-muhit muhofazasi (chiqindi,suvni qayta ishlash)
	Jismoniy muhit (havo, temperatura, tabiiy yorug'lik)
Sport zallar	Sog'lom va parhez taomlar
	O'z-o'zini parvarish qilish (wellness kurslarga qatnashish, aqliy sog'lomlik,yoga anjomlari)
Spa xonalari (jakuzi, basseyn, gidroteriya, sauna, hammom)	Ijtimoiy aloqalar (mehmonlar va mahalliy aholi bilan aloqada turish uchun shart-sharoitlar yaratish)

Manba: <https://www.avisonyoung.com/documents/>

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, qattiq wellness guruhiga ushbu xizmatlarni tashkil etuvchi negiz ya'ni joy belgilanishi muhim bo'lib, yumshoq wellness guruhiga sahhoylar hamda mehmonxona xodimlari uchun qulay bo'lgan shart-sharoit nazarda tutilgan. Agarda shu ikkala guruh elementlarini mehmonxonalar o'zida mujassam eta olsa, uning wellness dunyosi mijozlari ko'payishi, daromadlarning oshishiga olib kelishi olimlar tomonidan tasdiqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eva Csirmaz, Karoly Peto, University of Debrecen, Faculty of Economics and Business Administration, Hungary, "International trends in recreational and wellness tourism", Procedia Economics and Finance 32 (2015) 755 – 762
2. Mauro Dini and Tonino Pencarelli, Department of Economics, Social and Political Studies, University of Urbino Carlo Bo, Urbino, Italy, Wellness tourism and the components of its offer system: a holistic perspective, *Tourism Review* 77(2), 394-412pp 2022, DOI 10.1108/TR-08-2020-0373
3. Siripan Deesilatham and Sameer Hosany, School of Management Royal Holloway, University of London, Wellness Tourism and Quality of life: Motivations, Constraints, Lifestyles and Satisfaction, Travel and Tourism Research Association: Advancing Tourism Research Globally (12), 2016

4. <https://globalwellnessinstitute.org/> Global Wellness Institute
5. <https://www.researchandmarkets.com/reports/5669159/wellness-tourism-global-market-report-2022> Wellness Tourism research market report 2022
6. <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/wellness-tourism-market> Grand view research

BUXORO DESTINASIYALARIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TUROPERATORLAR FAOLIYATI TAHLILI

Ashurova Maftuna Sharifovna

Buxoro davlat universiteti, turizm (faoliyat turlari bo‘yicha) mutaxassisligining 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Turizm sohasidagi pandemiyadan keyingi inqiroz sharoitida turizm tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash eng muhim vazifa hisoblanadi. Buxoro mintaqasining turizm sanoati iqtisodiyotning istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylanmoqda, lekin ayni paytda u muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Taklif etilayotgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida turizm industriyasi korxonalarining moliyaviy barqarorligi ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin, bu esa o‘z navbatida turizm industriyasining rivojlanishiga ham, mintaqa iqtisodiyotiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: turoperator, turistik salohiyat, turistik mahsulot, turistik xizmatlar, Buxoro turistik destinasiyasi.

Buxoro azaldan dunyoning turli burchaklaridan o‘zining tarixiy, madaniy turistik resurslari bilan turistlarni jalb qiluvchi destinasiyalarga boy mintaqa sanalgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi “2017-2019 yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turistik salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [1] hamda 2017 yil 16 avgustdagi “2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [2] qarorlari hududda turizm sohasini yanada rivojlantirish mezonini bo‘lib xizmat qildi. Statistik ma‘lumotlardan ma‘lum bo‘lishicha, 2022 yil avgust holatiga ko‘ra, viloyatga tashrif buyurgan jami sayyohlar soni 2 313 554 nafarni (o‘tgan yilga nisbatan 1,8 baravar), shundan mahalliy sayyohlar soni 1 949 998 (o‘tgan yilga nisbatan 1,2 baravar) nafar, xorijiy turistlar 363 556 (o‘tgan yilga nisbatan 1,9 baravar) nafarni tashkil yetgan (2.3.1-jadval). 2018-2022 yillar orasida Buxoro destinasiyalariga turistik kompaniyalar orqali va Individual tartibda kelgan sayyohlar statistikasini quyidagi grafikda ko‘rishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan tahlillarni inobatga olgan holda Buxoro destinasiyalari turistik operatorlar faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish taklif qilgan bo‘lardik:

- viloyatning malakali ishchi kuchi va ilmiy salohiyatini shakllantirish, ya‘ni. turizm uchun kadrlar tayyorlashning uch bosqichli tizimini joriy etish: ilmiy salohiyatni shakllantirish (aspirantura); turizm menejerlarini tayyorlash (oliy ta‘lim); o‘quv yo‘riqnomalari, tarjimonlar, gidlar (o‘rta kasb-hunar ta‘limi);
- turizm xizmatlarining yuqori narxini qoplaydigan noyob turistik mahsulotlarni taklif etish;
- sayyohlik loyihalarini moliyalashtirish, turizm sohasidagi qonunchilik bazasini yaratish, turizmni boshqarishning dasturiy-maqсадli usullarini yaratish orqali turizmni mintaqaviy darajada faol qo‘llab-quvvatlash;
- mintaqaviy turizmning ichki tizimini rivojlantirish va mahalliy aholini jalb qilish orqali turistlar oqimini ko‘paytirish;
- ekologik va ekstremal turizm turlarini rivojlantirish, shuningdek, Buxoro viloyatini turizmning qishki turlariga yo‘naltirish asosida mintaqaviy turizmning zamonaviy tizimini shakllantirish uchun tabiiy va rekreatsion salohiyatdan foydalanish;
- mintaqaga qo‘shimcha turistlarni jalb qilish uchun turizmning qo‘shimcha turlaridan (masalan, ovchilik, rafting va boshqalar) foydalanish, shuningdek, turizmning ko‘p yo‘nalishli turlari (masalan, ovchilik) bilan xizmatlarning turistik paketlarini shakllantirish.
- viloyatga sayyohlar oqimini ko‘paytirish maqsadida xususiy va davlat investitsiyalarini jalb qilish asosida zamonaviy mehmondo‘stlik sanoati va turizmning moddiy bazasini shakllantirish;
- xizmatlar sifatini oshirish, turizmning noyob turlarini taklif etish, shuningdek, viza va bojxona rasmiyatchiligini soddalashtirish orqali chet ellik sayyohlarni hududga jalb etish;
- boshqa hududlarga nisbatan raqobatdosh ustunliklarni mustahkamlash maqsadida “Turoperatorlar uyushmasi”ni tashkil etish;
- Buxoro viloyatini "ekologik toza mintaqa" sifatida joylashtirish;

- qonunchilik bazasini ishlab chiqish, turoperatorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, Muvofiqlashtiruvchi kengashlarni tashkil etish orqali hududda faol turizm siyosatini shakllantirish;

- bozor segmentatsiyasining rolini oshirish (yangi ichki hududiy turizm segmentlarining paydo bo'lishi, sayohat masofalarining ko'payishi, dam olish shakllarining xilma-xilligi, tashkil etilgan turizm makonida turizmni rivojlantirishning diversifikatsiyasini oshirish va boshqalar);

- turizm va monopollashtirish jarayonlarida faoliyatni muvofiqlashtirish rolini oshirish (gorizontal integratsiyani kuchaytirish, ya'ni yirik firmalarning o'rta va kichik biznes bilan hamkorlikni o'sishi, strategik turizm ittifoqlarini yaratish orqali vertikal integratsiya va boshqalar);

- rivojlangan turizm mahsulotlarini targ'ib qilish, reklama qilish va sotishda ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan aloqalar rolini oshirish;

- turizm kadrlar rolini oshirish (xodimlar sonini ko'paytirish, kasbiy malaka tuzilmasini ishlab chiqish, kasbiy tayyorgarlikning ahamiyatini oshirish, mehnatni tashkil etishni takomillashtirish va boshqalar);

- xususiy turizm biznesining rolini oshirish (bozorda cheklangan miqdordagi yirik transmilliy operatorlar va katta miqdordagi kichik biznes sub'ektlari faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish, professional marketing asosida turistik mahsulotlarni samarali sotish, bu esa xodimlarni malakasini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi);

- zamonaviy axborot texnologiyalari orqali hududda mavjud turistik mahsulotlar haqidagi ma'lumotlarni tarqatish.

Turizm xizmatlarini ilgari surishning eng samarali vositasi onlayn vositalardir. Shu bilan birga, ma'lumotlilik, ishonchlilik va jozibali rasm marketing va reklama xabarlarini uchun eng yaxshi mezon bo'lib qolmoqda. Nemis sayyohlari turistik marshrutni tanlashda asosan ma'lumot beruvchi reklamalarga (51%), jozibali rasmi reklamalarga (48%) va kamroq darajada foydali sharhlarni o'z ichiga olgan reklamalarga (32%) ishonadilar[3]. Nemislarning 49% boshqa sayohatchilarning onlayn sayohat tavsiyalariga ishonishadi[4]. Shunga muvofiq tarzda Buxoro destinasiyalarida faoliyat yuritayotgan turoperatorlar faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- potentsial sheriklar va biznes mijozlarni turmahsulotlariga qiziqtirish, potentsial mijozlar bilan aloqa o'rnatish uchun sanoat forumlari saytlarida ko'rgazma tadbirlarida ishtirok etish;

- turoperatorlar hamkorlar, yetkazib beruvchilar, mijozlar topishlari mumkin bo'lgan sanoat biznes birlashmalari bilan hamkorlik qilishi;

- turizmning turli sohalarida qo'shma mahsulotlar yaratish;

- turizm sohasida xalqaro standartlarni joriy etishda yordam olishi;

- onlayn reklama uchun mashhur raqamli platformalardan foydalanish;

- turmahsulotning reklama qilish mazmuniga e'tibor berishi. Turistik mahsulot reklamasi ishonchli va to'liq ma'lumotni (masalan, ekskursiyaning narxi, davomiyligi, attraksionning shahardan uzoqligi haqida) o'z ichiga olishi hamda 3-4 tildagi rang-barang fotosuratlar va videoroliklar bilan birga bo'lishi kerak;

- o'zlarining rasmiy veb-sahifalarida, ijtimoiy tarmoqlarda yashash imkoniyatlari va shartlari (narxini ko'rsatgan holda), ovqatlanish (masalan, restoranning mavjudligi va hajmi), qo'shimcha xizmatlar haqida ma'lumot berish;

- noyob axborot mahsulotini yaratish, masalan, Buxoro destinasiyalariga tashriflar taqvimini, sayohatchilar uchun tematik amaliy qo'llanmalar va boshqalar yaratish kabi tadbirlar.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida turizmning rivojlanishi muvaffaqiyatini bevosita davlat yordamiga bog'liq. Bir qancha mamlakatlarda ishlab chiqilgan kirish turizmini rag'batlantirish bo'yicha davlat dasturlari nazarda tutilgan soliqqa tortishda imtiyozlar, chegara va bojxona rejimini soddalashtirish, investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mahalliy tadbirkorlar uchun imtiyozli kreditlar va kreditlar berish byudjet mablag'larini ko'paytirish, infratuzilmani rivojlantirish, tashqi bozorlarda reklama, kadrlar tayyorlash kabi masalalarda davlat ko'maklashib boradi.

Bundan tashqari, shuni ta'kidlash kerakki, bu choralar nafaqat mehmonxonalarga, turizm firmalari va byurolariga, shuningdek, boshqa turizm infratuzilma korxonalariga: maxsus mavzuli istirohat bog'lari, etnografik ko'rgazma muzeylari va boshqalarga ko'rsatiladi. Barcha qilingan tadbirlar ko'p miqdorda turistlarni jalb qilgan holda turistik xizmatlar eksportini sezilarli darajada chet ellik sayyohlar sonini oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-3577062>

2. <https://lex.uz/docs/-3311817?ONDATE=17.08.2017>

3. https://info.advertising.expedia.com/hubfs/2018_LP_ASSETS/images/Rebrand-018/European_Travel_Trends_2017_LookInside3.png
4. <https://ftnnews.com/tours/41207-german-travel-trends-2020-2021https://www.thedubrovniktimes.com/news/croatia/item/10847-trends-of-german-travellers-in-2021-safety-and-hygiene-measures-are-basic-prerequisites-for-travel>

BUXORO VILOYATIDAGI DIQQATGA SAZOVOR JOYLARGA TRANSPORT XIZMATLARI VA HARAKATCHANLIGI TAHLILI

Axmatova Mohigul Ergash qizi

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

m.e.axmatova@buxdu.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada Buxoro viloyatida mavjud bo‘lgan barcha tarixiy obidalarini o‘rganish va ular bo‘ylab sayohatlarni tez va qulay imkoniyatlar bilan tashkil etish, mavjud transport turlarini o‘rganib chiqish bo‘yicha ma‘lumotlar kiritilgan. Shuningdek buxoro viloyatida transport xizmatlarining turizmdagi ta‘sirini, uning afzalliklari va kamchilik tomonlarini ko‘rib chiqamiz. Chunki turizm industriyasini transportsiz tasavvur etib bo‘lmaydi, ya‘ni transport tizimining yetarli infratuzilmasiga ega bo‘lganligi xorijdan kelgan aholining ehtiyojlarini qondirishning asosiy omili hisoblanadi. Shuningdek, sayyohlik yo‘nalishlaridagi transport xizmatlarining bugungi holati, mavjud asosiy transport vositalari tahlil qilinib, bugungi kunda sohadagi mavjud afzalliklar va kamchilik tomonlarini bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar, takliflar va samarali yechimlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro, turizm sohasi, transport xizmatlari, transport turlari

Kirish

Transport xizmatlari - turizm sohasidagi xizmatlarning asosiy turlaridan biri. Ular turdagi ulushning asosiy ulushini hisobga oladi. Davomiyligi, sayohat masofasiga qarab, u (aksariyat hollarda) 20 dan 60% gacha. Tashkilotlar tomonidan sayohat paytida sayyohlarni tashish uchun qo‘llaniladi. [1]

Buxoro viloyati turizm salohiyatini yanada oshirish, betakror tarixiy-madaniy va me‘moriy meros obyektlari bilan sayyohlarni keng tanishtirish maqsadida ko‘plab imkoniyatlar yaratish va vohada turizm infratuzilmasining jadallik bilan rivojlantirishni ta‘minlash, zamonaviy talablarga muvofiq ko‘rsatilayotgan turizm, mehmonxona va transport xizmatlari ro‘yxatini kengaytirish va sifatini oshirish maqsadida davlat dasturi ishlab chiqilganligi (2022 — 2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish dasturi) shu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish sari tashlangan muhim qaror bo‘ldi. [2] Mazkur qarorlarga muvofiq, viloyatga tashrif buyurayotgan chet ellik turistlar va mahalliy sayyohlarga qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek ularga ko‘rsatilayotgan servis xizmatlari sifatini yanada yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Bugungi kunda turizm sohasi yangi iqtisodiy tarmoqlardan eng muhimi bo‘lib qolmoqda. Jahon mamlakatlarida keskin rivojlanib borayotgan turizm sohasi hudud iqtisodiyotida eng serdaromad faoliyat turi hisoblanadi. Shu sababli O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan masala sifatida qaraladi. Turizm bozorining xalqaro rivoji o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bugungi kunda bu bozor munosabatlarini bilish, turizmni rivojlantirish muammolarini to‘g‘ri aniqlashni talab qiladi.

Maqsad va vazifasi

Mintaqamizda sayyohlik sohasini izchil rivojlantirish, turizm industriyasi va infratuzilmasini yanada takomillashtirish mamlakat iqtisodiyoti oldiga muhim vazifalar bo‘lib, transport infratuzilmasini rivojlantirish ularning eng asosiysi sifatida qaraladi. Turizm sohasining rivojlanishi xorijiy sayyohlar oqimining ko‘payishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida to‘lov balansi va xizmatlar eksporti kabi ko‘rsatkichlarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, aholi bandligini oshirishga yordam beradi va xizmatlar asosiy omil hisoblanadi.

2022-yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko‘ra transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **53,8%** ni tashkil etdi. Havo transporti orqali ko‘rsatilgan yuk va yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha xizmatlarning ulushi **13,8%**. O‘z navbatida, transport xizmatlari umumiy hajmida temir yo‘l transporti orqali ko‘rsatilgan xizmatlar **11,6%** ga yetdi. Transport xizmatlarida quvur yo‘li orqali ko‘rsatilgan transport xizmatlarining hajmi **11,1%** ni tashkil etdi. Yordamchi transport faoliyati esa – **9,7%** ko‘rsatkich qayd etildi.[3]

Bugungi kunda uch ming yillik tarixga ega Buxoro vohasi ajdodlardan qolgan boy madaniy merosi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Ayni vaqtda viloyatimizdagi 829 ta moddiy va madaniy meros obyekti, jumladan, 507 ta me‘moriy obida, 287 ta arxeologik yodgorlik, 17 ta monumental san‘at namunasi va 18 ta diqqatga sazovor joylar davlat muhofazasiga olingan. Hududga tashrif buyurayotgan sayyohlar qisqa muddatda yuqorida sanab o‘tilgan obyektlarga sayohat qilishni xohlaydilar. Sayohatlarni tashkil

etishda asosiy xizmatlardan biri bo'lgan transportga e'tibor yildan yilga ortib bormoqda. Bu imkoniyatlar ayniqsa iqtisodimiz uchun bevosita va bilvosita ishlab chiqarish, transport, infratuzilma, turizm sohalarida minglab ish o'rinlari yaratishi mumkin.

Buxoro viloyatida mavjud transport turlarining tavsifi

Transport turi	Afzalliklari	Kamchiliklari
Temir yo'l	Iqlim sharoitidan mustaqilligi, yuqori tarmoq kengligi. Aholini va sayyohlarni tashishning yuqori muntazamligi. Uzoq masofalarga yo'lovchilarni manziliga tezkor yetkazish	Hozirgi kunda yo'lovchi joylarining cheklanganligi
Havo yo'lari	Aholini va sayyohlarni manziliga yetkazishning eng yuqori tezligi va yuqori ishonchlilik.	Boshqa transport turlariga qaraganda eng yuqori narxlar
Avtomobil	Yuqori mavjudlik, eshikdan eshikgacha yetkazib berish.	Ob-havo va yo'l sharoitlariga xizmat sifati va narxining o'zgarib turishi

Shunday qilib, taqdim etilgan tasniflash orqali Buxoro viloyatida tashkil etilgan transport xizmatlarining afzalliklari va kamchilik tomonlarini ko'rishimiz mumkin. Havo transportlari, avtobuslar, taksilar, poyezdlar va mikroavtobuslar mahalliy foydalanuvchilar va mehmonlar tomonidan ko'p foydalanadigan asosiy transport vositalaridir.

Xulosa. Turli davlatlardan tashrif buyuruvchilarni jalb qilishda mos transport infratuzilmasi muhim rol o'ynaydi, chunki barcha tashrif buyuruvchilar bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tganda tez harakatlanadigan va qulay imkoniyatlarga ega transport turidan foydalanishni xohlaydi, bu esa ularga qisqa muddatda uzoq masofani bosib o'tish imkoniyatini beradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlar yaqin kelajakda muvofiqlashtirish va transport sohasida ham ijobiy ta'sir ko'rsatishiga shubha yo'q. Chunki rivojlanayotgan iqtisodiyotning yuki asosiy xizmatlardan biri bo'lgan transportga tushadi. Transport xizmatini yaxshilash uchun hududda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, transport infratuzilmasini yaxshilash, taklif etilayotgan transport turlarini va sonini orttirish asosiy maqsadlardan biri sifatida qolmoqda. Mustaqil sayohatga chiquvchilar va mahalliy sayyohlar uchun vertual sayohat tizimini takomillashtirish, diqqatga sazovor joylarga olib boradigan yo'llar ta'mir talabligi tufayli yo'llarni rekonstruksiya qilish tartibini ishlab chiqish turizmni rivojlantirishga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xabibulloxoji M. A., Sharipova S.X., Sobirova M.I., To'xtasinova Sh. "Turizm sohasidagi transport xizmatlarining ahamiyati" science and innovation international scientific journal volume 1 issue 5 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi
4. Stephen J. Page. Transport and tourism. Global perspectives. 3rd edition, London: Pearson education Ltd. 2009. - 447 c.
5. Allayarov S.F. "The role of transport services in tourism industry of the regions". Journal of political economy, 1990. volume 98
6. Axmatova M.E. "Organization of transport service in tourism" // international journal of inclusive and sustainable education. – 2022. – T. 1. – №. 4. – c. 51-53.
7. Hamroyev H.R. Axmatova M.E. The role of innovative technologies in improving the quality of transport services //World Bulletin of Management and Law. – 2021. – T. 3. – c. 4-8.

**MINTAQADA TURIZMNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA KADRLAR
MALAKASINI OSHIRISH MASALALARI**

Kadirova Shafolat Xabibulloyevna

Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasini o‘qituvchisi

Zokirova Manzura Iloxomovna

1-bosqich magistranti

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Tezisdagi turizm sohasidagi kadrlar malakasini oshirish orqali mintaqada turizmni barqaror rivojlantirish imkoniyatlari keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kadrlar tayyorlash, kadrlar malakasini oshirish, kasbiy tayyorgarlik, turizm sohasi, xizmat sifati

Hozirga kelib, turizm sohasidagi asosiy vazifalardan biri bu ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishdan iborat. Chunki zamonaviy bozor sharoitida turistik xizmatlar sifatiga xodimlarning ishlash funksiyalari samaradorligi sezilarli darajada ta‘sir qiladi. Ushbu funksiyalarning muvaffaqiyatli bajarilishi turistik korxonalar xodimlarining malakasi va kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog‘liq bo‘lmoqda. Shularni inobatga olgan holda, bizning turizm bozorimizda ham hozirgi vaqtda kelib, juda ko‘plab turistik firmalar va mehmonxonalar uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish alohida ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Turizm bozorida xalqaro raqobat va globallashtirish kuchayishi sharoitida bu yo‘nalsishda uzluksiz kasbiy ta‘lim va kadrlar tayyorlash milliy tizimlarini shakllantirish zarur. Bunday tizimlarni yaratish va rivojlantirishning muhim sharti nafaqat davlat ta‘lim muassasalari, balki bilimlar bazasini shakllantirish sharoitida turizm korxonalarini (turistik firma, mehmonxona, gid-ekskursiya va transport korxonalarini) ham faol ishtirok etishi zarur hisoblanadi. Ya‘ni bu korxonalar kadrlarini kasbga tayyorlash va malakasini oshirish jarayoniga jiddiy yondashishi va bosqichma-bosqich yaxshilashi zarur hisoblanadi [1].

Shuningdek sayyohlik tashkilotlarining eng asosiy majburiyatlaridan biri bu inson resurslari malakasini oshirish ya‘ni kadrlar tayyorlash jarayoni hisoblanadi. Chunki turfirmalar yoki agentliklar oldida birinchi navbatda yangi ishlab chiqarish funksiyalari va rasmiy vazifalarni bajarishda xodimlarni tayyorlash jarayoni muhim rol o‘ynaydi.

Har qanday xizmat ko‘rsatish tizimida professional kasbiy ta‘lim uzluksiz jarayondir. Chunki xodim uchun kasbiy malaka oshirish sinov davridan boshlanadi va turizm tashkilotlarida ishlashdan keyin ham davom etadi. Masalan, F.Kotler fikricha savdo bo‘limi xodimlari muntazam ravishda quyidagi turdagi treninglarda qatnashib malaka oshirishlari nazarda tutiladi:

1-chizma

Savdo bo'limida malaka oshirish kurslari		
mahsulot va xizmatlarni sotish bo'yicha treninglar	savdoni tashkil etish va rejalashtirish bo'yicha treninglar	sotish texnologiyasi bo'yicha treninglar

Yuqorida ko‘rsatilgan jadvalni tahlil qiladigan bo‘lsak, hozirgi kunda yangi texnologiyalar kirib kelishi turizm va mehmonxona sanoatining jadal rivojlanishiga olib keldi. Turistik mahsulotlarni rezervatsiya qilish, transport vositalari tizimidagi o‘zgarishlar va shunga mos ravishda boshqaruv va texnik xizmat ko‘rsatish ham o‘zgarib kelmoqda. Shu sababli mahsulot va xizmatlarni sotish bo‘yicha treninglardan o‘tish muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shuningdek turistik mahsulotlarni sotishda tashkiliy va rejalashtirilgan strategiya bo‘yicha ishlash muhim rol o‘ynaydi, menejning firma siyosatidan aniq xabardor bo‘lmasligi uning rivojlanish strategiyasiga mo‘noli qiladi

Kadrlarni rivojlantirishda aniqlangan ehtiyojlarni tahlil qilish asosida o‘qitishning aniq maqsadlarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuni inobatga olish kerakki, malaka oshirish va qayta tayyorlanish bevosita motivatsiya bilan bog‘liq. Bir tomondan, o‘qitish va malaka oshirishning o‘zi rag‘batlantiruvchi omillar hisoblanadi. Chunki kadrlar o‘z malakasini oshirishi va boyitishi insonga o‘shirish, ijodkorlik, tur xizmatlarni ko‘rsatish sifatini nazorat qilish imkonini beradigan qismi bilan ta‘minlashni

nazarda tutadi [2]. Boshqa tomondan, xodimlarni o'qitish va rivojlantirishni ham rag'batlantirilishi kerak. Turizm tashkilotlarida kadrlar tayyorlashni tashkil etishga bir qator omillar to'sqinlik qiladi. Birinchidan, rahbarlar ko'pincha bu sohaga sarmoya kiritishni istamaydilar. Buning sababi shundaki, ushbu investitsiyalar samaradorligini miqdoriy va sifat nuqtai nazaridan baholash qiyin, lekin xarajatlarga nisbatan hisoblash oson. Ikkinchidan, kadrlar tayyorlash jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, buning natijasida real natijalarga erishiladi, ya'ni butun korxonada faoliyati yaxshilanadi.

Shu bilan birga kadrlarni tayyorlashda o'quv dasturlari taqdim etilayotgan xizmatlar sifatining yuqori darajasiga bo'lgan ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lishi kerak. Chunki butun dunyo bo'ylab turizm sanoatida qo'llaniladigan o'quv dasturlar xizmat sifatining yuqori darajasini saqlab turishga yordam beradi, bunday dasturlar korporativ standartlarning ahamiyatini va ularning turistlar qoniqishining o'sishi bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlash uchun mo'ljallangan. Ko'pgina turistik tashkilotlarning standartlari xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, ochiqko'ngil, do'stona, yoqimli ko'rinishga ega bo'lishi, jamoada ishlashga qodir bo'lishi kerakligini belgilaydi [3].

Turizmda kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish shakllari va usullarini tanlash ko'p hollarda korxonaning o'ziga xos xususiyatlariga, uning ehtiyojlariga, ish joylarining texnik vositalar bilan jihozlanishiga, bozorni qamrab olishiga va iste'molchi segmentining o'ziga xos xususiyatlariga va boshqa ko'plab omillarga bog'liq. Turizm xodimlarni boshqarish sohasidagi zamonaviy tendentsiyalar bir martalik chora-tadbirlardan kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish tizimini yaratishga o'tishga mos keladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, turizm sohasida xodimlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish uzluksiz bo'lishi kerak. Turizm tashkilotlari xodimlarni tayyorlash xarajatlarini eng yangi texnologiyalardan va eng samarali foydalanish imkonini beruvchi asosiy fondlarga investitsiyalar sifatida qarashlari kerak. Chunki turizm bo'yicha malaka oshirish bu ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish uchun zarur bo'lgan mehnat ko'nikmalarini o'rgatishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рындач М. А. Методы обучения кадров в сфере туризма //Современное педагогическое образование. – 2017. – №. 3. С. 37-43.
2. Носырева И.Г. Современные формы и методы обучения персонала / И.Г. Носырева. - Управление развитием персонала. – 2006. 32-43 с.
3. Обзор современных методов обучения сотрудников. URL [Электронный ресурс]<http://www.rb.ru/community/articles/articles/2007/0/31/153006.html>.

PROSPECTS OF MARKETING COMMUNICATION TOOLS FOR CULTURAL TOURISM IN UZBEKISTAN (BUKHARA REGION)

Radjabov Odil Olimovich

Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan.

Lecturer at the Department of Tourism and hotel management,

PhD student at Valencia Polytechnic university, Spain

Mambetkadirova Gulnar

Student, Tourism and hotel business department

Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan

Abstract: This research is dedicated to figuring out the role of communication among tourism industry participants in sustainable tourism development. First of all, we analyse the current situation of sustainability Tourism in chosen region Bukhara, Uzbekistan based on the European Tourism Indicator System and focus on communicational tools. The purpose is to figure out the level of communication between participants (government, entrepreneurs, intermediaries and visitors) through their awareness about sustainability goals and principles analyse and improving the knowledge about the effective impact of current methods for communication. In the end to create an innovative method (toolkit or guidelines) for enhancing the sustainability of Tourism for this region.

Key words: Sustainable development, sustainable tourism, communication, environmental and economic pillars of sustainable development,

Tourism is an activity which in turn, is a business. Therefore, one of the main objectives of a business is sustainability (Ren-Yi Huang et al., 2019). According to that, sustainability as a universal concept can be applied to all areas of tourism research (Chang and Katrichis, 2016). Following Ren-Yi Huang et al. (2019), who studied this topic from 1990-2016 related to sustainable tourism, in the post-2006 period, basic scientific research has been conducted to understand and study the concept of "Sustainable Tourism" and it has been increasing year by year. The main reason for this is the growing demand for sustainable tourism,

the urgent and vulnerability of the resources and the serious consequences of climate change. Because in recent years, tourism has become a robust industry globally, and its primary resources are generally divided into natural and cultural.

The development of mass tourism has led to a decline in attention to the environment, nature, water pollution, excessive noise, indigenous people's quality of life, and neglect of their traditions, culture, and religion (Kostić and Tončev, 2014). UNWTO (2021) defines sustainable tourism as: *"Tourism that takes full account of its current and future economic, social and environmental impacts, addressing the needs of visitors, the industry, the environment and host communities"*. From this point, it can be stated that sustainable tourism aims to meet tourists' and locals' needs through limited resources.

The abovementioned numbers show the importance of tourism in the historic centre of Bukhara and its significance in the economic and social life of the region. As Bukhara has a great number of resources cultural tourism may become as the leading sector of service sphere. Therefore, there is a great opportunity for planners to combine and enhance heritage, providers and local community in order to boost sustainable development. By establishment of SDG we can guarantee for local people decent work and considerable economic volume for local retailers and handicrafts. Raising flow of tourists provide even permanent benefit stakeholders like hotels, restaurants, museums, guides and etc. However, we have gap between quality of ads materials of region and expectations or preferences of tourists. There are a few materials created by DMO (Destination marketing organization) and although they have a little number of view on the internet or social media. In relation to the information given by the Tourism and cultural heritage department of Bukhara even it is useful for group tours however there is lack of open access information which reduce the opportunity for incoming independent tourists. The problems are in the integration between government and stakeholders. There is a little delineation for SDG and examples. Following to global sustainable development principles there were done some actions in order to keep communication with attenders. For instance, the national website of Uzbekistan (<http://nsdg.stat.uz>) shows the current situation of 100 indicators of SDG implementation in Uzbekistan . Moreover, some ministries official websites offer information about SDG.

Cultural tourism is a crucial motivation to international tourism, with a share of more than 40%, according to UNWTO (2018). Moreover, cultural tourism is one of the suitable types of tourism, where visitors intend to support the preservation of the local cultural heritage and the economy with high spending (Richards, 2001).

However, tourism is considered as a big potential source of profit, it causes serious problems such as overcrowding, cultural appropriation and the loss of authenticity among others. Tourism brings money and jobs to cities and regions, but it can also damage residents' day-to-day lives, as well as the area's culture and heritage. Sustainable cultural tourism offers a new perspective, as it places cultural heritage and local communities at the centre of decision-making processes (EU commission[14]). Involving local communities and other stakeholders in the decision-making processes is key to ensuring results benefit both cultural heritage and the local population. The objective of sustainable cultural tourism is to ensure good conservation practices along with authentic interpretation that supports the local economy. Through strong communication (integration) of stakeholders (private and government sector) and local community is key in sustainable tourism principles consideration which include, among other matters, cultural and natural resources preservation, seasonality reduction and transport impact mitigation as well as other socioeconomic aspects such as local producer's promotion, quality of job improvement or to enhance wellbeing of regions by accessible tourism consideration. (Commission Communication, 2007). Principles for implementation of efficient communication must be filled by the next: a) integration of idea of sustainability anywhere like not just as a goal but as an ongoing process, clear and understandable communication (explanation through storytelling) showing on ads or websites of tourist companies meaning of SDG by pillars, sustainability is not just environmental and climate protection but it is social and economic issue also (investment requires additionally interest of people to their history) avoid stereotypes and be unique.

Uzbekistan, in particular, the area located in the ancient cities of the Silk Road, such as the Bukhara region where most of its heritage is included in the UNESCO World Heritage List, are the leading destinations for many visits. The historic centre of Bukhara is also an ancient centre on the Silk Road and was designated as a UNESCO World Heritage Site in 1993. The centre has 264 historic buildings, tangible cultural heritage and tourism resources from different periods (9th-18th centuries).

Regarding, Cultural tourism at the historic centre of Bukhara contains 264 heritage buildings according to the Bukhara regional department of cultural heritage. According to the Ministry of Tourism and cultural heritage of the Republic of Uzbekistan (2021), Bukhara has 393 accommodation facilities (226

hotels, 1 motel, 152 family guest houses, 12 hostels, 2 dormitories) that the fund of rooms is 4205 units. It is planned to open more new hotels in the historic centre. Furthermore, there are 50 restaurants and cafes, many grocery stores, about 100 souvenir and gift shops, and museums in the historic centre of Bukhara.

Based on the abovementioned, the research aims to study the ways of communicating and promoting national brands and their impact on tourist incoming in the historic centre of Bukhara. Furthermore, to develop sustainable tourism by enhancing cultural tourism in the region.

References

1. Cambra-Fierro, J., Fuentes-Blasco, M., Gao, L. X., Melero-Polo, I., & Trifu, A. (2022). The influence of communication in destination imagery during COVID-19. *Journal of Retailing and Consumer Services*, 64, 102817.
2. Chang, W.J., and Katrichis, J.M. (2016). A literature review of tourism management (1990–2013): a content analysis perspective. *Current Issues in Tourism*, 19(8), 791-823. <http://dx.doi.org/10.1080/13683500.2016.1167177>.
3. Commission Communication, 'Agenda for a sustainable and competitive European tourism, Brussels, 19.10.2007- <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:52007DC0621>
4. Diwanji, V., Cortese, J., 2020. Contrasting user generated videos versus brand generated videos in ecommerce. *J. Retailing Consum. Serv.* 54, 102024.
5. European Commission, Culture and Creativity: Sustainable cultural tourism, <https://culture.ec.europa.eu/cultural-heritage/cultural-heritage-in-eu-policies/sustainable-cultural-tourism>
6. Fletcher, R.; Mas, I.M.; Blazquez-Salom, M.; Blanco-Romero, A. Tourism, Degrowth, and the COVID-19 Crisis. *Political Ecology Network*. Available online: <https://politicalecologynetwork.org/2020/03/24/tourism-degrowth-and-the-covid-19-crisis/> (accessed on 1 April 2021).
7. Galiano-Coronil, A., Jiménez-Marín, G., Elías Zambrano, R., & Tobar-Pesántez, L. B. (2021). Communication, Social Networks and Sustainable Development Goals: A Reflection From the Perspective of Social Marketing and Happiness Management in the General Elections in Spain. *Frontiers in Psychology*, 3657.
8. Huang, R.-Y., Chang, W.-J., Chung, Y.-C., Yin, Y.-S., & Yen, J. C. (2019). a Literature Review of Sustainable Tourism (1990-2016). *International Journal of Tourism & Hospitality Reviews*, 6(1), 20–49. <https://doi.org/10.18510/ijthr.2019.613>
9. Huerta-Alvarez, ' R., Cambra-Fierro, J., Fuentes-Blasco, M., 2020. The interplay between social media communication, brand equity and brand engagement in tourist destinations: an analysis in an emerging economy. *Journal of Destination Marketing and Management* 16, 100413.
10. Jurado, E.N.; Palomo, G.O.; Bernier, E.T. Propuestas de Reflexion Desde el Turismo Frente al COVID-19. Incertidumbre, Impacto y Recuperacion. Universidad de Malaga. Available online: http://www.i3t.uma.es/wp-content/uploads/2020/ImpactoCOVID_i3tUMA/03/PropuestasReflexiones-Turismo-.pdf (accessed on 14 March 2021).
11. Kostić, M., & Jovanović Tončev, M. (2014). Importance of sustainable tourism. January 2014, 722–725. <https://doi.org/10.15308/sinteza-2014-722-725>
12. [Lola Teruel \(2017\)](#). A tool to assess the communicative efficiency of sustainable tourist destinations. <https://cienciagandia.webs.upv.es/en/2017/03/tool-to-assess-the-communicative-efficiency-of-sustainable-tourist-destinations/>
13. Viñals, M. J., Mayor, M., Martínez-Sanchis, I., Teruel, L., Alonso-Monasterio, P., & Morant, M. (2017). Turismo sostenible y patrimonio: Herramientas para la planificación y gestión. <https://riunet.upv.es/handle/10251/91732>
14. European Commission, Culture and Creativity: Sustainable cultural tourism, <https://culture.ec.europa.eu/cultural-heritage/cultural-heritage-in-eu-policies/sustainable-cultural-tourism>

TURISTIK OQIMNING O‘SISHIDA TRANSPORTLARNING AHAMIYATI

Kadirova Shafoat Xabibulayevna

Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasida o‘qituvchisi

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Tezida mamlakatimizda transport xizmatlarini rivojlantirish orqali turistik oqimni oshirish imkoniyatlari yoritilgan

Kalit so‘zlar: transport, turist, turistik oqim, transfer, tur-safar, transport tizimi

Oxirgi yillarda transport xizmati turizm sanoatida asosiy xizmatlardan biri bo‘lib, juda muhim rol o‘ynab kelmoqda. Chunki tashrif buyuruvchi har bir mijoz bir joydan ikkinchi joyga ko‘chganda albatta, transport tizimidan foydalanadi. Shunday olib qaraydigan bo‘lsak bu, aslida, sayohatning asosiy elementlari hisoblangan uy, destinatsiya, mehmonxona, diqqatga sazovor joylar o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Transport tizimi ichki va xalqaro turizmning muvaffaqiyati uchun ham juda muhim hisoblanadi.

Respublikamizda ham transport tizimini rivojlantirish uchun ham katta e‘tibor qaratilmoqda. Chunki statistikaga nazar soladigan bo‘lsak, statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022 yilning yanvar oyidan to dekabr oyigacha ya‘ni butun yil davomida umumiy O‘zbekistonga 5,2 million nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 3,4 mln. nafarga yoki 2,8 baravarga oshgan [7].


Turistlariga transport xizmatlarini ko‘rsatish turistlarni va ularning yuklarini bir joydan ikkinchi joyga mumkin qadar tez va qulay sharoitlarda tashish uchun mo‘ljallangan xizmatlar majmui deb ta‘riflanadi. Transport xizmatlari ko‘rsatish qonun hujjatlari bilan mustahkamlangan huquqiy bazaga asoslanadi. Ushbu hujjatlar: 1) turli xalqaro transport tashkilotlari tomonidan; 2) mamlakatlarning milliy qonunchiligi doirasida; 3) yuk va yo‘lovchi tashuvchilarning ichki qoidalarini tarziida ishlab chiqilgan. Xalqaro turizmni amalga oshirishda transport xizmatlari ko‘rsatishning turli jihatlariga alohida diqqat-e‘tibor berish lozim. Sayohatlar sohasida xalqaro hamkorlik chegaralarining kengayishi bo‘jxona, chegara va sanitariya nazoratini amalga oshirish normalari va qoidalarini muttasil takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Muayyan transport tuzilmalari o‘rtasida hamda har bir transport turi doirasida yo‘lovchi tashuvchilar o‘rtasidagi raqobat kurashi yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatishning takomillashuvi jarayoniga kuchli turtki berdi. Servis sifati va darajasining oshishi harakatlanadigan tarkibning hozirgi texnik jihozlanishida, yo‘lovchilarga qulay va shinam shart-sharoitlar yaratilishida, transport vositalaribortida yo‘lovchilarning dam olishi tashkil etilishida, yo‘lovchilarni ovqatlantirish sifatining oshishida, transport kompaniyalarining doimiy mijozlari uchun rag‘batlantirish dasturlari ishlab chiqilishida namoyon bo‘lmoqda. Yo‘lovchi tashuvchilar transportda bolalar va nogironlarga, shuningdek boshqa toifa yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha maxsus tadbirlarni amalga oshirmoqdalarki, bu yo‘lovchilarning ehtiyojlarini to‘laqonli qondirish uchun imkoniyat yaratmoqda [1].

Mavjud turistik yo‘nalishlarning o‘sishi va rivojlanishiga ko‘maklashish qo‘llab-quvvatlash nuqtai nazaridan transport xizmatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuni ta‘kidlash kerakki, turistlarni jalb qilish uchun endi turizm rivojlanayotgan markazlarga ideal transport xizmatlarini taqdim etish orqali ularni faol va muvaffaqiyatli destinatsiyalarga aylantirish mumkin, shu bois sayyohlik yo‘nalishlari va bu jarayonda har yili bunday joylarga ko‘plab mijozlar tashrif buyurishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Turizm sanoati ko‘plab sayohat turlarini o‘z ichiga oladi va bunda transport xizmatlari tovarlar va xizmatlardan tashqari turistlarni turli turistik yo‘nalishlar bilan tashishni bog‘laydi. Shunday qilib, turizmni rivojlantirishda transport xizmatlarini muhim rol o‘ynaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Turizm va transport bir-biriga bog‘liqligini tushunish uchun biz shuni ta‘kidlab o‘tishimiz kerakki, ma‘lum bir turizm sanoati mintaqasida transport tizimi yaxshilanganidan keyin bu mintaqada turizmning yanada kengayganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Turizm faoliyat turi sifatida turistlarni doimiy yashash joyidan tashqariga chiqishi bilan uzviy bog‘langan va uni transport ta‘minotisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Transport ta‘minoti turistik infrastrukturaning muhim elementi hisoblanadi va turistik mahsulotlar tarkibiga kiritilgan asosiy kompleks xizmatlarni tashkil qiladi. Transport korxonalarini turizm tizimini shakllantiruvchi turistik korxonalarining alohida ko‘rinishlari sifatida qarab chiqiladi [1].

Turistik mahsulotni shakllantirishda tashqi tashkilotlar xizmatlari xarajatlarining ulushi turfirmaga uchun quyidagicha bo‘ladi:



- Jami: – 85,5%

(Safar paytidagi sugʻurta xizmatlari, viza xizmatlari, tibbiyot xizmatlari va boshqalar). Turizm soxasida transport taʼminoti tizimi qoʻyidagicha farqalanadi:

- turga qoʻshilgan va asosiy turistik xizmatlarga kiruvchi turistik tashish vositasi sifatida, turistlarni doimiy yashash joyidan belgilangan manzilga eltibqoʻyish (yoki yoʻnalish boshlanadigan joyga) va qayta olib kelish;

- transfer – turistlarni kutib olish va kuzatib qoʻyish uchun transport vositasini taqdim etish;

- tur-safar boʻyicha dasturlashtirilgan tadbirlarga xizmat koʻrsatish: ekskursion xizmat, dasturdagi tadbirlarga borish, atrofga tashrif byurish, yoʻnalish boʻyicha koʻchish[1];

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, har qanday turizm mintaqasida birinchilardan boʻlib transport xizmatlari infrastrukturasi rivojlantirgan taqdirda, sayyohlik oqimining yanada rivojlanishiga guvoh boʻlishimiz mumkin

Foydalanilgan adabyotlar

1. Norchaev A.N., Umirova D.S. “Turizmda transport xizmatlari”: Oʻquv qoʻllanma. – T.: «IQTISODIYOT», 2020. – 158 bet.
2. Кадилова Ш. Х., Фарманов Э. А., Пулатов М. М. Важность внедрения новых транспортных маршрутов в развитии туризма //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 10 (94). – С. 9-14.
3. Kadirova S. H. THE SIGNIFICANCE OF TRANSPORT SERVICES IN THE TOURISM MARKETING //Студенческий вестник. – 2018. – №. 10-5. – С. 64-66.
4. Kadirova S. K. Improving Transport Service for the Development of Tourism in Uzbekistan //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 27-33.
5. Mammadov R. The importance of transportation in tourism sector //7th Silk Road International Conference “Challenges and opportunities of sustainable economic development in Eurasian countries. – 2012.
6. Khabibullayevna K. S., Gulasal N. THE IMPORTANCE OF NEW TRANSPORT ROUTES IN THE DEVELOPMENT SERVICE SECTOR //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 16. – №. 4. – С. 3-6.
7. <https://uzbektourism.uz/research/statistics>

MEHMONXONA BIZNESIDAGI MARKETING FAOLIYATINING MOHIYATI

O‘roqova Dilfuza Bahriddinovna
Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi
Buxoro davlat universiteti
Sadikova Nargiza Maxsudovna
1-bosqich magistranti
Buxoro davlat universiteti

Marketing-bu turistlarni qabul qilish va ularga raqobatbardosh va sifatli xizmatlar ko‘rsatishga yo‘naltirilgan har qanday joylashtirish kompaniyasi faoliyatining asosiy elementlaridan biridir. Yaxshi ishlab chiqilgan mehmonxona marketing strategiyasi uning mehmonxona biznesini rivojlantirishdagi muvaffaqiyati va raqobatda g‘alaba qozonishining kalitidir.

Shu bilan birga, mehmonxona xizmatlari iste‘molchisi - turist har qanday mehmondo‘stlik korxonasi marketing markazida bo‘lishi kerak. Hozirgi vaqtda mehmonxonalar shiddatli raqobat sharoitida faoliyat yuritib, ularni bozorda ishlashning yangi usullari va usullarini izlashga majbur qilmoqda. Raqobat yutilish va konsolidatsiya strategiyalarini ishlab chiqish kabijiddiy omillar ta‘sirida kuchayib bormoqda. Bozorga yangi kompaniyalarning kirib kelishi ham raqobatning rivojlanishiga yordam beradi. Bunday sharoitda bozor rahbarlari o‘zgaruvchan bozor haqiqatida yaxshi natijalarga olib keladigan segmentatsiya marketing strategiyalarini qo‘llaydilar. Kuchli raqobatbardosh bozorlarda ishlash uchun mehmonxona nima sotayotgani, bozor sharoitlari va raqobatchilar, aniqlangan maqsadli iste‘molchilar segmentlari, mijozlarni jalb qilish va ularni ushlab turishning qisqa va uzoq muddatli yondashuvlari to‘g‘risida ilgari olingan ma‘lumotlar asosida o‘zining marketing rejasini ishlabchiqishi kerak. Umuman olganda, marketing rejasi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

§korxonada ishlab chiqarish bazasini tahlil qilish;

§raqobatchilarni tahlil qilish;

§ bozor tahlili;

§maqsadli segmentlarni tahlil qilish;

§ mehmonxonani bozorda joylashtirish;

§rag‘batlantirish strategiyasini ishlab chiqish va maqsadlarni belgilash;

§ harakatlar rejasini ishlab chiqish;

§byudjetni shakllantirish;

§Rejani monitoring qilish va uning natijalari va samaradorligini baholash.

Marketingni rejalashtirish nafaqat yirik mehmonxonalarda, balki kichik mehmonxona korxonalarida ham qo‘llaniladi. Yaxshi marketing rejasi faoliyatning uchta asosiy yo‘nalishini hisobga oladi: to‘g‘ri mahsulot va xizmatlarni kerakli bozorlarda va kerakli vaqtda sotish.

Muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mas‘ul shaxslarni aniqlashni o‘z ichiga olishi va mehmonxona maqsadlarga erishishni rejalashtirgan vaqtni belgilashi kerak.

Marketing menejerlarga mehmonxonaning tijorat korxonasi sifatidagi faoliyatiga mehmon nuqtai nazaridan qarash imkonini beradi. Buning uchun mehmonlarning ushbu mehmonxonadagi xizmatdan qoniqish darajasi uning faoliyati samaradorligiga ta‘siri baholanadi.

Marketing bo‘yicha mutaxassislar mehmonxona biznesining muvaffaqiyati uchun muhim bo‘lgan narxlarni belgilash va mehmonxona raqobatbardoshligini oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda ishtirok etadilar.

Marketing talabni baholash uchun bozorni dastlabki o‘rganish bilan shug‘ullanadi, bu mehmonxonaning bozordagi imkoniyatlari va o‘rnini aniqlash, joylashuvi yoki muqobil variantlardan tanlashni o‘z ichiga olishi mumkin.

Muayyan mehmonxona va uning mahsuloti uchun eng qulay bo‘lgan bozor segmentlarini aniqlash uchun bozorni o‘rganish kerak, ammo asosiy harakatlar mahsulotni ilgari surish va sotishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Har bir mehmonxona mehmonxonaning joylashuvi va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda jalb qilish uchun eng mantiqiy bo‘lgan mijozlar turini aniq belgilashi kerak, shuning uchun marketing tadqiqotlari mehmonxona ochilishidan va hatto uni yaratish loyihasini ishlab chiqishdan ancha oldin boshlanadi.

Marketing tadqiqotlari mavjud yoki potentsial mijozlar guruhlarini aniqlaydi, ularni turli parametrlar bo‘yicha shakllantiradi: asosiy manba bozorlarining geografiyasi, kelish maqsadi, to‘lov qobiliyati va xulq-atvor xususiyatlari. Keyinchalik segmentlarga bo‘linish asosan narxga yo‘naltirilgan va narxi muhim bo‘lmagan mijozlarga bo‘linishdan kelib chiqadi..

Segmentatsiyaning maqsadi mehmonxona kompaniyasi faoliyatini mijozlarning eng katta guruhlari ehtiyojlariga moslashtirish, shuningdek narx strategiyasini to‘g‘ri shakllantirish va xizmatlarni eng samarali

bo'ladigan tarzda ilgari surishdir. Mehmonxonada doirasi daromadning kamida 80 foizini ta'minlaydigan uchta bozor segmentini qamrab oladi, deb ishoniladi. Biroq, talabning mavsumiyligi mavjud, bu esa mehmonxonada kompaniyasi uchun alohida bozor segmentlarining qiymati mavsumga qarab o'zgarishi mumkinligiga olib keladi.

Marketing mahsulot va bozorlarni moslashtirish bilan shug'ullanadi, bu ma'noda mehmonxonada xizmatlari marketingi boshqa iste'mol tovarlari marketingidan farq qilmaydi. Ammo mehmonxonada mahsulotlari va bozorlarining, shuning uchun mehmonxonada marketingining o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Mehmonxonalar, restoranlar kabi, moddiy mahsulotlar (turar joy, oziqovqat va boshqalar) va nomoddiy xizmatlar (mehmondo'stlik) sotadi. Marketing mahsulotlari va xizmatlar o'rtasida sezilarli farq bor. Mahsulot namoyish etilishi mumkin va mehmon uning qiymatini juda tez aniqlay oladi. Mehmondo'stlik marketingi "xizmat" tushunchasining nomoddiyligi tufayli ancha murakkab. Aksariyat mijozlar uchun mehmonxonada xonalari o'z-o'zidan maqsad emas, maqsadga erishish vositasidir va ularga bo'lgan talab "talab hosilasi" deb nomlanadi - xonalardan foydalanishning sababi xizmat safari, ta'til, yoki boshqa narsa, lekin kamdan-kam hollarda raqamning o'zi. Xuddi shu narsa, ma'lum darajada, boshqa mehmonxonada xizmatlariga ham tegishli.

Mehmonxonada marketingining xususiyatlari mehmonxonada mahsulotining yuqoridagi xususiyatlaridan, uning vaqt va makonda qat'iyligidan kelib chiqadi.

Eng muhim mehmonxonada mahsuloti - mehmonxonada xonalarining mavjudligi o'zgarmadi. Qisqa vaqt ichida xonalarning sonini sezilarli darajada o'zgartirish, ularni kelajakda sotish uchun saqlash yoki ular bilan mijozlarni kuzatib borish mumkin emas. Mehmonxonada joylashtirish va boshqa xizmatlarga talab doimiy ravishda o'zgarib turadi. Mehmonxonalar talab past bo'lgan paytda bo'sh bo'lishi yoki mavsumning eng yuqori cho'qqisida odamlar g'ajum bo'lishi mumkin.

Mehmonxonada ishlab chiqarishga investitsiyalar xarakterini ham hisobga olish kerak. Bularga yerga, binolarga va binolar ichidagi mulkka investitsiyalar kiradi. Mehmonxonaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun uchta asosiy omil: to'g'ri joylashuv, to'g'ri sig'im va yuqori darajadagi foydalanish.

Mehmondo'stlik marketingini mehmonxonada mahsulotlari uchun mavjud va potentsial bozorlarni baholashdan boshlanadigan tsikl sifatida ko'rish mumkin. Bozor tadqiqoti sifatida tanilgan ushbu faoliyat qaror qabul qilishda yordam berish uchun boshqaruvga bozorlar va mahsulotlar haqida ma'lumot berish uchun mo'ljallangan. Shunday qilib, iste'molchilar doirasini va ularning muayyan mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash mehmonxonaning yangi qulayliklari va xizmatlarini rivojlantirishga ham, mavjudlarini yaxshilashga ham yordam beradi. Marketing siklining navbatdagi elementi mahsulot qanday bo'lishi kerakligi va uning rivojlanishini shakllantirishdir. Etarli bozor ma'lumotlariga ega bo'lgan holda, bozorning aniq segmentlarini aniqlash mumkin. Tanlangan segmentlarga mos keladigan mahsulotlarni ishlab chiqish, shu jumladan mehmonxonada xizmatlarining assortimenti va turi va narxlari.

Marketing siklining yakuniy elementi samaradorlik ko'rsatkichlarini monitoring qilish va ko'rib chiqishdir. Ushbu bosqichda real natijalar rejalar va byudjet bilan taqqoslanadi, bozor va mehmonxonada strategiyasidagi o'zgarishlar uchun axborot asosini ta'minlash uchun marketing faoliyati samaradorligi baholanadi.

Agar mehmonxonada marketingi professional tarzda amalga oshirilsa, unda uning imidji va raqobatchilarga nisbatan pozitsiyasi shunchalik ravshan bo'ladi va xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlari shunchalik taniqli bo'ladi, mijoz mehmonxonaning logotipi yoki brendini ma'lum darajadagi sifat kafolati sifatida qabul qiladi.

Mehmondo'stlik, o'z mohiyatiga ko'ra, mehmonning turishi bilan bog'liq bo'lgan eng kichik nuanslarni hisobga olishi, uning kutganlarini oqlashi va hatto biroz oshib ketishi kerak. U mehmonxonaning individualligini aks ettirishi kerak, uning rivojlanishi menejerning shaxsiyati tomonidan shakllantirilgan muhitdan boshlanadi va xodimlarga xos bo'lgan xizmat ko'rsatish uslubi bilan tugaydi. Mehmondo'stlik sanoatida mavjud strategiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Narx etakchilik strategiyasi - uning foydalanish qiyin ko'rinadi, chunki. bu yondashuv bozor faqat bitta narx yetakchisi bilan yakunlanishini nazarda tutadi. Ushbu strategiya mehmonxonada biznesini xarajatlarni minimallashtirish uchun biznes jarayonlarini qurishga majbur qiladi va xizmat ko'rsatish sohasining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan xizmat turistlarga yaxshi xizmat ko'rsatish uchun qo'shimcha xarajatlarni nazarda tutadi.

Differentsiatsiya strategiyasi raqobatchilar ishlab chiqarmaydigan noyob xizmatlarni ishlab chiqarish orqali raqobatdosh ustunlikka erishish imkonini beradi. So'nggi 2-3 o'n yillikda global mehmonxonada sanoatining kuchli rivojlanishi mehmonxonada mahsuloti bozorlari uchun qattiq raqobatga olib keldi.

Mijoz (mehmon, sayyoh) uchun davom etayotgan kurashda so'nggi o'n yillikda raqobatning marketing strategiyasi g'alaba qozona boshladi. Mehmonxonada xizmatlari bozoridagi mavjud vaziyatning

shakllanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan yana bir omil - bu so‘nggi yillarda keng tarqalgan brendlarni ilgari surish va mehmonxonalar xizmatlarining klassifikatorligi tushunchasini chetlab o‘tish strategiyasi. To‘g‘ri tanlangan rivojlanish strategiyasini amalga oshirish mehmonxonani raqobatdosh ustunligini mustahkamlashga va kompaniya qiymatini oshirishga olib keladi.

Zamonaviy mehmondo‘stlik sanoati ko‘plab xavf-xatarlarga, har xil turdagi resurslarga, xarajat va geografik cheklolarga va tez o‘zgaruvchan mijozlarga qarama-qarshi bozorlarga ega. Shuning uchun mehmonxonalar, ayniqsa, mini-mehmonxonalarning omon qolishi qiyin.

Raqobatning kuchayishi marketing rivojlanishining asosiy sabablaridan biridir. Ichki xizmatlarni sotish mehmonxonalar faoliyati uchun keng maydondir. Restoranlar, do‘konlar va turli xil qo‘shimcha xizmatlarda mehmonlarga e‘tibor berish uchun ko‘plab imkoniyatlar mavjud. Mijozlarning xona to‘lovlari daromadning katta qismini tashkil qiladi, shuning uchun menejer va uning xodimlari barcha mumkin bo‘lgan vositalardan foydalangan holda sodiq mijozlarni saqlab qolish va yangilarini topish uchun ko‘p harakat qilishlari kerak. Mehmonxonalar marketingi va sotuvchisi mehmonxonalar va uning potentsial mijozlari haqida hamma narsani bilishi kerak. Mehmondo‘stlik, o‘z mohiyatiga ko‘ra, mehmonning turishi bilan bog‘liq bo‘lgan eng kichik nuanslarni hisobga olishi, uning kutganlarini oqlashi va hatto biroz oshib ketishi kerak. U mehmonxonaning individualligini aks ettirishi kerak, uning rivojlanishi menejerning shaxsiyati tomonidan shakllantirilgan muhitdan boshlanadi va xodimlarga xos bo‘lgan xizmat ko‘rsatish uslubi bilan tugaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. 2012-2016 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 may PQ-1754-son Qarori. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda). Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi. // —Xorazm haqiqatli gazetasini. 2017 yil 18 yanvar. № 5 (19351).
3. Вишняков Я. Д. и др. Инновационный менеджмент : практикум. М.: КНОРУС, 2013. 326 с.79
4. Герасимов А. Б. Теория инновационной экономики. Ростов-на-Дону: Феникс, 2009. 376 с.
5. Кешишева Н. Г. Территории инновационного развития: зарубежный опыт и российская практика // Вестник Таганрогского института управления и экономики. 2012. № 1. С. 51–57.

ONLINE TURISTIK BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING STRATEGIYASI VA ISTIQBOL PARAMETRLARI

Nasriddinov Shohrux Zayni o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti, turizm (faoliyat turlari bo‘yicha) mutaxassisligining 2-bosqich magistranti

2020-yilda O‘zbekiston UNWTO reytingiga ko‘ra dunyoning eng tez rivojlanayotgan sayyohlik yo‘nalishlari ro‘yxatida to‘rtinchi o‘rinni egalladi. O‘zbekistonning o‘zida ham katta o‘zgarishlar ro‘y berdi: tezyurar poyezdlar paydo bo‘ldi, kichik, ammo munosib xususiy mehmonxonalar faol qurilmoqda, yo‘llar sifati yaxshilanmoqda, ko‘plab obidalar qayta tiklandi, tarixni, urf-odatlarini chinakam biladigan yaxshi gidlar ko‘paydi.

Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston ulkan sayyohlik va rekreatsion salohiyatga ega bo‘lib, unda 7,4 ming madaniy meros ob‘ekti mavjud bo‘lib, ulardan 209 tasi “Xivadagi Ichan qal‘a”, “Buxoroning tarixiy markazi”, “Tarixiy muzey” shaharlari tarkibiga kiradi.

2010-17 yillar uchun O‘zbekistonda turistik xizmatlar eksporti 2017-yilda ikki baravar oshib, 546,9 million dollarni, 2018-yilda esa 1041 million dollarni tashkil qildi.

2021-yilda O‘zbekistonda kirish normalari hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish tartibi soddalashtirilgani, turizm sohasida infratuzilmaning rivojlanishi va turizm salohiyatini targ‘ib qilish choralari ko‘rilgani ko‘rsatish mumkin, shu jumladan:

- qo‘shimcha 9 ta (umumiy 18 ta) davlatga vizasiz rejim joriy etilgani, fuqarolariga kirish vizalarini berishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgan davlatlar soni 12 tadan 50 taga ko‘paygani[1];

- elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tizimi ishga tushirilgani, O‘zbekiston hududidan tranzit bilan o‘tayotgan 101 davlat fuqarolariga O‘zbekistonga vizasiz kirish, vaqtincha bo‘lish va fuqarolarni o‘tkazish punktlari orqali chiqib ketish tartibi joriy qilingani;

- xorijiy fuqarolarni respublika hududida vaqtinchalik ro'yxatga olish tartibi soddalashtirilgani, mazkur tartib —E-MENMONXONA tizimi orqali to'liq elektron shaklga o'tkazilgani;
- mehmon uylarini sertifikatlash tartibi bekor qilingani kabilar.

Respublika hududiga olib kirilayotgan 8 va undan ko'proq yo'lovchi tashishga mo'ljallangan turistik klassdagi avtotransport vositalarini sertifikatlash tartibi yangi mexanizmi joriy etilgani hamda buning natijasida 2018-yilda turistik klass avtotransport vositalarining parki 128 donaga ko'paytirilgani (47 avtobus va 81 mikroavtobus). Ma'lumot o'rnida aytib o'tishimiz mumkinki bugungi kunda:

- 2019 yilda vizasiz rejim qo'shimcha ravishda o'rnatilgan davlatlar soni: 47;
- Vizasiz rejimga ega mamlakatlarning umumiy soni: 86;
- Fuqarolari elektron kirish vizasini olishlari mumkin bo'lgan davlatlar soni: 57;
- Berilgan elektron vizalar soni: 60 mingni tashkil qiladi;
- Vizalarning yangi besh toifasi joriy qilindi: "Vatandosh", Talaba vizasi, akademik viza, tibbiy viza, ziyoratchilar vizasi.

Shuningdek, turistik faoliyatning asosiy sub'ekti - turoperatorlarning soni sezilarli darajada ko'paydi. Xususan, 2019 yilda 517 turoperator, 2020 yilda 337 ta, 2021 yilda 288 turoperator faoliyat yuritib kelgan. Ular tomonidan xizmat ko'rsatilganlar tashrif buyuruvchilar soni 2021 yilda 577,8 ming, shulardan 525,2 ming kishi qabul qilingan va 54,7 ming kishi jo'natilgan[2].

Xorijiy mamlakatlar va Mustadil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridan O'zbekistonga eng ko'p sayyohlar Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Afg'oniston, Xitoy, Koreya va boshqalardan kelgan.

O'zbekiston ko'p asrlik tarixni zamonaviy san'at va infratuzilma bilan uzviy bog'lab turgan Markaziy Osiyoning eng maftunkor respublikalaridan biridir. Yilning istalgan vaqtida bu yerda har kim o'ziga yoqadigan narsani topadi. Bu hudud turli xil turizm turlarini taklif qilishi mumkin.

Hukumat turizmga har qachongidan ham katta ahamiyat berib, uni faol rivojlantirish yo'lida harakat qilmoqda, sayyohlarni jalb etish bo'yicha turli strategiyalar ishlab chiqilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 10 iyul 2020 yildagi «O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 433-son qarori bilan quyidagilar tasdiqlandi[3]:

- Turoperator va turagentlik xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizom;
- Turizm axborot markazlarini tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizom.

O'zbekiston katta turistik salohiyatiga qaramay past bo'lgan mamlakat bo'lishiga qaramay kirish va ichki turizmning rivojlanish past darajada qolmoqda. Shuning uchun turistlar oqimini jalb qilish turizmning turli turlari doirasida O'zbekistonda dam olish zonalarini rivojlantirish rejalashtirishning asosiy vazifalaridan biriga aylanadi.

Hozirgi paytda barcha turistik firmalar deyarli tadbirkorlik asosida xususiy mulk evaziga shakllanib faoliyat ko'rsatmoqda. Ular 600 dan ziyod firma, kompaniya va turoperatorlar sifatida dunyoning 80 dan ortiq davlat bilan bevosita aloqa o'rnatib turistlarni jo'natish va qabul qilish bilan shug'ullanmoqda.

2016 yilda faol sayyohlik kompaniyalari soni 433 tani tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilga kelib 288 taga tushgan. Turistik xizmatlar ko'rsatilganlar soni 2016-yilda 465,4 ming kishini, 2021-yilda esa 577,8 ming nafarni tashkil etdi.

3. Ergasheva, A. (2021). A HANDICRAFT AND TOURISM INDUSTRY. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ* (buxdu. uz), 3(3).
4. Farmonovna, E. A., Matyakubovna, K. M., & Habibulloevna, K. S. (2020). The role of the tourism national crafts in Bukhara region. *European science*, (1 (50)), 15-16.
5. Farmonovna, E. A. (2021). Impact of Globalization in a Handicraft Perspective in Uzbekistan. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 1, 9-13.
6. Эргашева, А. (2021). Globalizatsioning hunarmandchilik istiqboliga ta'siri. *Центр научных публикаций* (buxdu. uz), 8(8).
7. Эргашева, А. (2023). Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini sotishda raqamli marketing o'g'ini. *Центр научных публикаций* (buxdu. uz), 31(31).

EN 2020, 100% DES TOURISTES SERONT PARTIS

François Perroy -directeur de l'agence Emotio Tourisme

Ah qu'il est bon de tourner la page d'une année et d'une décennie. On repart tout neuf. C'est chouette le matin du 1er janvier. On vient juste de quitter ses amis mais c'était déjà l'an dernier, une autre décennie. Et ce premier jour de notre nouvelle révolution autour du soleil est propice à s'interroger sur les tendances du moment et celles à venir. Bon, la décennie qui s'ouvre vaut son pesant d'incertitudes, mais le monde est résilient si l'on en croit les écrits qui nous rappellent que la moitié de la population européenne est morte de la peste au Moyen-Age (on est toujours là, très nombreux et désormais on étudie tout, absolument tout avec des moyens considérables : je vous recommande ce livre documenté et drôlatique, *Psychologie de la connerie*, pour libérer vos tensions du mois de Janus, un dieu à deux têtes, l'une regardant vers l'arrière et l'autre vers l'avant, le mois qui lui était consacré, *januarius mensis*, marquant le passage d'une année à l'autre). Je ne vous ai pas perdu ? Et fait intéressant au passage, les vagues suivantes de peste auront eu pour origine une variation climatique (tiens tiens) et seront arrivés d'Asie par les ports. Bref, j'en viens au fait touristique.

Prospective dans le rétroviseur. J'ai repris un formidable rapport, *Le tourisme des années 2020*, édité par le Conseil National du Tourisme et le Secrétaire d'Etat chargé (énumération)... et du tourisme, publié voilà une dizaine d'années. Il constituait une forme de suite au rapport *Réinventer les vacances* :

la nouvelle galaxie du tourisme réalisé par le Commissariat Général du Plan en 1998. {1} Les premières pages relues dix ans plus tard sont passionnantes car proches de la réalité d'aujourd'hui. En voici un extrait. "En guise de préambule : Mes vacances en 2020, Paris, le 6 août 2020. Nicolas, Marianne, et leurs deux enfants, ont décidé cette année de partir en vacances dans un nouveau Resort écologique sur le littoral Nord de la France, recyclage de l'eau et de l'énergie garantis. En cette année 2020, avec le réchauffement climatique (la température moyenne a progressé de 1,5° depuis le début des années 2000 alors qu'elle avait progressé de 0,6° au cours du XXe siècle), les différences de température, et les avantages climatiques du Sud ne sont plus déterminants. Du coup, le sud semble avoir perdu le monopole des vacances estivales. Depuis la réduction drastique des vols courts et moyens courriers, les annonces répétées du déclin des réserves de pétrole, et les incitations à limiter les déplacements en voiture avec la mise en place de la Carte Carbone, la famille ne se déplace plus qu'avec des Renault H2 qui fonctionnent uniquement à l'hydrogène ou en TGV, pour participer, affirme Marianne, à la réduction des émanations de CO2. Et d'ailleurs, elle a vendu, il y a trois ans, sa voiture personnelle au profit d'un abonnement à un service de voitures propres en temps partagé. Elle a aussi l'intention d'être plus vigilante que l'année dernière afin de ne plus dépasser son capital de points de pollution."

Tout est là ! L'importance écologique, le flyskam, le retour du train, le covoiturage et l'abonnement aux moyens de mobilité. Le vocabulaire a changé : de réchauffement climatique on est passé à urgence climatique. Belle vision prospective. Que l'on retrouve dans la conclusion qui préfigurait notre Internet de Séjour (clin d'oeil à mes amis Pierre et Ludovic, on admire la désuétude du mot baladeur numérique : "Le soir, de retour à la résidence, exténué par une après-midi shopping, elle prend connaissance du MMS « la suggestion du jour » reçue dans l'après midi, et se connecte au portail InfoOpale avec son baladeur numérique pour regarder en détail l'excursion proposée le lendemain ; une journée au vert après une telle frénésie marchande fera du bien à toute la famille Airbnb, les réseaux sociaux, la réforme territoriale, le smartphone compagnon. {2}

Et comme dans toute prospective, des idées inscrites au long surgissent dont certaines sont aujourd'hui vérifiées ("Depuis une dizaine d'années, le Kilimandjaro n'est plus coiffé de neige") et d'autres non ("Conformément aux prévisions de l'OTCP/Office de Tourisme et des Congrès de Paris, 2 millions de touristes Chinois visitent Paris cette année"). Ou encore, l'annonce d'un tunnel reliant Gibraltar à Tanger en 2025. Rien sur les migrants qui périssent en Méditerranée, le Brexit, le sur-tourisme, l'importance du logement chez les particuliers via des plateformes mondiales, ni sur l'évolution privative et surveillante du web. Le document dans son ensemble pointe cependant très bien la segmentation de l'offre et de la demande, ainsi que la prégnance du web.

Bon, et en 2020 ? Tel un devin, je peux vous assurer qu'en 2020 : 100% des touristes seront partis ! Et ils prendront toujours plus de photos, entrant encore plus dans l'intimité des gens. Mais ce n'est pas nouveau quand je regarde ce tableau danois. Et Airbnb et cie, qui mobilise 60 000 hébergements à Paris, son premier parc mondial, sera au coeur de nombreux débats pour les élections municipales. Plus sérieusement je vois quelques confirmations de signaux émergents dont voici une liste qu'il conviendra de reprendre plus tard.



Peinture de Carl Bloch, peintre danois en 1866 – In a Roman Osteria

Face aux grands bouleversements de la décennie, les plateformes d'hébergements, les réductions de la vraie liberté de penser et d'échange en sérénité que les réseaux sociaux noient, les mobilités énoncées comme douces (extraction du lithium mise à part et sauf dans le cas d'un choc avec une trottinette fougueuse), nous irons probablement en Europe vers un tourisme protectionniste et

qualitatif. Amsterdam veut choisir ses touristes, Venise n’en peut plus, Anne Hidalgo veut éloigner les autocars de tourisme du centre ville... A la mondialisation annoncée comme radieuse depuis Reagan et Thatcher succède un doute européen. Si l’Europe a été championne du monde du tourisme et qu’elle accueille encore plus de la moitié des voyageurs internationaux, c’est parce qu’elle était organisée pour cela. Maintenant, on investit partout pour le tourisme ET les transports : la Chine prévoit de doubler le nombre de ses aéroports d’ici 2035. On peut pédaler autant qu’on le souhaite en Europe, la planète continuera à tousser !

Le tourisme genré se développera : aux tour-opérateurs strictement réservés aux femmes, s’ajoutent des destinations exclusives pour elles ainsi que des hébergements spécifiques. Regardons le succès de Copines de voyage, La Voyageuse, ou l’hébergement SomHotels, de même que l’île SuperShe qui n’accueille que des femmes, payant fort cher leur séjour. Du côté des hommes, le mouvement s’installe progressivement : voir le camping La Fierté au Québec.

Bibliographie:

1. Robert Lanquar. L’économie du tourisme. Paris. 1998. 37 page
2. Marc Montousse A. Bertrand, J.B. Ferrari. Microéconomie. Breal. 1999. 12 page

TURISTIK DESTINATSIYALAR MOHIYATIGA YONDASHUVLAR VA TURISTIK DESTINATSIYALAR SHAKLLANISHINING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI

Hamidov Saidjon Komilovich

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi


***Annotatsiya.** Maqolada tadqiqot jaraёnida “turistik destinatsiya” tushunchasi aniq chegaraga ega turistik resurs; milliy, hududiy va maхalliy darajada aniq amalga oshirish mexanizmi mavjud bўlgan yagona boшqaruv strategiyasiga ega tizim; kўp bosқichli kompleks turistik maхsulot, turistlar, tadбирkorlar va maхalliy boшqaruv tuzilmalarining murakkab ўzaro munosabatlari natijasida foydalаниluvchi turistik resurs; faқatgina isteъmol қийmatiga ega bўlmасdan, turistik tajribани shakllantiruvchi turistik maхsulot kabi asosiy belgilarga ega bўlgan maхsulot, hudud, isteъmol қийmatiga ega қадрият sифatida talқin etilishi maқсадga muvofiqлиги belgilangan.*

***Kalit so‘zlar:** turizm, destinatsiya, turistik destinatsiya, turistik destinatsiyalar faoliyati, turistik bozorning hududi, turistik mahsulot.*

Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar iqtisodiy munosabatlar doirasida mavjud va asoslangan qonuniyatlar insoniyatning taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda ma‘lum bir darajada o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Ana shunday tendensiyalarning asosiy qismi moddiy ishlab chiqarish sohasining xizmatlashuv tomon yuz tutayotganligi bilan izohlanadi. XX asrning oxiridan boshlab bugungi kungacha bo‘lgan davrda jahon miqyosida moddiy ishlab chiqarish sohalari insoniyatning global darajadagi axborot kommunikatsiya sohasidagi rivojlanishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar ta‘sirida o‘z faoliyatini xizmatlar sohasi bilan birlashtirgan holda olib borishga harakat qilmoqda. Bunday o‘zgarishlar ushbu sohada faoliyat olib borayotgan turli hajmdagi korxonalarining raqobat ustunligini ta‘minlayotganligi korxonalar faoliyatida xizmatlashuv darajasining ortib borishiga olib kelmoqda.

Turizm sohasi mohiyat jihatidan bevosita xizmatlar sohasi tarkibiga kirsa-da, soha faoliyatining asosiy qismi bevosita moddiy ishlab chiqarish korxonalari faoliyatiga bog‘liq. Shu bilan birga turizm sohasining rivojlanishi moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari singari juda katta hajmdagi moddiy vositalarni talab qilmasligi hamda faoliyatning tabiiy resurslar mavjudligi bilan bog‘liqligi mamlakatimizda sohani qisqa vaqtda jadal rivojlantirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi. 2016-yildan boshlab mamlakat darajasida turizm xizmatlari sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan tizimli islohotlar ham sohaning mamlakat taraqqiyotini jadal rivojlantirishdagi “o‘sish” nuqtalaridan biri bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Postindustrial jamiyatga o‘tishdan bugungi kungacha bo‘lgan o‘zgarishlar tahlili iqtisodiy tizimlarning sanoatlashgan iqtisodiyot, xizmatlar iqtisodiyoti hamda o‘zgarishlar iqtisodiyotiga o‘tib borishini ko‘rsatadi (1.1-rasm).

Fikrimizcha, iqtisodiy o‘zgarishlarning ko‘rib o‘tilayotgan ketma-ketlikda rivojlanishining asosiy omili sifatida mahsulot yoki xizmatlarning individuallashuvini ko‘rsatib o‘tish to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki taraqqiyot bosqichlarida kommodizatsiya jarayonining zaiflashib borishi va, bir vaqtning o‘zida kastomizatsiya jarayonining kuchayib borishi kuzatiladi. Bu esa, jamiyatda yaratilayotgan mahsulot va xizmatlarning iste‘molchilarning xoxish (istak)laridan kelib chiqib, individuallashib borishini ko‘rsatadi.



1.1-пачм. Postindustrial jamiyat iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlari¹

Yuqoridagi o'zgarishlar moddiy ishlab chiqarish sohasiga qaraganda xizmatlar sohasida birmuncha yuqori ekanligini, shu bilan birga "standartlashuvdan qochish" xizmatlar sohasida avvaldan mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Turizm xizmatlar sohasining bugungi kunda eng jadal rivojlanayotgan va yuz berayotgan o'zgarishlarga tez moslasha oladigan tarmog'i bo'lganligi hamda tarmoqni hali o'zlashtirilmagan tabiiy-iqtisodiy resurslar negizida qisqa vaqtda kengaytirish imkoniyati mavjudligini hisobga olgan holda mamlakatimizda ushbu tarmoqni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Turizm sohasining rivojlanishi ko'p jihatdan, aytib o'tilganidek, mavjud tabiiy-iqtisodiy resurslarning mavjudligi va ushbu resurslarning iqtisodiy faoliyatga kiritilganligiga bog'liq. Iqtisodiy terminologiyada turistlar, ya'ni xizmatlar iste'molchilari tomonidan tanlanadigan va ushbu hududda yaratilgan xizmatlarni istemol qilinadigan hudud "turistik destinatsiya" deb ataladi.


Turistik nuqtayi nazardan xizmatlarni yaratish, turistik destinatsiyalardan faoliyatda samarali foydalanish va boshqarish ularning raqobat ustunliklarini belgilaydi va, bu o'z navbatida, turistik faoliyat samaradorligini belgilaydi.

"Destinatsiya" atamasi dastlab turizm faoliyatiga tizimli yondashuv doirasida yuzaga keldi. Turistik tizim N.Leyper modeliga ko'ra eng kamida quyidagi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan 5 ta elementning mavjud bo'lishini talab etadi:

- turistlar (iste'molchilar);
- turistlar shakllanuvchi hududlar;
- turistlar o'tib boruvchi tranzit hududlar;
- turistik destinatsiyalar;
- turistik sanoat.

Turizm sohasining rivojlanishi, turistik korxonalar faoliyati samaradorligi hamda turistik mahsulotning yaratilish jarayonini tadqiq etishda, avvalo, "turistik destinatsiya" turistik tizimning asosiy elementi sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiq. Shuni hisobga olgan holda, tadqiqot jarayonida "turistik destinatsiya" atamasi va unga yondashuvlarni kengroq o'rganib chiqqan holda mualliflik yondashuvini ishlab chiqish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

¹ Pine, J. and Gilmore, J. (1999). The Experience Economy, Harvard Business School Press, Boston.



1.2-rasm. N.Leyperning turizm tizimi modeli tarkibi¹

Ilmiy adabiyotlarda “destinatsiya” atamasi bir xil bo‘lmagan holda talqin etiladi. “Destinatsiya” tushunchasi, odatda, geografik nuqtayi nazardan ma’lum bir turistik resurslarga ega bo‘lgan hudud sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan yondashilsa, destinatsiya tushunchasi turistik mintaqa yoki turistik hudud tushunchalariga muqobil ma’noni bildiradi. Destinatsiya tushunchasini bugungi kunda turistik jihatdan uning potensial mijozga nisbatan jalb etuvchanlik (jozibadorlik) tomonidan o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Ayrim tadqiqotchilarning talqinida “destinatsiya” turistlarni ehtiyoji va talablariga javob beruvchi bir qator xizmatlar to‘plamini taklif etuvch hamda aniq jalb etuvchanlik darajasiga ega bo‘lgan geografik hudud sifatida qaraladi.

Bir qator tadqiqotchilar tomonidan esa “turistik destinatsiya” tushunchasi esa turistlar tomonidan borishga harakat qilinuvchi, turistik oqimni shakllantiruvchi joy, qandaydir lokatsiya (hudud, makon, akvatoriya) sifatida tushuncha beriladi. Shu mazmunda turistik destinatsiya turist tomonidan yashash manzilini tark etgan holda ushbu makonda yangi hissiyotlar va o‘ziga xos qoniqishlarni olishni rejalashtirgan joy sifatida qaraladi.

E.Louzning yondashuvlaridan tashqari turistik destinatsiya tushunchasiga A.Lu, V.Framke, J.Saarinena va M.Kilanenlar tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar ham mavjud. Ushbu tadqiqotchilarning “turistik destinatsiya” tushunchasiga konseptual yondashuvlarini o‘rganib chiqqan holda konseptual yondashuvlarni to‘rt asosiy yo‘nalishda ajratib chiqish mumkin.

1. Iqtisodiy-geografik jihatdan yo‘naltirilgan konseptual yondashuv. Ushbu yo‘nalishdagi yondashuvga K.Metelka, S.Medlik, R.Batler, N.Leyper va R.Meytlend kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlarini kiritish mumkin.

2. Marketing-boshqaruviga yo‘naltirilgan konseptual yondashuv. Ushbu yo‘nalishdagi yondashuvga xorijlik olimlardan F.Kotler, J.Bouen, J.Meykenz, D.Buxalis va K.Gunnlarning yondashuvlari tegishli.

3. Mijozga yo‘naltirilgan konseptual yondashuv. Ushbu konseptual yondashuvga xizmatlar marketingi, strategiyasi hamda marketing aloqalariga tegishli qarashlarni ifodalovchi J.Moysander, A.Valtonen, K.Grenroos, M.Bitner, J.Gorovits va L.Mossberglarning tadqiqotlari kiradi.

4. Ijtimoiy-madaniy konseptual yondashuv. Bu yondashuvlarning mazmuni J.Dyumazedye, N.Kolodiy, J.Urri va R.Lashlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘z aksini topgan.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yondashuvlarning mazmuni 1.1-jadvaldagi talqinlar orqali aniqroq ko‘rsatib o‘tiladi.

1.1-jadval

“Turistik destinatsiya” tushunchasiga konseptual yondashuvlarning mazmuni

Konseptual yondashuvlar	Tadqiqotchilar	Konseptual yondashuvlar mazmuni
Iqtisodiy-geografik jihatdan yo‘naltirilgan konseptual yondashuv	N.Leyper	Turistik destinatsiya bu – turistlar tomonidan hududning bir yoki bir necha belgi va xususiyatlari bo‘yicha turistik tajriba olish uchun ma’lum bir vaqtga to‘xtovchi joy.

¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

	K.Metelka	Turistik destinatsiya – inson sayohat qiluvchi “geografik joy”, “turistik bozorning hududi”.
	S.Medlik	Turistik destinatsiya – turistlar tomonidan tashrif buyuriladigan jalb etuvchanlik xususiyati, turistik xizmatlar ko‘rsatish infratuzilmasi va geografik jihatdan borish chegaralanmaganlik kabi asosiy omil belgilariga ega bo‘lgan hudud.
	R.Meytlend	Turistik destinatsiya – turistlar tashrif buyuruvchi geografik chegaralarga ega bo‘lgan alohida hudud.
Marketing-boshqaruviga yo‘naltirilgan konseptual yondashuv	F.Kotler, J.Bouen, J.Meykenz	Turistik destinatsiya – ko‘p bosqichli tarkibiy tuzilish: asosiy, yondosh va qo‘shimcha tuzilishga ega bo‘lgan moddiy yoki nomoddiy elementlardan tashkil topgan turistik mahsulot.
	D.Buxalis	Turistik destinatsiya bu – iste‘molchiga umumlashgan tajribani o‘zlashtirish imkonini beruvchi turistik mahsulot.
Mijozga yo‘naltirilgan konseptual yondashuv	J.Moysander, A.Valtonen	Turistik destinatsiya imij, joy, xizmatlar va mehmondo‘stlik sohasi kabi mijozga yo‘naltirilgan kengaytirilgan turistik mahsulotni ifodalovchi xizmatlar tizimi. Unda mijoz, bir tomondan, tadbirlarda ishtirok etuvchi nafaol istemolchi sifatida, ikkinchi tomondan, turistik mahsulotni iste‘mol qilish uchun iqtisodiy jihatdan optimal qaror qabul qiluvchi faol subyekt sifatida qaraladi.
Ijtimoiy-madaniy konseptual yondashuv	J.Dyumazedye	Turistik destinatsiya – jamiyatdagi ne‘mat hisoblanib, “ishlab chiqarish” iqtisodiyoti o‘rniga “xizmatlar” iqtisodiyotining kelishi bilan rivojlanuvchi muhit.
	N.Kolodiy	Turistik destinatsiya xizmatlar sohasining asosiy institutlari (universitetlar, axborot, fan, madaniyat, tibbiyot) ishtirokida nazariy va amaliy jihatdan shakllanuvchi qadriyatlar va tajribalar o‘rganiladigan joy.
	J.Urri	Turistik destinatsiya – global bozorda raqobat muhitida foydalaniluvchi, turist tomonidan tanlanadigan va uning xoxish istaklari doirasida foydalaniladigan turistik mahsulot.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.1. Adilova Z.D., Aliyeva M.T., Norchayev A.N., Xursandov K.M. Turizm menejmenti: O‘quv qo‘llanma. -T.: TDIU, 2011. -116 b.
- 1.2. Bertalanffy, Ludwig Von. (1968). General System Theory: Foundations, Development, Applications. New York: George Braziller.
- 1.3. Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S. Turizm: nazariya va amaliyot. – T.: «Fan va texnologiya», 2018, - 400 b.
- 1.4. Davidson R., Maitland R. Tourism destinations / R. Davidson, R.Maitland. – London: Hodder & Stoughton, 1997. – P.4.
- 1.5. Pine, J. and Gilmore, J. (1999). The Experience Economy, Harvard Business School Press, Boston.

**TURIZM XIZMATLAR BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA
MARKETING STRATEGIYALARI**

Qodirov Azizjon Anvarovich
Buxoro davlat universiteti
Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasida
katta o‘qituvchisi (PhD)
azizqodir@mail.ru
914407343

Annotatsiya

Ushbu maqolada turistlarga respublikamizning mavjud har bir hududining turistik salohiyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yetkazish zarurati, ichki turizmni hamda mamlakat hududlaridagi madaniy

“Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash: muammolar va yechimlar”


meros obyektlarining va ziyoratgohlarni o‘ziga xosliklarini targ‘ib qilish bo‘yicha marketing komponentlari sekin va aniq natija ketiradigan strategiyalar ishlab chiqish targ‘iboti to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: Xizmatlar, turizm, xizmatlar sohasi, sayyohlik xizmatlari, turistik xizmat, joylashtirish vositalari

Respublikamiz turizm salohiyatini yuqori darajaga ko‘tarish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan xususiy sektor faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart sariotlar yaratish, turizm mahsulotlarini dunyo bozorida faol va kompeleks ravishda targ‘ib qilishdir. Turizm sub`ektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarini shakllantirish, turizmni rivojlantirishdagi barcha to‘siq va g‘ovlarga barham berish maqsadida, viza va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibini,passport va bojxona nazoratini soddalashtirish hamda 2018 yildan boshlab elektron vizalar berish tizimi joriy etildi. Shuningdek, joylashtirish vositalari va infratuzilma obyektlari, ayniqsa turizm mavsumida mehmonxonalar etishmasligi, turli transportlarida yo‘lovchilarni tashish tizimining etarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi, transport logistikasini rivojlantirish, ichki va tashqi yo‘nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish kerak.

O‘zbekistonga tashrif buyurgan Markaziy Osiyo xalqlari joylashtirish xizmatining GestHouse xizmatlaridan 4 %ni, 3 yoki 4 yulduzmi mehmonxonalardan 15% foydalanishni afzal bilishadi. Evropa davlatlari xalqlari joylashtirish xizmatining GestHouse xizmatlaridan 4 % ni, 3 yoki 4 yulduzmi mehmonxonalardan 75% foydalanishni afzal bilishadi. Budan ko‘rinib turibdiki,turistik xizmatlar turi ni har biri o‘z istemolchisiga ega va bu xizmatlarni taklif etish uchun turistik tashkilotlar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirish kerak. Raqobatning istemolchi segmenti va tovarlar assortimentining bozor ko‘rinishi ,sifati ,xavfsizligi tturistik xizmartlarni hamyonbopligiga urgu beriladi.Yuqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

turoperatorlar hamda turizm sohasining boshqa subyektlari sonini oshirish evaziga xalqaro standartlarga mos turizm infratuzilmasini rivojlantirish, shuningdek turistik xizmatlar turini ko‘paytirish kerak.



1.1.-rasm. manba: muallif ishlanmasi

Marketing strategiyalaridan foydalanilgan holda turistlarni qiziqishlar, zamon talabiga mos holda segmentlash . Respublikamizda turizmni rivozlantirishning yangi usullarni topish, turistik korxonalarining integratsiyalashuvi va ularning raqobatbardoshligini oshirish, barqaror infratuzilmalarni shakllantirish muammolarni o‘rganish, ularni ilmiy tahlil qilish, bu borada to‘plangan bilim va tajribalar asosida qo‘yilgan va vazifalarni hal qilishga doir ilmiy takliflar kiritish ahamiyat kasb etdi. Turistik mahsulotlari, shu jumladan mamlakat hududlarida va klasterlarni yaratish orqali hamda turizmning istiqbolli turlari (ziyorat, marifiy, ekologik, etnografik, gastronomik, sport, davolovchi-sog‘lomlashtiruvchi, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik va boshqalarni) hisobga olgan holda, yangi turizm dasturlarini ishlab chiqish; Sog'lom


turmush tarziga bo'lgan qiziqish kuchayadi: kelgusi yilda sog'liqni saqlash safarlariga hozirgi kunga nisbatan deyarli ikki barobar ko'proq osadi. (agar 2020da har o'ninchi insondan biri bu sayyohatdan foydalangan bo'lsa, keyin 2021da deyarli har beshinchi inson bu xizmatlardan foydalanadi). Sayohatchilar uchun qiziqarli bo'lgan boshqa dam olish turlari orasida qo'shimcha xizmatlarning Spa , velosipedda yurishlar, suv sporti, detoks sayohatlari, yoga sayohati, chopish va meditatsiya. Bunday safarlarning mashhurligi odamlarning moddiy narsalarga intilish emas, balki yangi his-tuyg'ularga ega bo'lish istagi bilan izohlanadi.

2018-2019da televizion dasturlar, filmlar, sport tadbirlari va ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar tanlovga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatyapdi. YouTube-da bloglar yoki videolardan sayohat qilish g'oyalari sayohatchilarning 39 % qismini oladi va televizorda, kino yoki musiqa klipida ko'rilgan narsalar 36% ga ta'sir qiladi. Turistlarning 22 % keng miqyosli sport tadbiriga boradi-ularning 43 foizi .bu yo'nalishda insonlar mashhur filmlar suratga olingan hududlarga sayyohatlar uyushtiradilar.

Shu munosabat bilan Ozbekiston hududida klip olish va kino filmlar olish uchun xorij rejessorlarga qiziqarli takliflar bilan chiqish kerak.

Sayyohatchilar milliy festivallarga qiziqishlari ortib bormoqda shuni inobatga olgan holda turli festivallar joriy etish kerak.

1.1-diagramma



Manba: Internet sayt ma'lumotlari muallif tomonidan yigilgan.

Bundan tashqari, 2022-da sayyohlar noyob madaniy tadbirga ishtirok etishni, yangi narsalarni o'rganishni, avtomobil yoki poezdda uzoq safar qilishni va yerning uzoq burchagiga tashrif buyurishni rejalashtirmoqda. Yangi texnologiyalar hududimizdagi turizm xizmatlarini yangi darajaga olib chiqadi, uning natijasida sayohat va uy-joy yo'nalishni tanlash osonroq bo'ladi. Internet Sun'iy aql va raqamli texnologiyalar foydalanuvchilarning sayohatga qanday tayyorgarlik ko'rayotganiga va qanday bo'lishiga ta'sir qiladi. Turistlarning deyarli uchdan bir qismi (29 %) ular uchun sayohat tarixini hisobga olgan holda kompyuter uchun yaqinlashib kelayotgan sayohatni rejalashtirganda qulay ekanligini tan oladi va yarmi haqiqiy inson yoki kompyuter bilan muloqot qilish muhim emas-eng muhimi, ularning savollariga javob berishida deb hisoblashadi. 64 % rezervasiyondan oldin turar-joy ob'ektiga virtual sayohat qilishni xohlaydi va 50 %, ular uchun maxsus tanlangan sayohatni tashkil qilish bo'yicha takliflar rezervasyon qilishga undashadi, deb hisoblaydi. 2018da texnologiya tanlovlarni yanada osonlashtiradi, bu esa mehmonlarning safardan taassurotlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ozbekistonda festivallar.forumlar soni 30 dan ortiq. Turizm xizmatlar bozorini raqobatbardoshlikni oshirishdan maqsad turistik turlar yangicha xizmat turlarini joriy etish kerak.

- tovar va xizmatlarning turlari ko'payishi;
- Mamlakatda ko'rgazmali festivallarni tashkil etilishi;
- Milliy taomlar festivali;
- biznes forumlar tashkil etilishi

Mamlakatda turizmni rivojlantirishga tasir	soni	Tashrif buyuruvchilar soni(mamlakatlar)
Forumlar	100	
Ko‘rgazma va konferensiyalar	100 dan ziyod	
Festvallar	50	

manba: statistik ma‘lumotlar bo‘yicha muallif ishlanmasi

Hududda turizm rivojlanishiga tasir etuvchi yana bir muhim jihati navigatsiyasining yagona unifikatsiyalashtirilgan tizimini joriy etish va rivojlantirish, hudud ko‘chalarida, turizm namoyishi obyektini hisoblangan bino va inshootlar ichida, transport vositalari va tarmoqlarida hamda avtomobil yo‘llarida turizm navigatsiyasining unifikatsiyalashtirilgan ko‘rsatkichlarini o‘rnatish kerak. Turizm xizmatlar bozorida rejalashtirilgan turlarni tahlil etganda xarajatlar daromad bilan teng bo‘ladi. Yakka tartibdagi turlar tashkil etilganda xarajatlardan daromad yuqori bo‘ladi. Sababi yakka tartibda kelgan sayyoh ehtiyoji cheklanmagan bo‘ladi. Ma‘lum ehtiyojin qo‘shimcha xizmatlarni rejalashtirganda ko‘ra ko‘proq xarid qiladi. Turizm xizmatlarini rivojlantirish hamda raqobatbardoshligini oshirishda bir necha omillar ta‘sir etadi:

- 1.Sohaning insonlar manfaatini ko‘zlagan holda faoliyat yuritishi;
 - 2.Faoliyati va xizmatlar tarkibini takomillashtirish borish;
 3. Turizm xizmatlarini yil davomida harakatini tashkil etish;
 - 4.Narx siyosatining mahalliy sayyohlar va xorijiy sayyohlar uchun arzonlashtirilish;
 - 5.Iste‘molchilar talabiga asosan xizmatlar narxni shakllantirish;
- Buxoro hududini xizmat ko‘rsatishiga ko‘ra uchga bolinadi;
- 1.Ichki turizm (Shofirkon t.Ogitma koli, Karovulbozor Jayron ekomarkazi, Karakol t. Qoraqir)
 - 2.Milliy turizm(gijduvon.Shofirkon.Romitan etti pir ziyoratgohi,Moxixossa sanatoriyasi)
 - 3.Xalqaro turizm (tarixiy obidalar , ziyoratgoh)

Ijtimoiy samaradorligi turizm xizmatlar bozorining xorijdan turistlarni kirib kelishi;

- qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratilishiga,
- xorijiy valyutalarni kirib kelishiga,
- yalpi ichki mahsulotda xizmatlar ulushining oshishiga,
- davlat byudjetining daromadlar qismida turizmning ulushini oshib borishiga va bir qator qulayliklarni yaratilishiga oli keladi.

Hududagi olib borilgan iqtisodiy tahlilda marketing strategiyalar sababi xizmatlar bozori mavsumiylik tayanadi. Shu sababli turistik xizmatlar bozori qisqa muddatli marketing strategiyasidan foydalanadi buni etiroz etsalar ham buni ishimizdagi tahlillarda ko‘rish mumkin.Hududdagi turistik korxonalar marketing strategiyasidan ;

- Yakka tartibda keluvchilar uchun tur marshurtlarni yartish kerak;
- hududning jozibadorligini ochib berishda yangi loyiharani ishlab chiqish kerak;
- Turistik xizmatlar ko‘rsatuvchi tashkilotlar tarkibida tashkil etigan turistik xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar birta koorparatsiyaga birlashtirish va umumiy bir brend asosida faoliyat yuritib o‘z brendi ostida suvinerlar ishlab chiqarsa;
- narx siyosatini qayta ko‘rib chiqsin (bunga asosiy xizmatlar narxini pasaytirishi evaziga yangi qo‘shimcha xizmatlarni taklif etsin);
- Oilaviy sayyohatlar va bolalar uchun tur marshurt ishlab chiqsin bu taklif Chiqish turizmini rivojlanishiga olib keladi.

Marketingning ushbu metodlardan foydalanish evaziga xizmatlar bozoridagi ulushini kengaytirishga ega bo‘lardi.

Adabiyotlar ro‘yxati

- 1.“Turizm to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 1999 yil 20 avgust, 830-I-son. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 227-modda; O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 14-son, 113-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son.
- 2.Стандартизация и сертификация в сфере услуг: учебник / под ред. А.В.Ракова. М. : Мастерство, 2002
3. А.У. Aleksandrova “Организация сферы туризма”: учеб. пособие. - СПб

4. O'roqova D.B, Qodirov A. Kichik biznesda innovatsion faoliyat va uni rivojlantirish masalalari// *Biznes-ekspert jurnali* 2020 1(145)-son, -B. 66-69.
5. O'roqova D.B. Problems and prospects of development of ecological tourism in Uzbekistan// *Trans Asian journal of marketing & management research(tajmmr) impact* aprel spl issue 2020, factor:sjif2020=7.209
6. Ўроқова Д.Б. Факторы, влияющие на развитие туризма в Узбекистане// *Достижения науки и образования* №3(57).2020г <https://cyberleninka.ru/article/n/factory-vliayuschie-na-razvitie-turizma-v-uzbekistane>
7. Qodirov, A. (2021, December). ISSUES OF RATIONAL USE OF ECOLOGICAL TOURISM RESOURCES. In *Archive of Conferences* (pp. 63-64).
8. Qodirov, A. (2020). THEORETICAL BASIS OF ECOLOGICAL TOURISM DEVELOPMENT IN THE SYSTEM OF SOCIO-ECONOMIC RELATIONS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 1(1).
9. Qodirov, A. (2022). Возможности для развития экотуризма в Бухарской области. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 19(19).
10. Qodirov, A. A. (2021). Problems of assessing the problems and prospects of rational use of ecological tourism resources. *Scientific electronic journal "Logistics and Economics"*, (5), 322-328.

O'ZBEKISTONDA SANATORIYALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Umirov Jasurbek Temirquliyevich

*Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasini o'qituvchisi
Buxoro davlat universiteti*

Annotatsiya: Maqolada asosan pandemiyadan oldingi va undan keyingi davrda O'zbekistonda sanatoriyalar faoliyatining holati tahlil qilingan. Chunki sanatoriyalar turizmning ajralmas tarmog'i sifatida pandemiya davrida iqtisodiyotning boshqa ko'plab sohalari singari eng ko'p zarar ko'rgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Maqolaning dolzarbligi shundaki mamlakatimizda davolanish va dam oluvchilarning sanatoriyalarga tashrifi turizmga umumiy tashrif buyuruvchilar hisobida asosiy o'rinda turadi. Ushbu maqolada yurtimizda sanatoriyalar faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari bayon qilingan, xususan sanatoriyalarga bo'lgan tashriflar va ularning yillar davomida taqqoslama ko'rsatkichlari va joylashtiruv vositalaridagi joylar sonining o'sish ko'rsatkichlari taqqoslangan. Yurtimizda bunday joylarni tashkil qilish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Sanatoriya, kurort, profilaktik tadbir, rekreatsiya, mintaqa, pansionat, bolneologik shifoxonalar, yo'llanma, sog'lomlashtiruvchi turizm.

Dam olish maskani (sanatoriya-kurot)- terapevtik va profilaktik maqsadlarda ishlab chiqilgan va foydalaniladigan, tabiiy shifobaxsh resurslarga, shuningdek ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan binolar, inshootlar va infratuzilma obyektlariga ega bo'lgan hudud. Tabiiy obyektlar va sharoitlarning shifobaxsh xususiyatlari ilmiy tadqiqotlar, ko'p yillik amaliyotlar asosida belgilanadi [9].

Sog'lomlashtirish (dam olish) - maxsus tibbiy yordam, tibbiy nazorat va davolanishga muhtoj bo'lmagan deyarli sog'lom odamlarning kurortlarda va boshqa dam olish joylarida bo'lishidir. Asosiy salomatlik omillari jismoniy tarbiya va sport, yaqin va uzoq masofaga sayohat, tanani chiniqtirish uchun ishlatiladigan tabiiy shifo omillari, shuningdek, madaniy tadbirlar jamlanmasidir. Dam olish maskanlari **sog'lomlashtiruvchi hududlarda** - kasalliklarni davolash va oldini olishni tashkil etish uchun qulay bo'lgan tabiiy shifobaxsh resurslarga ega hududlarda joylashgan bo'ladi. Bunday hududlardan tibbiy va rekreatsion maqsadlarda samarali foydalanish uchun kurort infratuzilmasi bo'lishi kerak.

Sanatoriy-kurort tashkilotlariga kurortlar, sog'lomlashtirish hududlari hududida hamda, ulardan tashqarida joylashgan, tabiiy shifobaxsh omillardan foydalangan holda davolash va sog'lomlashtirish faoliyatini amalga oshiradigan turli mulkchilik shaklidagi va idoraviy mansublikdagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar kiradi.

Bizning mamlakatimizda azaldan insonlarlar dam olishning an'anaviy usullari ya'ni Sanatoriyalar faoliyatidan foydalanib kelishadi, aksariyat insonlarga O'zbekistonda dam olishga qayerlarga borishni xohlashini so'raganingizda shak-shubhasiz sanatoriyalarni misol qilib aytishadi. Albatta bunga sababa yurtimizda sanatoriyalar faoliyatini tashkil qilish uchun qulay, geografik va iqlim mintaqasining va o'ziga xos davolovchi tabiiy-sog'lomlashtiruvchi resurslarimizning mavjudligidir, O'zbekiston hududi subtropik va mo'tadil iqlim mintaqasidadan iborat 5 ta mintaqaga bo'linadi. Bular joylashishiga ko'ra g'arbdan sharqqa tomon dengiz sathiga nisbatan ko'tarilib boruvchi mintaqalardir. Ushbu mintaqalar quyidagilardan iborat:

Cho'l mintaqasi (dengiz sathidan 400-500 metr balandlikni o'z ichiga olgan);

To‘qayzor mintaqasi (dengiz sathidan 500-700 metr balandlikda joylashgan hududlar, Respublikamizning Sirdaryo, Amudaryo, Zarafshon, Chirchiq, Ohangaron hududlari);

Adir mintaqasi (dengiz sathidan 1000–1200 metrdan 2700– 2800 metrgacha bo‘lgan balandliklarni o‘z ichiga oladi);

Tog‘lar mintaqasi (dengiz sathidan 1400 metrdan 2500 metrgacha balandlikdagi hayot);

Baland tog‘ mintaqasi dengiz sathidan 2700 – 2800 metrdan balandda joylashgan.

Har bir mintaqaning o‘ziga xos iqlimi va o‘ziga xos tabiatida yurtimizda sanatoriyalar faoliyatini rivojlantirishga asos bo‘ladi. O‘zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida sanatoriyalar ko‘pligi bo‘yicha ham oldingi o‘rinda turadi. Yurtimizda 2021- yilning 1- yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan sanatoriya-kurort muassasalari soni 217 tani tashkil etgan. Bu esa yurtimizda sog‘lomlashtirish va davolanish turizmini rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Yillar kesimida faoliyat yuritgan sanatoriya-kurort muassasalari soni:

2016- yilda – 183 ta
 2017- yilda – 193 ta
 2018- yilda – 211 ta
 2019- yilda – 211 ta
 2020- yilda – 217 ta
 2021-yilda – 217 ta

Manba: O‘zbekiston respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

Sanatoriya-kurort muassasalari bu- eng avvalo tabiiy davolash omillari (iqlim, mineral suvlar, shifobaxsh balchiqli loylar va boshqalar) qo‘llanilishiga asoslangan profilaktika va sog‘liqni tiklovchi davolashlar uchun mo‘ljallangan ixtisoslashtirilgan statsionar tibbiyot muassasalari. Ularga sanatoriyalar, sanatoriya-profilaktoriyalar, davolovchi pansionatlar, kurort poliklinikalari, balneologik shifoxonalar kiradi. Ular odatda kurort va davolash-sog‘lomlashtirish hududlarida, ya‘ni tabiiy davolash manbaalari joylashgan hududlarda tashkil etiladi.

Sanatoriyalar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari:

1-jadval

	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Sanatoriya va kurort muassasalari soni, birlik	183	193	211	211	217	217
Ja‘mi xizmat ko‘rsatilganlar kishi	334791	355671	426571	528308	219834	381674
O‘zbekiston fuqarolari	329545	347169	409090	503803	214113	369559
MDH davlatlari fuqarolari	5184	8252	17123	24177	5721	12115

Manba: O‘zbekiston respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti.

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki yurtimizdagi sanatoriyalar tomonidan ja‘mi xizmat ko‘rsatilgan fuqarolar soni mos ravishda 2019-yilda 2018-yilga nisbatan 24 % ga, shu jumladan: O‘zbekiston respublikasi fuqarolariga xizmat ko‘rsatishlar soni 23% ga va MDH davlatlaridan bo‘lgan fuqarolarga xizmat ko‘rsatishlar soni 41 % ga oshganini ko‘rish mumkin. Pandemiya tufayli 2020-yilda 2019-yilga nisbatan ja‘mi xizmat ko‘rsatishlar soni 54% ga tushish kuzatilgan bo‘lib, shu jumladan O‘zbekiston fuqarolariga xizmat ko‘rsatish 42% va MDH davlatlari fuqarolariga 24% tushish kuzatilgan. 2021-yilda 2020-yilga nisbatan yurtimizdagi sanatoriyalar tomonidan ja‘mi xizmat ko‘rsatilgan kishilar sonining 74% ga, shu jumladan: O‘zbekiston fuqarolarining yurtimizdagi sanatoriyalarga tashrifi 26 % ga va MDH mamlakatlari fuqarolari sonining qariyb ikki barobarga oshganini ko‘rishimiz mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yildan yilga yurtimiz aholisi va qo‘shni mamlakatlar aholisining yurtimizda mavjud sanatoriyalarda davolanish hamda dam olish maqsadlarida tashrif buyurishi o‘shirish kuzatilmoqda.

Jamoaviy joylashtiruv vositalari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari.

2-jadval

	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Ja‘mi joylashtiruv vositalaridagi joylar soni	95113	97920	103538	114086	117551	151481

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

Shu jumladan, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtiruv vositalari soni	37795	39833	40788	46671	50408	43504
Sanatoriya-kurort muassasalarida	22215	22625	27293	28073	57617	99466
Dam olish tashkilotlari va turistik bazalarda	35103	35462	35457	39342	9526	8511

Manba: O'zbekiston respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.

Yildan-yilga joylashtirish vositalari va ulardagi joylar soni ham dam oluvchilar soniga qarab oshib bormoqda, misol uchun yuqoridagi jadvaldan taqqoslaydigan bo'lsak 2021-yilda ja'mi joylashtirish vositalaridagi joylar soni 2020-yilga nisbatan 28% ga ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Shu jumladan mehmonxona va shunga o'xshash joylashtiruv vositalaridagi o'rinlar soni 24% ga kamaygan, Sanatoriya-kurort muassasalaridagi joylar soni 73% ga ko'paygan, dam olish tashkilotlari va turistik bazalardagi joylar soni 11% ga kamayganini ko'rish mumkin. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak 2021-yilda Yurtimiz aholisini dam olishning an'anaviy turlaridan bo'lmish sanatoriyalar faoliyatiga qiziqishi kundan-kunga oshib bormoqda, bunga o'z navbatida 2019-yilda sodir bo'lgan global pandemiya ham asosiy sabab sifatida o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Yurtimizning noyob va betakror tabiati turizm va dam olish tarmog'ining asosiy tayanchlaridan biri hisoblangan sanatoriyalar faoliyatini yanada rivojlantirishga turtki bo'ladi.

Yuqoridagi fikr va xulosalar asosida quyidagi takliflarni ishlab chiqib amalga tadbiiq qilish lozim deb hisoblayman:

- Yurtimizda mavjud sanatoriylarning aksariyati mustaqillik davrida va undan oldin qurilganligini inobatga olib, ularni qayta ta'mirlash va jahon standartlariga javob beradigan darajada jihojlashtirish;
- Shifobaxsh va tabiiy-sog'lomlashtiruvchi resurslarga boy hududlarda davlat xususiy sheriklik asosida yangi sanatoriyalar-kurort majmualarini barpo etish, bunga o'z hisobidan sanatoriya-kurort maskanlarini tashkil qilmoqchi bo'lgan tadbirkorlarga subsidiyalar berish tartibini joriy qilish;
- Sanatoriyalar tabiiy muolaja qilish va davolash usullari va turlarini son va sifat jihatdan oshirish;
- Sanatoriyalarda xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarining malakasini oshirish va ularga qo'shimcha turistik xizmatlar ko'rsatish turlarini o'rgatish;
- O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyalariga beriladigan yo'llanmalar sonini oshirish va ularni berishni sanatoriyalar to'liq band bo'lmagan vaqtga moslashtirish: misol uchun yurtimizdagi ko'pgina sanatoriyalar bahor va yoz mavsumida to'ladi, qolgan vaqtlarda bo'sh turadi, shundan kelib chiqib davlat tashkilotlarida ishlaydigan xodimlarga yo'llanma berishni qolgan vaqtlarga moslashtirish;
- Sanatoriyalarga yo'llanma berishning elektron tizimini joriy qilish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti;
2. O'zbekiston respublikasining "Turizm to'g'risida"gi №:549-son qonuni 18.07.2019-yil.
3. Azimov O. K., Temirkulovich J. U. Tourism in Uzbekistan After the Pandemic: Problems and Solutions //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 108-115.
4. Душанова Ю. Ф. Особенности формирования туристических кластеров //актуальные вопросы современной науки и образования. – 2021. – с. 288-297.
5. Oktyamovna A. S., Atoevna T. S., Kodirovna B. S. The role of animator to the development of tourism animation activities //Academy. – 2020. – №. 12 (63). – C. 45-48.
6. Djumanazarovna K. G. The role of the state in the formulation of innovation strategy in industrial enterprises //Academy. – 2020. – №. 4 (55). – C. 36-38.
7. Khakimov Z. C., Azimov O. K. Prospects for the Development of Special Types of Tourism in Uzbekistan //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 135-142.
8. Temirkulovich U. J. Importance of entrepreneurship development in tourism industry (Bukhara region) //ACADEMICIA: An International multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 4. – C. 700-704.
9. Вегитнев Александр Михайлович, Войнова Янина Александровна "Организация санаторно-курортной деятельности" Изд. № 8262. Подписано в печать 15.09.2014.

TURISTIK RAQOBATBARDOSHLIKNI TA‘MINLOVCHI KOMPLEKS CHORA-TADBIRLARNI ISHLAB CHIQUISH (“AUTHENTIC TRAVEL” MChJ misolida)

O‘roqova Dilfuza Bahriddinovna

Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasini o‘qituvchisi
Buxoro davlat universiteti

Abdullayev Nuriddin Xayriddinovich


1-bosqich magistranti
Buxoro davlat universiteti

Buxoro hududida xizmatlar sohasini rivojlantirishda avvalo, xizmatlar sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur. Xizmatlar moddiy-ashyoviy mahsulotlardan farq qiladi. Transport, telekommunikatsion, moliyaviy xizmatlar rivojlanishining davom etishi turizm sohasi rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Turistik sektor katta mablag‘ sarflanishini talab etmaydigan, ijtimoiy barqarorlik omili sifatida xizmat qiladigan va hududda yangi ishchi o‘rin yaratilishini ta‘minlaydigan xizmat sektorlaridan biridir.

Xizmatlar bozorini tahlil qilish jarayonida Buxoroda xizmatlar bozorining tashkil etilishiga ko‘ra rejalashtirilganligi har turning raqobati tahliliga nazar tashlaydigan bo‘lsak Diniy ziyorat turizmi turidan foydalanishiga ko‘ra hududda 1-chi o‘rinda. Ziyorat turizmi maydoni jihatdan (moladi). 2-chi o‘rinda tarixiy obida madaniy yodgorliklarni ko‘rish uchun tashrif buyurgan sayyohlar soni. 2019-yil oxiri 2020 yil boshlari bilan sanoat sohasida investirlarni jalb qilinishi sanoat turizmining rivojlanishiga olib keldi.

“AUTHENTIC TRAVEL” MChJ turistik firmasi mamlakat miqiyosida birinchi turadi Fransiya sayyohchilarga sotish bozorini egallaganligi hisobiga.

Bozorni qamrab olishiga ko‘ra



1.1-diagramma. manba: muallif ishlanmasi

Tur firmasi tadbirkorlik salohiyati va mamlakatda mavjud imkoniyatlarni tahlili quyidagicha;
-tadbirkor o‘z faoliyatidan maksimal darajada daromad olyapti va turizm xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalarini tashkil etyapti .

“AUTHENTIC TRAVEL” MChJ turistik firmaning raqobatbardoshligi strategiyasini shakllantirish
Turistik firma o‘z maqsadini aniqlashda ishbiarmonlik hamda hozirgi bozor vaziyatini tahlil qilish asosida sohani bo‘limlarga bo‘lib tahlil qiladi.Bular;

* atrof muhit;

*tadbirkorlik salohiyati va mamlakatda mavjud imkoniyatlar;

*marketing strategiyasi, bozorni tahlil qilish.

Atrof muhit tahlili bu;

-mamlakat miqiyosida;

-viloyatlar kesimida

-tuman yoki shaharlar kesimida. Budan ko‘rinib turibdiki turistik firma o‘z faoliyatini solishtirma tahlillar orqali o‘z reytingini tahlil etib boradi.

AUTHENTIC TRAVEL" MChJ sayyohlik kompaniyasi Buxoroda sayyohlik yo'nalishlarini sotish bo'yicha taniqli sayyohlik agentligi bo'lib, mijozlarimizning barcha manfaatlari va istaklarini inobatga olishga harakat qiladi.

Faoliyat yo'nalishi. "AUTHENTIC TRAVEL" MChJ sayyohlik kompaniyasi ko'p tarmoqli operator bo'lib, ichki va tashqi bozorda faoliyat yuritadi va kirish va chiqish turizmi bilan shug'ullanadi. Firma o'z ichiga olgan tur mahsulotlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi:

- Maqsadga muvofiq birlashtirilgan ekskursiyalar (bilim, sog'lomlashtirish va h. k.)
- Har xil turdagi turistik-ekskursiya xizmatlari (turar joy, oziq-ovqat, transport xizmatlari va h. k.)
- Mahsulotlar va etkazib beruvchilarning lentasini yanada aniqroq qurish uchun)
- Kompaniya turli xil tur mahsulotlarini taklif etadi:

-Avtobus safarlari: Toshkent-Samarqand-Aydarko'l- Buxoro-Xorazm-Toshkent shahri va boshqalar.
Chet elda dam olish: Fransiya, Turkiya, Misr, Italiya, Ispaniya, Kipr, Germaniya, BAA va boshqalar.

Tashkiliy madaniyat Sayohat agentligining korporativ madaniyati quyidagi xususiyatlarga ega:

- Xodimlarning munosabatlari "katta oila" tamoyiliga asoslanadi, bu esa faoliyatni namoyon qilish va barchani umumiy biznesga jalb qilish uchun yuqor motivatsiyani ta'minlaydi.

Firmaning marketing strategiyasi quyidagicha. Iqtisodiy o'zgarish sharoitida zamonaviy sayyohlik firmasi bozorga kirib olish strategiyasini qo'llar ekan. Tur firma tovarlar yoki xizmatlarni ishlab chiqaruvchi sifatida va xaridor istemoligacha bo'lgan davrda xizmati (mahsuloti)gab o'lgan talabni o'rganib manbalarni bozor holatining noaniqligi, sayyohlik xizmatlariga bo'lgan talabning mavsumiy beqarorligi, sayyohlik biznesida raqobatning kuchayishi, moliyaviy resurslarning etishmasligi va boshqalar bartaraf etish chora tadbirlarishlab chiqiyapti



Manba: muallifning erkin izlanishlari bo'yicha manba shakllangan.

«AUTHENTIC TRAVEL » MChJ firmasi turistik xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshiriyapti;

- Sayyohat uyushturish mumkin bo'lgan davlatlar bilan kirish - chiqish turizmini yo'lga qo'yish uchun hamkorlik qilmoqda (Fransiya, Yaponiya, Malaziya, Turkiya, Bolgariya, Germaniya va boshqalar);
- Narx siyosatini to'g'ri tashkil etish;
- Raqobatbardoshlikni oshirishda turistik xizmatlar bozorida turistik firma e'tibor qaratiyapti Marketing strategiyaning usullaridan foydalangan holda va reklama xizmatlaridan foydalanib xarajatlarni qisqartirish orqali strategiya tasirini susaytirmasdan , bozordagi pozitsiyasini saqlagan holda tur paketlarni sotish hajmini oshirishga, mavjud xaridorlarni saqlashga yana yangi xaridorlarni izlashdan iborat. Hozirgi vaqtda rejalashtirishga ko'p e'tabor qaratyapti.
- Korxonada faoliyati xaridor ehtiyojlariga qaratilgan va xizmatlar bozorini qamrab olishiga ko'ra, ishlab chiqaruvchi va istemolchi munosabatlar zanjirini yaxshilashga qaratiladi.

Korxonada tanlangan rivojlanish yo'lini amalga oshirishning maqsadlari va vositalarini aniqlaydigan harakatlar dasturiga kiritilishi kerak bo'lgan strategik fikrlash zaruriyati mavjudligini anglab marketing strategiyalarni qo'llab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Turizm to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni 1999 yil 20 avgust, 830-I-son. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 9-son, 227-modda; O'zbekiston Respublikasi

“Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash: muammolar va yechimlar”

Qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 14-son, 113-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son.

2. Стандартизация и сертификация в сфере услуг: учебник / под ред. А.В.Ракова. М. : Мастерство, 2002

3. А.У. Aleksandrova “Организация сферы туризма”: учеб. пособие. - СПб

4. O‘roqova D.B, Qodirov A. Kichik biznesda innovatsion faoliyat va uni rivojlantirish masalalari// Biznes-ekspert jurnali 2020 1(145)-son, -B. 66-69.

5. O‘roqova D.B. Problems and prospects of development of ecological tourism in Uzbekistan// Trans Asian journal of marketing & management research(tajmmr) impact april spl issue 2020, factor:sjif2020=7.209

6. Ўроқова Д.Б. Факторы, влияющие на развитие туризма в Узбекистане// Достижения науки и образования №3(57).2020г <https://cyberleninka.ru/article/n/factory-vliyauschie-na-razvitie-turizma-v-uzbekistane>

7. Ўроқова Д.Б., Тиллаев К.Н. Использование маркетинговых стратегий при продаже туристических услуг// Бухоро ислом маданиятини модернизациялаш ва туризмни барқарор ривожлантириш истиқболлари конференция мақолалар тўплами. 2020 йил 22 феврал -Бухоро. –Б.697-699.

8. O‘roqova D.B. Uzoq muddatli istiqbolda O‘zbekistonda xizmatlar sohasini rivojlantirish strategiyasi (turistik xizmatlar misolida)//Hayot faoliyati xavfsizligi:muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari 2021 yil 18 - oktabr <http://www.conf.iscience.uz/index.php/hxf>.

III SHO'BA

IQTISODIYOT TARMOQLARIDA BARQAROR YUQORI O'SISH SUR'ATLARINI TA'MINLASH VA ULARNING ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

**BUXORO VILOYATIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI ISHLAB CHIQARISHNING
EKOLOGIYALASHTIRISH DARAJASINI OSHIRISH.**

*D.Sh.Yavmutov – BuxDU, Iqtisodiyot va turizm
fakulteti dekani, i.f.n, dots.*

O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor vazifalaridan biri qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida chuqur islohotlar olib borish va bu sohadagi tadbirkorlik sub‘ektlari manfaatlarini oshirish va ular faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini ekologiyalashtirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida barqaror taraqqiyotni ta‘minlash muhim strategik yo‘nalish sifatida tanlangan.

Qishloq xo‘jaligi Buxoro viloyati iqtisodiyotida muhim va etakchi tarmoqlardan sanaladi. 2021 yil yakunlari bo‘yicha qishloq, baliq va o‘rmon xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish 2020 yilga nisbatan 101,6 foizga o‘tdi va 23,9 trln. so‘mni tashkil qildi. Viloyatda qishloq, baliq va o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishining YAHMdagi ulushi 46,4 foizni tashkil qildi va bu ko‘rsatkich bo‘yicha tarmoq eng katta ulushga ega bo‘lib turibdi. Bu ko‘rsatkichni boshqa tarmoqlar bilan solishtirsak: sanoatning ulushi – 18,1 foiz, qurilishning ulushi – 7,8 foiz, xizmatlarning ulushi – 27,7 foiz. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda chorvachilik ustunlik qiladi, qishloq xo‘jalik mahsulotlari tarkibida 51,4 foiz ulushga ega.

Mazkur raqamlar qishloq xo‘jaligi va uning muhim tarmog‘i hisoblanmish dehqonchilik Buxoro viloyati iqtisodiyotida qanchalik muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi. Viloyatda dehqonchilik to‘liq ravishda sug‘orma usulda amalga oshiriladi. SHu sababdan sug‘oriladigan dehqonchilik madaniyati va sug‘oriladigan yerlardan foydalanish darajasi hudud iqtisodiyotining rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi. Bu o‘z navbatida yer resurslaridan samarali foydalanish va unumli tashkil etish borasida hududiy xususiyatlarni inobatga olishni muhimligini va dolzarbligini ko‘rsatadi.

Respublikamizning qator olimlari qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda hududiy xususiyatlarning ta‘sirini o‘rganishgan bo‘lsada, hududiy xususiyatlarning inobatga olinishida ekologik yondashuv kam tadqiq qilingan. SHuningdek hududiy xususiyatlar o‘rganilganda ekologik omillarning iqtisodiy ahamiyati, jarayonlarni ekologiyalashtirish kam tadqiq qilingan.

Buxoro viloyatidagi sug‘oriladigan yerlar respublikadagi jami sug‘oriladigan yerlarning 0,6 % qismini tashkil etadi. Buxoro viloyatidagi sug‘oriladigan yerlar jami qishloq xo‘jaligiga ajratilgan yerlarning 2017 yilda 8,9 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021 yilda 8,8 % ni tashkil qilgan. 2021 yilda 2017 yilga nisbatan 1,2 foizga kamaygan. Respublikada qishloq xo‘jaligi faoliyati mahsulotlari etishtiruvchilar ixtiyorida bo‘lgan sug‘oriladigan yerlar maydoni 2021 yilga kelib, 2017 yilga nisbatan 0,3 % ga kamaygan. Buxoro viloyatida esa 0,2 % ga oshgan.

Buxoro viloyatida qishloq xo‘jaligi ekin turlari bo‘yicha tahlil qilish uchun 2-jadval ma‘lumotlaridan foydalanamiz. Don ekiladigan maydonlar 2021 yilda 2017 yilga nisbatan 20,4 % ga kamaygan. Kartoshka, sabzavot, poliz, ozuqa ekinlari, meva va rezavorlar ekin maydonlari ko‘paygan (1-jadval).

1-jadval

**Buxoro viloyatida qishloq xo‘jaligi ekinlarini
yer maydoni, ming gektar**

Mahsulotlar	2017 yil	2019 yil	2021 yil	2021 yilda 2017 yilga nisbatan o‘zgarishi
Don	91,2	80,3	72,6	79,6
Paxta	106,2	104,5	106,7	100,4
Kartoshka	4,3	5,6	5,6	130,2
Sabzavotlar	10,4	16,1	18,8	180,7
Oziqbop poliz	2,2	2,9	4,3	195,4
Ozuqa ekanlari	24,8	26,4	30,2	121,7
Meva va rezavor	12,8	12,7	13,8	107,8

Yer-cheklangan va qayta tiklanmaydigan tabiiy resursdir. Bugungi kunda uning sho‘rlanishi, saholanishi, irrigatsion va shamol eroziyasi, tuproqning har xil texnik chiqindilar bilan ifloslanishi, gumus va oziqa elementlarning kamayib ketishi kabi salbiy holatlar ushbu resursga jiddiy xavf solmoqda. SHunday murakkab sharoitda ulardan oqilona va tejimli foydalanish, tuproqning meliorativ holati hamda unumdorligini yaxshilash orqali ekinlar hosildorligini oshirish - davr talabidir.

O‘zbekiston mintaqalarida sug‘oriladigan yerlarning sifati so‘ngi 25 yilda 8 ballga, oxirgi 15 yilda esa 2 ballga pasaydi va 2010 yilda 55 ballni tashkil etdi. Oxirgi 15 yil ichida sifati yomonlashishi natijasida

30 ming gektardan ortiq sug'oriladigan yerlar qishloq xo'jaligida foydalanib bo'lmagani bois, sug'oriladigan yerlar aylanmasidan chiqarilgan. Buxoro viloyatida ham sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati so'ngi 20 yil ichida 15 foizga yomonlashgan, cho'llashgan yerlar maydoni 25 foizga o'sgan, sug'oriladigan yerlarning 90,4 foizi turli darajada sho'rlanishga duchor bo'lgan.

Sug'oriladigan yerlarning irrigatsion-meliorativ holati yomonlashishi natijasida yerlarning umumiy sho'rlanish darajasining oshib borganligi, almashlab ekish tizimining buzilganligi, noto'g'ri sug'orish natijasida tuproqdan har yili ko'p miqdordagi foydali elementlarning oqib ketishi, ularning o'rmini qoplanmasligi, mineral o'g'itlarni qo'llashning maqbul nisbatlariga amal qilmaslik natijasida, tuproq sifat ko'rsatkichlarining pasayishi oqibatida, bir gektardan olinayotgan mahsulot birligining kam bo'lishiga olib kelmoqda. Masalan, 1 t paxta hosil bilan tuproqdan 56 kg azot, 23 kg fosfor, 53 kg kaliy; 1 t kungaboqar bilan 50 kg azot, 27 kg fosfor, 228 kg kaliy; 1 t makkajo'xori bilan (silos uchun) 2,4 kg azot, 0,9 kg fosfor va 3,6 kg kaliy chiqib ketadi¹.

Buxoro viloyati respublika bo'yicha etishtirilayotgan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarining 8,7 foizini (5-o'rin), shu jumladan, don mahsulotlarini 7,9 %ini (7-o'rin), sabzavotni 7,3 % (7-o'rin), kartoshkani 7,2 % ni (7-o'rin), polizni 8,7 % (4-o'rin), meva va rezavorlarni 10,6 % (4-o'rin), uzumni 12,6 % (2-o'rin), go'shtni 10,4 % (3-o'rin), sutni 9 % (5-o'rin), tuxumni 6 % (9-o'rin), ovlangan baliqni 3,9 % (12-o'rin) qismini etishtirmoqda.

Buxoro viloyatida ham oxirgi yillarda fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishdagi ulushi o'zgarib bormoqda. Buxoro viloyatida 2021 yil 1 yanvar holatida jami 7541 nafar fermer xo'jaliklari faoliyat yuritib kelmoqda. Ularga 185800 gektar ekin yeri ajratilgan. Fermer xo'jaliklarining 46,5 foizi paxtachilik xo'jaliklari bo'lib ularga jami ekin maydonining 91,7 foizi ajratilgan. Fermer xo'jaliklarining 2,3 foizi sabzavotchilik va polizchilik xo'jaliklari tashkil etadi. Ularga jami ekin maydonining 0,45 foizi ajratilgan. Fermer xo'jaliklarining 39,2 foizi ulushi bog'dorchilik va uzumchilik, 10,7 foizi chorvachilik xo'jaliklariga to'g'ri keladi (2-jadval).

2-jadval

2021 yilda xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	Fermer xo'jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati, foizda	ming tonna	o'sish sur'ati, foizda	ming tonna	o'sish sur'ati, foizda
Don	413,4	96,4	122,4	91,1	10,8	176,4
Paxta	257,8	88,6	-	-	38,3	129,1
Kartoshka	17,5	101,8	205,2	103,5	0,02	18,3
Sabzavotlar	186,9	116,9	568,8	102,2	12,9	102,4
Poliz	64,0	115,9	113,1	100,9	2,4	57,5
Mevalar va rezavorlar	155,3	108,6	147,1	102,0	1,6	68,3
Uzum	87,8	100,9	120,2	108,2	0,3	24,9

2021 yilda 23 556,9 mlrd. so'mga teng bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 11 334,6 mlrd. so'mga teng qismi yoki 48,1 foizi dehqonchilik, 12 222,3 mlrd. so'mga teng qismi yoki 51,9 foizi chorvachilik sohasiga to'g'ri keladi. Bunda viloyat tumanlarining ulushi turlicha (3-jadval).

3-jadval

Qishloq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar) hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi

	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlar hajmi		Aholi jon boshiga, (ming so'm)
	mlrd. so'm	2021 yilga nisbatan, o'sish sur'ati % da	
Buxoro viloyati	23 974,3	101,6	12 387,3
Buxoro sh.	297,0	101,2	1 057,8
Kogon sh.	24,9	101,0	406,8

¹ To'raxodjayev T.I. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish texnologiyasi. O'quv ko'llanma. T.: 2004.

“Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash: muammolar va yechimlar”

Buxoro	2 748,0	102,3	16 401,5
Vobkent	2 180,0	100,3	15 526,7
Jondor	2 888,6	102,6	16 482,2
Kogon	1 780,4	100,2	22 622,8
Olot	1 695,5	101,8	17 040,4
Peshko‘	2 156,0	102,4	17 453,3
Romitan	2 145,1	100,1	15 057,2
Shofirkon	2 149,2	101,7	12 081,0
Qorako‘l	2 391,5	101,3	14 548,1
Qorovulbozor	644,3	100,6	35 053,0
G‘ijduvon	2 873,8	102,3	9 415,0

Buxoro viloyatida qishloq xo‘jaligini ekologiyalashtirish imkoniyatlari tadqiq qilinishi oqibatida quyidagi xulosalar olindi:

1. Global ekologik muammolar keskinlashgan, turli iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy krizislar rivojlangan davrda zamonaviy iqtisodiyotning resurсталab ishlab chiqarishga asoslangan modeli atrof muhitga zarar yetkazmaydigan, yangi resurstejoychi ishlab chiqarishga asoslangan modellarni talab qilmoqda. Shu sababdan dunyo mamlakatlari o‘z iqtisodiyotlarini ekologiyalashtirish zaruratiga duch kelishdi. Ushbu iqtisodiy model eng samarali sanaladi.

2. Inqirozlar, ayniqsa, atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq muammolar keskinlashib borayotgan sharoitida iqtisodiyot ekologiyalashuvi katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Buni insonlarning nafaqat salomatligi yo‘nalishida, balki, ularning ijtimoiy farovonligi, yashash va dam olish yo‘nalishlarida ham ahamiyati ortishi, buning oqibatida iqtisodiy farovonlikka erishi iqtisodiyotini ekologiyalashtirayotgan mamlakatlar, mintaqalar misolida namoyon bo‘lmoqda.

3. O‘zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarini, jumladan, qishloq xo‘jaligini ekologiyalashuvi darajasini oshirish, ishlab chiqarishni va xizmat ko‘rsatishni resurstejamkor, atrof-muhitga zararsiz munosabatda bo‘luvchi jarayonlarga asoslangan tizimga o‘tkazish uchun dastlabki huquqiy asoslar shakllantirilgan. Biroq, hali bu jarayonlarni qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlari va insonlar hayotininng barcha jabhalarini qamrab oluvchi tarzda huquqiy-me‘yoriy asoslar yaratilmagan. Bu borada barcha jabhalarda “yashil hayot” tamoyillariga asoslangan tizimlar va mexanizmlarga o‘tish talab etiladi.

4. O‘zbekiston va uning mintqalarida, jumladan, Buxoro viloyatida iqtisodiy rivojlanish zamonaviy resurstejamkor rivojlanish talablariga javob bermaydi, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida resurslar iste‘moli va ularning isrofgarchiligi juda katta.

5. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining ekologiyalashuv darajasini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, bu borada respublika ko‘rsatkichlari juda past darajada va uni oshirishning juda katta imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. Umumiy qilib aytganda, respublikada bu raqamlar 50 foizga ham yetmaydi.

6. Buxoro viloyati qishloq xo‘jaligi ham ekologiyalashuv darajasi juda past, ayniqsa, viloyat hududi to‘la cho‘l mintaqasida joylashganligi, iqlimining quruq ekanligi bu raqamning yanada pasayishiga sabab bo‘layotgan omillardan sanaladi. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari bo‘yicha tahlil qilinganda ham holat respublikaning boshqa mintaqalariga nisbatan ancha og‘ir ekanligi namoyon bo‘ladi.

7. O‘zbekistonda, jumladan, Buxoro viloyatida iqtisodiyot tarmoqlarini ekologiyalashuvi darajasini oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ulardan bugungi kunda juda kam qismidan foydalanilmoqda.

Tadqiqot davomida olingan ilmiy natijalar va xulosalarga asosan respublikamiz, jumladan, Buxoro viloyatida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining ekologiyalashuvi darajasini oshirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalar ilab chiqildi:

1. Qishloq xo‘jaligida resurstejamkor texnologiyalarga o‘tishni rag‘batlantirish mexanizmlarini ham bir tarmoq bo‘yicha va korxonalar xususiyatidan kelib chiqib, aniq ko‘rsatilgan holda ishlab chiqish.

2. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonlarida raqamli va “yashil” texnologiyalarning ulushini oshirish bo‘yicha ishlarni jadallashtirish, bunda “yashil” texnikalar va “yashil” transportlaridan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish lozim.

3. “Yashil” texnologiya va texnikalarni ishlab chiqarish, moliyalashtirish, sotish va iste‘mol qiluvchilarni rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratish va joriy qilish lozim.

4. Iqtisodiy jarayonlarda yashil, ekologiyani muhofaza qlishga yo‘naltirilgan mexanizmlarni joriy qlish lozim, jumladan, yashil moliyalashtirish, yashil sug‘urtalash, yashil soliqlar va h.k.

5. Qishloq xo'jaligida resurslar isrofgarligi juda kattaligi bois, bu tarmoqda "yashil" iqtisodiy mexanizmlari, "yashil" texnologiyalarni qo'llash borasida davlat-xususiy sektor shaklida subsidiyalar ajratish lozim.

QISHLOQ XO'JALIGIDA AGROSANOAT KLASTERINI TASHKIL ETISH METODIKASI

**Buxoro davlat universitet
Iqtisodiyot kafedrasi mudiri
i.f.f.d., professor A.J.Abdulloev**

Agroklasterni tashkil etish zaruriyati, tamoyillari, bosqichlari, rivojlantirish yo'llari va samaradorligini baholashda keng qamrovli yondashuv talab etiladi. Jumladan, avvalambor, nazariy jihatdan bir xil guruhlar ob'ektlarini iqtisodiy-geografik joylashuviga ko'ra, ko'p o'lchovli statistik jarayonlar jamlanmasi tahlillari amalga oshiriladi. Metodologik jihatdan esa, klasterlar hududiy-tarmoq majmuasi nazariyasi, tizimli yondashuv, ishlab chiqarishni tashkil etish tamoyillari va iqtisodiy o'sish konsepsiyalarining o'zaro aloqalarini aks ettiradi.

Nihoyat, amaliy jihatini, klaster ishtirokchilari – qishloq xo'jaligi va uning mahsulotlarini qayta ishlash va sotish bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini rivojlantirishni strategik boshqarishdan foydalanish va erishilgan natijalari tashkil etadi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan institutsional va tarkibiy o'zgarishlar natijasida shakllangan xo'jalik yuritish sub'ektlari hamda tarmoqda ular o'rtasidagi huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy munosabatlarning muntazam ravishda takomillashtirib borilishini taqozo etishdan kelib chiqqan holda agroklasterni barpo etish borasida yangi yo'nalishni amalga oshirish bugungi kunda agrar siyosatining muhim vazifalaridan biriga aylanishi lozim. Chunki qishloq xo'jaligining qayta ishlash va qo'shilgan qiymat yaratuvchi sohalar bilan o'zaro aloqalarining keng yo'lga qo'yilmaganligi raqobatbardosh, chuqur qayta ishlangan ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, sotish kabi boshqa sohalarining ham faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Globalashuvning chuqurlashuvi sharoitida raqobatbardoshlikni oshirishning samarali usuli mintaqaviy iqtisodiy klasterlarni rivojlantirish hisoblanadi. Jahonda jadal rivojlanayotgan tarmoq integratsiya jarayonlari agrosanoat majmuasining zamonaviy rivojlanishida yaqqol namoyon bo'lmoqda, O'zbekiston kabi tranzit iqtisodiyotiga ega davlatlar ham bundan mustasno emas. Mintaqaviy agrosanoat klasterlarini shakllantirish vertikal integratsiyaning o'ta murakkab va ko'p qirrali jarayoni bo'lib, ilmiy, uslubiy va amaliy ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, klasterlash vertikal integratsiyalashgan shakllanishlarning maqsadli vazifalariga zid kelmaydi va agrobiznesning mavjud tuzilmalariga oqilona moslashishni o'z ichiga oladi. O'zbekiston agrosanoat majmuasida klasterlar tashkil etish ancha murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lishiga qaramay, agrosanoat ishlab chiqarishini innovatsion rivojlantirishning haqiqiy va ishonchli yo'lidir. Muallif O'zbekistonda agrosanoat klasterlarini tashkil etish bo'yicha kompleks yondashuvni taklif etadi, uning qo'llanilishi hududlarning raqobatdosh ustunliklarini yanada to'liqroq amalga oshirish imkonini beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida agrosanoat majmuasida yaxlit tuzilmalarning faoliyati bilan bog'liq ko'plab muammolar mavjud bo'lib, ular katta uslubiy va amaliy ahamiyatga ega. Hududiy agrosanoat majmualari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish zarurati hududlar oldiga, birinchi navbatda, mavjud salohiyatdan maksimal darajada foydalanishga xizmat qiluvchi hududiy iqtisodiyotning raqobatbardosh modelini tanlash bilan bog'liq yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Raqobat ustunliklari nazariyasiga klasterli yondashuv asoschisi M.Porterning tadqiqotiga ko'ra, «mamlakat ichida (yoki xalqaro miqyosda) inkor etib bo'lmaydigan raqobat ustunliklariga ega bo'lgan tarmoqlardagi firmalar odatda butun mamlakat bo'ylab tasodifiy tarqalib ketmaydi, balki ularda konsentratsiyaga moyil bo'ladi. mamlakatning xuddi shu mintaqasida".

Biz mintaqaning raqobatbardoshligini oshirishga asoslangan klaster dasturlari muvaffaqiyatini belgilovchi quyidagi ta'sir omillarini aniqladik:

- ilmiy-texnik bazaning yaqinligi;
- infratuzilmani rivojlantirish;
- yetarli resurs bazasi;
- aloqalarni o'rnatish tajribasini tarqatish bo'yicha tajribaga ega yaxlit tuzilmalarning mavjudligi;
- venchur kapitalining mavjudligi;
- tizim tashkilotchilarining tadbirkorlik qobiliyatlari;
- Malakali kadrlar mavjudligi.

“Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash: muammolar va yechimlar”

Shu bois, hudud agrosanoat majmuasining raqobatbardoshligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari sifatida korxonalarining moliyaviy ahvoli, investitsiya faolligi, korporativ rivojlanish, infratuzilmani rivojlantirish, mehnat resurslari sifati, korxonalarining resurslar bilan ta‘minlanishi va boshqa ko‘rsatkichlar indekslaridan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Agrosanoat majmuida uch bosqichli klaster tizimini shakllantirishga yondashuvdan kelib chiqib, assotsiatsiya tamoyilini, integratsiya modelini hisobga olgan holda agrosanoat majmuasida klasterlarni shakllantirishning fundamental modelini ishlab chiqdik, qamrov ko‘lami, bozorga yo‘naltirilganlik darajasi, shuningdek, klaster turi, uning yadrosi va ishtirokchilari (1-jadval).

Model doirasida birgalikda transchegaraviy agrosanoat majmuasi klasterlari, shu jumladan turli darajadagi tashkilotlar paydo bo‘lishi mumkin, ularni trans-darajali deb atash mumkin.

1-jadval.

Agrosanoat majmuasida klasterlarni shakllantirishning prinsipial modeli¹

<i>N^o</i>	<i>Parametr</i>	<i>Mikro daraja</i>	<i>Mezo daraja</i>	<i>Makro daraja</i>
1	Birlashtirish prinsipi	Pastdan tashabbus	Pastdan va yuqoridan tashabbus	Tashabbus pastdan yuqoriga
	Integratsiya modeli	Hududiy va tarmoq	Hududiy va tarmoq, Tarmoqlararo	Tarmoqlararo
2	Klaster turi	Agrar, Agro-sanoat	Agrosanoat, Oziq ovqat	Innovatsion
3	Qoplash (oxvat)	Tuman	Viloyat	Mamlakat
4	Bozorga yo‘naltirilganlik	Ichki bozor uchun ishlab chiqarish	Eksport va import o‘rni bosish	Yangi bozorlarni qidirish va eksport
5	Asosiy xususiyatlar	Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi	Ishlab chiqarish va qayta ishlash	Innovatsiyalar va ularni agrosanoat majmuasiga joriy etish
6	Yadro	Yirik qishloq xo‘jaligi korxonalari yoki ularning birlashmalari	Yirik qayta ishlash korxonalari	Venchur kapital fondlari
7	Yetakchi a‘zolar	DFX, uy xo‘jaliklari	DFX va qayta ishlash sanoati	Tadqiqot tashkilotlari, venchur kapital fondlari

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan

Klasterlarni shakllantirishning ilmiy asosi sifatida O‘zbekiston agrosanoat majmuasida agrosanoat klasterlarini tizimlashtirish belgilangan yondashuvlarni - yuqoridan tashabbus va pastdan tashabbusni uyg‘un ravishda birlashtirgan modelni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Ushbu model, Rossiya agrosanoat majmuasining agrar klasterlarini shakllantirish mexanizmiga o‘xshab, A.S. Xuxrin quyidagilarni taqdim etadi: “uch darajali tizim: mikro-daraja, mezo-daraja va makro-daraja. Boshqacha qilib aytganda, har bir daraja ma‘lum turdagi klasterlarga mos keladi”²

Keling, yuqoridagi darajalarda AIC klasterlarini shakllantirishni batafsil ko‘rib chiqaylik. Mikro darajani tashkiliy, iqtisodiy, ishlab chiqarish va texnologik jihatdan integratsiyalashgan ma‘lum bir agrar hudud uchun asosan pastdan tashabbus bilan shakllantiriladigan mini-klasterlar ifodalaydi.

¹ Muallif tomonidan tuzilgan

² Хухрин А.С. Формирование молочного кластера Самарской области: отраслевой или системно-синергетический подход // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. – 2010. – № 10. – С. 35–38.

Mikrodarajada agrar va agrooziq-ovqat klasteri ichki agrar va oziq-ovqat bozorlariga yo'naltirilgan dehqon xo'jaliklari va tomorqalarini o'z ichiga olgan, yirik qishloq xo'jaligi korxonalarini yoki ularning birlashmalari asosiy rol o'ynaydigan tashkiliy-iqtisodiy tizimdir. Mini-darajada klasterlash ishlab chiqarish samaradorligini va mahsulot raqobatbardoshligini oshiradi. Miniklasterning asosiy xususiyati qishloq xo'jaligining birlamchi ishlab chiqaruvchilari ishlab chiqarishni kontsentratsiyalashdan o'zaro manfaatli ishtirok etish va real foyda olish hamda alohida dehqon xo'jaliklari mahsulotlarini yetkazib berishni birlashtirish imkoniyatidir. Shu bilan birga, dehqon xo'jaliklari amaliyotida ta'minot hajmi va muntazamligi mini-klasterning eng zaif bo'g'ini bo'lib qolmoqda.

“Bu qiyinchilikni yengib o'tishda Markaziy Osiyoda sinovdan o'tgan “Bir qishloq – bir mahsulot” Yapon yondashuvidan foydalanish ma'lum darajada yordam berishi mumkin. O'zbekiston qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ushbu yondashuvni joriy etishning maqsadga muvofiqligi quyidagilardan iborat: qishloq xo'jaligi mahsulotlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining barqaror va kafolatlangan zaxiralarini ichki va tashqi qishloq xo'jaligi bozorlariga chiqish imkoniyatini shakllantirish imkoniyati; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, shu jumladan, kelgusi hosil uchun strategik xaridorlar va investorlarni maqsadli izlash va jalb etish; ishlab chiqarish mexanizmini takomillashtirish va uni intensiv texnologiyalarni joriy etishga moslashtirish; qiymat zanjirini oshirish va qishloq xo'jaligini tijoratlashtirishni oshirish. Mezo daraja mintaqaviy darajani ifodalaydi va yuqoridan va pastdan tashabbus bilan tashkil etilgan agrosanoat va oziq-ovqat klasterlarini o'z ichiga oladi. “Mezollar darajasida klasterlash samaradorligiga qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida vertikal integratsiya natijasida erishiladi, bunda ular o'rtasidagi tarmoq va texnologik chegaralar intensiv ravishda xiralashgan”.¹

Mezol darajadagi klasterlash qishloq xo'jaligi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida ham, integratsiya jarayonlarini hududiy va tarmoqlararo boshqarishning samarali usuli sifatida ham namoyon bo'ladi. Muvaffaqiyatli agrosanoat majmuasi klasterlarini yaratishda raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan uning ishtirokchilarining kvaziintegratsiyalashgan assotsiatsiyadagi kabi o'zaro ta'siridan sinergik effekt yuzaga keladi.

Makrodaraja – makroiqtisodiyotni aks ettiradi va ilmiy-tadqiqot institutlari va ta'lim muassasalari, muhandislik-innovatsion tashkilotlar, innovatsion markazlar va venchur kapital fondlarining salohiyatidan foydalanish lozim bo'lgan milliy ilmiy-tadqiqot klasterini yaratishga qaratilgan. Bu agrosanoat majmuasining ishlab chiqarish tuzilmalariga ham, ta'lim muassasalariga ham qulayliklar yaratmoqda. Makrodarajada innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali raqobatbardosh ustunlik va barqarorlik klasterlashtirishga asoslangan agrosanoat majmuasi tizimida faoliyatning to'g'ri uyg'unlashuvi bilan ta'minlanadi. Klasterlashtirish nuqtai nazaridan hududiy agrosanoat majmuasining eng maqbul (istiqbolli) tarmoqlari quyidagilardir: o'sish tendentsiyasi va ishlab chiqarish hajmining barqarorligi; agrobiznesning ijobiy rentabelligi; mahsulot eksportining sezilarli hajmi; faol investitsion va innovatsion faoliyat.

Biroq, O'zbekiston mintaqaviy agrosanoat majmuasini klasterlashning istiqbolli yo'nalishlarini yanada soddalashtirilgan aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblashni o'z ichiga olgan metodologiyani qo'llash mumkin:

- ✓ ishlab chiqarishni mahalliyashtirish koeffitsienti;
- ✓ ishlab chiqarishning ixtisoslashuv koeffitsienti;
- ✓ aholi jon boshiga ishlab chiqarish.

Quyida O'zbekiston viloyatlari sharoitida ushbu tarmoq mahsulotining umumiy qiymatidan kelib chiqib, umuman o'simlikchilik va paxtachilikni mahalliyashtirish koeffitsientini hisoblash misollari keltirilgan formuladan foydalangan holda:

$K(L)=c1C2/c2C1$, (1) bu yerda:

$K(L)$ -paxta xom-ashyosini mahalliyashtirish koeffitsienti,

$C(1)$ - mamlakatda paxta xom-ashyosi ishlab chiqarish tannarxi,

$C(2)$ - respublikada yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsuloti tannarxi, $c(1)$ - mintaqada paxta xom-ashyosi ishlab chiqarish tannarxi.

$c(2)$ - mintaqada yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxi;

$K(p)=cQ/Cq$, (2) bu yerda:

¹ Михайлов А. Формирование и развитие конкурентоспособных отраслевых кластеров АПК регионов (на примере Курской области) // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. – 2009. – № 12. – С. 7–8.

K(p) - aholi jon boshiga paxta xomashyosi ishlab chiqarish koeffitsienti

c- viloyatda paxta xomashyosi ishlab chiqarish tannarxi Q- respublikadagi doimiy aholi soni q- viloyatdagi doimiy aholi soni.

O‘zbekiston agrosanoat majmuasida klaster tuzilmalariga asoslangan integratsion shakllanishlarni rivojlantirish va ularning innovatsion va sarmoyaviy jozibadorligini oshirishga to‘sqinlik qilayotgan muammolar hamon mavjud. Bu muammolarning mohiyatini ikkita sabab bilan bog‘lash mumkin: birinchidan, mamlakat agrosanoat majmuasidagi umumiy iqtisodiy vaziyat, ikkinchidan, agrosanoat klasterlarining hududiy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari bilan.

Bu O‘zbekistonda agrosanoat klasterlarining rivojlanishi hali agrosanoat sektoridagi vaziyatni sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan miqyosga erishmaganligini oldindan belgilab beradi. Agrosanoat majmuida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularni saqlash, shuningdek, qayta ishlash o‘rtasidagi tafovut hanuzgacha saqlanib qolmoqda, qishloq xo‘jaligini industriyalashtirish va uning resurs salohiyatini degradatsiyalash kuchaymoqda, aholining turmush darajasi yuqori bo‘lmoqda. Qishloqlarda aholi soni yaxshilanmayapti. Shunday qilib, respublikada agrosanoat integratsiyasining rivojlanish holati beqaror va qarama-qarshidir, korxonalariga takror ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini beradigan samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizm mavjud emas.

QISHLOQ XO‘JALIGINI KLASTERLASHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASI

**Buxoro davlat unversitet
Iqtisodiyot kafedrası mudiri
i.f.f.d., professor A.J.Abdulloyev**

Qishloq xo‘jaligi sohasi rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, agrosanoat klasterlari faoliyati qonun (normativ-huquqiy hujjat) bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solinmagan. Mazkur munosabatlar fuqarolik huquqiy munosabatlar asosida, jumladan sheriklik shartnomasi, qishloq xo‘jaligi sub‘ektlarining kooperatsiyaga birlashishi orqali amalga oshiriladi.

Kanada klaster deganda fermer xo‘jaliklari sheriklik shartnomasi asosida (masalan, Ontario provinsiyasida fermerlarning 30 foizi sheriklik shartnomasi asosida faoliyat yuritadi) yoki bir nechta fermerlardan iborat inkorporatsiyasiga yoxud yirik qishloq xo‘jaligi korporatsiyalarga birlashgan holda faoliyati tushuniladi.

Shu bilan birga, jahon tajribasida klasterlarning shakllanish maqsadiga ko‘ra oltita modeli mavjud:

- Italiya modeli — kichik firmalarning katta assotsiatsiyalar bilan raqobatbardoshligini oshirish uchun o‘zaro birlashishi;

- Yaponiya modeli — ko‘plab yetkazib beruvchilarning integratsiyalashgan yirik yetakchi firma atrofida shakllanadigan ishlab chiqarish zanjiri. Bu model texnologik jihatdan murakkab mahsulotlar ishlab chiqirishga qaratilgan;

- Finlyandiya modeli — yuqori texnologiyali innovatsiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni ta‘lim va tadqiqot bilan integratsiya qilish, korxonalarni milliy lashtirish maqsadida biznes va institutlar birlashuvi. Bu model tabiiy resurslari ko‘p bo‘lmagan kichikroq mamlakatlar uchun mos keladi;

- Shimoliy Amerika modeli — korxonalar o‘rtasidagi aniq raqobat bilan tavsiflanib, ishlab chiqarish jarayonida yaqin aloqalarni o‘rnatishni nazarda tutmaydi. Bu model klasterdagi yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobat tufayli, shuningdek, ommaviy ishlab chiqarish tufayli bosh kompaniya yakuniy mahsulotning past narxiga yerishish imkoniyatiga ega bo‘ladi;

- Hind-Xitoy modeli — bu modelda davlat asosiy rol o‘ynaydi. Asosiy e‘tibor chet el investitsiyalariga qaratilgan bo‘lib, ular zamonaviy texnologiyalarni olib kelinishini va davlatning jahon bozorlariga chiqishini ta‘minlaydi;

- Sobiq Ittifoq modeli — bozor munosabatlari va raqobat minimallashtirilgan holda, ishlab chiqarish yirik firmalarda to‘planadi. Bu model aholi zichligi past va kam rivojlangan mintaqalarning sanoatida qo‘llaniladi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, klasterlar faoliyatini innovatsion qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularni innovatsiya maktablari, institutlar, markazlar va boshqa shu kabi muassasalar bilan uzviy bog‘liqligi ta‘minlanadi. Bu esa, klasterlar faoliyatining samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish, shuningdek mamlakatning jahon bozoriga chiqishida raqobatbardoshligiga olib keladi. Xususan, Finlyandiya innovatsiyani klasterlar bilan integratsiyasini ta‘minlash maqsadida, bir qancha tadqiqot muassasalari tuzilgan.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi aksariyat jihatdan uning raqobatbardoshligini oshirishga bog'liqdir. Ushbu yo'nalishda O'zbekistonda agroklasterni barpo etish muhim omil hisoblanadi. Bu borada Janubiy Koreya davlati tajribasi o'zining iqtisodiy, tashkiliy va institutsional jihatlari bilan O'zbekiston sharoitiga o'xshashligi bu davlat tajribasini o'rganish va O'zbekiston sharoitida qo'llash istiqbollari o'rganishni taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi aksariyat jihatdan uning raqobatbardoshligini oshirishga bog'liqdir. Ushbu yo'nalishda O'zbekistonda agroklasterni barpo etish muhim omil hisoblanadi. Biroq agroklasterning respublika sharoitida yangi institutsional tuzilma ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, agroklasterning nazariy va uslubiy jihatlari bilan bir qatorda, xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish muhim omil hisoblanadi.

Bu borada Janubiy Koreya davlati tajribasi o'zining iqtisodiy, tashkiliy va institutsional jihatlari bilan O'zbekiston sharoitiga o'xshashligi bilan ajralib turadi.

Koreyada agroklasterni rivojlantirish zaruriyati asosan quyidagi omillar bilan belgilanganligini ta'kidlagan holda, O'zbekiston sharoitida ham asosiy omillar tarzida inobatga olish mumkin. Jumladan:

- davlatning qishloq xo'jaligiga amaliy yordami va qo'llab-quvvatlashi hamda islohotlarni amalga oshirishdagi yetakchiligi;

- tarixiy va milliy an'analardan foydalanish, ularni saqlab qolish, zamonaviylashtirish asosida yangi yo'nalishlarni shakllantirish;

- hududiy ixtisoslashuv va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va rivojlanishining barqarorligini ta'minlash;

- davlat-universitetlar-ilmiy tadqiqotlar-fermerlik-qayta ishlash biznesning birgalikda faoliyat yuritishining o'zaro mutanosibligini ta'minlash mexanizmi;

- olimlar mavqei va ilmiy tadqiqotlar natijalarining yuqoriligi hamda ularni qo'llab-quvvatlashda davlat siyosati darajasidagi mavqening yuqoriligi;

- yuqori innovatsiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishga ustuvorlik berilishi va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmining shakllanganligi;

- marketing tizimining rivojlanganligi;

- inson kapitaliga munosabatning yuqoriligi va uni qishloqda rivojlantirishga ustuvorlik berilishi.

Ushbu omillarning O'zbekiston sharoitidan kelib chiqqan holda samarali ishlashi uchun keng qamrovli chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilishi lozim. Ma'lumki, agroklasterni davlat, fermerlar, oliy ta'lim va tadqiqot muassalari hamda xususiy korxonalar tashabbusi asosida tashkil etiladi.


Xususan, Janubiy Koreyadagi mashhur Sunchang Pasta ishlab chiqarish klasteri (Sunchang Paste Cluster) mahalliy hokimiyat tomonidan boshqariladigan klaster bo'lib, soya, qalampir, qulupnay, olxo'ri kabilardan turli xildagi mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Ushbu klaster Koreya hukumatining qishloq hududlarida demografik holatni yaxshilash (qishloq aholisi, asosan yoshlarning shaharga ketib qolishini kamaytirish), tarixiy an'analarni asosida ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, qishloqqa sanoat va agroturizmni olib kirish kabi rivojlantirish dasturlari asosida tashkil etilgan. Agroklasterdagi 5292 ta fermer xo'jaligida 9780 gektar ekin maydonida mahsulot ishlab chiqarilib, unda jami 12331 ta kishi ishlaydi¹. Jami 30 ming aholisi bo'lgan ushbu hududning hozirda yillik eksporti 1 million AQSh dollarini tashkil etmoqda. Agroturizm va mehmonxona servisini rivojlantirish hisobiga 2018 yilga borib yillik eksportni 3 million AQSh dollariga yetkazish rejalashtirilgan. Hayratlanarli tomoni shundaki, ushbu kichik bir qishloqqa har yili o'rtacha 12 mingdan ortiq turist tashrif buyuradi. O'zbekistonda ushbu klasterning qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini qo'llab-quvvatlash, tarixiy an'analarni asosida soya, qalampir kabi mahsulotlarni fermentatsiya qilishda oilaviy korxonalar va uylarni aslida saqlab qolish va turizm ob'ektiga aylantirish, agroturizm (shahar aholisi va bolalarning o'z qo'llari bilan meva-sabzavotlarni uzishlari yoki ularni qayta ishlash va tayyorlashda ishtirok etishlari), qishloqda mehmonxona biznesini yo'lga qo'yishda festival va turli tadbirlar o'tkazish tajribalaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, fermerlar uchun axborot-maslahat berish hamda qishloq xo'jaligi agregatlaridan birgalikda foydalanish tajribalari ham diqqatga sazovordir. Bunda markaziy davlat va mahalliy hokimiyat tomonidan moliyalashtirish, turli o'qitish seminar-trening loyihalarini amalga oshirish, markazning faoliyatidagi ishlab chiqarish jarayonlari, mahsulotni qayta ishlash va texnikaviy yordam ko'rsatish kabi dehqon uchun imkoniyatlari cheklanganligi sharoitida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga oid tajribalarni O'zbekistonda nafaqat fermer, balki dehqon xo'jaliklarida ham qo'llash mumkin hamda agroklasterni tashkil etishda mahalliy hokimiyatning qo'llab-quvvatlashi va hududlarning ixtisoslashuvi

¹ Sunchang Paste Cluster: information brochure. 2019

“Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash: muammolar va yechimlar”

va yetishtirayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligiga asosiy e‘tiborni qaratish kabi omillardan foydalanish mumkin.

Chungdo xurmo klasteri (Chungdo Persimmon Cluster) 2019 yilda fermerlar tashabbusi bilan tashkil etilgan. Ma‘lumot o‘rnida aytish kerakki, Koreya dunyoda yetishtirilayotgan barcha xurmo mevasining 12 foizini ishlab chiqaradi¹. Ushbu hududda Koreyadagi urug‘siz xurmoning 65%i yetishtiriladi. Fermerlar tashabbusi asosida tashkil etilgan va boshqariladigan ushbu klaster xurmodan yil davomida yangi uzilgan, yarim quritilgan, quritilgan, fermentatsiya qilingan, xurmo yog‘i, xurmo vinosi, rang va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishga mo‘ljallangan. Xurmo klasteri xurmo yetishtirish-qayta ishlash-narxini saqlash- marketing va reklamani rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu klaster yana bir bor agroklasterde “biznes-universitetlarilmiy tadqiqotlar-davlat”ning birgalikdagi harakati va bunda ilmiy tadqiqotlarga asosiy e‘tibor berilganligiga amin bo‘ldik. Fermerlarning ushbu klasterga qo‘shilishi natijasida oladigan daromadlari boshqa tarmoqlar qo‘shilishi hisobiga keskin oshganligini ko‘rish mumkin. O‘zbekistonda ushbu klasterning mahsulotni oddiy usulda turli ko‘rinishda ishlab chiqarish va bunda ilmiy tadqiqotlarga asosiy urg‘u berish; innovatsion mahsulotlar (m-n, sog‘lik uchun foydali sirop va boshqalar) ishlab chiqarish; yuqori xarid narxlarini orqali fermerlarni klasterga jalb etish, marketing tadqiqotlaridan foydalanish; kadrlar tayyorlash kabi tajribalaridan foydalanish mumkin.



1-chizma. AQSh shaharlarining klasterlarga ixtisoslashuvi²

Iqtisodiy rivojlanishning klasterli yondashuvi ayniqsa AQSh va Yevropa mamlakatlarida keng qo‘llaniladi. Shimoliy Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti klasterlar bilan qamrab olingan bo‘lib, iqtisodiyotda yog‘ochsozlik, biotexnologiyalar, farmasevtika va kommunikatsion klasterlar yetakchilik qiladi. Germaniya va Buyuk Britaniyada biotexnologik klasterlar, Fransiyada oziq-ovqat va kosmetika klasterlari keng tarqalgan bo‘lsa, Italiyada sanoatda band bo‘lgan aholining yarmi sanoat klasterlari hissasiga to‘g‘ri keladi³.

Shunday qilib, agrosanoat majmuida klasterlashtirish iqtisodiyotda raqobatbardoshlik va investitsion jozibadorlikni ta‘minlovchi model bo‘lib, qishloqlarda hayotning yuqori darajasi va sifatini ta‘minlab, tarqoq dehqon xo‘jaliklarini yagona takror ishlab chiqarish jarayoniga jalb etadi. Davlat tomonidan maqsadli innovatsion klaster siyosati olib borilgan taqdirda agrosanoat majmuasini yanada jadal rivojlantirishning asosiy omili sifatida innovatsiyalardan to‘liq foydalanish mumkin.

O‘ZBEKISTONDA QURILISH KORXONALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Boltayev Umidjon Talant o‘g‘li

**“Iqtisodiyot va ko‘chmas mulkni boshqarish” kafedrasini tayanch doktoranti
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti**

Annotatsiya. Hozirgi kunda investitsiyalar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yuqori ko‘rsatkichlarga erishishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bu qurilish sanoatini rivojlantirish va ish unumdorligini oshirish uchun muhim, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy o‘shirishni qo‘llab-quvvatlaydi.

¹ FAOSTAT, www.fao.org/statistics

² <http://www.clustermapping.us/content/clusters-101>

³ <http://ec.europa.eu/enterprise/innovation/index>

Bugungi kunda investitsiyalarsiz qurilishni rivojlantirish mumkin emasligi va qurilish kompaniyalari yirikroq va ishonchli investorlarni jalb qilish uchun o'zlarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llarini izlashlari kerak.

Kalit so'zlar: investitsiyalar, qurilish, jozibadorlik, kompaniyalar, omillar, oshirish, raqamlashtirish

Korxonaning investitsion jozibadorligi tushunchasi - bu kompaniyaning rivojlanishiga investitsiyalarining rentabelligini aks ettiruvchi samaradorlik ko'rsatkichlari to'plamidir. Korxonaning investitsion jozibadorligi korxonaning tashqi muhitini, uning bozorda joylashish darajasini va natijalarni olish imkoniyatini baholovchi moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar to'plamini o'z ichiga oladi.

Qurilish kompaniyalarining investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri bu boshqaruv sifatidir. Investorlar, o'z biznesini boshqarish uchun haqiqatan ham samarali qadamlar qo'yadigan, barqarorlik va ishbilarmonlik faolligini namoyish eta oladigan kompaniyalarni haqiqatan ham qadrlashadi. Sarmoyadorlarni jalb etishda shaffoflik va ochiqlik ham muhim o'rin tutadi. Kompaniya harakatlarida shaffoflikni o'rnatish va ochiq axborot oqimi investorlarga o'zini ishonchli his qilish va muloqotga vaqtini tejash imkonini beradi [1].

Kompaniyaning moliyaviy holati bu yana bir muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu kompaniyaning umumiy moliyaviy tuzilishiga, uning qarz majburiyatlariga va likvidligiga taalluqlidir. Investorlar faqat strategik maqsadlarini moliyalashtirish uchun likvidlik, o'rtacha qarz va etarli kapitalni boshqargan kompaniyalarga sarmoya kiritishdan manfaatdorarlar. Shu qatorda kompaniya xodimlarining tajribasi va malakasi ham muhim omillar safiga kiradi. Investorlar ishning texnik tarkibiy qismini va rahbarlik lavozimlarini boshqaradigan menejerlarning professional darajasini baholaydilar [2]. Bu yetakchi mutaxassislar tajribasi va kompaniyalar tanlagan biznes modellari bilan birgalikda ularga ishonch bilan qaror qabul qilish imkonini beradi.

Bundan tashqari, investorlar uchun jozibadorlik darajasi ham bozor sharoitlariga bog'liq. Bozor oldindan prognoz qilib bo'lmaydigan bo'lsa, investitsiyalar bo'yicha past daromad olishi mumkinligi aniqlanadi va kompaniyalar investorlar bilan hamkorlik qilish uchun mukammal daromad va ishonchlik kabi yaxshi sharoitlarni taklif qilishga majbur bo'ladi [3].

Investitsion jozibadorlikni saqlash va oshirish uchun quyidagi muhim usullardan foydalanish mumkin:

1. Faoliyat va boshqaruvni takomillashtirish. Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va kompaniya faoliyatini takomillashtirish umuman kompaniyaning moliyaviy ko'rsatkichlarni o'sishiga olib keladi.

2. Innovatsion texnologiyalar va zamonaviy usullardan faol foydalanish. Innovatsion texnologiyalardan foydalanadigan qurilish kompaniyalari investorlarning qaror qabul qilishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

3. Kompaniya brendini ilgari surish va imidjini yaxshilash. Brendlari taniqli va sohada yaxshi obro'ga ega bo'lgan kompaniyalar investorlar tomonidan ko'proq ishonch qozonadi [4].

4. Ijtimoiy loyihalar va aksiyalarda faol ishtirok etish.

5. Kompaniya tomonidan original xizmatlar ko'rsatish. Qurilishda yangi mahsulot va xizmatlarning faol rivojlanishi potentsial investorlar uchun jozibador asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Korxonalarining investitsion jozibadorligi investitsiyalarni jalb qilish va ularning uzoq muddatli istiqbolda barqarorligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Buning uchun korxonalar potentsial investorlar nazarida samaradorligini, raqobatbardoshligini va jozibadorligini oshirishga harakat qilishlari kerak. Korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirishning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat: ochiqlik va shaffoflik, boshqaruv va xodimlarning yuqori darajadagi professionalligi, samarali biznes strategiyasi, barqaror moliyaviy ko'rsatkichlar, innovatsiyalar va bozor kon'yunkturasining o'zgarishiga moslashuvchanlik.

Ta'kidlash joizki, korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish doimiy jarayon bo'lib, kompaniya rahbariyatining e'tiborini va biznes jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi. Shunday qilib, korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni joriy etish kompaniyaning muvaffaqiyatli rivojlanishi va uning bozordagi raqobatdosh ustunligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Нуриимбетов, Р. И. (2015). Роль инвестиций в развитии производства промышленности строительных материалов. Вопросы экономики и управления, (2), 6-10.

2. Мэтякубов, А. Д., & Матризаева, Д. Ю. (2020). Экономический анализ эффективности управления инвестициями в промышленности. Бюллетен науки и практики, 6(7), 251-256.

3. Зайнутдинов, Ш. Н., & Нуриббетов, Р. И. (2018). Инновационный путь развития экономики Узбекистана. – Социально-экономическое развитие городов и регионов: градостроительство Nazirovavo, развитие бизнеса, жизнеобеспечение города (с. 256-262).

4. Икрамов, М. А., & Чернышева, К. В. (2022). Формирование бренда в маркетинговых коммуникациях. – Современный менеджмент: проблемы и перспективы (с. 241-246).

MAMLAKATIMIZDA PULLAR TAKLIFINI TARTIBGA SOLISH VA MILLIY VALYUTANI BARQARORLASHTIRISH MASALALARI

Olimova Nodira Xamrakulovna, Farg‘ona davlat universiteti, i.f.n., dotsent,

Sotvoldiyev Nurmuhammad Nematjonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi,
talaba

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash munosabatlari pullarning ishtirokisiz amalga oshmasligi barchamizga ma‘lum. Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday faoliyatning asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan bo‘lib, ushbu faoliyatning asosini ham pul tizimi bilan bog‘liq bir qator munosabatlar tashkil etadi. O‘tgan yil mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tub burilish nuqtasi bo‘lib, yil davomida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida va makroiqtisodiy jarayonlarni tartibga solish borasida amalga oshirilgan jiddiy o‘zgarishlar yangi shart-sharoitlarga mos pul-kredit siyosatini yuritish va uni sifat jihatdan takomillashtirishni hamda bu yo‘nalishda aniq belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishini taqozo etdi va bunga imkoniyat yaratdi.

Shu nuqtai nazardan, yangi iqtisodiy voqeiyliklarda milliy valyutaning barqarorligiga asosan uning ichki xarid qobiliyati pasayishining yoki mamlakatda narxlarning oshishini oldini olish orqali erishish mumkinligini inobatga olib, Markaziy bank tomondan pul-kredit siyosatini amalga oshirishda, asosiy e‘tibor, iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta‘minlashga qaratiladi. Shundan kelib chiqqan holda “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ta‘kidlash lozimki, kelgusida narxlar o‘shirish sur‘atlarining pasaytirib borilishi va barqaror past inflyatsiya darajasining ta‘minlanishi iqtisodiyotning o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi rivojlanishi uchun eng zarur shartlardan hisoblanadi. Xususan, inflyatsiya va u bilan bog‘liq kutilmalarni barqaror past sur‘atlarda bo‘lishiga erishish uzoq muddatli investitsiyalar hajmining oshishiga va bu uchun kerakli bo‘lgan jamg‘armalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Ayni paytda, kelgusi yilda ham iqtisodiyotda kutilayotgan inflyasion bosim va narxlarning o‘shirishiga monetar omillar ta‘sirini minimallashtirish tadbirlarini amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

Xalqaro tajriba tahlili va dastlabki hisob-kitoblar shuni ko‘rsatmoqdaki, narxlar, valyuta va tashqi faoliyatni erkinlashtirish bilan bog‘liq tub tarkibiy o‘zgarishlar va burilishlar davrida kuzatiladigan narxlar darajasining o‘zgarishi natijasidagi yangi muvozanatga iqtisodiyotning moslashuvi uchun ma‘lum vaqt talab qilinadi va bu jarayon mobaynida inflyasion bosim nisbatan yuqori darajada saqlanib turadi. Shundan kelib chiqqan holda Markaziy bank tomondan joriy yilda ham monetar omillarning inflyatsiya darajasiga ta‘sirini minimal darajada saqlab turishga qaratilgan qat‘iy pul-kredit siyosati davom ettiriladi.

Taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatadiki, pullar taklifini tartibga solish amaliyotini takomillashtirish inflyatsiya darajasining oshishiga yo‘l qo‘ymaslik va makroiqtisodiy o‘shirish sur‘atlarining barqarorligini ta‘minlashning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Xususan, «AQSH Federal zaxira tizimi tomondan pul massasining past va barqaror sur‘atlarda o‘shirishining ta‘minlanganligi 2021 yilda inflyatsiyaning past darajada bo‘lishini (2,3%) ta‘minlash imkonini berdi. Bu esa, Federal zaxira tizimiga 2021 yilda tayanch stavkani amaldagi 2,25 foizdan 1,75 foizga tushirish imkonini berdi». «Rossiya Markaziy banki tomondan pullar taklifini tartibga solish amaliyotini takomillashtirilishi, jumladan, tayanch foiz stavkasining moslashuvchanligini oshirish, ochiq bozor operatsiyalari hajmini oshirish yo‘li bilan bank tizimidagi ortiqcha likvidlikni olib qo‘yilishi natijasida inflyatsiyaning yillik darajasini 2021 yilda belgilangan prognoz ko‘rsatkichlari doirasida bo‘lishi (2021 yilda inflyatsiyaning yillik darajasi 3,0% bo‘ldi) ta‘minlandi». Ushbu ko‘rsatkichlar xalqaro doirada pullar taklifini tartibga solish amaliyoti bo‘yicha ochiq bozor operatsiyalarining roli yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Dunyo mamlakatlarida pul massasining past va barqaror darajasini ta‘minlash, pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish, pullar taklifini targetlashni takomillashtirish, inflyatsion targetlash rejimidan foydalanish samaradorligini oshirish, milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlash, pul-kredit siyosatining transmission mexanizmi kanallaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish, pul-kredit siyosati va byudjet-soliq siyosati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash, pul-

kredit siyosatining shaffofligini ta'minlashga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa, pullar taklifini tartibga solish amaliyotini ilmiy asosda tadqiq qilishning dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ilg'or xalqaro tajribada qo'llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek, valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash vazifasi qo'yilgan. Bu esa, pul-kredit siyosatining markaziy masalasi bo'lgan pullar taklifini tartibga solish masalasini ilmiy asosda tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2019 yil 18 noyabrdagi PF-5877-son "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmonlari, 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3272-son "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda yuqoridagi masalalarni tahlil qilish, albatta maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766). – 32-b.
2. Банк России. Годовой отчет 2021. – Москва, 2022. www.cbr.ru.
3. Monetary Policy. <http://www.federalreserve.gov>

KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZBEK MODEL I
УЗБЕКСКАЯ МОДЕЛ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ
UZBEK MODEL OF CORPORATE GOVERNANCE

Maftuna Salimovna
Buxoro davlat universiteti magistri
E-mail: ilhomovabdoqodir@gmail.ru
Тел: +998914124308

Annotatsiya: Korporativ boshqaruv bugungi kunda mamlakat iqtisodiy rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan ushbu tezisda asosan korporativ boshqaruv konsepsiyasi va uning qo'llanilishi hamda O'zbekistonda korporativ boshqaruv tuzilmasi, shuningdek boshqaruvning nazariy asoslari va modeli mavzusiga bag'ishlangan.

Аннотация: Корпоративное управление сегодня играет ключевую роль в экономическом развитии страны. В связи с этим данная тезис в основном касается концепции корпоративного управления и ее применения, а также структуры корпоративного управления в Узбекистане, а также теоретических основ и модели управления.

Abstract: Corporate governance plays a key role in the economic development of the country today. In this regard, this thesis mainly deals with the concept of corporate governance and its application, as well as the structure of corporate governance in Uzbekistan, as well as the theoretical foundations and model of management.

Kalit so'zlar: Korporativ boshqaruv, korporativ boshqaruv modeli, korporativ boshqaruv tizimi

Ключевые слова: Корпоративное управление, модел корпоративного управления, система корпоративного управления

Keywords: Corporate governance, corporate governance model, corporate governance system

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida 2023 yilda amalga oshiriladigan vazifalar haqida fikr yuritilib, tabiatni asrab-avaylash, suv, havo va atrof-muhitni toza tutish har bir mahalla aholisining madaniyati va amaliy harakatiga aylanishi kerakligi aytiladi. Bu borada mavjud vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun ekologiya va atrof-muhitni asrash bo'yicha sa'y-harakatlar, xususan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ishlarning yanada kuchaytirilishi ta'kidlandi. "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish O'zbekistonga ko'plab bonuslar olib keladi, xususan energetika sohasini isloh qilish, toza ichimlik suvi muammolari, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligidagi innovatsiyalar, barqaror shaharlar, chiqindilarni oqilona boshqarish, o'rmon hududlarini kengaytirish, cho'llanishni qisqartirish kabi ko'p qirrali va keng tarmoqli masalar hisoblanadi.

Keyingi paytlarda "yashil" iqtisodiyot, "yashil" loyiha kabi iboralar tez-tez qo'llanilmoqda. Negaki, mamlakatimizda va dunyoda kuzatilayotgan hozirgi iqlim o'zgarishi sharoitida samarali, resurstejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta'minlash bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Yashil" loyihalarni iqtisodiyotning barcha tarmog'ida ilgari surish jarayonida taklif etilayotgan texnologiyalar, uskunalari, qurilmalar, tizimlar va materiallarning barchasi "yashil" mezonlarga, xususiyatlarga moslashtirilgan.

“Yashil iqtisodiyot” insonning tabiatga bo‘lgan munosabatini muqobillashtirish asosida atrof-muhit tozaligini, tabiiy resurslar va ishlab chiqarilgan mahsulotlardan samarali foydalanish orqali turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Ayni jarayonda shakllanadigan “yashil shahar”, “yashil transport”, “yashil o‘shirish”, “yashil hudud”, “yashil kimyo”, “yashil texnologiya”, “yashil energiya” tushunchalari “yashil iqtisodiyot”ni shakllantiruvchi muhim yo‘nalishlar hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sektori, yashil iqtisodiyotning amalga oshirilishi va rivojlanishi uchun muhim bir maydon hisoblanadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda, qishloq xo‘jaligini o‘ta muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblangan chorvachilik tarmoqlarida dunyodagi ilg‘or tajribalar hamda zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish, butun chorvachilik tarmog‘ini iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘shirib borayotgan mamlakatimiz aholisini chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish, ichki iste‘mol bozorlarda go‘sht, sut, tuxum, asal va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmlarini yanada ko‘paytirish hamda ularning narxlari barqarorligini doimiy ta‘minlash eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Respublikada qishloq xo‘jalik mahsulotlari yalpi ulushining 44 foizi chorvachilik tarmoqlari mahsulotlari hisobiga to‘g‘ri kelishi kuzatilmoqda.

Chorvachilik xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishda alohida o‘rin egallaydi. Shu tufayli bu muhim sohani rivojlantirishga Respublikamiz Prezidenti va Hukumatimiz tomonidan katta e‘tibor berib kelmoqdalar. Prezidentimiz tomonidan sohaga doir ko‘plab qarorlar imzolangan ushbu sohani isloh qilishga har qachongidan ham bugun dolzarbligining isbotidir. Jumladan, 2019 yil 16 martda qabul qilingan “Chorvachilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va qo‘llab quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4243-sonli, 2019 yil 28 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va Chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4254-sonli hamda 2019 yil 20 maydagi “Yaylov to‘g‘risida”gi O‘RQ- 538-sonli Qonuni bunga yaqqol misol bo‘ladi. Bu Qonun va Qarorlar shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mol bosh sonlarini ko‘paytirishni rag‘batlantirishga hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda chorvachiligimizni yanada rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud. Buning uchun barcha chorvachilik yo‘nalishlaridagi institutlarimizning, ulardagi tadqiqotchi olimlarimizning asosiy vazifasi chorva mollarimizning mahsuldorligini ta‘minlash, ularni to‘la qiymatli oziqlantirish, chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish va sifatini oshirish, yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning oldini olish va davolash, ozuqabop ekinlarning sermahsul nav va duragaylarini yaratishning ilmiy asoslarini va samarali usullarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Fermer va dehqon xo‘jaliklarida chorva-mollarning mahsuldorlik xususiyatlarini yaxshilash, ularni to‘la qiymatli oziqlantirish, asrash sharoitlarini yaxshilash, pushtdorlik xususiyatlaridan unumli foydalanish, yiliga har bir bosh sigirdan bir boshdan buzoq olish, sun‘iy urug‘lantirish usulidan keng foydalanish, buzoqlarni maqsadga muvofiq o‘stirishni tashkil etish va qoramol zotlarining mahsuldorlik salohiyatidan to‘liq foydalanish bugunning eng dolzarb vazifalaridandir.

Qora-ola zotli qoramollar mintaqa hududlarida urchitish va ko‘paytirish uchun rayonlashtirilgan, ushbu tur O‘zbekistonda bosh soni va sigirlarining sut mahsuldorligi jixatidan birinchi o‘rinni egallaydi. Ushbu zotga mansub tug‘ilgan buzoqlar tirik vazni 32-42 kg, yetuk e‘shdagi sigirlar 480-500 kg, buqalar 850-1000 kg va undan yuqori vaznga ega. Buzoqlari jadal o‘stirilganda o‘rtacha 800-1000 g va undan yuqori sutkalik vazn orttiradi, 15-16 oyligida buqachalari go‘sht uchun boqilganda o‘rtacha 420-480 kg tirik vaznga ega bo‘ladi. So‘yim chiqimi 52-55 foizni, bo‘rdoqiga boqilganda 60 foizni tashqil etadi.

Chorvamollarni oziqlantirishda ozuqa me‘yori belgilanadi. Bunda 20 dan ortiq ko‘rsatkich hisobga olinadi. Bularga ratsion tarkibidagi quruq modda, quruq modda tarkibida energiyaning miqdori, xom protein, hazmlanuvchi protein, yog‘, qand, kraxmal, kletchatka, vitamin A (karotin), vitaminlar D va Ye hamda makro va mikroelementlar hisobga olinadi.

1-jadval

Tirik vazni 450-500 kg bo‘lgan sog‘in sigirlarning oziqlantirish me‘yori

Ko‘rsatkichlar	Sut sog‘imi, kg			
	8	12	16	20
Ozuqa birligi, kg	8-8,6	10-10,6	12-12,6	14,2-14,6
Almashinuvchi energiya, Mj	95-110	115-126	138-148	160-180
Quruq modda, kg	10,7-12,3	12,5-14,1	14,1-15,8	15,8-17,2

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

Protein, g	1170-1260	1540-1630	1845-1940	2185-2245
Xazmlanuvchi protein, g	760-820	1000-1060	1200-1260	1420-1460
Kletchatka, g	3000-3450	3380-3810	3670-4110	3790-4130
Kraxmal, g	900-970	1350-1435	1620-1705	1920-1975
Qand, g	600-645	900-955	1080-1135	1280-1315
Yogʻ, g	225-240	320-340	385-405	455-465
Osh tuzi, g	52-57	68-73	84-89	100-105
Kaltsiy, g	52-57	68-73	84-89	100-105
Fosfor, g	36-39	48-51	60-63	72-75

Izoh: Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutining fermer va dehqon xo'jaliklari hamda aholi xonadonlarida qoramolchilikni rivojlantirish bo'yicha amaliy qo'llanmasining ma'lumotlari asosida shakllantirildi

Sigir qancha ko'p sut bersa, ratsiondagi bir kg. quruq moddaning tarkibida shuncha ko'p energiya bo'lishi shart. O'rta hisobda bir kg. quruq modda 0,65 ozuqa birligi, ko'p sut beradigan (25-30 kg.) sigirlarda esa bu ko'rsatkich 1,5 ozuqa birligiga teng bo'lishi tavsiya etiladi.

Bir xil me'yorda oziqlantirish tipini xo'jaliklarda joriy etish ijobiy natijalar beradi. Yilning barcha fasllarida mollarga dag'al, shirali va konsentrat ozuqalar mikserlarda aralashma holda tayyorlab beriladi. Ozuqalarning xushta'mliligini oshiradi. Mikser ozuqa tarqatgich bilan ozuqalarni aralashtirib berish sut mahsuldorligini 10-12 foizga oshiradi va bundan tashqari qishgi ratsiondan yozgi ratsionga yoki yozgidan qishgi ratsionga o'tish jarayonidagi salbiy holatlarning oldi olinadi.

Ratsion tarkibida 24,0 foiz dag'al, 45,0 foiz shirali va 31,34 foiz yem ozuqalar bo'lib, bu nisbat sigirlarning ozuqalarni ishtaha bilan yeyishi va uning hazm bo'lishining biologik xususiyatlariga juda mos tushadi. Ratsionning bir ozuqa birligiga 1,42 kg. quruq modda, 2,76 Mj almashinuvchi energiya, 126,2 g hazmlanuvchi protein, 378 g kletchatka, 81,98 g qand va 32,3 mg. karotin to'g'ri keladi.

Yuqorida keltirilgan chorvamollarni maqsadga muvofiq o'stirish, sigirlarni to'la qiymatli oziqlantirishni tashkil etish, ularni asrash, sog'ish texnologiyasini qo'llash, naslchilik ishlarini amalga oshirish, veterinariya-sanitariya tadbirlariga rioya qilish, ozuqabop ekinlarni yetishtirish bo'yicha tavsiyalardan foydalanish qoramolchilikni yanada rivojlantirish, ilmiy hamda tabiiy ishlab chiqarish mahsulotlari keng rivojlanishiga yordam beradigan muhim omillar bo'lib hisoblanadi. Bu muvaffaqiyatli ishlab chiqarish usullari bilan birga, yashil iqtisodiyot tushunchasi qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sektoriga injeksiya qilinadi, bu esa daromad sifatini yaxshilaydi va bugungi kundagi tabiiy sifatli istemol muammolariga yechim bo'laoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shoimardonkulovich, Y. D., & Hamidovich, R. O. (2020). Elaboration of regional strategies for the development and improvement of land and water in agriculture. Academy, (2 (53)).
2. Shoimardonkulovich, Y. D. (2020). The importance of management in the field of service. Вопросы науки и образования, (14 (98)), 16-19.
3. Yavmutov, D. S. (2020). Opportunities for the development of non-traditional tourism in Bukhara.
4. Abdullayevna, Q. Z., Anvarovich, Q. A., & Muxtorovna, N. D. Theoretical foundations of enhancing the competitiveness of the national economy. gwalior management academy, 87, 54.
5. Asliddin, A., & Suxrob, D. (2015). Role of agricultural marketing in economic development. Economics, (8 (9)).

Iqtisodiyotni “yashil iqtisodiyot” asosida samarali rivojlantirish.

**Qosimova Hilola Jamshedovna
BDU, Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi
Saidova Mahliyo Oqil qizi
BDU talabasi**

Annotatsiya: “Yashil” iqtisodiyotga o'tish siyosati boshidanoq aholi manfaatlarini hisobga olgan holda amalga oshirishni nazarda tutadi. Ekologiya, iqtisodiyot, infratuzilma va aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi sa'y-harakatlarni uyg'unlashtirish sharoitida xalq farovonligini uzoq muddatga yaxshilash kelajak avlodlarga atrof-muhit va inson pesurslarini yo'qotishning oldini olish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: “Yashil” iqtisodiyot, iqtisodiyot, ekologiya, tabiiy resurslar, infratuzilma.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish nafaqat alohida milliy iqtisodiyotni, balki butun sayyora barqarorligini belgilaydigan global tendensiyadir. Bir vaqtlar oddiy tabiat hodisasi sifatida qaralgan iqlim o‘zgarishlari bugun jahonda global tahdid tusiga kirdi. Hatto, dunyo hamjamiyati mazkur xavfni insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri, deya tan olmoqda. Unga qarshi o‘z vaqtida chora ko‘rmagan davlatlar esa iqlim o‘zgarishlari yuzaga keltiradigan jiddiy oqibatlariga qarshi katta mablag‘larni mobilizatsiya qilishlariga to‘g‘ri keladi.

Bu masala allaqachon, nafaqat muayyan mamlakatlar, balki jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta‘sir ko‘rsata boshladi. Aslida ham ekologik muammolar ijtimoiy-g‘oyaviy va hududiy chegara bilmaydi. Ularning oldini olishda yagona samarali yo‘l esa dunyo xalqlari, barcha millat va elatlar e‘tiborini tabiat va jamiyatdagi nomutanosiblik hamda uning kun sayin keskinlashib borayotganiga qaratish hisoblanadi. Mutaxassislarning fikricha, "yashil iqtisodiyot" an‘anaviy "jigarrang iqtisodiyot"ga qaraganda qisqa muddatda YaIMning o‘sishini, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadning ortishini va ish bilan ta‘minlanishni bir xil yoki undan yuqoriroq ko‘rsatkichda oshirishi mumkin. So‘nggi paytlarda o‘tkazilgan xalqaro munozaralar "yashil iqtisodiyot" tushunchasini aniq ishlab chiqish, uni barcha mamlakatlar manfaatlarini nuqtai nazaridan amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni chuqur tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. "Yashil iqtisodiyot"ga o‘tish strategiyasi yirik investitsiyalarni (yiliga YaIMning 2 foizigacha) talab qiladigan murakkab jarayon bo‘lib, iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlariga ta‘sir qiladi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, "yashil iqtisodiyot" mintaqaviy rivojlanishni rag‘batlantiradi, ijtimoiy barqarorlikka ko‘maklashadi, "yashil iqtisodiyot" tarmoqlarida yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishga erishish mumkin.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, asrimizning oxiriga borib iqlim o‘zgarishlari oqibatida dunyo yalpi ichki mahsuloti 20 foiz iqtisodiy zarar ko‘rishi mumkin. Jarayon bilan bog‘liq salbiy ta‘sirlarga, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasi o‘ta moyilligi bilan ajralib turadi. Shu bois, global tahdidga qarshi Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zaro hamkorlikda kompleks yechimlarni topishi nihoyatda muhimdir. Butun dunyoda atrofimizni o‘rab turgan tabiiy muhitning holati va “yashil” iqtisodiyotning tatbiq qilinishi bo‘yicha ma‘lum bir xavotirlar mavjud. O‘zbekiston ham ushbu holatga loqayd munosabatda emas.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev rahbarligi ostida “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” va “Parij bitimi”, shuningdek, 2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida samarali va keng miqyosli islohotlar o‘tkazilib, ularning samarasi mamlakatimiz va jamiyatimiz hayotida namoyon bo‘lmoqda. Mamlakatimiz Prezidentining “Yashil o‘sish va global maqsadlar yo‘lida hamkorlik - 2030” (P4G) xalqaro sammitida so‘zlagan nutqi yuqoridagi maqsadlarning yaqqol misoli bo‘lib, ushbu ma‘ruzasida u iqlim o‘zgarishi, uning oqibatlarini yengib o‘tish, tabiatning “yashil” tiklanishi va uning uglerodli neytralligini ta‘minlash bo‘yicha xavotirlarini, shuningdek BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va Iqlim bo‘yicha Parij bitimini bajarish haqida bayon qilgan. Davlatimiz rahbarining ochiq va pragmatik tashqi siyosati, tashabbuslari tufayli so‘nggi yillarda qo‘shni, yaqin va uzoq mamlakatlar bilan mutlaqo yangi — sog‘lom siyosiy va iqtisodiy aloqalar yo‘lga qo‘yilgani bunga imkoniyat yaratmoqda. Hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari qatorida shubhasiz, ekologik muammolarga ham alohida e‘tibor qaratilyapti. Shu jihatdan, Prezidentimizning 16—18 dekabr kunlari Koreya Respublikasiga amalga oshirgan rasmiy tashrifi barcha sohalar qatori pandemiyadan keyingi davrda iqlimning barqaror kelajagiga erishish uchun yangi jihatlar va hamkorlikni belgilash uchun “noyob imkoniyat” bo‘ldi. Boisi, bugungi kunda Koreya Respublikasi dunyo davlatlari orasida rivojlanishda “yashil iqtisodiyot” tamoyiliga o‘tgan lider davlatlardan biri bo‘lib qolmoqda. An‘anaviy rivojlanish modelining beqarorligi iqtisodiyotni transformatsiya qilishning yangi rivojlanish konsepsiyasini izlab topishga yo‘l ochmoqda. Iqtisodiy o‘sishning an‘anaviy modelidan “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish nafaqat alohida milliy iqtisodiyotni, balki butun sayyora barqarorligini belgilaydigan global tendensiyadir. Hozirda “yashil o‘sish” ko‘plab davlatlarning maqsadi, global ekologik muammolarni hal qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyasiga ko‘ra, davlatlar o‘z yalpi ichki mahsulotining hech bo‘lmaganda 1 foizini “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga yo‘naltirishi lozim. Bu ko‘rsatkich AQSh, Shvesiya, Italiya va boshqa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda 1 foizdan oshmagan bir paytda, Koreyada 3 foizni tashkil etmoqda.

Mamlakatlar miqyosida tahlil qilinganda, Germaniya iqtisodiyotning barcha sohalariga yashil tamoyillarni joriy etishda chiqindisiz ishlab chiqarish siklini yaratgan ushbu sohadagi ilg‘or davlatlardan biridir. Germaniya chiqindilarni qayta ishlash hamda ulardan qayta foydalanish bo‘yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi. Germaniyada patentli texnologiyalarning 23 foizi atrof muhit sohasiga to‘g‘ri keladi va shamol, quyosh energetikasi sohasidagi kompaniyalarning 30 foizdan ortig‘i nemis kompaniyalariga tegishli. Yashil sektorda, ya‘ni atrof-muhit va iqlimni muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarda

(energiya, transport, qayta ishlash, chiqindilarni yo'q qilish va boshqalar) nemis korxonalaridagi faoliyat yuritayotgan ishchilar soni, taxminan 2 million kishini yoki jami iqtisodiy faol aholining 4,5 foizini tashkil qiladi. Bugungi kunda bu ko'rsatkich o'sish tendensiyasiga ega. Ekologik innovatsiyalar sohasida Shvetsiya tajribasi muhim ahamiyatga ega. Shvesiya - qayta tiklanadigan energiya va mahalliy yoqilg'i manbalaridan foydalanish bo'yicha jahonda yetakchi mamlakat hisoblanadi. Yel universiteti olimlari tomonidan sayyoradagi "yashil" mamlakatlar ro'yxatini ishlab chiqilganda, Shvesiya ushbu reytingda birinchi o' rinni egallagan. Bugungi kunda mamlakat hukumati iqtisodiyotning barcha sohalarida yashil tamoyillarni joriy etish bo'yicha faol siyosat olib bormoqda. Energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya manbalari asosiy va ustuvor yo'nalishlar bo'lib, energetika va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasi siyosat darajasiga chiqarilgan. Shvesiyada maishiy chiqindilarning 96 foizi yo'q qilinadi, bu dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishda uy egalariga soliq imtiyozlari beriladi. Shuningdek, avtomobil uchun ekologik toza yoqilg'idan foydalanadigan avtomobil egalari uchun soliq ham kamaytiriladi. Bundan tashqari, shaharda bepul mashina joylari ham taklif etiladi. Mamlakatda bunday avtomobillarning ulushi yildan yilga oshib bormoqda. Bular, albatta, mamlakat ekologiyasiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatuvchi qo'shimcha chora-tadbirlar guruhiga kiradi.

2019 yilda O'zbekiston MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib Global yashil o'sish institutiga a'zo bo'ldi. Yurtimiz Parij bitimi doirasida 2030 yilga qadar parnik gazlarni atmosferaga chiqarishni 10 foizga qisqartirish bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni muntazam bajarib kelmoqda.

Bu borada O'zbekistonning Koreya bilan hamkorligi "yashil" iqtisodiyotni ta'minlash uchun xalqaro hamkorlikni takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik munosabatlari orqali innovatsion "yashil" investitsiyalarni rag'batlantirish, iqtisodiyotga ekologik toza texnologiyalarni to'liq joriy etish kabi maqsadlarga qaratilgan. Hozirda Koreya bilan tuzilgan "yangi kurs" loyihasining asosiy elementi bo'lgan raqamli va "yashil" sohalarida hamkorlikni kengaytirish bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumini asosida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda aholi turmush darajasini oshirish, fuqarolarning dolzarb muammolarini hal etish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash va hududlarni rivojlantirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratish maqsadida "aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish konsepsiyasi qo'llanilayotgani ham alohida ahamiyatli. Bu borada Koreya Respublikasining boy tajribasidan foydalanish ushbu maqsadlarda belgilangan milliy marralarni samarali amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, "yashil iqtisodiyot" mintaqaviy rivojlanishni, ijtimoiy barqarorlikka erishishni, "yashil iqtisodiyot" tarmoqlarida yangi ish o'rinlari yaratilishi orqali iqtisodiy salohiyatni oshirishni rag'batlantiradi. "Yashil iqtisodiyot", asosan, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi va yalpi ichki mahsulotning o'sishini, mamlakat daromadlarini oshirishni, aholini ish bilan ta'minlash, mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytirishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, "yashil iqtisodiyotga" o'tish iqlim o'zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo'qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi. Ammo butun jahon rivojlanishini olib qaralsa, uning umumiylik xususiyati namoyon bo'ladi, ya'ni, bugungi dunyo sivilizatsiyasi kuch to'plagan, o'z qudratining eng yuqori nuqtasiga yetgan vaqtda jahonning barcha mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishda ekologik yo'naltirilgan model tanlanmas ekan, globallashuv sharoitida butun sayyoraning asta-sekin tanazzulga yuz tutishi va butunlay yo'q bo'lib ketishgacha borish xavfi yuzaga keladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezident-shavkat-mirziyeevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi-28-12-2018>
2. Shavkat Mirziyoyev qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. <https://daryo.uz/k/2019/09/06/shavkat-mirziyoyev-qishloq-xo'jaligini-tartiblantirish-ustuvor-yo'nalishlariga-bag'ishlangan-yig'ilish-otkazdi/>
3. Jamshedovna K. H. The Role of Corporate Governance in Bank Management //EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2022. – T. 2. – №. 11. – С. 32-36.
4. Зумрат ГАИБНАЗАРОВА. «Яшил» иш ўринларини яратиш орқали экологик барқарор иқтисодиётга адолатли ўтиш//ИПМР конференция-ст-132
5. Abdulloyev A. Қишлоқ хўжалигида кластер механизмидан фойдаланишни такомиллаштириш масалалари //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.

O‘ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING TA‘SIRI.

Narzullayeva G.S.

Buxoro Davlat Universiteti

iqtisodiyot kafedrası katta o‘qituvchisi

Sobirova Nodira

Buxoro Davlat Universiteti 2-kurs talaba

Annotatsiya: Quyida ta'kidlab o'tiladigan holatlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholini ish bilan taminlash va yangi ish o'rinlarini yaratishdagi roli naqadar muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekistonda aholi bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ta'sirini tadqiq etishga qaratilgan maqolaning mavzusi dolzarb hisoblanadi.

Kalit so'zlar: biznes, tadbirkorlik subyektlari, real daromad, aholi bandligi, xususiy mulk, tashqi va ichki migratsiya, aholi bandligi, YaIM.

Maqolaning maqsadi: O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan, hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki, kichik biznes va tadbirkorlik sohasini rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda. Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko'p mablag' talab etmaydigan xo'jalik faoliyati sifatida resurslar aylanm asining yuqori sur'atlarini ta'minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste'mol bozorini shakllantirish va uni to'ldirish muammosini tez hamda tejamli tarzda hal etadi. Kichik korxonalar iste'mol talabining o'zgarishiga darhol moslashadi va shu yo'l bilan iste'mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta'minlaydi. Kichik biznes yangi ish o'rinlarini yaratishi bilan ishsizlik muammosini hal etishda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal yetishda ham etakchi o'rin tutmoqda. Oxirgi yillarda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni yil sayin ortib borayotganidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni yanada barqaror qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida" 2021-yil 17-iyuldagi PF-6263-sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son qarorlari qabul qilingan.¹

Bugungi kunda respublikamizdagi ustuvor yo'nalishlardan biri - aholi bandligini oshirish, ishchi kuchidan maqsadli foydalanish, foydali mehnatga layoqatli aholining ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash, ishsizlikni bartaraf etish va mehnat bozorini tartibga solish bo'yicha faol ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib boradi. Chunki mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo'shilishning muhim manbai bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda ishsizlik darajasi 9,6 foizni tashkil etdi.

2022 yil 1 yanvar holatida O'zbekistondagi mehnat resurslari soni 19 million 345 ming kishini tashkil etdi. Mamlakatda 1 million 441,8 ming kishi ishga muhtoj bo'lib, ishsizlik darajasi 9,6 foizga yetdi. Yoshlar orasida ishsizlik darajasi 15,1 foizni, ayollar orasida esa 13,3 foizni tashkil etdi.²

Shu boisdan aholi bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka ko'proq e'tibor berilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni³

¹ <https://lex.uz/docs/-4472973?ONDATE=01.04.2022>

² <https://www.gazeta.uz/oz/2022/03/08/unemployment/>

³ <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/usreo-2>

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	262930	334767	411203	462834	523556
Qoraqalpog'iston Respublikasi	11985	14677	18288	19998	22863
Andijon	22560	25807	31683	34999	39038
Buxoro	14805	19981	24809	27690	30082
Jizzax	11197	14011	17725	19463	22474
Qashqadaryo	16218	20304	25297	31152	36421
Navoiy	9104	14885	17931	20472	22844
Namangan	16975	21461	26531	28949	32305
Samarqand	19629	25643	33114	40724	47943
Surxondaryo	11618	15509	21563	24395	27368
Sirdaryo	8318	11026	13360	13808	15036
Toshkent	25410	32602	40223	44156	49145
Farg'ona	23304	29300	36117	40403	46350
Xorazm	11815	15453	18875	21984	25616
Toshkent sh.	59992	74108	85687	94641	106071

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2023 –yil 2019- yilga nisbatan hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni Qoraqalpog'iston Respublikasi(10878), Andijon(16478), Buxoro(15277), Jizzax(11277), Qashqadaryo(20203), Navoiy(13740), Namangan(15330), Samarqand(28314), Surxondaryo(15750), Sirdaryo(6718), Toshkent(23735), Farg'ona(23046), Xorazm(13801), Toshkent sh(46079) kishiga oshdi.

Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlash, davlat nazoratini takomillashtirish va "Soliqchi – ko'makchi" tizimi orqali ularga nisbatan ma'muriy va soliq yukini kamaytirish, shuningdek, tadbirkorlarning muammo va takliflarini bevosita o'rganish, tadbirkorlikni kelgusida rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha 2021 yil 20 avgust kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida:


a) quyidagilar 2021 yil 1 oktyabrdan boshlab bekor qilinadi:

qat'iy belgilangan miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'lovchisi bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan soliq organlariga soliq hisobotini topshirish majburiyati; alohida tayyor import iste'mol tovarlarining bojxona deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan sanadan keyin 12 oy o'tgach sotuvga qo'yilishi hamda chakana savdoda realizatsiya qilinishiga qo'yilgan taqiq;

b) 2022 yil 1 yanvardan 2023 yil 1 yanvarga qadar respublika tumanlarida (Toshkent shahri bundan mustasno) faoliyat yurituvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlariga belgilangan ijtimoiy soliq stavkasi ikki baravarga pasaytirilgan holda bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida belgilanadi va boshqalar.¹

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bu qadar jadal rivojlanishida, avvalo mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlari yetarli darajadagi rag'batlantiruvchi rol o'ynayotganligi hisoblanadi. Jumladan, bu borada 2021 yilda kichik sanoat korxonalarini uchun yagona soliq to'lovi 5 dan 4 foizga pasaytirildi, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun esa qayd etilgan soliq miqdori o'rtacha 1,0 barobar kamaytirildi.

¹ aveconomy.uz/index.php?newsid=190&seourl=tadbirkorlik-subektlari-uchun-mamuriy-va-soliq-yukini-yanada-kamaytirish-biznesning-qonuniy-manfaatlarini-himoya-qilish-tizimini-takomillashtirish-chora-tadbirlari-togrisida&seocat=asosiy/yangiliklar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlari uchun belgilangan soliq stavkalari¹

Chizmadagi ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, 2010-2021 yillar mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun belgilangan soliq stavkalari 7 dan 4 foizgacha, ya‘ni 3,0 marta qisqargan.

Muammolari: Shu bilan bir qatorda kichik biznes salohiyatini to‘liq amalga oshirishiga to‘sqinlik qiladigan muammolarni ta‘kidlab o‘tishimiz lozim.

1. Kichik biznesda bandlarning 62 foizidan ko‘prog‘i yakka tartibdagi tadbirkorlikda band bo‘lsa, atigi 16 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalarga to‘g‘ri kelmoqda. Kichik korxonalarning bandlikdagi past darajalari Navoiy (11,3 %), Qashqadaryo (12,4 %) va Toshkent viloyatiga (13,2%) to‘g‘ri kelmoqda.

Kichik biznesda bandlarning 34,2 foizi qishloq xo‘jaligida, 12,7 foizi - sanoatda, 11,6 foizi qurilishda, savdoda 13,4 foizi va 28,1 foizi xizmatlar sohasida band.

2. Yuqoridagi bandlarning tarmoqlar kesimidagi tahlildan ko‘rinib turibdiki, boshqa tarmoqlarga nisbatan yaratilayotgan ish o‘rinlari samaradorligi yuqori bo‘lgan sanoat tarmog‘ida kichik biznesning nisbatan past darajadagi o‘rnini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu ko‘rsatkichni hozirgi o‘sish darajasining saqlanib qolishi kelgusida aholining ish haqi va tadbirkorlik faoliyatidan oladigan real daromadlarining oshishi bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu holat davlatning aholiga ajratadigan ijtimoiy kafolatlarini cheklashga olib kelishi mumkin.

3. Kichik biznes sub'yektlari sonining savdodagi ulushi yuqori darajada saqlanib qolmoqda (jami kichik biznes sub'yektlarining 26,7%i yoki 63,7 mingta sub'yekt). Chakana savdo tovar aylanmasida esa, 20,2%i kichik biznes va mikrofirmalarning ulushi tashkil etgan bo‘lsa, yakka tartibdagi tadbirkorlarning ulushi 69,4%i ni tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin, bu bank sektoriga pul tushumiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va kichik biznes sub'yektlarining soliq solinadigan bazasida nomuvofiqliklarni keltirib chiqaradi.

4. Hududlar kesimida kichik biznes sub'yektlari sonini qaraydigan bo‘lsak eng ko‘p sub'yekt Toshkent shahrida (22,6%), Toshkent (9,6%), Farg‘ona (8,8%) va Andijon (8,7%) viloyatlari o‘z faoliyatlarini yuritishmoqda. Bu to‘rt hududda kichik biznes sub'yektlarining umumiy sonining 50%i atrofida o‘z faoliyatini amalga oshirmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, Sirdaryo (3,2%), Navoiy (3,3%) va Jizzax (4,2%) kabi respublikamizning boshqa viloyatlarida kichik biznes sub'yektlarining mavjud potensialidan yetarli darajada foydalanilmayotganidan darak bermoqda.²

Imkoniyatlari (muammoning yechimlari): Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta‘minlash, ishsizlikni bartaraf etish va mehnat bozorini tartibga solish bo‘yicha faol ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib boradi. Chunki mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish

¹ <https://mineconomy.uz/uz/node/1242>

² <https://mineconomy.uz/uz/info/2093>

milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo‘shilishning muhim manbai bo‘lib hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholi bandligini ta‘minlash maqsadida quyidagi qator chora tadbirlar ko‘rilmogda:

1. Mehnat qonunchiligi tobora takomillashtirilib, joylardagi bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari faoliyati kuchaytirilmogda.
2. Yangi ish o‘rinlari yaratayotgan ish beruvchilar rag‘batlantirilmogda, ularga soliq, kredit va boshqa imtiyozlar berilmogda.
3. Mehnat bozorida ishchi kuchi sifati va raqobatdoshligini oshirish maqsadida mehnat resurslarini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi yanada takomillashtirilmogda.
4. Aholini ish bilan ta‘minlashning eng samarali vositalari bo‘lgan kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kasanachilik, xizmat ko‘rsatish va servis sohasi yanada jadal sur‘atlarda rivojlantirilmogda.
5. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan toifalari moddiy qo‘llab-quvvatlanmogda, ular uchun ish o‘rinlarini kvotalash tartibi yo‘lga qo‘yildi. 208 ming nafardan ortiq ijtimoiy [himoyaga muhtoj kishilar](#), birinchi navbatda, ko‘p bolali ayollar, nogironlar va aholining shu kabi toifa vakillari ish bilan ta‘minlandi.
6. Davlat va mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan vaqtinchalik va jamoat ishlari tashkil etilyapti.
7. Tashqi va ichki migratsiyani tartibga solishga e‘tibor kuchaytirilmogda.

O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarning bosh maqsadi ochiq tashqi siyosatli, barqaror ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolar jamiyatini qurish hisoblanadi. Respublikada bozor qayta o‘zgartirishlari qat‘iy va izchil amalga oshirilmogda. Shu sababli ham, Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi sharoitlar yaratilgan:

1. Kichik biznes subyektlarining ro‘yxatdan o‘tish vaqti 30 daqiqani tashkil etadi. Yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun faqat bir dona, yuridik shaxs sifatida kichik korxonani ro‘yxatga olishda esa - ikki dona hujjat talab etiladi.

2. Deyarli barcha tarmoqdagi kichik korxonalar kichik biznesni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning muhim omili hisoblanadigan yagona soliq to‘lovi stavkasi, realizatsiya qilingan tovarlar va xizmatlar hajmining 5% ni tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda kichik biznes subyektlari uchun yagona ijtimoiy to‘lovning amaldagi stavkasi 15% ni tashkil etadi.

3. Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi ishlab chiqarish korxonalarga besh yil davomida ular ro‘yxatdan o‘tgan kunidagi soliq va majburiy to‘lovlar stavkasini qo‘llash huquqi beriladi. 2018-yildan boshlab 1 gektardan ko‘proq yer maydoniga ega bo‘lgan kichik korxonalar yagona yer solig‘i to‘lashi belgilab qo‘yildi.

4. Kichik biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash quyidagi yo‘llar orqali amalga oshirilmogda: banklar tomonidan imtiyozli stavkalar bo‘yicha kreditlar berish; tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasining tadbirkorlik faoliyatiga berilgan kredit mablag‘larining 50% miqdoridagi kafillik va tijorat banklari kreditlari bo‘yicha hisoblangan foiz xarajatlarini qoplash.

5. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ma‘sul institut tomonidan biznes manfaatlarini himoyalangan. O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirish bekor qilindi, shuningdek birinchi marta sodir etilgan moliyaviy-xo‘jalik huquqbuzarlik uchun tadbirkorlik subyektlari ma‘muriy jarimalarning barcha turlaridan ozod etilgan.

6. Respublikaning barcha hududlarida tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi "yagona darcha" tamoyili ostida faoliyat ko‘rsatadigan markazlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi markazlar tashkil qilingan. Tadbirkorlik faoliyatini endi boshlovchi subyektlar uchun o‘zlarining biznes rejalarini tuzish, huquqiy va amaliy ko‘mak berish, shuningdek faoliyatlari uchun zarur ma‘lumotlarni olishlari uchun "biznes-inkubatorlar" tashkil etilgan.

7. Respublika bo‘yicha tadbirkorlarga biznes yuritish bo‘yicha o‘quv kurslari, xususiylashtirilgan obyektlar bazasida loyihalar amalga oshirish, 5 yil muddatga nol stavkada ijara asosida yer maydonlari ajratish orqali yosh tadbirkorlar uchun klasterlar tashkil etildi.¹

Hududlarda kichik biznes sub'yektlarining sanoatdagi ulushini ko‘radigan bo‘lsak, Toshkent shahrida 71,3 foiz, Namangan viloyatida 68,4 foiz, Jizzax viloyatida 61,3 foiz va Samarqand viloyatida 55,5 foizni tashkil etgan. Xuddi shu ko‘rsatkich Toshkent viloyatida 29,6 foiz, Qashqadaryo viloyatida 23,1 foiz, Navoiy viloyatida 18,8 foiz va Qoraqalpog‘iston Respublikasida 18 foizni tashkil etgan.²

¹ Soliyev, I. _ (2020). Formation of innovative activities in the educational system: technological approach. Bulletin of pedagogy: science and practice,

² Soliev, II (2019). INNOVATIVE STRATEGIES IN THE ECONOMY AND THEIR PRACTICAL SIGNIFICANCE. Economics and Socialism

Xulosa va takliflar: Tadbirkorlik deganda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish) yo‘li bilan tavakkal qilib, o‘z mulkiy javobgarligi asosida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati tushuniladi.

Tadbirkorlikning shakllanishi va rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lishi lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har taraflama qo‘llab-quvvatlash maqsadida oxirgi ikki yarim yilda Prezidentning ellikdan ortiq farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, 2022- yilda tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko‘plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman) lavozimi joriy qilindi.

Adabiyotlar

1. Soliyev , I. _ (2020). Formation of innovative activities in the educational system aveconomy.uz/index.php?newsid=190&seourl=tadbirkorlik-subektlari-uchun-mamuriy-va-soliq-yukini-yanada-kamaytirish-biznesning-qonuniy-manfaatlarini-himoya-qilish-tizimini-takomillashtirish-chora-tadbirlari-togrisida&seocat=asosiy/yangiliklar
2. Soliyev , I. _ (2020). Formation of innovative activities in the educational system <https://mineconomy.uz/uz/node/1242>
3. <https://mineconomy.uz/uz/info/2093>
4. Soliyev , I. _ (2020). Formation of innovative activities in the educational system: technological approach. Bulletin of pedagogy: science and practice,
5. ¹ Soliev, II (2019). INNOVATIVE STRATEGIES IN THE ECONOMY AND THEIR PRACTICAL SIGNIFICANCE. Economics and Socialism

IV SHO'BA.
RESPUBLIKADA MOLIYA VA BANK TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**РАЗВИТИЕ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ ОСНОВЫ ФИНАНСОВО-КРЕДИТНОЙ СИСТЕМЫ –
ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ФАКТОРОВ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОЛОГИИ И
ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПРИОРИТЕТОВ ЕЁ РАЗВИТИЯ**

Шохаъзамий Ш.Ш. – д.э.н., проф. УзМУ
Суннатов Ю.У. – PhD, доц. БухДУ

Процессы глобализации, финансовые нестабильности и риски выявили проблемные стороны теории экономического либерализма и финансов, доктрины невмешательства государства в экономику, теории управления финансами и инвестирования, государственных финансовых политик. Это указывает на необходимость пересмотра сущности, содержания, места и значения финансово-кредитной сферы (ФКС) в социально-экономическом развитии стран и мировых финансах, ее методологического базиса.¹

Причем во всем мире важное место отводится ФКС в достижении эффективности финансовой политики государства (ФПГ)². Ибо от эффективности функциональной структуры ФКС и эффективной ФПГ во многом зависит социально-экономическое развитие страны, финансовое благополучие корпоративного сектора и благосостояние людей.

С позиции социально-экономической системологии³ ФКС по своей инструментальной (спектру финансовых инструментов), институциональной, функциональной структурам и механизмам функционирования является особой сферой, различающейся по природе, типам сущностей и отношений от реального сектора экономики (РСЭ) и других сфер экономики. Ибо она (ФКС) выступает сферой деятельности финансовых и кредитно-банковских институтов, их отношений, инструментов и услуг, как сфера финансового управления и регулирования обеспечивает финансами функционирование государства и всех субъектов экономики.

Экономическая структура ФКС включает в себя финансы: государственные, муниципальные, корпоративные (субъектов бизнеса, негосударственных некоммерческих организаций, политических партий и движений), домохозяйств и индивидуумов, а также финансовый рынок (ФР).

С институционально-иерархической точки зрения государственные, муниципальные и корпоративные финансы можно назвать соответственно макро-финансами, мезо-финансами, микро-финансами. А финансы домохозяйств и индивидуумов – нано-финансами.

Организационная структура ФКС включает в себя систему взаимосвязанных институтов.⁴

¹ Шохаъзамий Ш.Ш. Концепция трактовки основ современной финансово-кредитной сферы. // Молия, Т., №3, 2015. -с.46-58; его же. К вопросу о переходе к развитой фазе финансовой политики государства в Узбекистане // Молия, Т., №5, 2017-с.23-31; его же. Трактат о смарт цифровой республике. Монография. – Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020. - 352 с.

² ФПГ включает в себя следующие типы политик: бюджетно-налоговая политика (включая политику государственных доходов и расходов, политику государственного долга), денежно-кредитная политика (монетизация, инфляция, насыщенность кредитами экономики, управление ликвидностью и устойчивостью финансового сектора), процентная политика (регулирование уровня процента в экономике), валютная политика (валютный режим, установление валютного курса), политика платежного баланса/счета капиталов (режим счета текущих операций/счета капиталов, состояние платежного баланса/счета капиталов), инвестиционная политика.

³ Шохаъзамий Ш.Ш. Экономическая системология: концепция и применение. -Т.: Iqtisod-moliya, 2010.-420 с.; его же. Социально-экономическая системология//Молия.-Т., №3, 2014.-с.38-46; его же. Трактат о смарт цифровой республике. Монография. – Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020. - 352 с.

⁴ Таковыми институтами являются: участники финансово-кредитных отношений – заемщики/эмитенты и кредиторы/инвесторы (розничные и крупные, институциональные); финансовые посредники – коммерческие, сберегательные и ипотечные банки, банки развития, небанковские кредитные организации, брокерско-дилерские и управляющие (трастовые) компании, инвестиционные и кастодийные банки, расчетно-клиринговые организации, инвестиционные консультанты, расчетно-клиринговые платы, лизинговые и другие финансовые компании, институциональные инвесторы (страховые компании, пенсионные, благотворительные, инвестиционные, паевые, трастовые, денежные, хеджевые и иные фонды) и др.; институционально организованные рынки (фондовые биржи, организаторы внебиржевой торговли); общие институты инфраструктуры – аудиторские фирмы, оценочные компании, налоговые консультанты, юридические (адвокатские) и нотариальные конторы, таможенные декларанты, рекламные агентства, средства массовой информации, учреждения финансового образования и др.; система регулирования ФКС – монетарные власти, финансовые регуляторы, саморегулируемые организации, законодательная (судебно-правовая) инфраструктура, национальные и профессиональные стандарты.

Финансовый рынок (ФР) – это обладающая особым (S-I)-климатом сложная регулируемая система (подсистема, механизм) реализации упорядоченных функций спроса и предложения финансовых инструментов и финансовых услуг. В силу этих функций, институты макро-, мезо-, микро- и нано-финансов реализуют свои цели в ФКС и на ее ФР.

Качество и благоприятность (S-I)-климата определяется эффективностью инструментальной, институциональной и функциональной структур ФКС и выполнения ею своих функций (распределения, перераспределения и регулирования), а также социальных и экономических функций ФР.

В составе ФР функционируют специальные, но взаимодействующие друг с другом, рынок финансовых инструментов и рынок финансовых услуг, которые отличаются своим товаром и объемами. Хотя тенденции их движения синхронны.

Рынок финансовых инструментов можно разделить на:

1) денежный рынок – рынок краткосрочных кредитов, рынок краткосрочных депозитов, рынок краткосрочных ценных бумаг, валютный рынок, рынок краткосрочных деривативов, рынок репо-сделок и др.;

2) рынок капиталов – рынок средне- и долгосрочных кредитов, рынок средне- и долгосрочных депозитов, рынок средне- и долгосрочных ценных бумаг, рынок инвестиционных, благотворительных и других фондов, страховой рынок, пенсионный рынок, рынок средне- и долгосрочных деривативов, рынок структурированных финансовых продуктов и др.

В дополнение к этому разделению состава ФР, его можно также классифицировать и по другим признакам.¹ От разнообразия признаков классификации ФР повышается качество анализа.

Достижение финансовой безопасности и конкурентоспособности ФКС тесно связано с эффективностью:

- ФПГ, регулирования ФКС;
- инструментальной структуры ФКС и её ФР (спектра финансовых инструментов и финансовых услуг);
- финансово-кредитных отношений и движения финансовых потоков в ФКС, функционирования её индустрии;
- системы финансового управления;
- функционирования ФР и благоприятности (S-I)-климата² на нем.³

Подтверждением сказанному могут также служить результаты исследования взаимосвязи структуры ФКС и экономического роста.⁴

На основе всего вышесказанного, приведены: равновесное (макрофинансовое) уравнение предложения сбережений и спроса инвестиций на ФР, структурно-функциональные модели ФКС, ее подсистем, в том числе ФР, а также таковые модели индустрии финансовых инструментов и индустрии финансовых услуг, взаимосвязанно-синхронное функционирование которых предусматривает ввод макрорегулятора⁵, модел регулирования (S-I)-климата ФР и структурно-

¹ Например, по видам активов и срокам их обращения: рынки кратко-, средне- и долгосрочных базовых финансовых активов (денег, валют, кредитов, депозитов, страховых и пенсионных полисов, драгоценных и редкоземельных металлов, драгоценных камней и др.) и рынки кратко-, средне- и долгосрочных базисных финансовых активов (ценные бумаги, в том числе деривативы). По признаку функционально-операционного разделения инструментальной структуры ФР: рынок ценных бумаг, рынок кредитов, рынок страховых полисов, валютный рынок.

² Иначе говоря, эффективно-сбалансированного протекания процессов сбережения и инвестирования.

³ Этот процесс определяется поведением сберегателей и инвесторов. Поскольку их поведение, в силу их возможностей и ожиданий, различны и весьма изменчивы, сильно реагируют на воздействие внешних и внутренних факторов, в зависимости от которых сберегатели и инвесторы могут переориентировать через ФР свой капитал в наиболее выгодные для них объекты инвестирования.

⁴ Kul B. Luintel, Mosahid Khan, Philip Arestis, Konstantinos Theodoridis. Financial structure and economic growth.//Journal of Development Economics, 28 November 2007; Шохаззамий Ш.Ш. Системное развитие рынка ценных бумаг в регулятивной взаимосвязи с реальной экономикой.-Т.: Fan va texnologiya, 2012.-448 с.

⁵ Макрорегулятор – это организационная форма государственного регулирования национального ФР во взаимосвязи с РСЭ, которая объединяет в себя институтов, связанных прямо или косвенно с его регулированием для сбалансированного развития ФР и РСЭ на общегосударственном уровне. В сферу ответственности макрорегулятора не должны передаваться функции Центрального банка по кредитно-денежной политике, Министерства экономики и финансов по бюджетно-налоговой политике, равно как и поддержание курса национальной валюты, функции кредитора последней инстанции, установление ставки межбанковского кредита, функции эмитента и агента государственных ценных бумаг.

математические модели ФР. Также определены их особенности, функции, роли и принципы функционирования, которые полезны для построения и исследования их математических моделей.

Выявлено, что нарушение состояния эквивалентности ФР и реальной экономики (РСЭ) приводит к финансовым кризисам.

Обоснованы предпосылки для ввода в условиях развития нового Узбекистана государственно-общественной формы макрорегулирования ФР и РСЭ в их взаимосвязи, взаимодействии и взаимозависимости.¹ В частности, это следующие предпосылки:

- тенденции развития отечественного ФР и ФКС в целом являются производной от макроэкономической политики государства;

- благоприятные макроэкономические условия и инвестиционный климат, созданные государством, благодаря которым реализуются программы мер по развитию промышленности и ФКС республики. Высокие темпы и требования программ обуславливают принятие новых регулятивных норм и концентрацию действий всех, без исключения, участников ФР, направленных на эффективную реализацию этих программ.² Как следствие, все это требует от властей упреждающих мер по реструктурированию существующей системы регулирования ФР на основе ввода макрорегулятора, позволяющего регулировать и развивать ФР, ФКС во взаимосвязи с РСЭ;

- потенциал существующих резервов отечественной индустрии ФР, который способен в будущем обеспечит рост видов и объемов предлагаемых диверсифицированных финансовых продуктов, объемов и качества предоставления финансовыми институтами услуг, подобных тем, которые оказываются финансово-кредитными институтами и организаторами торговли на развитых ФР, а также диверсификацию продуктов, при возникновении Интернет-финансовой коммерции и финтех;

- тенденция универсализации деятельности коммерческих институтов ФКС, что требует унифицированных для ФКС регулятивных норм, определяющих стандартизированное функционирование на ФР банковских, страховых и др. секторов экономики;

- тенденция развития банковско-финансово-промышленных групп и холдингов, объединяющих в себе по горизонтали и вертикали финансовых и нефинансовых институтов, которые призваны действовать одновременно в сфере производства и финансов, что дает таким структурам выступать стратегическими составляющими реальной экономики и ФКС страны;³

Разработка выводов, предложений и рекомендаций, направленных на поиск научно обоснованного решения этих проблем, может послужит основой для выведения конъюнктуры рынка туризма в республике на этап развития на высоком уровне. Следовательно, необходимо усовершенствовать финансовый учет и отчетность при повышении объема туристической продукции и увеличении финансовых поступлений в более чем 480 туристических компаниях, действующих по республике.

Совершенствование финансового учета и отчетности действующих туристических компаний является актуальной так как сведения, относящиеся к финансовому учету и отчетности туристических компаний, не отвечают требованиям, потому что финансово– экономическая деятельность туристических предприятий в большинстве случаев не обеспечиваются надежными источниками.

Концептуальная основа для подготовки и представления финансовой отчетности имеет важное значение при организации финансового учета в туристических компаниях. Только для одной подготовки и представления финансового отчета концептуальная основа включает подготовку финансовой отчетности, ее элементов, принципов и правил. Эта концептуальная основа была разработана для всех субъектов хозяйствования в общем виде. По нашему мнению, целесообразно разработать новый проект концептуальной основы для субъектов малого бизнеса с учетом их

особенностей. Данная концептуальная основа охватывает не только порядок подготовки и представления финансовой отчетности, но и вопросы организации финансового учета.

Ниже мы изложим нормативно–правовые акты по регулированию финансового учета и отчетности в субъектах предпринимательства, занимающихся туристической деятельностью (Таблица 2).

Таблица 2.

Нормативно–правовые акты,
Регулирующие финансовый учет в туристических предприятиях

<i>Название нормативно–правовых актов</i>	<i>Примечание</i>
<i>Первый уровень</i>	
Закон Республики Узбекистан “О бухгалтерском учете”, 13 апреля 2016 г., №404.	устанавливает общие требования по организации ведению бухгалтерского учета и составлению финансовой отчетности в туристических предприятиях.
Налоговый кодекс Республики Узбекистан. Сборник законодательных актов Республики Узбекистан, 2007 г., №52 (I)	определяет порядок налогообложения в туристических предприятиях.
<i>Второй уровень</i>	
Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об утверждении положения о составе затрат по производству и реализации продукции (работ, услуг) и о порядке формирования финансовых результатов». 5 февраля 1999 г. №54.	определяет порядок формирования финансовых результатов, определения себестоимости и учета расходов туристической продукции и туристических услуг в туристической деятельности.
Порядок ведения юридическими лицами кассовых операций с иностранной валютой на территории Республики Узбекистан. 11.01.1999 г. N ЭГ/13-01-44	регулирует операции туристических компаний с иностранной валютой.
Национальные стандарты бухгалтерского учета Республики Узбекистан (НСБУ 1-24).	определяет порядок учета объектов финансового учета в туристических предприятиях и применения плана счетов.
<i>Третий уровень</i>	
Учетная политика хозяйствующих субъектов и другие внутренние акты	определяют вопросы организации учета в туристических предприятиях в соответствии с законодательством

Ниже предлагается проект концептуальной основы для субъектов малого предпринимательства по результатам проведенного исследования (также могут быть сформированы как часть действующей концептуальной основы): Таблица 3.

Концептуальная структура организации финансового учета и составления финансовой отчетности для субъектов малого предпринимательства

<i>№</i>	<i>Структурная часть</i>	<i>Содержание</i>
1.	Цел концептуальной основы	Определяет понятия организации бухгалтерского учета и составления финансовой отчетности в субъектах малого предпринимательства (СМБ).
2.	Сфера применения	Предусматривает признание принципов финансового учета и финансовой отчетности для СМБ, целей и элементов финансовой отчетности.
3.	Пользователи данными бухгалтерского учета и отчетности	Включает интересы и рамки всех пользователей информации, отображаемой в бухгалтерском учете и отчетах по финансовой отчетности СМБ
4.	Принципы	Используются принципы, необходимые для ведения финансового учета и составления финансовой отчетности.
5.	Оценка	Отображается порядок оценки объектов бухгалтерского учета.

Предлагаемый проект создает возможности для дальнейшего совершенствования порядка организации финансового учета и составления финансовой отчетности, дальнейшего раскрытия

сущности и разъяснения содержания национального стандарта бухгалтерского учета в действующем НСБУ-20 «О порядке упрощенного ведения учета и составления отчетности субъектами малого предпринимательства»

С учетом особенностей сферы туризма в организации финансового учета в туристических предприятиях в исследовании выражен следующий подход: «Целью финансового учета в сфере туризма оценка имущественного и финансового состояния, обобщение информации об активах, обязательствах и состоянии частного капитала, составление периодических и годовых финансовых отчетов». Система счетов в финансовом учете туристических предприятий обобщает всю информацию о состоянии и движении материальных, трудовых и финансовых ресурсов. Предложена общая структура рабочих счетов, необходимых для применения в НСБУ-21. В результате исследований по совершенствованию финансового учета и отчетности в туристических предприятиях предлагаются следующие выводы и рекомендации:

1. Рекомендована «Концептуальная основа бухгалтерского учета и финансовой отчетности субъектов малого предпринимательства» с учетом нормативно-правовых актов организации финансового учета в корпоративной системе республики, в том числе, «Концептуальная основа организации и представления финансовой отчетности» с учетом особенностей субъектов малого предпринимательства, в частности, предприятий туристической сферы

2. Усовершенствована организация финансового учета на предприятиях, занимающихся туристической деятельностью, в частности, первичные и консолидированные акты, учитывающие объекты бухгалтерского учета. Это служит своевременной и полной регистрации сведений бухгалтерского учета и надежному формированию финансовой отчетности в сфере. На сегодняшний день разработан “Рабочий план счетов бухгалтерского учета”, которую можно использовать в финансово-хозяйственной деятельности туристических предприятий в соответствии с «Планом счетов бухгалтерского учета финансово-хозяйственной деятельности хозяйствующих субъектов и Инструкцией по его применению» НСБУ-21 национального стандарта бухгалтерского учета Республики Узбекистан (12 ноября 2003 г., №1181-1-сон, с изменениями от 25 мая 2009 года, №1181-2). Рекомендовано формирование «Учетной политики», общей для занимающихся туристической деятельностью предприятий с учетом отсутствия единых требований к структуре учетной политики в международных нормативных актах (стандартах) и единых требований о том, на какие аспекты необходимо уделить особое внимание в их структуре. Обосновано, что основное внимание следует уделить его методическим аспектам. Это послужит правильной организации и осуществлению финансового учета в сфере.

Список литературы:

1. Темирханова М. Ж. Нормативно-правовые основы организации финансового учета и отчетности в туристических организациях Республики Узбекистан // Вестник науки и образования. 2016. №3. С. 18.

2. Burton F. G. et al. An application of expectancy theory for assessing user motivation to utilize an expert system // Journal of Management Information Systems. 1992. V. 9. №3. P. 183- 198.

3. Холбоев С., Эшов Б. Ж., Одилов А. А., Саипова, К. Д., Инсопов, А. А. Миллий университетда кечган хаёт мазмуним. Ташкент: Мумтоз суз, 2015. (на узб. яз.).

4. Тулаходжаева М. Организация и методы финансового контроля в Республике Узбекистан: дисс. ... д-ра экон. наук. М., 1998. 480 с.

5. Тулаходжаева М. М. Совершенствование нормативно-правового и методического обеспечения аудиторской деятельности в Узбекистане // Известия Исык-Кульского форума бухгалтеров и аудиторов стран Центральной Азии. 2014. №3. С. 72-77.

TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI BANKLAR TOMONIDAN KREDITLASH BO 'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI

Sotvoldiyev Nurmuhammad Nematjonovich,

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, talaba

Ma`lumki, respublikamiz tijorat banklarida ular faoliyatini boshlaganidan hozirga qadar filiallarning bank operatsiyalarini amalga oshirishdagi mustaqilligini ta'minlash masalasiga e'tibor qaratilmagan. Xususan, kreditlar berishda va valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda filiallarning mustaqilligi mavjud emas. Masalan, hujjatlashtirilgan akkreditiv ochishga bank filiallari vakolatli emas. Ular tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, bankning bosh ofisiga jo`natadi, xolos. Respublikamizning tijorat banklari hududlardan

eksport qilinayotgan tovarlarni to'lovi bo'yicha xorijiy banklarning hujjatlashtirilgan akkreditivlaridan foydalanish jarayonini qo'llab-quvvatlashda o'zlarining xorijlik vakil banklaridan foydalanishlari mumkin.

Hozirgi davrda barqaror pul oqimiga ega bo'lgan kichik biznes sub'ektlarini alohida mijozlar guruhi sifatida tanlab olib, ularga ta'minotsiz kreditlar berish amaliyoti mavjud emas. Buning ustiga, kredit ta'minotini rasmiylashtirish kredit oluvchini kreditlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini oshiradi. Masalan, tijorat banklarining filiallari tomonidan hududlardagi kichik biznes sub'ektlarini kreditlashda asosan kreditlashning bir marotabali kreditlash shaklidan foydalanilmoqda. Kreditlashning overdraft, kontokorrent, faktoring va forfeyting shakllari tijorat banklarining filiallarida mavjud emas.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining kredit to'loviga layoqatliligi bevosita ularning rentabelligiga bog'liq. SHu jihatdan olganda, respublikamizda 2020 yildan boshlab inflyatsion targetlash rejimini bosqichma-bosqich joriy etilayotganligi kichik tadbirkorlik sub'ektlarining kredit to'loviga layoqatliligini ta'minlash nuqtai-nazaridan muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

2017 yil 5 sentyabrda valyuta munosabatlarini liberallashtirilishi munosabati bilan milliy valyuta-so'm keskin devalvatsiya qilindi, ya'ni devalvatsiya sur'ati qariyb ikki barobarni tashkil etdi. Bu esa, o'z navbatida, xorijiy valyutalardagi kreditlarni qaytarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni kompensatsiya qilish zaruriyatini yuzaga keltirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 oktyabrdagi PQ-5268-sonli "Tadbirkorlik sub'ektlarining xorijiy valyutadagi kredit majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq yukini kamaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, tijorat banklaridan xorijiy valyutada olingan kreditlar milliy valyutaga o'tkazilganda amaldagi kompensatsiya taqdim etish to'g'risidagi shartnomalari mavjud bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarining ekvivalenti 1 million AQSH dollaridan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,75 baravaridan oshmaydigan kreditlarning asosiy stavkadan oshadigan, lekin 5 foizli punktdan ko'p bo'lmagan qismi bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan kompensatsiya taqdim etish tartibi joriy etildi.

Germaniyada kichik biznes sub'ektlariga beriladigan imtiyozli kreditlarning shartlari quyidagicha: kredit miqdori 1,0 mln. evrogacha bo'lgan summani tashkil etadi; kreditning yillik foiz stavkasi 5 foizni tashkil etadi; kredit 20 yilgacha muddatga beriladi va kichik biznes sub'ekti faoliyatini kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish xarajatlarining 50 foizdan oshmaydigan qismini moliyalashtirish imkonini berishi kerak; kredit shartnomasi muddatining dastlabki ikki yili mobaynida foiz olinmaydi.

G'arbiy Evropa mamlakatlaridan Buyuk Britaniya, Frantsiya va Italiyada faktoring asosida kichik biznes sub'ektlarini kreditlash nisbatan yaxshi rivojlangan. Bu esa, ushbu mamlakatlarni yirik jahon faktoring bozorlari ekanligi bilan izohlanadi. Jahon faktoring bozorlarida amalga oshiriladigan faktoring operatsiyalarining 22 foizi Buyuk Britaniyaga, 15 foizi Frantsiyaga va 14 foizi Italiyaga to'g'ri keladi. G'arbiy Evropa mamlakatlari amaliyotida imtiyozli kreditlash kichik korxonalarining 40 foiz xarajatlarini qoplaydi. YAngi firma yaratish uchun kreditlar 15 yilga beriladi. Modernizatsiya uchun 10 yilga beriladi. Davlat institutlari faqat kichik korxonalarda emas, balki kichik korxonalarining birlashmalariga ham imtiyozli foiz stavkali kreditlar beradi.

Graminbank o'zining mablag'lari hisobidan Gramin Kapital fondini tashkil etdiki, ushbu Fondning faoliyati kengayib, kichik biznes sub'ektlarining yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishga mo'ljallangan loyihalarini moliyalashtirishga ixtisoslashgan mustaqil venchur fondiga aylandi. SHuningdek, Graminbank kichik biznes sub'ektlariga qo'shimcha ravishda quyidagi kredit xizmatlarini ko'rsatadi: istiqbolli, lekin vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan kichik biznes sub'ektlarini kredit hisobidan sotib olish; kredit hisobidan kichik biznes sub'ektlarining ustav kapitaliga investitsiyalar kiritish; baliqchilik va chorvachilikni rivojlantirish imkoniyati mavjud bo'lgan hududlarda faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlariga kreditlar berish.

Vneshekonombank orqali kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlash jarayonini moliyaviy qo'llab-quvvatlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: Rossiya davlat byudjetidan Vneshekonombankka kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlashni qo'llab-quvvatlash uchun resurslar beriladi; Vneshekonombank olingan resurslarni MSP Bankka beradi va berilgan kreditlarni nazorat qilish huquqini o'zida saqlab qoladi; MSP bank yuqori reytingga ega bo'lgan Rossiya banklari hamda lizing va faktoring kompaniyalari bilan kredit shartnomasi tuzish yo'li bilan ular orqali kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мухаммад Юнус, Алан Жоли. Создавая мир без бедности: социальный бизнес и будущее капитализма. Пер. с англ. – М.: Алпина Паблишер, 2010. – С. 161-163.
2. Рыбин Е.В. Опыт поддержки малого и среднего бизнеса в России через банки развития. // Банковское дело. – Москва, 2011. - №10. - С. 31-32.

KAMBAG‘ALLIK VA UNI O‘ZBEKISTONDA BAHOLASHGA YONDOSHUVLAR

R.A. Achilova–Buxoro

Davlat Universiteti magistranti

Iqtisod yo‘nalishi. Tel: +998905131988

Annotatsiya. Ushbu tezisda kambag‘allik tushunchasi va uni mamlakatimizda baholashga yondoshuvlar, kambag‘allikni bartaraf etish choralarini to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, kambag‘allik turlari, ijtimoiy siyosat, minimal iste‘mol xarajatlari, kambag‘allik chegarasi, yashash minimumi.

Kambag‘allik – har bir shaxs yoki ijtimoiy guruhning yashashi, mehnat qobiliyatini saqlashi, avlodni davom ettirishi uchun zarur bo‘lgan minimal ehtiyojlar ma‘lum doirasini qanoatlantirmaydigan iqtisodiy holatning tavsifidir.

¹Dunyoning ko‘pgina milliy iqtisodiyotlarida YAIM o‘shirishining sekinlashuvi, real daromadlarning pasayishi, ijtimoiy tabaqalanishning chuqurlashuvi va qashshoqlikning ortishi kuzatilmoqda.

Kambag‘allik – bu hayot uchun muhim bo‘lgan, eng zarur minimal ehtiyojlarni qondira olmaydigan, ishga layoqatli bo‘lib, o‘z naslini davom ettirishi mumkin bo‘lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhni iqtisodiy holatining o‘ziga xos xususiyatidir. Ba‘zi manbalarda esa, “kambag‘allik- muayyan maqbul turmush darajasini ta‘min eta olmaslikdir”-deya ta‘kidlangan.

Kambag‘allik – jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida katta to‘sqinlik qiladi. Mamlakatda kambag‘allar sonini ortishi iqtisodiy resurslardan samarali foydalanilmayotganligini, tadbirkorlik muhiti yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligini, hukumat qarorlari ijrosi ta‘minlanmayotganligini hamda korrupsiya avj olganligini bildiradi. Umuman olganda kambag‘allikning kelib chiqish sabablarini jamiyatdagi bu kabi muammolarning yana bir nechtasi bilan bog‘lash mumkin. Chunki inson dunyodagi notinchlik, g‘irrom raqobat, tabiiy boyliklarni o‘zlashtirish uchun mamlakatlar o‘rtasidagi kurash va korrupsiya, jamiyatdagi tizimning tez-tez o‘zgarib turishi mamlakat ravnaqiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va oqibatda aholining ma‘lum qismini kambag‘alga aylantiradi.

Kambag‘allik avvalo savodsizlikni, jinoyatchilikni keltirib chiqaradi. Agarda uni o‘z vaqtida oldi olinmasa, jumladan, kambag‘al kishilarni ish bilan ta‘minlash ularni bozor iqtisodiyotining salbiy ta‘siridan himoya qilinmasa mamlakatda yuritilayotgan siyosatdan noroziligini bildiradi. Shu sababli ham kambag‘allik muammosini hal etish doimo dunyo hamjamiyati e‘tiborida turadi.

²O‘zbekistonda ilmiy adabiyotlarida, shuningdek, statistik hisobotlarida kambag‘allik to‘g‘risida yoki aytaylik “kambag‘allik” tushunchasi haqida ma‘lumotlar deyarli yuritilmas edi. Mamlakatimizda “kambag‘allik” va “qashshoqlik” tushunchalarining o‘rniga “kam ta‘minlanganlar” tushunchasi ishlatilib kelinardi. Ma‘lumki, O‘zbekistonda aholining kam ta‘minlangan qatlami to‘g‘risida tushuncha va uni aniqlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 15-fevraldagi “Kam ta‘minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 44-son qarori belgilab berilgan.

Mamlakatimizda kambag‘al aholi mavjudligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisda qilingan Murojaatnomada birinchi marta rasman qayd etildi. Unda aytilishicha, “Har qanday mamlakatda bo‘lgani kabi bizda ham kam ta‘minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko‘ra, ular taxminan 12-15 foizni tashkil etadi”- deya ta‘kidlab o‘tdilar.

O‘zbekiston kambag‘allik muammosini bartaraf etish uchun hukumat tarkibiga Bosh vazirning moliya – iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimini kiritilishi va Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining tashkil etilishida yanada yaqqol ko‘rish hamda mazkur masalaning naqadar dolzarbligini anglash mumkin. Kambag‘allikning turlari mavjud bo‘lib ular quyidagicha ta‘riflanadi:

Mutloq kambag‘allik – insonning o‘z daromadlari hisobiga oziq -ovqat, kiyim-kechak, uy-joyga bo‘lgan minimal ehtiyojlarini qondira olmasligi yoki faqat biologik hayotni ta‘minlaydigan minimal ehtiyojlarni qondira oladigan holatidir.

¹ Sh.Salimov “Kambag‘allik va uni O‘zbekistonda baholashga yondoshuvlar”, T.: 2021

² B.B.Mardonov, A.O.Abruev “Postindustrial jamiyatda kambag‘allikni aniqlash tartibi”, T: 2021

¹ Bugungi kunda ham BMT tomonidan dunyo aholisi turmush darajasini oshirish va kambag'allikdan aziyat chekayotgan mamlakatlarga ko'maklashish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 20 oktabrdagi 841-son qarori ushbu maqsadlar ijrosiga qaratilganligi ahamiyatga molik bo'ldi. Mazkur qaror ilovasining "1-maqsad. Barcha joylarda aholining kam ta'minlanganligi darajasini pasaytirish."deb nomlangan 1-bandi vazifalari sifatida belgilangan 7 yo'nalishda asosiy e'tibor ijtimoiy himoya va gender tenglikni ta'minlash hamda mikrokreditlash amaliyotlarida foydalanishga qaratilgan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishning 2030 yilgacha strategiya va konsepsiyasi tayyorlanmoqda. Unda kambag'allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash usullari, ijtimoiy ta'minotning minimal standartlari, ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy ta'minoti va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba xususan, Xitoy tajribasidan foydalanish ko'zda tutilgan.

O'zbekistonda 2018 yildan boshlab iste'mol savatini shakllantirish ishlari hukumat darajasiga ko'rila boshlandi. Bu masalada o'tgan yillar mobaynida "iste'mol savati"ga kiruvchi oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarni o'z ichiga olgan tovarlar narxi davlat tomonidan qat'iy boshqarib turildi. Odatda iste'mol savatchasi aholining 3 ta asosiy ijtimoiy-demografik guruhi: mehnatga layoqatli aholi, pensionerlar va bolalar uchun ishlab chiqiladi. Iste'mol savati kamida 5 yilda bir marta uslubiy tavsiyalar asosida aniqlashtiriladi.

O'zbekistondagi kambag'allik holatini o'rganish aniq chora-tadbirlarni talab etadi. Bunda rivojlangan davlatlarni tajribasini o'rganish o'ta muhim masala. Shu bilan birga, biz uchun muhim tomoni, kambag'allik holatini to'liq tugatib bo'lmaydi, balki uni darajasi va hajmini iloji boricha kamaytirish mumkin. Bu esa jamiyat va davlatga kambag'allikni salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha choralarni doimiy ravishda olib borishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Salimov "Kambag'allik va uni O'zbekistonda baholashga yondashuvlar", T.: 2021 y
2. B.B.Mardonov, A.O.Abruev "Postindustrial jamiyatda kambag'allikni aniqlash tartibi", T: 2021
3. Система социальной защиты в Узбекистане фрагментарна – ЮНИСЕФ.
4. Husanova H.T. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining rivojlanish tendensiyalari // Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali. 2020.

DAVLAT BYUDJETI TARKIBI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

*Buxoro Davlat Universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti
3-2IQT-20 guruh talabasi Tolibova Aziza To'lqinovna*

Annotatsiya. Davlat byudjeti davlatning ma'lum maqsad va muddat uchun belgilangan daromad va xarajatlari yig'indisidir. Ushbu tezisdavlat byudjeti tushunchasi, o'zbekistonning hozirgi kundagi byudjet holati va uning xarajatlari tahlili, shuningdek, uning kamomadiga sabab bo'layotgan mavjud omillar va byudjetni rivojlantirish uchun amalga oshirish kerak bo'lgan chora tadbirlar atroflicha tahlil qilindi.

Kalit so'zlar. Davlat byudjeti, soliqlar, YaIM, transfertlar, byudjet taqchilligi, konsolidatsiyalashgan byudjet, daromad, defitsit, xarajat, investitsiya, byudjet monitoringi, iqtisodiy o'sish.

Kirish. Dunyodagi har bir mavjud mamlakatning o'ziga tegishli umumiy mablag'i mavjud bo'ladi. Uni byudjet atashadi. Davlat byudjeti davlatning ma'lum vaqt uchun mo'ljallangan pul daromadlari va xarajatlari jamlanmasi hisoblanadi. Byudjet daromadlari soliqlar, soliqdan tashqari yig'imlar, davlat


¹ Система социальной защиты в Узбекистане фрагментарна – ЮНИСЕФ.

² Husanova H.T. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining rivojlanish tendensiyalari // Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali. 2020.

zayomlaridan tushgan pul, davlat mulkini sotishdan yoki ijaraga berishdan kelgan mablag‘lardan shakllanadi. Davlat byudjetiga kelib tushgan daromad jamiyatga ijtimoiy xizmatlar, masalan, milliy xavfsizlikni ta‘minlash, jamoat tartibini saqlash, atrof-muhitni himoya qilish, aholining kam ta‘minlangan qatlamiga yordam berish, aholiga bepul ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish kabilarga mamlakatning salohiyatidan kelib chiqib oqilona taqsimlanadi. Agarda byudjet xarajatlari uning daromadidan ortib ketsa, byudjet taqchilligi, ya‘ni kamomadi yuzaga keladi. Kamomad miqdori mamlakat yalpi milliy mahsulotining 3-3,5% ga teng bo‘lishini me‘yoriy holar deb hisoblash mumkin. Byudjet kamomadining g‘oyat oshib ketishi byudjet xarajatlarini qisqartirilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Davlat byudjeti odatda, joriy yilda kelgusi yil uchun tuziladi. Iqtisodiy beqarorlik sharoitida u chorak yoki yarim yilga tuzilishi ham mumkin. Davlat byudjeti hukumat tomonidan tuziladi va yuqori qonun chiqaruvchi organ (parlament) tomonidan tasdiqlanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Ma‘lumki, jamiyat hayotini yaxshilash, uni tubdan isloh qilish uchun davlatning byudjeti juda katta ahamiyat kasb etadi. Ba‘zi mamlakatlar byudjetni oqilona taqsimlagan holda, rivojlanishga erisha ba‘zilarida buning teskari holati kuzatiladi. Buning asosiy sababi shuki, rivojlangan mamlakatlarda byudjet bo‘yicha pullar taqsimlangandan so‘ng, to‘g‘ridan to‘g‘ri manzilga yetib boradi. Muvaffaqiyatga erishmagan mamlakatlarda esa ma‘lum bir sohaga yo‘naltirilgan mablag‘ dastlab bir nechta korxonalar yoki tashkilotdan o‘tib ko‘zlangan sohaga yetib boradi va bu vaqt oralig‘ida ma‘lum bir shaxslar va tashkilotlar tomonidan ajratilgan mablag‘ni noqonuniy o‘zlashtirish holatlari vujudga keladi.


1-diagramma



1-diagramma. O‘zbekistonda 2020-2022-yillar oralig‘idagi davlat byudjeti parametrlari.¹

O‘zbekiston kesimida yuqorida keltirib o‘tilgan byudjetdagi ko‘rsatkichlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, daromadga nisbatan xarajatlarni ko‘payib, defitsitni keltirib chiqargan va achinarli jihati shuki, ma‘lum bir sohaga yo‘naltirilgan xarajatlarning anchagina qismi noqonuniy yo‘llar bilan o‘zlashtiriladi. Natijada na to‘liq ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin, na byudjet kamomadini pasaytirish mumkin bo‘ladi. Manbalarga tayanadigan bo‘lsak, joriy yilning hisobot davrida aniqlangan pul mablag‘lari va moddiy boyliklarning kamomadi hamda noqonuniy o‘zlashtirish holatlari (83,7 mlrd.so‘m) 2020-yilning 9 oyiga (28 mlrd.so‘m) nisbatan 3 marta oshgan. Ma‘lum bo‘lishicha, 2021-yilning 9 oyida byudjet intizomiga rioya etilishi va byudjet mablag‘larning maqsadli foydalanilishi yuzasidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlarida aniqlangan kamomad va o‘zlashtirishlar 83,7 mlrd.so‘mni, byudjet mablag‘laridan asossiz va ortiqcha to‘lovlar 457,7 mlrd.so‘mni va maqsadsiz xarajatlarni 187,3 mlrd.so‘mni tashkil etadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, pul mablag‘lari va moddiy boyliklarning kamomadi hamda noqonuniy o‘zlashtirish holatlarining asosiy qismi quyidagi vazirlik va qo‘mitalar tizimida aniqlangan.

¹ Openbudget.uz rasmiy sayti ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.



1-rasm. Kamomadning asosiy qismi aniqlangan vazirlik va qo'mitalar.¹

Yuqoridagi ma'lumotlarni ko'zdan kechiradigan bo'lsak, ba'zi vazirlik va qo'mitalarda kamomad miqdori joriy yildagidan ancha oshib ketganini ko'ramiz va bu bo'yicha yetakchilikni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'z qo'liga olgan.

Mavzuning bugungi kundagi holati. 2022-yil uchun davlat byudjeti bilan bog'liq asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qiladigan bo'lsak, davlat byudjeti daromadi 200 trln. so'm etib belgilandi. Ulardan soliq tushumlari 68,5 trln. so'm, shu jumladan foyda solig'i- 43,7 trln. so'm, aylanmadan olinadigan soliq- 2,7 trln so'm, JShDS- 22 trln so'mni tashkil etadi.² 30.11.2021 yilda "O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonun imzolandi. Ushbu qonunda asosan, tadbirkorlarga katta imkoniyatlar yaratilgan. Xususan, mol-mulk solig'i bo'yicha belgilangan foiz stavkalarining kamaytirilishi, yuqori likvidli tovarlarga nisbatan aksiz solig'ining pasaytirilishi, suyultirilgan gazga bo'lgan aksiz solig'ining bekor qilinishi tadbirkorlarning jami 1 trln. 800 mlrd. so'mga yaqin mablag'ining o'zida qolishiga imkon yaratadi. 2022-yilda inson qadri, uni ulug'lash bosh maqsad qilib olingan holda, ta'lim va tibbiyot uchun 58 trln. so'm miqdorda davlat byudjetidan pul ajratildi.

Xorijiy tajriba. Chuqur demokratik islohotlar, ayniqsa, boshlang'ich bosqichda, doimo jamiyatdagi muammolarni iqtisodiy ziddiyatlarni keskinlashtirishini xorijiy tajriba ko'rsatmoqda. Bu tabiiy hol. Shu bilan birga, o'zgarishlarning samarasini insonlar o'z hayotining yaxshilanishi bilan ko'rishlari maqsadga muvofiqdir. Bu esa hal qiluvchi jihatdan davlat boshqaruvi samaradorligi va noqonuniy amallar, korrupsiyani keskin kamaytirish maqsadida ishlab chiqilgan bir qator chora-tadbirlar samaradorligi bilan keskin bog'liqdir. So'nggi yillarda davlat boshqaruvida shaffoflik va aholining keng ishtirokini ta'minlash maqsadida "Mening fikrim" veb-portali. Mamlakat byudjeti shakllanishi va ijrosi ochiq-oydin ta'minlash uchun "Openbudget" information portali yaratilgani tizimlar zamonaviylashganining muhim ko'rsatkichlardan biridir. Davlat byudjetida ham noqonuniy mablag' o'zlashtirishlarni oldini olish maqsadida uni online monitoringini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'lardi. Byudjetdagi o'zgarishlarni ochiq-oydin kuzatib turadigan yuqori sondagi auditoriyaning to'planishi, byudjetdagi o'g'riliklarni kamayishini oldini oladi.

Tahlil. Davlat byudjetining sezilarli qismini davlat tomonidan joriy etiladigan soliqlar tashkil etadi. Soliq tizimini takomillashtirish ham davlat byudjetiga ijobiy ta'sir etadi. Soliq tizimining muammolari va ularni hal qilishning mumkin bo'lgan istiqbollarini taqdim etishdan oldin, uni rivojlantirishning amaldagi sharoitlarini ko'rib chiqamiz. 2021-yil yakunlari bo'yicha Konsolidatsiyalashgan byudjet (Davlat byudjeti

¹ Uzreport.news rasmiy sayti orqali ma'lumot tayyorlandi.

² Review.uz sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

va Davlat maqsadli jamg‘armalari) daromadlari 196,4 trln so‘mni (YaIMga nisbatan 26,7%) tashkil etdi. Bu shuni ko‘rsatadiki, YaIMga nisbatan Konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari ulushi dinamikada deyarli o‘zgarmagan va aksincha o‘shirish tendensiyasiga ega. Buni ayniqsa 2022 yil uchun daromadlar prognozi tasdiqlaydi - daromadlarning YaIMga nisbati 30,3% darajasida prognoz qilinmoqda.¹

Shuningdek, 2021-yil 7-dekabrda Senatning Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo‘mitasi va Moliya vazirligi hamkorligida xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiya va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyalari bilan “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonun muhokamasi yuzasidan davra suhbatini bo‘lib o‘tdi.

Axborot berilishicha, Qonunda keyingi yilda iqtisodiy o‘shirish darajasi 6 foiz, inflyatsiya darajasi 9 foiz, konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz miqdorda, shuningdek, yangidan imzolangan davlat tashqi qarzi yuqori chegarasi 4,5 milliard dollar miqdorida prognoz qilinmoqda.

Shuningdek, davlat byudjeti daromadlaridan kelib chiqib, kelgusi yil uchun Davlat byudjeti xarajatlari yalpi ichki mahsulotga nisbatan 25,6 foiz miqdorida belgilanmoqda.

Qonun bilan ijtimoiy soha xarajatlarining qariyb 45 foizi ta‘lim sohasiga, xususan, maktabgacha ta‘lim muassasalariga 8,6 trillion so‘m, xalq ta‘limiga 30,8 trillion so‘m, o‘rta maxsus va oliy ta‘limga 7,5 trillion so‘m mablag‘ ajratilmoqda.

Bundan tashqari, 2022-yilda Davlat byudjetidan sog‘liqni saqlash sohasiga (markazlashgan investitsiya xarajatlari bilan birga) 24,0 trillion so‘m mablag‘ yoki 2021-yil tasdiqlangan rejaga nisbatan 3,5 trillion so‘m yoki 17 foizga ko‘p mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilgan.

Mamlakatning tez sur‘atlarda rivojlanishi ham byudjet daromadlarining oshishiga imkon yaratdi. Investitsiyalar hozirgi kunda rivojlanishning asosiy poydevorlaridan biridir.

2021-yil yakuniga ko‘ra, o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 11,1 mlrd. dollarni tashkil etdi (yillik prognozga nisbatan 113% bajarildi), shu jumladan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 9,8 mlrd. dollarga yetdi (2020-yil ko‘rsatkichlariga nisbatan o‘shirish sur‘ati 110%).

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar 9 mlrd. dollarga yoki prognozga nisbatan 117%ga, shu jumladan, asosiy kapitalga 2020-yilga nisbatan 124 foizlik o‘shirish bilan 8,2 mlrd. dollar o‘zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablag‘larining o‘zlashtirilishi 2,1 mlrd. dollar yoki yillik prognozning 100 foizini tashkil etdi.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotiga 50 dan ortiq davlat investitsiya kiritayotgan bo‘lib, xususan, Xitoy (2,2 mlrd. doll.), Rossiya (2,1 mlrd. doll.), Germaniya (800,7 mln. doll.), Turkiya (1,18 mlrd. doll.) va Janubiy Koreya (137,4 mln. doll.) asosiy investor davlatlar hisoblanadi.²

Natijalar. Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiyotga ijobiy ta‘sirini kuchaytirish maqsadida siyosatchilarga quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

Birinchidan, qisqa muddatda O‘zbekiston rivojlanishga investitsiya xarajatlarini oshirish kerak. Davlat investitsiyalarining hozirgi past samaradorligi davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiyotga ijobiy ta‘sirini kamaytiradi, agar

Uzoq muddatli istiqbolda davlat investitsiyalari samaradorligini oshirish bilan bir qatorda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun infratuzilmani barpo etish uchun oqilona resurslarni yo‘naltirish uchun joriy xarajatlarni iqtisod qilish zarur.

Ikkinchidan, xususiy investitsiyalarni siqib chiqarishga yo‘l qo‘ymaslik uchun davlat va bozorning roli va funksiyasini aniq belgilash asosida rivojlanishga investitsiya xarajatlarini qayta qurish kerak. Davlat investitsiyalaridagi yo‘qotishlar va isrofgarchiliklarni investitsiya kapitalini asosiy va keng tarqalgan loyihalarga, shuningdek, mamlakat, hududlar va hududlararo rivojlanish masalalarini hal etishga doir loyihalarga jamlash orqali kamaytirish zarur. Davlat investitsiyalarida korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirish zarur. Shu bilan birga, hukumat xususiy investitsiyalarni rag‘batlantirishi, xususiy investorlarni infratuzilmani qurish loyihalarini amalga oshirishda ishtirok etishlarini rag‘batlantirishi va yordam berishi kerak.

Xulosa. Barqaror iqtisodiy o‘shirishga zamin yaratish uchun davriy xarajatlarni inson (ta‘lim, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va boshqalar) va ijtimoiy yordam tizimlariga sarflanadigan xarajatlarni ustuvor yo‘nalishda qayta tashkil etish zarur; davlat boshqaruvi apparatini qayta tashkil etish, davlat xizmatchisini qisqartirish va tejamkorlik amaliyotini va isrofgarchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini qabul qilish asosida davlat boshqaruviga xarajatlarni qisqartirish kerak. Davlat mulkini noqonuniy o‘zlashtirishni oldini

¹ Norma.uz sayti ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

² <https://sda.gov.uz> ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

olish, soliq tizimidagi turli kamchiliklarni bartaraf etish, korrupsiyani sezilarli darajada kamaytirish va ochiq-oshkoralikni ta'minlash orqali albatta davlat byudjetini takomillashtirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Malikov T. Byudjet-soliq siyosati. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2019 y. - 376 bet.
2. G'aybullayev O., O'roqov U. O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. - T.: "Baktria press", 2016. - 168 b.
3. Nurmuxamedova B., Kabirova N. "Moliya", O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD- MOLIYA", 2017. 224 b.
4. Nurmuxamedova B.I. Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2018.-576 b.
5. Po'latov D.X, Nurmuxamedova B.I. G'aznachilik. Darslik. - T.: "Sano-standart", 2014. - 272 b.
6. Mehmonov S., Karimova Z., Tursunov A. Byudjet tizimi. Darslik. - T.: "Iqtisod-moliya", 2018 y. - 544 bet.

**V SHO‘BA.
AHOLINING IJTIMOIIY HIMOIYAGA MUHTOJ
TOIFALARINI MODDIY QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI
YANADA TAKOMILLASHTIRISH**

**AHOLINI IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ TOIFALARI BILAN ISHLASHNI
TAKOMILLASHTIRISHDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATINI ENG
MUHIM SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH TIZIMINING
AHAMIYATI**

Zafar JUMAEV - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Buxoro viloyat filiali rahbari, texnika fanlari nomzodi,

Alijon AXADOV - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Buxoro viloyat filiali rahbari o'rinbosari,

Fotima MUXSINOVA - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Buxoro viloyat filiali yetakchi inspektori

Annotasiya: Maqolada O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmati tizimida eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari asosida baholash tizimining joriy etilishi, bu borada ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari, shuningdek, aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlami bilan ishlashda baholash tizimining ahamiyati muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: davlat xizmatchilarining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (EMSK, KPI), ijtimoiy jihatdan muhtoj, ishsizlik, moddiy yordam natijadorlik, davlat xizmati, xorij tajribasi, amaliyot.

**ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМЫ ОЦЕНКИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ
НА ОСНОВЕ КЛЮЧЕВЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ЭФФЕКТИВНОСТИ В
СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ РАБОТЫ С КАТЕГОРИЯМИ НАСЕЛЕНИЯ,
НУЖДАЮЩИМСЯ В СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЕ**

Зафар ЖУМАЕВ - Руководитель Бухарского областного филиала Агентства по развитию государственной службы при Президенте Республики Узбекистан, кандидат технических наук,

Алижон АХАДОВ - Заместитель руководителя Бухарского областного филиала Агентства по развитию государственной службы при Президенте Республики Узбекистан,

Фотима МУХСИНОВА - Ведущий специалист Бухарского областного филиала Агентства по развитию государственной службы при Президенте Республики Узбекистан

Аннотация: В статье рассматривается внедрение системы оценивания по ключевые показатели эффективности в системе государственной гражданской службы Узбекистана, опыт передовых зарубежных стран в этом отношении, а также значение системы оценивания в работе с социально незащищенными сегмент населения.

Ключевые слова: ключевые показатели эффективности государственных служащих (ЭМСК, KPI), социально нуждающийся, материальная помощь, продуктивность, государственная служба, зарубежный опыт, практика.

**THE SIGNIFICANCE OF THE SYSTEM FOR ASSESSING THE ACTIVITIES OF CIVIL
SERVANTS ON THE BASIS OF THE KEY PERFORMANCE INDICATORS IN IMPROVING
WORK WITH CATEGORIES OF THE POPULATION IN NEED OF SOCIAL PROTECTION**

Zafar JUMAEV - Head of the Bukhara regional branch of the Agency for the Development of Public Service under the President of the Republic of Uzbekistan, doctor of philosophy (Ph.d, in technic),

Alijon AKHADOV - Deputy Head of the Bukhara regional branch of the Agency for the Development of Public Service under the President of the Republic of Uzbekistan,

Fotima MUKHSINOVA - Chief specialist of the Bukhara regional branch of the Agency for the Development of Public Service under the President of the Republic of Uzbekistan

Abstract: The article discusses the introduction of an assessment system for the key performance indicators in the system of the state civil service of Uzbekistan, the experience of advanced foreign countries in this regard, as well as the importance of the assessment system in working with socially vulnerable segments of the population.

Key words: key performance indicators of civil servants (KPI), social need, unemployment, socially needy, efficiency, civil service, foreign experience, practice.

Jadallik bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda har qanday resurslarning ahamiyati oshib bormoqda. Jumladan, inson resurslariga bo'lgan talab va uni rivojlantirish barcha resurslarga qaraganda eng ahamiyatli hisoblanadi. Inson resurslari avvalambor, uning zamon bilan hamnafas bo'lishi, zamon

talablariga javob beradigan kompetensiyalarni egallashi va doimiy rivojlanishga intiluvchan bo‘lishini talab etadi. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonun loyihasiga ko‘ra Konstitutsiyaning 1-moddasida “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” ekanligi ko‘rsatilgan. Bundan shuni anglash mumkinki, ijtimoiy davlatda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj, iqtisodiy jihatdan kam ta‘minlangan fuqarolarni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yilishi nazarda tutilgan. Bu borada davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyati samaradorligini baholash tizimining joriy etilishi davlat xizmatchilarining faoliyatini tegishli yo‘nalishlarini ushbu sohaga yo‘naltirilishi orqali amalga oshiriladi. Ayniqsa sektor rahbarlarining baholanishi, “Temir daftar”, “Yoshlar daftari”, “Ayollar daftari” kabi tizimining joriy etilishi va bularning ijrosini ta‘minlash ularning faoliyat samaradorligini baholashning asosi sifatida olinishi ularning faoliyatini ko‘proq ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan muhtoj fuqarolar bilan ishlashga jalb etadi. Shuningdek, hokim o‘rinlarining faoliyat samaradorligi baholashda ham eng asosiy masala aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Avvalambor aytish joizki, Davlat xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash (EMSK, KPI) tizimini O‘zbekistonda joriy etilishi uzoq tarixga ega emas. So‘nggi yillardagi olib borilayotgan davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlatning inson – jamiyat – davlat tamoyili asosida faoliyatni yo‘lga qo‘yilishi, davlat xizmati tizimini faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida so‘nggi yillarda davlat xizmatchilar faoliyati samaradorligini baholash tizimi joriy etilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida natijadorlik hammamiz uchun bosh talab, asosiy mezonga aylanib borayotganligi ta‘kidlab o‘tildi [1].

Faoliyat samaradorligini baholash tizimi xalqaro tajribada qo‘llanilib kelinayotgan metod hisoblanib, O‘zbekistonda ham ushbu tizim davlat fuqarolik xizmati tizimiga bosqichma-bosqich joriy etib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq Davlat fuqarolik xizmatchisini rag‘batlantirish hamda xolisona va adolatli mezonlar asosida xizmatda lavozim bo‘yicha ko‘tarilishini ta‘minlash uchun uning faoliyati samaradorligini eng muhim ko‘rsatkichlar asosida baholash tizimi joriy etilishi belgilangan [2].

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatida KPI (eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichi) tizimiga asoslangan baholash va hisobdorlik tizimini joriy etish tashkilotlarning mahsuldorligi va samaradorligini oshirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Olimlar fikriga ko‘ra “samaradorlik” (efficiency) keng ma‘noda – ishning natijadorligini tavsiflovchi tushuncha hisoblanadi. U inson faoliyatining barcha sohalarida: iqtisodiyotda, fan va texnikani rivojlantirishda, siyosat va huquq sohasida qo‘llaniladi. Ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borgan amerikalik olim M.J.Xattonning fikriga ko‘ra “samaradorlik” sifat va miqdorni anglatuvchi tushuncha bo‘lib, davlat boshqaruvi sohasida iqtisodiy foydani tahlil qilishdir. Yangi davlat boshqaruvining mantiqiy asosida natijalarga asoslangan boshqaruv yotadi [3].

KPI – bu tashkilot va xodimning strategik maqsadlarga erishishda samaradorligini belgilovchi koeffitsient ya‘ni, erishilgan natijalarning miqdoriy jihatdan o‘lchanadigan ko‘rsatkichi hisoblanadi. KPI dan foydalanish korxonaga faoliyatning ichki mexanizmlarini ko‘rib chiqish va ularni takomillashtirish imkonini beradi.

Davlat tashkilotining mehnat unumdorligi samaradorlikning eng muhim ko‘rsatkichi bo‘lib, samaradorlik erishilgan natijalar va sarflangan resurslar o‘rtasidagi nisbat, rejalashtirilgan natijalarga erishish darajasidir. Davlat boshqaruvi faoliyatining samaradorligi har bir davlat organining aniq maqsadi (vazifasi), tarkibiy bo‘limlar o‘rtasida vazifalar, funksiyalar va javobgarlikning aniq taqsimlanganligi, funksiyalarning bajarish mexanizmlari, mavjudligi, faoliyatning aniq rejalashtirilganligi, mehnat sharoitlarining yaratilganligi va malakali mutaxassislardan iborat personal bilan tizimli ishlash, samarali va adolatli rag‘batlantirish (ish haqi, mukofotlar va boshqalar) tizimining mavjudligiga bog‘liq.

Ushbu yo‘nalishda xalqaro tajribaga nazar solsak, bu borada Amerika Qo‘shma Shtatlari KPI usulining ajdodi hisoblanadi. 1960-1970 yillarda Qo‘shma Shtatlarida "Maqsadlar Bo‘yicha Boshqarish" metodologiyasi yaratildi va keyinchalik juda mashhur bo‘ldi. Uning yordami bilan har bir xodimning shaxsiy yutuqlari baholanib, asosiy e‘tibor xodimning ma‘lum vaqt davomida, odatda bir yil davomida bajargan ishining natijalariga qaratildi. 1970-yillarda ushbu metodologiya xodimlarni baholash va rag‘batlantirishning universal usuli hisoblanar edi [4].

1980 yillarda “Ishlash Menejmenti” deb nomlangan texnika yaratildi. Shu bilan bir qatorda u "Ishlash Boshqaruvi" yoki bizga ma‘lum bo‘lgan KPI tizimi deb tarjima qilindi. Ushbu uslub nafaqat natijani, balki unga qanday erishilganligini ham baholashga qaratilgan, ya‘ni xodimning shaxsiy fazilatlarini baholangan. KPI tizimi xodimning keng ko‘lamli samarasini baholashni anglatgan. Shuningdek, Avstraliya davlat boshqaruvi tizimi vertikal bo‘ysunish tizimiga bo‘lingan bo‘lib, ular respublika, viloyatlar (shtatlar) va

tumanlar tarkibidan iborat. Ushbu tizimning quyi bo'g'ida 560 ga yaqin mahalliy hokimiyatlar o'z faoliyatini olib boradi. Avstraliyada davlat boshqaruvi tuzilmalari faoliyatini baholash va monitoring qilish bo'yicha islohotlar jarayonlari 1980 yillardan boshlangan. Bunda asosiy e'tibor aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga sifatli davlat xizmatlari ko'rsatish, mahalliy byudjet mablag'laridan samarali foydalanish (tejash), davlat xizmatchilarining o'z funktsiya va vazifalariga munosib ravishda faoliyat olib borishlari, bir so'z bilan aytganda, mahalliy hokimiyat faoliyatiga oid barcha resurslar (input) va ularning natijalari (output) bo'yicha asosiy faoliyat ko'rsatkichlarini baholash va hisobot yuritish tizimlariga qaratilgan [5].

Avstraliya mahalliy hokimliklar tajribasida jamoatchilikning hokimlik maslahat xizmatlaridan qoniqishi va ularning keng jalb qilinishi, jamoatchilik kengashi vakilining (raisining) hokimlik kengashlarida ishtiroki, jamoatchilikning kengash qabul qilgan qarorlaridan qoniqishi, mahalliy ahamiyatdagi yo'llar foydaliligini standartlashtirish, yo'l qurilish xarajatlarining samaradorligi, yo'llardan foydalanuvchilarning qoniqishlari, aholining maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha e'tirozlari, aholi punktlarining maishiy chiqindilar solinadigan konteynerlar bilan ta'minlanganligi kabi ko'rsatkichlar asosida baholanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 oktyabrdagi PF-5843-son farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat xizmatini rivojlantirish agentligiga davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholashning o'lchanadigan indikatorlari (eng muhim ko'rsatkichlari) tizimini joriy etish va ularning natijalarini tahlil qilish, jamoatchilik fikrini o'rganish hamda davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining ochiq reytingini shakllantirish vazifasi yuklatilgan [6]. Shuningdek, yuqorida ko'rib o'tkanimizdek, O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari yuritiladi. Umuman olganda davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini baholash tizimi jahon tajribasida o'tgan asrning saksoninchi yillaridan boshlab o'z takomiliga yetgan bo'lsa, O'zbekistonda ushbu tizim asosida baholash 2020 yillardan ya'ni global pandemiya davridagi hududlardagi ijtimoiy vaziyatni inobatga olgan holda boshlangan. Ushbu tizim asosan aholini muhtoj qatlamlari bilan ishlashni samarali tashkil etish maqsadida tashkil etilgan.

Hozirda, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashabbusi bilan tuman (shahar) hokimlari o'rinbosarlarni eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlar hamda sektor rahbarlari faoliyatini reyting asosida baholash tizimi yo'lga qo'yilgan. O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmati tizimi xodimlarini baholashda, ularning asosiy indikatorlarini ishlab chiqishda ko'proq aholini ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab quvvatlash, mehnatga layoqatli ishsiz fuqarolarni bandligini ta'minlash, mehnatga layoqatsiz ehtiyojmand fuqarolarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va aholining daromad olishi uchun imkoniyat yaratishga qaratilgan.

Hozirgi kunda tuman va shahar hokimi o'rinbosarlari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari asosida hamda tuman shahar sektori rahbarlarini reyting ko'rsatkichlari asosida baholash tizimi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, yangi tashkil etilgan tizim – mahallada hokim yordamchisi, xotin-qizlar faollari hamda yoshlar yetakchilari faoliyatining KPI asosida baholash tizimi yo'lga qo'yilgan. Tuman va shahar sektori rahbarlari faoliyatini reyting baholash tizimi 2020 yil sentabr oyidan joriy etildi. Sektor rahbarlari faoliyatini baholashda ularni aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlami bilan ishlash samaradorligi, aholi murojaatlarini hal etilishi kabi ko'rsatkichlar kiritilgan bo'lib, ushbu tizim rahbarlarning aholiga yanada yaqinroq bo'lishini, ular bilan yaqindan muloqot qilishini ta'minlaydi. Ular faoliyatini baholashda aholining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhtoj toifalari kiritilgan "Temir daftar", "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" bilan ishlash samaradorligiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu daftarlar bilan ishlash natijadorligi bevosita sektor rahbarining natijalari shakllanishining asosiy qismini tashkil etadi. Buning natijasida sektor rahbarlari eng asosiy e'tiborlarini hududdagi ehtiyojmand oila va fuqarolariga qaratadi. Birgina "Temir daftar" tashkil qilingan 2020 yil ya'ni pandemiya davridan boshlab hozirgi kunga qadar amalga oshirilgan ishlarni tahlil qiladigan bo'lsak, muhtoj oilalar bilan keng ko'lamli ishlar olib borilganligini guvohi bo'lamiz. Ushbu daftarga hozirgi kunga qadar 45 816 ta yordamga muhtoj oilalar kiritilib, moddiy va boshqa turdagi yordamlar ko'rsatilishi, oiladagi mehnatga layoqatli ishsiz fuqarolarni ishga joylashtirish orqali ularning bandligini ta'minlash va domiy daromad manbaiga ega qilinishi natijasida 43 854 ta (98,5 %) oila ro'yxatdan chiqarilgan. Jumladan 50 846 nafar mehnatga layoqatli ishsiz fuqarolar daftarga kiritilib, ularning 50 094 nafari ya'ni 98,5 foizining bandligi ta'minlanib doimiy daromad olish manbaiga ega bo'ldi va daftardan chiqarildi. Shuningdek, 73 312 marta moddiy jihatdan muhtoj oilalarga pul, oziq-ovqat va boshqa ko'rinishdagi 60,8 mlrd so'm miqdoridagi moddiy yordamlar ko'rsatildi.[7]

Ushbu tizimni takomillashtirish maqsadida har bir mahallada hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar faoliy lavozimlari joriy etilib, ularning eng asosiy vazifalari sifatida mahalladagi ehtiyojmand fuqarolar bilan ishlash, ishsiz fuqarolarni bandligini ta'minlash, ularni moddiy jihatdan

qo‘llab-quvvatlash etib belgilandi. Jumladan, hokim yordamchilari hududning iqtisodiy jihatdan rivojlanishini ta‘minlash, hududda tadbirkorlikni rivojlantirish, mehnatga layoqatli ishsiz fuqarolarni bandligini ta‘minlash orqali ularning daromad olish imkoniyatini yaratish hisoblanadi. Shuningdek, yoshlar yetakchilari va xotin-qizlar faollari hududdagi yoshlar va xotin-qizlar orasida yordamga muhtojlarni aniqlash va ular bilan tizimli ishlash natijasida ularni muhtojlik darajasidan olib chiqish, har tomonlama jamiyatda o‘z o‘rnini topishida ko‘maklashish hisoblanadi.

Shuni ta‘kidlash joizki, hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari va xotin-qizlar faollarining faoliyatini baholash tizimi ham joriy etilgan bo‘lib, ularni baholash indikatorlariga aynan ushbu toifadagi aholi qatlami bilan ishlash samaradorligi natijalari ham kiritilgan. Shuningdek, mahalladagi hokim yordamchilari, yoshlar etakchilari, xotin-qizlar faollari faoliyati natijalari to‘g‘ridan to‘g‘ri sektor rahbarlari hamda tegishliligi bo‘yicha hokim o‘rinbosarlari faoliyati natijadorligiga bevosita bog‘langanligi ularning faoliyati natijadorligi sektor rahbari va tegishli hokim o‘rinbosarlari tomonidan qo‘llab-quvvatlab turiladi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, aholining ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan muhtoj qatlami bilan ishlash har bir davlat fuqarolik xizmati tizimi rahbarlari va xodimlarining eng asosiy vazifasi etib belgilagan. Ushbu vazifalarning ijrosini ta‘minlash bevosita ular faoliyati samaradorligi baholashga bog‘langanligi bu sohada faoliyatni yanada samarali tashkil etilishiga olib keladi. Yaratilgan ushbu tizim davlat xizmati samaradorligiga va uning aholi bilan bevosita va samarali faoliyat olib borishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasi.
2. “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 36-modda
3. Hatton M.J., Shroeder K. Results-based management: friend or foe?// Development in Practice. 2007 (Jun) Vol 17. No.3 P. 427
4. Michael. S. Local Government Accountability: Challenges and Strategies. 2005.
5. OECD (2007), "Towards Better Measurement of Government", OECD Working Papers on Public Governance, 2007/1, OECD Publishing. doi:10.1787/301575636734
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 oktyabrdagi PF-5843-sonli “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni
7. “saxovat.idm.uz” elektron partali

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARIGA MALAKA DARAJALARINI BERISH: QONUNCHILIK ASOSLARI VA XORIJIY AMALIYOT.

Zafar JUMAYEV, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Buxoro viloyat filiali rahbari, texnika fanlari nomzodi;

Alijon AXADOV, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Buxoro viloyat filiali rahbari o‘rinbosari.

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmati tizimida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonuni doirasida belgilangan malaka darajalari, ularning guruh va toifalari, shuningdek, ushbu sohada ilg‘or tajribaga ega xorijiy davlatlar amaliyoti va ayrim tavsiyalar muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: davlat xizmatchilarining malaka darajasi, malaka talablari, davlat xizmati, maxsus xizmat, meritokratiya, xorij tajribasi, amaliyot.

ПРИСВОЕНИЕ КВАЛИФИКАЦИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫМ ГРАЖДАНСКИМ СЛУЖАЩИМ: ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И СОВРЕМЕННАЯ ПРАКТИКА.

Зафар ЖУМАЕВ, Руководитель Бухарского областного филиала Агентства по развитию государственной службы при Президенте Республики Узбекистан, кандидат технических наук;

Алижон АХАДОВ, Заместитель руководителя Бухарского областного филиала Агентства по развитию государственной службы при Президенте Республики Узбекистан.

Аннотация: В статье рассмотрены квалификационные уровни, их группы и категории, а также практика зарубежных стран с передовым опытом в данной сфере и некоторые рекомендации в рамках Закона Республики Узбекистан «О государственной гражданской службе» в системы государственной гражданской службы в Узбекистане.

Ключевые слова: квалификационный уровень государственных служащих, квалификационные требования, государственная служба, специальная служба, meritократия,

Zafar JUMAEV, Head of the Bukhara regional branch of the Agency for the Development of Public Service under the President of the Republic of Uzbekistan, doctor of philosophy (Ph.d, in techniq);
Alijon AKHADOV Deputy Head of the Bukhara regional branch of the Agency for the Development of Public Service under the President of the Republic of Uzbekistan.

AWARDING QUALIFICATIONS TO PUBLIC CIVIL SERVANTS: LEGAL FRAMEWORK AND FOREIGN EXPERIENCE.

Abstract: *The article discusses the qualification levels, their groups and categories, as well as the experience of foreign countries with best practices in this area and some recommendations within the framework of the Law of the Republic of Uzbekistan "On the State Civil Service" in the system of the state civil service in Uzbekistan.*

Key words: *qualification level of civil servants, qualification requirements, civil service, special service, meritocracy, foreign experience, practice.*

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmati tizimi keng miqyosda isloh qilib borilmoqda. Yurtimizda bu borada olib borilayotgan tizimli islohotlarning navbatdagi amaliy natijasi o‘laroq O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur qonunning qabul qilinishi davlat fuqarolik xizmati tizimida olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqib, sohaning rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy poydevor bo‘ladi.

Chunki qonun davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy maqomi, lavozimlar toifalari va malaka darajalarini, davlat fuqarolik xizmatiga kirish, o‘tash va tugatish jarayonlarining yagona tartibotini, kadrlarning kasbiy-ma‘naviy fazilatlarini va alohida xizmatlarning ob‘yektiv hamda adolatli baholash asosida xizmat pog‘onalari bo‘yicha o‘sish kafolatlarini, umuman, yagona davlat fuqarolik xizmatining tashkiliy-huquqiy mexanizmini tartibga solishni nazarda tutadi.

Shuningdek, ushbu qonun bilan ilk marotaba davlat fuqarolik xizmatchilariga malaka darajalarini berish tizimini joriy etish belgilangan. Ushbu tizim O‘zbekistonda ilgari qo‘llanilmagan va bunday toifalanishning kiritilishi davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samarali tashkil etilishi, ularning sohaga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Malaka darajalarini berish maxsus va harbiy xizmatchilarga qo‘llanilishidan ko‘rinadiki, ularning faoliyatida yuqori natija bilan ishlashga, yuqori martaba darajasini olishiga intilishi sohaning ham rivojlanishiga turtki beradi. Shu bilan birga rivojlangan xorijiy davlatlar – Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, BAA kabi davlatlarda joriy etilgan bunday tizimning jozibadorligi va unga munosib kadrlarni tanlab olish imkoniyati hamda faoliyatining samarali tashkil etilishiga imkoniyat yaratganligina ko‘rish mumkin.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, davlat xizmatchilarini toifalarga ajratilishi o‘zbek davlatchiliga tarixida ham o‘z ildizlariga ega. Jumladan Temuriylar davlatchiligida, ayniqsa Amir Temur davrida davlat boshqaruvida va hirbiy yurishlarda amirlarning alohida o‘rni bo‘lgan. Amirlik martabasi Temur faoliyatining dastlabki yillarida unga sodiq bo‘lgan 313 nafar kishiga berilgan. Bulardan bittasi - amir ul-umaro, to‘rttasi - beklarbegi, yuztadan - mingboshi, yuzboshi va o‘nboshi bo‘lgan. Bulardan tashqari yana o‘n ikki nafar kishiga birinchidan to‘n ikkinchi darajali amirlik unvonlari berilgan. O‘n ikkinchi darajali amir odatda amir ul-umaroning noibi hisoblangan [1].

O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatchilarining malaka darajalari va toifalari

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunining Davlat fuqarolik xizmati tizimini tashkil etishga bag‘ishlangan 5-bobida Davlat fuqarolik xizmati tizimida lavozimlarning davlat reestri, ularning guruhlari va toifalari ko‘rsatib berilgan. Qonun bilan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reestri davlat organi darajasidan (milliy, respublika, hududiy va tuman) kelib chiqqan holda, malaka talablariga muvofiq birxillashtirilgan va tasniflangan davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining guruhlari hamda toifalaridan, shuningdek, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining malaka darajalaridan iborat bo‘ladi. SHuningdek, Qonunning 23-moddasiga asosan davlat fuqarolik xizmati lavozimlari uchta guruhlarga bo‘linishi belgilangan. Birinchi guruh **siyosiy guruh** bo‘lib, ushbu guruhga yuqori darajadagi davlat rahbar kadrlari kiritiladi. Mazkur guruhga tegishli davlat fuqarolik xizmati lavozimlariga ishga tayinlash va ishdan bo‘shatish tartibi alohida qonunlar va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan amalga oshiriladi. Davlat fuqarolik xizmatchilarining boshqaruv kadrlari ikkinchi **boshqaruv guruhi** deb nomlanib, boshqaruv kadrlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Shuningdek, uchinchi guruh **yordamchi guruh** bo‘lib, ushbu guruhga kadrlar tizimidagi eng katta korpusni tashkil etuvchi mutaxassis xodimlar kiritiladi. Ushbu guruhlarga kiruvchi lavozimlarga ya‘ni, davlat fuqarolik xizmati tizimining boshqaruv va yordamchi

guruhga kiruvchi lavozimlarga ishga qabul qilish tanlov orqali amalga oshirilishi hamda davlat organi rahbari tomonidan lavozimidan ozod etilishi qonun bilan belgilangan [2].

Qonun bilan Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining guruhlari bilan birga ularning toifalari va malaka darajalari belgilangan. Siyosiy kadrlar guruhi **rahbar kadrlar toifasiga**, boshqaruv kadrlar guruhi **boshqaruv kadrlar toifasiga** kiritilgan. SHuningdek, yordamchi kadrlar guruhiga **mutaxassis kadrlar toifasi** bo‘lingan.

SHuningdek, ushbu guruh va toifalar o‘z ichiga bir qancha davlat fuqarolik xizmati tizimining malaka darajalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu malaka darajalari kadrlarga lavozimga tayinlanishi, malaka oshirish kurslarini o‘tashi, alohida xizmatlari uchun taqdim etiladi.

Dastlab, siyosiy guruhga kiruvchi rahbar kadrlarning malaka darajalarini ko‘radigan bo‘lsak, ushbu guruhga oliy darajali maslahatchi darajasi ushbu tizimdagi eng yuqori malaka darajasi ekanligini ko‘ramiz. Shuningdek, ushbu guruhga 1-darajali maslahatchi, 2-darajali maslahatchi, 3-darajali maslahatchi malaka darajalari kiritiladi. Davlat fuqarolik xizmatchilariga ushbu toifadagi malaka darajalari alohida tartib asosida berilishi nazarda tutilgan.

Davlat fuqarolik xizmati tizimining boshqaruv kadrlar guruhiga kiruvchi boshqaruv kadrlarning malaka darajalarini ko‘radigan bo‘lsak, bunda ularning nomlanishiga ham alohida e‘tibor qaratish lozim. Chunki siyosiy guruhga kiruvchi rahbar kadrlarga **maslahatchi** darajasi berilgan bo‘lsa, undan quyi guruhlarga kiruvchi davlat fuqarolik xizmatchilariga bir necha darajadagi **xizmatchi** darajasi belgilangan. Boshqaruv guruhidagi boshqaruv kadrlar toifasiga 1-darajali xizmatchi, 2-darajali xizmatchi, 3-darajali xizmatchi malaka darajalari berilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu malaka darajalari davlat fuqarolik xizmatining quyi bo‘g‘inlarida boshqaruv lavozimlarida faoliyat olib borayotgan davlat xizmatchilariga berilishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining yordamchi guruhiga tegishli bo‘lgan mutaxassis kadrlarga 4-darajali xizmatchi, 5-darajali xizmatchi hamda 6-darajali xizmatchi malaka darajalari berilishi belgilangan.

Davlat fuqarolik xizmatchilariga davlat fuqarolik xizmati lavozimlari malaka darajalari berishda ham ma‘lum tartibga rioya etilishi va talablarning bajarilishi natijasida beriladi. Ushbu malaka darajalari izchil tartibda, oliy ma‘lumotga va muayyan ish stajiga, malaka oshirish kurslarini tugatganligi to‘g‘risidagi sertifikatga, malaka komissiyasining ijobiy xulosasiga ega bo‘lgan taqdirda berilishi nazarda tutilgan.

Davlat fuqarolik xizmati tizimida davlat xizmatchilariga malaka darajalarini berilishi ularning mehnatga haq to‘lash tizimining ham o‘zgarishiga olib keladi. Endi yuqori malaka darajasiga ega kadrlarga yuqoriroq oylik maosh to‘lash tizimi joriy etiladi. Jumladan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 43-moddasiga muvofiq, mehnatga haq to‘lashda bazaviy lavozim maoshi, ko‘p yillik xizmati uchun qo‘shimcha to‘lov, faoliyatida eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishganligi uchun qo‘shimcha to‘lov bilan birga malaka darajasi uchun ham qo‘shimcha to‘lov nazarda tutilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki davlat xizmatchisi yuqori malaka darajasini olishdan moddiy jihatdan ham manfaatdorligi uning mehnatini samarali tashkil etishi, o‘z ustida ko‘proq ishlashi, soha va boshqaruv bo‘yicha bilim ko‘nikmalarini doimiy oshirib borishi uchun turtki bo‘ladi.

Shu bilan birga sohada yuqori natijaga erishgan va alohida xizmatlari uchun rag‘batlantirish sifatida muddatidan oldin malaka darajasini berish ham nazarda tutilgan. Buning aksi o‘laroq, malaka darajasini pasaytirish intizomiy jazo sifatida qo‘llanilish ham nazarda tutilgan bo‘lib, bu xodimning belgilangan tartib-intizomga rioya qilishi uchun bir mexanizm sifatida ham qarash mumkin.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining malaka darajalari ularning o‘z ishidan boshqa ish joyiga o‘tishi, rotatsiya tartibida ko‘chirilishi, boshqa davlat fuqarolik xizmati tashkilotiga o‘tganida ham malaka darajasi saqlanishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, maxsus xizmat organlaridan davlat fuqarolik xizmati tizimiga o‘tgan davlat xizmatchilari uchun ham imkoniyatlar yaratilgan bo‘lib, ular davlat fuqarolik xizmati tizimida kamida maxsus xizmatdagi malaka darajasiga tenglashtirilgan malaka darajasi berilishi imkoniyati yaratiladi.

Davlat fuqarolik xizmati martaba darajalari ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi misolida

Davlat fuqarolik xizmati tizimi rivojlangan davlatlardan biri bo‘lgan **Germaniyada** davlat tuzilishi jihatdan uning tarkibiga kirgan sub‘ektlar yuqori darajada avtonom xususiyatga ega bo‘lgan federativ davlat bo‘lishiga qaramasdan, davlat xizmati tizimi unifikatsiyalangan. Shu tariqa turli davlat muassasalarining o‘zaro “destruktiv raqobatchiligi”ga yo‘l qo‘yilmaydi. Germaniya davlat xizmati tizimining tarkibiy elementi bo‘lgan “rang (martaba)lar jadvali” amal qiladi. Ushbu rasmiy hujjatning o‘ziga xos jihati shundaki, martabalar jadvaliga ko‘ra davlat xizmatchilari vertikal yo‘nalishda pag‘onalashtirilgan quyidagi to‘rtta asosiy sinflarga bo‘linadi: ma‘murlar sinfi (analogiya bo‘yicha vazirlar, vazir o‘rinbosarlari, kompaniya direktorlari darajasidagi martabaga to‘g‘ri keladi), boshqaruvchilar sinfi (analogiya bo‘yicha boshqarma, bo‘lim boshliqlari, mutaxassislar darajasidagi martabaga to‘g‘ri keladi), xizmatchilar (rahbar yordamchisi,

kotiba) va yordamchi-texnik xizmatchilar sinfi. Har bir sinf doirasida alohida pag'onalarga ajratilgan bo'lib, ushbu pag'onalar quyidan yuqoriga qarab 1-16 darajadan iborat bo'ladi. Masalan 1-5 darajali xizmatchilar yordamchi-texnik xodimlar uchun, 6-9 darajalar xizmatchilar sinfi uchun, 10-13 darajalar boshqaruvchilar sinfi uchun hamda 14-16 darajali xizmatchilar ma'murlar sinfi uchun beriladi[3]. Alohida olingan sinf doirasidagi davlat xizmatchilarining bir darajadan ikkinchisiga ko'tarilishi vertikal yo'nalish bo'yicha mansabdan mansabga ko'tarilishdan ko'ra nisbatan osonroq kechadi. Davlat xizmatida band bo'lgan xodimlarning asosiy qismi boshqaruvchi va xizmatchilar sinfiga mansub.

Germaniya davlat xizmatchilarining mansab pag'onalaridan ko'tarilishi qat'iy ravishda tartibga solinadi. Aytaylik ma'murlar sinfidagi davlat xizmatchilari safiga qo'shilish uchun talabgorlar magistr darajasida malakali bilim olishi va biron-bir davlat muassasasida kamida ikki yillik ish stajiga ega bo'lishi shart. Germaniyada ma'murlar sinfiga mansub davlat xizmatchilarining aksariyat qismini yuridik sohada ta'lim olgan kishilar tashkil etadi.

Boshqaruvchilar sinfiga mansub bo'lgan davlat xizmatchilari safiga qo'shilish uchun talabgorlar universitetda ta'lim olgan bo'lishi zarur. Biroq davlat organlari yoki muassalarida ishlagan bo'lishi shart emas. Xizmatchilar sinfiga mansub davlat xizmatchilari safiga qo'shilishi uchun esa talabgorlar tanlangan faoliyat sohasiga mos keladigan ixtisoslik bo'yicha o'rta maxsus ma'lumotlga ega bo'lishi kifoya. Oddiy ya'ni yordamchi-texnik xizmatchilar safiga qo'shilish uchun umumiy o'rta ta'lim darajasidagi bilimga ega bo'lishning o'zi kifoya.

Umuman, Germaniya davlat xizmati modelida mansabdor shaxs albatta malakali ta'lim olgan bo'lishi, xizmat pag'onalarida yuksalishi uchun professional jihatdan yetuk xodim sifatida shakllanishi kerak. Xodimning professional darajasi ekspertlar guruhi tomonidan baholanadi.

Davlat fuqarolik xizmati tizimi rivojlangan davlatlardan biri bo'lmish **Janubiy Koreya Respublikasida** 1963 yilda "Milliy davlat xizmati haqida"gi qonun qabul qilingan bo'lib, ushbu qonun bilan davlat fuqarolik xizmati tizimi tartibga solinadi. Qonun bilan davlat xizmatchilari deb yollanadigan, tayinlanadigan va saylanadigan markaziy va mahalliy davlat hokimiyati xodimlariga aytiladi [4].

Milliy davlat xizmati bajaradigan vazifasiga ko'ra 2 guruhga ajratiladi: kasbiy va nokasbiy. Nokasbiy davlat xizmatchilariga barcha yuqori lavozimdagi hukumat a'zolari, jumladan, davlat kengashi a'zolari, vazir o'rinbosarlari, vazirliklar tarkibidagi boshqarma boshliqlari, elchilar, sudyalari, tayinlanadigan siyosiy faoliyat kotiblari, harbiy kadrlar, mudofaa tashkilotlarining fuqarolik xizmatchilari, provinsiyalarning gubernatorlari, Seul va 5 ta munisipal rayon merlari kiradi. Shuningdek, rektorlar, dekanlar va davlat universitetlarining kafedra a'zolari, boshlang'ich va o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari ta'lim sohasidagi davlat xizmatchilari hisoblanib, ularning faoliyati "Ta'lim sohasidagi davlat xizmatchilari" to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadi.

Janubiy Koreyada davlat xizmatchilari 9 toifa (rang)ga bo'linib, deyarli barcha davlat mansabdor shaxslari mana shu tasnifga kiradi. 1-5 toifadagi davlat xizmatchilari vazirlar tavsiyasiga asosan prezident tomonidan, 6-9 toifadagi xizmatchilar vazirlar tomonidan tayinlanadi [5].

Davlat fuqarolik xizmati tizimidagi 1,2,3-ranglar oliy darajadagi boshqaruv lavozimlariga, 4-5-ranglar o'rta darajadagi boshqaruv lavozimlari, 6,7,8,9-ranglar qo'yi darajadagi boshqaruv lavozimlariga beriladi. 5 va undan quyi rangdagi davlat xizmatchilari muntazam ravishda umumiy va kasbiy malaka oshirish dasturlari doirasida qayta tayyorlovdan o'tishlari shart. Davlat xizmatida davlat xizmatchilari lavozim pag'onalarida ko'tarilishlari uchun belgilangan vaqt me'yorlariga amal qilishi belgilangan. 9-rangdagi davlat xizmatchisi 8-rangni olishi uchun 1,5 yil, 8-rangdagi 7-rang uchun 2 yil, 7-rangdagi 6-rang uchun 2 yil, 6-rangdagi 5-rang uchun 3,5 yil, 5-rangdagi 4-rang uchun 4 yil hamda 4-rangdagi 3-rang olish uchun 3 yil ishlashi talab etiladi [6].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekiston davlatchiligi tarixida ilk marotaba davlat fuqarolik xizmatchilariga malaka darajalari berilishi tizimi joriy qilinayotgan bir paytda, albatta bu jarayonda dastlab ilg'or xorijiy davlatlarning tajribalarini o'rganish hamda undan milliy qonunchiligimiz va mahalliy shart-sharoitlarga mos ravishda amalda qo'llash zarur. Ushbu jarayonlar garchan maxsus xizmatlar tizimida joriy etilgan bo'lsada, fuqarolik xizmati tizimi undan bar qancha o'ziga xoslik jihatlari bilan farq qiladi. Ushbu tizimda kontingentning kattaligi, vazifalarning, lavozimlarning turliligi, tuzilishi jihatdan bir qancha ko'rinishdaligi malaka darajalarini belgilashda, uni yagona tizimga keltirishda murakkablikka olib keladi. Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilarini reestrining qabul qilinishi, lavozim darajalarning belgilanishi uchun dastlabki asos bo'ladi. Davlat xizmatchilarining keyinchalik o'sib borish tartibi, o'tkaziladigan malaka darajalarini aniqlovchi komissiya faoliyati, attestatsiya yoki sinovlarning o'tkazilish tartibi to'g'risida alohida Nizom ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Malaka darajalarini joriy etilishi, buning natijasida davlat fuqarolik xizmati tizimida meritokratiya tamoyillarining amal qilishi davlat xizmatiga bo'lgan ishonch va kadrlarda unga faoliyat yuritishga

intilishning yanada kuchayishiga olib keladi. Shuningdek, davlat xizmatchilarining o‘z ustilarida doimiy ishlash, faoliyatini aniq me‘zonlar va maqsadlar asosida tashkil etish va faoliyatida yuqori samaradorlikka erishishga bo‘lgan motivatsiyalar paydo bo‘lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Temur tuzuklari. Forschadan A.Sog‘uniy va H.Karomatov tarjimasini. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida” Qonuni. 2022 yil
3. Germaniya Federatsiyasining “Davlat xizmatchilarining davlat xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni 1953.y (keyingi o‘zgarishlari bilan birga)
4. Kim G.N. – Zapiski o Koreyuax. Nauchno-spravochnoe izdanie. “Respublika Koreya”. Elektron darslik. 2017 yil.
5. Kim G.N. – Zapiski o Koreyuax. Nauchno-spravochnoe izdanie. “Respublika Koreya”. Elektron darslik. 2017 yil.
6. The civil Service System in Korean Government. Prezentaçiya sotrudnikov MRM. 2017 y

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MEHNAT BOZORINING SHAKLLANISHI VA ISHSIZLIK.

Axmedova Farangiz Buxoro
Davlat Universiteti “Iqtisodiyot va
turizm“ fakulteti 3-2IQT-20 guruh
talabasi

Anotatsiya:Ushbu tezis: mehnat bozori, ishsizlik, uning paydo bo‘lishi va sabablari, ishsizlik darajasi, ishsizlik darajasini pasaytirishga va aksincha oshirishga sabab bo‘luvchi bir qator omillar, mamlakatda ishsizlikni tabiiy darajaga keltirish uchun nimalarga alohida e‘tibor berish kerakligi, mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlarda ishsizlik darajasini pasaytirish uchun ko‘rilayotgan chora tadbirlar, ishsizlik darajasi yuqori bo‘lishining natijasida yuzaga keladigan makroiqtisodiy muammolar va ularni qanday bartaraf etish yo‘llari haqida.

Kalit so‘zlar: mehnat bozori, mehnat taklifi, ishsizlik darajasi, ish bilan bandlik, mehnat resurslari, ishchi kuchi, YaIM, YMM

Kirish: Mehnat bozori- ish beruvchilar va yollanib ishlashni xohlovchilarni bevosita bog‘lab turadigan bozor hisoblanadi. Mehnat bozorining asosiy qismini ishlab chiqarish kuchlari tashkil etadi. Ishlab chiqarish kuchlari, mehnat resurslari va ishchi kuchini o‘z ichiga oladi. Ishchi kuchi deganda mehnatga layoqatli yoshdagi, ishlayotgan va ishsiz yurgan aholining umumiy soni nazarda tutiladi. Mehnat bozori-mamlakat YaIMiga ta‘sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Buni Ouken o‘z qonunida isbotlab o‘tgan. Unga ko‘ra : ishsizlik potensialining 1% ga oshishi, YaIM ning 2.5%-3% ga pasayishiga olib keladi. Bundan kelib chiqqan holda mamlakat aholisining ish bilan bandligi har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotga erishishiga sababchi bo‘ladi. Misol uchun oladigan bo‘lsak, mamlakatda ishsizlik darajasi yuqori bo‘lganda ishsizlarning ko‘p qismi davlatning boshqariluvidan norozi bo‘ladilar va buning oqibatida hukumatga qarshi turli namoyishlar olib boradilar natijada hukumat o‘z holatini yo‘qotishi mumkin va ishsizlik oqibatida mamlakatda makroiqtisodiy beqarorlik kelib chiqadi. Bugungi kunda ishsizlik mamlakatning eng asosiy muammosi bo‘lgan mamlakatlar ham mavjud. Bunday mamlakatlar iqtisodiy qoloq malakatlar ro‘yxatiga kirgani ham sir emas. Buni quyidagi rasmda ko‘rishimiz mumkin:

1. South Africa - 29.2%
2. Kosovo (partially recognized) - 26.2%
3. Djibouti - 26.1%
4. West Bank & Gaza Strip (occupied Palestine) - 25.9%
5. Equatorial Guinea - 25.0%

1- rasm. Ishsizlik darajasi eng yuqori mamlakatlar.2020-y¹

O‘zbekistonda 2021 yilning yanvar-sentabr oylarida ishsizlik darajasi 9,4 foizni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,7 foizga, yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,4 foizga kamaygan.²

¹ <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/unemployment-by-country>

² <https://kun.uz/uz/news/2021/11/16/ozbekistonda-rasmiy-ishsizlik-darajasi-malum-qilindi>

Mavzuning dolzarbligi: Ma'lumki, aholining ish bilan bandligi mamlakat YaIMiga ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Shunday ekan mamlakat turmush tarzini yaxshilash, iqtisodiy barqarorlikka erishish, mamlakatni rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritish uchun aholini ish bilan band qilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida bir qancha iqtisodiy muammolarni boshidan kechirdi. Bulardan bir aynan ishsizlik muammosi bo'lgan. O'sha davrdagi ishni taklif qiluvchilarning bilim va ko'nikmalari talabga javob bermasligi, mehnat bozoridagi talab va taklif o'rtasidagi tafovutlarni keltirib chiqargan. Buning oqibatida aholi o'z oilasini boqish anchagina qiyin bo'lgan sharoitda, boshqa mamlakatga borib pul ishlab o'z oilasini boqish imkoniyatidan foydalangan. Buning oqibatida mamlakatda mehnat migratsiyasi vujudga kelishni boshlagan va u haligacha davom etmoqda. Mehnat migratsiyasining salbiy tomonlari, mehnat bozorida raqobatni pasayishi, mamlakat ichida mehnatga layoqatli aholi soni kamayishi, chetdan keladigan valyuta uchun mamlakatda hech qanday tovar va xizmatlar yaratilmasligi va buning oqibatida mamlakatda inflyatsiyaning ma'lum darajaga ko'tarilishi.

Ammo, masalaning yana bir tomoni mavjud. Masalan: Hindistonni oladigan bo'lsak, bu mamlakatda YaIM ko'pchilik mamlakatlarga qaraganda ancha yuqori ammo, aholi soni ko'pligini inobatga olgan holda bu mamlakat rivojlangan mamlakatlar qatoriga hali kirmagan. Bundan tashqari favqulotda bo'ladigan hodisalar ham ishsizlikka o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Bunga misol qilib 2020-yilda butun dunyoda bo'lgan pandemiyaning olishimiz mumkin. Karantin oqibatida qanchadan qancha aholi ishsiz qoldi

Mavzuning bugungi kundagi holati: Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasidagi mehnat bozorida quyidagi xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin:

1. Mehnat taklifining talabdan yuqori ekanligi
2. Kasaba uyushmalari ta'siri sezilarsiz ekanligi
3. Mehnatga haq to'lash va yashash minimumi o'rtasidagi tafovutlarning yuqori ekanligi
4. Mehnat taklif qiluvchilarda yetarlicha malaka yo'qligi

O'zbekistonda mehnat bozorini rivojlantirish va ishsizlik darajasini qisqartirish uchun yuqoridagi 4 ta xususiyatga e'tibor berishimiz kerak. Aynan shu xususiyatlarning mavjudligi mehnat bozoridagi kamchiliklardan dalolat beradi. Aholining munosib va rasmiy ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasining 2021-2030 yillarda aholi bandligiga ko'maklashish strategiyasi" ishlab chiqildi. Ushbu strategiyani amalga oshirish natijasida erishiladigan maqsadli ko'rsatkich va indikatorlar 2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar samarali va munosib ish bilan bandlikni oshirish asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.¹ Bugungi kunda mamlakatimizda ishsizlikni oldini olishda ko'plab chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. 2021-yil davomida viloyatdagi Aholi bandligiga ko'maklashish markazlari tomonidan 35 ming nafar xotin-qizlarning bandligini ta'minlash xizmatlari ko'rsatildi. Jumladan:

Korxonalar va tashkilotlardagi mavjud vakant (kvota) ish joylariga 9591 nafar xotin-qizlar joylashtirildi. 5278 nafar ishsiz xotin-qizlarni moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida ishsizlik nafaqasi to'lab berildi. Mehnat bozori hamda bandlik sohasida talab yuqori bo'lgan kasblarga 7569 nafar ish bilan band bo'lmagan xotin-qizlar kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashga vuborildi. Jamoat ishlari jamg'armasiga ajratilgan mablag'lar hisobidan jami 11100 nafar xotin-qizlar jamoat ishlariga jalb qilindi. 254 nafar ishsiz xotin-qizlarga shaxsiy tomorqasida yengil tipdagi issiqxona qurilishi uchun, ekin ekishga urug'lar va ko'chatlar xarid qilinishi, sug'orish vositalarini xarid qilish uchun subsidiyalar berildi.² Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, o'zini-o'zi band qilish maqsadida banklar tomonidan kreditlar berilishi tashkillashtirilyotgani, yosh tadbirkorlarga iqtisodiy qulayliklar yaratilyotgani ham ishsizlikni oldini olishga qaratilgan tadbirlardan hisoblanadi.

Ishsizlik darajasi / Unemployment rate
hissida / в процентах / in %

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga muvofiq / По данным Министерства занятости и трудовых отношений / According to the Ministry of Employment and Labor Relations


Hududlar	Худудлар	Regions	2021 davrabki ma'lumotlar / 2021 yilgacha qisqartirilgan ma'lumotlar / 2021 preliminary data																					
			2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Uzbekiston Respublikasi	Узбекистон Республикаси	Republic of Uzbekistan	0,4	0,4	0,4	0,3	0,4	0,3	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2
Qoraqalpoyiston Respublikasi	Қорғاقалпоғистон Республикаси	Republic of Karakalpakstan	1,7	1,7	1,5	1,1	1,0	1,0	0,8	0,7	0,7	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6	
Andijon	Андижон	Andijon	0,3	0,3	0,3	0,2	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	
Bukhoro	Бухоро	Bukhoro	0,3	0,3	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	
Farg'ona	Фарғона	Farg'ona	0,3	0,3	0,3	0,2	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	
Kashgariyano	Қашқадарё	Kashgariyano	0,3	0,3	0,2	0,2	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	
Navoiy	Навоий	Navoiy	1,0	0,5	0,6	0,6	0,9	0,6	0,7	0,0	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9	0,9	
Namangan	Наманган	Namangan	0,5	0,3	0,3	0,4	0,3	0,4	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	
Samarqand	Самарқанд	Samarqand	0,4	0,5	0,5	0,3	0,3	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	
Sirdaryo	Сурдаариё	Sirdaryo	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,1	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	
Sirdaryo	Сурдаариё	Sirdaryo	0,4	0,7	0,4	0,4	0,4	0,2	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	0,3	
Toshkent	Тошкент	Toshkent	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	
Farg'ona	Фарғона	Farg'ona	0,2	0,3	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	
Xorazm	Хоразм	Xorazm	0,5	0,8	1,0	1,3	1,6	0,9	0,6	0,8	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7	0,7	
Toshkent sh.	Тошкент sh.	Tashkent city	0,3	0,3	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	

¹ <https://review.uz/uz/post/2016-2021-yillarda-mehnat-bozorida-amalga-oshirilgan-ishlar-va-erishilgan-natijalar-sharhi>

² <https://mehnat.uz/oz/article/bandlik>

2- rasm. Ishsizlik darajasi to‘g‘risida ma‘lumot. Viloyatlar kesimida. ¹

Xorijiy tajriba: Mehnat bozori va ishsizlik muammolari har bir mamlakatda kuzatilgan. Masalan: hozirgi kunda rivojlangan mamlakat hisoblanadigan Janubiy Koreyani olsak. 1998- yil Koreya mehnat bozoriga juda katta zarba bo‘lgan: bunda, ommaviy ishsizlik, ishsizlikning kengayishi, daromadlar tafovuti, bandlik strukturasi yomonlashuvi, katta ijtimoiy xarajatlar kabi bir qator muammolarga duch kelgan. Bu davrda Koreyaning bandlik sug‘urtasi tizimi o‘zining go‘daklik bosqichida edi. Shuning uchun tizim ishchilarning aksariyat qismini qamrab ololmadi, ayniqsa kichik biznesdagi ishchilarni chunki ular hali endi mehnat bozoriga kirib kelishgandi. Koreya iqtisodiyoti 2000- yilda tanazzuldan keyin tiklana boshladi. 2020-yilda Janubiy Koreyada ishchilar uchun soatiga mehnat unumdorligi 41,7 AQSH dollari atrofida baholandi. Janubiy Koreyada mehnat unumdorligi darajasi oxirgi yigirma yil ichida barqaror ravishda o‘shib bordi, lekin dunyoning boshqa rivojlangan iqtisodiyotiga qaraganda nisbatan past. 2020-yildagi pandemiya hamma mamlakatga o‘z ta‘sirini o‘tkazgani kabi, Janubiy Koreyaga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. 2020-yil pandemiyadan so‘ng Koreya qurilish sektori 19 000 ish o‘rinlarini yo‘qotdi, chakana savdo sektori esa 67 000 ish o‘rinlarini qisqartirdi. Ko‘pgina kompaniyalar mehnat narxining oshishi sababli an’anaviy ravishda kam maoshli ishlarni qisqartirish uchun eng kam ish haqini oshirishdan foydalangan. 2021-yilda Janubiy Koreya poytaxti Seulda ishsizlik darajasi 4,8 foiz atrofida bo‘ldi, bu o‘tgan yilgi 4,6 foiz ko‘rsatkichidan biroz yuqori. Seulda ishsizlik darajasi so‘nggi yillarda barqaror o‘shib bormoqda.²



3- rasm. Janubiy Koreyada 2016- 2026- yillarda ishsizlik darajasi³

Har bir davlat tizimli farovonlik dasturlarini ishlab chiqishi kerak, albatta hozirgi vaziyat va kelajakdagi imkoniyat va sharoitlardan kelib chiqqan holda. Ishsizlikni qisqartirish va mehnat bozorini yanada rivojlantirish maqsadida o‘z oldiga maqsadlarni qo‘yib shu orqali ularni amalga oshirish kerak. Bunda mamlakatning iqtisodiy hamda siyosiy institutlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mamlakat iqtisodiy va siyosiy institutlari qanchalik yaxshi rivojlangan bo‘lsa mamlakatdagi aholi farovonligi ham shunchalik yaxshi bo‘ladi.

Xulosa: Bugungi kunda Respublikamizda mehnat bozorining shakllanishi ayrim to‘siqlarga uchramoqda, bunga sabab ish taklif qiluvchilar yetarlicha malaka va ko‘nikmaga ega emasliklari.” Jamiyatimizda ayrim kasb egalari yetishmaydi ammo ishsizlik darajasi ham yuqori, paradoks”.⁴ Bunga asosiy sabablardan biri O‘zbekistondagi ta‘lim tizimi. Mamlakatda ta‘lim tizimi qanchalik yuqori va sifatli darajada bo‘lsa mamlakat yetishtirayotgan kadrlar nafaqat shu mamlakatga balki istalgan mamlakatga kerakli kadr bo‘la oladi. Masalan iqtisodiy rivojlangan davlatlardan biri AQSH ni misol qilsak. Bir qator qiyinchiliklarga qaramay, AQSh ta‘lim tizimi o‘zini dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biri sifatida ko‘rsatdi. Har yili o‘n minglab odamlar Amerika Qo‘shma Shtatlariga turli mamlakatlardan faqat bitta maqsad - Amerika kollejlari va universitetlarida o‘qish uchun ketadi. Boshqa shtatlarga qaraganda Qo‘shma Shtatlarda ko‘proq oliy o‘quv yurtlari mavjud. Garvard, Stenford, Kembrij, Prinston kabi universitetlar azaldan dunyo bo‘ylab eng yuqori darajadagi ta‘lim bilan sinonim bo‘lib kelgan. Ularni tamomlagan insonlar kelajakda muvaffaqiyatli martaba qurish uchun barcha imkoniyatlarga ega⁵. U yerdagi ta‘lim sifatining yuqori ekanligi, talabalar bo‘sh vaqtlarida yaqin oradagi kutubxonalardan bemalol va istalgan vaqtda foydalana olishlari mumkinligi, o‘z ixtirosi yoki fandagi yaratgan yangiligi uchun yetarlicha mukofot bilan

¹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

² <https://www.statista.com/statistics/1290385/south-korea-unemployment-rate-in-seoul/#:~:text=In%202021%2C%20the%20unemployment%20rate,risen%20steadily%20in%20recent%20years.>

³ <https://www.statista.com/statistics/263701/unemployment-rate-in-south-korea/>

⁴ “Talaba do‘stimga 78+ tavsiya”. Alisher Umirdinov. 2021-yil

⁵ <https://uz.drunkentengu.com/obra1zovanie-v-ssha-uroven-i-osobennosti-6111>

taqdirlanishi bu mamlakat talabalariga motivni shakllantiradi va o'z ustida yanada kuchliroq ishlashi uchun turtki bo'ladi. Aynan shu qulayliklar sababi o'laroq Jef Bezos, Bill Geyts, Stiv Jobs kabilar aynan shu mamlakatda yetishib chiqqan. To'g'ri hamma ixtirochi yoki milliarder tadbirkorlar oliy ma'lumotga ega emasdir lekin ixtirochi ham tadbirkor ham yildan yilga zamonga mos ravishda o'z bilim va tajribalarini yangilab borishi ,bor imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishi evaziga shunday natijaga erishgan Bunday qulayliklar o'z- o'zidan bu davlatda malakali kadrlar yetishmovchiligini oldini oladi.

Aksincha iqtisodiy jihatdan qoloq mamlakat hisoblanadigan Shimoliy Koreya mamlakatida esa ta'lim sifati juda past, ta'limni yaxshilashga qaratilgan chora tadbirlar deyarli yo'q, ta'lim dargohlari ba'zilar uchun uzoq bo'lgani ulardagi kelajakdagi rivojlanishga bo'lgan intilishlarini susaytiradi yoki yaqin bo'lgan taqdirda ham malakali mutaxassis kadr yetishmasligi kabi muammolar bu mamlakat aholisi muammolaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan ta'lim tizimi sifatiga e'tibor qaratish ishsizlikni oldini olishda o'z natijasini albatta ko'rsatadi.

**VI SHO‘BA.
RESPUBLIKADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
USTUVOR YO‘NALISHLARI**

ИННОВАЦИИ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИКайимова З.А.-доц.кафедры
«Экономика» БухГУУмарова Хулкар-магистр 1 курса направление
«Цифровой экономики» БухДУ

Аннотация. Рассматриваются понятие инновации, раскрывается необходимость введения инноваций на предприятиях, влияние инноваций на повышение эффективности производства.

Ключевые слова: эффективность, конкурентоспособность, цифровизация, инновации, инновационная деятельность.

В современных условиях повышения эффективности производства можно достиг преимущественно за счет развития инновационных процессов, получающих конечное выражение в новых технологиях, новых видах конкурентоспособной продукции. Поиск и использование инноваций непосредственно на предприятиях является актуальной проблемой. Развитие новых технических и организационно-технологических решений, совершенствование основных принципов управления применительно к специфике отечественного рынка создают условия для обновления процессов воспроизводства на предприятиях и дают дополнительный импульс для экономического роста.

Инновация (нововведение) – это конечный результат инновационной деятельности, получивший реализацию в виде нового или усовершенствованного продукта, реализуемого на рынке, нового или усовершенствованного технологического процесса, используемого в практической деятельности. По своей природе инновации включают в себя не только технические или технологические разработки, но и любые изменения в лучшую сторону во всех сферах научнопроизводственной деятельности. Постоянное обновление техники и технологий делает инновационный процесс основным условием производства конкурентоспособной продукции, завоевания и сохранения позиций предприятий на рынке и повышения производительности, а также эффективности предприятия [1].

В условиях рыночной экономики функционирование и развитие промышленных предприятий во многом обусловлены эффективной работой их инновационного механизма, а также эффективностью реализуемых им нововведений. Анализ хозяйственной практики свидетельствует о том, что значение инновационной деятельности для промышленных предприятий в современных условиях постоянно возрастает. Между тем статистические данные последних лет подтверждают тот факт, что промышленные предприятия испытывают серьезный кризис в инновационной сфере, и если не предпринимать активных мер по его преодолению как со стороны государства, так и со стороны руководства промышленных предприятий, то неблагоприятные последствия в ближайшем будущем будут еще более значительными. Кризис инновационной сферы промышленности, помимо объективных причин, связанных с реформированием и спадом в экономике, обусловлен также отсутствием целенаправленной работы по повышению эффективности промышленного производства в целом и инновационной деятельности как его важнейшей составляющей, в частности. В этой связи необходимо отметить особое значение своевременного выявления и планомерного использования резервов инновационной деятельности с целью повышения ее эффективности [2]. В целях повышения эффективности функционирования предприятия инновационная деятельность должна обеспечивать:

- 1) наиболее полное и своевременное удовлетворение потребностей;
- 2) конкурентоспособность предприятия по показателям качества продукции и эффективности производства, достижение баланса между стабильностью (управление традиционной технологией) и усилиями по внедрению новой технологии.
- 3) эффективность в широком спектре радикальности нововведений и гибко приспосабливаться как к эволюционным, постоянно реализуемым нововведениям, так и радикальным, периодически осуществляемым нововведениям. При этом следует обеспечивать сочетание непрерывного управления эволюционными технологическими нововведениями и программным управлением радикальными нововведениями;
- 4) организацию взаимодействия внутренних и внешних элементов системы развития, главными факторами которого являются система информации о рынке нововведений, отбор проектов из числа альтернатив и взаимная заинтересованность [3].

В настоящее время в стратегиях многих предприятий происходит определенная переориентация, т. е. переход от всемерного использования экономического эффекта

крупномасштабного производства к более целенаправленной инновационной стратегии. Нововведения представляют собой важнейшие средства обеспечения стабильности хозяйственного функционирования, эффективности функционирования и конкурентоспособности. Существует строгая зависимость между конкурентными позициями, эффективностью предприятия и его инновационным потенциалом. Эффективность функционирования предприятия можно достигнуть за счет повышения качества продукции, реализации политики ресурсосбережения, выпуска новых, конкурентоспособных проектов, освоения рентабельных бизнес-проектов.

Научный интерес представляет высказывание известного теоретика инноватики Б. Твисса, который подчеркивает, что «проблема не только в самих нововведениях как таковых, но скорее в эффективном, ориентированном на прибыль управлении научнотехническими нововведениями».

В этой связи говоря о сущности «инновации» необходимо рассматривать это понятие на уровне предприятия и отражать ее нацеленность на повышение эффективности деятельности предприятия в целом [1]. Безусловно, инновация опирается на удовлетворение определенных общественных потребностей, но вместе с тем повышение эффективности использования отдельных ресурсов или повышение эффективности отдельных производственных подразделений, либо повышение эффективности предприятия в целом в результате внедрения новшества и получения нововведения происходит далеко не всегда.

На конечный успех инновации, выражающийся в получении экономического эффекта или повышении эффективности функционирования предприятия, влияет совокупность разных факторов (экономических, юридических, технических, рыночных и др.), воздействие которых чрезвычайно сложно спрогнозировать. Таким образом, можно утверждать, что инновация – это новшество, внедренное в деятельность предприятия с целью повышения его эффективности на основе лучшего удовлетворения определенной общественной потребности. При этом следует отметить, что под эффективностью следует понимать определенный экономический, производственный, социальный, экологический и иной результат, ожидаемый от внедрения новшества.

Библиографический список

1. Джолдасбаева Г. К. Инновация как основной фактор повышения эффективности производства [Электронный ресурс] // Технологии корпоративного управления. URL: <http://www.iteam.ru>.
2. Резервы повышения эффективности инновационной деятельности промышленных предприятий [Электронный ресурс] // Библиофонд. URL: <http://www.bibliofond.ru>.
3. Медынский В. Г. Инновационный менеджмент : учебник. М. : Инфра-М, 2015.

SAMARALI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KLASTER ASOSIDA TASHKIL QILISHNING AHAMIYATI

Malikova Shoiraxoira Baxtiyorovna-Buxoro davlat universiteti, Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrasida o‘qituvchisi

Аннотация. Ушбу мақолада самарали тadbirkorlik faoliyatini klaster asosida tashkil qilishning iqtisodiy ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, klaster tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi, xususan, iqtisodiyotni rivojlantirishda klasterning o‘rni, uning samaradorligi va boshqalar.

Tayanch iboralar: klaster, iqtisodiy o‘zgarishlar, klasterlar kontseptsiyasi, kichik va o‘rta korxonalar klasterlari, raqobat, hamkorlik.

Аннотация. В данной статье рассматривается экономическое значение организации эффективной предпринимательской деятельности на кластерной основе. При этом анализируются основные направления развития кластерной системы, в частности, роль кластера в развитии экономики, его эффективность и др.

Ключевые слова: кластер, экономические преобразования, концепция кластеров, кластеры малых и средних предприятий, конкуренция, кооперация.

Zamonaviy iqtisodiy klasterlash sharoitida malakasi uning kasbiy faoliyatida duch keladigan muammolar darajasiga mos keladigan malakali menejerlar va iqtisodchilarni tayyorlash masalasi tobora kuchayib bormoqda. Klaster sharoitida ushbu sohalaridagi mutaxassislarining faoliyati farqlarga ega va quyida keltirilgan xususiyatlarga ko‘ra, nimaga tayyorgarlik ko‘rish kerakligini ko‘rishingiz mumkin. Iqtisodiy tizimlarning evolyutsiyasi rivojlangan mamlakatlarda ham, iqtisodiyoti o‘tish davridagi mamlakatlarda ham globallashuv bilan birga iqtisodiy faoliyatning tobora aniq hududiy kontsentratsiyasi

bilan birga keladi. Hozirgi bosqichda bu turli klasterlarni - biznes tuzilmalari integratsiyalashuvining yangi shakllarini yaratish orqali amalga oshirilmoqda.

Bir qator mintaqaviy iqtisodiyotlar uchun klasterning shakllanishi o'sish nuqtalari rolini o'ynaydi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bozorda raqobatbardoshlikka erishgan taqdirda, ular o'z ta'sirini bevosita atrof-muhitga: etkazib beruvchilarga, iste'molchilarga, raqobatchilarga, infratuzilmaga kengaytiradilar. Muhitning bozordagi muvaffaqiyatli faoliyati xo'jalik yetakchisining raqobatbardoshligining yanada oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan. Natijada klaster - bir-birining raqobatbardoshligini oshirishga o'zaro hissa qo'shadigan tarmoqlar tarmog'iga chambarchas bog'langan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar jamoasi shakllanadi. Ekspertlar hisob-kitoblariga ko'ra, bugungi kunda dunyodagi ilg'or davlatlar iqtisodiyotining qariyb 50 foizi klaster usuliga o'tgan. Masalan, Yevropa Ittifoqida 2 mingdan ziyod klasterlar mavjud bo'lib, ularda ishchi kuchining 38 foizi qamrab olingan. Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiya sanoatida to'liq klaster usuli tatbiq qilingan. AQSHda esa mamlakatdagi mavjud korxonalarining yarmidan ziyodi shu tizimda ishlab, ular tomonidan tayyorlanayotgan tovarlar yalpi ichki mahsulotning 60 foizini tashkil qiladi [1, s. 89].

So'nggi paytlarda klasterlar kontsepsiyasi kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashning muvaffaqiyatli global strategiyalaridan biri bo'ldi. Kichik va o'rta korxonalar klasterlari dunyoning barcha qit'alarida samarali faoliyat yuritmoqda. Klasterlar kontsepsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llanilgan. Jahon iqtisodiyotida klasterlarni rivojlantirish innovatsion tadbirkorlik faoliyatining samarali yo'nalishi hisoblanadi [1, p. 76]. Evropada iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash to'g'risidagi deklaratsiyada (1997) va uni batafsil bayon etgan Harakatlar rejasida tarmoqlar va klasterlarga asoslangan yangi ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirish Evropa hamkorligini rivojlantirishning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'lon qilindi. Bu mavzu hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) va boshqa bir qator xalqaro tuzilmalar tashabbusi bilan Parijda (2001 yil yanvar) bo'lib o'tgan Birinchi Jahon Kongressida muhokama mavzusi bo'ldi. Birinchi yirik klaster dasturlari 1970-1980-yillarda AQSHda, 1989-1990-yillarda Daniyada, 1990-yillarning birinchi yarmida Avstriya, Buyuk Britaniya, Yaponiyada, 1995-yildan Finlyandiya va Fransiyada 1993-yildan boshlab paydo bo'ldi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni Rivojlantirish Tashkilotining Xususiy Sektorni Rivojlantirish Filiali yordamida Yevropa hukumatlari va Yevropa xususiy bizneslariga kichik korxonalar klasterlari va tarmoqlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda hamkorlik qilishda yordam berish uchun tavsiyalar to'plamini tayyorladi. Zamonaviy tadqiqotchilar klaster yondashuvining dolzarbligini ta'kidlaydilar, lekin, o'z navbatida, "klaster siyosati", "klaster texnologiyasi" kabi klasterlash jarayonining asosini tashkil etuvchi hodisalarning mohiyatini qayd etmaydilar. Shunga asoslanib, Rossiya Federatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy makonini klasterlashni boshqarishning samarali metodologiyasini shakllantirish uchun terminologiyani aniqlashtirish kerak.

Klaster nazariyasining o'zi mavhum tabiati bilan ajralib turadi, uning asosida klaster yaratish jarayoni sodir bo'ladi. Davlatning boshqaruv ta'siri bozor sharoitida mumkin bo'lgan klasterlash vositalari to'plami yordamida amalga oshiriladigan hududni rivojlantirishning dolzarb muammolarini hal qilishga qaratilgan. Shuning uchun klasterlarni bir tomondan klaster nazariyasi ob'ekti, ikkinchi tomondan davlat boshqaruvi sub'ekti sifatida aniq belgilash zarur. "Klaster" tushunchasini professor M. Porter taklif qilgan va u. uni bozor makonida faoliyat yurituvchi va bir-birini to'ldiruvchi jug'rofiy jihatdan qo'shni kompaniyalar va tegishli tashkilotlar guruhi sifatida aniqladilar [2, p. 12].

Ommaviy xarakter, tezlik va arzon narxlar ushbu aloqa kanalini tavsiflaydi. Natijada, vaqt va pul xarajatlari kamayadi. Sayt sahifalarida kompaniya barcha aloqa ma'lumotlarini, shuningdek, potentsial xaridorlarda qiziqish uyg'otadigan reklama roliklari, bannerlar va shiorlarni joylashtiradi. Targ'ibot bo'yicha mutaxassislar saytning qidiruv tizimlarining birinchi qatorlarida paydo bo'lishiga imkon beradi, bu esa sayt trafiginini oshiradi. Bu ko'rmasdan tashlab yuborilishi mumkin bo'lgan oddiy varaq emas, bu Internet yorlig'i bo'lib, u har qanday holatda ham, undagi ma'lumotlar ushbu foydalanuvchi uchun qiziq bo'lmasa ham ko'rib chiqiladi, uni dizayner-ishlab chiquvchilari sayt yorqin va uyg'un dizayn yaratish, hissa. Bundan tashqari, saytlarda ko'pincha sharhlar yoki forumlar bo'limi mavjud. Bu, shuningdek, tashkilot faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi, potentsial xaridorlar saytga tashrif buyurishadi, boshqa odamlarning sharhlarini o'qishadi va ko'pincha tinglashadi, agar ko'p yaxshi sharhlar bo'lsa, unda bu kompaniyaga ishonish kerak va agar bu etarli bo'lmasa, siz hali ham ushbu kompaniya yoki xizmatdan tovarlarni sotib olish yoki olmaslik haqida o'ylashingiz mumkin. Sharhlarni tahlil qilish orqali siz kompaniyaning sotishdan keyingi faoliyatini qanday olib borishini, xatolarini tuzatadimi yoki yo'qmi, u fikr bildiradimi yoki yo'qligini ko'rishingiz mumkin.

Internetda reklamani kichik shakllari ham mavjud. Kichiklar, chunki statistik ma'lumotlarga ko'ra, ular eng kam pul sarflashadi, lekin ular displey va kontekstli reklamadan kam emas.

Internetdagi reklamani kichik shakllariga quyidagilar kiradi: Internetdagi PR, uning zamonaviy shakllari (bloggerlar bilan jurnalistlar bilan ishlash, kompaniyaning korporativ blogi), ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash, Internetdagi PR texnologiyasi, virusli marketing.

Virusli marketing - bu maqsadli auditoriyaga ta'sir qilish, maqsadli auditoriyaning o'zi hisobiga va kuchlari hisobiga tovarlar va xizmatlarni ilgari surish, marketing taklifi haqida ma'lumot tarqatishda ixtiyoriy ravishda (ongli yoki ongsiz ravishda) ishtirok etish. Majburiy virusli marketing - bu foydalanuvchilar mahsulotdan foydalanish uchun qandaydir tarzda reklama tarqatishlari kerak. Masalan, noutbukning qopqog'ida ishlab chiqaruvchining nomi katta harflar bilan yozilgan va hokazo. Reklama aloqasi insonga shunday ta'sir qiladiki, u g'oya bilan "yuqtiriladi" va ongli yoki ongsiz ravishda mahsulot, xizmat haqida ma'lumot tarqatadi va o'zi faol reklama vositasiga aylanadi.

"Virusli marketing" atamasi maqsadli guruh ichida odamdan odamga tarqalishni anglatadi, bu "virusli" jarayonning butun g'oyasiga asoslanadi. Asl ma'lumot, tayyor marketing xabari (video, matn) ko'rinishidagi g'oya virusli ravishda bir-biriga "hazil", tavsiya etilgan havolalar shaklida uzatiladi, buning natijasida ma'lumotlar ko'proq o'yin-kulgi bilan bog'lanadi. o'rnatilgan reklama xabaridan ko'ra.

Shunday qilib, yaxshi ishlab chiqarilgan virusli mahsulot muammoni dolzarblashtiradi, hal qiladi bu mahsulotning o'zi chaqiriladi.

Virusli marketingning afzalliklari:

- Virusli reklamalarni tarqatish iqtisodiy jihatdan samarali.
- Virusli reklama iste'molchilarning munosabatini shakllantiradi.
- Virusli reklama tsenzuradan va Reklama to'g'risidagi qonunning cheklovlaridan xoli.
- Virusli reklamani hayot aylanishi kamida uch yil.

Televideniya dagi reklama, videoklip ishlab chiqarish xarajatlaridan tashqari, ijaraga katta sarmoya talab qiladi. Virusli reklama bo'lsa, axborotni tarqatish bepul.

Agar mijoz virusli reklamani joriy etish va tarqatishni mutaxassisga topshirsa ham, xizmatlar narxi televizorda joylashtirish narxidan o'nlab, ba'zan esa yuzlab marta past bo'ladi.

Tsenzura, cheklovlar, o'zini o'zi cheklashning yo'qligi virusli marketingni rivojlantirish uchun rag'batlantiruvchi omillardan biridir. Keng jamoatchilikning asosiy qiziqishi materiallarga qaratilgan

Televizorda har doim ham o'z o'rnini topa olmaydigan jinsiy yoki janjal orientatsiyasi, xuddi reklamada bolalar yoki tibbiyot xodimlarining tasvirlaridan foydalanish kabi. Bundan tashqari, "Reklama

to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, ommaviy axborot vositalarida ko‘rsatuv berish imkoniga ega bo‘lmagan reklama beruvchilar ham bor.

Bu alkogol, tamaki va boshqa bir qator "taqiqlangan" mahsulotlar ishlab chiqaruvchilari bo‘lib, ular uchun virusli reklama uchun eng istiqbolli soha bo‘lib ko‘rinadi.

Yaxshi tayyorlangan virusli reklama - bu san‘at. Virusli asarlarning ba‘zi namunalarini san‘at sohasiga kiritish mumkin. Bunday ishlar, virusli reklamaning bevosita maqsadiga qo‘shimcha ravishda

Bizni reklama va reklama g‘oyalari festivallarida ham namoyish etamiz. Virusli marketing turli shakllarni oladi, lekin uning umumiy qoidasi maqsadli auditoriya reklama tashuvchisi hisoblanadi.

Bugungi kunda Internet-marketing - bu iste‘molchilarni jalb qilish, kompaniyani e‘lon qilish, tadqiqot o‘tkazish va boshqa ko‘p narsalarning izlanayotgan usuli. Ushbu yo‘nalish faol rivojlanmoqda va har yili u tobora ommalashib bormoqda. Bu muhim afzalliklar va ishlatiladigan asboblarning keng doirasi bilan izohlanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мухсинов Б. Т. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ И ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ //Интернаука. – 2018. – №. 22-1. – С. 66-67.
2. Б.Ф. Азимов, А.Ч. Бобоев, & Ж.Ж. Абдуллаев (2022). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭКСПОРТНЫХ ДРАЙВЕРОВ РЕГИОНА ПУТЕМ АНАЛИЗА ВНЕШНЕТОРГОВОГО ОБОРОТА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. Ученый XXI века, (7 (88)), 20-24.
3. Остонакулова Г., Жалилов Ж., Мухсинов Б. Корхоналарнинг маркетинг фаолияти самарадорлигини баҳолаш усуллари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 4/S. – С. 740-745.
4. Mukhsinov B. et al. Doing business, innovative development and the digital economy (USA) //International Journal of Advanced Science and Technology. – 2020. – Т. 29. – №. 5. – С. 1922-1926.
5. Мухсинов Б. Т. ИСЛЕДОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ВЫХОДА КОМПАНИИ НА ЗАРУБЕЖНЫЕ РЫНКИ //Интернаука. – 2019. – №. 22-2. – С. 87-88.
6. Мухсинов Б. Т. Концепция маркетинга как способ максимизации прибыли предприятия //Инновационное развитие. – 2017. – №. 4. – С. 73-74.
7. БОБОЕВ А. Ч. БУХОРОДА ТУРИЗМНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 9.

VII SHO'BA.
TA'LIM VA IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT
UYG'UNLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'limning ijtimoiy – iqtisodiy ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi, xususan: iqtisodiyotni rivojlantirishda ta'limning beqiyos o'rni, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, ta'limning xalqarolashuvi hamda globallashuvi va boshqalar.

Tayanch iboralar: oliy ta'lim, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, oliy o'quv yurtlari, inson kapitali, ta'limning globallashuvi.

Аннотация. В данной статье рассматривается социально-экономическое значение высшего образования. При этом анализируются основные направления развития высшего образования, в частности: несравнимая роль образования в экономическом развитии, диверсификация источников финансирования, интернационализация и глобализация образования и др.

Ключевые слова: высшее образование, социально-экономические изменения, высшие учебные заведения, человеческий капитал, глобализация образования.

Turli mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida oliy ta'limning roli tobora ortib bormoqda. Yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsiyalarning tarqalishi bilan bog‘liq ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar ushbu texnologiyalarni o‘zlashtira oladigan va ularni turli vaziyatlarda qo‘llay oladigan yetarli miqdordagi mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etmoqda. So‘nggi yillarda iqtisodchilar jahon miqyosida ham, alohida mamlakatlar darajasida ham oliy ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning holati va tabiatiga ta'sirini aniqlash va rolini baholash masalasini faol ravishda o'rganmoqdalar. Ayniqsa:

- iqtisodiyotni rivojlantirishda ta'limning hal qiluvchi roli;
- moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish;
- ta'lim jarayonining mazmuni, usullari va shakllariga qo'yiladigan talablarning o'zgarishi (kompetensiyaga asoslangan yondashuv, yangi ko'nikmalarni shakllantirish zarurati, hayot davomida o'rganish qobiliyati, katta hajmdagi axborot, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan ishlash qobiliyati, ijodkorlik va jamoada ishlash qobiliyati);
- ta'lim faoliyatining tashkiliy shakllarini o'zgartirish (universitet faoliyatini takomillashtirish, diversifikatsiya: parallel ta'lim, tarmoq universitetlari, masofaviy ta'lim);
- ta'limni baynalmilallashtirish (ta'lim mazmunini xalqaro miqyosda unifikatsiya qilish zarurati, diplomlarni tan olish);
- ta'limning globallashuvi (ta'lim xizmatlariga doir jahon bozorining shakllanishi, chet ellik talabalar sonining o'sishi, transmilliy, transchegaraviy ta'limning paydo bo'lishi, raqobatning kuchayishi va jahon universitetlari reytingi) va boshqalar olimlar tomonidan chuqur tahlil qilinmoqda.

Oliy ta'limning ijtimoiy institut sifatidagi mohiyati, jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyati, uning ijtimoiy, iqtisodiy, xavfsiz va boshqa tarkibiy qismlarining rivojlanishini ta'minlash bilan belgilanadi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi (bu ijobiy, doimiy o'sib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar jarayoni bo'lib, zamonaviy va kelajak avlodlarning rivojlanish resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini muvofiqlashtirishni, ijtimoiy standartlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Hozirgi paytda, oliy ta'lim muassasalarining faoliyati tegishli bilim va malakalarga ega bo'lgan, doimo o'zgarib turadigan zamonaviy dunyoda ishlay oladigan, yangicha va ijodiy fikrlaydigan, ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk avlodni shakllantirishga qaratilgan. Demak, oliygohlarning eng muhim missiyasi bilimli shaxsni yaratishdir. Chunki jamiyat taraqqiyotining ilmiy-texnikaviy darajasi shunday darajaga yetganki, bunday barqarorlikni faqat oliy ma'lumotli shaxsgina ta'minlay oladi.

Zamonaviy globallashgan iqtisodiyot yangi bilim va texnologiyalar tufayli rivojlanayotganini e'tiborga olishimiz kerak. Dunyo tobora raqobatbardosh bo'lib bormoqda va yangi o'yinchilar paydo bo'lmoqda. Bunday sharoitlar inson mehnatining xarakterini o'zgartiradi, demak, kasbiy tayyorgarlikka qo'yiladigan talablar ham o'zgaradi. Zamonaviy mutaxassis o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda takomillashtirishga intilishi lozim.


Innovatsion bilim va kasblarning yangi-yangi turlarining paydo bo'lishi oliy ta'lim tizimi oldiga yanada individuallashtirish, o'quv dasturlarini doimiy ravishda yangilab borish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish talablarini qo'ymoqda. Boshqa tomondan, fanning istalgan sohasida shunchalik ko'p bilim va ma'lumotlar to'planganki, oliy o'quv yurtida o'qish davrida ularning barchasini

o'zlashtirishning iloji yo'q. Bundan tashqari, har kuni yangi bilimlar yaratiladi, yangi axborot xabarlarini tarqatiladi va mutlaqo barcha bilimlarni o'zlashtirishga va barcha muhim ma'lumotlarni kuzatishga vaqt topa olmaymiz. Bunday sharoitda bo'lajak mutaxassislar aniq amaliy vaziyatda zarur bo'lgan bilim va ma'lumotlarni izlash, ularni qayta ishlash va yechimlarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga, oliy ta'limning roli tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda, chunki yangi bilim va ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha barqaror ko'nikma va qobiliyatlar aynan oliy o'quv yurtida o'qish jarayonida shakllanadi.

Binobarin, dunyoda bilim, ta'lim va ilm-fanning o'zini muttasil oshib bormoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim yangi bilimlarni ishlab chiqaradigan, ta'lim bilimlarni ommalashtiradigan va birinchi navbatda shaxsning individual rivojlanishini ta'minlovchi soha sifatida rivojlanmoqda. Faqat ushbu sohaning ustuvor rivojlanishini e'tirof etgan va uni ta'minlay olgan davlat, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi, raqobatbardosh bo'lishi mumkin.

Tahlil qilingan ma'lumotlar ishonchli tarzda shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim ommaviylashib bormoqda va ko'plab mamlakatlarda maktab bitiruvchilarining yarmidan ko'pi oliy o'quv yurtlarida qabul qilinmoqda. Ko'p sonli mutaxassislarni tayyorlash kasb-hunar ta'limi tizimini aniq shaxsga qaratishni talab qilmoqda. Ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlashda ilgari erishilgan yutuqlar "bilim", "malaka" va "mahorat" bo'yicha baholansa, endilikda kompetensiyaga asoslangan yondashuv yutuqlarining asosi hisoblanadi. Ha, har bir mamlakat shaxsning qaysi asosiy kompetensiyalarida malaka darajalari, shuningdek, har qanday malakalar to'g'ridan-to'g'ri tavsiflanishini belgilaydi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda oliy ta'lim tizimi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi [1,11modda]. Bugungi kunda yurtimizdagi oliy o'quv yurtlari soni 170 tani tashkil etadi. Xorijiy universitetlar filiallari soni 31 taga etdi. Oliy ta'limda nodavlat sektori faol rivojlanmoqda, respublikada 27 ta xususiy universitet faoliyat ko'rsatmoqda. Universitetlarga qabul kvotalari bilan bog'liq vaziyat ham keskin o'zgarmoqda. 2017-yilgacha, uzoq yillar davomida 60 mingdan sal ko'proq kishi davlat oliy ta'lim muassasalari talabasi bo'lardi. O'zbekiston Statistika agentligi xabarlariga ko'ra 2022-2023 o'quv yili boshida respublika oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar soni 1 million nafardan ortiqni tashkil qildi. Ulardan 544 mingtasi qizlar va 495 mingtasi esa o'g'illar.



Manba: O'zbekiston respublikasi prezidentining "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847-sonli farmoni. 1-Ilova. Toshkent. 2019-yil 8-oktabr.

O‘tgan yili akademik va moliyaviy mustaqillikka erishgan oliy o‘quv yurtlari tomonidan Prezident qarorlariga muvofiq o‘n minglab kvotalar ajratildi. Endi ularning o‘zlari o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib, qancha talabani va qanday sharoitda qabul qilishlari mumkinligini hal qiladi. Shuningdek, joriy 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta‘lim muassasalari va ularning filiallari, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xususiy oliy o‘quv yurtlarida davlat granti asosida kadrlar tayyorlash uchun mingta o‘rin ajratildi. Oliy ma‘lumotga ega bo‘lmagan hamda oila va xotin-qizlar masalalari davlat qo‘mitasining tavsiyanomalariga ega bo‘lgan ayollar uchun umumiy qabul parametrlaridan tashqari yana ikki mingta o‘rin ajratiladi. Boshqa qo‘shimcha kvotalar ham mavjud. Oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish mazkur tizimning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. (3)

Oliyoharda o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish ham hozirgi davrning dolzarb masalasi hisoblanadi. Mamlakatda 2030 yilga borib OTM qamrov darajasi 50 foizni tashkil qilishi rejalashtirilgan. Albatta, ommaviy oliy ta‘lim bitiruvchilarning vaqtinchalik ishsizligi muammosiga ham olib kelishi mumkin, chunki, iqtisodiyotda ko‘pincha etarli tajribaga ega bo‘lmagan ko‘plab bitiruvchilarni ishga qabul qilish muammosi mavjud. Shu bilan birga, bitiruvchilarning aksariyatini mustaqil ravishda haq to‘lanadigan ish bilan ta‘minlash juda murakab. Shuning uchun o‘z biznesini ochish yoki o‘zi uchun ish o‘rni yaratishga qaratilgan ta‘lim tizimini yaratish, uni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy dunyo postindustrial davrga qadam qo‘ydi, bu davrda bilim va axborot barqaror rivojlanishni saqlashning asosiy vositasiga aylanadi. Hozirgi vaqtda barcha davlatlar, shu jumladan O‘zbekiston ham, avvalgidan ko‘ra ko‘proq global muammolar, global iqtisodiy tendentsiyalar ta‘siriga bog‘liq bo‘lib, bu ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning globallasuvi bilan izohlanadi.

Yetakchi oliy ta‘lim muassasalari xorijiy talabalarni o‘qishga jalb qilishga ham katta e‘tibor bermoqdalar. Shu bilan birga, ayrim fuqarolarimiz xorijda oliy ma‘lumot olmoqdalar. Natijada, ta‘lim xizmatlari importi ham shakllanmoqda. Bundan tashqari, zamonaviy ijtimoiy-gumanitar rivojlanish paradigmatlari insonni asosiy ijtimoiy qadriyat sifatida tan oladi. Bunday sharoitda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, ta‘lim muassasalarini yangi texnologik jarayonlarni boshqarishga qodir mutaxassislar tayyorlash muammosi tobora oydinlashib bormoqda. Bunday mutaxassislar fundamental bilimlarga, yetarli ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim va ijodiy ishlar bilan shug‘ullanishi kerak.

Hozirgi oliygo‘hlar mutaxassislarni o‘qitish uchun ko‘p yo‘nalishli o‘quv bloklarini (fundamental tayyorgarlik; kasbiy yo‘naltirilgan ta‘lim) birlashtiradigan yangi o‘quv dasturlarini doimiy ravishda ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirishni ta‘minlashlari zarur. Oliy ta‘lim sohasida ta‘lim xizmatlari bozorining rivojlanish dinamikligi davlat tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanmoqda. Iqtisodiyotlari rivojlangan mamlakatlar ta‘limga sarflanadigan xarajatlarni muttasil oshirib bormoqdalar, chunki ta‘lim, ayniqsa, oliy ta‘lim ularning iqtisodiy o‘shirish strategiyasini amalga oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Hozirgi paytda rivojlangan va rivojlanib borayotgan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotning 1,5-1,8 foizini oliy ta‘lim tizimining faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga sarflaydilar.

O‘zbekiston hukumati ham ta‘lim sohasiga ustuvor ahamiyat beradi. Masalan, 2016 yilgacha ta‘limga har yili davlat xarajatlari yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil qilardi. [2, 8 s.]. Ammo 2022 yilda bu ko‘rsatkich 25,6 foizni tashkil qildi. Ushbu mablag‘, oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha davlat buyurtmasini bajarishga, shuningdek, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan ilmiy loyihalarni hamda murakkab innovatsion va texnologik loyihalarni amalga oshirishga, ijodkorlikni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Bugungi kunda “oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish ham asosiy vazifalardan biri hisoblanadi [3, 3 bob]. Oliy ta‘limning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar omili sifatidagi o‘rni har bir insonning turmush tarzini yaxshilash, shu jumladan, uning qadr-qimmatini oshirish yo‘lida ham namoyon bo‘lmoqda. Zamonaviy insonni o‘qitish, ilg‘or bilim va texnologiyalarni o‘zlashtirishini ta‘minlash egn muhim masala. Oliy ma‘lumotsiz insonning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish deyarli imkonsiz. Ta‘lim xizmatlari bevosita inson kapitalini shakllantiradi. Oliy ta‘lim inson salohiyatining intellektual kapitalini shakllantirish bo‘yicha o‘ziga xos missiyasi tufayli jamiyat boyligining miqdor jihatdan o‘shirishining asosiy omiliga aylanmoqda. Jamiyatning barqaror rivojlanishiga konseptual yo‘naltirilganlik, inson kapitaliga doimiy ravishda sarmoya kiritishga talab qiladi. Inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali zamonaviy jamiyat, iqtisodiyotda va jamiyat hayotining boshqa sohalarida progressiv o‘zgarishlarning dinamikligini ta‘minlaydi. Bundan tashqari, oliy

ta'lim aholining ijtimoiy va samarali bandligini ta'minlashning muhim omiliga aylanib bormoqda. Mehnat unumdorligiga ta'siri qilish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish orqali oliygohlar tizimi milliy daromadning ko'payishini, qashshoqlikning kamayishini, ishlab chiqarish va iste'mol madaniyati darajasini oshirishni, hayot sifatini oshirishni ta'minlaydi. Bo'lajak mutaxassislar amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'zlashtirilgan zamonaviy bilimlarni puxta egallashi sharti bilangina bunday natijaga erishiladi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikning rolini qayta ko'rib chiqish zarur. Kuchli sanoat korxonalarining o'sishi va mustahkamlanishi, texnologik jarayonlarning murakkablashishi jarayonida ish beruvchilar o'zlari aniq sharoitlarda ishlashga tayyor, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash choralari ko'rishlari kerakligini tobora ko'proq anglab yetmoqdalar. Shuning uchun, korporativ ta'limning stajirovkalar, kurslar, treninglar, master-klasslar kabi boshqa yo'nalishlari ham rivojlanmoqda.

Bundan tashqari, oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy tendentsiyalari alohida ajralib turmoqda. Jamiyat nazoratini kuchaytirgan holda oliy ta'lim muassasalarining avtonomiyasi va o'zini o'zi boshqarishini kengaytirish, bilimni mustaqil baholash asosida o'qishga talabalarni qabul qilish, talabalarga kreditlar berish, ta'limni tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishning bozor modellaridan keng foydalanilmoqda. Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy va strategik o'zgarishlar sharoitida oliy ta'limning o'rni tobora ortib bormoqda. Zamonaviy axborot jamiyatida oliy ta'lim tizimi nafaqat jamiyatning barcha soha va tarmoqlarini malakali kadrlar bilan ta'minlash, balki yangi bilim va axborotlar bilan ishlash bo'yicha barqaror ko'nikmalarni shakllantirishga yonaltirilmoqda.

Dunyoda ta'lim xizmatlari bozori jadal rivojlanmoqda. Shu bois oliy o'quv yurtlari oldida yangi vazifalar turibdi va ularning yechimi raqobatning samarali vositalaridan foydalanishni talab qiladi. Xulosa sifatida yana shuni ta'kidlash mumkin, oliygohlar, madaniyat muassasalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, sport tashkilotlari, banklar, firmalar bilan hamkorlik qilmoqdalar. Bu esa bilimlarni, tajriba turlarini, madaniyatni o'rganish uchun integratsion tizim sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (11- modda). Toshkent sh., 2020-yil.
2. Узбекистан. Обзор системы высшего образования. Erasmus. Феврал 2016 г. 8 с. (http://eacea.ec.europa.eu/education/Eurydice/eurydia_en.php)
3. O'zbekiston respublikasi prezidentining "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmoni. Toshkent. 2019-yil 8-oktabr.
4. Isomov B.S., Dilova N.G., Saidqulova F.F., Jo'rayev A.T. Voprosi sovershensstvovaniya sistemi obrazovaniya. Monografiya. "Durdona". Buxoro. 2021 yil. 143 c.

TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XUSUSIY MAKTABLARNING O'RNI

Kobilova Hilola Maxmudjonovna

BuxDU "Iqtisodiyot va turizm" fakulteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizdagi xususiy ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar va ularning natijasiga doir fikr va qarashlar. Xususiy maktabning afzallik va keng imkoniyatlari haqida.

Kalit so'zlar: Sifatli ta'lim, STEM, SCIENCE, neyron, standart.

Ta'lim - biz gapirish, o'qish, yozish va hayotni tushunishimizdan biladigan hamma narsaning asosidir. Ta'limsiz odamlarda umumiy fikr bo'lmaydi, bu nima to'g'ri va nima noto'g'ri ekanligini aniqlashni qiyinlashtiradi. Bu bizni davlat yoki xususiy muassasada bo'ladimi, "sifatli ta'lim" deb nimani belgilashimiz mumkinligi haqida savol tug'diradi. Davlat maktablarida o'quvchilarga ta'limning ba'zi shakllaridan foydalanish imkoniyati berilgan bo'lsa-da, xususiy muassasalar yaxshi moliyalashtirish, kichikroq sinflar va ajoyib darsdan tashqari imkoniyatlar tufayli sezilarli darajada yaxshi.

Birinchidan, davlat maktablari o'quvchilari davlat tomonidan katta miqdordagi mablag'ga ega emaslar, bu esa xodimlar va jihozlarning sifati bo'yicha xatolarga yo'l qo'yadi.

O'quvchi boshiga kam mablag' ajratilgani, maktablar barcha bo'limlarda yetarli mablag' bo'lishini ta'minlash uchun byudjetni qisqartirishiga olib keladi. Kamroq moliyalashtirish, oxir-oqibat, o'qituvchilarga kamroq maosh olishini anglatadi, bu esa har bir o'quvchi oladigan ta'lim sifatini pasaytiradi.

Bu kam moliyalashtirish o‘quvchilarga uzoq muddatda nima olib kelishining og‘ir voqeligini tasvirlaydi va shu bilan xususiy ta‘lim bilan kafolatlangan moliyalashtirish o‘quvchilarga ko‘proq imkoniyatlar va porloq kelajak berishini isbotlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 17-iyul kuni umumiy o‘rta ta‘lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi. Bu haqda davlat rahbari matbuot xizmati xabar tarqatdi. Keyingi yillarda ta‘lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha farmon va qarorlar qabul qilindi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 30-sentyabrdagi PQ-3305-sonli qaroriga muvofiq Xalq ta‘limi vazirligining boshqaruv tizimi takomillashtirildi, asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlari belgilab berildi. Yaqinda vazirlik rahbariyatida o‘zgarishlar amalga oshirilib, o‘quv-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, o‘qituvchilarning jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish orqali ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha ko‘plab vazifalar qo‘yildi.

Prezident pedagoglarning oylik maoshini, jamiyatdagi mavqeini oshirish, ularni ijtimoiy va huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha topshiriqlar berdi. Turli nazorat organlari tomonidan o‘qituvchilar faoliyatini tekshirishlarni cheklash, pedagoglarni obodonlashtirish, majlislarda qatnashish, obuna va shu kabi kasb faoliyatiga tegishli bo‘lmagan ishlarga jalb qilmaslik kerakligi ta‘kidlandi.

Ammo hozirda ota-onalar fikriga ko‘ra, doimiy davlat maktablari har doim ham bolalarni munosib ta‘lim bilan ta‘minlay olmaydi. Hozirda xususiy ta‘lim segmenti rivojlanib borayotgani ajablanarli emas. Iste‘dodli o‘qituvchilar tobora ko‘proq o‘z kurslarini, o‘quv markazlarini va xususiy maktablarni tashkil qilmoqdalar. Ko‘plab qiyinchiliklarga qaramay, yangi maktablar muntazam ravishda paydo bo‘ladi va sifatli tashkil etish va sifatli ta‘lim bilan investorlarni jalb qiladi.

Xususiy maktablarda yuqorida mavjud muammolar bo‘lmaydi, chunki ota-onalar nazorati yuqoriligi, farzandining kunlik faoliyati bilan qiziqtiriladi, ochiq holda namoyon qilinadi.

Bundan tashqari, xususiy maktablar kichikroq sinflar tufayli o‘qituvchilar bilan ko‘proq yakkama-yakka muloqot qilishni taklif qiladi. Bu bolaning o‘rganishi uchun juda muhim va asosiy hisoblanadi, chunki o‘quvchilar materialni tushunmagani uchun ular savollarga javob beradigan va o‘quvchini to‘g‘ri yo‘nalishga ko‘rsatadigan odamga ega. Topshiriqlar amaliyroqdir, chunki o‘quvchilar guruh loyihalarida o‘zlarini boshqara oladilar va ular turli fan sohalarida nimani kutishlari mumkinligini birinchi qo‘l bilan boshdan kechirishlari mumkin. Sinfning kichikligi ham tengdoshlarni o‘rganishni rag‘batlantiradi.

Bu shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar ko‘p bo‘lmaganda darslarda qatnashish eng samarali hisoblanadi. Bu xususiy maktablar taqdim etadigan maktab muhiti madaniyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Ro‘yxatga olishning bu o‘sishi bu kichikroq sinflar nimaga erishmoqchi ekanligi haqida gapiradi. Ular o‘qituvchidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri javob olishda ishonch tuyg‘usini yaratadilar, bu ham o‘quvchilarga sinfdagi materialni sharhlashda yordam beradi.

Xususiy maktablar darsdan tashqari ta‘lim uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. O‘zini sportchi deb hisoblamaydigan yoki oddiy o‘rta maktab jamoasini yaratishga qodir bo‘lmagan ko‘plab bolalar bor. Biroq, xususiy maktablarda bu bolalar ishtirok etishlari va qatnashishlari mumkinligini yoki shunchaki sinf va maktab hajmining kichikligi ularni kamroq uyatchan qilishini aniqlaydilar. Ular bir xil odamlar guruhi atrofida bo‘lib, o‘zlarini bu odamlar guruhida topishga muvaffaq bo‘lishdi. Har qanday holatda, o‘quvchilar jamoasiga qo‘shilish o‘smirlarni faol bo‘lishga undaydi va ularga faolroq ijtimoiy hayot tufayli ular uchun mavjud bo‘lmagan boshqa ko‘plab imtiyozlarini ochadi. “Shubhasiz, bolalarning sport mashg‘ulotlari, yopiq/tashqi havodagi mashg‘ulotlar, STEAM, SCIENSE, 2 va undan ortiq tillarni o‘rganish, moliyaviy va huquqiy savodxonlik, raqs va musiqa kabi darsdan tashqari mashg‘ulotlardagi faoliyatida sezilarli farq aniqlangan.

Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchining kundalik hayotining bir qismidir. Ular o‘quvchilar hayotida muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘quvchilarning xulq-atvorini, maktabdagi faoliyatini, bitiruvni, muvaffaqiyatli kattalar bo‘lishning ijobiy tomonlarini va ijtimoiy jihatlarini yaxshilash orqali o‘quvchilar hayotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Biz o‘qituvchilar sifatida sinfdan tashqari mashg‘ulotlarning ta‘limga ta‘siridan xabardor bo‘lishimiz kerak”. Ushbu tadbirlarning aksariyati yuqorida muhokama qilingan mablag‘ etishmasligi sababli xalq ta‘limi o‘quvchilari uchun ham mavjud emas. Xususiy maktab o‘quvchilari uchun mavjud bo‘lgan ba‘zi faoliyatlar neyron aloqalarni yaratadi va o‘rganishning yangi usullarini shakllantiradi.

Bundan farqli o‘laroq, davlat maktablari ham yaxshi ta‘lim imkoniyatlari va o‘quvchilarga qatnashish imkoniyati beriladigan darsdan tashqari tadbirlarni taqdim etadi. Bundan tashqari, ba‘zi davlat maktablari bugungi kunga qadar jamiyatimizda ko‘plab yirik nomlarni yaratishda muvaffaqiyat qozonishdi.

“Asosan standartlashtirilgan test ballaridan iborat zamonaviy ma‘lumotlar tizimlari maktab sifatini buzadi. Ular maktabdan ko‘ra ko‘proq oila daromadi haqida gapirishadi. Ular yaxshi maktablar qiladigan ko‘p narsalar haqida juda oz gapirishadi. Masalan, o‘quvchilar o‘zlarini qay darajada xavfsiz his qilishlari,

ularning o'qituvchilar bilan munosabatlari qanchalik mustahkamligi, ijtimoiy va hissiy jihatdan qanday rivojlanishi haqida hech narsa demaydilar”.

Bu davlat maktablarida nima noto'g'ri ketayotganini faqat pul uchun emas, balki haqiqatan ham tushunishingiz mumkinligini tasdiqlaydi. Bu to'g'ri bo'lishi mumkin bo'lsa-da, xususiy maktablar bu kamchilikni bartaraf etib, o'z o'quvchilarining rivojlanishi uchun yangi resurslarni yaratishga kirishmoqda. Bundan tashqari, xususiy maktab o'qituvchilari ushbu kafolatlangan daromad orqali o'quvchilarni yaxshi natijalarga jalb qilish uchun yangi ta'lim uslublarini sinab ko'rish uchun yaxshi jihozlangan.

Xulosa qilib aytganda, xususiy maktablar o'quvchilar uchun kafolatlangan moliyalashtirish bilan yaxshiroq qo'llab-quvvatlanishi mumkin bo'lgan mustahkam poydevor yaratadi. Men davlat moliyalashtirishdan ko'ra treningni afzal ko'raman. Bundan tashqari, ular ko'proq imkoniyatlarga ega va sinfda ham, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham o'zlarini qulay his qilishadi. O'z-o'zidan bular bolaning o'qishi va kelajakda u o'z kasbi va shaxsiy hayoti uchun tanlagan sohalari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Davlat maktablari yaxshi boshlang'ich darajani ta'minlaydi, lekin xususiy maktablar davlat maktablari uchun resurslarga ega bo'lmagan katta ta'minotni taklif qiladi.

LE SYSTEME DE L'EDUCATION NATIONALE EN FRANCE

Michèle BOUYSSOU. Specialist «Banque de France », PhD

Le système éducatif en France est centralisé, piloté par le ministère de l'Éducation nationale. Depuis 1959 (réforme Berthoin), l'instruction y est obligatoire de 6 à 16 ans (il est prévu à la rentrée 2019 que l'âge obligatoire de début soit 3 ans, à la suite de l'annonce d'Emmanuel Macron aux Assises de la maternelle¹) ; l'instruction dite « en famille » est donc légale (quoique très minoritaire). Il existe plus de 65 000 établissements scolaires, relevant pour la plupart du ministère de l'Éducation nationale, même si environ 15 % (primaire) à 20 % (secondaire) des élèves sont dans des établissements privés.

Les effectifs totaux d'élèves et d'étudiants atteignent 15 millions, c'est-à-dire qu'un quart de la population suit des études. Le coût de l'éducation représente 6,6 % du PIB de la France en 2008 (7,6 % en 1995)², dont 54,1 % dépendent du ministère de l'Éducation nationale en 2008 (contre 61 % en 1980)³.

Selon le programme PISA de comparaison des systèmes éducatifs nationaux, les résultats du système éducatif français sont moyens par rapport aux autres États membres de l'OCDE, et régressent en matière de lutte contre les inégalités sociales⁴. En 2008, selon l'Insee, 69,2 % des Français possèdent un diplôme égal ou inférieur au bac en France et 19,9 % sont titulaires d'un diplôme supérieur au baccalauréat⁵. En 2014, une étude menée par le Ministère de l'éducation sur des cohortes d'élèves montre que le niveau en français et en mathématiques des élèves aurait encore chuté⁶.

En raison des enjeux politiques, économiques, sociaux, idéologiques et culturels posés par l'enseignement en France, l'histoire du système éducatif français est caractérisée par l'alternance d'évolutions lentes et progressives avec des changements plus brutaux. Historiquement, l'une des plus marquantes et connues de ces réformes est celle intervenue à la suite de la mise en application des lois Jules Ferry en 1881-1882, qui affirment l'obligation de l'instruction, la gratuité et la laïcité de l'enseignement public.

Les filles n'ont accès à l'enseignement secondaire qu'à partir de 1880 avec la loi Camille Sée, donné dans les lycées et collèges de jeunes filles ; mais les programmes sont spécifiques et le diplôme de fin d'études secondaires ne leur permet pas d'entrer à l'université. Ce n'est qu'à partir de 1924, que les contenus, la durée, les horaires des enseignements et le baccalauréat sont identiques pour les filles et les garçons, donnant enfin accès aux jeunes filles à l'université.

En France, l'organisation et la gestion de l'enseignement sont confiées au ministère chargé de l'Éducation nationale, de l'Enseignement supérieur et de la Recherche. Il a la responsabilité de l'organisation et de l'administration de l'ensemble du système éducatif, et ce, de l'école maternelle à l'enseignement supérieur. Toutefois, d'autres ministères complètent son action, notamment le ministère de l'Agriculture pour l'enseignement agricole. Néanmoins, les lois de décentralisation de 1982-1983 et 2003-2004 ont transféré des compétences limitées aux collectivités territoriales.

L'État a conservé les compétences liées à l'enseignement (programmes, calendrier scolaire, recrutement et paye des enseignants...) et délégué les fonctions matérielles (bâtiments, cantine, transport scolaire...) avec une contribution financière dans le cadre de la dotation générale de décentralisation, de la dotation départementale d'équipement des collèges (DDEC) et de la dotation régionale d'équipement des lycées (DREL) — fixées par la loi — visant à assurer la mise en œuvre du principe d'égalité face au service public de l'enseignement.

- les communes sont chargées des écoles maternelles et primaires ;

- les départements des collèges ;
- les régions des lycées et de l'enseignement professionnel.
- Les compétences des collectivités territoriales [[modifier](#) | [modifier le code](#)]

Les communes sont – depuis les lois de 1879 et 1889 – propriétaires des locaux et assurent la construction, la reconstruction, l'extension, les grosses réparations, l'équipement et le fonctionnement des écoles maternelles et élémentaires, établissements dépourvus de personnalité juridique et classés comme services communaux. Ce sont les communes qui recrutent, rémunèrent et gèrent la carrière du personnel non enseignant des écoles. Le conseil municipal décide de la création et de l'implantation des écoles publiques après avis du représentant de l'État. Le maire fixe les horaires d'entrée et de sortie des classes des établissements de la commune, après avis du conseil d'école. Une délibération du conseil municipal crée par ailleurs, dans chaque commune, une caisse des écoles, destinée à faciliter la fréquentation de l'école par des aides aux élèves en fonction des ressources de leur famille.

Les conseils départementaux se sont vu attribuer la construction, la rénovation, les dépenses d'entretien, de fonctionnement et d'équipement (hébergement, restauration scolaire, fournitures, ameublement...) des collèges. Ils sont chargés de l'organisation et du financement du transport scolaire. Chaque collège reçoit une dotation de fonctionnement et une dotation d'équipement qui ensemble représentent environ un tiers du budget de l'établissement.

Les conseils régionaux ont les mêmes attributions que les départements, mais pour les lycées d'enseignement général et technologique, les lycées professionnels, les établissements d'enseignement spécial et d'enseignement agricole, les écoles de formation maritime ainsi que pour les Centres de formation d'apprentis (CFA). Ils établissent le schéma prévisionnel des formations et exercent une compétence de droit commun en matière de formation professionnelle et d'apprentissage. Dans le supérieur, ils détiennent la maîtrise d'ouvrage déléguée des bâtiments universitaires et sont consultés sur les aspects régionaux de la carte des formations supérieures et de la recherche.

Les collèges et lycées publics jouissent du statut d'établissement public local d'enseignement (EPL). Leur conseil d'administration est responsable de leur budget, dont le chef d'établissement est l'ordonnateur, et sous le contrôle financier de l'agent comptable. Comme il s'agit de deux fonctionnaires d'État choisis par le ministre de l'Éducation nationale (le chef d'établissement étant son représentant dans l'établissement), qu'ils n'ont quasiment aucune prise sur les nominations (et plus généralement la gestion : avancement, promotion, etc.) du personnel qui sera affecté dans l'établissement, et que leur budget propre est (sauf exception) anecdotique, l'autonomie des EPL est toute relative. Les collectivités leur votent annuellement une dotation de fonctionnement et prennent en charge certains investissements ; en outre, elles prennent en charge directement les salaires du personnel non enseignant. L'État prend, lui, en charge directement les salaires du personnel enseignant et de direction.

Les communes, départements ou régions peuvent organiser dans les établissements scolaires, pendant leurs heures d'ouverture et avec l'accord des conseils et autorités responsables de leur fonctionnement, des activités éducatives, sportives et culturelles complémentaires. Ces activités sont facultatives et ne peuvent se substituer ni porter atteinte aux activités d'enseignement et de formation fixées par l'État. Les communes, départements et régions en supportent la charge financière. Des agents de l'État, dont la rémunération leur incombe, peuvent être mis à leur disposition.

Les lois de décentralisation de 2003 ont transféré le recrutement, la rémunération et la gestion de carrière du personnel technique et ouvrier des collèges et lycées aux collectivités territoriales, l'État transférant les fonds nécessaires à ces nouvelles responsabilités. Les personnels de cette catégorie exerçant dans les services administratifs (Administration centrale, rectorats...) et l'enseignement supérieur restent sous la tutelle de l'État.

References:

Ministère de l'Éducation nationale, « Instruction obligatoire dès 3 ans », Ministère de l'Éducation nationale, 27 mars 2018 ([lire en ligne \[archive\]](#)).

a et b [Résultats de la France aux tests PISA 2012 \[archive\] \[PDF\]](#) OCDE, France, PISA 2012 : faits marquants.

Christine Ducros, « La France malade de ses universités », dans [Le Figaro](#) du 3 octobre 2006, [[lire en ligne \[archive\]](#)]

L'école privée n'est pas synonyme de cout privé. in Alternatives Economiques (septembre 2016). École : peut-on encore réussir sans argent ?, numéro 360, page 69

La loi n° 2008-496 du 27 mai 2008 portant diverses dispositions d'adaptation au droit communautaire dans le domaine de la lutte contre les discriminations est ainsi modifiée :

1° Au premier alinéa de l'article 1er, après les mots : « ses convictions, », sont insérés les mots : « la particulière vulnérabilité résultant de sa situation économique, apparente ou connue de son auteur, » ;

2° Au premier alinéa du 2° de l'article 2, après le mot : « sexuelle », sont insérés les mots : « , la particulière vulnérabilité résultant de la situation économique, apparente ou connue de son auteur, ».

IV.-Le titre III du livre préliminaire du code du travail applicable à Mayotte est ainsi modifié :

TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH VA TA'LIM XIZMATLARI BOZORINI INNOVATSION RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI VA USULLARI

Hayitov S.S.BuxDU, Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası porofessori, i.f.d.

Bakaeva Sh. Buxoro davlat universiteti

Respublikamizda bozor munosabatlarining rivojlanishi talabalarda bilim hamda maxsus kasbiy mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish talab kiladi. Ta'lim xizmatlari bozorini axborotlar bazasi sifatida ham qarash mumkin, chunki ta'lim xizmatlari sifatini real baholash muayyan davr o'tgandan keyin amal qiladi. Bugungi kunda, iqtisodiy rivojlanishning asoslaridan biri kapital xisoblanadi. Axborot va intellektual tuzilishdagi elementlarni o'z ichiga oluvchi tarkibiy elementlar muhim o'rin egallaydi. Bu vaziyatda ishchi kuchi va intellektual kapitalni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki, ishchini ham umumiy, ham maxsus kasbga tayyorlash inson kapitaliga investitsiyalash tavsifiga ega. Demak, ta'lim xizmatlari bozori, bir tomondan, iqtisodiy kategoriya sifatida, ikkinchi tomondan, alohida muayyan xizmatlarni ko'rsatish jarayoni sifatida qaraladi. Bozorda ta'lim xizmatlari aholiga bilimlar va ko'nikmalar berish, xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil etadi. Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining muntazam ravishda barqaror sur'atlar bilan rivojlanib borishi xo'jalik sub'ektlarining innovatsion faolligini oshirishga asoslangan tizimli uzviy taraqqiyot bosqichiga o'tishni talab qilmoqda. Bu jarayon iqtisodiyotning tarmoq, hududiy va innovatsion tuzilmasidagi o'zgarishlarning ko'rsatkichlarida o'z aksini topmoqda. O'zbekistonda bu holat samarali ijtimoiy siyosat va aholi turmushining sifatini oshirishga ham sharoit yaratmoqda. Iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini faol turdagi takror ishlab chiqarish manbaiga aylantirish imkoniyatini belgilaydigan eng asosiy omillardan biri ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida yuqori malakali mutaxassis-kadrlar ishtirokining ko'lami hisoblanadi. Mamlakatda ta'lim tizimini boshqarish va xo'jalik yuritishning turli darajalarida ta'lim xizmatlari bozorini innovatsion rivojlanishining asosiy omillari va usullarini ishlab chiqishga yangi yondashishlar zarurdir. Bugungi kunda, hududiy ta'lim xizmatlari bozoriga tatbiq qilish mumkin bo'lgan qator innovatsion rivojlanish omillarini kuyidagicha ifodalash lozim:

- ta'lim xizmatlari bozorini tarkibiy-funksional qayta shakllantirishning asoslanganlik omili;
- budjet mablag'larining barqarorligi va chegaralanganligi omili;
- ta'lim xizmatlari bozori rivojlanishining iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash;
- ta'lim xizmatlari bozorining innovatsion rivojlanishiga tizimli yondashish;
- ta'lim xizmatlari bozorida kadrlarga talab va taklifni tartibga solish bo'yicha yagona davlat siyosatini yuritish;
- mehnat bozori va ta'lim xizmatlari bozorini tartibga solishda hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish. Ilk omilda aholining keng qatlamlari manfaatlariga daxldor mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik holatga ahamiyatli ravishda ta'sir ko'rsatuvchi ta'lim sohasida innovatsion yo'naltirilgan tarkibiy-funksional o'zgartirishlarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Ta'lim tizimini tarkibiy-funksional o'zgartirish, bir tomondan, mamlakat va hududda iqtisodiy holatni chuqur tahliliga asoslangan muayyan natijaviy imkoniyatlar darajasi bilan solishtirsa bo'ladigan ijtimoiy-ahamiyatli maqsadlarga erishishni ta'minlashi zarur. Ikkinchi tomondan, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan asoslangan ta'lim tizimini istiqbollashtirishni talab etadi.

Davlat budjeti mablag'larining barqarorligi va chegaralanganligi xam asosiy omillardan biridir. Bozor munosabatlarining amal qilishi sharoitida ta'lim sohasida budjet va budjetdan tashqari moliyaviy mablag'lar oqimini restrukturizatsiya qilishning ob'ektiv zarurati yuzaga keladi. Shu bilan birga, mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizda iqtisodiy inqiroz holati oqibatlari va budjet kamomadining mavjudligi sababli davlatning ta'limga xarajatlari ob'ektiv zaruriy darajadan past o'rnatilgan edi. Bu vaqtda ta'lim sohasida budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish va foydalanish mexanizmi hamda normativ-huquqiy ta'minot zaruriy rivojlanishga ega bo'lmadi. Shuning uchun muayyan sharoitda ta'lim tizimini tarkibiy-funksional qayta shakllantirish o'quv yurtlarida moliyaviy mablag'lar barqarorligini ta'minlash, mablag'larni oqilona qayta taqsimlash hamda o'quv yurtlari tomonidan joriy va istiqboldagi masalalarni tezkor yechimini topish zarurligini ko'rsatmoqda.

Ta‘lim xizmatlari bozori rivojlanishining iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarining o‘zaro muvofiqligini ta‘minlash tamoyilini amalga oshirish hududda mutaxassis kadrlarni ish bilan bandlik muammolarini yechishni hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning barcha hududiy ustuvor yo‘nalishlarini mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklif nisbatlarini innovatsiyalarga bog‘liq ravishda jiddiy qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Albatta, bunday vaziyatda, zamon talablariga mos mutaxassis kadrlar tayyorlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1998.
2. Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – T. “Fan”. 2000.
3. Kotler F. “Osnovy marketinga”. – M.: Izd. Delo, 2006.
4. Bottino R.M., Forcheri P., Molfino M.T. Technology Transfer in School: from Research to Innovation // British Journal of Educational Technology. – 1998. № 29 (2). r. 163–172.

O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA‘LIM – MUAMMO VA YECHIMLAR

Kobilova Zilola Maxmudjonovna

BuxDU “Iqtisodiyot va turizm” fakulteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta‘limning maqsad va vazifalari, imoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta‘limga jalb etishning huquqiy asoslari hamda O‘zbekistonda inklyuziv ta‘limning joriy holati va mavjud muammolari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: adaptatsiya, konsepsiya, kommunikasiya, korreksiya, inklyuziv ta‘lim, internat, moslashtirish, ilmiy-amaliy tajribalar, huquqiy asos, tajriba-resurs markazi.

Hozirgi kunda Respublikamiz miqyosida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni inklyuziv ta‘limga jalb etishning huquqiy asosini mustahkamlash bilan bir qatorda ko‘plab ilmiy-amaliy tajribalar olib borilmoqda. Respublikamizda olib borilayotga barcha islohotlarning maqsadi davlatimiz kelajagiga mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog‘lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga etkazish natijasida yaratiladi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta‘lim tarbiyasi masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga aylanib bormoqda. Maxsus ta‘lim imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta‘lim tizimi sifatida rivojlangan. Ushbu ta‘lim imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini umumta‘lim muasasalarida qondirib bo‘lmaydi degan taxminlar asosida qurilgan. Maxsus ta‘lim butun dunyoda maktab yoki internat shaklida, shuningdek umumta‘lim maktablarining katta bo‘lmagan qismlari sifatida faoliyat yuritadi. Maxsus ehtiyojli bolalarning maxsus ta‘lim tizimida o‘qitilishi ularning maktabni tugatgach ijtimoiy jamiyatga moslashib ketishlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek, ularning o‘z oilasidan uzoqda bo‘lishlariga majbur qiladi. Bu toifa bolalar boqimandalikka o‘rganib qoladilar, o‘z-o‘ziga xizmat qilishlarida qiyinchiliklarga duch keladilar. Bundan tashqari juda ko‘plab maxsus ehtiyojli bolalar ta‘limdan chetda qolib ketmoqdalar. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarni rivojlanish darajasi, imkoniyati nuqson xususiyatlari va qobiliyatlariga ko‘ra maxsus yoki umumta‘lim tizimida ta‘lim olishini amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta‘lim siyosati amalga oshirilmoqda. Biroq inklyuziv ta‘limning mazmun mohiyati to‘g‘risidagi bilim va ma‘lumotlar hali jamiyatda etarli emas. «Inklyuziv» va «integratsiyalashgan» atamaları ko‘pincha bir xil ma‘noda ishlatiladi. Shunga qaramasdan falsafada ushbu tushunchalar orasida juda katta farq bor.

Nogiron bolani oddiy sharoitga joylashtirish integratsiyaga qarab qo‘yilgan birinchi qadamdir. Integratsiyalashgan ta‘lim bu-diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktabga qatnash jarayonidir. Integratsiyalashgan ta‘limda bolaga muammo sifatida qaraladi.

Bu ta‘lim tizimining quyidagicha shakllari mavjud:

A) Jismoniy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli nogiron va nogiron bo‘lmagan bolalar o‘rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy maktab bilan yonma-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo‘lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

B) Funktsional integratsiya. Bu shakl nogiron va nogiron bo‘lmagan bolalar o‘rtasidagi funktsional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

V) Ijtimoiy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u nogiron hamda nogiron bo‘lmagan bolalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani qo‘llab – quvvatlaydi.

G) Jamiyatga integratsiya qilish kabilar. Integratsiyalashgan talim tizimining bir qator quyidagicha chegaralangan tomonlari mavjud: Umumta'lim muassasalarda kompleks tibbiy-pedagogik yordam olish imkoniyati bo'lmaydi. Umumta'lim maktab pedagogi maxsus metodikani bilmaganligi sababli imkoniyati cheklangan bolalarning maxsus ehtiyojlarini qondirmaydi.

Umumta'lim maktablarida tiflo, surdotexnik vositalar, maxsus tibbiyot uskunalar bo'lmaydi. Sinfda o'quvchilar soni 25 tadan-35 gacha etadi va oqibatda ularning barchasiga ko'p vaqt ajrata olmaydi. Umumta'lim maktablarda o'quvchilarda maxsus malaka va ko'nikmalarni shakllantirish uchun mutaxassislar bo'lmaganligi sababli, imkoniyat topish qiyin.

Umumta'lim maktablarda alohida dastur va darsliklardan foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Inklyuziv ta'lim tizimi integratsiyalashgan ta'lim tizimidan o'zining mazmun – mohiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi. Inklyuziv ta'lim bu - davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muxtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim tarbiya olishlarini taminlaydi. Shuning uchun ham ahamiyatlidir.

Oliy ta'lim tizimiga kiritilgan "Inklyuziv ta'lim tizimida rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolalarga ta'lim berish xususiyatlari" kursi inklyuziv ta'lim tizimining mohiyati, mazmuni, maqsadi va jabxalarini ochib beradi va bu haqidagi nazariy ma'lumotlar bilan talabalarni qurollantiradi. "Inklyuziv ta'lim tizimida rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolalarga ta'lim berish xususiyatlari" kursining predmeti inklyuziv ta'lim tizimi va uning mazmunidan iborat. Bu kurs o'zining mazkur predmetiga asoslangan holda maqsad qo'yadi. Mavjud maqsadlari shundan iboratki, bu kurs inklyuziv ta'limning mazmun mohiyatini ochib berish bilan bir qatorda kerakli tavsiyalar ham ishlab chiqadi. Tavsiyalarda barcha bolalarning ta'lim olish muhitini o'rganib maxsus ehtiyojli bolalarning ta'limiy ehtiyojlariga umumiy baho beriladi. Asosiy ma'no shundaki, sog'ligining yomonlashuvi yoki rivojlanishining orqada qolishi sababli alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni ham umumiy ta'lim jarayoniga qo'shish mumkin.

Inklyuziv ta'lim ta'lim berishning diqqat markazida bola turadi (o'quv rejasi emas) deb bu jarayonga yondashadi. Ushbu yondashuvlar bolalar har xil sharoitda o'qiydi, rivojlanadi, ma'lumotni har xil tezlikda qabul qiladi degan e'tirofga asoslanadi. Ular har bir bolaning shu qatorda maxsus ehtiyojli bolalarning ham ehtiyojlarini qondiradigan ta'lim muhitini yaratib berishga qaratilgan. Mazkur tavsiyalarning maqsadi - maktablarni maxsus ehtiyojli bolalarnig ehtiyojlariga javob beradigan qilib moslashtiradigan jarayonni qo'llab-quvvatlash.

"Moslashtirish" deganda nafaqat maxsus ehtiyojli bolalarni maktabga bemaol borib kelishi, balki qatnashishidir. Maktab muhiti moslashuvchan bo'lib, bola ta'limdagi tartibga moslashishi kerak deb taxmin qilinmasdan, alohida har bir bolaning ehtiyojlarini qondirishi kerak.

"Inklyuziv ta'lim" kursi o'z maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator quyidagi vazifalarni hal etadi:

- talabalarga inklyuziv va integratsiyalashgan ta'lim tizimi haqida ma'lumot berish;
- inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini ochib berish;
- inklyuziv ta'limni joriy etish oldida turgan muammolarni o'rganish va bu muammolarni hal etish yullarini izlab topish;
- inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlashning asoslarini o'rganish;
- inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish tamoyillarini tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish borasidagi nazariy, amliy va huquqiy ahvolni o'rganish;
- inklyuziv ta'lim muassasalarining maqsad va vazifalarini belgilash;
- resurs o'qituvchining ish faoliyati va maqsadi bilan tanishish;
- inklyuziv ta'lim muassasalarining xodimlari vazifalari bilan tanishish;
- inklyuziv ta'lim muassasalari mutaxassislarining ota-onalar bilan hamkorligining yo'lga qo'yilganlik darajasini aniqlash;
- inklyuziv ta'lim muassasalarida olib borilayotgan islohotlarni o'rganish; -inklyuziv ta'limga jalb qilish bosqichlarini, amaliyotga joriy etish yo'llarini o'rganish, ish tajribalarini tahlil qilish kabilardan iborat.

Shunday qilib "Inklyuziv ta'lim" kursi o'zining mavzu doirasida maqsad va vazifalarini hal qilish asosida talabalarni inklyuziv ta'lim bo'yicha mukammal bilimlar bilan qurollantiradi. Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion — uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq,

qamrab olish ma‘nolarini bildiradi) nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta‘limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko‘ra nogiron bo‘lgan) o‘smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat‘iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo‘naltirilgan umumta‘lim jarayoniga qo‘shishini ifodalovchi ta‘lim tizimidir. Inklyuziv ta‘limning siyosati turli xil ehtiyojli bolalarni ta‘lim olishini qo‘llaydi hamda yaxshi hayot ko‘rishga imkon yaratadi.

Inklyuziv ta‘lim - davlat siyosati bo‘lib, nogironligi yoki boshqa sabablar tufayli maxsus yordamga muhtoj, tarbiyasi og‘ir, yetim bolalar, VICH, OITS bilan kasallangan bolalar uchun moslashuvchan, individuallashtirilgan yordam tizimi va barcha bolalarni teng ko‘rishni ko‘zda tutadigan ta‘lim turidir.

Millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilasining jamiyatda tutgan o‘rni, moddiy va ma‘naviy ahvoli, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiligi bo‘lishidan qat‘iy nazar barcha bolalarni teng ko‘rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qadrlash, rivojlantirishni ko‘zda tutadigan ta‘lim, hisoblanadi. Inklyuziv ta‘lim umumta‘lim jarayonini rivojlantiradi na barcha bolalarga mos bo‘lgan ta‘limni joriy qiladi. Imkoniyati cheklangan bolalar ta‘lim olishiga oid qo‘shimcha moslamalarni tashkil qilib, nogiron bolalarning ta‘lim olishiga qulay sharoit yaratadi. Inklyuziv ta‘lim turli xil ehtiyojli bolalarning ta‘lim olishiga qaratilgan metodologiyani rivojlantirishga harakat qiladi. Inklyuziv ta‘lim turli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan ixcham turdagi dars berishga yondashadigan ta‘lim turini amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Shomaxmudova. “Inklyuziv ta‘lim. (Xalqaro va O‘zbekistondagi tajribalar)” nomdagi monografiya, Toshkent 2010
2. X.S Raximova Koxlear Implantli bolalar bilan logopedik ish o‘quv qo‘llanma.2021 yil
3. U.Fayziyeva, D.Nazarova, F.Qodorova Surdopedagogika malaka oshirish insitutlari va pedagogika insitutlari uchun o‘quv qo‘llanma.
4. Mahmudov Khurshid Shukhratovich “IMPORTANT ASPECTS OF COOPERATION IN THE INCLUSIVE EDUCATIONAL PROCESS” ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal)
5. Mo‘minova L.R.“Nutqi to‘liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini logopedik tekshirish bo‘yicha metodik qo‘llanma” Toshkent 1997 y.
6. Teshayeva, F.R. THE USE OF COMPUTER GAMES TO DEVELOP SPEECH CAPABILITIES FOR CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCY. 2022/4/15. Conference Zone. Pages. 130-132
7. Sodiqovna, R. K. (2021, January). USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF SPEECH SKILLS IN CHILDREN WITH HEARING DISABILITIES. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 443-444).
8. Mo‘minova L. Ayupova L. “Logopediya” “Toshkent” 1993-yil.
9. Mahmudova, M. S. (2020). THE ROLE OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF PROSPECTIVE SPEECH THERAPISTS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(10), 358-363.
10. Тешабоева, Ф. Р. (2020). “PROBLEMS OF TEACHING THE MODULE” SPECIAL METHODS OF TEACHING THE MOTHER LANGUAGE” AT THE UNIVERSITY. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-7), 229-232
11. Rakhimova Khurshidahon Sodiqovna. USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF SPEECH SKILLS IN CHILDREN WITH HEARING DISABILITIES. International Virtual Conference On Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences Hosted from Newyork, USA <http://euroasiaconference.com> January 20th 2021.

OLIY TA‘LIM TIZIMINI STRATEGIK BOSHQARISHDAGI XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN MAHALLIY DARAJALARDA FOYDALANISH YO‘LLARI

Muxtorov Shavkat Qodirovich

BuxDU, Iqtisodiyot kafedrasida tayanch doktoranti

E-mail: muxtarov.sh67@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida belgilangan vazifalar qatorida oliy ta‘lim muassasalarida qabul jarayonini oqilona tashkil etish asosida oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 50-60 foizga yetkazish, ta‘lim sifatini yaxshilash, pedagog xodimlarning ilmiy salohiyatini oshirish, bitiruvchilarni ish bilan ta‘minlash masalalari tadqiq etilgan.

Qolaversa, bu omillar oliy ta'lim muassasalarining reytingi bilan bog'liq bo'lganligi bois, maqolada oliy ta'lim muassasalar reytingini oshirish yuzasidan fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim tizimi, oliy ta'lim muassasasi, oliy ta'lim muassasasi reytingi, raqobatbardoshlik, mezon, vazifa, boshqarish, bilim, malaka, moliyaviy mustaqillik, ilmiy daraja, ilmiy unvon, ko'rsatkich, akademik mustaqillik

Аннотация. В статье среди задач, определенных в Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года, выделены вопросы повышения уровня охвата высшим образованием до 50-60%, повышения качества образования, повышения исследуется научный потенциал педагогических кадров, обеспечивающих трудоустройство выпускников на основе рациональной организации процесса приема в высшие учебные заведения. Поскольку эти факторы связаны с рейтингом высших учебных заведений, в статье приведены мнения по повышению рейтинга высших учебных заведений.

Ключевые слова: система высшего образования, высшие образовательные учреждения, рейтинг высшего образовательного учреждения, конкурентоспособность, критерий, задачи, управление, знания, квалификация, финансовая независимость, учения степен, ученое звание, показатель, академическая независимость

Abstract. In the article, among the task defined in the Concept of the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030, the issues of increasing the coverage level with higher education to 50-60%, improving the quality of education, increasing the scientific potential of pedagogic staff, providing employment to graduates based on the rational organization of the admission process in higher education institutions are researched. Since these factors are related to the rating of higher education institutions, the article contains opinions on increasing the rating of higher education institutions.

Keywords: higher education system, higher educational institutions, higher educational institution rating, competitiveness, criterion, tasks, management, knowledge, qualification, financial independence, academic degree, academic title, indicator, academic independence

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni talablariga muvofiq tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi, va raqobatbardoshligini ta'minlash maqsadi ko'zda tutilgan. Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, bunda mazkur oliy ta'lim muassasalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish vazifalari belgilangan.

Bundan tashqari, mazkur Konsepsiyaning mantiqiy davomi sifatida amaldagi me'yoriy hujjat talablariga muvofiq, oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingi nufuzini oshirish maqsadida: milliy reytingda so'nggi 3 yil davomida doimiy ravishda birinchi 3 ta o'rindan birini egallab kelayotgan oliy ta'lim tashkilotlariga oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash bo'yicha akademik va moliyaviy mustaqillik berish, mustaqillik mezonlari Yevropa universitetlari assotsiatsiyasi standartlariga muvofiq qabul qilinishi; milliy reytingda birinchi 10 ta o'rindan birini egallagan oliy ta'lim tashkilotiga mavjud ixtisosliklar bo'yicha ilmiy unvonlarni mustaqil berish vakolatini berilishi belgilangan. Shuningdek, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va tizimida oliy ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralarga 2021-yil 1-fevralga qadar 2030-yilgacha xalqaro reytinglarda 2 ta oliy ta'lim tashkilotini – birinchi 500 ta o'rindagi, 8 ta oliy ta'lim tashkilotini – birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim tashkilotlari ro'yxatiga kiritish uchun tegishincha “2+500” va “8+1000” loyihalarini ishlab chiqish vazifasi topshirilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6108-son Farmonida oliy ta'lim sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-sentabrga qadar har bir hududda nodavlat, jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida kamida bittadan oliy ta'lim tashkilotini tashkil qilish vazifasi yuklatilgan.

Oliy ta'lim muassasalarining mavzuga oid muammolari va ularni tizimli bartaraf etish, muassasalarda oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oqilona tashkil etish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, muassasalar reytingi, imiji, mavqei, jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirish, professor-o'qituvchilarni ilmiy-pedagogik salohiyatini va bitiruvchilarni ishga joylashtirish masalalari

Prezidentimizning hujjatlari [1-10]da, Vazirlar Mahkamasining qarorlari [11-12]larida o‘z aksini topgan. Bu normativ hujjatlarda belgilangan vazifalar tegishliligi dissertatsiya tarkibiga kiritilgan va tadqiq etilgan. YE.V. Yekimovalarning ma‘lumotlariga ko‘ra 2003-yildan boshlab universitetlarning umumjahon reyting tizimini ishlab chiqishga kirishilgan. ARWU – Academic Ranking of World Universities reyting tizimida 2003-yildan Shanxay universiteti tomonidan 300 ta universitet tahlil qilingan, “The Times Higher Education” jurnalida 2004-yilda Britaniyaning “TSL Education LTD” tashkiloti, shu yili 16000-20000 ta universitetning tahlilini o‘tkazuvchi Webometrics – Ranking Web of World Universities reyting tizimi Ispaniyada, 500 ta eng kuchli universitet tahlil qilinayotgan Performanse Ranking of Scientific Papers for World Universities tizimi 2007-yildan Tayvan Respublikasida, 3000-6000 ta universitet tahlil qilinadigan The World University Ranking tizimi 2010-yildan Britaniyada faoliyat ko‘rsatib kelmoqda [13].

Olimlarning ta‘kidlashicha, “...universitetlarning birinchi xalqaro reyting tizimi 1997-yilda “Asia Week” jurnali tomonidan Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi eng yirik universitetlar reytingini ishlab chiqish bilan boshlangan” [14]. Shuningdek, “Dunyoda yetarlicha katta OTMLari reytinglari mavjud. 1980-yildan boshlab AQShda OTMLarining milliy reytinglari chop etila boshlandi.

Bu borada D.A. Shtixning “World University Rankings” reytingida dunyoning yaxshi universitetlarini baholash olti mezon asosida amalga oshiriladi:

Akademik reputatsiya (40%). Bu ko‘rsatkich ilmiy faoliyat olib boruvchi professor-o‘qituvchilar, shuningdek, universitetlar rahbarlarining o‘z sohalari bo‘yicha dunyoning qaysi o‘quv yurtlarida yuqori darajada ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligi haqida so‘rovlarga asoslangan.

Ish beruvchilar o‘rtasidagi reputatsiya (10%)

O‘qituvchilar tarkibining talabalar soniga nisbati (20%)

Iqtiboslanish indeksi (20%)

Xorijiy talabalar hissasi (5%)

Xorijiy o‘qituvchilar hissasi (5%) [15].

An‘anaviy ravishda olingan takliflar tizimlashtirilganda, asosan, dunyoda eng kuchli 1000 ta OTM safiga, O‘zMU va SamDU ni eng kuchli 500 ta OTM tarkibiga kiritishda OTMda faoliyat ko‘rsatuvchi professor-o‘qituvchilarning oylik maoshlarini oshirish, qabul komissiyasi ishini yuqori shaffoflik darajasida tashkil etish, bakalavriat va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha davlat granti asosida qabul ko‘rsatkichlarini ko‘paytirish, OTMga da‘vogarlariga ilmiy daraja va ilmiy unvonlarni berish vakolatini taqdim etish, OTMga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, OTMning xorijiy OTMLari bilan transformatsiyalashuvini yo‘lga qo‘yish, oylik maoshlari va ish o‘rni saqlangan holda ilmiy darajali (ilmiy unvonli) professor-o‘qituvchilarni rivojlangan mamlakatlarning birinchi top-300 talik ro‘yxatidagi OTMLariga xizmat safarlariga, xorijiy professor o‘qituvchilar ishtirokida o‘tkazilgan tanlovlar natijasi asosida O‘zbekistonlik talaba (magistrant)larni o‘qishga yuborish taklifi ilgari surilganligi e‘tirof etildi.

O‘zbekistonning oliy malakali kadrlari vakillari – respondentlar o‘zlari ishlab turgan OTMning nufuzi yuqori bo‘lishidan manfaatdor, shuningdek, hozirgi kunda eng kuchli OTMlardan hisoblanuvchi O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetining dunyodagi eng kuchli 500 ta OTM tarkibiga kiritilishiga ham befarq emas. Vaholanki, bunday nufuzga, etirofga va reyting ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan OTMda faoliyat ko‘rsatuvchi professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar O‘zbekistonning boshqa soha va yo‘nalishlarda taraqqiyot indeksi ko‘rsatkichlarini oshirilishiga mamlakat iqtisodiyotining mustahkamlanishiga, aholi farovonligini oshirilishiga va yoshlarimizning kelajagi ta‘minlanishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Zero, amaldagi Nizom talabalariga muvofiq, OTMLari reytingini aniqlash indikatorlari belgilangan va ular asosida OTMLari reytinglari hisoblanib, har yilda bir marta e‘lon qilinayotgan bo‘lsa-da bu reyting tizimiga ba‘zi o‘zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, OTMLari raqobatbardoshlik darajasini aniqlovchi omillar guruhini taklif etish tadqiqot ishining vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. PF-60. 2022-yil 28-yanvar. Manba: lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori. – Toshkent, 2017-yil 21-aprel. Manba: <http://www.president.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi PQ-3151-son Qarori. – Toshkent. 2017-yil 27-iyul. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 30-son, 729-modda.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli Qarori. – Toshkent, 2018-yil 5-iyun. Manba: <http://www.president.uz>

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4210-son Qarori. – 2019-yil 25-fevral. Manba: www.lex.uz

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. PF-5847-son. – Toshkent, 2019-yil 8-oktabr. Manba: www.lex.uz

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. PF-6097-son. – Toshkent, 2020-yil 29-oktabr. Manba: www.lex.uz

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni PF-6108-son. – Toshkent, 2020-yil 6-noyabr. Manba: www.lex.uz

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-son Qarori. – Toshkent, 2021-yil 24-dekabr. Manba: www.lex.uz

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-son Qarori. – Toshkent, 2021-yil 24-dekabr. Manba: www.lex.uz

11. Qahhorov O.S. Ta'lim muassasalari boshqaruvining samaradorligini baholashdagi yondashuvlar va usullar// J. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar – fevral, 2017. <http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/>

12. Rejapov X.X. Mehnat va oliy ta'lim xizmatlar bozorlarini modellashtirish xorij tajribasi// J. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2017.

13. Teshaboyev T.Z. Oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish yo'llari// J. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №3, may-iyun, 2018. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/28_Teshabayev.pdf

14. G'iyosov I.K. The theoretical features of the organization of the strategic management accounting in business// J. ISJ Theoretical & Applied Science. – Philadelphia (USA): 09 (77), pp. 260-266 (Scopus ASCC: 2308). <http://s-o-i.org/1.1/TAS-09-77-46>

15. http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/10_X_Rejapov.pdf

TA'LIMDA O'QUVCHILARNI FANGA QIZIQTIRISHDA OPTIMAL USULLARDAN FOYDALANISHDA "OMADLI ZARIKCHALAR" METODI.

Buxoro viloyati Olot tumani Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari Agentligining informatika va AT, iqtisodiy bilim asoslari fani o'qituvchisi Botirova Oydina Akbaraliyevna

Annotatsiya:

Yangi O'zbekistondagi ta'lim tizimini rivojlantirishda o'quvchilarni tez rivojlanayotgan davrimiz yangiliklari bilan hamohang tarzda yangicha usullardan foydalanish zamonaviy pedagog uchun muhim ahamiyat kasb qiladi. Darslarda o'quvchilarni zeriktirmaslik uchun turli o'zlarining tillarida va o'zlarining qiziqishlari asosida yangicha metodlar zarur. Shunday metodlardan biri "Omadli zarikchalar". Bu usul darsda o'quvchilarni o'yinlar orqali darsda faolligini oshirishga yordam beradi. Qaysi fan bo'lishidan qat'iy nazar o'sha mavzuga mos atmosferani yaratishga, o'quvchini diqqatini oshirishga yordam beradi. Bu metoddan foydalanish usullari va yo'llari, hayotda omadga ishonish uchun motivatsiya berish uchun ham ko'malashishi haqida maqolada to'liq yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizim, zarik o'yini ta'limga mosligi, bu o'yinning ijobiy tomonlari, tadbir qilish usullari, Yangi O'zbekistonni rivojlantirishda ta'limning roli, raqamli iqtisodiyot.



Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: **“Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi”.**

Shunday ekan, biz pedagoglar Yangi O'zbekistonni rivojlantirish uchun yangicha yondashuvlar olib borishimiz zarur. Yangicha yondashuv uchun taklif qilingan metod quyidagi shartlar asosida olib boriladi:

- ❑ Bu metoddan har qanday fanda qo'llash mumkin. Ko'p vaqtni olmaydi.
- ❑ Darsning uyga vazifani takrorlash yoki yangi mavzuni mustahkamlash qismida foydalanilsa o'quvchilarga ham o'yin tarzda, ham o'tilgan mavzularni bir bor eslatish imkonini beradi.

Faol bo'lmagan o'quvchilarga e'tibor alohida bo'ladi

“Omadi zarikchalar” bunda ixtiyoriy ikki o'quvchi doskaga chairiladi, tayyor shablon aylana shaklda 8 bo'lakka bo'lingan oq va qora ranglar(yoki oq - qizil)ga parta ustida ikki xil zarikchalar aralastirib tashlanadi. Qaysi zarik mos rangga tushsa va tushgan tomonidagi nuqtachalar soni (nechta qora nuqta tomoni tushsa, shuncha ball) uchun kurashadi. Oldindan tayyorlangan savollar ketma - ketlikda beriladi (og'zaki, tezkor) agar o'quvchi savolga to'g'ri javob bersa shu zarikda tushgan nuqtachalar sonidagi ball bilan baholanadi. Agar savolga javob beraolmasa shu omaddan mahrum bo'ladi va 0 ball bilan baholanadi. Metodning qiziqarli tomoni ham shunda, *omad kimga yor bo'ladi noma'lum*. O'quvchi savollarning hammasiga to'liq javob berib 10 ball olishi mumkin, raqib o'quvchi esa 2 ta savolga javob berib 12 ballga ega bo'lishi ham mumkin. Shunday holda omadi kelgan o'quvchini “Barakalla, sen juda omadli ekansan, omadliliging tufayli 11-sinfni tugatib albatta grant asosida Oliy ta'limga qabul qilinasan”, omadi kelmagan o'quvchiga “Uzr, hayotda shunday omadsizliklar ham bo'lib turadi, lekin sen omadsiz ekanman deb, o'zingni xafa qilma, bilimli o'quvchi hech qachon kam bo'lmaydi, albatta omading keladi, kurashdan to'xtama” deb izoh berilsa, o'quvchiga kelajakka umid va kurash uchun imkon bor ekanligi haqida tarbiyani ham berib o'tamiz.

Bu bilan o'quvchilar har dars o'z omadlarini hech bo'lmasa zarikchalardagi nuqtalar sonini ko'rish uchun ham 4 – ta savolga tayyorgarlik ko'rib keladi. Hech bo'lmasa har darsda 2 ta atamani o'rgansa ham ertaga esidan chiqib qolmaslikka zamin yaratamiz.

Maktab yoshidagi o'quvchilarda nima uchun kompyuter o'yinlariga qiziqish yuqori bo'lishi mumkinligi haqida hech o'ylab ko'rganmisiz?

Sababi kompyuter o'yinlarining har bir bosqichida albatta rag'batlantiriladi, yana – yana yutuqqa ega bo'lish uchun davom qilib ketganini o'zi bilmagan holda o'qinni o'ynaydi. Keling biz shu o'quvchining xarakteridan ayyorona foydalanaylik. Zariklarning xilma – xilligi, uning shiqir- shiqir ovozi, nishonga to'g'ri ura olish qobiliyatini tekshirish kabi xususiyatlari o'quvchining qiziqishini va diqqatini tortadi. Darsda bee'tibor bo'lgan o'quvchi ham zariklarning shiqir-shiqiriga diqqatini qaratadi va jamlaydi.

- ❖ Savollar darsdagi vaqtingizga va o'quvchilar javob berish darajasiga qarab olinadi.
- ❖ Savollar ixtiyoriy mavzuda yoki yangi mavzu asosida bo'lishi ham mumkin.
- ❖ O'quvchilarda konkurension motivatsiya uyg'otish mumkin, ya'ni musobaqa tarzda qiziqitirish mumkin.
- ❖ O'quvchilarni raqobatli kurashni halol raqobat qilish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi
- ❖ Bu metodni turli tadbirlarda, savol- javob shartini shunday rang baranglikda o'tkazish ham bo'ladi.
- ❖ Integrallashtirilgan darslarda ham foydalanish juda

qulay.

Savollardan namuna:

1- o'quvchi uchun savol:


- 1-savol Atrof muhitni tushunish, anglash uchun yaratilgan maxsus muhit qanday nomlanadi? (O'yin)
- 2-savol: Kompyuter o'yini? (Kompyuteda o'ynash uchun yaratilgan dasturiy ta'minot)
- 3-savol: Sartaroshxonada Tovar nima? (mehnat)
- 4-savol: Animatsiya qaysi tildan olingan so'zning ma'nosi? (fransuz tilidan olingan *animation*-ruhlantirish, jonlantirish; lotincha: *anima*- ruh, jon)

2- o'quvchi uchun savol:

- 1-savol: Interfaollik nima qanday so'zdan olingan ma'nosi nima? (ingliz tilidagi *interaction*-birgalikda harakat qilish)
- 2-savol: G'oya nima? (Har qanday ob'yekt, harakat, hodisa, tamoyilning asosiy va muhim xususiyatlarini ajratib turadigan xayoliy obraz (tasavvur qilingan timsol))
- 3-savol: Poyabzal ustaxonasida Tovar nima? (xizmat)
- 4-savol: Investitsiya? (yangi korxonalarni tashkil qilish, mavjudlarini modernizatsiya qilish, yangi texnologiya va texnikani o'zlashtirish, ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan mablag'lar)

Savollar galma gal berib boriladi. Savollarni o'qituvchi qiziqtirib – qiziqtirib berib borsa ham bo'ladi yoki sinfdagi boshqa o'quvchilarni jalb qilish ham mumkin vaziyatga qarab.

Bunday usullar o'quvchilarning o'zidagi harakatchanlik, interfaoligidan ham foydalansa bo'ladi, ya'ni ikki o'quvchini boshqarish uchun "Sen lidersan" degan obraz orqali uchunchi o'quvchini jalb qilinsa, o'quvchi yana ham "Men liderman" obrazida bo'lishga harakat qiladi. Bu esa yana bir o'quvchini fanga qiziqtirish va hayotiy harakatchanlikni oshirishga motivatsiya beradi. Rag'bat uchun yana bir o'quvchini qo'shsak ham bo'ladi, ya'ni 4 - shaxs bu rag'batlantirib boradi va bunga "Hakam" maqomi beriladi. Hakam turli qiziqarli stikerlar orqali rag'batlantirib boriladi.



Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasidagi islohotlar ham bugungi kunda o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalaridagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir. Biz pedagoglar esa yangiliklar asosida yosh avlodni integrallashgan, optimal, interfaol metodlardan darsda foydalanishni va ularni hayotda hech adashmasdan, o'ziga ishongan vatanparvar insonlar qilib tayyorlashga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim tog'risida"gi Qonuni 23.09.2020 yil O'RQ-637-son.
2. Fayzullayeva N.S. Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti. O'quv qo'llanma. T. 2020.
3. X. Ibragimov, SH. Abdullayeva. Pedagogika nazariyasi (darslik). T., «Fan va texnologiya», 2008, 288 bet.
4. Qosimov M.S., Investitsiya loyihalar tahlili. Darslik.- T., TDIU, 2019.-168 bet
5. Berkinov B.B., Yakubov I.O., Sunnatov M.N., Institutsional iqtisodiyot: fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha. -O'quv qo'llanma.–T.:2019.-170-b.
- Internet saytlari
6. Lex.uz
7. bestpublication.org
8. Spot.uz

TA‘LIM BIZNESIDA RAQAMLI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING MUAMMOLARI

*Savrieva Madina Xakimovna
Buxoro Osiyo Xalqaro universiteti
iqtisod yo‘nalishi magistri
+99893 157 91 77
savrievamadina@gmail.com*

Annotatsiya: Yangi raqamli texnologiyalarga asoslangan ta‘lim tizimi yaqin kelajakda maktablarni qanday darajada o‘zgartirib yuborishi mumkin. Kelajakda biror bir inson planshet sotib olib va unda sun‘iy intellektli dasturini joylashtirib olgandan so‘ng, o‘zining o‘qituvchisi bilan muloqot qilmasdan ham bilim olishi mumkin bo‘ladi.

Kalit so‘zlar va iboralar: dasturiy-texnik ta‘minot, raqamli interaktiv kitoblar, masofaviy ta‘lim, ta‘lim portali.

Аннотация: Как система образования, основанная на новых цифровых технологиях, может изменить школы в ближайшем будущем. В будущем, после того как человек купит планшет и установит на него программу искусственного интеллекта, он сможет учиться без общения со своим учителем.

Ключевые слова и понятия: программно-техническая поддержка, цифровые интерактивные книги, дистанционное обучение, образовательный портал.

Annotation: How the education system based on new digital technologies can change schools in the near future. In the future, after a person buys a tablet and installs an artificial intelligence program on it, he will be able to study without communicating with his teacher.

Key words and concepts: software and hardware support, digital interactive books, distance learning, educational portal.

Zamonaviy ta‘lim tizimi hozirgi davrning barcha o‘ta jiddiy talablariga javob bera olmayotganligini juda ko‘pchilik olimlar va mutahassislar tomonidan tan olinayapti. Ushbu holatni tubdan o‘zgartirishning asosiy yo‘llaridan biri –ta‘lim tizimiga zamonaviy texnologik rivojlanishning eng yangi dasturiy-texnik vositalarini keng miqyosda jalb qilishdir. Bunday vositalardan biri – insonlarning ishlab chiqarishdan va boshqa kundalik yumushlardan ajralmagan holda to‘laqonli ta‘lim olishiga imkon beradigan raqamli platformalardagi ochiq masofaviy ta‘lim tizimidir (MOOC – massive open online courses – ommaviy ochiq onlayn ta‘lim tizimlari). Bundan bir necha yillar oldin, ya‘ni, 2012 yilning kuzlarida Stenford universitetining ikki professori Sebastyan Trun va Piter Norvig internetda barcha istovchilar uchun sun‘iy intellekt bo‘yicha ma‘ruzalar tinglashni taklif qildi. Bu ma‘ruzalar o‘z tarkibiga barcha kerakli materiallarni, testlarni va yakuniy imtihonlarni qamrab olgan edi. Mashg‘ulotlar esa faqat on-line ko‘rinishida tashkil etilgan bo‘lib, ma‘ruzachilar eng ko‘pi bilan 2-3 ming talaba ushbu mashg‘ulotlarga qatnashishini rejalashtirgan bo‘lsalarda, semester boshida unga dunyoning 200 ta mamlakatidan 160 ming kishi yozilib bo‘lgan edi. Bunga o‘xshash masofaviy ta‘lim tizimlari borgan sari murakkablashib va sifati oshib borayotganini ta‘kidlamasdan iloji yo‘q. Kun sayin yanada ko‘proq tajribali o‘qituvchilar va professorlar o‘z ma‘ruzalarini boshqalar bemalol foydalanishi uchun YouTube va iTunes tizimlariga yozib qo‘yayaptilar. Har yili dunyo miqyosidagi eng yaxshi bilimlarni to‘plash va ularni internet orqali barcha foydalanishi uchun tarmoqqa joylashtirish bo‘yicha yangidan-yangi ishlar qilinib, filantroplar va venchur tadbirkorlar buning uchun o‘nlab million dollar mablag‘lar ajratayaptilar. Ularning birgalikdagi say‘i-harakatlari dunyoning istalgan joyida yashovchi insonlarning zamonaviy va sifatli ta‘lim olishlariga sabab bo‘lishi kuzatilayapti. Professorlar Sebast‘yan Trun va Piter Norvig larning ta‘kidlashlaricha, 2050 yilga kelib, jahon miqyosida bor-yo‘g‘i o‘ntagina katta zamonaviy universitetlar qolib, ularda bir vaqtning o‘zida millionlab talabalar o‘qitilishiga erishiladi. Tabiiyki, bunday biznes unga jalb etilganlarning barchasi uchun ham foydali, ham raqamli iqtisodiyot uchun kadrlar yetishtirishga katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bunga misol sifatida hozirgi paytda real ishlab turgan minglab ta‘lim tizimlari orasidan quyidagilarni keltirish mumkin:

Khan Academy –2008 yilda moliyaviy analitik Salman Xan tomonidan asos solingan notijorat tashkiloti bo‘lib, u matematika, fizika, biologiya, astronomiya va boshqa tabiiy fanlar bo‘yicha turli-tuman topshiriqlar va videomateriallarning raqamli olamdagi o‘ziga hos ombori hisoblanadi. Ushbu akademiyaning materiallari turli xil murakkablikda bo‘lib, asosan o‘rta maktab talabalari uchun mo‘ljallanilgan. Shuning uchun undagi materiallardan AQSH dagi o‘nlab o‘quv muassasalarida doimiy asosda foydalaniladi. Khan Academy raqamli ta‘lim tizimi o‘qituvchilarga ta‘lim jarayonini tubdan o‘zgartirishga imkon beradi, ya‘ni, o‘quvchilar uylarida internet orqali ma‘ruzalarni eshitib oladilar va

darsga kelganlarida o'qituvchi yordamida uy vazifalarini bajaradilar. O'qituchi esa istalgan paytda o'quvchi qanday materiallarni o'zlashtirgan yoki qaysi materiallarni o'zlashtirish unga qiyinchilik tug'dirayotganini tekshira oladi. Hozirgi paytda bu akademiyaga Bill & Melinda Gates Foundation va Google kompaniyalari moliyaviy yordam ko'rsatmoqdalar. Ushbu akademiya bilan to'liqroq ravishda www.khanacademy.org sayti orqali tanishib chiqish mumkin.

Zamonaviy ta'lim jarayoni raqamli texnologiyalardan foydalangan holda universallashtirishga intilib, ta'lim berishda insonlarni bir-birlariga maksimal darajada o'xshash qilib modellashtiradi (ya'ni, moslikni talab qiladi). Hozirgi zamonadagi maktab va universitetlar o'z talaba-o'quvchilarini klassik "qora qutilar" ko'rinishida tasavvur qilish mumkin, ularning barchasiga bir xil ma'lumot beradilar va bilim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olmagan holda ulardan javob reaksiyasini kutadilar. Bunday yondoshuv ko'pchilik tomonidan allaqachon voz kechilishi kerak bo'lgan industrial davr sifatida tushuniladi. Kimlardir bu muammoni o'quv jarayoiniga ko'proq o'qituvchlarni jalb qilgan holda hal qilishni taklif qiladilar. Chunki bunda har bir o'quvchiga alohida diqqat e'tibor qaratilib, ularning talab-istaklarini va qobiliyatlarini nazarga olgan holda o'quv jarayonini optimal ravishda tashkil etish mumkin bo'ladi. Lekin bu juda ham qimmatga tushadigan tadbir bo'lgani uchun, pedagogika bo'yicha ko'pchilik mutahassislar ta'lim jarayoniga zamonaviy komp'yuterlarning dasturiy-texnik vositalarini va imkoniyatlarini jalb qilish yaxshi natijalarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaymoqdalar.

Yangi raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim tizimi yaqin kelajakda maktablarni qanday darajada o'zgartirib yuborishi mumkin? Kelajakda biror bir inson planshet sotib olib va unda sun'iy intellektli dasturini joylashtirib olgandan so'ng, o'zining o'qituvchisi bilan muloqot qilmasdan ham bilim olishi mumkin bo'ladi. 10-15 yillardan so'ng, sun'iy intellekt vositasida oliy ta'lim olish xuddi yozish va o'qishga o'xshab oddiy hol bo'lib qoladi nazarimda.

Turli xil ko'rinishdagi ta'lim turlarining hosil bo'lishi ta'lim vazirliklari qoshida malakali professor-o'qituvchilarni (shu jumladan, nafaqaga chiqqanlarni ham) jalb qilgan holda raqamli interaktiv elektron kitoblar, elektron o'quv qo'llanmalari va alohida fanlar bo'yicha masofaviy ta'lim kurslari tayyorlash zaruriyatiga olib keladi (bu ish hozirgiga o'hshab tekinga emas, balki professor-o'qituvchilar bilan shartnomalar tuzish asosida amalga oshiriladi) bu aniq. Bu esa ushbu ishlarni amalga oshirish bo'yicha respublika ishchi kengashini (tashkilotini yoki kompaniyasini) tashkil qilish vazifasiga olib kelishi mumkin.

-Uning zimmasiga respublika miqyosida zamonaviy hamda sifatli raqamli interaktiv elektron kitoblar, raqamli elektron o'quv qo'llanmalari va masofaviy ta'lim kurslari tayyorlash (yoki ularni chet tillardan o'zbek tiliga o'girish) vazifasi yuklanishi;

-Bu ishga majburiy tarzda mamlakatda information texnologiyalarning tadbiri bilan shug'ullanadigan barcha tashkilotlarni, ta'lim muassasalarini, kompaniyalarni va yetakchi institut hamda universitetlarni jalb qilish;

-Vazirlar mahkamasi va Prezident devoni qoshida eng malakali mutahassislarni jalb qilgan holda bu ishlarni koordinatsiya qiluvchi ishchi guruhlar tuzish;

-Barcha ta'lim muassasalari uchun raqamli interaktiv elektron kitoblar va raqamli o'quv qo'llanmalar ishlab chiqish yoki ulardan foydalanish kerakligini ustuvor vazifa sifatida ko'rsatish hamda bu ishlarni bajarish bo'yicha reyting ko'rsatgichlarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish;

-Chet ellarda ishlab chiqilgan va aprotatsiyadan o'tgan biz uchun muhim bo'lgan raqamli interaktiv elektron kitoblar, qo'llanmalar, ta'lim sohasiga oid komp'yuter o'yinlari, intellektual ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim tizimlari, dasturlar va saytlari o'zbek tiliga o'girib, ularni maxsus respublika fondiga jamlab, internetdagi ta'lim portaliga joylashtirish hamda barcha ta'lim muassasalariga foydalanish uchun tarqatish;

-Har yili eng yaxshi raqamli interaktiv kitoblar, o'quv qo'llanmalar, ishga tushirilgan masofaviy ta'lim platformalari hamda ta'lim bilan bog'liq komp'yuter o'yinlari tanlovini o'tkazish va g'oliblarni munosib taqdirlash va erishilgan natijalarni respublika fondiga jamlab, internetdagi ta'lim portaliga joylashtirish hamda ularni barcha ta'lim muassasalariga foydalanish uchun tarqatish;

-Har yili bir marta respublikada yaratilgan raqamli interaktiv kitoblar, o'quv qo'llanmalar, masofaviy ta'lim platformalari hamda ta'lim bilan bog'liq komp'yuter o'yinlari bo'yicha anjuman va seminarlarni respublika va viloyatlar miqyosida tashkil qilish;

-O'zbekistondagi turli sohalarida o'rta va oliy ta'lim olishni istagan fuqarolarning ishlab chiqarish va boshqa kundalik yumushlardan ajralmagan 192 holda to'laqonli ta'lim olishiga imkon beradigan masofaviy ta'lim (distance education) tizimini rivojlangan chet ellarning "distance education – MOOC – massive open online courses" platformalari andozalari asosida tashkil qilish va ularni zudlik bilan ishga tushirish. Bu – birinchidan barcha ta'lim olishni istovchilar uchun teng imkoniyatlar yaratasa, ikkinchidan, ta'lim tizimi

uchun sarflanayotgan mablag‘larni ancha kamaytirishga imkon beradi va uchinchidan, yosh yigit-qizlar uchun davlat tomonidan sarf-harajat talab qilmaydigan juda ko‘p miqdordagi yangi ish joylarini yaratish;

-Ta‘lim muassasalaridagi professor-o‘qituvchilarning ish faoliyati monitoringi ba baholovida ularning raqamli interaktiv elektron kitoblar, interaktiv o‘quv qo‘llanmalar hamda ta‘lim bilan bog‘liq komp‘yuter o‘yinlarini ishlab chiqishlari va ulardan foydalanishlarini ham hisobga olish;

-Respublika miqyosida ishlab chiqarilgan (yoki tarjima qilingan, moslashtirilgan) raqamli interaktiv elektron kitoblar va o‘quv qo‘llanmalardan barcha talabalar va o‘qituvchilar foydalana olishlari uchun ularni mahsus ta‘lim portaliga (shu jumladan, vazirliklar va ta‘lim muassasalari saytlariga, kutubxonalarga, resurs markazlariga) joylashtirish;

-Raqamli interaktiv kitoblar, masofaviy ta‘lim platformalari va elektron o‘quv qo‘llanmalar yaratgan kimsalarni yaxshilab moddiy va ma‘naviy taqdirlash ham ularning soni va sifati oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupov R.X., Baltabaeva G.R. Rakamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istikbollari. –T: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018, 172 bet.
2. Baltabaeva G.R.vaboshqalar. Kichik biznes va tadbirkorlikda innovatsion rivojlanish yunalishlari. –T: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018, 232 bet.
3. Ayupov R.X., Baltabaeva G.R. Uzbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish muammolari va yechimlari. –T:“Iktisod-moliya” nashriyoti, 2015, 144 bet.
4. Baltabaeva G.R. va boshkalar. Uzbekistonda elektron biznesningrivojlanish istikbollari. –T: «Format poligraf» nashriyoti, 2016, 205 bet.

Internet saytlari

1. www.wikipedia.ru – veb sayti
2. www.alpari.com – xalqaro miqyosdagi moliyaviy kompaniya sayti www.coinspot.io/analysis – veb sayti
3. www.springer.com– veb sayti
4. Z.com - yapon kriptovalyuta birjasi
5. <https://bitcoin.org>– Bitkoinning rasmiy sayti
6. <http://bitnovosti.com> – Bitkoin yangiliklari
7. <http://bits.media> – kriptovalyuta information portal
8. <http://blockchain.community>–Rossiyaning blokcheyn jamiyati kitobxon.com – madaniy-ma‘rifiy sayti.

SIFATLI TA‘LIM UCHINCHI RENESSANSNING POYDEVORI SIFATIDA; XORIJIY TAJRIBA VA TAVSIYALAR

Fotima Muxsinova - *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Buxoro viloyat filiali yetakchi inspektori*

Zafar JUMAYEV - *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Buxoro viloyat filiali rahbari, texnika fanlari nomzodi,*

Alijon AXADOV - *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Buxoro viloyat filiali rahbari o‘rinbosari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston ta‘lim tizimidagi islohotlar, jahon ta‘lim tizimi tajribalari, jumladan Yaponiya, Germaniya va Singapur ta‘lim tizimi haqida ma‘lumotlar berilgan. Ushbu davlatlardagi ta‘lim tizimi, ularning o‘ziga xos jihatlari, rivojlanish mexanizmlari o‘rganilgan va O‘zbekistonda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida ilg‘or xorijiy tajribalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: kadr, ta‘lim, ta‘lim tizimi, Yaponiya, Germaniya, Singapur, maktab, renessans, akademik, texnik maktab, oliy ta‘lim, natija

КАЧЕСТВЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ОСНОВО ТРЕТЕГО РЕНЕССАНСА; ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И РЕКОМЕНДАЦИИ.

Fotima Muxsinova - *Ведущий специалист Бухарского областного филиала Агентства по развитию государственной службы при Президенте Республики Узбекистан*

Зафар ЖУМАЕВ - *Руководител Бухарского областного филиала Агентства по развитию государственной службы при Президенте Республики Узбекистан, кандидат технических наук,*

Алижон АХАДОВ - *Заместитель руководителя Бухарского областного филиала Агентства по развитию государственной службы при Президенте Республики Узбекистан*

Аннотация: В данной статье представлена информация о реформах в системе образования Узбекистана, на основе опыта мировой системы образования, в том числе системы образования Японии, Германии и Сингапура. Были изучены системы образования в этих странах, их особенности, механизмы развития и проанализирован передовой зарубежный опыт для подготовки конкурентоспособных кадров в Узбекистане.

Ключевые слова: образование, система образования, Япония, Германия, Сингапур, дошкольное учреждение, школа, ренессанс, академическое, техническое училище, высшее образование, кадр результат.

Fotima Mukhsinova - *Chief specialist of the Bukhara regional branch of the Agency for the Development of Public Service under the President of the Republic of Uzbekistan*

Zafar JUMAEV - *Head of the Bukhara regional branch of the Agency for the Development of Public Service under the President of the Republic of Uzbekistan, doctor of philosophy (Ph.d, in technik),*

Alijon AKHADOV - *Deputy Head of the Bukhara regional branch of the Agency for the Development of Public Service under the President of the Republic of Uzbekistan*

Quality education as the basis of the third renaissance; foreign experience and recommendations

Abstract: This article provides information on reforms in the education system of Uzbekistan, based on the experience of the world education system, including the education system of Japan, Germany and Singapore. The education systems in these countries, their features, development mechanisms were studied and advanced foreign experience was analyzed for preparing of competitive personnel in Uzbekistan.

Key words: education, education system, Japan, Germany, Singapore, preschool, school, renaissance, academic, technical school, higher education, personnel, result.

Bugungi kunda O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Davlatimiz o‘z oldiga aniq maqsadlar qo‘yib, unga erishish yo‘lida jadallik bilan keng qamrovli ishlarni olib bormoqda. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da davlatimizning ushbu yillarga mo‘ljallangan aniq maqsadli vazifalari hamda erishilishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkichlari belgilab berilgan. Bu davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, yuqori iqtisodiy o‘rta ta’minlash, energetika sohasini isloh qilish sohalari bo‘lmasin barchasi aslida inson resurslarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi murakkab va shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda inson kapitaliga bo‘lgan talab oshib boraveradi. Inson kapitalini rivojlantirmasdan turib, hech bir sohada yuksak maqsadlarga erishib bo‘lmiligini bugungi jarayonlar yaqqol ko‘rsatib turibdi. Inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish bevosita ta’lim tizimini rivojlantirish, isloh qilish orqali amalga oshiriladi.

Mamlakatimiz tarixidan ma’lumki O‘zbekiston zamini qadimda ikki buyuk uyg‘onish davriga - birinchi (ma’rifiy — IX-XII asrlar) va ikkinchi (Temuriylar — XIV-XV asrlar) renessansga beshik bo‘lgan. Har ikki davrda ham siyosiy barqarorlik ilm-fanning rivojlanishiga imkoniyat yaratgan. Ushbu davrlarda buyuk ajdodlarimiz diniy va dunyoviy yo‘nalishlarda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ularning me’rosidan hozirgi kunga qadar dunyo ilm-fanida foydalanishlari bejizga emas.

Bu sohada “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning IV yo‘nalishi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlanib, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar va asosiy ko‘rsatkichlar ko‘rsatib berilgan.

Shuningdek, mamlakatimizda ta’limni rivojlantirish borasida bir qator yirik ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan 2020 yil 23 sentyabrda O‘zbekistonning yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinib, mazkur qonun jahon standartlaridan kelib chiqqan holda hamda sohadagi keng qamrovli munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Ayni paytda, aytish joizki, har qanday davlatda ta’limni rivojlantirmay turib davlatni va uning iqtisodiyotini rivojlantirib bo‘lmaydi. Bu borada har ikki yo‘nalish bir-biriga uzviy bog‘liq hisoblanadi.

Ta’lim tizimini xalqaro qamrovda ko‘radigan bo‘lsak, ushbu soha hozirda jahon amaliyotida ham jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Ta’lim nafaqat nazariy bilimlar berishi bilan, balki har bir o‘quvchining iqtidorini yuzaga chiqarishga, ularda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish kabi yo‘nalishlarda o‘zgarib

bormoqda. Zero davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev aytganlaridek bizga miqdor emas sifat kerak, bunga erishish uchun esa xorij tajribasini yaxshilab o‘rganish zarur. Qaysi davlat kadrlar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratsa, o‘sha yutadi, ilmiy asoslangan tajriba asosida kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish eng muhim vazifamizdir deya ta‘kidlab o‘tdilar.

Bu borada bir qancha xorijiy davlatlar tajribalaridan misollar keltirish mumkin. Jumladan, rivojlangan davlatlar orasida **Yaponiya ta‘lim tizimi** o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Yaponiya ta‘lim tizimida “iqtidorli o‘quvchi” tushunchasi mavjud emas, chunki har bir o‘quvchining qaysidir sohada iqtidori mavjud. Yaponiya ta‘lim tizimi maktabgacha ta‘lim, boshlang‘ich maktab, kichik o‘rta maktab, yuqori o‘rta maktab hamda oliy ta‘limni qamrab oladi. Yaponiyada 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun ta‘lim majburiy hisoblanadi. Eng e‘tiborli jihatlaridan biri boshlang‘ich maktablarda o‘qituvchilar bolalarni tanqidga, o‘z xulqining yomon jihatlarini, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishga o‘rgatishadi. Bundan ko‘rinib turibdiki o‘qituvchi faqat ta‘lim berish bilan cheklanib qolmasdan, bolaning har tomonlama rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. Yana bir e‘tibor qaratidan jihatlaridan biri Yaponiyada oliy ta‘limga o‘qishga kirish 2 bosqichda amalga oshiriladi. Dastlabki bosqichda yapon tili, matematika, fizika, kimyo, jamiyatshunoslik va tarix fanlaridan imtihon topshirishadi. Bunda eng asosiy fanlar ya‘ni, **matematika, fizika, va kimyo fanlarining qamrab olinishi**, fikrimcha, yaponlardan kelajakda katta-katta ixtirolar qilinishi hamda “Nobel” mukofoti laureatlarining yetishib chiqishida asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Yaponiyada **bolalar tarbiyasida onalarning roli va mas‘uliyati juda kattadir**. Ular farzandlarining aqlli, dono va mehnatsevar bo‘lib o‘sishlari uchun **oila sulolasi va davlat oldida o‘zlarini mas‘ul deb hisoblashadi**. Onalar uchun oilada tarbiya berishlariga yordamlashish maqsadida metodik qo‘llanmalar va tavsiyanomalar hatto nashr etilgan.

Yaponiya ta‘lim tizimi eng ilg‘or AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarning ta‘lim tizimining ijobiy jihatlaridan ijodiy o‘zlashtirilgan holda shakllantirilgan. Shu bilan birga yapon xalqining milliy xarakterini ham qamrab olganligi sababli hozirda eng ilg‘or ta‘lim tizimiga ega davlatlardan biri hisoblanadi.

Jahon ma‘rifat va ma‘naviyat o‘choqlaridan biri bo‘lgan **Germaniyada** har bir fuqaro o‘z shaxsini erkin rivojlantirish, o‘z iqtidori, moyilligi va qobiliyatiga qarab maktab, o‘qish joyi va kasb tanlash huquqiga ega. Bu mamlakat ildizi asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablari, Gyote, Gegel, Betxovet, Nisse, Eynshteyn singari olim va ijodkorlari bilan dunyoga mashhur. **Nemislarga xos temir intizom, birso‘zlilik xislatlari aynan ta‘lim dargohlarida shakllanadi**.

Germaniyada maktab ta‘limi boshlang‘ich maktab, yo‘nalish maktablari, asosiy maktab, real maktab, gimnaziya, umumiy maktab, maxsus maktab kabi maktab tiplariga bo‘linadi. Boshlang‘ich maktab ta‘lim tizimining poydevori hisoblanadi. Boshlang‘ich maktab va yo‘nalish maktablarini tugatgan o‘quvchilar asosiy maktab, real maktab yoki gimnaziya o‘qishga qabul qilinadi. Asosiy maktabga real maktab va gimnaziya bormagan barcha o‘quvchilar qamrab olinadi. Bu o‘quvchilar fanlardan yomon o‘zlashtirishlariga qaramasdan kasbiy ta‘lim olishga majbur bo‘lishadi, ya‘ni **kasbga o‘rgatiladi**. Real maktablarda yuqori darajali kengaytirilgan umumiy ta‘lim beriladi va o‘quvchilarni **mustaqil fikrlash, mas‘uliyatni his etish, insonlarga rahbarlik qilish ko‘nikmalariga** yuqori talab qo‘yiladigan kasb egalari bo‘lishlari uchun tayyorlanadi. Gimnaziyalarda gumanitar, tabiiy fanlar va xorijiy tillar chuqur o‘rgatiladi. Gimnaziya - oliy ta‘limga tayyorgarlikning hal qiluvchi bosqichidir. Gimnaziyaning imtiyozli shahodatnoma bilan tugatgan o‘quvchilar oliy ta‘limga imtihonsiz qabul qilinadilar. Ammo imtiyozli shahodatnoma olish oson emas. Bundan ko‘rinib turibdiki **barcha fanlardan a‘lo darajada o‘qish** talab etiladi.

Jahon ta‘lim tizimida yetakchiga aylanib borayotgan **Singapurda ta‘lim tizimi** bir qancha o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu davlatda **ta‘limni hayotga tayyorlash emas, balki hayotning o‘zi** deb qaraladi. Singapurdagi ta‘limning o‘ziga xos jihatlaridan yana biri mamlakatda ta‘lim tili xitoy tili bilan bir vaqtda ingliz tilida ham olib boriladi. Mamlakatning sobiq bosh vaziri **Li Kuan Yu** mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashishi oson kechishi uchun kundalik muloqotda ingliz tilidan foydalanishni taklif qilganidan keyin ta‘lim tizimida ham bu o‘zining ta‘sirini ko‘rsatdi.

Singapur ta‘lim tizimi bunday yuksalish darajasiga kelgunga qadar 3 ta bosqichni bosib o‘tgan. Dastlabki bosqich 1959-1979-yillarni o‘z ichiga olib, bu davrda barcha ta‘lim dasturlari standartlashtirildi, maktablarda ingliz tili asosiy o‘qitish tili sifatida tanlandi. Shu davrda mamlakatda 83 ta yangi maktablar qurildi, oliy ta‘limni rivojlantirishga e‘tibor qaratildi. 1979-1997 yillarni o‘z ichiga olgan ikkinchi bosqichda ta‘limning sifatiga e‘tibor qaratildi. Maktablarda sinflar bolalarning qobiliyatiga qarab ixtisoslashtirila boshlandi. **Texnik ta‘limga e‘tibor qaratilib**, maktablarda texnik fanlar joriy etilib, texnik ta‘lim instituti tashkil etildi.

1997 yildan ta'lim tizimidagi mavjud imkoniyatlarni "pullash" davri boshlandi. Ko'proq mablag' evaziga yaxshiroq ta'lim olish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, 2008 yildan maktablardagi ommaviy ta'lim bekor qilinib, fuqarolar butun hayoti davomida ta'lim olishi mumkin bo'lgan individual ta'lim dasturlariga yo'l ochildi. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'qish pulini to'liq qoplaydigan "Edusave" ta'lim grantlari tizimi joriy etildi. Bir so'z bilan aytganda Singapurda do'stona (ingliz va xitoy tillarida o'qitish), yosh avlodga puxta bilim berish, aholining barcha qatlamlari uchun davlat tomonidan kafolatlangan ta'limni joriy etish hamda har bir o'quvchiga alohida e'tibor qaratish kabi omillar asosida zamonaviy ta'lim tizimi shakllantirildi.

Singapurda barcha o'quv muassasalari Xalq ta'limi vazirligi tomonidan nazorat qilinadi. Singapurda xususiy maktablar ham mavjud bo'lib, ushbu maktablarning faoliyatini ham Xalq ta'limi vazirligi nazorat qiladi. Singapurda davlat byudjetining 20 foizga yaqin qismi ta'lim tizimiga ajratiladi. Buning natijasida davlat ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlari sifatli tashkil etiladi. SHuning uchun mahalliy aholi o'z farzandlarini ko'p ham xususiy maktablarga qo'yavermay, aksincha farzandini barcha sharoitlarga ega davlat maktablarida o'qitishni afzal ko'rishadi.

Singapurda ta'lim tizimida e'tibor qaratish mumkin bo'lgan yana bir jihat shuki **ta'lim vazirligi o'rta maktab bitiruvchilari orasida eng iqtidorlilarini o'qituvchilikka tanlab oladi.** Ular talabaligidayoq o'qituvchi oyligining 60 foizi miqdoridagi stipendiya olishadi. Shuningdek, Singapur maktablarida yangi, yosh pedagoglar tajribali o'qituvchilarga birlashtirilib, tom ma'noda ustoz-shogird tizimi yo'lga qo'yilgan. Eng muhimi o'qituvchilarga davlat xizmatchisi, davlatning eng ishongan, suyangan kishisi sifatida qaraladi.

Singapur 1995-yildan buyon matematika va tabiiy fanlarda **TIMSS** bo'yicha xalqaro bilimlar imtihonida dunyodagi eng yaxshi natijalarni ko'rsatib kelmoqda. Shuningdek, **PIRLS** tadqiqotida (Ifodali o'qish yutuqlarini o'rganuvchi tadqiqot) Singapur aholisining savodxonligi dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etmoqda. Ushbu natijalar bevosita **Singapur davlatchiligining rivojiga o'zining katta ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.**

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ta'lim tizimini rivojlantirishga, uni zamonaviy tendensiyalar asosida tashkil etishga e'tibor qaratgan davlatlarda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jadallik bilan amalga oshadi. Ta'lim tizimi rivojlanmagan davlatlarda esa har tomonlama rivojlanish sekinlik bilan bo'ladi. Bunga misol sifatida bir xil imkoniyatlarga ega biz yuqorida o'rgangan Singapur bilan Filippin davlatlarini keltirish mumkin.

O'zbekistonda ham ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilyapti. 2023 yil davlatimiz rahbari tomonidan "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilinishi bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirilishini anglatadi. Davlat ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida yangi darsliklar ustida ishlar olib borilyapti, Prezident maktablari va boshqa ixtisoslashgan maktablarning tashkil etilishi bu sohaga katta e'tibor qaratilayotganliging yaqqol namunasi hisoblanadi.

Shuning bilan birga biz yurtimizda "Uchinchi renessans"ga poydevor qilishimiz uchun ensiklopedist olimlarni yetishtirib chiqarishimiz zarur. Buning uchun maktablarda va oliy ta'lim muassasalarida aniq fanlar va tabiiy fanlarga katta e'tibor qaratish zarur deb bilaman. Shuning bilan birga yuqorida ko'rib o'tgan davlatlarda texnik fanlarga ham alohida yo'nalish sifatida qaralgani alohida e'tiborga olinishi zarur. Yangilikni yaratish uchun ham barcha fan yo'nalishlarini mukammal egallagan, ularni bir-biri bilan bog'lay oladigan eng yaxshi mutaxassislar, olimlar amalga oshirishi mumkin. Faqatgina bir tomonlama rivojlanish orqali yangiliklarni yaratish juda ham qiyin bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga ta'lim tizimini amaliyot bilan kengroq bog'lanishini ta'minlash lozim. Germaniyada har bir maktabda fanlar amaliyot bilan bog'lab o'rganiladi. Nazariyot amaliyot bilan bog'langanda ishlab chiqarishdagi muammolar fan yutuqlari orqali yechilish tizimi yaratiladi.

Eng muhim tomonlaridan yana biri davlat xizmatiga ham sifatli kadrlar kirib kelishi ta'minlanadi hamda o'zaro bog'liq ravishda davlatning rivojlanishida o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, e'sh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan.
2. Anvar Xo'jaev, Singapur ta'lim tizimi: jahon maorifida etakchi brendga aylangan, Ma'rifat gazetasi, 11.01.2019
3. Vulfson B.F. Sravnitel'naya pedagogika M.: «Prosveteniye», 2003 g.

4. Friedrich Scheuermann and Francesc Pedty «Assessing the effects of ICT in education «Indicators, criteria and benchmarks for international comparisons». Retrieved 20.01.2016 from <http://www.csu.edu.au>
5. Ikromov A.B., Maxmudov S.Y., Anorqulova G.M. Germaniya: Ta‘lim, ilm-fan (metodik qo‘llanma) Kasb mahorati jurnali -2004-yil. 2 son.
6. A.Nosirov. Franziyada ta‘limga qanday nazorat qilinadi? “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali. 2019-yil. 12-son.
7. PISA. <http://www.education-medelle.com> (Xalkaro monitoring tizimining PISA dasturi). Retrieved 18.09.2016

ТРАНСФОРМАЦИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Сайфуллаева Мадина Исмаиловна,
преподаватель кафедры Экономики,
Цой Ираида,
студентка 2 курса,

Бухарский государственный университет

Аннотация. Статья посвящена актуальности цифровизации образовательного процесса, которая становится одним из важных составляющих современной системы высшего образования. Реформы во всех сферах экономики позволяют прогнозировать неизбежность стремительной цифровизации всех процессов (администрирование, управление, планирование, преподавание) в вузах.

Ключевые слова: Высшее образование, цифровизация, цифровое образование, цифровой университет.

Трансформация системы высшего образования в Узбекистане обеспечивает поднятие на новый уровень процесса подготовки высококвалифицированных кадров с современными знаниями соответствующим требованиям цифровой экономики.

Достижение поставленной цели должно быть осуществлено путем реализации Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года. Одной из задач данной Концепции является внедрение цифровых технологий и современных методов преподавания в образовательный процесс [2]. Цифровизация образовательного процесса становится одним из важных составляющих современной высшей школы, что стало очевидным благодаря пандемии в 2020 году.

Цифровые средства массовой информации играют все большую роль в современной жизни: сегодняшние студенты проводят много времени, просматривая интернет-страницы на мобильном устройстве или компьютере. Интернет и онлайн-поиск стал мощным инструментом, который помогает найти и изучить варианты обучения как потенциальным студентам, так и их родителям.

Цифровая среда в немалой степени способствует стиранию границ – обучающиеся зачастую чувствуют себя в ней увереннее, чем те, кто обучает, кроме того, возможность общения почти не привязана ни к стенам вуза (электронная почта, чат дисциплины, соцсети, zoom, видеочаты в мессенджерах), ни к рамкам рабочего времени. «Новая реальность» образовательной системы такова, что университет трансформируется из «камеры хранения» знаний, ключ от которой на время выдаётся студенту, в «холдинг», где все участники образовательного процесса взаимодействуют как партнёры [3].

Именно поэтому чтобы быть по настоящему конкурентоспособными в глобальном масштабе, вузы должны включать цифровые технологии в главную часть своей стратегии привлечения и маркетинга. Собственные интернет-ресурсы имеют сейчас ключевое значение, если университет хочет как минимум удержать свои позиции и, конечно же, в дальнейшем выйти на мировой уровень.

В рамках проекта «Цифровой университет» разработаны «Информационные системы управления процессами высшего образования» (HEMIS — Higher education Management Systems). Они включают в себя такие информационные системы, как «Административное управление», «Учебный процесс», «Расписание», «Научная деятельность» и «Финансовое управление и статистика». В вузах Узбекистана уже отказались от рейтинговых (зачетных книжек) и групповых журналов с 2021-2022 учебного года.

Начальный этап проекта информационных систем «Учебный процесс» и «Административное управление» начали внедрять в вузах, перешедших в 2020/2021 учебном году на кредитно-модульную систему.

В системах содержится информация о преподавателях и студентах (Student Record System) бакалавриата и магистратуры вуза. При этом каждый студент через свой профиль имеет возможность получать электронные ресурсы предметов, информацию о расписании занятий и контрольных, а также посещаемости и успеваемости.

Создание уверенного и стабильного присутствия в интернете, с видимостью в международном масштабе — довольно сложная задача. Особенно в условиях ограничений бюджета и финансирования на эффективный маркетинг своих программ. В виду этого проявляется необходимость обеспечения финансовой самостоятельности и стабильности, укрепление материально-технического обеспечения высших образовательных учреждений, которая также является одной из задач нового закона Об образовании и Концепции развития высшего образования Республики Узбекистан.

При этом не следует забывать что образование – это услуга, и как любая услуга, экономически она должна быть ориентирована на «клиента». В первую очередь рассматривается то что будет представляться клиенту перспективным, полезным, важным, достойным затраты материальных и временных ресурсов? От ответа на этот вопрос зависит направление перспективного развития вузовского образования.

Таким образом, опыт последних лет и реформы в системе высшего образования позволяют нам предположить, что неизбежна стремительная цифровизация большинства процессов в вузах – от администрирования до преподавания. Пандемия существенно ускорила совершенствование информационных образовательных систем и методов взаимодействия и вместе с тем заложила основы для унификации цифровых платформ дистанционного обучения (цифровые решения, разработанные вузами самостоятельно – под себя и для себя, существенно проигрывают массовым). Задачи цифровизации сегодня является обеспечение стабильного функционирования системы в любых условиях и возможности максимально быстрого перестроения основных процессов без привлечения человеческих и финансовых ресурсов.

Литература:

1. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» ЗРУ-637 23.09.2020
2. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» УП-5847 08.10.2019
3. Хаирова Д. Р., Сайфуллаева М. И. НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //Иновационные технологии в современном образовании. – 2017. – С. 393-396.
4. Сайфуллаева М. И. Влияние пандемии на туристический сектор Узбекистана //Экономика и социум. – 2020. – №. 11. – С. 1259-1262.
5. Sayfullaeva M. THE WAY FOR TOURISM REVIVAL IN UZBEKISTAN //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2. – С. 1311-1314.

IQTISODIY FANLARNI O'QITISHDA NOAN'ANAVIY USULLARNING AHAMIYATI

Turaeva Mastura Kurbanovna
Buxoro shaxar 23-IDUM

Iqtisodiy bilim asoslari fani oqituvchisi

Mamlakatimizda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlariga ega, bilimli, samarali mehnat qilishga qodir fuqarolar jamiyatning eng muhim boyligi va asosiy kapitali, uni harakatga keltiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. Aynan shu bois XXI asr - intellektual bilimlar asrida inson kapitaliga investitsiyalar yo'naltirishni ustuvor vazifa sifatida tanlagan mamlakatlarga yuksak taraqqiyotga erishishi mumkin. Faqat tom ma'nodagi bilimli jamiyatgina zamonaviy tahdid va muammolarni yengib o'tishga qodir bo'ladi. Bugungi kunda har qanday mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligi nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligiga, balki, birinchi navbatda, zamonaviy, muntazam yangilanib turgan texnologiyalarni o'zlashtirishga qodir yuksak bilimli va intizomli ishchi kuchini muntazam tayyorlashga bog'liqdir. Shu boisdan, zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yishda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida faoliyatimizning bosh mezoniga aylanmog'i darkor.

Talabalarga bilim berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati to'g'risida so'z borganda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "O'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik

ko‘rsatadigan o‘qituvchi va domlalariga e‘tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta‘lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko‘tarish diqqatimiz markazida bo‘lishi darkor”¹ degan so‘zlarini ta‘kidlash o‘rinlidir.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi bilan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash talablari ta‘lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. XX asrda, ayniqsa asrning ikkinchi yarmidan boshlangan ilmiy–texnikaviy revolyustiya tufayli axborotlar hajmining keskin ortib borishi bilan tayyor bilimlarni egallashga qaratilgan, asosan o‘qituvchining faol mehnatiga asoslangan an‘anaviy ta‘lim o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Hozirgi ta‘lim jarayonida zarur bilimlarni o‘quvchilarning o‘zlari qidirib topishi, mustaqil o‘rganishi va xulosa chiqarishiga imkon beradigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarga e‘tibor kuchayib bormoqda.

Kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlarida iqtisodiy fanlarini o‘qitishda zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta‘lim samaradorligini oshirish maqsadida amalda ta‘limning turli usul va vositalarni qo‘llashni tadbqiq etish uchun avvalo ta‘limning didaktik tamoyillari, ta‘lim shakllari, o‘qitish vositalarini inobatga olish muhim sanaladi. Jumladan, ta‘lim shakllaridan to‘g‘ri foydalanishni tashkil etishda ularni o‘quv jarayonida tutgan o‘rni hamda ularga qo‘yiladigan talablarga e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi.

O‘qituvchining pedagogik faoliyatidagi eng muhim funkstiyalaridan biri tashxisdir. O‘quvchini bilish metodikasini egallash o‘qituvchining kasbiy mahorati asosini tashkil etadi. O‘qituvchi tomonidan bu funkstiyani yuqori metodik darajada egallanishi o‘quvchilarni xususiyat va sifat ko‘rsatkichlarini to‘liq o‘rganishga imkon yaratadi.

Shu bilan birga pedagogik amaliyotni loyihalash va uni amalga oshirish uchun o‘qituvchi kasb-hunar kollejida o‘tiladigan mashg‘ulotlar turini yaxshi o‘zlashtirib olgan bo‘lishi lozim. Bularning hammasi o‘qituvchiga pedagogik faoliyatni talab darajasida amalga oshirishga yordam beradi.

Iqtisodiy fanlarni o‘rganishda talabalarning ijodiy fikrlarini rivojlantirishga ta‘sir ko‘rsatishi, sohaga oid tushunchalarni chuqur tushinishi, nazariy masalalar bilan amaliyotni bog‘lash mahoratini hosil qilishlari uchun ma‘ruza quyidagi asosiy talablarga javob berish kerak: ma‘lum bir yo‘nalishga, texnologiyaning asosiy qonunlari, jarayonlarini, taraqqiyotning muammolarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shuningdek, yosh avlodning dunyoqarashini shakllantirish, hayot kechirish tarzini tanlashning tarbiyaviy ahamiyatini ioshirishi lozim. Ilmiyligi jihatdan nazariya asoslarini amaliyot bilan, masalaning qo‘yilishini ilmiylik bilan hamda iqtisodiyotning yangi dolzarb masalalariga ijodiy yondashish bilan, nazariy dalillarning mantiqiylik bilan uzviy birligi ta‘minlanishi kerak.

Shunday qilib, akademik listey, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurti o‘qituvchilari dars o‘tishda, albatta, o‘quv yurtining, undagi ta‘lim oluvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishlari, shu bilan birga, ularni darsga faol qatnashishlarini ta‘minlovchi, tafakkurni o‘stirishga, rivojlantirishga qaratilgan o‘quv metodlarini qo‘llashga e‘tibor berishlari lozim.

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interfaol metodlar, innovastion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishining sababalaridan biri, shu vaqtgacha an‘anaviy ta‘limda o‘quvchi- talablarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rganilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganishlariga, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funkstiyasini bajaradi. Shuning uchun ta‘lim muassasalarida zamonaviy o‘qitish metodlari, interfaol metodlar, innovastion texnologiyalarning o‘rni va roli benihoya kattadir.

TA‘LIMNING BOSH MEZONI BU TA‘LIM MAQSADIDIR

Turaeva Mastura Kurbanovna

Buxoro shahar 23-IDUM

Iqtisodiy bilim asoslari fani oqituvchisi

ANOTATSIYA: Mazkur maqolada ta‘lim tizimi maqsadi, jamiyatning rivojlanish sur‘ati, darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda rivojlanish istiqbollari yoritilgan.

¹ Ўзбекистон Конституцияси — биз учун демократик тараққиёт йўлида ва фуқаролик жамиятини барпо этишда мустақкам пойдевордир. — Президент Ислам Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 17 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси // Халқ сўзи, 2009 йил 6 декабрь.

РЕЗЮМЕ: В статье раскрывается цел системы образования, темпы и уровень развития общества, потребности и возможности общества, а также перспективы развития.

SUMMARY: Cet article décrit l'objectif du système éducatif, le rythme et le niveau de développement de la société, les besoins et les opportunités de la société et les perspectives de développement.

Tayanch iboralar: ta'lim tizimi, ma'naviy ruhiy yuksalish, axloqiy poklanish, jamiyatning rivojlanish sur'ati, madaniy boyish, jamiyatning talablari.

Ключевые слова: система образования, духовный рост, нравственное очищение, темпы развития общества, культурное обогащение, потребности общества.

Mots clés: système éducatif, croissance spirituelle, purification morale, rythme de développement de la société, enrichissement culturel, exigences de la société.

Ta'lim maqsadi jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasi bog'liq. Ta'lim maqsadi o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati asosida, shuningdek, ta'lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo'naltirilgan mexanizm ishga tushadi.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya hisoblanib, u boshlang'ich ta'limning bosh mezoni sanaladi. Ta'lim umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi davlatimizda 1-4-sinflarni qamrab oladi. Unda ta'lim berish, ularni aqliy, ma'naviy, jismoniy kamol toptirishning dastlabki bosqichi sanaladi. ta'lim Davlat ta'lim standartida belgilangan maqsad orqali amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim standartining maqsadiga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma'naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Ta'lim Davlat ta'lim standarti - ta'lim mazmuni va ushbu o'quv predmeti bo'yicha o'quvchilar egallaydigan bilim, ko'nikma, malakalarga qo'yilgan talablarni davlat tomonidan tasdiqlangan etaloni, modeli hisoblanadi. Ta'lim jarayonida belgilanadigan ta'lim maqsadi umumiy o'rta ta'limning DTSda keltirilgan umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni amalga oshiradi:

- umumiy o'rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- o'quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;
- ta'lim va uning pirovard natijalari, o'quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek, ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Ta'lim maqsadini o'rganish birinchi navbatda "ta'lim"ning mazmuni bilan yaqindan tanishish lozimligini anglatadi. Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Talim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi.

Talim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish. va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi.

Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib borgan.

Maqsad esa – muayyan natijaga erishish yo'l va usullarini belgilovchi omildir. Ta'limning maqsadi obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o'zgarib borgan kabi, ta'limning xarakteri, yo'nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o'zgarib boradi.

Ta'limning maqsadiboshlang'ich ta'lim o'quvchilarning bilish qobiliyatini o'stiruvchi asosiy omildir. O'quvchilar qobiliyatini o'stirishga qaratilgan tizimlar muayyan didaktik qoidalar tarzida namoyon bo'ladi. Didaktik tamoyillarda ta'limning mazmuni va jarayonlariga qo'yilgan talablar belgilanadi.

Talimning maqsadi va vazifalari ijtimoiy tuzum, shuningdek, muayyan o‘quv yurtlari funksiyasiga muvofiq tarixan o‘zgarib boradi.

Ta‘lim mazmuni uning maqsadiga muvofiq, ijtimoiy shart-sharoit, fan va texnika, san‘at holati va shu kabilarni hisobga olgan holda belgilanadi. Ta‘lim jarayonida ta‘lim maqsadi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim:

- Ta‘lim jarayonida qo‘yiladigan talablarning avvaldan fikran loyihalashtirish;
- ijtimoiy zarurat, ijtimoiy talab, ijtimoiy buyurtma hamda didaktik masalani aniq belgilash;
- ta‘limning umumiy va xususiy maqsadini amalga oshirishda ta‘lim shakl, metod va vositalarini to‘g‘ri tanlash;
- ta‘limning tur va bosqichlarida maqsad va uzviyligini ta‘minlash.

Ta‘lim maqsadi ta‘limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi vazifalarni amalga oshiradi. Ta‘limda belgilangan ta‘lim maqsadi har bir pedagogik texnologiyani yaratishga asos bo‘lib hisoblanadi. Maqsadning zamonaviy ta‘lim va tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik bilan hal qilishga qaratilgan bo‘lishi zarur asos hisoblanadi. Biror pedagogik texnologiyani yaratish uchun eng zarur shart shunday dolzarb maqsadni aniqlay olishdan iborat. Bunday maqsad zarur tadqiqotlar, ijodiy izlanishlar olib borish, o‘zining va boshqa mutaxassislarining ish tajribalarini chuqur tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Raqobatbardoshlik har bir boshlang‘ich ta‘limda pedagogik texnologiyaning maqsadga muvofiqligini taraqqiyot nuqtayi nazaridan aytganda, o‘z vazifalarini ijtimoiy ehtiyojlariga muvofiq bajarayotganligi darajasini belgilaydi. Bunday maqsadlarning yuqori raqobatbardoshlikni ta‘minlashga yo‘naltirilishi hozirgi talablardan kelib chiqadi.

Raqobatbardoshlik boshlang‘ich ta‘limda pedagogik texnologiyaning barcha tarkibiy qismlari uchun eng zarur shart bo‘lib, bunda yakuniy natijani bevosita tayyorlovchilar bo‘lgan o‘qituvchi va o‘quvchining raqobatbardoshligiga erishish asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Bu unga bo‘lgan talab yuqori bo‘lishini ta‘minlash uchun muntazam takomillashtirib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, ta‘limning ta‘lim maqsadi ilmiylik, tushunarliklik, ko‘rgazmalilik, insonparvarlik, tizimlilik kabi tamoyillarga tayangan holda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Aniq qo‘yilgan maqsad kelajak poydevoridir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pedagogika. M. Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida (Darslik). – T., 2010.
2. Iragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi (o‘quv qo‘llanma). - T., 2008.
3. Хасанбоев Ж, Тўракулов Х., Хайдаров М., Хасанбоева О. Педагогика фанидан изохли лугат. – Т., 2008.

MUNDARIJA

Kirish so'zi	3
I sho'ba. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va investitsiya muhitini yanada yaxshilashning ustuvor yo'nalishlari.	4
MILLIY VA GLOBAL IQTISODIYOTNI O'SISHINI TA'MINLOVCHI OMILLAR VA MUAMMOLARI. O.X.Hamidov	5
ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ. Суннатов Ю.У. Хомидов С.О.	8
ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSİYALARNING IQTISODIY MONIYATI. Isomov Bekmurot Sayfiddinovich	13
ИНВЕСТИЦИЯЛАР ИҚТISODIЙ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МУҲИМ КЎРСАТКИЧЛАРИ. Раджапбай Дусмуратов.....	19
О'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOT JARAYONLARI VA MUAMMOLARI. Jiyanov Laziz Nizomovich	23
ЧЕТВЕРТАЯ ПРОМЫШЛЕННАЯ РЕВОЛЮЦИЯ И ЕЕ ОТВЕТ. Канг Хи Чон, КОИСА, Южная Корея	25
О'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO'LIDA INVESTITSION MUHITNI IQTISODIY VA HUQUQIY JIHATDAN YANADA YAXSHILASH YO'NALISHLARI. Mamatqulov Murod Mustafaqulovich	30
XUSUSIY SEKTORGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. Qosimova Lola Sultanovna	32
MINTAQALARDA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA INVESTITSIYA SIYOSATINING AHAMIYATI. Toxirov Dilyor Davlatovich	34
БОЗОР ИҚТISODIЁТИ ШАРОИТИДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИҲАЛАР ВА УЛАРНИ БАҲОЛАШ. Юсупова Нигина Джураевна	38
О'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida YaIM ning hisyasi. Abdullayeva Hilola Nutfilloyevna	40
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MODELLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI. Olimova Nodira Xamrakulovna, i.f.n., dotsent, Djuraboyeva Diyora Muzaffar qizi	43
IQTISODIY BARQARORLASHTIRISH SIYOSATINI YURGIZISHDA MAKROIQTISODIY DASTURLARDAN FOYDALANISH ASOSLARI. Olimova Nodira Xamrakulovna	44
REAL SEKTOR KORXONALARINI QO'LLAB- QUVVATLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI. Yuldashev Doniyor Tairovich	46
ЕнгиЛ саноат корхоналари ракобатбардошлигини стратегик параметрларини шакллантиришнинг асоси. Рахмонов Хуршид Хайриддинович.....	47
II sho'ba. Mintaqalarni barqaror rivojlantirish va ularning turistik salohiyatidan samarali foydalanishning dolzarb masalalari.....	55
AGROPOLIS O'ZBEKISTON UCHUN ERKIN IQTISODIY ZONALARNING SAMARALI SHAKLI. Khamroev Khalim	56
О'ZBEKISTONDA MUSTAQIL TURIZMNI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA HOZIRGI HOLATI. Ibragimov Nutfillo Salimovich, Yuldashev Kamol Sharifovich.....	59
ВОПРОСЫ ИНВЕСТИРОВАНИЯ ЭКОНОМИКИ ТУРИЗМА. Исомов Бекмурот Сайфиддинович	61
О'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. Olimova Nodira Xamrakulovna, Kamoldinov Mirzohid Muzaffar o'g'li	72
ПОЛИТИКА РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. Умаров Аббос.	73
AGROTURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING QISHLOQ HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI. Sayfulloyev Oybek Olimovich	77
РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В МИРЕ. Арипова Махлиё Салахиддиновна.....	80
TYPES OF SERVICES IN THE HOTEL INDUSTRY AND ITS IMPACT IN COMPETITIVENESS. Istamkhujja Olimovich Davronov	83

RAQOBATBARDOSH MUHITDA MEHMONXONALARDA SIFATLI XIZMAT KO‘RSATISHNING MUHIM JIHATLARI. <i>Davronov Istamxo‘ja Olimovich</i>	85
RAQAMLI TRANSPORT XIZMATLARI SIFATINI MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANIB OSHIRISH (UzTransport va UzTmyBus mobil ilovalari misolida). <i>Farmanov Erkin Alimovich</i>	87
O‘ZBEKISTONNING EKOTURIZM RESURLARI: KAMCHILIK VA ISTIQBOLLARI. <i>Ruziyeva Maxbuba Tulkinova, Maxmadiyev Abdukarim To‘xtamish o‘g‘li.</i>	90
ЖАҲОНДА ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИНИНГ РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ. <i>Тухтаев Умиджон Шухратович</i>	91
ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ-ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРИ. <i>Тухтаев Умиджон Шухратович</i>	93
WELLNESS TURIZMI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI. <i>Alimova Shaxnoza Oktyamovna</i>	98
BUXORO DESTINASIYALARIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TUROPERATORLAR FAOLIYATI TAHLILI. <i>Ashurova Maftuna Sharifovna</i>	100
BUXORO VILOYATIDAGI DIQQATGA SAZOVOR JOYLARGA TRANSPORT XIZMATLARI VA HARAKATCHANLIGI TAHLILI. <i>Axmatova Mohigul Ergash qizi</i>	102
MINTAQADA TURIZMNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH MASALALARI. <i>Kadirova Shafoat Xabibulloyevna</i>	104
PROSPECTS OF MARKETING COMMUNICATION TOOLS FOR CULTURAL TOURISM IN UZBEKISTAN (BUKHARA REGION) <i>Radjabov Odil Olimovich, Mambetkadirova Gulnar</i>	105
TURISTIK OQIMNING O‘SISHIDA TRANSPORTLARNING AHAMIYATI. <i>Kadirova Shafoat Xabibuloyevna</i>	108
MEHMONXONA BIZNESIDAGI MARKETING FAOLIYATINING MOHIYATI. O‘roqova Dilfuza <i>Bahriddinovna, Sadikova Nargiza Maxsudovna</i>	110
ONLINE TURISTIK BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING STRATEGIYASI VA ISTIQBOL PARAMETRLARI. <i>Nasriddinov Shohrux Zayni o‘g‘li.</i>	112
DÉVELOPPER LE TOURISME EN FRANCE EST UNE PRIORITÉ. <i>Ivan Samson</i>	114
O‘ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA UNDA SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI. <i>Malikova Shoirax Baxtiyorovna</i>	115
TURIZMNI RIVOJLANTIRISH DOLZARB MASALA. <i>Axrorova Nafisabonu Olimjonovna</i> ..	118
DIGITALISATION AND SUSTAINABLE TOURISM: ENHANCED BENEFITS. <i>Sayfulayeva Madina Sirojiddinovna</i>	120
HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARI BOZORIGA XIZMAT KO‘RSATISHNING RIVOJLANISHINI HOZIRGI DARAJASI. <i>Ergasheva Aziza Farmonovna</i>	122
EN 2020, 100% DES TOURISTES SERONT PARTIS. <i>François Perroy</i>	124
Turistik destinatsiyalar mohiyatiga yondashuvlar va turistik destinatsiyalar shakllanishining nazariy- uslubiy jihatlari. <i>Hamidov Saidjon Komilovich</i>	126
Turizm xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni oshirishda marketing strategiyalari. <i>Qodirov Azizjon Anvarovich</i>	129
O‘ZBEKISTONDA SANATORIYALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. <i>Umirov Jasurbek Temirquliyevich.</i>	133
TURISTIK RAQOBATBARDOSHLIKNI TA‘MINLOVCHI KOMPLEKS CHORA-TADBIRLARNI ISHLAB CHIQUISH (“AUTHENTIC TRAVEL” MCHJ misolida) <i>O‘roqova Dilfuza Bahriddinovna</i> ...	136
III sho‘ba. Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash va ularning energiya samaradorligini oshirish	139
BUXORO VILOYATIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI ISHLAB CHIQUARISHINING EKOLOGIYALASHTIRISH DARAJASINI OSHIRISH. <i>D.Sh.Yavmutov.</i>	140
QISHLOQ XO‘JALIGIDA AGROSANOAT KLASTERINI TASHKIL ETISH METODIKASI. <i>A.J.Abdulloyev</i>	143
QISHLOQ XO‘JALIGINI KLASTERLASHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI. <i>A.J.Abdulloyev</i>	146
O‘ZBEKISTONDA QURILISH KORXONALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI. <i>Boltayev Umidjon Talant o‘g‘li</i>	148
MAMLAKATIMIZDA PULLAR TAKLIFINI TARTIBGA SOLISH VA MILLIY VALYUTANI BARQARORLASHTIRISH MASALALARI. <i>Olimova Nodira Xamrakulovna, Sotvoldiyev Nurmuhhammad Nematjonovich</i>	150

KORPORATIV BOSHQARUVNING O'ZBEK MODELI. Maftuna Salimovna.....	151
TASHQI SAVDO FAOLIYATINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI. Ergashev Mirjon Yorqin o'g'li.....	154
KORXONA BOSHQARUVIDA KADRLAR SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH. Do`stova Aziza Qahramonovna	159
DUNYO MIQYOSIDA OILAVIY MULKCHILIKKA ASOSLANGAN KORXONALAR TAHLILI. Jurayev Navruz Jurayevich.....	162
QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISHNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI. YAVMUTOV DILSHOD SHOIMARDONKULOVICh , Burxonov Sardorjon Nasulloevich.....	163
Iqtisodiyotni "yashil iqtisodiyot" asosida samarali rivojlantirish. Qosimova Hilola Jamshedovna. Saidova Mahliyo Oqil qizi	165
O'zbekistonda aholi bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ta'siri. <i>Narzullayeva G.S. Sobirova Nodira</i>	168
IV sho'ba. Respublikada moliya va bank tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari.....	173
РАЗВИТИЕ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ ОСНОВЫ ФИНАНСОВО-КРЕДИТНОЙ СИСТЕМЫ – ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ФАКТОРОВ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОЛОГИИ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПРИОРИТЕТОВ ЕЁ РАЗВИТИЯ. Шохаъзамий Ш.Ш, Суннатов Ю.У.	174
O'ZBEKISTONDA NAQD PULSIZ HISOB –KITOBLARNING TAKOMILLASHTIRISH. <i>Kuliyev N.X., Isomov B.S.</i>	177
ФИНАНСЫ В ЭКОНОМИКЕ РЫНОЧНОГО ХОЗЯЙСТВА. Латипова Мадина Зариповна.....	179
IMPROVING THE ANALYSIS OF FINANCIAL CONDITION OF BUSINESS ENTITIES. Shoha'zamiy Shohmansur Shohnazir o'g'li , Sunnatov Yusuf Usmonovich	180
DAVLAT TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA ICHKI MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL QILISH MASALALARI Kuliboyev Azamat Shonazarovich	186
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕТНОЙ ПОЛИТИКИ В ТУРИСТИЧЕСКИХ КОМПАНИЯХ. Уракова М.Х, Негматов М.Ш.....	187
TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI BANKLAR TOMONIDAN KREDITLASH BO 'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI. Sotvoldiyev Nurmuhammad Nematjonovich	190
KAMBAG' ALLIK VA UNI O'ZBEKISTONDA BAHOLASHGA YONDOSHUVLAR. R.A. Achilova	192
Davlat byudjeti tarkibi va uni takomillashtirish yo'llari, <i>Tolibova Aziza To'lqinovna</i>	193
V sho'ba. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini moddiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish.....	198
АХОЛИНИ ИJTIMOIY HIMOYAGA MUHTOJ TOIFALARI BILAN ISHLASHNI TAKOMILLASHTIRISHDA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATINI ENG MUHIM SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI ASOSIDA BAHOLASH TIZIMINING AHAMIYATI. Zafar JUMAEV, Alijon AXADOV, Fotima MUXSINOVA	199
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARIGA MALAKA DARAJALARINI BERISH: QONUNCHILIK ASOSLARI VA XORIJIY AMALIYOT. Zafar JUMAYEV, Alijon AXADOV,	202
O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorining shakllanishi va ishsizlik. Axmedova Farangiz	206
VI sho'ba. Respublikada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning dolzarb masalalari va ustuvor yo'nalishlari.....	210
ИННОВАЦИИ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ. Кайимова З.А, Умарова Хулкар.	211
SAMARALI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KLASTER ASOSIDA TASHKIL QILISHNING AHAMIYATI. Malikova Shoira Вахтиyorovna	212
ЦЕЛЕСООБРАЗНОСТЬ И ПРАКТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ РАЗВИТИЯ КЛАСТЕРОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. Худайбердиева Ойша Курбоновна	216
O'ZBEKISTONDA BOZOR IQTISODIYOTINING SHAKLLANISHI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	220

ОСНОВЫ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ, РИСКИ СВЯЗАННЫЕ С НЕЙ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕЕ РАЗВИТИЯ В СФЕРЕ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ. Нарзуллаева Гулчехра Салимовна, Бакаева Мохира Ахроровна, Шадиева Мадина Джалолиддин кизи	221
MARKETINGNI RIVOJLANTIRISHDA INTERNET KOMMUNIKATSIYALARINING O‘RNI. Мохинисо Омонова Максуд кизи	224
VII sho‘ba. Ta‘lim va iqtisodiyot: nazariya va amaliyot uyg‘unligi.....	227
MAMLAKAT TARAQQIYOTIDA OLIY TA‘LIMNING O‘RNI. Dilova Nargiza G‘aybullayevna ...	228
TA‘LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XUSUSIY MAKTABLARNING O‘RNI. <i>Kobilova Hilola Maxmudjonovna</i>	231
LE SYSTEME DE L’EDUCATION NATIONALE EN FRANCE. Michèle BOUYSSOU.	233
TA‘LIM TIZIMINI BOSHQARISH VA TA‘LIM XIZMATLARI BOZORINI INNOVATSION RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILLARI VA USULLARI. Hayitov S.S, Bakaeva Sh	235
O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA‘LIM – MUAMMO VA YECHIMLAR. <i>Kobilova Zilola Maxmudjonovna</i>	236
OLIY TA‘LIM TIZIMINI STRATEGIK BOSHQARISHDAGI XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN MAHALLIY DARAJALARDA FOYDALANISH YO‘LLARI. Muxtorov Shavkat Qodirovich.....	238
TA‘LIMDA O‘QUVCHILARNI FANGA QIZIQTIRISHDA OPTIMAL USULLARDAN FOYDALANISHDA “OMADLI ZARIKCHALAR” METODI. Botirova Oydina Akbaraliyevna...	241
TA‘LIM BIZNESIDA RAQAMLI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING MUAMMOLARI. <i>Savrieva Madina Hakimovna</i>	244
SIFATLI TA‘LIM UCHINCHI RENESSANSNING POYDEVORI SIFATIDA; XORIJIY TAJRIBA VA TAVSIYALAR. Fotima Muxsinova, Zafar JUMAYEV, Alijon AXADOV	246
ТРАНСФОРМАЦИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ. Сайфуллаева Мадина Исмаиловна, Цой Ираида	250
IQTISODIY FANLARNI O‘QITISHDA NOAN‘ANAVIY USULLARNING AHAMIYATI. Turaeva Mastura Kurbanovna	251
TA‘LIMNING BOSH MEZONI BU TA‘LIM MAQSADIDIR. Turaeva Mastura Kurbanovna	252